- civilize** [siv(ə)la:z] *v* madaniylashtirmoq
- civilized** [siv(ə)la:zd] *a* madaniyatli
- civilly** [siv(ə)li] *adv* xushmuomalilik bilan
- clabber** [klæbə] *1.* *n* chuchuk qatiq; 2. *v* achimoq, achib qolmoq (*sut haqida*)
- clack** [klæk] *1.* *n* qars-qurs, qasir-qusur; 2. *v* qarsillamoq
- clad** [klæd] *1.p. p. clothe; 2. a* kiyangan, libosli

claim [kleim] 1. n talab, talabnoma; 2. v talab qilmoq	clarify [klærifi] n 1) aniqlik, ravshanlik 2) ozodalik, tozalik; tiniqlik
claimant [klermənt] n da'vo qiluvchi, da'-vogar, talabgor	clash [klæʃ] 1. n to'qnashish; 2. v to'qnashishmoq
clairvoyance [kleə'veɪəns] n oldindan bilish	clasp I [kla:sp] 1. n ilgak, ilma, tugma; 2. v tugmalarni (ilgaklarni) qadamoq (solmoq)
clairvoyant [kleə'veɪənt] a oldindan ko'ra oladigan (bila oladigan), uzoqni ko'ra ola-digan	clasp II [kla:sp] v tasnif qilmoq
clam [klaem] 1. n ikki pallali molluska; 2. v amer. so'zl. gapni aylantirmoq, gapni boshqa yoqqa burmoq, javob berishdan bosh tortmoq	clasp-knife [kla:spnaif] n buklama pichoq
clamant [klaemənt, 'klermənt] a shovqinli	clasp-pin [kla:spin] n soch to'g' nag' ich
clamber ['klaembə] 1. n o'malamash, tirmashish; 2. v o'malamoq, tirmashmoq	class I [kla:s] n sinf (jamoaga) oid; a working - ishchilar sinfi; a ~ struggle sinfiy kurash
clambering plant ['klaembəriŋ,pla:nt] n chirmashadigan o'simlik	class II [kla:s] n 1) biol. sinf, turkum; 2) sinf (maksiyatda); 3) dars (mashg'ulotlar)
clamminess ['klaemnəs] n yopishqoqlik; shiradorlik	class-book ['kla:sbuk] n darslik
clammy ['klaem] a yopishqoq; shirador	class-conscious [kla:s'kɔnfəns] aqli (ongi) bor, aqli, ongli
clamor ['klaemə] = clamour	class-consciousness [kla:s'kɔnfənsas] n sinfiy ong
clamorous ['klaem(ə)rəs] a shovqinli	class-fellow ['kla:s,feləu] n sinfdosh
clamour ['klaemə] 1. n shovqin-suron; 2. v baqirmoq; to ~ against nimagadir qarshi chiqmoq; to ~ down (baqirib) im bo'ishga majbur qilmoq; to ~ for talab qilmoq	classic ['klaesik] 1. a klassik, eng ajoyib; mumtoz; 2. n klassik (asarlarning qiyomi, ahamiyati jihatidan manzur bo'lgan fan, san'at yoki adabiyyot arbobi)
clamp [klaemp] 1. n 1) tutqich, dasta (chelak, sandiq va h. k. da); 2) qisqich, iskanja; 2. v qisqmoq, siqmoq	classical ['klaesik(ə)l] a klassik; mumtoz
clan [klaen] n urug' jamoasi; urug' -aymoqlar (qadimiyy shotlandiyalikdarda)	classification ['klaesifi'keɪʃ(ə)n] n tasnif (sinflarga bo'lish, turkumlarga ajratish)
clandestine [klaen'destin] a maxfiy; yashirin	classify [klaesifai] v tasnif qilmoq
clang [klaen] 1. n jiringlash, jaranglash; 2. v juringlamoq, jaranglamoq	classless ['kla:sles] a sinsiz
clank [klaenk] 1. n (zanjirning) jiringlashi; 2. v jaranglamoq	class-mate ['kla:smeit] n sinfdosh
clannish [klaenɪʃ] a urug' -aymoqqa oid, avloddan avlodga o'tib kelgan	class-room ['kla:srum] n sinfxona
clap [klaep] 1. n chapak, qarsak; chapak (qarsak) chalish; 2. v qarsak (chapak) cnaloq; qarsak chalib olqishlamoq	classy ['kla:si] a so'zl. eng yaxshi; a'lo darajali
clap-net [klaepnet] n qushlar uchun qo'yiladigan tuzoq	clastic ['klaestik] a geol. siniq, chaqiq
clapper ['klaepə] n qo'ng'iroq tili (osil-chog'i)	clatter ['klaet] n taqillagan ovoz, taq-tuq, taqillash; gumburlash
clapperclaw ['klaepklo:] v tirnamoq	clause ['klaʊz] n gram. gap
claptrap ['klaeptræp] n balandparvoz gap	clave [kleiv] past of cleave II
claret ['klaerət] n qizil vino (klaret).	clavecin ['klaev(i)sin] n mus. klavesin (fortopyanoga o'xshagan qadimiy cholg'u asbob)
clarification [,klaerifi'keɪʃ(ə)n] 1) aniq (ravshan) qilish; 2) tozalash.	clavicle ['klaevik(ə)l] n anat. o'mrov, o'mrov suyagi
clarify ['klaerifai] v oydinlashtirmoq, ravshanlashtirmoq	clavicular [kla'vekjułə] a anat. o'mrovga oid
clarinet [,klaer'i'net] n mus. klarinet (surnayga o'xshagan musiga asbobi)	clavier ['klaeviə] n klaviatura (klavishlar majmuyi)
clarinetist [,klaer'i'netist] n klarinet chaluvchi sozanda	claw I [kla:] 1. n (hayvon va qushlarda) tirmoq, panja, changal; 2. v timdalamoq
	claw II [kla:] v koptok qilib o'ramoq
	clay [klei] n 1) loy; 2) sho'rxok, tuproq
	clayey ['klei] a loyli, loy tuproqligi
	clean [kli:n] a toza, pokiza, ozoda
	clean-cut [,kli:'kʌt] a yaqqol; aniq
	cleaner ['kli:nə] 1. n 1) tozalash (yig'ish-tirish) uchun qo'llaniladigan vosita; 2) tozalovchi, farosh; 3) yig' ishtiruvchi, supuruvchi; 2. v tozalamoq

- clean-fingered** [kli:n'fingəd] *a* sotilmaydi-gan (*poraga yurmaydigan*)
- clean-handed** [kli:n 'hændid] *a* begunoh, aybsiz; halol, vijdonli
- cleaning** [kli:nɪŋ] *n* tozalash, yig'ishtirish
- clean-limbed** [kli:n'lɪmd] *a* qad-qomati kelishgan, xushqad, xushbicim
- cleanliness** ['klenɪnɪs] *n* tozalik, ozodalik
- cleanly** [kli:nli] *1. a* toza, ozoda; *2. adv* to-zalab, ozoda qilib
- cleanness** [kli:nnes] *n* tozalik, ozodalik, pokizalik
- cleanse** [klenz] *v* tozalamoq, artmoq
- clean-shaven** [kli:n 'sev(ə)n] soch-soqolni toza qirdirgan, pokiza
- clean-up** [kli:n,Ap] *n* tozalash; yig'ishti-rish
- clear** [kli:s] *a* 1) ochiq, tiniq, sof, toza; ~ **weather** ochiq havo; 2) aniq, ravshan; ~ **letters** aniq harflar; 3) tushunarli; *2. v* tozalamoq; **to ~ away** stolning ustidan olib qo'yamoq; **to ~ out** tozalamoq
- clearance** [kli:(ə)rans] *n* tozalash
- clear-cut** [kli:(ə)kət] *a* aniq, ochiq, rav-shan
- clearing** [kli:(ə)rɪŋ] *n* o'rmon, daraxtzor ichidagi daraxtsiz maydon
- clearing-off** [kli:rɪŋ of] *n* 1) to'lash, to'lov; *2) hisob, hisoblash*
- clearly** [kli:hli] *adv* aniq, muqarrar; shuh-hasiz
- clear-sighted** [kli:s 'saɪtɪd] *a* uzoqni ko'ra oladigan, ziyrak; hushyor
- cleat** [kli:t] *n tex.* qisqich, klemma
- cleavage** ['kli:vɪdʒ] *n* 1) yorilish, tilinish; *2) bo'shiq, masofa*
- cleave I** [kli:v] *v* (**clove, cleft; cloven, cleft**) yorilmoq, parchalanmoq
- cleave II** [kli:v] *v* (**clave; cleaved; cleaved**) sodiq bo'lib qolmoq
- cleaver** [kli:ve] *n* qassobning katta pichog'i
- clef** [klef] *n* muz. kalit, ochqich
- cleft** [kleft] *n* yoriq, yorilgan yer
- cleg** [kleg] *n* so'na
- clem** [klem] *v dial.* och qolmoq
- clematis** [klemətis, kl'mətis] *n bot.* ilono't, ionpechak
- clemency** [klemənsi] *n* mehribonlik, rahm, shafqat
- lement** ['klement] *a* rahmdil, shafqatli; mehribon
- clench** [klenč] *1. n* (*mushtni*) siqish; *2. v* (*mushtni*) siqmoq
- clergy** ['kla:dʒi] *n* ruhoniylar
- clergyman** ['kla:dʒimən] *n* (*pl -men [-mən]*) ruhoni, monax
- cleric** ['klerik] *n* 1) taqvodor; *2) ruhoni*
- clerical** ['klerik(ə)] *n* idora xizmatchisi
- clerk** [kla:k] *n 1)* arnaldor, mansabdor; *2) ko-tib*
- clerkly** ['kla:klı] *n* kotiblik vazifasi
- clever** ['klevə] *a* 1) aqli, fahm-farosatl; *2) qobiliyatli; 3) epchil, chaqqon*
- cleverness** ['klevənəs] *n* 1) epchillik, chaqqonlik; *2) qobiliyat, talant*
- cliche** ['kli:sei] *n* siyqasi chiqqan (chaynal-gan, shablon bo'lib qolgan, bir qolipdag'i) so'z, ibora va h. k.
- click** [klik] *1. n* shaqirlash, qarsillash (*eshik, zanjir haqida*); *2. v* qarsillatmoq, tarsillat-moq
- client** ['kla:ənt] *n* mijoz (xaridor, buyurt-machi va h. k.)
- clientage** ['kla:əntɪdʒ] *n* mijozlar
- clientele** [kli:an 'tel] *n* xaridor, buyurtma-chi, iste'molchi
- cliff** [klf] *n* tik qoya
- climate** ['klaɪmɪt] *n* iqlim
- climatic** ['klaɪ 'mætɪk] *a* iqlimga oid, iqlim bilan bog'liq bo'lgan
- climatology** [klaɪ'ma:tɒlədʒi] *n* iqlimshu-noslik
- climax** ['klaɪmæks] *1. n* eng yuqori nuqta; *2. v* eng yuqori nuqtaganacha bormoq
- climb** [klaɪm] *n* ko'tarilish, chiqish
- climb-down** [klaɪm'daʊn] *n* 1) qiya, qiyalik; *2) (bahsda)* past kelmoq, yon bermoq, tan bermoq; 3) kamshitish, yerga urish, xo'rash; kamshitish, xo'rلانish, tahqirlash; xo'rlik, haqorat
- climber** [klaɪmə] *n* alpinist (*alpinizm bilan shug'ullanuvchi sportchi*)
- clinch** [klinč] *1. n* qisqich, iskanja; *2. v* par-chinlamoq, parchinlab qo'yamoq
- cling** [klin] (**clung**) *v* (*bir narsaga*) yopishib olmoq; yopishmoq; yopishib qolmoq (*loy haqida*)
- climestone** ['klin,steɪn] *n* danagi ajralmay-digan shaftoli
- clingy** ['klini] *a* yopishadigan
- clinic** [klinik] *n 1)* klinika (*kasallarni davolash bilan birga o'quv va ilmiy-tekshirish ishlari ham olib boriladigan kasalxonasi*); *2) shifoxona, kasalxona*
- clinical** ['klinɪk(ə)] *a* klinikaga oid, klini-kadagi
- clink** [klinč] *1. n* jaranglash; *2. v* jarangla-moq
- clinking** ['klinɪkɪŋ] *a* jaranglaydigan
- clip I** [klip] *1. n* qisqich; *2. v* (*qog'ozlarni*) biritirib mahkamlab qo'yamoq
- clip II** [klip] *1. n* (*soch, junni*) kesish, qir-qish; *2. v* sochini olmoq
- clipper** ['klipə] *n* qaychi

- clippings** [klipinç] *n pl* gazetadan qirqib olingen parchalar
- clique** [kli:k] *n fr.* niyati buzuq kishilar
- cloak** [klaʊk] *n*plash
- cloak-room** [klaʊkrū:m] *n* yechinish joyi (*ust-bosh yechib qo'yiladigan joy; ust-boshxona*)
- clobber** [klobə] *v* qattiq urmoq
- clock** [klok] *1. n* soat (*devor, minora, stolda turadigan*); *2. v sport* vaqtini ko'rsatmoq
- clock-case** [klokkeis] *n* soat g'ilofi
- clock-face** [klokfeis] *n* siferblat (*soating ragamlar, yozuvlar va sh. k. helgilar yozilgan plastinka qismi*)
- clockwise** [klokwaiz] *1. a* soat mili bo'yicha harakat qiluvchi; *2. adv* soat mili bo'yicha
- clock-work** [klokwɔ:k] *1. n* soat mexanizmi; *2. a* burab yurgiziladigan
- clod** [klod] *n* 1) yumaloqlangan tuproq (*kesak*); 2) katta bo'lak, palaxsa
- cloddish** [klodfiʃ] *a 1)* qo'pol, beso'naqay; *2)* ahmoq, tentak
- clodhopper** [klod,hope] *n* qo'pol odam
- clog** [klog] *1. n* to'siq; *2. v* to'sqinlik qilmoq
- cloggy** [klogi] *a* serkesak, kesakli, yumaloq-yumalog
- cloister** [kloistə] *n* monastir (*tarki dunyo qilgan xristianlar – monaxlarning muayan qoida va me'yorlarga amal qilib yashovchi diniy jamoaga qarashli cherkov, turar joy, yer-mulk*)
- cloisterer** [kloist(ə)rə] *n* rohib
- cloistress** [kloistrɪs] *n* rohiba
- cloop** [klu:p] *n* shishaning og' zidagi tiqinni (qopqoqni) ochayotgan paytda paydo bo'ladigan ovoz
- close** [klaus] *1. a* yopiq; *2. adv* yaqin joyda; *3. n* oxir, intih; *4. v* 1) (*darsni*) tugatmoq; *2)* yopmoq
- close-cropped** [klaus'kropt] *a* sochini kalta qilib qirqtigan
- closed** [klaʊzd] *a* yopiq
- close-fisted** [klaus'fɪstd] *a* xasis, ziqna
- close-grained** [klaus 'greind] *a* mayda donali
- closeyly** [klaushı] *adv* 1) diqqat bilan, sinchiklab; 2) yaqin joyda
- closeyly-knit** [klauslı,nit] *a* mustahkam birlashgan; yaxshi to'qilgan
- closeness** [klaʊsnəs] *n* yaqinlik
- close-out** [klaʊz'aut] *n* sotib tugatish
- close-stool** [klaus,stuo:l] *n* hojatxona kursisi
- closet** [klaʊzit] *1. n 1)* amer. qaznoq, kichkina omborxona; *2)* esk. devoriy (devorga ishlangan) shkaf; *3)* esk. kabinet, ish joyi; hujra; *a bed* ~ kichkina yotoqxona; *4)* ho-
- jatxona, xalajoy; *2. a* yashirin, maxfiy, pinho(iy), sir tutilgan (tutiladigan), oshkor qilib bo'lmaydigan; ~ **vows** yashirin ont ichish; *2)* kabinetga oid; kabinet uchun belgilangan; kabinet...; *3. v kam.* qulflamoq, qulflab qo'yamoq; zanjirlamoq; qulflab (yoki zanjirlab) bekitmoq; *to be ~ed with smb., to be ~ed together* kim bilandir yolg'iz (tanho) maslahatlashmoq
- close-up** [klaʊsəp] *n* kino, katta masshtab
- closing** [klaʊzɪŋ] *1. n* oxiri, tugashi; *2. a* yankunlovchi, so'nggi
- closing-time** [klaʊzɪntaim] *n* (*do'kon va h. k. ning*) ishlamaydigan vaqt
- clot** [klɒt] *n* yumaloqlangan narsa
- cloth** [kloth] *n* gazzlama, mato
- clothe** [klaʊð] *v* (*clothed; clad*) kiyintirmoq, kiymoq
- clothes** [klaʊðz] *n pl* kiyim, libos, sarpo; ust kiyim, ust-bosh
- clothes-basket** [klaʊðz,bæ:skɪt] *n* kiyim solinadigan savat, kiyim savati
- clothes-brush** [klaʊðzbrʌʃ] *n* kiyim cho'tka
- clothes-line** [klaʊðzlain] *n* kirlarni osib quiritadigan arqon
- clothes-man** [klaʊðzmaen] *n* (*pl -men [-mən]*) eskifurush
- clothing** [klaʊðɪŋ] *n* kiyim, libos
- cloud** [klaud] *1. n* bulut; *2. v* bulut bilan qoplangan
- cloudberry** [klaudb(ə)ri] *n bot.* xushbo'y mevali botqoq o'simligi va uning mevasi
- cloud-burst** [klaudbə:st] *n* jala, sharros yom-g'ir
- cloud-castle** [klaud,ka:sl] *n* xomxayol, puch xayol
- cloud-drift** [klaud,drift] *n* suzib yuruvchi bulutlar
- cloud-land** [klaudlænd] *n* afsonaviy mammalakat
- cloudless** [klaudləs] *a* bulutsiz, ochiq, musaffo
- cloudy** [klaudi] *a* bulutli
- clout** [klaot] *n* qiyqim, qiyqindi, parcha
- clout-nail** ['klautneil] *n* yassi (tekis) qalpoqli mix
- clove I** [klauv] *n* qalampirmunchoq, xushbo'ylik
- clove II** [klauv] *n* sarimsoqpiyoq pallachasi
- cloven** [klaʊvə(n)a 1) *yorilgan, tilining;* 2) ikkiga bo'lingan
- clover** [klaʊva] *n bot.* beda (*yo'ng'ichqa*)
- clown** [klaun] *1. n* masxaraboz, qiziqchi; *2. v* masxarabozlik (qiziqchilik) qilmoq
- clownery** [klaunəri] *n* masxarabozlik, qiziqchilik

- clownish** [‘klaʊnɪʃ] *a* qiziqchilik (masxarabozlik) bilan qilingan
- cloy** [klɔɪ] *v* (*biror narsani yediraverib*) juda to'ydirmoq, to'ydirib yubormoq
- club I** [klæb] *1. n* so'yil, to'qmoq; *2. v* so'yil bilan urmoq
- club II** [klæb] *1. n* klub; *2. v* bir joyda yig'ilmoq
- clubbable** [‘klæbəb(ə)b] *a* odamga el bo'ladigan, kiritishimli; dilkash
- clubbing** [‘klæbɪŋ] *n* so'yil bilan urish
- club-foot** [‘klæbfʊt] *n* maymoqlik
- club-footed** [‘klæb ‘fʊtɪd] *a* maymoq, maymoq oyog
- club-law** [‘klæb,laʊ] *n* zo'ravonlik
- clubman** [‘klæbmən] *n* (*pl -men [-mən]*) klub a'zosi
- club-shaped** [‘klæb,seɪpt] *a* bir tomoni yo'g'onlashgan
- clubwoman** [‘klæb,wumən] *n* (*pl -women [-,wɪmən]*) klub a'zosi bo'lgan ayol
- cluck** [klʌk] *1. n* qaqag'lash; *2. v* qaqag'lammoq
- clue** [klu:] *n* kalit (*qandaydir jumboqning yechimi*)
- clump** [klʌmp] *1. n 1)* to'p, to'da; *2) og'ir qadam ovozi;* *2. v* og'ir qadam tashlamoq
- clumsiness** [klʌmzɪnəs] *n* qo'pollik; beo'x-shovlik; beso'naqaylik
- clumsy** [‘klʌmzi] *a* beso'naqay, qo'pol
- clung** [klʌŋ] *past, p. p. of cling*
- cluster** [‘klʌstə] *n* dasta, bog'lam
- clutch I** [klʌtʃ] *1. n* siqish, qisish; *2. v* mah-kam ushlab (tutib) olmoq
- clutch II** [klʌtʃ] *1. n* ona tovuqdan ajralma-gan jo'jalar; *2. v* tuxum bosib jo'ja (bola) ochmoq
- clutter** [‘klʌtə] *1. n* tartibsizlik; *2. v* tartibsizlik qilmоq
- coach** [kəʊtʃ] *1. n* repetitor (*imtihonlarga tayyorlovchi*); *2. v* imtihonga tayyorlamоq
- coach-box** [‘kəʊtʃboks] *n* izvoshchi o'rindig'i
- coachman** [‘kəʊtʃmən] *n* (*pl -men [-mən]*) aravakash, izvoshchi
- coadjutor** [kəʊ ‘ædʒʊtə] *n 1)* yordamchi; *2) o'rinosar*
- coagulant** [kəʊ ‘ægjulənt] *n* kim. quyulturuvchi modda
- coagulate** [kəʊ ‘ægjuleɪt] *v* quyulmoq, quyuqlashmoq
- coagulation** [kəʊ,ægjʊlə ‘leɪʃ(ə)n] *n* quyulish, ivish
- coal** [kəʊl] *1. n* toshko'mir; *2. v* kuyib sirti ko'mirga aylanmoq
- coal-bed** [‘kəʊlbɛd] *n* ko'mir qatlami
- coal-black** [‘kəʊl ‘blæk] *a* smoladek qop-qora
- coal-cutter** [‘kəʊl,kʌtə] *n* ko'mir maydalay-digan mashina
- coal-dust** [‘kəʊldʌst] *n* ko'mir changi
- coaler** [‘kəʊlər] *n* ko'mir qazuvchi, konchi
- coalesce** [‘kəʊəs ‘les] *v 1)* bitmoq, bitib ketmoq (*singan suyak to'g'risida*); *2) (guruh va b. ga)* birlashmoq
- coalescence** [‘kəʊəs ‘les(ə)ns] *n* (*guruhlar va b. ga*) birlashish
- coal-field** [‘kəʊflɪeld] *n* toshko'mir havzası
- coal-gas** [‘kəʊl gæs] *n* toshko'mir gazi
- coal-heaver** [‘kəul,hi:va] *n* toshko'mir ta-shuvchi
- coal-hole** [‘kəulhəʊl] *n* ko'mir saqlanadigan yerto'la
- coaling** [‘kəʊlin] *n* ko'mir yuklash
- coaling-station** [‘kəʊlin,steɪʃ(ə)n] *n* ko'mir bazasi
- coalition** [‘kəʊəlɪʃ(ə)n] *n* ittifoq
- coalitionist** [‘kəʊəlɪʃ(ə)nɪst] *n* koalitsiya (ittifoq) qatnashuvchisi, a'zosi
- coalman** [‘kəʊlmən] *n* (*pl -men [-mən]*) ko'mir qazuvchi ishchi, shaxtyor
- coal-measures** [‘kəʊl,meʒəz] *n* geol. toshko'mir qatlamlari (svitalari, tog' jinslari tiz-masi)
- coal-mine** [‘kəʊlmайн] *n* ko'mir koni
- coal-pit** [‘kəʊlpɪt] *ko'mir shaxtasi*
- coalscuttle** [‘kəʊl,skʌtl] *n* ko'mir chelak; ko'mir solinadigan kichkina chelak (chelakcha, pagircha), ko'mir idish
- coal-seam** [‘kəʊlsi:m] = coal-bed
- coal-tar** [‘kəʊl ‘ta:] *n* toshko'mir qatroni
- coaly** [‘kəʊli] *a* ko'mirdan qilingan, ko'mirli
- coarse** [kɔ:s] *a* dag'al (ovqat, kiyim va b. haqida)
- coarse-grained** [‘kɔ:s,grɛnd] *a* yirik donali
- coarsen** [‘kɔ:s(ə)n] *v* dag'allashirmaq, qo'pollashmoq
- coast** [kəʊst] *1. n* dengiz qirg'og'i; *2. v* qirg'og' bo'ylab suzmoq
- coastal** [‘kəʊstəl] *a* qirg'oqqa (sohilga) oid
- coaster** [‘kəʊstə] *n* kabotaj kemasi (*kabotaj — ichki portlar orasida qatnaydig'an kemalar va shunday kemalar qatnovi*)
- coastguard** [‘kəʊstgɔ:d] *n* qirg'oq qo'riq-chisi
- coasting** [‘kəʊstɪŋ] *n* kabotaj kemalar qatnovi
- coastline** [‘kəʊstlайн] *n* qirg'oq chizig'i
- coast warning** [‘kəʊst,wɔ:nɪŋ] *n* deng.shtorm (dovul) signali
- coastwise** [‘kəʊstwaɪz] *adv* qirg'oq bo'ylab
- coat** [kəʊt] *1. n* palto; *2. v* ustini (sirtini) qoplamoq
- coated** [‘kəʊtɪd] *a* (*biror narsa bilan*) qop-langان

- coatee** [kəut̪i:] n kalta kamzul (*erkaklar nimchasi*)
- coating** [kəut̪in] n (*bo'yog va b. hosil qilib gan*) qatlam
- co-author** [kəu'ɔ:θə] n hammullif
- coax** [kəuks] 1. n tilini topa oladigan (gappa ko'ndirsa oladigan) odam; 2. v iltimos qilib (yalinib) ko'nirdimoq, rozi qilmoq, unatmoq
- coaxal** [kəu'æks(ə)l] a maxs. umumiy o'qqa ega bo'lgan
- coaxial** [kəu'ækſiəl] = coaxial
- coaxing** [kəuksɪŋ] n iltimos qilish
- cob I** [kɒb] n erkak oqqush, oqqush erkagi (xo'rozi)
- cob II** [kɒb] n 1) katta bo'lak, palaxsa; 2) somonli loy bilan suvash; ~ wall loy devor, paxsa
- cob III** [kɒb] n zool. chayka, baliqchi (*qush*)
- cob IV** [kɒb] n dial. to'qilgan savat
- cob V** [kɒb] 1. n zarba; 2. v zarba bermoq
- cobalt** [kəubɔ:l̩t] n kim. kobalt (*kimyoviy element, kumush rangli metall*)
- copper** [kɒbə] n avstral. so'zl. oshna, og'ayni, jo'ra, o'rtoq, do'st
- cobble** [kɒb(ə)] 1. n yomon bajarilgan (qilingan) ish; 2. v poyabzalni yomon yama-moq (*tuzatmoq*)
- cobbler** ['kɒblə] n 1) yamoqchi; 2) yomon ishchi
- cobby** ['kɒbi] a past bo'yli, pastak
- coble** ['kəub(ə)] n baliqchingin tagi yassi qayig'i
- cob-nut** ['kɒbnʌt] n bot. funduk (*Kavkaz va Qrimda o'sadigan yong'oq daraxti*)
- cobra** ['kɒbra, 'kəubra] n zool. ko'zoynakli ilon, kobra
- cob-swan** ['kɒb,swən] n qushning nari (*xo'rozi*)
- cobweb** ['kɒbweb] n o'rgimchak ini (*uyasi va uning har tolasi*)
- cobwebby** ['kɒb,webi] a o'rgimchak ini (*uyasi*) bilan qoplangan
- Coca-Cola** [,kəukə 'kəula] n koka-kola (*ichimlik*)
- cocaine** [kə(u)'keɪn] n kokain (*koka bargidan olinadigan, og'riqni qoldiradigan modda, alkolojd*)
- cocainize** [kə(u)'keɪnائز] v ukol qilib koka kain yubormoq
- cocci** ['kok(s)a] pl of coccus
- coccus** ['kokas] n (*pl cocci* ['kok(s)a]) tib. kakk (*yumaloq bakteriya*)
- coccyx** ['koksiks] n anat. dum suyagi, dum-g'aza
- cochin(-china)** [kəut̪ʃn(-tʃaɪnə)] n koxinxinka (*tovuq yoki xo'rozing turi, nasli, zoti*)
- cochlea** [kɒkl̩ə] n (*pl -eae [-i:]*) anat. quloq ichining tovush qabul qiladigan qismi
- cochleae** ['kɒkl̩i:] pl of cochlea
- cochleare** [,kɒkl̩r̩ e(ə)r̩i:] n tib. (*dori o'l-chovchi*) qoshiq
- cock I** [kɒk] n 1) xo'roz; fighting ~ urishadigan xo'roz; 2) (*qushlarda*) nar, erkak; 3) xo'rozing qichqirishi; 4) fluger (*shamolning yo'nalishi va tezeligini ko'rsatadigan, aniglaydigan asbob*); 5) so'zl. urishqoq, jangari, janjalkash; 6) (*miltiq va b. da*) tepki
- cock II** [kɒk] v ko'tarmoq; to ~ the ears qu-loqni ding qilmoq (*hayvon to'g'risida*); diq-qat bilan quloq solmoq
- cock III** [kɒk] 1. n (*miltiqda*) ko'tarilgan tepki; 2. v tepkini ko'tarmoq
- cock IV** [kɒk] 1. n g'aram, to'p, to'da, uyum; 2. v xashknii g'aramlamoq, to'plamoq
- cockade** [,kɒk'əd̩] n kokarda (*furajkaga qadaladigan nishon*)
- cock-a-doodle-doo** [,kɒkə,dु:dl̩ 'du:] n qu-qaraququ (*xo'rozing qichqirig'i*), chiqirish, qichqirish (*xo'roz haqida*)
- cock-a-hoop** [,kɒkə 'hu:p] a kekkaygan, kibr havosi baland
- Cockaigne** [kɒ'keɪn] n hech kim ishlamaydigan, ammo hamma narsa serob bo'lgan asfonaviy mamlakat
- cockalorum** [,kɒkə 'lo:rəm] n so'zl. bo'yipast, ammo o'ziga ishongan yosh yigitcha, „xo'roz“
- cockatoo** [,kɒkə'tu:] n zool. kokadu (*tojli to'tiqish*)
- cockatrice** [,kɒkətr̩(ə)is] n bir qarashi barcha jonzotni o'ldiradigan asfonaviy maxluq, ajdaho
- Cockayne** [kɒ'keɪn] = Cockaigne
- cock-boat** ['kɒkbəut̪] n bog 'langan qayiq
- cockchafer** ['kɒk,tſefə] n zool. tillaqo'ng'iz
- cock-crow** ['kokkrəʊ] n xo'rozlar qichqiradigan vaqt (tong)
- cocked** [kɒkt̪] a ko'tarilgan
- cockier** ['kɒkə] v (*bolalarni*) erkalamoq, erkalatmoq
- cockeler** ['kɒk(ə)rəl] n jo'jaxo'roz, xo'rozcha
- cock-eye** ['kɒkai] a g'ilay
- cock-eyed** [,kɒk 'aɪd] a so'zl. g'ilay
- cock-fight(ing)** ['kɒk,fait̪(ɪŋ)] n xo'rozlar jangi, xo'roz urishirish
- cockle I** ['kɒk(ə)] n bot. randak (*sariq gulli yovvoyi o't'*)
- cockle II** ['kɒk(ə)] n zool. yeylimadigan mol-luska
- cock-loft** ['kɒkloft̪] n cherdak (*ustki tom bilan ostki tom yoki shipning oralig'i*)

cockney [‘kɒknɪ] <i>n</i> 1) kokni, londonlik; 2) London shevasi	coefficient [kəʊfɪʃ(ə)nt] <i>1. n</i> koefitsiyent (<i>1. biror matematik ifodanig o’zgarmas yoki ma’lum ko’paytiruvchisi; 2. biror fizik hodisani migdor jihatidan ko’rsatadigan son;</i>) 2. <i>a ko maklashayotgan, yordam berayotgan</i>
cockpit [‘kɒkpɪt] <i>n</i> ekipaj kabinasi	coerce [kəʊ̇ ‘ə:s] <i>v</i> majbur qilmoq, zo’rlamoq
cockroach [‘kɒkrəʊtʃ] <i>n</i> zool. suvarak, tez-gizak	coercion [kəʊ̇ ‘ə:s(ə)n] <i>n</i> majbur qilish, zo’rlash
cockscomb [‘kɒkskəʊm] <i>n</i> xo’roz toji	coercive [kəʊ̇ ‘ə:siv] <i>a</i> majburiy
cockshead [‘kɒkshed] <i>n</i> hot. esparsel (<i>ozuqabop dukkakli o’simlik</i>)	coeval [kəʊ̇ ‘i:v(ə)l] <i>1. n</i> tengdosh, teng-qur; 2) zamondosh; 2. <i>a</i> zamonaviy
cock-sure [kɒk ‘ʃʊə] <i>a to’la ishonch bilan qilingan</i>	coexist [kəʊ̇ ‘zɪst] <i>v</i> birga (bir vaqtida) mavjud bo’lmоq, birga yashamoq
cocktail [‘kɒktel] <i>n</i> kokteyl (konyak, likor, vino va sh. k. aralashmasidan shakar va ziravorlar qo’shib tayyorlangan shirin, xushbo’y ichimlik)	coexistence [kəʊ̇ ‘zɪst(ə)ns] <i>n</i> birga (bir vaqtida) mavjud bo’lish, birga yashash
cocky [kɒki] <i>a o’ziga ishongan</i>	coexistent [kəʊ̇ ‘zɪst(ə)nt] <i>a</i> birga yashayotgan
cocoa [‘kəukəu] <i>n</i> kakao (<i>shokolad daraxting urug’i, doni va uning kukuni</i>)	coffee [‘kɒfi] <i>n</i> qahva
coconut [‘kəukənət] <i>n</i> kokos, kokos yong’ogi	coffee-bean [‘kɒfibɪ:n] <i>n</i> qahva dukkanı
coconut-tree [‘kəukənətlɪ:tɪ] <i>n</i> kokos palmasi (<i>doin yashil janub daraxti</i>)	coffee-cup [‘kɒfɪkʌp] <i>n</i> qahva ichadigan kichkina piyola
cocoon [ka: ‘ku:n] <i>n</i> pilla	coffee-grinder [‘kɒfi,grində] <i>n</i> qahva yanchadigan mashina
cocoony [kə: ‘ku:nəri] <i>n</i> amer. ipak qurti boqladigan xona, qurtxona	coffee-grounds [‘kɒfigraundz] <i>n pl</i> qahva quyqumi
coco-palm [‘kəukəpə:m] <i>n</i> kokos palmasi (<i>doin yashil janub daraxti</i>)	coffee-house [‘kɒfihaus] <i>n</i> qahvaxona
cod [kɒd] <i>1. n</i> treska (<i>Shimol dengizidagi baliglarning bir turi</i>); 2. <i>v</i> so’zl. aldamoq	coffee-mill [‘kɒfimil] <i>n</i> qahva yanchadigan mashina
coda [kɔ:də] <i>n</i> mus. koda (<i>musiga asarining xotima qismi</i>)	coffee-pot [‘kɒfipot] <i>n</i> qahva qaynatadigan idish
coddle I [‘kɒdl] <i>1. n</i> nozik-nihol odam, nozik; 2. <i>v</i> parvarish qilmoq, yosh bolaga qaramoq	coffee-table [‘kɒfɪ,teib(ə)l] <i>n</i> qahva stoli
coddle II [‘kɒdl] <i>v</i> past olovda (o’tda) qaynatmoq	coffer [kɒfə] <i>1. n</i> temir sandiq; 2. <i>v</i> sandiqqa bekitib qo’ymoq
code [kəud] <i>1. n</i> yur. kodeks (<i>qonunlar majmuyi</i>); 2) kod; shifr (<i>maxfiy yozişma uchun qabul qilingan shartli belgilari</i>); 2. <i>v</i> kod bilan yozmoq, kodlamoq	coffer-dam [‘kɒfədæm] <i>n</i> gidr. kesson (<i>suv osti ishlarini bajarish uchun daryo, deniz tagiga tushiriladigan maxsus kamera</i>)
codeine [‘kəudɪ:n] <i>n</i> farm. kodein (<i>afyun tarkibidagi alkaloid</i>)	coffin [‘kɒfin] <i>1. n</i> tobut; 2. <i>n</i> tobutga qo’ymoq
codger [‘kɒdʒə] <i>n</i> so’zl. g’alati (tentaksi-mon) odam	coffin-bone [‘kɒfinbəun] <i>n</i> tuyoq suyagi
codification [‘kəudɪfɪkейʃ(ə)n] <i>n</i> kodeks tuzish	cog [kɒg] <i>1. n</i> tish, tishcha; 2) aldash; 2. <i>v</i> aldamoq
codify [‘kəudɪfaɪ] <i>v</i> shifrlamoq	cogent [‘kəudʒ(ə)nt] <i>a</i> ishonchli, ishonarli
cod-liver oil [‘kɒdlɪvə(r) ‘ɔ:l] <i>n</i> baliq moyi	cogged [kɒgd] <i>n</i> tishli
co-ed [kəʊ̇ ‘ed] <i>n</i> (<i>co-educated ning qisqarmasi</i>) amer. so’zl. (<i>qizlar va o’g’il bolalar o’qiydigan o’quv yurtida</i>) o’quvchi qiz, toliba	cogitable [‘kɒdʒɪtab(ə)l] <i>a</i> to’g’ri keladigan, sig’adigan
co-education [‘kəuedju: ‘keɪʃ(ə)n] <i>n</i> o’g’il bolalar va qizlarning birligida o’qishi, o’qitilishi	cogitate [‘kɒdʒɪteɪt] <i>v</i> yaxshilab o’ylab ko’rmoq
co-educational [‘kəuedju: ‘keɪʃ(ə)nəl] <i>a</i> bir sinfdagi o’qiydigan, sinfdosh	cogitation [‘kɒdʒɪteɪʃ(ə)n] <i>n</i> yaxshilab o’ylab ko’rish
	cogitative [‘kɒdʒɪtati:v] <i>a</i> fikrlashga (fikr qilishga) oid
	cognac [‘konjæk] <i>n</i> konyak
	cognate [‘kognait] <i>a</i> yaqin, o’xshash, bir-biriga bog’langan, qardosh

cognition [kogn̩ 'neɪʃ(ə)n] *n tilsh.* qardoshlik, yaqinlik (*so'z va tillar to'g'risida*)
 cognition [kogn̩ 'nuʃ(ə)n] *n* 1) bilish; 2) bilish qobiliyati
 cognitive [t̩'kognitiv] *a* bilihga oid
 cognizable [t̩'kognizəb(ə)] *n* bilib (anglab)
 bo'ladigan
 cognizance [kogniz(ə)ns] *n* bilib olish, xabardor bo'lish
 cognizant [t̩'kogniz(ə)nt] *n* 1) yaxshi biladigan; 2) bilimdon
 cognize [t̩'kognɪz] *v* e'tibor bermoq
 cognomen [kogn̩ 'nəʊmən] *n* laqab; 2) familiya
 cog-wheel [t̩'kɒgwɪ:l] *n tex.* tishli g'ildirak
 cohabit [kəʊ 'hæbit] *v* birga (bir uyda) yashamoq (turmoq)
 cohabitant [kəʊ 'hæbit(ə)nt] *n* birga yashovchi
 cohabitation [kəʊ, hæbɪt̩ 'teɪʃ(ə)n] *n* birga yashash, birga hayot kechirish
 coheir [kəʊ 'eər] *n* birga voris bo'ladigan kishi, hamvoris
 coheiress [kəʊ 'eərɪs] *n* birga voris bo'ladigan ayol, hamvoris
 cohere [kəʊ 'hiə] *v* bog'liq bo'lmoq
 coherence, -cy [kəʊ 'hi:(ə)rəns, -si] *n* bog'lanish, aloqa
 coherent [kəʊ 'hi:(ə)rənt] *n* bog'langan
 cohesion [kəʊ 'hi:(ə)n] *n* bog'lanish, aloqa
 coiffeur [kwa:fə:] *n fr.* sartarosh
 coiffure [kwo:f(j)ø] *n fr.* tarab muayyan shaklga kiritilgan (silliqlangan) soch
 coil [kɔɪl] 1. *n* halqa, kalava; bir o'ram (*argon, ilon va b.*); 2. *v* halqa (*yoki spiral*) shaklida o'ramoq
 coil pipe [kɔɪlpaiپ] *n tex.* burama (spiral) naycha
 coin [kɔɪn] 1. *n* tanga-chaqa (*yoki tilla*) pul; 2. *v* zarb qilmoq (bosmoq)
 coinage [kɔɪndʒ] *n* tanga zarb qilish
 coincide [kəʊɪn 'saɪd] *v* to'g'ri kelmoq, loyiq bo'lmoq
 coincidence [kəʊ 'insid(ə)ns] *n* bir-biriga to'g'ri (mos) kelish
 coincident [kəʊ 'insid(ə)nt] *a* bir-biriga to'g'ri keladigan
 coincidental [kəʊ, insi'dentl] *a* tasodifiy coiner [kɔɪnə] (*tangalarını*) zarb qiluvchi (bosuvchi, chekuvchi, o'yuvchi) usta
 coke [kɔ:k] 1. *n* koks (*toshko'mir, neft, torf va sh. k. dan havosiz qizdirib tayyorlanadi-gan qattiq yoqilg'i*); 2. *v* koksga aylantirmoq, kokslamoq
 coking [kəʊkɪŋ] *n* koksga aylantirish, koksplash

cola [kəʊlə] *n* kola (*chanqoqni bosadigan ichimlik*)
 colander [kələndə] *n* chovli
 cold [kəuld] 1. *a* sovuq; 2. *n* sovuq havo
 cold-blooded [kəuld 'blədɪd] *a* sovuqqon, bosiq, og'ir, vazmin
 cold-bloodedness [kəuld 'blədɪdnəs] *n* 1) sovuqqonlik; 2) e'tiborsizlik
 cold cream [kəuldcrem] *n* koldkrem (*yuz va qo'l terisini yumshatadican moy*)
 cold-frame [kəuldfreim] *n* issiqxona
 cold-hearted [kəuld 'ha:tɪd] *a* bag'ritosh, berahim, shafqatsiz
 coldish [kəuldɪʃ] *a* ancha sovuq
 cold-lived [kəuld 'livəd] *a* 1) og'ir, vazmin; 2) zavq-shavqsiz, his-tuyg usi o'lik
 coldly [kəuldli] *adv* 1) iltifotsizlik bilan; yoqimsiz, sovuq tarzda; 2) sovuq
 coldness [kəuldnəs] *n* sovuqlik, iltifotsizlik
 cold shoulder [kəuld 'ʃəʊldə] *n* sovuqqina kutib olish (qabul qilish)
 cold-storage [kəuld 'sto:rɪdʒ] *n* sovitgich
 cole [kəʊl] *n* karam
 cole-rape [kəulreip] *n* sholq'omkaram (*tusi, mazasi sholq'omga o'xshagan karam*)
 cole-seed [kəulsaid] *n* hot, surepitsa (*uru-g'idan moy olinadigan o'simlik*)
 cole-slaw [kəulslo:] *n amer. to'g'ralgan karamdan qilingan salat*
 colic [kəlik] *n* sanchiq; sanchib og'rish
 colitis [kə'�itis] *n* tib. kulunj (*yo'g'on ichak yallig'lanishi*)
 collaborate [kə 'læbəreɪt] *v* hamkorlik qilmoq
 collaboration [kə, læbə 'reɪʃ(ə)n] *n* 1) hamkorlikda ishlash, birga xizmat qilish, hamkorlik; to work in ~ with smb. kim bilandir hamkorlikda ishlamoq; 2) kollaboratsionizm (*ikkinchi jahon urushi davrida: vatan dashmanlari - fashistlar bilan hamkorlik qilish, xoinlik*)
 collaborationist [kə, læbə 'reɪʃ(ə)nɪst] *n* kollaboratsionist, vatan xoini, sotqin
 collaborator [kə 'læbəreɪtə] *n* birga ishlovchi xodim, xizmatchi
 collage [kə'�ɔ:g] *n* kollaj
 collapse [kə læps] 1. *n* buzish, buzilish; 2. *v* buzilmoq
 collapsible [kə'�æpsəb(ə)] *a* buklama; yig'-ma
 collar [kə'lə] 1. *n* yoqa; ensiz yoqa; 2. *v* yoqasidan olmoq, bo'g'moq
 collar-bone [kə'ləbəun] *n anat.* o'mrov (*suyagi*)
 collarset(te) [kə'lə 'ret] *n* mo'yna yoqa
 collate [kə 'leɪt] *v* solishtirmoq; taqqoslamoq

collateral [kə'læt(ə)rəl] <i>a ikkinchi darajali, uncha ahamiyatli bo'lmagan</i>	colonel [kə'n(ə)lə] <i>n polkovnik</i>
collation [kə'lætʃ(ə)n] <i>n taqqoslash</i>	colonelcy [kə'n(ə)lsi] <i>n polkovnik unvoni</i>
colleague ['kɒli:g] <i>n bir joyda ishlaydigan kishi, xizmatdosh</i>	colonial [kə'ləunɪəl] <i>a mustamlakachilikka oid</i>
collect [kə'lekt] <i>v 1) yig'moq, bir yerga to'plamoq; 2) yig'ilmoq, bir yerga to'planmoq; 3) kolleksiya to'plamoo (tuzmoq)</i>	colonialist [kə'ləunɪəlist] <i>n mustamlakachi</i>
collected [kə'lektɪd] <i>a 1) tifr-xayoli bir yerdaga to'plangan; 2) yuvosh; bosiq, beozor</i>	colonist ['kɒlənɪst] <i>ko'chmanchi (yangi joyga ko'chib borib o'rashgan kishi)</i>
collection [kə'lekʃ(ə)n] <i>n 1) yig'ish, to'plash; 2) kolleksiya (bir turdagı narsalar ning sistematič to'plami); 3) tushgan pul</i>	colonization [,kɒlənai'zeɪʃ(ə)n] <i>n mustamlakaga aylantirish</i>
collective [kə'lektɪv] <i>a birgalidagi, umumiy</i>	colonize [kɒlənaɪz] <i>v mustamlakaga aylantirmoq (mustamlaka qilib olmoq)</i>
collective farm [kə'lektɪv'fɑ:m] <i>n jamoa xo'jaligi</i>	colonizer ['kɒlənaɪzə] <i>n mustamlakachi</i>
collectivity [kɒk'lektɪvɪt̬i] <i>n 1) jamoa xo'jaligi a'zosì; 2) jamoa; jamoa tashkiloti</i>	colony ['kɒləni] <i>n mustamlaka, qaram mamakat</i>
collectivization [kə'lektɪvɪza'zeɪʃ(ə)n] <i>n ja-moalaştiřish, ja-moalašish</i>	colophony [kə'lofəni] <i>n kanifol (ignabargli daraxt yelimidan, shirasidan olinadigan sarg'ish shaffof modda)</i>
collector [kə'lektər] <i>n (soliq va b. ni) yig'uvchi college</i> ['kɒlɪdʒ] <i>v 1) olivy o'quv yurti, kollej; 2) amer. universitet</i>	color ['kʌlər] = colour
collegian [kɔ:l'dʒeɪn] <i>n kollej talabasi</i>	coloration [,kʌlə'seɪʃ(ə)n] <i>n bo'yash</i>
collegiate [kɔ:l'dʒeɪt] <i>a universitetga oid</i>	colorific [,kʌlə'rɪfɪk] <i>a bo'yoqqa (rangga) oid</i>
collide [kɔ:l'daɪd] <i>v to'qnashmoq</i>	colossal [kə'lɒs(ə)l] <i>a juda katta, ulkan, azim</i>
collie [kɒli] <i>n Shotlandiya ovcharkasi (iti)</i>	colossus [kə'lɒsəs] <i>n juda katta haykal (ustun va sh. k.)</i>
collier ['kɒliə] <i>n ko'mir qazuvchi ishchi</i>	colour [kʌlər] <i>1. n rang; 2. v bo'yamoq, rang bermoq</i>
colliery ['kɒliəri] <i>n toshko'mir koni</i>	colour-blindness [‘kʌləblaindnes] <i>n tib. daltonizm (ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kasalligi)</i>
colligate ['kɒlɪgeɪt] <i>v birlashtirmoq; bog-lamoq</i>	colourcast [kʌləkɔ:st] <i>n rangli televizor</i>
collision [kə'lɪz(ə)n] <i>n to'qnashish</i>	coloured [kʌləd] <i>a rangli; bo'yalgan</i>
collocate ['kɒləkeɪt] <i>1. v joylamoq, joylash-tirmoq; 2. n joylashish, o'rnashish</i>	colour film ['kʌləfɪlm] <i>n rangli film</i>
collocation [,kɒlə'keɪʃ(ə)n] <i>n tuzish, joylashtirish</i>	colourful ['kʌləfʊl(ə)] <i>a yorqin bo'yoqlar bilan ishlangan</i>
collocutor [kə'u'lɒkjutə] <i>n suhbatdosh</i>	colouring ['kʌl(ə)rɪŋ] <i>n bo'yash</i>
collodion [kə'ləudɪən] <i>n kollodiy (tibbiyot va surat olishda ishlatiladigan quyuq yetlimshiq modda)</i>	colour-man ['kʌləmæn] <i>n (pl.-men [-mən]) bo'yoq sotuvchi kishi</i>
colloid ['kɒlɔɪd] <i>1. n kolloid (kristallanmaydigan, suvda quyuq erima hosil qiladigan oqsil kraxmal, yelim singari modda); 2. a kolloidlarga oid</i>	coilt [kə'kɔlt] <i>n toycha, toy</i>
colloidal [kɒ'lɔɪd(ə)] <i>a kolloidlarga oid</i>	colter ['kɔltə] <i>n q.x. chimgirqaq</i>
colloquial [kə'ləukwɪəl] <i>a so'zlashuvga oid</i>	coltish ['kɔltɪʃ] <i>a toychaga xos bo'lgan</i>
colloquialism [kə'ləukwɪəlɪz(ə)m] <i>n so'zlashuvga oid ibora</i>	coluber ['kɒljubə] <i>n zool. chipor ilon</i>
colloquy ['kɒləkwi] <i>n suhbat; gaplashish</i>	column ['kɒləm] <i>n me'mor. ustun</i>
collusion [kə'lju:n] <i>n maxfiy kelishuv, til biriktirish</i>	columnnar ['kɒləmnə] <i>a ustun shaklidagi</i>
cologne [kə'ləun] <i>n odikolon, atir</i>	columnned ['kɒləmnd] <i>a 1) shoir. ustunli;</i>
Colombian [kə'ləmbiən] <i>1. a Kolumbiya va kolumbiyaliklarga oid; 2. n kolumbiyalik kishi (ayol)</i>	<i>2) ustun shaklidagi; 3) poligr. ustunlarga bo'lingan</i>
colon ['kəʊlən] <i>n 1) ikki nuqta; 2) anat. yo'-g'on ichak</i>	columnnist ['kɒləm(ə)nist] <i>n amer. sharhlovchi</i>
	coiza ['kɒləzə] <i>n bot. surepitsa (urug'idan moy olinadigan o'simlik)</i>
	colza-oil ['kɒlzə,oɪl] <i>n surepitsa moyi</i>
	coma ['kəʊma] <i>n (pl.-mae [-mi:]) tib. koma (og'ir behushlik holati)</i>
	comatose ['kəʊmətəʊs] <i>a tib. komaga (og'ir behushlik holatiga) oid</i>
	comb [kəʊm] <i>1. n taroq; 2. v taramoq</i>

- combat** [kombat] 1. *n* jang qilish, urushish; jang, urush; 2. *v* jang qilmoq, urushmoq
- combatant** [kombet(ə)nt] *n* jangchi, jang qatnashchisi
- comber** [kəʊmə] *n* to'g. tituvchi, tarovchi
- combination** [kombi'neʃ(ə)n] *n* birkma, birikish
- combine** [kombin] 1. *n q.x.* kombayn (*bir yo'la bir necha ishni bajaradigan murakkab mashina*); 2. [kəm'baɪn] *v* birlash-tirmoq
- combined** [kəm'baind] *a* birlashtirilgan
- combings** [kəumɪŋz] *n* titish (tarash) ishlari
- comb-out** [kəʊm'au̯t] *n* taroq bilan tozalash
- combustibility** [kəm'bəstib'iliti] *n* tez o't olish, tez yonib ketish
- combustible** [kəm'bəstəb(ə)l] 1. *a* yonadi-gan; 2. *n pl* yonilg'i
- combustion** [kəm'bəstʃ(ə)n] *n* yonish, ku-yish
- come** [kəm] *v* (came; come) kelmoq; to ~ about yuz bermoq; sodir bo'lmoq; to ~ after qo'yarda-qo'ymay talab qilmoq; to ~ across kim biladir to'satdan uchrashib qolmoq; to ~ again qaytib kelmoq; to ~ along with kuzatib qo'yimoq; to ~ apart, to ~ asunder mayda qismlarga bo'linib (ajralib) ketmoq; to ~ at tashlanmoq; to ~ away ketmoq; to ~ back qaytib kelmoq; to ~ before biror kimsa yoki narsadan oldin o'tmoq; to ~ by ko'may o'tib ketmoq; to ~ down yog'moq (*qor va yomg'ir to'g'risida*); to ~ for ... ga tashlanmoq; to ~ forward ochiq joyga (*yoki oldinga*) surilmoq; to ~ in kimqoq; to ~ in for nimanidir olmoq (mas., o'z ulushi va b. ni); to ~ of yuz bermoq (sodir bo'lmoq); to ~ off (*yugoridan pastiga*) tushmoq; to ~ on yaqinlashmoq; to ~ out chiqmoq; to ~ over boshqa tomon-ga o'tmoq; to ~ round yo'l-yo'lakay kirib o'tmoq; to ~ through ichiga kirmoq; to ~ to o'ziga kelmoq; to ~ together birlash-moq; to ~ up ko'tarilmox; to ~ upon kutil-maganda hujum qilmoq
- come-and-go** [kəmən(d) 'gəʊ] 1. *n* orqa-oldingga harakat qilish; 2. *attr.* - people kelib-ketuvchi odamlar
- come-back** [kəm'bæk] *n* qaytish
- come-between** [kəmbi'twi:n] *n* dalol
- comedian** [kə'mi:dɪən] *n* komik (*kulgili rollarni ijro etuvchi aktyor*)
- come-down** [kəm'daʊn] *n* pasayish, tu-shish
- comedy** [kə'mədi] *n* komediya (*kulgili sah-na asari*)
- comeliness** [kə'melɪnəs] *n* yoqimtlilik, chiroylik, go'zallik
- comely** [kəmlɪ] *a* chiroyli, go'zal, barno
- come-off** [kəm'ɒf] *n* tugatish, bitirish, oxi-riга yetkazish
- comer** [kəmər] *n* keluvchi
- comet** [kəmət] *n* astr. kometa (*dumlı yulduz*)
- comfort** [kəmfət] 1. *n* yupatish, tasalli be-rish; 2. *v* yupatmoq, tasalli bermoq
- comfortable** [kəmfətəb(ə)l] *a* qulay, shinam
- comforter** [kəmfətər] *n* yupatuvchi, tasalli beruvchi
- comforting** [kəmfətɪŋ] *a* yupatadigan, tasalli beradigan
- comfortless** [kəmfətləs] *a* 1) qayg'uli; 2) no-qulay
- comfy** [kəmfɪ] *a* qulay, shinam
- comic** [kəmɪk] *a* kulgili, qiziqarli
- comical** [kəmɪk(ə)l] *a* kulgili
- comicality** [kəm'kælitɪ] *n* kulgilik
- comics** [kəmɪks] *n pl* komiks (*qisqa matr va rasmlar berilgan adabiy asar*)
- coming** [kəmɪŋ] 1. *n* kelish, yetib kelish; 2. *a* yaqinlashayotgan, kelayotgan
- coming-in** [kəmɪŋ'ɪn] *n* tashqaridan mol keltirish
- coming-out** [kəmɪŋ'au̯t] *n* chetga mol chiqarish
- comity** [kəmɪti] *n* xushmuomalalik, mulo-yirlik
- comma** [kəmə] *n* vergul
- command** [kə'ma:nd] 1. *n* buyruq; 2. *v* bu-yurmoq
- commandant** [kəmən'dænt] *n* 1) harbiy o'quv yurtining rahbari; 2) kendat (*shahar va umuman, aholi yashaydigan nuqtalarga harbiylarning intizomi uchun javohgar boshliq*); 3) komendant (*jamoat uylarining boshqaruvchisi*)
- commandeer** [kəmən'deər] *v* qo'mondonlik qilmoq, qo'mondonlikka tayinlamоq
- commander** [kə'ma:ndər] *n* komandir; boshliq
- commander-in-chief** [kə'mond(ə)rɪn'tʃi:f] *n* bosh qo'mondon
- commandership** [kə'ma:ndəʃɪp] *n* qo'mondon, boshliqning mansabi (marta-basi)
- commanding** [kə'ma:ndɪŋ] *a* qo'mondonlik qiluvchi
- commandment** [kə'ma:ndmənt] *n* buyruq
- commando** [kə'ma:ndəʊ] *n* tezkor hujum-chi guruh
- commeasurable** [kə'meʒ(ə)rab(ə)l] = com-mensurable
- commemorable** [kə'memərəb(ə)l] *a* esdan chiqmaydigan, xotirada saqlanadigan, unutilmas
- commemorate** [kə'meməreɪt] *n* (*yubileyni*) bayram qilmoq, nishonlamоq

- commemoration** [kə'memə'reɪʃ(ə)n] *n* (yu-bileyni) bayram qilish, nishonlash
- commemorative** [kə'mem(ə)rətiv] *n* xotira uchun belgilangan (qilingan)
- commence** [kə'mens] *v* boshlamoq, boshlab yubormoq
- commencement** [kə'mensmənt] *n* boshlanishi
- commend** [kə'mend] *v* maqtamoq
- commendable** [kə'mendəb(ə)l] *a* maqtashga arziyidigan
- commendation** [kə'mən̄dəfɪʃ(ə)n] *n* maqtov
- commendatory** [kə'mendət(ə)rɪ] *a* maqtovga (madh qilishga) oid; maqtovli, maqtovdan iborat, maqtov (madhiya) ... 2) tavsiya etadigan, maslahat beradigan, tavsiya qilib berilgan; a ~ letter tavsiya qilib yozilgan xat, tavsiyanoma
- commensal** [kə'mens(ə)l] *n* birga (bir das-turxonda) ovqatanuvchi, hamlovoq
- commensurable** [kə'menʃ(ə)rəb(ə)l] *a* o'l-chovdosh, umumiy o'lchovli
- commensurate** [kə'menʃ(ə)rɪt] *a* ...ga mos (to'g'ri) keladigan
- comment** [kə'mənt] 1. *n* mulohaza, fikr; 2. *v* 1) (*raqidiy*) mulohazalar bildirmoq; 2) sharhlamoq
- commentary** [kə'mənt(ə)rɪ] *n* sharh, tushuntirish
- commentation** [kə'mən̄t̄e'reʃ(ə)n] *n* sharh-lash, tushuntirib berish
- commentator** [kə'mənte'retə] *n* sharhlovchi
- commerce** [kə'mə:s] *n* savdo, savdo-sotiq
- commerce-destroyer** [kə'mə:s:sdı'striə] *n* *harb.* dengiz yo'llarida dashunning transport va savdo kemalariiga qarshi mustaqil kurash olib boradigan harbiy kema (reyder)
- commercial** [kə'mə:sʃ(ə)l] *a* savdo-sotiqa oid
- commercialism** [kə'mə:sʃəlɪz(ə)m] *n* savdogarlar tilida ishlatalidigan ibora
- commercialize** [kə'mə:sʃəlaɪz] *v* 1) foyda olmoq; 2) daromad manbayiga aylantirmoq
- commination** [kə'minəneʃ(ə)n] *n kit.* 1) do'q, tahdid, po'pisu; 2) xavf-xatar, tahlika, qo'r-qinch
- commimentary** [kə'minət(ə)rɪ] *a kit.* 1) do'q (tahdid) qiladigan, do'q (tahdid)ni ifoda-laydigan; 2) fosh qiladigan, aybni (karm-chiliklarni, nuqsonlari ni) ochadigan
- commingle** [kə'mʌŋg(ə)l] *v* 1) aralashmoq, qorishmoq; 2) aralashtrimoq, qorishtrimoq
- comminate** [kə'minju:t] *v* maydalamoq, yanchmoq
- commuted** [kə'minju:tud] *a* tolqon (kunkun) qilingan, maydalangan, sindirilgan, parchalanib ketgan
- communition** [,kɒmju:nju:ʃ(ə)n] *n* 1) maydalash, yanchish, parchalash, sinish, maydanish, chil-chil bo'lish, parchalanish; 2) kukunlash, sochish, tarqatib (sochib) yuborish
- commiserate** [kə'mizə'reit] *v* 1) hamard bo'lmoq; 2) ta'ziya bildirmoq
- commiseration** [kə'mizə'reɪʃ(ə)n] *n* 1) hamard bo'lish; 2) ta'ziya bildirish
- commissar** [,kɒpm̄r̄:sa:] *n* komissar (*harbiy komissarlilikning boshlig'i*)
- commissary** ['komis(ə)rɪ] *n* komissar
- commission** [kə'mɪʃ(ə)n] 1. *n* 1) vakolat; 2) vakolatnomasi; 3) komissiya (*ayrim mäsala yuzasidan tuzilgan muvag'qat yoki doimiy tashkilot*); 2. *v* 1) bирор vazifaga taynlamoq; 2) vakolat bermoq
- commission-agent** [kə'mɪʃ(ə)n,eɪdʒ(ə)nt] *n* komissioner, vositachi, dalol (savdo ishidida)
- commissionnaire** [kə'mɪʃ(ə)nə] *n* darbon (*mehmonxona, teatr, do'kon va b. da*)
- commission-broker** [kə'mɪʃ(ə)n,brəʊkə] *n* dalol
- commissioned** [kə'mɪʃ(ə)nd] *a* vakolatlisi, ishonilgan
- commissioner** [kə'mɪʃ(ə)nə] *n* maxsus vaki; 2) komissiya a'zosini
- commission-merchant** [kə'mɪʃ(ə)n,mə:tʃ(ə)nt] = commission-agent
- commissionure** [kə'mɪʃ(ə)sə] *n* 1) ularish, ulangan joy, uloq; 2) *anat. bot.* turli organ va to'qimalarning qo'shilgan joyi
- commit** [kə'mit] *v* 1) (*jinyat*) sodir qilmoq; 2) ~ suicide o'z Joniga qasd qilmoq; 2) fikrini ochiq ifoda etmoq; 3) va'da bermoq
- commitment** [kə'mɪtmənt] *n* majburiyat, burch
- committal** [kə'mitl] *n* 1) qamoqqa olish; qamab qo'yish; 2) ko'mish, dafn etish
- committed** [kə'mitd] *a* g'oyaviy, ideologik
- committee** [kə'mitt̄] *n* komitet (*saylanna organ*); 2) *yur.* vasiy
- committee-man** [kə'mit̄mæn] *n* (*pl -men* -man) komissiya yoki qo'mita a'zosini
- commix** [kə'mɪks] *v* *esk. shoir.* 1) aralashtrimoq, qorishtrimoq, aralashtirib (qorish-tirib) yubormoq, qo'shmoq, omixta qilmoq; 2) aralashmoq, qorishmoq, qorilmoq, aralashib (qorishib) ketmoq, omixta bo'lmoq
- commixture** [kə'mɪkstʃə] *n* aralashma; qorishma
- commodate** [kə'məd̄] *n* komod (*kiyim-kechak turadigan qutili javon*)
- commodious** [kə'maudɪəs] *n* keng
- commodity** [kə'modɪt̄] *n* mahsulot

commodore [kə'mədər] *n* *deng.* 1-rang kapitani

common [kə'mən] *1. a* umumiy; *2)* oddiy;

2. n umumiy hol, umumiylilik

commonable [kə'mənəb(ə)] *a* jamiyatning mol-mulki bo'lgan; jamiyat hisobida bo'lgan, jamiyat hisobidagi

commonage [kə'mənɪdʒ] *n 1)* jamoat o'tlog'ida (yaylovida) o'tlash huquqi; *2)* jamoat o'tlog'i

commonalty [kə'mən(ə)lti] *n 1)* jamoa; *2)* esk. jamiyat, tashkilot

common balm [kə'mənbə:m] *n bot.* limonot (*dorivor*)

commoner [kə'mənə] *n* oddiy odam

commonition [kə'mətə 'nɪʃ(ə)n] *n kam.* *1)* mulohaza, fikr; *2)* tanbeh; koyish, nasihat; *3)* rasmiy ravishda eslatish, esga solib qo'yish, ogohlantirish

common law [kə'mənlə 'lə] *n* urf-odatlarga asoslangan (odatiy) huquq

commonly [kə'mənlı] *adv* odatga ko'ra

commonness [kə'mənnəs] *n 1)* oddiylik; soddalik, boshqalardan farqsizlik, el qatorni bo'lgan (bo'ladijan)lik; *2)* o'tachalik, o'rta darajalilik

commonplace [kə'mənpleis] *1. a* siyqasi chiqqan, ko'p chaynalgan; *2. n* siyqasi chiqqanlik (*ibora, fikr haqida*)

commonplace-book [kə'mənpleis,buk] *n* umumiy daftар

common-room [kə'mənrū:m, -rum] *n* umumiy xona (*jamoat tashkilotlarida*)

commons [kə'mənz] *n 1)* oddiy xalq; *2)* (*the* C) parlamentning quyi palatası (*Angliyada*)

common-sense [kə'mən sens] *n* to'g'ri fikr, sog'lom aql

commonty [kə'mənti] *n shotl.* *1)* jamoa yeralari; *2)* yaylovda o'tash huquqi

commonweal [kə'mənwi:] *n* umumiy manfaat

commonwealth [kə'mənwelθ] *n 1)* mamlakat, davlat; *2)* hamdo'stlik; *3)* ittifoq, uyushma

commorancy [kə'mərənsi] *n yur.* biror yerdaga yashash, turish, istiqomat qilish, yashab turish

commorant [kə'mərənt] *a kam.* yashaydigan, yashovchi (*asosan, universitet qoshidagi biror joyda*)

commote [kə'mə:t] *v kam.* tashvishga solib qo'ymoq, tinchini buzmoq

commotion [kə'məʊʃ(ə)n] *n* (*yurakdagisi*) g'ashlik; iztirob, g'ulg'ula

communal [kə'mju:nəl] *a* jamoaga qarashli

Communard [kə'mju:nə:d] *n tar.* *1)* kommunar (*Parij kommunasi qatnashchisi*); *2)* kommunar, kommunna a'zosi

commune [kə'mju:n] *1. n 1)* kommuna (*mulk va mehnati umumlashtirish asosida tuzilgan kishilar jamoaasi*); *2)* jamoa; *2. v* muomalala qilmoq, aralashib yurmoq

communicable [kə'mju:nikəb(ə)] *a* odamga el bo'ladijan, dilkash

communicant [kə'mju:nikənt] *n* xabarchi, xabar beruvchi, darakchi, bildiruvchi; ma'lumot beruvchi

communicate [kə'mju:nikət] *v* xabar qilmoq

communicating [kə'mju:nikeitŋ] *a* yonma-yonlik (*xona to'g'risida*)

communication [kə'mju:nikət(ə)n] *n* axborot, xabar

communicative [kə'mju:nikətiv] *a* odamga el bo'ladijan, dilkash

communicatory [kə'mju:nikeit(ə)n] *a* axborot beradigan

communication [kə'mju:nien] *n 1)* aloqa qilish, aloqada bo'lish; *2)* umumiylilik, bir xillik

communique [kə'mju:nikei] *n fr.* rasmiy xabar

communism [kə'mju:niz(ə)m] *n* kommunizm

communistic [kə'mju:nistik] *a* kommunizmga va komunistlarga oid

community [kə'mju:niti] *n 1)* jamoa; *2)* umumiylilik

commutable [kə'mju:təb(ə)] *a* almashtirishga yaratyldigan, almashtirsa bo'ladijan (*samolyot, poyezd va b. ning chiptalari haqida*)

commutation [kə'mju:tətei(ə)n] *n* almashtirish

commutative [kə'mju:tati've] *a mat.* o'mini (tartibini) almashtiruvchi, o'mini (tartibini) o'zgartiruvchi

commutator [kə'mju:tətor] *n* kommutator (*telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilmal*)

commute [kə'mju:t] *v* almashtirmoq

companion [kə'mpəniən] *1. n* o'rtoq, og'ayni; *2. v* o'rtoq bo'lmoq

companionable [kə'mpəniənəb(ə)] *a* odamga el bo'ladijan, dilkash

company [kə'mpəni] *n* shirkat; jamiyat

comparable [kə'mpərab(ə)] *a* taqqoslab (solishtirib) bo'ladijan

comparative [kə'mpərativ] *1. a* qiyosiy, solishtirma; chog'ishtirma; *2. n* gram. cho'g'ishtirma daraja

comparatively [kə'mpərativli] *adv* nishatan

compare [kə'mpəre] *v* qiyoslamoq, solishtirmoq, taqqoslamoq

comparison [kə'mpəris(ə)n] *n* qiyoslash, taqqoslash

- compartment** [kəm'pa:tment] *n* kupe (*temir yo'l vagonlarida; ayrim xona*) bo'lma
- compass** [kəmpəs] *1. n* 1) kompas; 2) *pl* sirkul, pargar; 2. *a* kompasga oid; 3. *v* amalga oshirmoq, yuzaga chiqarmoq
- compassion** [kəm'pæf(ə)n] *n* rahm; shafqat
- compassionate** [kəm'pæf(ə)nɪt] *1. a* rahmdilikni ifodalovchi; *2. v* rahm (shafqat) qilmoq
- compatibility** [kəm'pætəbiləti] *n* bir-biriga to'g'ri (mos) kelish
- compatible** [kəm'pætəb(ə)l] *a* birga (ayni bir vaqtida) bo'la oladigan, bir-biriga to'g'ri (mos) keladigan, sig'ishadigan, mos
- compatriot** [kəm'pætriət] *n* vatandosh
- compeer** [kəmpriə] *n* tengdosh, o'rtoq, jo'ra
- compel** [kəm'pel] *v* majbur qilmoq, zo'rلامоq
- compelling** [kəm'pelin] *a* yengib bo'lmaydigan
- compendious** [kəm'pendiəs] *a* qisqa; qisqartirilgan
- compendium** [kəm'pendiəm] *n* (*pl -dia [-dia]*) 1) konspekt; 2) qisqa xulosa, qisqacha mazrnun, yakun
- compensate** [kəmpənsəteɪt] *v* mukofotlamoq
- compensation** [,kəmpen'seɪʃən] *n* mukofotlash
- compensator** [,kəmpənsətər] *n* fiz. el. transformator (*o'zgaruvchan elektr tokining kuchlanishini pasaytiradigan yoki oshiradigan moslama*)
- compere** [kəmpe're] *n* konferansye (*dastur ni olib horuvchi va ora-sira qiziq gaplar bilan tomoshabinlarni mashg'ul qiluvchi artist*)
- compete** [kəm'pi:t] *v* musobaqalashmoq, bellashmoq
- competence** [kəmpit(ə)ns] *n* mahorat; qobiliyat
- competent** [kəmpit(ə)nt] *a 1)* yetarli ma'lumotga ega bo'lgan, puxta bilmili, yaxshi biladigan, xabardor; *2)* asosli, e'tiborli, diqqatga sazovor
- competition** [,kəm'pi:tɪʃən] *n* musobaqa
- competitioner** [,kəm'pi:tɪʃənər] *n* musobaqa qatnashchisi
- competitive** [kəm'petitiv] *a 1)* raqobatlashadigan, raqobatga ega; *2)* raqobatbardosh
- competitor** [kəm'petitor] *n* raqib
- compilation** [,kəm'pi:l'eɪʃən] *n* quramachilik (*boshqalarning ishlaridan ulab-qurab asar yozish*)
- compile** [kəm'pail] *v* (*lug'at va b.*) tuzmoq
- compiler** [kəm'pailə] *n* tuzuvchi
- complacence, -cy** [kəm'pleis(ə)ns, -si] *n* 1) o'ziga ishonib ketish, mag'rurlik; 2) muloyimlik
- complacent** [kəm'pleis(ə)nt] *a 1)* o'ziga ishonib ketgan, mag'rur; *2)* ko'ngilchan
- complain** [kəm'plein] *v* shikoyat qilmoq
- complainant** [kəm'pleinənt] *n* shikoyatchi
- complaint** [kəm'pleint] *n 1)* shikoyat; *2)* norozilik
- complaisance** [kəm'plerz(ə)ns] *n* xushmuomalilik, iltifot
- complaisant** [kəm'plerz(ə)nt] *a* xushmu-mala, iltifotli
- complement** [kəmplimənt] *n* gram. to'l-diruvchi
- complementary** [,kompli'ment(ə)r] *a* qo'shimcha qilingan
- complete** [kəm'pli:t] *1. a* mukammal, to'liq; *2. v* tugatmoq, oxiriga yetkazmoq
- completely** [kəm'pli:tlə] *adv* mutlaqo
- completeness** [kəm'pli:tnəs] *n* mukammallik
- completion** [kəm'pli:ʃ(ə)n] *n* oxiriga yetkazish, tugatish
- completive** [kəm'pli:tiv] *a* yakunlovchi, oxirgi, so'nggi
- complex** ['kompleks] *1. a* murakkab; *2. n* kompleks (*uyg'un birlik tashkil etган predmetler, voqeа-hodisalar, harakat, belgil va sh. k. majmuyi*)
- complexion** [kəm'plekʃ(ə)n] *n* betning tusi (rangi)
- complexity** [kəm'pleksit̫] *n* murakkablik
- compliance** [kəm'plaɪəns] *n* rozilik
- compliant** [kəm'plaɪənt] *a* yon beradigan, gapga ko'nadigan
- complicacy** ['komplikasi] *n* murakkablik
- complicate** ['komplikeit] *v* murakkablash-tirmaq, mushkullashtirmaq, qiyinlashtirmaq
- complicated** ['komplikeitid] *a* murakkab
- complication** [,kompli'keɪʃ(ə)n] *n* murakkablik
- complicity** [kəm'plisit̫] *n* (*jinoyat va b. ga*) birga qatnashish
- compliment** ['komplimənt] *1. n* maqtov; xushomad; *2. v* maqtamoq; xushomad qilmoq
- complimentary** [,kompli'ment(ə)r] *a* tabriklashga oid
- comply** [kəm'plai] *v* (*with*) 1) bajarmoq, ijro etmoq; *to ~ with smb.'s request* bironing iltimosini bajarmoq; *2)* bo'yusunmoq; *to ~ with the rules* qoidalarga rioya qilmoq; *3)* ko'nmoq, rozi bo'lmoq; *4)* biron narsadan kechmoq, bahridan o'tmoq, bermoq, in'om qilmoq

- component** [kəm' pəunənt] *a* tarkibiy qism
- comport** [kəm' pɔ:t] *v* 1) o'zini yaxshi tutmoq; 2) muvofiq kelmoq
- compose** [kəm' pəuz] *v* 1) tuzmoq; 2) (*musiqali yoki badiiy asarni*) yozmoq, ijod qilmoq, yaratmoq
- composed** [kəm' pəuzd] *a* yuvosh, beozor; o'zini tuta biladigan
- composer** [kəm' pəuzə] *n* bastakor
- composing-room** [kəm' pəuzinqru:m] *n* *polig.* harf terish sexi
- composing-stick** [kəm' pəuzinqstik] *n* *polig.* verstatka (*harferlidagan taxakach*)
- composite** ['kompəzit] *1. n* aralashma, qo'shishma; *2. a* murakkab
- composition** [,kompə' zɪʃ(ə)n] *n* musiqali yoki adabiy (badiiy) asar
- dabble** ['dægl] v loy (balchiq, botqoq) bilan sudramoq (tortmoq)
- dago** ['deɪgeɪ] n amer. dago (*italyan, ispan va portugallarning laqabi*)
- dahlia** ['deɪljə] n bot. kartoshkagul
- Dail Eireann** ['dail' eərən] n İrlandiya Respublikasi parlamentining quyi palatasi
- daily** ['deɪlɪ] 1. adv kun sayin, har kuni; maishiy; 2. a har kungi, kundalik; ~bread tirkchilik uchun eng kerakli narsa; rizq-ro'z; ~duty navbatchilik; 3. n kundalik gazeta
- daintiness** ['deɪntɪnəs] n nafislik, noziklik, nazokat
- dainty** ['deɪntɪ] 1. n shirinlik, shiravor; 2. a shirin, totli, mazali, lazzatl, xushxo'r
- dairy** ['deəri] n 1) moy ishlab chiqaradigan korxonasi; 2) sut mahsulotlari do'konasi; ~products sut-satiq mahsulotlari
- dairy-farm** ['deərifɔ:m] n sutchilik xo'jaligi
- dairying** ['deəriŋ] n sutchilik xo'jaligi
- dairymaid** ['deərimeɪd] n sutchilik fermasi-dagi ishchi ayol; sut sog'uvchi; sigir sog'uvchi ayol
- dairymen** ['deərimen] n (*pl -men [-mən]*) sutchilik fermasining ishchisi yoki egasi
- dais** ['deɪs] n 1) taxtasupa, minbar, ko'priks taxtasi; 2) tepalik, balandlik, baland joy
- daisied** ['deɪzɪd] a dastorgul bilan qoplan-gan
- daisy** ['deɪzi] n bot. dastorgul
- daisy-cutter** ['deɪzi,kʌtə] n yugurayotganda oyog'ini zo'rg'a ko'taradigan ot
- dak** [dæk] n hind. almashinuvchi hammollar (*yuk tashuvchilar*) yoki otlar
- dak bungalow** [dæk'bæŋgəlu] n yo'l bo'yidagi (yo'lga yaqin joydag) mehmonxona (*Hindistonda*)
- Dalai Lama** [dæla:lə'ma] n dalay-lama (*Tibet hokimi va bosh ruhonysi*)
- dale** [deɪl] n sho'r. vodiylar, soylik; **hill and ~ ~ and down** tog'lar va vodiylar; **up hill and down ~ tog'larda va vodiylarda; to curse up hill and down ~ og'ziga kelgan gap bilan so'kmuoq (haqorat qilmoq)**
- dalesman** ['deɪlzmen] n vodiy aholisi, vodiyda yashovchi (*Shimoliy Angliyada*)
- dalle** [dæl] n kafel, koshin; plitka, kichkina plita (*pol qilish uchun*)
- dalliance** ['dæliəns] n 1) bekor (behuda) vaqt o'tkazish; 2) o'yin-kulgi; 3) (*nimagadir*) jiddiy munosabatda bo'lmaslik
- dally** ['dæli] v 1) imillamoq, sustkashlik qilmoq; 2) arzimamoq narsalar bilan mashg'ul bo'lib yurmoq; vaqtini bekoraga o'tkazmoq
- daltonism** ['dɔ:ltonizm] n itb. daltonizm (*ba'zi rang-tuslarni farq qila olmaslik kallsligi*)
- dam** [dæm] 1. n damba, ko'tarma, to'g'on; 2. v bo'g'moq, to'smoq, bog'lamoq
- damage** ['dæmɪdʒ] 1. n zarar, ziyon, shikast, buzilish; 2. v ziyon (zarar) yetkazmoq; ziyon keltirmoq
- damaged** ['dæmɪdʒed] a zararlangan; buzuq
- damaging** ['dæmɪdʒɪŋ] a zarar yetkazadi-gan, shikastlaydigan
- damask** ['dæmask] 1. n ipak kimxob; 2. a kimxob gulli, guldor; 3. v gul solib gazlama to'qimoq
- dame** [deɪm] n ayol, xotin
- dame-school** ['deimsku:l] n (*ayollar boshgaradigan*) yosh bolalar maktabi
- damn** [dæm] 1. n la'nat, nafrat, qarg'ish; 2. v so'kmuoq, urishmoq, koyimoq
- damnably** ['dæmnəblɪ] adv yoqimsiz bir holda, juda xunuk, juda yomon
- damnation** ['dæm'neʃ(ə)n] 1. n la'nat, nafrat, qarg'ish; 2. int. la'nat!
- damned** [dæmd] a jazoga hukm etilgan
- damnific** [dæm'nifik] a zarar keltira oladi-gan, zararli, juda zararli
- damnification** [dæmnifi 'keɪʃ(ə)n] n yur-zarar yetkazish
- damnify** [dæmnifai] v zarar yetkazmoq
- Damocles** ['dæmkəlɪ:z] n grek. afs. Damokl
- damp** [dæmp] 1. a namlik, zaxlik, ho'llilik; 2. n zax, ho'l, zaxkash; 3. v ho'llamoq, namlamoq, ivitmoq
- damp-course** ['dæmpkɔ:s] n qur. gidroizolatsiya, namdan izolatsiyalash, izolatsiya-lab nam o'tkazmaydigan (o'tmaydigan) qili-sh
- dampen** ['dæmp(ə)n] v 1) namlamoq, ho'lamoq; 2) susaytirmoq
- damper** ['dæmpə] n namlagich, ho'llagich
- damping** ['dæmpɪŋ] n namlash, ho'llash, nam berish; namlanish, nam bo'lish
- dampish** ['dæmpɪʃ] a nam, zax, ho'l, zaxkash
- damp-proof** ['dæmppru:f] a suv (nam) o'tkazmaydigan, suv (nam) o'tmaydigan

- dampy** [dæmpɪ] *a* nam, zax, ho'l, zaxkash
damsel [dæmz(ə)l] *n* 1) *esk. hazil.* bo'yı yetgan qız; 2) *ko'rpa-to'* shakni isitish uchun ishlatalidigan issiq dazmol; grelka
damson [dæmz(ə)n] *n* tikan olxo'ri
damson-coloured [dæmz(ə)n,kaləd] *a* qizil-ko'k (*olxo'ri rangi*)
dan I [dæn] *n* *esk. shoir.* xo'jayin, taqsir, janob
dan II [dæn] *n* *deng.* bo'y (*suvida sayozlik, yo'l va h. k. larni ko'rsatadigan qalqovich belgi*)
dan III [dæn] *n* *tog'.* *kash.* ko'mir tashiydi-gan aravacha
dance [dɑ:nəs] 1. *n* raqs, o'yin va unga moslab yozilgan musiqa; 2. *v* raqsga tushmoq, o'yinga tushmoq, o'ynameq
dancer [dɑ:nəsə] *n* raqqos, raqqosa, o'yinchisi
dancing [dɑ:nəsɪŋ] 1. *n* raqshar, o'yinlar; o'yin, raqs; 2. *attr.* raqsga oid; ~ *party* raqs kechasi
dancing-hall [dɑ:nɪŋ,ho:l] *n* (*qahvaxona, restoranlarda*) o'yinga tushadigan zal
dandelion [dændɪlɪən] *n* hot. momaqay-moq, qoqi o't
dander I [dændər] *n* g'azablanish; jahli chiqish, qoni qaynash
dander II [dændər] 1. *n* *shotl.* sayr, tomosha; sayr (tomosha) qilish, aylanib kelish; 2) *dial.* titrash, qaltirash, badan (et) uvushish, qaltiroq, titroq, so'zak; 2. *v* *shotl.* sayr qilmoq, aylanib (o'ynab, tomosha qilib) yurmoq
dandiacal [dæn'daɪæk(ə)l] *a* oliftalarcha (oliftalardek, satanglardek) kiyingan
dandified [dændɪfaɪd] *a* juda chiroylı, kelişgan
dandify [dændɪfaɪ] *v* olifta kiyinmoq; ya-santirmoq, bezattirmoq, yasatmoq
dandle [dændl] *v* 1) (*bolani*) tizzada yoki qo'lda tebratmoq; 2) erkalatmoq
dandruff [dændrəf] *n* qazg'oq, bosh kepa-gi
dandy I [dændɪ] 1. *n* olifta, yasanchoq (*ki-yimiga zeb beradigan*) odam; 2. *a* juda chiroylı, kelishgan
dandy II [dændɪ] *n* 1) *deng.* bir machtali yelkanli kema; 2) *hind.* qayiqchi, qayiq haydovchi (*Gang daryosida*)
dandy-brush [dændɪ,brʌʃ] *n* ot qashlag'ich; qattiq cho'tka (*otlarni tarash uchun kit mo'yolidan qilingan*)
dandyish [dændɪʃ] *n* olifta
dandyism [dændɪzəm] *n* oliftalik, bashang-lik; olifta kiyinish
Dane [dein] *n* daniyalik kishi
Danelagh [dein,lo:] = *Danelaw*
- Danelaw** [dein,lo:] *n* *tar.* Daniya qonunlari (*Britaniyaning shimoli shargida X asrda joriy etilgan*)
dang [dæŋ] *v* : ~ it! jin ursin!
danger [deindzə] *n* xavf, tahdid, xavf-xatar, xatar, qo'rqinch; out of ~ xatardan xoli
danger arrow [deindzə,ærəu] *n* zigzag (*stiniq chiziq shaklidagi*) o'q; chaqmoq alov-mati
dangerous [deindzərəs] *a* xavfli, tahdid so-luvchi, xatarli, tahlikli, qaltis, yomon
danger-signal [deindzə,signl] *n* xavf (xatar) signali (xabari)
dangle [daengl] *v* osilib turmoq, osilib tushmoq
dangle-dolly [daengl,döli] *n* avtomashina-larga osiladigan o'yinchog
dangler [dængglə] *n* ishyoqmas (bekorchi, tanbal) kishi
dangling [dængliŋ] *a* osilib turgan, osib qo'yilgan, osilib tushgan
Danish [deimɪʃ] 1. *a* Daniyaga va daniyalik-larga oid; 2. *n* daniyaliklar tili
dank [dæŋk] *a* nam, ho'
dap [dæp] 1. *n* *irg'ib* ketish, sakrab ketish, *irg'ib* tushish (*koptok haqidá*); 2. *v* qarmoq balaq tutmoq (*balıq ovlamoq*)
daphne [dæfni] *n* bot. mevasi zaharli buta
dapper [dæps] *a* ozoda, toza, pokiza
dapple [dæpl] *v* yozib (*chizib*) tashlamoq, ola-bula qilib yubormoq
dapple-hay [dæpl,hei] *n* oriq ot
dappled [dæplɪd] *a* xol-xol, olachipor, dog'li
dapple-grey [dæpl, 'greɪ] 1. *a* kulrang, ko'kimtir, bo'z (*oi to'g'risida*); 2. *n* kulrang chavkar ot
darby [də:bɪ] *n* suvoqchilik (*gilkorlik*) qo-dasi; g'isht teruvchi ustanning belchasi
dare [deə] 1. *v* botinmoq, jur at etmoq, yu-ragi betlamoq; jazm qilmoq; 2. *n* chaqiriq, chaqiruv, taklif, da'vat
dare-devil [deə,devl] 1. *n* dovyurak odam; botir odam; 2. *a* botir, jasur, mard, dovyurak, qo'rmas, jur'atl, jasoratl, mardonavor, mardlarcha
daring [deərɪŋ] 1. *n* dadillik, botirlik, jasurlik, mardonavorlik; 2. *a* jasur, botir, qo'rmas, dovyurak; jasoratl, jur'atl
dark [dɔ:k] 1. *a* qorong'i, qora, qoramfir, to'q; noma'lum, tushunarli bo'lmagan; ~ eyed qorako'z; 2. *n* qorong'ilik, qorong'i; kechki payt; zulmat
darken [dɔ:k(ə)n] *v* qorong'ilashtirmoq, qorong'i qilmoq, to'smoq
darkening [dɔ:k(ə)nɪŋ] *v* qoraymoq, qora-yib ketmoq, xiranlanmoq
darkey [dɔ:kɪ] *n* negr, qoracha, qorachadan kelgan

- dark-lantern** [‘da:k,]æntən] *n* maxfiy fonus, shishali chiroq
- darkle** [‘da:kł] *v* qoraymoq, qorayib qolmoq; qorong‘ilashmoq, qorong‘i tushmoq
- darkling** [‘da:klin] *a* qoraytiradigan, qorong‘ilashtritradigan
- darkly** [‘do:kli] *adv* dushmanlik ko‘zi bilan, g‘azab bilan, yomon, yovuz, achchiqlanib
- darkness** [‘do:knəs] *n* qorong‘ilik, qorong‘i; timqorong‘ilik, zimiston, zum-ziyo; kechki payt
- darksome** [‘da:ksəm] *a* qorong‘i, qora, qoramfir, to‘q
- darling** [‘da:lɪŋ] *n* 1) sevimli, sevikli, sevilgan, sevgan, oshiq, muhabbat qo‘yligan, mehr qo‘yligan, ishqı tushgan; mahbub; 2) dilrabo, dilbar, jonon, yoqimli, aziz, chiroyli, go‘zal, iltifotli
- darn** [da:n] 1. *n* to‘rlab yamalgan joy; to‘rlash, to‘rlab yamash; 2. *v* to‘rlab yamamoq; to‘rlamoq
- darnel** [‘do:nl] *n* bot. mastak (*begona o’t*)
- darner** [‘da:nə] *n* to‘rllovchi (*usta*); to‘rllovchi ayol
- darning** [‘do:nɪŋ] *n* to‘rlash, to‘rlab yamash
- darning-needle** [‘do:nɪŋ,ni:dl] *n* to‘rlab yamaydigan igna
- dart** [da:t] 1. *n* irg‘itiladigan (otiladigan) o‘q, nayza; 2. *v* irg‘itmoq, tashlamoq, otmoq; to ~ glances nazar tashlamoq
- darting** [‘do:tɪŋ] *a* 1) jadal (ildam, tez, juda tez, shiddat, shitob) bilan olib boriladigan; 2) g‘ayrat ichiga sig‘maydigan
- darthe** [‘do:ta] *n* tib. temiratki
- Darwinian** [do:’wɪnɪən] 1. *n* darvinist, darvinchi, darvinizm tarafdoi; 2. *a* darvinizma ga oid, darvinizm...
- Darwinism** [‘do:wɪnɪzm] *n* Darwin ta’limoti (nazariysi)
- Darwinist** [‘do:wɪnɪst] *v* darvinchi
- dash** I [dæʃ] 1. *n* 1) tez (ildam, jadal) harakat; the prisoner made a ~ for freedom asir qochishga harakat qildi; 2) siltov, siltash, siltanish, irg‘ish, sapchish; 3) g‘ayrat, faoliik, qat‘iyat; amaliy kuch, kuch-quvvat, qunt, shiddat, tirishqoqlik; ~ and courage mardlik va shijoat; 4) amer. sport. a) yugurish (*asos.*, *qisqa masofada*); hundredmetre ~ yuz metrga yugurish; b) bir aylanib kelish; 5) qattiq zarba; **a** ~ with one’s hand qo‘l bilan beriladigan zarba; **at (the) first** ~ bir zarba bilan; 2. *adv* 1) qars-qurs (tars-turs, chirs-chirs, shaqir-shuqur, shatir-shutur, qasir-qusur) qilib; 2) shaloplab (shovullab, shapillab); 3) tez sur‘at bilan, shiddat (shitob) bilan, jon-jahd bilan, otilib, ildam, jadal, tez; 3. *v* o‘zini otmoq, otilmoq, tashlanmoq; oshiqmoq, oshiqib yugurmoq; yelmoq, yeldek uchmoq (yugurmoq, chopmoq), yeldekk uchib (tez) bormoq; juda tez bormoq
- dash** II [dæʃ] 1. *n* *jarg.* sovg‘a, tuhfa, tortiq, hadya, armug‘on, in‘om, tortiq; 2. *v* tortiq (sovg‘a, tuhfa) qilmoq, tortiq (sovg‘a) qilib bermoq; hadya (in‘om, armug‘on) etmoq, bekorga (tekinga) bermoq
- dash-board** [dæʃbo:d] *n* asbob-uskuna taxtası
- dasher** [‘dæʃə] *n* zo‘r muvaffaqiyat bilan hayratda qoldiruvchi inson
- dashing** [‘dæʃɪŋ] *a* epchil, chaqqon, abjir, uchqur
- dash-pot** [‘dæʃ,pot] *n* *tex.* havoli *yoki* moyli bufer, amortizator
- bastard** [‘dæstərd] *n* 1) qo‘rqoq (yuraksiz) kishi; 2) yaramas (razil, ablah) kishi
- dastardly** [‘dæstədli] *a* qo‘rqoq, yuraksiz, qo‘rqoqlik, razil, qabih, yaramas, pastkash
- data** [‘dɛta] *n* pl ma‘lumotlar, dalillar
- data-sheet** [‘dɛta,si:t] *n* 1) tasniflash; 2) tafsilotli ro‘yxat
- date** [deit] 1. *n* 1) sana (*oyning kuni*), kun, tarix; the ~ of birth tug‘ilgan kun; 2) muddat; out of ~ eskirgan; 3) uchrashuv; to make a ~ uchrashuv belgilamoq; 2. *v* sanasini ko‘rsatmoq
- dated** [‘deitid] *a* sanasi yozilgan; sanasi bor dateless [‘deitləs] *a* sanasi yozilmagan, sanasi yo‘q
- date-palm** [‘deit,pa:m] *n* xurmo daraxti
- directive** [‘dɪrɪktɪv] *n* gram. jo‘nalish kelishigi
- datum** [‘deitam] *n* (pl) **data** [‘dɛta] mat. 1) berilgan kattalik, ma‘lum kattalik; 2) ma‘lumot
- datum line** [‘deitam,lain] *n* baza chizig‘i
- datura** [‘də:tʊərə] *n* bot. bangidevona
- daub** [do:b] 1. *n* 1) yomon chizilgan rasm; 2) suvoq; 2. *v* surkamoq, surtmoq, bo‘ymoq, suvamoq
- dauber** [‘dɔ:bə] *n* no‘noq rassom, yomon rassom
- dauby** [‘dɔ:bɪ] *a* yomon chizilgan (*rasm to g‘risida*)
- daughter** [‘dɔ:tə] *n* qiz (*farzand*); ~in-law kelin
- daughter-in-law** [‘dɔ:t(ə)rmlɔ:] *n* (pl) **daughters-** o‘g‘lining xotini, kelini, kelinoyi, yanga
- daughterly** [‘dɔ:təli] *a* qiz (*farzand*)ga oid; qiz (*farzand*)larga xos bo‘lgan
- daunt** [dɔ:nt] *v* 1) qo‘rqitmoq, qo‘rqitib qo‘ymoq, cho‘chitmoq; 2) hayvonlarni bo‘ysundirmoq
- dauntless** [dɔ:ntləs] *a* jasoratl, jasur, qo‘rqimas

dauphin [dɔ:fɪn] <i>n tar. shahzoda (1830-yildan ilgarigi Fransiyada)</i>	day-spring [deisprɪŋ] <i>n shoir. shafaq, tong, subh</i>
davenport [dævnpo:t] <i>n 1) kichkina yozuv stoli; 2) amer. divan-karavot</i>	day-star [deista:] <i>n tong yulduzi</i>
daw I {do:] <i>n zog'cha</i>	daytaler [deitələr] <i>n kunbay ishchi, kunbay ishlaydigan ishchi (asosan, ko'mir konlariدا)</i>
daw II [do:] <i>v esk. shotl. tong otmoq, tong yorishmoq</i>	day-time [deitaim] <i>n kun, kunduz kun</i>
dawdle [dɔ:dł] <i>1. v 1) sudralib yurmoq, imillamoq; 2) vaqtini behuda o'tkazmoq; 2. n 1) dangasa, yalqov, ishyoqmas, tanbal, bekorchi, bekorchixon'a; 2) vaqtini bekor (behuda, befoyda) o'tkazish</i>	day-to-day [deits'dei] <i>a kunda bo'ladigan, har kungi</i>
dawdler [dɔ:dłər] <i>n dangasa, yalqov</i>	day-work [deiwa:k] <i>n kundalik ish</i>
dawn [dɔ:n] <i>1. n sahar, azon, tong, tong payti; 2. v tong otmoq; tong yorishmoq</i>	daze [dei2] <i>1. v hayron (qoyil) qoldirmoq, mahliyo qilmoq; 2. n hayron bo'lish, qoyil qolish</i>
day [dei1] <i>1. n kun, muhim sana, g'alaba; ~ and night erta-yu kech; 2. a kunduzgi day-and-night</i> [deiən(d),naɪt] <i>a kecha-kunduz davom etadigan, kecha-kunduz to'xtamaydigan</i>	dazedly [deizədli] <i>adv hayron qolib, mahliyo bo'lib</i>
day-bed [deibed] <i>n pastak, keng divan</i>	dazzle [dæzl] <i>1. n 1) ko'zni qamashtirish; 2) yorqin nur; 2. v ko'zni qamashtirmoq</i>
day-blindness [dei blam(d)nəs] <i>n tib. kunduz kuni hech narsani ko'ra olmaslik (ajratila olmaslik)</i>	d-d [dad] <i>(damned so'zining qisqartirilgan shakli)</i> a jazoga hukm etilgan kishi
day-break [deibreik] <i>n tong, tong payti, tong yorishgan payt</i>	D-day [di:dei] <i>n harb. operatsiya (harbiy harakat)ning boshlanish kuni</i>
day-dream [deidri:m] <i>n shirin xayol, orzu</i>	de- [di:-, di-, de-] <i>pref 1) ...dan ajaratish, ...dan mahrum etish; 2) yomon sifat, yetishmovchilik; 3) so'zlarga teskari ma'no beradi</i>
day-book [deibuk] <i>n 1) kundalik daftari; 2) hisob. jurnal</i>	deacon [di:k(ə)n] <i>n dyakon (pravoslav cherkovida: ruhoniylarning quyi unvoni)</i>
day-boy [deibɔi] <i>n qatnab o'qiydigan o'quvchi</i>	deaconess [di:kənəs] <i>n dyakon xotini</i>
daybreak [deibreik] <i>n tong, tong payti, tong yorishgan payt</i>	dead I [ded] <i>1. n o'lik, murda, jasad; 2. a o'lik, o'lgan, jonsiz</i>
day-dream [deidri:m] <i>n shirin xayol, orzu</i>	dead II [ded] <i>adv to'la, to'liq, mutlaqo, g'o-yat</i>
day-dreamer [dei,drı:ma] <i>n xayol suruvchi, xayolparast kishi</i>	dead-alive [dedə,laiv] <i>a o'lik, jonsiz, ruhsiz</i>
day-fly [derflayf] <i>n zool. qisqa umrlilar, juda qisqa (masalan, bir yoki bir necha kungi-na) umr ko'radigan hasharotlar otradi</i>	dead-beat I [ded,bi:t] <i>a so'zl. 1) o'lgudek (rosa, qattiq) charchagan; holdan toygan, ozib to'zgan, so'ppaygan, behol, bemajol; tinkasi qurigan; 2) horigan, joni-holi qolmagan, holdan toygan, sillasi qurigan, daqqi (ot haqida)</i>
day-girl [deig:l] <i>n qatnab o'qiydigan o'quvchi qiz</i>	dead-beat II [ded,bi:t] <i>a 1) xotirjam, tinch, ovungan, taskin topgan; 2) tebranmaydigan (magnit mili haqida)</i>
day-labourer [dei,leibər] <i>n kunbay ishlaydigan ishchi, mardikor</i>	dead centre [ded'sentə] <i>n fiz. tex. 1) turish nuqtasi; 2) ko'ch. ish to'xtagan, jilmay qolgan payt</i>
dayless [deiles] <i>a qorong'i</i>	dead colour [ded,kʌlə] <i>n xomaki bo'yoq berib chiqmoq</i>
daylight-saving [deirlat servin] <i>n (elektr energiyani tejash maqsadida) soat milini yozda bir soat oldinga surish</i>	deaden [dedn] <i>v 1) (ovozi) pasaytirmoq, yumshatmoq; 2) (kasallikni) pasaytirmoq</i>
daylong [deilon] <i>adv kun bo'yи davom etadigan</i>	dead-end [ded'end] <i>1. n tupik, boshi berk ko'cha; 2. a hech qayoqqa jilmay o'tkaziladigan</i>
day nursery [dei,nɜ:sri] <i>n bolalarning kunduzgi bog chasi</i>	deadfall [ded,fɔ:l] <i>n amer. qopqon, tuzoq</i>
day-school [deisku:l] <i>n qatnab o'qiydigan o'quvchilarining maktabi; kunduz kuni o'qiydigan maktab; oddiy maktab</i>	dead ground [ded'graund] <i>n harb. o'q tushmaydigan (tegmavdigan) fazo</i>
day-shift [deisfi:t] <i>n kunduzgi smena</i>	deadhead [ded,hed] <i>n teatrga bepul kiruvchi kishi</i>
daysman [deizman] <i>n (pl -men [-mən]) kunday ishchi, mardikor</i>	

dead letter [ded 'leta] *n* o'zgartirilmagan, ammo amalda joriy etilmaydigan qonun
dead-level [ded 'levl] *n* tekislik, tekis yet
dead lift ['dedlift] *n* behuda zo'r berish (og 'irlik ko tarishda)
deadlight ['dedlight] *n* deng. ochilmaydigan oyna
deadline ['dedlain] = **dead-line**
dead-line ['dedlain] *n* so'nggi muddat
dead load [ded 'leud] *n* tex. keraksiz yuk, orticha yuk
dead lock ['dedlok] *n* o'yma quif
deadly ['dedli] 1. a o'limga (halokatga) olib boradigan, halokatl; 2. *adv* o'lar (tuzalish-dan umid yo'q) darajada
dead-man's handle [,dedmænз 'hændl] *n* elektr poyezdlarda avtomatik ravishdag'i tormoz (haydovchi to'satdan kasal bo'lib qolsa yoki o'lib qolsa, poyezdni to'xtatadigan tormoz)
dead-office ['ded,ofis] *n* janoza, janoza marosimi
dead·pan ['dedpæn] *n* xotirjam ko'rinish
dead·point [,ded 'poɪnt] *n* 1) fiz. tex. turish nuqtasi; 2) *kn'ch.* ish to'xtagan (jilmay qolgan) payt, holat
dead reckoning [ded'rek(a)nij] *n* av. (yo'l-ni) navigatsion hisoblash
dead set ['dedset] 1. *n ov.* ovchi itning ovni payqab qotib turishi; 2. *a to'la jur'at* etilgan, bir qaror qelib bo'lingan
dead short [,ded 'ʃɔ:t] *n 1* *el.* to'liq qisqa tutashuv; 2) xato ketmaydigan o'q; 3) bexato otadigan mernan
dead-spot [,ded spɔ:t] *n* radio. sukunat min-taqasi (doirası)
dead wall [,ded wɔ:l] *n* teshik-tuynugi (derazasi) yo'q devor
dead-water [,ded,wɔ:tə] *n* ko'lmaq suv
dead weight [,ded 'weit] *n* (kemaning) to'la yuk ko'tarish qobiliyati
dead-wind [,ded 'wind] *n* qarama-qarshi tomonidan esayotgan shamol
dead-wood [,ded 'wud] *n* qurib qolgan daraxt
deaf [def] *a* qulog'i og 'ir, kar, garang
deaf-and-dumb [def(a)n'dam] *n* gung, kar-soqov
deafen ['defn] *v* kar (garang) qilmoq
deafening ['def(a)nij] *a* juda qattiq, qulogni kar qiladigan, qulogni qomatga keltiradigan
deaf-mute [,def 'mju:t] *n* gung, kar-soqov
deafness ['defnəs] *n* garanglik, qulog'i og 'irlik, karlik
deal [di:l] 1. *n* biroz miqdordagi, bir necha; a great ~ of ko'p; 2. *v* (dealt) 1) tarqatmoq; taqsimlamoq; 2) shug'llanmoq
dealer ['di:lə] *n* olinsotar

dealing ['di:lɪŋ] *n* 1) (*nimanidir kimningdir orasida*) taqsimlash; 2) harakat, muomala, ish
dealt I [delt] *past., p. p. of deal* 2
dealt II [delt] *a* qarag'ay yoki archadan qilin-gan
dean [di:n] *n* 1) *cherk.* bosh ruhoni; 2) dekan, the ~ of the faculty fakultet dekanı
deanery ['di:nəri] *n* 1) dekanlik; 2) dekanat
dear [diər] 1. a sevikli, dildan sevgan, yurakdan urgan, qadrdon; ~est jonajon, suyukli; 2) qimmat; 2. *n* oshiq, ma'shuqa
dearborn ['diəbɔ:n] *n amer.* to'rt g'ildirakli yengil arava
dear·bought ['diəbɔ:t] *a* qimmatga topiladi-gan, topib bo'lmaydigan; qimmatga sotib olingan
dearly ['diəli] *adv* muloyimlik bilan, mehribonlik bilan, xushmuomalalik bilan
dearth [də:θ] *n* oziq-ovqatning yetishmasligi, ochlik
deary ['diəri] *n* so'zl. (*murojaatda*) azizim, jonnim
death [deθ] *n* ajal, o'lim, qazo, vafot; a ~ sentence o'lim jazosi; ~less o'limas, abadiy yashaydigan
death-agony ['deθ'ægəni] *n* o'lim oldidagi Jon talvasasi
deathbed ['deθbed] *n* o'lim oldidagi damlar (lahzalar); o'lim to'shagi
death-bell ['deθbel] *n* dafn marosimi qo'n-g'iroq'i
death-blow ['deθbleu] *n* halokatl (qaltiq) zarba
death-cup ['deθ,kʌp] *n* rangsiz qurbaqasalla (zaharli zamburug')
death-damp ['deθdæmp] *n* sovuq ter (jon berayotgan odamda)
death-feud ['deθfju:d] *n* ashaddiy dushmanlik
death-hunter ['deθ,hʌntə] *n* kafanduzd (jang maydonida o'lgan va yarador bo'l-ganlarni talovchi odam)
deathless ['defləs] *a* abadiy yashaydigan, o'lmaydigan, boqiy
deathly ['deflɪ] 1. a o'ldiradigan, halokatl, halokatga (o'limga) olib boradigan; 2. *adv* o'lar (tuzalishdan umid yo'q) darajada
death-rate ['deθreit] *n* o'lim soni, miqdori
death-rattle ['deθ,rætl] *n* o'lish oldidagi xi-rillash
death-roll ['deθreul] *n* o'lganlar ro'yxati
death's-head ['deθshed] *n* bosh suyagi (ajal timsolisi)
death-struggle ['deθ,strægl] *n* o'lim talva-sasi, Jon talashish
death-trap ['deθtræp] *n* 1) xavfli (xatarli) joy; 2) halokatl (borsa-kelmas) joy

- deh** [deb] (**debutante** *so'zining qisqartmasi*) *n so'zl.* debutantka, birinchi marta chiquvchi, boshlovchi (ayol)
- debacle, debâcle** [de'i:bâ:k(ə)n], *dî:bâ:k(ə)l* *n, fr.* 1) daryoning ochlilishi (muzdan tozalanishi); 2) to'g'onning o'pirilishi; 3) tor-mor qilish, tor-mor bo'lish; halokat
- debar** [*dî:bâ:*] *v taqiqlamoq, man qilmoq*
- debarck** [*dî:bâ:k*] *v 1) tushimoq, tushib qolmoq, tushib ketmoq; 2) tushirmoq, tushirib qo'ymoq*
- debarkation** [*dî:bâ:keif(ə)n*] *n yukdan bo'shatish; yukni tushirish*
- debase** [*dî:beis*] *v 1) (narxni) tushirmoq, arzonlashtirmoq; 2) (narxni, sifatni) pasaytirmoq*
- debasement** [*dî:betsmant*] *n 1) kamsitish, xo'rash; 2) narxlarning pasayishi; 3) sifatning yomonlashishi*
- debatable** [*dî:beitəbl*] *a janjalli, munozarali*
- debate** [*dî:beit*] *1. n munozara, muzokara, bahs, tortishuv; 2. v muhokama qilmoq; munozara qilmoq; bahslashmoq*
- debater** [*dî:beitə*] *n bahs qatnashuvchisi (ishtirokchisi)*
- debauch** [*dî:bô:tʃl*] *1. n urish-janjal, mushlashish, to'polon; 2. v axloqini buzmoq, axloqsizlikni o'rgatmoq; yo'ldan ozdirmoq; ~ed axloqi buzuq; ~ery yomon yo'lga kirganlik, axloqi buzilganlik*
- debauched** [*dî:bô:tʃl*] *a buzuq (yomon yo'lga kirib ketgan)*
- debauchee** [*debo:tʃi:*] *n buzuq kishi, xotinboz, yomon yo'lga kirgan kishi*
- debauchery** [*dî:bô:tʃ(ə)n*] *n araqxo'rlik, ichkilikbozlik*
- debenture** [*dî:bentʃə*] *n qarz olish-berish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar*
- debilitate** [*dî:bilitet*] *v tib. 1) kuch-quvvatdan qoldirmoq, zaiflashitirmoq, darmonsizlantirmoq; kuchsizlantirmoq; bo'shashtirmoq, kuchini olmoq, bequvvat qilib qo'yamoq; 2) bo'shashtirmoq, susaytirmoq*
- debilitation** [*dî:bili'teʃ(ə)n*] *n tib. zaiflashib ketish, kuch-quvvatdan qolish, kuchsizlik*
- debility** [*dî:biliτ*] *n kuchsizlik, zaiflik, darmonsizlik, kasalmandlik*
- debit** [*debit*] *1. n hisob. debet, kirim; 2. v debetga yozib qo'ymoq*
- debonair** [*deba:n̄*] *a xusufe'l, xushmuonala, muloyim, ko'ngli ochiq, qunvoq*
- debouch** [*dî:bautʃl*] *v daradan ochiq joyga chiqmoq (daryo to'g' risida)*
- debouch(e)ment** [*dî:bautʃmənt*] *n daradan chiqish (yo'li)*
- debris, debris** [*debri:, 'debrî:*] *n 1) xaroba, vayrona, xarobazor; 2) asorat, qoldiq*
- debt** [*det*] *n qarz; nasiya; to get into ~ qarzga botmoq*
- debitor** [*deta:*] *n qarzdor; a ~'s prison qarzdorlar qamoqxonasi*
- debunk** [*dî:bækj*] *n so'zl. 1) obro'yini ketkazmoq, fosh qilmoq, sharmandasini chiqarmoq; 2) taxtdan tushirmoq*
- debus** [*dî:bâ:s*] *v 1) mashinadan tushirmoq, tushib qolmoq; 2) tushirmoq; 3) avtomashinadan yukni tushirmoq*
- debussing-point** [*dî:bâ:sɪŋ'pɔɪnt*] *n avtomashinadan yul tushirish joyi*
- debut** [*dî:bju:*] *n fr. birinchi marta chiqish (boslash); to make one's ~ birinchi marta chiqmoq (boshamoq)*
- debutant** [*dî:bju:tâ:ŋ*] *n fr. boshlovchi, birinchi marta chiquvchi*
- debutante** [*'debju:ta:nt*] *n fr. boshlovchi (ayol)*
- deca-** [*deka-*] *pref. o'n, o'nta, o'nov*
- decachord** [*'dekačə:d*] *1. n mus. o'n torli (simli) arfa (qadimgi greklarda: chertib chalinadigan katta musiqa asbobi); 2. a mus. o'n torli (simli)*
- decadal** [*'dekad(ə)l*] *a o'n yilda bir marta buladigan*
- decade** [*'dekeid*] *n 1) o'nta, o'n dona, o'n nafar; 2) o'n yillik muddat (vaqt); o'n yillik marosim*
- decadence** [*'dekad(ə)ns*] *n pasayish, tushish, zaiflashish, kuchsizlanish*
- decadency** [*'dekad(ə)nsı*] = decadence
- decadent** [*'dekad(ə)nt*] *1. n dekadent (dekadentlik oqimi namoyandası); 2. a 1) tush-kunlikka tushgan; 2) inqirozga uchragan*
- decaffeinated** [*dî:kæfi: neitid*] *a kofein qo'shilмаган, кофеинсиз (кофеин — кофе уруғи yoki choy bargidan olinadigan alkogol)*
- decagon** [*'dekəgən*] *n mat. o'n burchaklik (shakl)*
- decagonal** [*de'kægən(ə)l*] *a o'n burchakli*
- decagram(me)** [*'dekəgræm*] *n dekagramm (o'n gramm)*
- decahedral** [*'deka:hi:drl*] *a o'n yoqlik (shakl)*
- decalitre** [*'deka:li:tə*] *n dekalitr (o'n litr)*
- decalogue** [*'deka:log*] *n bibl. dinda (diniy kitoblarda) buyurilgan o'nta din amri*
- decametre** [*'deka:mi:tə*] *n dekametr (o'n metr)*
- decamp** [*dî:kæmp*] *v 1) qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq; 2) yashirinmoq; 3) lagerdan chiqmoq*
- decampment** [*dî:kæmpmənt*] *n 1) lagerdan chiqish; 2) qochish, qochib ketish*
- decanal** [*dî:keinl*] *a dekanga oid, dekan*
- decangular** [*de'kæŋgjula*] *a o'n burchakli*

- decant** [dr'kænt] *v suzg'ichdan o'tkazmoq, suzmoq, g'alvirdan o'tkazmoq, saralamoq*
- decanter** [di'kæntə] *n 1) grafin; 2) tex. tindirgich*
- decaphyllous** [deka'filos] *a bot. o'n bargli (o'simlik)*
- decapitate** [dr'kæpitēt] *v 1) boshini uzmoq, kallasini olmoq, boshini tanidan judo qilmoq; 2) boshliqsiz (rahbarsiz) qoldirmoq*
- decapod** [dekə'pɒd] *1. n zool. o'n oyoqli qisqichbaqa; 2. a zool. o'n oyoqli*
- decarbonate** [di'kə:bəneɪt] *v uglerodsizlantrimoq*
- decarbonize** [di'kə:bənəz] = **decarbonate**
- decathlon** [di'kæθlɒn] *n sport. o'nkurash (sportning o'n turini o'z ichiga olgan musobaqa)*
- decay** [dr'keɪ] *1. n 1) chirish, yemirilish; parchanish; 2) inqiroz, tanazzul; 2. v yiringlamoq, chirimoq; ~ed chirigan*
- decease** [di'si:s] *1. n o'lím, vafot; qazo, ajal; 2. v vafot etmoq, Jon bermoq*
- deceased** [di'si:st] *n rahmatli, marnum*
- decedent** [di'si:dənt] *n yur. tinch, osoyishta*
- deceit** [di'si:t] *n makr, aldash, pand berish, muttahamlik*
- deceitful** [di'si:tf(ə)l] *a 1) yolg'on, noto'g'ri; 2) kishini aldaydigan*
- deceitfully** [di'si:tf(ə)li] *adv makkorona, xiyonatkorona, xoinona*
- deceive** [di'si:v] *v aldamoq, chalg'itmoq; avramoq, tovlaromoq, laqillatmoq; ~d adashgan; ~r ko'zbo'yamachi, qallob*
- deceiver** [di'si:və] *n yolg'onchi*
- decelerate** [di' sel'e'reit] *v 1) sekinlashtirmoq, sekinlatmoq; 2) tezlikni pasaytirmoq*
- deceleration** [di'sel'reiʃ(ə)n] *n 1) sekinlashtirish, sekinlashish, susaytirish; 2) tormoz berish, to'xtatish*
- December** [di'sembə] *1. n dekabr; 2. attr. dekabrdra bo'ladigan*
- Decembrist** [di'sembriست] *n tar. dekabrist*
- decenary** [di'senəri] = **decennary**
- decency** [di'se:nəsi] *n odob, tartib, xushxulqlik*
- decennial** [di'senəl] *n o'n yil davom etadigan*
- decent** [di:s(ə)nt] *a 1) odobli, tartibli, tarbiyalı; 2) vijdonli, insofli, nomusli, to'g'ri, halol*
- decently** [di:snθli] *adv 1) insof bilan, odob bilan; 2) yoqimli qilib, iltifot bilan*
- decentralize** [di'sentrəlaɪz] *v markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o'tmoq yoki o'tkazmoq*
- deception** [di'se:pʃ(ə)n] *n firibgarlik, til-yog'lamachilik; aldash, firib berish*
- deceptive** [di'septɪv] *a 1) yolg'on, yolg'on dan iborat bo'lgan; 2) kishini aldaydigan, chalg'itadigan, ishonib bo'lmaydigan*
- deceptively** [di'septɪvli] *adv yolg'ondakam, yolg'ondan*
- deci-** [di'si-] *pref. o'ndan bir*
- decibel** [di'si:bəl] *n fiz. detsibel (ikkita bir jinsli fizik kataliklari — energiya, quvvat, tovush bosimi va h. k. nisbatli logarifmi bilan o'chanadigan birlik; bel (elektrotexnika, radiotexnika va akustikada energiya nisbatli logarifmi bilan o'chanadigan birlik)ning 1/10 ulushiga teng)*
- decide** [di'said] *v hal qilmoq, qaror qilmoq, botinmoq*
- decided** [di'saidid] *a 1) hal bo'lgan, hal etilgan; 2) qaror qilingan*
- decidedly** [di'saididli] *adv qat'iy, qat'iyat bilan, tortinmay, ikkilanmay*
- deciduous** [di'sidjuəs] *a bot. bargi to'kiladigan (daraxt to'g'risida)*
- decigram(me)** [di'sigræm] *n o'ndan bir gramm; grammning o'ndan biri*
- decilitre** [di'si:litrə] *n o'ndan bir litr; litning o'ndan biri*
- decimal** [di'siməl(ə)] *1. n o'nli kasr; 2. a o'nli*
- decimalism** [di'siməlizm] *n o'nli sistemalarni qo'llash, ishlatish*
- decimalize** [di'simalaɪz] *v o'nga bo'lmox*
- decimally** [di'siməli] *adv o'nli usuliga ko'ra*
- decimate** [di'simeɪt] *v har o'n kishidan bittasini o'ldirmoq (qatl etmoq)*
- decimation** [di'si:meɪʃ(ə)n] *n har o'n kishidan bittasini qatl etish*
- decimetre** [di'si:mi:tə] *n detsimetrit, o'ndan bir metr, metrning o'ndan biri*
- decimo-sexto** [di'simə'sekto] *n poligr. bosma tabog'i 1/16 ulushli kitob bichimi*
- decipher** [di'sa:fsə] *v (shartli belgilari, raqamlar bilan yozilgan xat va shu kabilarni) topib o'qimod*
- decipherable** [di'sa:fə(r)əbl] *a (topib) o'qisa bo'ladigan*
- decision** [di'si:z(ə)n] *n qaror, hukm, xulosa, fikr*
- decisive** [di'saisiv] *a hal qiluvchi*
- deck I** [dek] *n deng. paluba, paroxod (kema) sahni*
- deck II** [dek] *v yasatmoq, bezamoq, zeb (oro) bermoq, bezatmoq; to ~ a room with flowers xonani gullar bilan bezatmoq*

deck alighting [dəkə,la:tɪŋ] <i>n</i> <i>deng.</i> kema sahniga chiqish	declensional [dɪ 'klenʃənl] <i>a gram.</i> turlash bilan bog'liq bo'lgan; turlanishga oid
deck-bridge [dəkbrɪdʒ] <i>n</i> ustida mashinalar yuradigan ko'pri	declinable [dɪ 'kləməbl] <i>a gram.</i> turlanadi-gan, turlanuvchi
deck-cabin [dək 'kæbɪn] <i>n</i> kema sahnidagi xona (kayuta)	declination [dɪ 'dekli'neɪʃən] <i>n</i> 1) og'ish, chetga chiqish; 2) magnit og'ish burchagi;
deck-cargo [dək 'ka:gəʊ] <i>n</i> kema sahnidagi yuk	3) gram. turlash, turlanish
deck-chair [dəktʃeɪ] <i>n</i> (<i>kema sahnidagi yo'lovchilar uchun</i>) yengil kreslo	declinator [dəklɪ'nætər] <i>n</i> deklinator (<i>magnit og'ish burchagini o'chaydigan asbob</i>)
-decker [-dəkə] <i>murakkab so'zlarda:</i> nechta paluba borligini bildiradi; double-decker ikki qavatlisi avtobus	declinatory [dɪ 'klainat(ə)rɪ] <i>n</i> 1) og'adigan;
deck-hand [dəkhænd] <i>n</i> dengizchi	2) rad qilingan, qabul qilmaydigan
deck-house [dəkhau:s] <i>n</i> <i>deng.</i> kema sahni ustiga qurilgan va kemanasi boshqarish postlari turadigan joy	decline [dɪ 'klain] <i>1. n</i> 1) bezak, zeb-ziynat; 2) bezatish; 2. v kema sahnini bezatmoq
decking [dəkɪŋ] <i>1. n</i> 1) bezak, zeb-ziynat; 2) bezatish; 2. v qog'ozlarning chekkalarini qirgmoq	declining [dɪ 'klainɪŋ] <i>a</i> keksaygan, keksay-gan qibolgan; ~ years keksayganlik, keksay-gan
deckle [dəklɪ] <i>v</i> qog'ozlarning chekkalarini qirgmoq	declinometer [dəklɪ'mətər] <i>n</i> deklino-metr (<i>magnit og'ish burchagini o'chaydigan asbob</i>)
deckle-edged [dəklɪ'edʒd] <i>a</i> chekkalarini tekis bo'limagan (<i>qog'oz to'g'risida</i>)	declinitous [dɪ 'klivɪtəs] <i>a</i> anchasi tushib boradigan (<i>qiyalik to'g'risida</i>)
deck-light [dəkləlt] <i>n</i> <i>deng.</i> paluba	declicity [dɪ 'klivɪtɪ] <i>n</i> qiyalik, nishablik
deck-passage [dək'pæsɪdʒ] <i>n</i> (<i>joydalansmasdan</i>) palubaga o'tish	declivous [dɪ 'klivəs] <i>a</i> qiya, nishab
deck start [dək,sta:t] <i>n</i> <i>deng.</i> kema sahnidan uchish	declutch [dɪ 'klʌtʃ] <i>v</i> tex. ajratib (uzib) qo'y-moq
declaim [dɪ 'kleɪm] <i>v</i> jo'shqinlik bilan nutq so'zlamoq	decoct [dɪ 'kɒkt] <i>v</i> qaynatmoq, qaynatib pi-shirmoq
declamation [dəkla'meɪʃən] <i>n</i> deklamat-siya, badiiy o'qish	decoction [dɪ 'kokʃən] <i>n</i> 1) qaynatish, tay-yorlash; 2) (shifobaxsh) qaynatma (<i>qay-natib pishirilgan narsaning mazasi chiq-qan suvi</i>)
declaratory [dɪ 'klærətɔ:rɪ] <i>a</i> 1) notiq-likka oid; notiqlik; 2) ifodali o'qishga oid; 3) balandparvoz, dabdabali	decode [dɪ 'kəud] <i>v</i> (<i>shartli belgilari, raqamlar bilan yozilgan xat va shu kabiarni</i>) topib o'qimoq
declarant [dɪ 'klearənt] <i>n</i> yur. ariza yozuv-chi kishi	decollate [dɪ 'koleɪt] <i>v</i> esk. kallasini olmoq, boshini tanidan judo qilmoq
declaration [dəkla'reɪʃən] <i>n</i> bayonot, bayonna ma	decollation [dɪ:kə 'leɪʃən] <i>n</i> kallasini olish, boshini tanasidan judo qilish
declarative [dɪ 'klærətɪv] <i>a</i> tantanali; a ~ sentence <i>gram.</i> darak gap	decollete [dəi 'kolteɪ] <i>a</i> fr. dekolte yoqali (<i>dekolte — ayollar ko'ylagining chugur o'yilgan yogasi va shunday yogalik ko'ylik</i>)
declaratory [dɪ 'klærətɔ:rɪ] <i>a</i> tushuntirish uchun yozilgan; tushuntirib beradigan	decolour [dɪ: 'kələr] <i>v</i> rangini (<i>yo'qotmoq</i>) o'chirmoq, rangsiz qilib qo'ymoq
declare [dɪ 'kleə] <i>v</i> e'lon qilmoq, bildirmoq, aytmoq	decolourant [dɪ: 'kələrənt] <i>n</i> rangini (<i>yo'qotadigan</i>) o'chiradigan modda
declared [dɪ 'kleəd] <i>a</i> 1) e'lon qilingan; 2) tan olingen	decolouration [dɪ: 'kələrə'reɪʃən] <i>n</i> rangini (<i>yo'qotish</i>) o'chirish
declassé [dəkla:ké: 'seɪ] <i>n</i> fr. sifatsizlashgan, o'z sifidan (ijtimoiy hayotdan) tamoman uzilgan, tubanlikka tushgan	decolourize [dɪ: 'kələrəraɪz] <i>v</i> rangini yo'qotmoq, o'chirmoq
declassified [dɪ: 'kla:stɪfɪət] <i>a</i> sifatsizlashgan, tubanlikka tushgan	decompensation [dɪ: 'kɒmpen'seɪʃən] <i>n</i> tib. kompensatsiyaning buzilishi (<i>kompensatsiya — organizmda buzilgan muvozanating birmuncha tiklanishi, nuqson o'r-nining to'lishi</i>)
declassify [dɪ: 'kla:sɪfɪət] <i>v</i> sirni oshkor qilmoq, ma'lum qilmoq	
declension [dɪ 'klenʃən] <i>1. gram.</i> turlash, turlanish; 2) pasayish, kamayish, tushish; 3) yomonlashish	

decomplex [di:kəm'pleks] *a* 1) ikki baravar murakkab; 2) murakkab qismlardan iborat bo'lgan

decompose [di:kem'peuz] *v* tarkibiy qism-larga ajralmoq, parchalanmoq

decomposite [di:kəmpəzit] *1. a* murakkab qismlardan iborat bo'lgan; *2. n* tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan qandaydir narsa (*modda, so'z va b.*)

decomposition [di:kompə'ziʃ(e)n] *n* 1) fiz. kim. ajralish, ajratish, parchalanish; 2) bu-zilish, chirish

decompound [di:kəm'paund] *1. n* maxs. 1) murakkab (tarkibiy) qismlardan iborat bo'lgan qandaydir narsa; 2) murakkab so'z; *2. a* maxs. 1) ko'p qismli, ko'p bo'limdan iborat bo'lgan; ko'p bo'g'lini, murakkab qismlardan tarkib topgan

decompress [di:kəm'pres] *v* bosimni pasaytirmoq

deconsecrate [di:kənsikreit] *v* (*cherkov yeri yoki mulkini*) davlat mulkiga aylantirmoq

decontaminate [di:kən'tæmneit] *v* zararsizlanirmaoq, zararli mikroblardan tozalamaoq

decontrol [di:kan'treul] *n* davlat nazoratidan ozod qilish (chiqarish)

décor [deiko:] *n* fr. 1) (*ko'rgazma va b. ni*) bezash, bezatish; 2) *teatr.* dekoratsiya (*sahna manzarasini hosil qiluvchi anjom va bezaklar*)

decora [di:kɔ:rə] *pl* sipogarchilik, yuzaki odob

decorate [dekəreit] *v* 1) bezatmoq; 2) orden bilan taqdirlamoq

decorated [dekəreitid] *a* 1) bezalgan, bezatilgan; 2) taqdirlangan

decoration [deka'reis(e)n] *n* 1) bezak; 2) mukofot

decorative [dekərətiv] *a* 1) savlat bag'ishlaydigan, fayzli; 2) (*zeb-ziynat berish uchun xizmat qiladigan*) bezak

decorator ['dekəreita] *n* 1) bo'yochi; 2) mebel qoplovchi usta

decorous [dek(e)rəs] *a* odobli, axloqli, axloq qoidalari doirasidagi

decorticate [di:kɔ:tkeit] *v* (*po'st, po'stlog va b. ni*) yulib olmoq, uzib olmoq, shilmoq, shilib olmoq

decorum [di:kɔ:rəm] *n* odob, tartib, xush-xulqlik

decoy [di:kɔ:y] *1. n* qarmoq, tuzoq, qopqon; *2. v* aldab chaqirmoq

decoy-duck [di:kɔ:,dʌk] *n* yovvoyi o'rdaklarni tuzoqqa ilintirish uchun qo'yilgan yem (*xo'rak*)

decrease ['di:kri:s] *1. n* ozaytirish, kichraytirish; *2. v* kamaymoq, ozaymoq; *3. a* kamayish

decree [di:kri:] *1. n* farmon, qaror, qonun, farmoyish; *2. v* qonun kuchiga kiritmoq

decrement ['dekrimənt] *n* ozaytirish, pasaytirish, kamaytirish

decrepit [di:krepit] *a* 1) qartaygan, qartayib kuch-quvvatdan qolgan; 2) eskirib ishdan chiqqan

decrepitate [di:krepiteit] *v* tex. 1) qizdirib cho'g' qilmоq; 2) o'tga tutib qizdirmoq

decrepitation [di:krepit'eis(e)n] *n* *tex.* 1) qizdirib cho'g' qilish; 2) o'tga tutib qizdirish

decrepitude [di:krepitju:d] *n* 1) qartayganlik, munkillaganlik; 2) eskirganlik, eskilik

decreasing [di:kres(e)nt] *a* kamayadigan, ozayadigan, kamayuvchi, ozayuvchi

decretal [di:kri:t(e)s] *1. n* cherk. dekret (*qonun kuchiga ega bo'lgan qaror*); *2. a* 1) buyruq (farmoyish) beruvchi, buyuruvchi, amr qiluvchi; 2) ko'rsatma (*yo'l-yo'riq, maslahat*) beruvchi, tayinlovchi

decretive [di:kri:tiv] *a* dekret bilan belgilangan, dekret bilan ishlab chiqarilgan

decretory [di:kri:t(e)rı] = **decretive**

decrial [di:krai(e)s] *n* ochiqdan ochiq tanbeherish, yomonlash, ayblastirish

decry [di:krai:] *v* 1) ochiqdan ochiq yomonlamoq (ayblamoq, qoralamoq), tanbeh bermoq; 2) (*asos, eski yoki chet ei tangalarining*) qadr-qimmatini tushirmoq (ketkizmoq), qadsiz qilib yubormoq

decuman ['dekju:mən] *a* kuchli, baquvvat, quadrati (*to'lgın haqida*)

decouple ['dekju:pł] *a* o'n hissa ko'paygan

decussate [di:kəsət, di:kəseit] *a* to'g'ri burchakning ostidan ko'ndalang kesib o'tadijan

dedicate ['dedikeit] *v* 1) xabardor qilmoq, ma'lum qilmoq; 2) bag'ishlamoq, atamoq

dedicated [dedikeitid] *a* 1) sodiq, sadoqatli, fidokor; 2) atalgan, bag'ishlangan

dedication [dedi'kei(s)e:n] *n* 1) sadoqat, sodiqlik, fidokorlik; 2) bag'ishlash, bag'ishlov

dedicator ['dedikeita] *n* sadoqatli kishi

dedicatory ['dedikat(e)s] *a* bag'ishlovchi, bag'ishlaydigan

deduce [di:dju:s] *v* xulosa chiqazmoq, iziga tushmoq

deduct [di:dʌkt] *v* ayirmoq, olib tashlamоq, ayiruv amalini bajarmoq

deduction [di:dʌkʃ(e)n] *n* 1) mat. ayirish, chiqarib tashlash; 2) faraz, xulosa

deductive [di'daktiv] *a mani.* deduksiyaga asoslangan (deduksiya — umumiy holatdan xususiy xulosalar chiqarish)

dee [di:] *n* 1) D harfining nomi; 2) *tex.* D shaklidagi halqa

deed I [di:d] *n* 1) jasorat, mardlik; 2) ish, harakat, ishlash, muomala; ~s xatti-harakat

deed II [di:d] *adv. shotl.* aslida, haqiqatan

deed-poll ['di:dpaʊl] *n* *yur.* bir tomonlama majburiyat

deem [di:m] *v* faraz qilmoq, hisoblamoq, ... deb hisoblamoq

deep [di:p] 1. *a* chuqur, teran; *a ~ place* o'yiq, o'yilgan joy; 2. *n* chuqur joy

deepen [di:p(ə)n] *v* 1) chuqurlashmoq; 2) kuchayib ketmoq

deep-felt [di:p'felt] *a* chuqur his etilgan

deepfreeze [di:p'fri:z] 1. *n* muzlatuvchi qurilma; muzxona; 2. *v* muzlatmoq (*mahsulotlarni*)

deep-frozen [di:p'fraʊz(ə)n] *a* yangi muzlatilgan, endigina muzlatilgan

deep-laid [di:p'leid] *a* 1) mayda-chuydasigacha ishlab chiqilgan va maxfiy (reja); 2) chuqur joylashgan

deeply [di:płt] *adv* chuqur, teran, chuqur qilib

deep mining [di:p'mainɪŋ] *n* yer ostidan ko'mir qazish

deep-mouthed [di:p'maʊðd] *a* 1) qattiq, o'tkir, jarangli, gulduros; 2) qattiq akillarydig'an

deepnees ['di:pni:s] *n* chuqurlik, teranlik

deep-rooted [di:p'rū:tɪd] *a* chuqur ildizli, ildizi chuqur

deep-sea ['di:psi:] *a* 1) dengiz qa'rida yashaydigan; 2) chuqur (suv havzalari haqida)

deep-seated [di:p'si:tɪd] *a* chuqur o'mashgan, tomir (ildiz) otgan

deer [diə] *n* *zool.* bug'u, kiyik; **red** ~ asl bug'u

deer-forest ['diə,forɪst] *n* bug'ular qo'riqxonasi

deer-bound ['di:baund] *n* Shotlandiya tozi iti

deer-lick ['diə,lik] *n* bug'ular tuz yalaydig'an tuz tuproqlardan iborat bo'lgan yer maydoni

deer-neck ['diənek] *n* ingichka bo'yin (*otlarda*)

deer-park ['diəpɔ:k] = deer-forest

deerskin ['diəskɪn] *n* bug'u terisi

deerstalker ['diə,stɔ:kə] *n* bug'ularni ovlaydig'an ovchi

deerstalking ['diə,stɔ:kɪŋ] *n* bug'ularni ovlash

deface [di'feis] *v* 1) buzmoq, buzib qo'ymoq, ishdan chiqarmoq, noto'g'ri talqin qilmoq; 2) obro'-e'tiborini to'kmoq

defacement [di'feismənt] *n* buzilish, ay-nish, ishdan chiqish

de facto [di:'fæktəʊ] *adv lot.* aslida, haqiqatan

defalcate ['di:fælkɪt] *v* 1) begonalarning pulini o'ziniki qilib olmoq; 2) ishonchni yo'qotmoq

defamation [,defe 'meɪʃ(ə)n] *n* tuhmat, bo'hton; g'iybat; yolg'on-yashiq, uydirma

defamatory [di'færətɪ(ə)n] *a* tuhmat qilib aytilgan, tuhmatdan (bo'htondan) iborat bo'lgan, bo'hton

defame [di'feim] *v* tuhmat qilmoq, bo'hton qilmoq, g'iybat qilmoq

defatted [di:'fætid] *a* yog'sizlantirilgan, yog'i olingan

default [di'fɔ:lɪt] 1. *n* burchni bajarmaslik (asosan, pullik); 2) (*pala-partishlik natijasida qilinjan*) yanglish ish; yaxshi qaramaslik; e'tiborsizlik; 2. *v* to'lov to'lashni to'xtatmoq

defaulter [di'fɔ:ltə] *n* 1) o'z majburiyatini bajarmaydigan kishi; 2) kamomad qilgan kishi; 3) obro'-e'tiborini yo'qotgan shaxs; 4) singan savdogar

defeasance [di'fi:z(ə)ns] *n* 1) bekor qilish; kuchdan qoldirish; 2) *yur.* bekor qilish shartlari

defeasible [di'fi:zəbl] *a* bekor qilsa bo'ladijan

defeat [di'fi:t] 1. *n* 1) mag'lubiyat; **to sustain** *a ~ mag'lubiyatga uchramoq;* 2) barbod bo'lish (*reja haqida*); 3) yo'qqa chiqish (*orzu-umidlar haqida*); 4) *yur.* bekor qilish; 2. *v* 1) mag'lubiyatga uchramoq; 2) (*rejalarni*) barbod qilmoq; 3) (*orzu-umidlar va b. ni*) puchga chiqarmoq; 4) *yur.* bekor qilmoq

defeatism [di'fi:tɪzm] *n* taslim bo'lish, mag'lub bo'lish

defeatist [di'fi:tɪst] *n* 1) taslim bo'lish tarafidori; 2) qo'rqaq, jur'atsiz

defeature [di'fi:tʃə] *v* tanimaydigan qilib qo'ymoq

defecate [defiket] *v* 1) tozalamoq, tozalanmoq; 2) (*suyuglikni*) tinitimoq, tindirmoq; 3) yozilmoq, ichni bo'shatmoq

defecation [defi'keɪʃən] *n* 1) tozalash; 2) tinitish, tindirish; 3) yozilish, ichni bo'shatish

defect [di'fekt] 1. *n* 1) nuqson, illat, ayb; kamchilik, buzuqlik; 2) kamomad, kam chiqish, kam kelish; 2. *v* 1) o'z burchini bajarmaslik; 2) voz kechmoq, bahridan o'tmoq

defection [di'fekʃ(ə)n] *n* (*burchni*) buzish, xizmatdan (vazifadan) bosh tortish

defective [di'fektɪv] *a* 1) kam-ko'sti bor, chala; 2) kam, oz, yetmaydigan; 3) mukam-

- mal emas; 4) buzuq, buzilgan, shikastlan-
gan; 5) nuqsonli
- defence** [di'fens] *n* mudofaa, himoya
- defenceless** [di'fensles] *a* himoyachisiz,
o'jiz, bechora, o'zini himoya qila olmaydi-
gan
- defend** [di'fend] *v* himoya qilmoq, mudofaa
qilmoq, yoqlamoq
- defendant** [di'fendənt] *n* yur. aybdor
(javobgar, ayblanuvchi, sudlanuvchi) kishi
- defender** [di'fendə] *n* himoyachi, himoya
qiluvchi
- defense** [di'fens] *amer. = defence*
- defensible** [di'fensəbl] *a* harb. himoya
uchun quay
- defensive** [di'fensiv] *1, n 1* mudofaa; 2) qo'-
shinning jang paytida mudofaa uchun o'r-
nashgan joyi; *2, a* mudofaaga qaratilgan,
mudofaaga xizmat qiladigan
- defer** [di'fer] *v* 1) kechiktirmoq, keyinga
goldirmoq; *~red* goldirilan, kechiktirlgan;
2) kimmingdir fikri bilan hisoblashmoq;
3) boshqalarining maslahat yoki xohishi bi-
lan ish tutmoq
- deference** [*def(a)r(a)ns*] *n* hurmat, hurmat
bilan qarashi; *to show ~ to smb.* kimgadir
hurmat bilan muomala qilmoq
- differential** [*defə'rensiəl*] *a 1)* hurmat qi-
ladigan, odobli; *2)* ancha, anchagina, katta
- deference** [di'fə:mənt] *n* kechiktirish, ke-
yinga goldirish, muhlat berish
- deferred** [di'fə:d] *a 1)* sekinlashgan, paysal-
ga solingan; *2)* keyinga surilgan, kechik-
tirlgan
- defervescence** [*di:fə'vens*] *n* tib. harorat-
ning pasayishi (tushishi)
- defiance** [di'faiəns] *n* bo'yusunmaslik, itoat
qilmaslik, bosh tortish
- defiant** [di'faiənt] *a* dag'al, qo'pol, qo'rs-
lik, qo'pollik bilan, qo'rs
- defiantly** [di'faiəntli] *adv* dag'allik (qo'rs-
lik, qo'pollik) bilan, qo'rs
- deficiency** [di'fisiənsi] *n* nuqson, illat, ayb,
kamchilik
- deficient** [di'fisiənts] *a 1)* kamchil, tanqis,
yetari bo'limgan; *2)* takomillashmagan
- deficit** [defisit] *n 1)* kamormad, kam chiqish,
kam kelish; *2)* yetishmaslik, tanqislik
- defilade** [*defə'laid*] *n* harb. tabiyi pana joy
- defile I** [di'fail] *v 1)* kir qilmoq, bulg'amoq;
-d harom; *2)* tahqirlamoq, xo'rلamoq
- defile II** [di'fail] *1. n* tor tog' oralig'i, tor
yo'lak, dara; *2. v* tantanali yurish qilmoq
- defilement** [di'faimənt] *n* iflos qilish, kir
qilish, bulg'ash
- definable** [di'fainəbl] *a* aniqlab bo'ladigan,
bilib bo'ladigan, ta'riflab bo'ladigan, ta'rif-
lanishi mumkin bo'lgan
- define** [di'fain] *v 1)* aniqlamoq, belgilamoq,
topmoq; *2)* ta'riflamоq
- definite** [definit] *a* aniq, ma'lum, muqarrar;
the ~ article gram. aniq artikl; ~ly aniq,
shaksiz; ~ness qat'iylik; qat'iyat
- definition** [di'finitiən] *n* izoh, ta'rif
- definitive** [di'fmitiv] *a 1)* shak-shubhasiz;
2) ikkilanmaydigan, jasur; *3)* eng so'nggi
- deflagrate** ['defləgreɪt] *v* tez yonmoq yoki
yoqmoq
- deflagration** [*deflə'greɪʃən*] *n* portlaydi-
gan moddalarning birdan (*lov etib*) yonishi
- deflate** [di'flet] *v 1)* havoni nasos bilan
tortib (so'rib) olmoq, chiqarib tashlamоq;
2) narxni kamaytirmоq (tushirmоq)
- deflation** [*di'fleʃən*] *n mol. 1)* muomala-
dagi pul miqdorini kamaytirish; *2)* havoni
chiqarib yuborish
- deflect** [di'flekt] *v 1)* biror tomonga (bur-
moq, og'dirmoq) burib qo'ymoq; *2)* og'-
moq, engashmoq, qiyshaymoq, burilmoq;
3) yo'nalishini o'zgartirmоq
- deflected** [di'flektid] *a 1)* qaytgan, yo'nali-
shini o'zgartirgan; *2)* bukilgan, egilgan;
3) qiyshiq
- deflection** [di'flekʃən] *n* yo'nalishini o'z-
gartirish
- deflective** [di'flektiv] *a* bukiladigan, egila-
digan
- deflector** [di'flektər] *n* tex. qaytargich
- flexion** [di'fleksən] = **deflection**
- deflorate** [di'floreɪt] *a bot.* gullab bo'lgan,
guldan tushgan
- defloration** [*di:flo:r'eɪʃən*] *n 1)* gullarini
tushirish; *2)* zo'rflash; nomusiga tegish
- deflower** [di'flauər] *v 1)* gullarni uzmoq
(yulmoq); *2)* zo'rлamoq, nomusiga tegmoq
- defoliate** [di'fələteɪt] *1. a* barglari tushgan,
bargsiz; *2. v 1)* barglarini tushirmоq;
2) o'simliklarni yo'q qilmoq
- defoliation** [di'fələteɪʃən] *n* barglarning
tushishi; xazonrez, xazonrezlik
- deforest** [di'frist] *v* o'rmondagи daraxtlarni
kesib, o'rmonni yo'q qilmoq
- deforestation** [di'forəste'reɪʃən] *n* o'rmon-
ni, dov-daraxtlarni yo'q qilish, daraxtsiz
yalanglikka aylantirish
- deform** [di'fɔ:m] *v 1)* majruh qilmoq, ishdan
chiqarmоq; *2)* (*fikrnı*) buzib ko'rsatmoq;
noto'g'ri talqin qilmoq
- deformation** [di'fɔ:m] *n 1)* buzib
ko'rsatish, noto'g'ri talqin qilish; *2)* *tex.*
shaklning o'zgarishi yoki o'zgartirilishi
- deformity** [di'fɔ:miti] *n* xunuklik, badba-
sharalik, beo'xshovlik
- defraud** [di'fro:d] *v* aldamoq, yolg'on ga-
pirmoq, firib bermoq, pand bermoq

defray [di'freɪ] v to'lamoq, (*xarajat, soliq va h. k. uchun*) haq, pul to'lamoq
defrayal [di'freɪ(ə)l] n to'lanadigan (olindigan) pul, haq, to'lov
defrayment [di'freɪmənt] = **defrayal**
defreeze [di'fri:z] v (*oziq-ovqatni*) eritmoq, muzdan tushirmoq
defrock [di:'frok] v (*rohibni*) martabadan tushirmoq
defrost [di:'frost] v muz (yax)dan tushirmoq, eritmox
defroster [di:'fröstə] n tex. eritgich, muz erituvchi asbob
deft [deft] a epchil, chaqqon, abjir; usta, mohir, chapdast
defunct [di'fʌŋk(t)ət] 1. a marhum, rahmatli, o'lgan, vafot etgan; 2. n (the ~) o'lib ketgan kishi
defuse [di:fju:z] v 1) vaziyatni yumshatmoq; 2) zararsizlantirmoq
defy [di'faɪ] v 1) chorlamoq, chaqirmoq; 2) nazar-pisand qilmaslik, mensimaslik; 3) e'tiborsizlik (beparvolik) bilan qaramoq, ahamiyat bermaslik
degas [di'gæs] v zaharli gazdan tozalab zarsizlantirmoq
degeneracy [di'dʒen(ə)rəsi] n 1) zotning (nasning) buzilishi; boshqacha tug'ilish; 2) tushkunlik, inqiroz, tanazzul
degenerate [di'dʒen(ə)rɪt] 1. n zoti (nasli) buzilgan shaxs; chala (zoti, nasli buzilgan, jismoniy yoki ruhiy jihatdan aymigan holda) tug'ilgan odam; 2. a chala tug'ilgan, zoti (nasli) buzilgan
degeneration [di'dʒenə'reɪʃ(ə)n] n zotning (nasning) buzilishi
degenerative [di'dʒen(ə)rətiv] a 1) chala tug'ilgan; 2) zoti buzilgan
degrade [di'greɪd] v 1) tushkunlikka (inqirozga) yuz tutmoq; zavol topmoq; 2) (*kuch, narx va b.ni*) pasaytirmoq, tushirmoq, kamaytirmoq; 3) (*mansabdan*) pasaytirmoq; 4) kamsitmoq, yerga urmoq
degraded [di'greɪdɪd] a inqirozga yuz tutib turgan
degrading [di'greɪdɪŋ] a pastkash; kamsitadigan
degree [di'gri:] n 1) daraja, bosqich, pal-la, pog'ona; by ~s asta-sekin; **to the last** ~ so'nggi darajagacha; 2) daraja, saviya; 3) unvon, ilmiy daraja; 4) qarindoshlik darajas; 5) gram. daraja; 6) mat. daraja
degression [di'gres(ə)n] n 1) kamayish, ozayish, 2) soliqlarning pasayishi
degressive [di'gresɪv] a pasayuvchi, karmayib boradigan

dehisce [di'his] v ochilmoq, yorilib chiqmoq (*ko'sak haqida*)
dehiscent [di'hisnt] a ochilayotgan, yozilayotgan (*ko'sak haqida*)
dehorn [di:hɔ:n] v shoxlarni (muguzni) aralamoq
dehumanize [di:hju:mənaɪz] v vahshiy odamga aylantirmoq
dehydration [di:haɪdrē'eɪʃn] n kim. suvsizlantirish, suvini qochirish
dehydrogenize [di'haɪdrədʒənaɪz] v kim. vodordni ketkizmoq (olib tashlamoq, yo'-qotmoq)
de-ice [di:'ais] v muzlashning oldini olmoq (barstaraf etmoq)
de-icer [di:'aisə] n muzlashga qarshi vosita (modda)
deictic ['daiktik] a mant. bevosita isbotlovchi, ishonituruchi
deification [di:fɪ'keɪʃ(ə)n] n ilohiyashtrish, sig'inish, xudo deb bilish
deify [di'fai] v ilohiyashtrirmoq, xudo deb bilmoq, sig'inmoq, topinmoq
deign [deɪn] v lozim ko'rmoq (topmoq); munosib ko'rmoq
deism [di'iz(ə)m] n deizm (*Xudoni tan oluvchi, lekin uning tabiat tarraqiyotiga daxli yo'q deb biluvchi diniy-falsafiy ta'limot*)
deist [di:ist] n deizm tarafdiri
deity [di:iti] n 1) Tangri; Allah; 2) ma'buda, but, sanarn
deject [di'depekt] v xafa qilib (ranjitib) qo'yamoq
dejecta [di'depektə] n pl 1) ichni bo'shatish; 2) axlat, najas
dejected [di'depektɪd] a xafa bo'lgan, ranjigan
dejection [di'dekeʃ(ə)n] n ruhiy tushkunlik, g'amginlik, ma'yuslik
dejeuner [deʒəneɪ] n /r. dabdabali, bezatilgan yoki rasmisy (*nonushka*)
de jure [di:dʒʊərt] a lot, yuridik
delaine [də'leɪn] n yengil ko'yakbop mato
delate [di'leɪt] v 1) ayblamoq; 2) xabardor qilmox; 3) ovoza qilib yubormoq
delation [di'leɪʃ(ə)n] n chaquv, zimdan berilgan xabar, chaqim
delator [di'leɪtər] n chaqimchi, xabar beruvchi
delay [di'lei] 1. n kechiktirish, keyinga surish; 2. v kechiktirmoq, keyinga surmoq
delayed-action mine [di'leid,ækʃ(ə)n'main] n harb. belgilangan vaqtida portlaydigan mina
delayed drop [di'leiddrop] n parashutni ancha vaqt ochmay tushish
dele [di:li(:)] 1. n chiqarib tashlashning korrektura (korrekturnaga oid) belgilari; 2. v

- belgilarni o'chirib tashlamoq (korrekturada)**
- delectable** [di'lektabl] a g'oyat go'zal, ajoyib, qoyilmaqom
- delection** [di'lek'steʃ(ə)n] n 1) orom, lazat, maza, zavq; 2) orom olish, lazzatlanish, zavqlanish
- delectus** [di'lektas] n lot. makt. lotin yoki grek xrestomatiyasi
enjoin [ɪn'dʒɔ:n] v 1) ko'sratma (yo'l-yo'-riq, maslahat) bermoq, tayinlamoq (on, upon); 2) buyuruq (farmoyish) bermoq, buyurmoq, amr qilmoq; to ~ silence upon smb. kimdirdir jim bo'lishini so'ramoq; 3) yur. man qilmoq, taqiqlamoq

enjoy [ɪn'dʒɔ:ŋ] v 1) (*biror narsani*) yaxshi ko'rmoq, (*biror narsadan*) rohatlanmoq;

2) (*biror narsadan*) maza (huzur) qilmoq; xursandchilik qilmoq; vaqtini yaxshi o'tkazmoq; 3) foydalamanmoq, ega bo'lmoq

enjoyable [ɪn'dʒɔ:bl] a yoqimli, ko'ngilli, yoqimtoy, dilkash

enjoyment [ɪn'dʒɔ:mənt] n 1) mammun bo'lish, huzur-halovat, lazzat; 2) (*biror narsa-*

- ga) egalik qilish; (*biror narsadan*) foydalanish
enkindle [in' kindl] v (*urush, ehtiros va sh. k. ni*) yoqmoq, yondirmoq, o't oldirmoq
enlace [in' leis] v o'rab bog'lamoq, chulg'a-moq; o'rab tashlamoq, kishanlamoq, tu-shovlamoq
enlarge [m'lɔ:dʒ] v 1) kengaymoq, kengaytimmoq; 2) tarqatmoq
enlarged [in'lɔ:dʒd] a kengaytirilgan, kengaygan; an ~ meeting kengaytirilgan majlis; a revised and ~ edition to 'ldirilgan va qayta ishlangan nashr
enlargement [m'lɔ:dʒmant] n kengaytirish, ko'paytirish
enlighten [in' laɪtn] v 1) *shoir.* yoritmoq, yoritib ko'rmoq; 2) ma'rifat tarqatmoq, bilim bermoq, ma'rifatlari qilmoq; 3) xabar qilmoq, ma'lum qilmoq
enlightened [in' laɪt(ə)nd] a 1) ma'rifatlari, bilimli; 2) xabardor, biladigan, ma'lumotli
enlightener [m'laitnə] n 1) ma'rifat targatuvchi, ong-bilim tarqatuvchi, ma'rifatchi, ma'rifatparvar; 2) xabardor qiluvchi, ma'lumot manbayi
enlightenment [in' laɪt(ə)nment] n 1) ma'rifatlari, ma'rifatlilik; 2) (qo'shimcha) ma'lumotlar
enlist [in' list] v 1) harbiy xizmatga o'z ixtiyori bilan bormoq; 2) qo'llab-quvvatlaymiz degan va'dasini oldindan olib olmoq; o'z tomoniga og'dirmoq; to ~ smb.'s support kimningdir qo'llab-quvvatlaymiz degan va'dasini oldindan olib olmoq
enlisted [in' listid] a amer. harb. muddatli xizmatdagisi; an ~ man askar; oddiy tarkibdagi yoki serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchi
enlisted [,enlis ti:] n amer. harb. harbiy xizmatga qabul qilingan shaxs
enliven [in' laɪv(ə)n] v Jon kiritmoq; jontantimoq, g'ayrat bag'ishlamoq
en masse [,mæs] adv fr. 1) asosan, aksar; ko'pchilik e'tibori bilan; 2) umuman aytganda, olganda; 3) hamma birga bo'lib (baravarga, birgalikda, birgalashib)
enmesh [in mesf] v o'rab bog'lamoq, kishanlamoq
enmity [enmiti] n dushmanlik, adovat; un-expressed ~ dildagi dushmanlik; to be at ~ with smb. kim bilandir dushmanlik munosabatida bo'lmoq
ennoble [i'neub(ə)l] v ma'naviy jihatdan yaxshilamoq, fazilatlarini oshirmoq
ennoblement [i'neub(ə)mənt] n 1) fazilatlarini oshirish; 2) naslini (zotini yoki sifatini) yaxshilash; 3) unvonini oshirish, yu-qori darajaga ko'tarish
ennui [on' wi] n fr. zerikish, ziq bo'lish, diqqati oshish
enormity [(i no:miti] n jirkanchlik, yaramaslik, razillik, qabiblik
enormous [i no:məs] a juda katta, ulkan; ~ sum katta summa; ~ changes katta o'zgarishlar
enormously [i no:mesli] adv favqulodda, haddan tashqari, juda ham, o'ta; the town has changed ~ shahar haddan tashqari o'zgarib ketgan
enough [i na:f] 1. *adv* yetarli, yetarli dara-jada, yetarlicha; kifoya; 2. *n* yetarli miqdor; 3. a yetarli, yetadigan, kifoya qiladigan
enounce [i(:) nauns] v aytmoq, bildirmoq
enow [i nau] so'zl. *shoir.* enough ga qarang
enplane [in' plen] = *emplane*
enquire, enquirer, enquiry [in' kwærə, -rə, -ri] = inquire, inquirer, inquiry
enrage [in' reɪdʒ] v achchig'ini (g'azabini) keltirmoq, qonini qaynatmoq
enrapture [in' ræptʃə] v maftun qilmoq, qoyil goldirmoq, g'oyat zavqlantirmoq
enrich [in' ritʃ] v boyitmoq, boyligini oshirmoq
enquire, enquirer, enquiry [in' kwærə, -rə, -ri] = inquire, inquirer, inquiry
enrobe [in' rəʊb] v kiyintirmoq, yasantirmoq; kiygizmoq
enrol(l) [in rəʊl] v ro'yxatga yozmoq, ro'yxatdan o'tkazmoq
enrol(l)ment [in'reəlmənt] n ro'yxatga kiritish (qo'shish, yozib qo'yish); ro'yxatdan o'tkazish, ro'yxatga olish, qayd qilish
enroot [in' rut] v 1) ildiz otirmoq, ildiz otishiga (o'sishiga) sharoit yaratmoq; 2) ko'ch. joriy qilmoq, rasm qilmoq, singdirmoq, yomyoq, kirkizmoq
en route [,on' ru:t] adv fr. yo'l-yo'lakay
ensanguine [in' sæŋgwɪn] v kit. qonga belamomoq, qon to'kmoq
ensanguined [in' sæŋgwɪnd] a qonga bo'yalgan; qonga belangan
ensconce [in skəns] v qulay o'mashib (joylashib) olmoq; to ~ oneself cosily qulay o'tirib olmoq
ensemble [on somb(s)] n 1) mus. ansambl; 2) (ijrochilar) guruhi; 3) umumiylar taassurot
enshrine [in' ſrain] v 1) *cherk.* raka (xristianlar cherkoviya: avliyolar jasadi saqlanadigan maqbara) ga qo'ymoq (joylashitirmoq); 2) (yodgorlik, xotira va b. ni) saqlamoq, unutmaslik
enshroud [in' ſraud] v o'ramoq, burkamoq, o'rab qo'ymoq
ensign [ensain] n 1) nishon, belgi; 2) bay-roq; a blue ~ kema quyrug'idagi ko'k bay-

roq (ingizlarda); **a red** ~ inglizlarning savdo bayrog' i; **a white** ~ inglizlarning harbiy-dengiz bayrog' i
ensilage [ən'silidʒ] *n* silos tayyorlash; **an ~ harvester** silos yig'ish kombayni
ensile [ən'sail] *v* silos bostirmoq
enslave [ən'slev] *v* qul qilmoq, asoratga solmoq, ozodlikdan mahrum qilmoq
enslavement [ən'slevmənt] *n* qul qilish, asoratga solish; **bo'ysundirish**
enslaver [ən'sleivər] *n* qul qiluvchi, asoratga soluvchi, zolim, yovuz
ensnare [ən'sneər] *v* tuzoqqa ilintirmoq (tushirmoq); ushlab olmoq
ensoul [ən'soul] *v* ruhlantrimoq; ilhomlantrimoq, ruhini ko'tarmoq, g'ayratini oshirmoq
ensue [ən'sju:] *v* 1) ketidan kelmoq; natijasi bo'lmoq, kelib chiqmoq; 2) *shoir*: intilmoq, izlamoq, yetishmoq
ensuing [ən'sju:ɪŋ] *n* natijada kelib chiqadigan (yuzaga keladigan), keyingi, kelgusi, kelasi; **in the ~ year** kelasi yili, kelgusi yilda
en suite [ən'swɪ:t] *v* qo'shma, yonma-yon
ensure [ən'sjuər] *v* 1) ta'minamoq, kafolat bermoq; 2) sug'urta qilmoq; himoya qilmoq
entablature [ən'tæblətʃər] = **entablement**
entablement [ən'teblmənt] *n* me'mor. antablement (shifting bevosita ustunlarga tayangan bezakli qismiları)
entail [ən'teɪl] 1. *v* sabab bo'lmoq, ...ga olib bormoq; 2. *n* mayorat (feodalizmdan qolgan vorislik taribi)
entangle [ən'tæŋgl] *v* chal-kash-tirmoq, chal-kash-chulkash qilib yubormoq
entangled [ən'tæŋglɪd] *a* chalkash, chigal, chalkashib ketgan
entanglement [ən'tæŋg(ə)lmənt] *n* 1) chalkashlik, chigallik; 2) qiyin (tang) ahvol; 3) *harb.* (tikanli) sim to'siq
entente [ən'tont] *n* bir guruh davlatlar o'r-talaridagi do'stona shartnomasi (bitim); **the E. tar. Antanta** (imperialistik davlatlar o'r-tasida tuzilgan turli bloklarning umumiy nomi)
enter [ən'tər] *v* 1) (*ichkariga*) kirmoq; **to ~ a room** xonaga kirmoq; 2) kirmoq, a'zo bo'lmoq; **to ~ the army** armiya safiga kirmoq; 3) ro'yxatga kirmoq; 4) qatnashmoq; **to ~ a race** poygada qatnashmoq; 5) (*on*) kirishtirmoq, boshlamoq
enteric [ən'terik] 1. *anat.* a qoringa oid, qorin; 2. *n tib.* ich terlama
enteritis [ən'tərītɪs] *n* *tib.* enterit, ingichka (achchiq) ichakning yallig'lanishi

enterprise [ən'trepraɪz] *n* 1) muassasa, korxona; **a private** ~ xususiy korxona; 2) ud-daburonlik, epchillik, tashabbuskorlik
enterprising [ən'təprəɪzɪŋ] *a* uddaburon, epchil; tashabbuskor
entertain [ən'tə'reɪn] *v* 1) mehmonlarni qabul qilmoq, mehmon qilmox; 2) ko'ngil ochmoq; 3) e'tiborga (nazarga) olmoq, hisobga olmoq, nazarda tutmoq; **to ~ a proposal** taklifi ko'rib chiqmoq; **to ~ a demand** tabjni e'tiborga olmoq
entertaining [ən'tə'reɪnɪŋ] *a* 1) qiziq, ajib, g'alati; 2) ko'ngil ochadigan, vaqtini chog' qildigan
entertainment [ən'tə'reɪnmənt] *n* 1) mehmonlarni qabul qilish; 2) o'yin-kulgi; sayrmosha
enthalpy [ən'θælpɪ] *n fiz.* entalpiya, tarkibida issiqqlikni saqlash
enthral(l) [ən'θrɔ:l] *v* o'ziga tortmoq, jalb qilmoq
enthralling [ən'θrɔ:liŋ] *a* qiziq, qiziqtiradigan, zavqli, maroqli, jozibador, zavq (havas) keltiradigan
enthrone [ən'θraʊn] *v* taxtga o'tqazmoq, podsho qilib ko'tarmoq
enthronement [ən'θraʊnmənt] *n* taxtga o't-kazish, podsho qilib ko'tarish
enthuse [ən'θju:z] *v* so'zl. 1) qoyil qolmoq; tahsin o'qimoq; 2) qoyil qoldirmoq, g'oyat zavqlantirmoq
enthusiasm [ən'θju:ziəz(ə)m] *n* zavq-shavq, g'ayrat, ishtiyoq, tashabbus
enthusiast [ən'θju:ziəst] *n* g'ayrat (zavq-shavq) bilan istihaydig'an odam, tashabbuskor
enthusiastic [ən'θju:zi 'æstɪk] *a* zavqli, quvonchli, zavqqa to'lgan, o'zida yo'q xursand
enthusiastically [ən'θju:zi 'æstɪk(ə)li] *adv* g'ayrat bilan, ishtiyoq bilan
entice [ən'tais] *v* qiziqtirmoq, havasini keltirmoq; **to ~ away** qiziqtirib qo'yamoq, diq-qatini chetga tortmoq
enticement [ən'taismənt] *n* qiziqtiradigan narsa
enticing [ən'taisɪŋ] *a* yo'ldan ozdiruvchi, vasvasa qiluvchi
entire [ən'taɪər] *a* to'la, butun, tugallangan, to'liq, to'la-to'kis, mukammal
entirely [ən'taɪəlɪ] *adv* to'la, to'liq, batamom, to'la-to'kis, tamomila
entirety [ən'taɪərɪtɪ] *n* to'latlik, to'liqlik; 2) butunlik, yaxlitlik; **in its ~ to'la, to'liq,** batamom, to'la-to'kis, tamomila
entitle [ən'taɪtl] *v* 1) sarlavha qo'yamoq; 2) va-kolat bermoq; **to be ~d to smth.** nimagadir haqi (huquqi) bo'lmoq

- entity** [‘entit̫] n 1) mavjudot, organizm (*har qanday jan egasi*); 2) tashkilot, idora, muassasa; a **political** ~ siyosiy tashkilot; a **legal** ~ yuridik shaxs
- entomb** [in’tu:m] v ko’mmoq, dafn etmoq
- entombment** [in’tu:mmənt] n ko’mish, dafn etish
- entomological** [‘entəməlɒdʒɪk(ə)l] a entomologiyaga oid, entomologik
- entomologist** [‘entəmɒlədʒɪst] n entomolog (*entomoliyiga mutaxassisı*)
- entomology** [‘entəmɒlədʒi] n entomologiya (*zoologyaning hasharotlarni o’rganadigan bo’limi*)
- entourage** [‘ontʊrɑ:g] n o’rab olgan muhit, sharoit
- entr’acte** [‘ontræk̫t] n antrakt, tanaffus (*teatrda, konsertda*)
- entrails** [‘entreɪlz] n 1) *anat.* qorin, ichak-chovoo; 2) yer tagi, yer osti
- entrain** [in’treɪn] v o’tqizmoq, o’tirg’izmoq (*poyezdga*)
- entrance** I [‘entrəns] n 1) kirish, kirish eshi-gi; no ~ kirish taqiqlanadi; chiqish; 2) kirish (*maktabga*); ~ to **university** universitetga kirish; 3) boshlanish, kelish; the ~ of the spring bahorning kelishi
- entrance** II [‘entrəns] v g’oyat xursand bo’lish, hushdan ketish va b. holatlarga olib kelmoq (*keltirmoq*)
- entrancing** [in’tra:nṣɪŋ] a dilbar, shaydo qiluvchi
- entrant** [‘entrənt] n 1) (*tashkilotga*) kiruvchi (*yangi a’zo*); 2) o’qishga kiruvchi
- entrap** [in’træp] v 1) qopqonga tushirmoq; to ~ elephants for use in a circus fillarni sirk uchun ovlamоq (*tuzoqqa tushirmoq*); 2) aldamoq
- entreat** [in’tri:t] v 1) yalinmoq, o’tinib so’ramoq; 2) ... deb hisoblamоq; they were ~ed as maniacs ularni aqдан ozishgan deb hisoblashdi
- entreaty** [in’tri:tɪ] n yalinish, o’tinib so’rash
- entrechat** [‘ontrəʃa:t] n antrasha (*balerda oyoqlarni bir-biriga urib sakrash*)
- entrecole** [‘ontrəkɒt] n antrekot (*1. molning qovurg’ago’shti; 2. shunday go’shtan tay-yorlangan ovqat turi*)
- entree** [‘ontrē] n 1) kirish (*yoki foydalinish*) huquqi, kirish (*yoki foydalinish*) uchun ijozat (*ruxsat*); kira (*foydalana*) olish; 2) amer. asosiy ovqat (*tushlik ovqat paytida*)
- entremets** [‘ontrəmeɪ] n fr. pl (*asosiy ovqatlar o’rtalarida beriladigan*) qo’shimcha ovqat
- entrench** [in’trentʃ] v 1) o’ra qazimoq; xandaqlar bilan mustahkamlamoq, xandaq qazish ishlari amalga oshirmoq; 2) yashirmoq, bekitmoq; 3) (*huquq va b. ni*) buzmoq
- entrenched** [in’trentʃt] a 1) *harb.* xandaqlar bilan mustahkamlangan; 2) mahkam, pishiqli, kuchli; 3) ildiz otgan; ~ **habits** singib ketgan odatlар
- entrenchment** [in’trentʃmənt] n 1) *harb.* okop, transheyta, xandaq, o’ra; 2) so’zl. amer. buzish; tajovuz qilish
- entrepreneur** [‘ontrəprə’na:s] n 1) antreprenyor (*teatr, sirk va sh. k. xo’jayini*); 2) tadbirkor; korxona egasi; small ~ mayda korxona egasi
- entresol** [‘ontresol] n antresol (*pastak boloxona*)
- entropy** [‘entrəpi] n fiz. entropiya (*tizim holatining termodinamik ehtimolini ifoda-lovchi kattalik*)
- entruck** [in’træk̫] v (*mashinaga*) o’tqizmoq, o’tirg’izmoq
- entrust** [in’trust] v ishonib topshirmoq, yuklamоq
- entry** [‘entrɪ] n 1) kirish; no ~ kirish taqiqlanadi; 2) boshlanish; 3) qatnashuvchilar ro’yxati; 4) eshik, darvoza
- entry-level** [‘entrɪ,lev(ə)l] a endigina boshlagan (yosh) foydalanuvchilar uchun mo’ljallangan
- entwine** [m ‘twain] v 1) qo’shib o’rmoq, qo’shib to’qimoq (with); 2) o’ramoq, chulg’amoq (about)
- enucleate** [i ‘nju:kliət] v aniqlamoq, oydinlashtirmoq
- enumerate** [i ‘nju:məreɪt] v sanab (hisoblab) chiqiqmoq
- enumeration** [i ‘nju:məreɪʃ(ə)n] n 1) ro’yxat, sanoq; 2) hisoblab chiqish
- enumerator** [i ‘nju:məreɪtə] n hisobchi, sa-noqchi (*aholini ro’yxatga olish bo’yicha*)
- enunciate** [i ‘nʌnsieɪt] v e’lon qilmoq, ma’lum qilmoq; 2) talaffuz qilmoq; to ~ correctly to’g’ri talaffuz qilmoq
- enunciation** [i ‘nʌnsɪ ˈeɪʃ(ə)n] n 1) talaffuz, talaffuz qilish; 2) dixsiya (*talaffuz tarzi, talaffuzning aniq-ravshanlik darajasi*); 3) bildirish, e’lon qilish
- enure** [i ‘njʊə] v yur. 1) kuchga kirmoq; 2) yuridik ta’siri bo’lmoq
- enuresis** [enju:’ri:sɪs] n tib. siydiq ushlab turmoslilik, siyib qo’yish
- envelop** [in’veləp] v 1) o’ramoq, o’rab qo’ymoq; 2) *harb.* o’ramoq, qurshamoq, o’rab (*qurshab*) olmoq; 3) o’ramoq, burkamoq; o’rab (*bukrab*) qo’ymoq; o’rab (*bukrab*) olmoq; ~ed in flames o’t (olov) o’z ichiga

qamrab olgan, alanga olgan; ~ ed in mystery sirli; sirlargacha chulg'angan
envelope [envələʊp] n konvert; ~ paper konvert qog' ozi
envelopment [ɪn'veləptmənt] n 1) o'rash, o'rab qo'yish; 2) harb. o'rab (qurshab) olish
envenom [ɪn'venəm] v 1) zaharlamoq, zahar berib o'lfirmoq; 2) buzmoq, xira qilmoq, zaharlamoq; to ~ smb.'s life hayotini buzmoq
envenomed [ɪn'venəmd] a yomon, youz
enviable [enviəb(ə)l] a havas keltiradigan, havas qilgudek; ~ position havas qiladigan holat
envious [enviəs] a hasadli, ichi qora; ~ looks hasad bilan qarash
environ [ɪn'vei(ə)rən] v tevaragida joylashgan bo'immoq
environment [ɪn'vei(ə)rənmənt] n atrof-muhit; one's home ~ olivayi muhit
environmental [ɪn'vei(ə)rənl mentl] a kit. atrof-muhitga oid; atrof-muhitning iflosanishiga qarshi kurashga oid; an ~ research atrof-muhitni o'rganish
environmentalist [ɪn'vei(ə)rənl mentl-ist] n 1) atrof-muhitni muhofaza qilish; 2) atrof-muhit masalalari bo'yicha mutaxassis
environs [ɪn'vei(ə)rənz] n pl atrof, tevarak; London and it's ~ London va uning atrofi
enviseage [ɪn'veizidʒ] n 1) masalani ko'rmoq, muhokama qilmoq; 2) oldindan ko'rmoq, bilmoq; 3) tasavvur qilmoq
envision [ɪn'veiz(ə)n] v kit. tasavvur qilmoq, (nimadir) ko'z oldiga (xayolga) keltirmoq
envoy I [envɔɪ] n 1) elchi, agent, vakil; 2) diplomatik vakil
envoy II [envɔɪ] n dostonning so'nggi bandi
envy [envɪ] 1. n hasad, rashk; out of ~ hasad (rashk) qilganidan; 2. v hasad qilmoq, rashk qilmoq
enwrap [ɪn'ræp] v o'ramoq, burkamoq
enzyme [enzaɪm] n enzim, ferment (*tirik hujayradra ishlab chigiriladigan va organizmunda modda almashinuvini tartibga solib turadigan organik modda*)
Eocene [ɪ:əʊsi:n] n geol. eotsen (*paleogen davrining o'rta bo'limi*)
eolation [i:əʊ'ləiʃ(ə)n] n geol. nurash, yemirilish
eon [i:ən] = aeon
eparch [epə:k] n yeparxiyaning boshlig'i
eparchy [epə:ki] n yeparxiya (*arxiyerey qo'l oslidagi cherkov okrugi*)
epaulet(te) [epə'let] n epolet (*hashamatli zar pogonlar*)

epee [epee] n sport. shpaga (*qılıchsimon nazya*)
epenthetic [lepen 'θetik] a tilsh. epenteza (*tovushning ortishi*)ga oid; epentetik, orttirlig'an (*tovush yoki harf haqida*)
ephedrin(e) [efidrin, i'fedrin] n farm. efedrin (*efedradan olinadigan dori*)
ephemera [i'femərə] n (pl *shun, -ridae*) 1) zool. bir kun yashaydigan jonivor; 2) pl tez o'tib ketadigan qandaydir narsa
ephemeral [i'fem(ə)rəl] a vaqtinchalik, bevafo, omonat
ephemeridae [i'fem(ə)ridi:] pl of *ephemera*
epic [epik] 1. a epik; 2. n epik doston
epical [epik(ə)] = epic 1
epicene [epi'senə] a gram. umumiyl rodagi, umumiyl rodga oid, umumiyl rod ...; 2) ikki jinsli; 3) xotinchalish, xotinnamo; 4) erkak yoki urg'ochilik ajomati yo'q, jinsiz
epicentre [epi'sentə] n epitsentr (*ziltiza markazi ustidagi yerlar*)
epicure [epikju:e] n epikureyets, epikurezm tarafdoi
epicurean [epikju:r:i:ən] a epikureistik, aysh-ishrat qilishga chaqiradigan
Epicureanism [epikju:r:i:ən(zə)m] n 1) Epikur ta'limoti; 2) ishratparastlik, aysh-ishratga berilish
epicurism [epikju:rɪz(zə)m] = Epicureanism
epicycle [lepisaiıklık] n astr. epitsikl (*ptolemyning geotsentrik sistemasidagi yordamchi aylana*)
epicycloid [epi'saiklɔɪd] n mat. epitsikloida (*tekislikda radiusli R ga teng bo'lgan qo'zg'almas aylana bo'ylab, sirpanmay karatlanuvchi R radiusli aylana nuqtasi (M) chizgan trayektoriya*)
epidemic [epi'demik] 1. n epidemiya (*yugumli kasallitiklarning keng tarqalishi*); an ~ disease epidemik kasallik; 2. a epidemiyaga oid; keng tarqaladigan, epidemik
epidemical [epi'demik(ə)] = epidemic 2
epidemiology [epi'demiol'ođzi] n epidemiologiya (*yugumli kasalliliklar haqidagi fan*)
epidermal [epi'də:m(ə)l] a anat. epidermik
epidermic [epi'də:mik] = epidermal
epidermis [epi'də:mis] n biol. epidermis (*umurtqali hayvonlar va odam terisining tashqi qavatlari*)
epidiascope [epi'daiəsko:p] n epidiaskop (*ekranga tasvir tushiradigan optik asbob*)
epigastric [epi'gæstrik] a me'da (*jig'ildon qaynashi, zarda*)

epigastrium [lepi'gæstrɪəm] <i>n anat.</i> qorining ustki qismi atrofidagi joy	epistyle [epɪstɪl] <i>n 1) me'mor.</i> arxitrav, asosiy balka, sarrov; 2) xari (<i>qurilishda</i>)
epiglottis [lepi'glɒtɪs] <i>n</i> kichik til, tilcha	epitaph [epɪtæf] <i>n epitafiya</i> (<i>qabr toshiga bitilgan yozuv</i>)
epigone [epɪgɔːn] <i>n</i> epigon, taqlidgo'y (<i>biror oqimga ergashuvchi va ijoddan uzoq odam</i>)	epithelia [epɪ'θi:lɪə] <i>pl of epithelium</i>
epigoni [e'pɪgənai] <i>pl of epigone</i>	epithelial [epɪ'θi:lɪəl] <i>a</i> epitheliya oid, epithelial
epigram ['epɪgræm] <i>n</i> epigramma (<i>kichik hajviy she'r</i>)	epithelium [epɪ'θi:lɪəm] <i>n</i> (<i>pl -lia [-liə]</i>) biol. epithely (<i>to'qiması</i>), epithelial to'qima (<i>odam, hayvon va o'simlik a'zolarini sirtdan qoplab turuvchi to'qima</i>)
epigrammatist [epɪ'græmətɪst] <i>n</i> epigrafning muallifi	epithet [epɪ'tɛt] <i>n 1) epitet,</i> sıfatlash, vasf; 2) termin; atama, nom
epigraph [epɪgra:f] <i>n</i> epigraf (<i>adabiy asar ning tepeasiyo yozilgan biror jumla, ibora</i>)	epitome [i:pɪtəmɪ] <i>n 1) konspekt,</i> qisqa baryon; 2) rezume; 3) yakun, natija
epigraphy [e'pɪgræfi] <i>n</i> epigrafika (<i>qadimgi yozuvlarni o'rganadigan fan</i>)	epitomize [ɪ:pɪtəmaɪz] <i>v</i> konspekt yozmoq, mazmunini qisqacha yozib olmoq
epilate [epileɪt] <i>v</i> <i>tib.</i> sochlarini oldirib tashlamoq	epizootic [epɪzətɪk] <i>1. a</i> keng targaladigan (<i>hayvонlarda epidemiyasi tusini oladi-gan</i>); 2. <i>n</i> epizootiya (<i>hayvонlarda yuqumli kasalliklarning keng targalishi</i>)
epilation ['epi'leɪʃ(ə)n] <i>n</i> sochni oldirib tashlash	epoch ['i:pok] <i>n 1)</i> davr; vaqt, asr; 2) buriish nuqtasi, keskin o'zgarish
epilepsy ['epilepsi] <i>n</i> <i>tib.</i> epilepsiya, tutqanoq (<i>kasallik</i>)	epochal [epok(ə)l] <i>a</i> davrga (epoxaga) oid, davrni tashkil etadigan
epileptic [epi'lɛptɪk] <i>1. a</i> <i>tib.</i> tutqanoq kasalligi; <i>2. n</i> <i>tib.</i> tutqanoq kasaliga duchor bo'lgan odam	epoch-making ['i:pokɪŋ] <i>a</i> davrga oid, davr tashkil etadigan; yangi davrni boshlab beradigan; <i>an ~discovery</i> dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan (olamshumul) kashfiyot
epilogue ['epilog] <i>n</i> epilog, xotima (<i>badüiy asarning oxirgi tugallanuvchi qismi</i>)	eponym ['epo(u)nɪm] <i>n</i> eponim, nimagadir o'zining nomini bergan kishi
Epiphany [i:pɪfəni] <i>n 1) cherk.</i> but yuvish bayrami; 2) (e.) ko'zi ochilish, ko'ra boshlash, ko'radigan bo'lib qolish	eponymous [i:pənɪməs] <i>a</i> nimagadir o'zining nomini beradigan
epiphyte ['epifət] <i>n 1) bot.</i> epifit (<i>boshqa o'simlik tanasida o'sadigan, lekin parazit bo'lmagan o'simlik</i>); 2) <i>tib.</i> zamburug'lar tufayli yuzaga keladigan parazit (kasallik)	epope ['epə(u)pi:] <i>n</i> epopeya (<i>katta epik asar</i>)
episcopacy [i:pɪskəpəsi] <i>n 1)</i> cherkov boshqaruvidagi yepiskoplik tuzum; 2) (<i>the ~</i>) yepiskoplar	epos ['epos] <i>n</i> doston, epos
episcopal [i:pɪskəp(ə)l] <i>a</i> yepiskop (<i>xristianlarda: ruhoniylarning oliy unvoni va shu unvondagi ruhoniy: arxiyereyi</i>)ga oid; yepiskopli...	Epsom ['epsəm] <i>n</i> Epsom (<i>ot poygasini o't-kaziladigan joy va ot poygasining o'zi</i>)
episcopian [i:pɪskəpiən] <i>1. n</i> yepiskopcherkovining a'zosi yoki tarafdoi; 2. <i>a</i> yepiskopga oid, yepiskop...	Epsom salts [epsəm 'sɔ:ts] <i>n pl</i> ich suradigan tuz (<i>ingлиз tuzi</i>)
episcopate [i:pɪskəpət] <i>n cherk.</i> 1) yepiskopning mansabi (unvoni, darajasi); 2) (<i>the ~</i>) yepiskoplar; 3) yeparxiya (<i>arxiyereyi qo'l ostidagi cherkovi okruji</i>)	equability [ekwə'biliti] <i>n</i> bir tekisdalik, bir maromdalik, bab-baravarlik
episode ['epɪsəd] <i>n</i> voqe'a, hodisa, epizod	equable [ekwəb(ə)l] <i>a</i> bab-baravar, bir xil; ~ climate bir xil iqlim
episodic(al) [epɪ'sɒdɪk(ə)l] <i>a</i> har zamonda bir bo'ladigan, onda-sonda bir yuz beradi-gan	equal [i:kwɔ:l] <i>1. v 1)</i> teng bo'lmox; 2) tenglashmoq; 2. <i>a</i> teng, bir xil; 3. <i>n</i> tenglik
epistemology [epɪstɪlɔ:(:)mplədʒi] <i>n fals.</i> epistemologiya, bilish nazariyasi	equality [i:kwɔ:lɪti] <i>n</i> tenglik, teng huquqlilik; <i>the ~ of men</i> odamlarning tengligi
epistle [i:pɪsl(ə)] <i>n</i> maktub, xat; epistola (<i>maktub, xat, noma shaklidagi adabiy asar</i>)	equalization [i:kwɔ:lai'zeɪʃ(ə)n] <i>n</i> normalarni baravarlashtirish, baravar qilish
epistolary [i:pɪstɔ:l(ə)rɪ] <i>a</i> epistolalar, maktub (<i>xat</i>) shaklidagi	equalize [i:kwɔ:lɪz] <i>v</i> tenglashmoq, tenglashirmoq
	equalizer [i:kwɔ:lɪzaɪz] <i>n 1)</i> langarcho'p; 2) amer. to'pponcha
	equally [i:kwɔ:lɪ] <i>adv</i> teng, bir xil
	equanimity [i:kwɔ:nɪmɪtɪ] <i>n</i> sovuqqonlik, vazminlik, sabrlilik

equate

equate [ɪ'kweɪt] *v* bir xil baholamoq, baravarlashtirmoq, tenglashtirmoq

equation [ɪ'kweɪʒ(ə)n] *n* 1) baravarlashtirish; tenglashtirish; 2) *mat.* tenglama

equator [ɪ'kweɪtər] *n* ekvator (*Yer sharning ikki qutbi o'rtaidan o'tadigan va Yerni Shimoliy ham Janubiy yarim sharlarga ajratadigan faraziy aylanma*); a celestial ~ osmon ekvatori

equatorial [ɪ'kweɪto'rel] *a* ekvatorga (issiq iqlimga) oid, ekvator yaqinidagi

equerry [ɪ'kweri, 'ekwəri] *n* tar. bosh otboqar

equestrian [ɪ'kwestriən] **1.** *n* ot mingan kishi, otlisq; **2.** *a* otga oid, ot ... otda o'tkazladigan, otli; **an ~ sport** ot sporti; **an ~ statue** ot haykali

equestrienne [ɪ'kwestri'ēn] *n* otliq ayol

equiangular [ɪ'kwi'æŋgjylər] *a geom.* teng burchakli, burchaklari teng

equidistant [ɪ'kwi'dist(ə)nt] *a geom.* teng masofada joylashgan

equilateral [ɪ'kwi'læt(ə)rəl] *a* teng tomonli, tomonlari teng bo'lgan

equilibrium [ɪ'kwi'laɪ'briəm] *v* (vaznni) baravarlashtirmoq

equilibration [ɪ'kwi'laɪ'briəf(ə)n] *n* muvozanat, baravar kelish

equilibria [ɪ'kwi'libriə] *pl of equilibrium*

equilibrist [ɪ'kwilibrist] *n* 1) dorboz; 2) ekipilibrist (*dor, shar va sh. k. da o'yin ko'r-satadigan sirk artisti*)

equilibrium [ɪ'kwi'libriəm] *n* muvozanat, baravar kelish

equine ['ekwɔ:m] *a* otga oid, ot

equinoctial [ɪ'kwi'nkɔ:t(ə)l] **1.** *a* tengkunlikka oid, tengkunlikda bo'ladigan; **2.** *n* tengkunlik xati (*chizig'i*); osmon ekvatori

equinox ['ekwindɔks] *n* tengkunlik, tun va kun baravarlashadigan payt

equip [ɪ'kwi:p] *v* 1) ta'mindamoq, uskunalamoq; jihozlamoq; 2) kerakli narsalarni bermoq

equipage ['ekwipidz] *n* fayton, yengil arava; dressing ~ maxsus qituchaga solingan tikuv-bichuv uchun kerak bo'lgan bir sidra narsa

equipment [ɪ'kwipmənt] *n* 1) jihozlash, uskunlash; 2) jihoz, qurol, aslaha

equipoise ['ekwipoiz] **1.** *n* muvozanat, baravar kelish; **2.** *v* (*og'irlilikni*) tenglashtirmoq, baravarlashtirmoq, baravar (teng) qilmoq

equipollent [ɪ'kwi'polənt] *a kit.* **1.** *teng kuchli, teng kuchga ega bo'lgan;* **2)** *teng (bir xil) qiyimatga ega bo'lgan, bahosi (qiyimati)*

bir xil bo'lgan; bir xil ahamiyatga ega bo'lgan

equiponderant [ɪ:kwi'pond(ə)rent] *a og'irligi* bir xil bo'lgan, bir xil (teng) og'irligidagi

equiponderate [ɪ:kwi'pondareit] *v* (*og'irlilikni*) tenglashtirmoq, baravarlashtirmoq, baravar (teng) qilmoq

equitable ['ekwɪtəbl(ə)] *a* adolatl, odil, haqqoniq, betaraf, beg'araq, xolis; **an ~ treaty** teng huquqli shartnama

equitation [ɪ'ekwɪteɪʃ(ə)n] *n* 1) ot minish, otda yurish, ot minib yurish; 2) ot minish san'ati

equity ['ekwɪti] *n* adolatilik, haqqoniqlik, xolislik, betaraflik, beg'arazlik

equivalence [ɪ'kwi'veəns] *n* ekvivalentlik, biror jihatdan tenglik, teng ma'nolilik

equivalency [ɪ'kwi'veənsi] = equivalence

equivalent [ɪ'kwi'veələnt] **1.** *n* ekvivalent (*bir narsaga har jihatdan teng bo'lgan, u bilan almashina oladigan narsa*); **2.** *a* teng qiymatli, teng baholi

equivocal [ɪ'kwi'veək(ə)] *a* 1) ikki ma'noli, ikki ma'noda tushunlitishi mumkin bo'lgan; 2) shubha tug'diradigan, shubhali

equivocate [ɪ'kwi'veəkeɪt] *v* ikki ma'noli qilib gapirmoq; gapni chalg'itmamoq, gapni burmoq, gapni aylantirib javob berishdan qutubil qolmoq

equivocation [ɪ'kwi'veə'keɪʃ(ə)n] *n* noaniq qilib javob berish, gapni aylantirib javob berishdan qutubil qolish

equivoke ['ekwɪvəuk] *n* ikki ma'nolilik; ikki ma'noli gap

equivoque ['ekwɪvəuk] = equivoke

era ['ɪ:(ə)rə] *n* davr, vaqt, era, epoxa, zamon

eradicate [ɪ'reideit] *v* nur sochmoq, nurlamoq

eradication [ɪ'reidɪkən] *n* nur sochish, nurlanish

eradicate [ɪ'rædɪkeɪt] *v* 1) ildizi bilan yulib tashlamoq; 2) yo'q qilmoq, barham bermoq, qirib bitirmoq

eradication [ɪ'reidɪkeɪʃ(ə)n] *n* batamom yo'qotish, ildizi bilan yo'q qilish

erase [ɪ'reiz] *v* o'chirmoq, artmoq

eraser [ɪ'reiza] *n* 1) o'chirg'ich; 2) doskani o'chiradigan latta

erasure [ɪ'reɪzə] *n* 1) tozalash, tozalab qo'yish; 2) umumiy yo'q qilish

erbium ['ɜ:bɪəm] *n* kim. erbiy (*metall, kimyoity element*)

ere [ea] shoir esk. **1. prep.** -gacha, -ga qadar, -ga dovur; **~ long** tez orada, tez kunda; **2. cj** (*bivor ish qilishdan*) oldin

Erebus ['eribəs] *n* grek. mif. 1) Ereb, narigi dunyo; 2) o'lganlar saltanati

- erect** [ɪ'pekt] 1. *a* to'g'ri, to'ppa-to'g'ri, tikka, vertikal; *to stand* ~ to'g'ri turmoq; 2. *adv* to'g'ri, tik; tikka, tikkasiga, tik holatda, egilimgan holda; burilmay, tik yo'nalishda; 3. *v.t* qurmoq, solmoq, barpo qilmoq, o'matmoq; 2) to'g'rilamoq, rostlamoq; 3) *tex.* yig'moq, montaj qilmoq
- erectile** [ɪ'rektaɪl] *a* 1) to'g'rilaşa (qaddini rostlasa) bo'ladiğan; 2) *fiziol.* tarang bo'la'digan, tortiladigan; ~ *tissue* g'alvirak (te-shik-teshik) to'qima
- erection** [ɪ'rekʃn] *n* 1) qurish; bino qilish; 2) inshoot; bino; 3) to'g'rlanish, rostlanish, tikka bo'lish
- erector** [ɪ'rektər] *n* binokor, quruvchi
- erelong** [eə'lɔŋ] *adv* shoir, tezda, ko'p o'tmay
- eremite** ['erəmait] *n* zohid, qalandar
- eremitic(al)** [eri'mitik(ə)l] *a* zohidlarga, tarki dunyochilarga oid, qalandar(lar)
- erenow** [eə'naʊ] *adv* shoir oldin, ilgari, avval
- ereethism** [er'iθiz(ə)m] *n* *tib.* eretizm (*to'qima yoki a'zoning qattiq qo'zg'ashi*)
- erf** [ə:f] *n* (*pl. erven*) jan, *afr.* tomorqa, tomorqadagi yer
- erg** [ə:g] *n* fiz. erg (*ish yoki energiya o'chov birligi*)
- ergo** [ə:gəʊ] *adv* *lot.* demak, shunday ekan, shunday qilib
- ergon** [ə:gɒn] = erg
- ergonomics** [ə:gə'nomiks] *n* ergonomika, ergonomiya; ish jarayonlarini yoki mehnat sharoitlarini o'rganish
- ergot** [ə:gət] *n* bot. qorakuya, qorakosov (*g'allə o'simliklari hoshida hosil bo'ladiğan zaharli qora zamburug'lar*)
- ergotism** [ə:gətiz(ə)m] *n* *tib.* qorakuya, qorakosovdan zaharlanish
- erica** [ə'rika] *n* bot. archagulg'a oid, archagul
- Erin** [ə'rin] *n* esk. shoir, İrlandiya
- eristic** [ə'ristik] *kit.* 1. *a* munozarali, bahsli, munozaratalab, bahstalab, tortishuvli; munozara tarzidagi; 2. *n* 1) eristik, munozara (bahslashuv, tortishuv) san'ati; munozara, bahs; masala talashish; 2) munozarachi, bahschi, bahsni (bahslashishni, talashishni) yaxshi ko'radigan odam, bahschi; janjalkash
- erk** [ə:k] *n* *harb. jarg.* 1) oddiy askar; 2) be-fahm (anqov, laqma) odam, ahmoq odam
- ermine** [ə:min] *n* oq sichqon (oq suvsar) va uning terisi, mo'yansi
- ern** [ə:n] amer. = erne
- erne** [ə:n] *n* zool. oq dumli suvburgut
- erode** [ɪ'rəʊd] *v.t* 1) (*asta-sekin*) o'ymoq, yeb qo'yamoq, zarar (putur) yetkazmoq, yemirmoq; 2) *geol.* yuvib (o'pirib) ketmoq, nuratmoq, yemirmoq
- erogenous** [ɪ'rədʒənəs] *a* erotizmga va ero-tika (*shahvatparastlik va shahvoniy hirs*)ga oid, erotik, shahvoniy, shahvatparast...
- Eros** [ɪ'(ə)ros] *'eros* *n* *grek. afs.* Eros, Erot, sevgi xudosisi
- erosion** [ɪ'rəʊʃ(ə)n] *n* *geol.* yemirilish, eroziya (*yer qobig' ining turli ta'sirlar ostida parchalanishi, yemirilishi*)
- erosive** [ɪ'rəʊsɪv] *a* nurashga oid; nurash (eroziya) natijsida ro'y bergen
- erotic** [ɪ'rotɪk] *a* 1) ishq-muhabbatga oid, ishqiqi, oshiqona; 2) shahvoniy
- erotica** [ɪ'rtikə] *n* 1) erotik (ishqiqi) poeziya; 2) erotik, shahvatparastlik, shahvoniy hirs
- eroticism** [ɪ'retɪsɪz(ə)m] *n* erotik, shahvatparastlik (shahvoniy hirsiga berilish)
- erotism** [ɪ'retɪz(ə)m] = **eroticism**
- err** [ə:] *v* adashmoq; xato qilmoq, yanglishmoq
- errancy** [ə'rensi] *n* adashish, chalg'ish, yanglishish
- errand** [ə'rend] 1. *n* 1) topshiriq; *to go on an* ~ topshiriqa borish; 2) *og'zaki xabar;* 2. *v* topshirmoq
- errand-boy** [ə'rendboɪ] *n* xat-hujjat tashuvchi; chopar; kabarchi
- errant** [ə'rent] *a* 1) kezib yuradigan, sayyor; 2) adashadigan, yanglishadigan
- errantry** [ə'rentri] *n* kit. esk. olamni kezib (yurtma-yurt) sayr qilib yuruvchi ritsar-ning sarguzashtlari
- errata** [ə:ra:tə] *n* 1) *pl of erratum;* 2) matbaa xatolari ro'yxati
- erratic** [ɪ'rætɪk] *a* 1) o'zgaruvchan, o'zgarib (aynib) turadigan; ~ temperature o'zgaruvchan harorat; 2) tartibsiz, g'alati; ~ life betartib hayot
- erratum** [ə:ru:tam] *n* (*pl -ta l-tə*) *lot. poligr.* terishda, bosishda yo'l qo'yilgan xato
- erring** [ə:rɪŋ] *a* gunohkor, gunohli
- erroneous** [ɪ'renjuəs] *a* yolg'on, noto'g'ri; ~ policies noto'g'ri siyosat
- error** [ə:ro] *n* 1) xato, adashish; *to make an* ~ xato qilmoq; *in ~ bilmasdan*, yanglishib, adashib; *to be in ~* yanglishmoq, xato o'yalamoq, xato (noto'g'ri) fikrda bo'lmooq; 2) kamchilik, xato, nuqson; 3) ayb, gunohli
- ersatz** [ə'eaæts] *n* nem. 1) sun'iy (yasama) narsa; 2) biror narsa o'mnida ishlatalidigan sun'iy mahsulot
- Erse** [ə:s] *n* İrlandiyaning gels tili; 2) Shot-landiyaning gels tili
- erst** [ə:st] *adv* avval, oldin, ilgari, burun
- erstwhile** [ə:stwɔɪl] *esk.* 1. *a* ilgarigi, avvalgi, oldingi; 2. *adv* avval, oldin, ilgari, burun, bir vaqtlar, bir zamonalr, qachonlardir, bir zamonda; bir vaqtlar (bir zamonalr) ... bo'lib turardi

erubescence [*eru'bes(ə)nt*] *a kit.* 1) qizaradigan, qizarib turadigan (*turgan*); 2) amer. qizg'ish, qizilga moyil, qizilroq
eruct [*ɪ'rʌkt*] *v* kekirmoq, o'qchimoq; (*o'q-chib*) qaytarib chiqarmoq, qayt qilib tashlamoq
eructate [*ɪ'rʌktet*] *v* kekirmoq, o'qchimoq, qayt qilib tashlamoq
eruption [*ɪ:tʌk'teɪʃ(ə)n*] *n* (*vulqon haqidagi*) otish
erudite [*'erudɪt*] 1. *n* eruditisyalı odam, bilimdon kishi; 2. *a 1* keng va chuqur ma'lumotli, bilimdon; aql-zakovatl; ko'p o'qigan, o'qimishli; alloma; 2) ilmiy, ilmga (ilmfanga) asoslangan
erudition [*'erudɪʃn*] *n* bilimdonlik, aql-zakovat, olimlik, o'qimishlilik
erupt [*ɪ'rapt*] *v* 1) (*vulqon, lava haqida*) otilib chiqmoq; 2) chiqmoq (*tish to 'g'risida*)
eruption [*'eruptiən*] *n* otilib chiqish (*vulqon, lava to 'g'risida*)
eruptive [*'eruptiv*] *a* otilib chiqqan, otildan
erven [*'ɜ:v(ə)n*] *pl* of erf
erysipelas [*eri'sip(ə)las*] *n* tib. saramas (*yugumli teri kasalligi*)
erythema [*eri'θɪ:mə*] *n* tib. eritema, terining qizarishi
erythrocyte [*ɪ'rɪθrəsait*] *n* fiziol. eritrotsit (*qizil qon tanachasi*)
escadrille [*'eskə'drɪl*] *n* harb. eskadrilya (*harbiy-havo flotining bo'linmasi*)
escalade [*'eskə'leɪd*] *n* harb. tar. (*narvonlar yordamida*) devorlardan oshib o'tish uchun qilingan qattiq hujum, eskalada
escalate [*'eskə'leɪt*] *v* 1) (*nizo va b.ni*) kengaytirmoq, kuchaytirmoq, ko'tarmoq; to ~ confrontation adovatni chuqurlashtirmoq (keskinlashtirmoq, kuchaytirmoq); 2) keskinlashmoq, o'rlashmoq, kuchaymoq, zo'raymoq, keskin tus olmoq (*nizo va b. haqida*); to ~ down yumshatmoq, yengillashtirmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq, kuchini qirqmoq
escalation [*'eskə'leɪʃ(ə)n*] *n* o'sadigan, ko'payadigan, kattalashadigan, o'sayotgan, ko'payayotgan, kattalashayotgan; ~ costs o'sib borayotgan xarajatlari
escalation [*'eskə'leɪʃ(ə)n*] *n* eskalatsiya (*o'sish, kengayish, ko'payish*)
escalator [*'eskə'leɪtər*] *n* eskalator (*o'zi yurar zina*)
scallop [*e'sklɒp, e'skælɒp*] *n* 1) zool. toj; 2) dandana, kungura (*naqsh va sh. k. da*)
escapeade [*'eskəpeɪd*] *n* nojo'ya harakat, ahmoqona qiliq
escape [*ɪ'skeɪp*] *1. n 1* qochish, qutulish; 2) hayotdan uzoqlashib ketish; o'zi bilan

o'zi (ovora) bo'lib qolish; 2. v qochib ketmoq, qutulmoq
escapee [*'eskeɪ pi:, ɪ'skeɪ pi:*] *n* qochoq; qochqin
escapement [*'eskəpmənt*] *n* qochish, qochib ketish
escapism [*ɪ'skeɪpɪz(ə)m*] *n* *adab.* eskapizm, haqiqatdan (haqiqiy holdan) qochishga intilish
escapist [*'eskəpɪst*] *1. n 1* haqiqatdan qochishga harakat qiladigan kishi; 2) *adab.* haqiqatdan uzoqda bo'lgan narsalarni yozadigan yozuvchi; 2. *a adab.* haqiqatga to'g'ri kelmaydigan
escarp [*ɪ'skɔ:p*] *1. n* qiyalik, yonbag'ir; 2. v (*tanklarga qarshi*) eskarp qurmoq
escarpment [*'eskəpmənt*] *n* *harb.* eskarp (*dushman tanklariiga qarshi jarsimon to'siq*)
eschar [*'escha:*] *n* tib. (*kuygandan keyingi*) qasnoq, qo'tir, qoraqo'tir
eschatology [*'eskə'tɒlədʒi*] *n* fals. esxatologiya (*dunyo va insonning so'nggi qismati haqidagi diniy ta'limot*)
escheat [*ɪ'stʃi:t*] *yur.* 1. *n 1* egasiz qolgan mulknning davlat mulkiga aylanishi; 2) egasiz (baytalon, sabil) qolgan mulk, baytulmol; 2. *v 1* egasiz qolgan mulkn musodara qilmoq; 2) davlat mulkiga aylanmoq (*mulk haqida*)
eschew [*ɪ'stʃju:*] *v* qochmoq, o'zini chetga olmoq
escort 1. *n* [*'eskɔ:t*] 1) konvoy (*qo'riqlab, kuzatib boruvchi soqchilar to'dasi*); 2) qo'riqchi; 2. *v* [*'eskɔ:t*] soqchilik qilib qo'riqlab bormoq, kuzatib bormoq
escribe [*'eskraib*] *v* tasvirlamoq, ta'riflamamoq
escritoire [*'eskri:twa:*] *n* yozuv stoli, sekretter (*yozuv stolining bir turi*)
escudo [*'sku:dəʊ*] *n* (*pl -os [-əʊz]*) eskudo (*Portugaliya va boshqa mamlakatlarning pul birligi*)
esculent [*'eskju:lənt*] *a* yeylimadigan, yesa bo'ladigan
escutcheon [*'eskʌtʃən*] *n* 1) gerh osib qo'yish uchun qilingan taxta (yoki maxsus joy); 2) me'mor. ornamental shit (*binokorlikda: devor, tom kabilarning alohida tayyorlan-gan yirik qismi*)
Eskimo [*'eskiməʊ*] *1. n* eskimos (*AQSH Al-yaskasida, shimoliy Kanadada va Grenlandiya orolida yashaydigan xalq*); 2. *a* eskimoslarga oid; eskimos...
esophagus [*ɪ'sofəgəs*] *n* anat. qizilo'ngach (*og'iz bo'shlig'i bilan oshqozonni tutashtruvchi naysimon ovqat yo'li*)
esoteric [*'esa'terik*] *a* yashirin, maxfiy, sir tutiladigan, birov bilmaydigan

- espalier** [i 'spæliə] *n bog'*. ishkom, so'ri, panjara (*o'simlik uchun*)
- special** [i 'speʃ(ə)l] *n* maxsus, alohida; *of ~ importance* o'ta muhim
- especially** [i 'speʃ(ə)li] *adv* ayniqsa, xususan, birinchi navbatda
- Esperanto** [espə 'ræntə] *n* esperanto (*xalqaro sun'iy til*)
- espial** [i 'spaɪəl] *n* maxfiy ravishda kuzatish; izidan borish, iziga tushish
- espionage** [i 'spiənɑːʒ] *n* josuslik
- esplanade** [ɛs'plænəd] *n* esplanada (*1. xiyobonli keng ko'cha; 2. qal'a bilan shahar o'rtasidagi yalanglik; 3. katta bino oldida-gi maydon*); sayr qilish va kezish uchun maydon yoki yo'l
- espousal** [i 'spauz(ə)l] *n* 1) (*qandaydir ishda*) qatnashish; (*qandaydir ishni*) qo'llab-quvvataflash; 2) *esk.* to'y, nikoh to'y; unash-tirish, unashtirib qo'yish
- espouse** [i 'spauz] *v* 1) uyylanmoq; xotin olmoq; turmush qurmoq; 2) erga tegmoq, tur-mushga chiqmoq; 3) erga bermoq
- espresso** [e 'spresəʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) 1) „ekspress“ qahvaxonasi (*shun., ~ bar*); 2) „ekspress“ qahva qaynatadigan asbobi; 3) „ekspress“ qahvasi
- esprit** [e 'spri:t] *n fr.* 1) gapga ustalik, piching; 2) donolik, zukkolik
- espoy** [i 'spɔɪ] *v* 1) uzoqdan ko'rmoq, ko'rib qolmoq; 2) (*kamchilik va sh. k. ni*) topmoq, bilib qolmoq
- Esquimaу** [eskimeu] (*pl -aux [-əʊz]*) = Es-kimo
- esquire** [i 'skwərə] *n* 1) (*Esq.*) janob (*silliq muomala sifatida. xatda konvertining ustiga qabul qiluvchining ismidan keyin ishlataladi*); Jack London, *Esq.* janob Jek Londonga; 2) unvonsiz dvoryan, zodagon
- essay** 1. *n* [*'esei*] 1) ocherk (*kichik adabiy asar*); 2) insho; 3) sinash, urinish; 2. *v* [*'esei*] urinmoq, sinab ko'rmoq
- essayist** [*'eseyɪst*] *n* ocherkchi, ocherk yozuvchi adib
- essence** [*es(a)ns*] *n* mohiyat, mag'iz, ma'no; *the ~ of the proposal* taklif mohiyati; *in ~ aslini* (haqiqatni) olganda, to'g'risini aytganda, gapning to'g'risi; *of the ~ jiddiy ravishda*, jiddiy
- essential** [i 'senʃ(ə)l] 1. *a* muhim, ahamiyatli; jiddiy; *it is ~ zarur; water is ~ to life* suvsiz hayot yo'q; suv hayot uchun muhim; *~ service* muhim xizmat; 2. *n pl* 1) eng zarur narsalar; 2) mohiyat, tub (asosiy) ma'no, mazmun, mag'iz; 3) ajralmas qism; *the ~ of education* tarbiyaning asosi (negizi)
- essentiality** [i, senʃi 'æləti] *n* mohiyat, mazmun
- essentially** [i 'senʃli] *adv* 1) aslini (haqiqatni) olganda; 2) jiddiy ravishda, jiddiy, muhim
- establish** [i 'stæbl̩] *v* 1) qurmoq, tiklamoq; yaratmoq; *to ~ a newspaper* gazeta tashkil qilmoq; 2) (*aloqani*) yo'lga qo'ymoq; *to ~ relations* aloqa o'matmoq; munosabat qaror toptirmoq; 3) mustahkamamoq; *to ~ one's health* sog'liqni mustahkamlamoq; 4) isbotlamoq
- established** [i 'stæbl̩ɪst] *a* 1) ta'sis etilgan; o'matilgan; 2) tanilgan, atoqli; *authority* tanilgan nufuzli odam
- establishment** [i 'stæbl̩ɪmənt] *n* 1) barpo qilish, o'matish; *the ~ of a new state* yangi davlat barpo etish; 2) muassasa, idora; 3) jamiyatdog'i holat; 4) qonun
- estate** [i 'steɪt] *n* 1) mol, mol-mulk; *personal ~* ko'chirib bo'ladigan mol-mulk (mol-dunyo); *real ~* ko'chmas mulk (*yer-suv, imorat va sh. k.*); 2) jamiyatda tutgan o'r'in; tabqa; 3) holat; 4) joy, maydon, uchastka
- estate car** [i 'steɪtkə:] *n* „universal“ kuzovli yengil avtomobil
- esteem** [i 'sti:m] *n* 1) hurmat, izzat, ehtirom; *to hold in ~* hurmat qilmoq; 2) fikr, baho
- ester** [i 'estə] *n kim.* murakkab (tarkibli, qo'shma) efir
- esthetic** [i:s 'θetɪk] *a* 1) estetika oidi; 2) go-zallikni sezish, undan zavqlanish bilan bog'liq bo'lgan; 3) estetik, badiiy
- estimable** [i 'estɪməb(ə)] *a* 1) baholasa bo'ladigan; 2) hurmatga sazovor, hurmatli
- estimate** 1. *n* [*'estɪmɪt*] baho; baholash, narx qo'yish; 2. *v* [*'estɪmeɪt*] 1) baholamoq; baho qo'ymoq, narx qo'ymoq; *to ~ at ... ga* baholamoq (narxlamoq), bahosini belgilamoq; 2) (*biror narsa haqida*) fikr yuritmoq, baho bermoq
- estimation** [*estɪ 'meɪʃ(ə)n*] *n* 1) mulohaza, fikr; *in my ~ menimcha*; 2) hurmat
- estimator** [*'estɪmeɪtə*] *n* baholovchi, narx belgilovchi (qo'yuvchi)
- Estonian** [e 'stəʊniən] 1. *a* Estoniyaga va estonlarga oidi; 2. *n !* eston, estoniyalik kishi; estonka, estoniyalik ayol; 2) eston tili
- estop** [i 'stɒp] *n* yur. raqib tomonning oldingi arizasiga qarama-qarshi fikr bildirilgan arizasini rad qilmoq (qabul qilmashlik)
- estrangle** [i 'streɪndʒ] *v* uzoqlashtirmoq, yiroqlashtirmoq, chetlashtirmoq
- estrangement** [i 'streɪndʒmənt] *n* 1) begonalashib ketganlik, begonalik; 2) ayrılık,

- estreat** [i 'stri:t] v jarima solmoq (olmoq)
- estuary** [estju(ə)rɪ] n 1) daryoning quyilish joyi, etagi, mansabi; delta (*daryoning tarmoqlangan mansabi*); 2) dengiz tarmogi
- esurient** [ɪ sju(ə)rɪənt] a och, ochiqqan, och qolgan
- et cetera** [et 'set(ə)rə] = **etcetera**
- etcetera** [et 'set(ə)rə] *adv lot.* va boshqalar; va hokazo
- et ceteras** [et 'set(ə)rəz] = **etceteras**
- etceteras** [et 'set(ə)rəz] n pl 1) har xil narsalar, istalgan narsalar, olamdagi bor narsalar; 2) unchalik ahamiyatli bo'lmagan qo'shimcha (ilova)
- etch** [etʃ] v tex. buyum sirtiga kislota yoki kimyoiy modda bilan ishllov bermoq
- etcher** ['etʃə] n o'ymakor, naqqosh
- etching** ['etʃɪŋ] n 1) o'yma naqsh, bezak, gul; 2) ofort (*kislota bilan o'yib ishlangan naqsh va undan bosilgan surʼat*)
- eternal** [ɪ 'tɜ:n(ə)l] a abadiy, mangu; ~ life abadiy hayot
- eternalize** [ɪ 'tɜ:nəlaɪz] v abadiy xotira (umrbod esdalik) qilib qoldirmoq
- eternally** [ɪ 'tɜ:n(ə)lɪ] adv doim, doimo, hamisha, hamma vaqt
- eternity** [ɪ 'tɜ:nɪtɪ] n mangulik, boqiylik
- eternize** [i: 'tɜ:nənaɪz] = **eternalize**
- etesian** [ɪ 'ti:ʒ(ə)n] a *meteor*. 1) davriy, vaqt vaqt bilan (o'qtin-o'qtin) bo'ladigan (takrorlanib turadigan); 2) bir yilda bir marta bo'ladigan (yillik); ~ winds yozda esadigan shimlini g'arb quruq shamollari (*O'rta den-giz*)
- ethane** ['i:θeɪn] n kim. etan (*organik birikma, yonuvchi gaz*)
- ethanol** ['eθənɒl] n etil spirit
- ether** ['i:θə] n 1) osmon, ko'k, samo; 2) efir, radio, over the ~ radiodan, radio orgali; 3) kim. oddiy efir
- ethereal** [i'θɪr(ə)riəl] a efirga oid, efirli, tar-kibida efir bo'lgan
- etherality** [i,θɪr(ə)rɪ 'ælitɪ] n o'ta yengillik, nafislik, havo kabi yengillik
- ethic(al)** ['eθɪk(ə)l] a etikaga (axloqqa, odobga) oid; etik, etika... axloqiy, odob-axloq doirasida bo'lgan
- ethics** ['eθɪks] n etika (*odob-axloq qoidalari, normalari*), axloq; odob; a code of ~ axloq kodeksi
- Ethiopian** [i:θi'əpiən] a 1) Efiopiya va efioplarga (habashlarga) oid; 2) negr, qora tanli
- ethmoid** ['eθmɔɪd] a anat. panjarasimon, panjaraga o'xshagan
- ethnic(al)** ['eθnɪk(ə)l] a 1) etnik (*biror xalqqa va uning madaniyatiga oid*); 2) milliy;
- 3) din. majusiylikka (majusiy larga, butparastlarga) oid; majusiylar, butparastlar...
- ethnographic(al)** [,eθnə 'græfɪk(ə)l] a etnografiyaga oid, etnografik
- ethnography** [eθ 'nogrəfi] n etnografiya (*xalqlarning kelib chiqishini, turmushini, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganadigan fan*; 2. biror xalqning turmushi, madaniyat va urf-odatlariiga xos xususiyatlar)
- ethnologic(al)** [,eθnə 'lɒdʒɪk(ə)l] a etnologik, etnologiyaga oid, etnobiya ...
- ethnology** [eθ'nlɒdʒi] n etnobiya, etnografiya, xalqshunoslik (*xalqlarning kelib chiqishini, turmushini, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganadigan fan*)
- ethos** [i:θos] n xarakter, tabiat, fe'l, xulq
- ethyl** ['eθ(ə)l] n kim. etil (*uglerod bilan vodorodning atomlaridan iborat kimyoiy birikma*); ~ alcohol vino spirti, etil spirt
- etiolate** ['eti:leɪt] v I) bot. o'simliklarni qorong'i joyda o'stirmoq (yetishtirmoq); 2) rangmi oqartirmoq, kasalmand holatga keltirmoq
- etiology** [,eti 'ɒlədʒi] n etiologiya (*1. kasallikning kelib chiqish sahablari haqidagi bilim; 2. kasallikning paydo bo'lish sahablari*)
- etiquette** ['etɪket] n etiket, odob, odob-axloq qoidalari
- Eton** ['i:tn] n 1) Iton kolleji; 2) *collar* qaytarma keng yoha; ~ crop ayollarning sochlarini kalta qilib oldirishi (kestirishi)
- Etonian** [i: 'taʊniən] 1. a Iton kollejiga oid; 2. n Iton kollejining o'quvchisi (tababasi, tarbiyalanuvchisi)
- Etruscan** [i 'trʌksən] tar. 1. a etrusk(lar)ga oid; etrusk(lar)...; 2. n 1) etrusk, etrusklar (Italiyada yashagan qadimiy xalq); 2) etrusklar tili
- étude** [eɪ 'tju:d] n mus. etud (*mohirona yozilgan musiqa asari*)
- etui** [e 'twi:] n fr. nina solinadigan quti
- etwee** [e 'twi:] = **etui**
- etyma** ['etɪmə] pl of **etymon**
- etymologic(al)** [,etɪmə 'lɒdʒɪk(ə)l] a etimologiyaga oid, etimologik, etimologiya...
- etymologist** [,etɪf 'mɒlədʒɪst] n etimolog (*etimologiya mutaxassisи*)
- etymologize** [,etɪf 'mɒlədʒaɪz] v etimologiyani o'rganmoq
- etymology** [,etɪf 'mɒlədʒi] n tilsh. etimologiya (*1. tilshunoslikda: so'zlarning kelib chiqishini o'rganadigan fan*; 2. so'zning kelib chiqishi)
- etymon** ['etɪmən] n (pl -ma [-mə]) tilsh. etimmon, asos qilib olingan (boshlang'ich) so'z

- eucalypti** [ju:kə 'lɪptɪ] *pl of eucalyptus*
- eucalyptus** [ju:kə 'lɪptəs] *n (pl -es [-ɪz], -ti [-taɪ]) bot. evkalipt (asosan, Avstraliyada o'sadigan doim yashil ulkan daraxt)*
- Eucharist** [ju:kənɪst] *n cherk. 1) prichastiye (xristianlarning dintiy marosimlaridan biri bo'lgan prichasheniga marosimida istemol qilinadigan bir turli vino va non); 2) Allohnning in'omi*
- enchor** [ju:kə] *1. n yuken (qarta o'yinining turi); 2. v 1) qart. raqibini yuken o'yinida qiyin anhvolga solib o'ymoq; 2) hiyla bilan yengmoq (ustun kelmoq); pand bermoq*
- Euclid** [ju:kli:d] *n 1) Evklid, Yevklid (yunon matematigi); 2) Evklid (Yevklid) geometriyasi*
- eudiometer** [ju:di'mitə] *n kim. evdiometr (gazlarni analiz qilish uchun ishlataladigan asbob)*
- eugenic** [ju: 'dženik] *a biol. yevgenika... yevgenika...*
- eugenics** [ju: 'dženɪks] *n yevgenika (odamlar naslining irtsi sog'lomligi va uni yaxshilash yo'llari haqidagi ta'limot)*
- eulogist** [ju:lədʒɪst] *n panegirik yozuvchi*
- eulogistic(al)** [ju:lədʒɪstɪk(əl)] *maqtovga (madh qilishga) oid, maqtovdan iborat*
- eulogize** [ju:lədʒɪz] *v maqtamoq, madh etmoq*
- eulogy** [ju:lədʒɪ] *n 1) maqtov, tasanno, madh, hamd-u sano; 2) panegirik (maqtov tarzdagi notiglik nutqi)*
- eunuch** [ju:nək] *n bichilgan odam, haram og'asi, haram xodimi*
- eupepsia** [ju:'pepsiə] *n tib. normal ovqat hazm qilish*
- eupeptic** [ju:'peptɪk] *a 1) ovqatni yaxshi hazm qiladigan; 2) ovqatni hazm qilishga yordam beradigan*
- euphemism** [ju:fimiz(ə)m] *n evfemizm (aytish noqulay bo'lgan so'z o'rniда ishlataladigan pardali so z yoki ibora)*
- euphemistic(al)** [ju:fɪ'mɪstɪk(əl)] *a evfemizmga oid; evfemistik, pardali*
- euphonic(al)** [ju:fɔmɪk(əl)] *a qulooqqa yoqadigan, yoqimli, xushovozi, ohangdor*
- euphonious** [ju:'fənɪəs] = **euphonic(al)**
- euphonize** [ju:fənaɪz] *v qulooqqa yoqadigan qilmoq*
- euphony** [ju:fəni] *n xushovozlik, xushohanglik, ohangdorlik, yoqimlilik*
- euphoria** [ju:fɔ:rɪə] *n 1) tib. eyforiya (o'zidan o'zi xursand bo'laverishlik); 2) ko'tarinki keyfiyat, in a state of ~ ruhi ko'tarilgan holda, ko'tarinki ruh bilan*
- euphuism** [ju:fju:iz(ə)m] *n adab. evfuizm (dabdabali, hasham dor uslub)*
- Eurasian** [ju:(ə)'reɪz(ə)n] *1. a Yevrosiyo (yoki yevrosiyoliklar)ga oid, Yevrosiyo (yoki yevrosiyoliklar)...; 2. n yevrosiyoliklar, yevrosiyolik, yevrosiyo xalqi, yevrosiyolik kishi (ayol)*
- eureka** [ju:(ə)'ri:kə] *int. cvrika! (yalt etib miyaga kelgan fikr, biror masalaning bir zumda yechilganidan qanoatlanib, zavqlanib aytiladigan so'z); topdim!*
- eurhythmics** [ju: 'rɪθmɪks] *n 1) ritmika (J. ritm yoki vazn sistemasi; 2. ritm (vazn, ohang, marom, maqom) to'g'risidagi ta'limot; 3. musiqi jo'rлигida ijro etiladigan ritmik harakatlар); 2) ritmik gimnastika, badiiy gimnastika*
- euro** [ju:rəʊ] *n yevro (Yevropa Ittifoqi tarkibidagi Yevropa iqtisodiy va pul hamjamiyat a'zolarining pul birligi)*
- europurrency** [ju:rəʊ,kərənsi] *n yevrovaluta eurodollar* [ju:(ə)rəʊ,dələ] *n Yevropa dollari*
- euroland, Euroland** [ju:rəʊ,lænd] = **eurozone**
- European** [ju:(ə)rə 'piən] *1. a 1) Yevropa, Yevropaga oid; 2) yevropacha; 2. n yevropalik*
- europium** [ju:'reupiəm] *n kim. yevropiyi (kimyoviy element)*
- euroweek, Eurozone** [ju:rəʊ,zəʊn] *n yevrozona, yevromintaqa (yevroni yagona valuta sifatida ishlataladigan yevrova mammalatlari guruhi)*
- Eustachian tube** [ju: 'steɪʃ(ə)n 'tju:b] *n anat. yevstaxiy naychasi (o'rtta qulog bo'shilig 'ini burun-tomoq bo'shilig'i bilan tutash-tiruvchi naycha)*
- euthanasia** [ju:θə 'neɪzɪə] *n 1) og'riqsiz oson o'lim; 2) tib. eytanaziya, (insoniylit yuzasidan) tuzalmaydigan kasallarni o'ladirish*
- evacuate** [i'vekju'eit] *v (aholini) ko'chirmoq; ko'chirib ketmoq*
- evacuation** [i,vækju'eɪʃ(ə)n] *n 1) xavfli joydan ko'chish; 2) tex. havoni haydash (vakuum hosil qilish)*
- evacuee** [i,vækju'ju:] *n evakuatsiya qilingan, ko'chirilgan, ko'chib kelgan, ko'chirib keltilirgan*
- evade** [i'veid] *v qochmoq, o'zini chetga olmoq; chap bermoq*
- evaluate** [i'velju'eit] *v 1) baholamoq, narx qo'ymoq; 2) muddorini aniqlamoq; 3) baho bermoq; sifatini, muhimligini aniqlamoq*
- evaluation** [i,vælju'eɪʃ(ə)n] *n baholash, hisoblash, o'rganib chiqish*
- evanesce** [eva'nes] *v 1) ko'zdan g'oyib bo'lmoq; 2) teklisanib yo'q bo'lmoq, bilinmay ketmoq, o'chib ketmoq*

- evanescence** [evə'nes(ə)ns] *n* ko'zdan g'oyib bo'lish, bildirmay ketib qolish, yo'qolib (yo'q bo'lib) dom-daraksiz ketish
- evanescent** [evə'nes(ə)nt] *a* 1) ko'pga bor-maydigan, o'tkinchi; 2) bir lahzali, bir onli
- evangelic** [i:væn'dzelɪk] *a* injilga oid; injil...
- evangelical** [i:væn'dzelɪk(ə)l] *1. a* injilga oid; injil; *2. n* protestantlik mazhabidagi odam
- evangelist** [i:vændʒɪlist] *n* 1) injilning to'rt afsonaviy muallifidan har biri; 2) injilchi (*xristian dinining injilga asoslangan mazhablaridan biriga mansub kishi*); 3) yurtma-yurt yurib dinni targ'ib qilib yuruvchi kishi; 4) missioner (*yerli xalqni xristian dingin o'tishga targ'ib qilish uchun o'zga yurtlarga yuborilgan shaxs*)
- evangelistic** [i:vændʒɪstɪk] *listik* a injilchilar mazhabiga oid; injilchi(lar)...
- evanish** [i:vænɪʃ] *v* shoir. 1) yo'q bo'lmoq; yo'qolib (yo'q bo'lib) qolmoq; 2) titramoq; pasaymoq, so'nmoq (*ovoz haqida*)
- evaporate** [i:væpə'reɪt] *v* 1) bug'lamoq, bug'lab tozalamoq; 2) bug'ga aylanamoq; 3) so'zl. ko'zdan g'oyib bo'lmoq, bildirmay ketib qolmoq, juftkost rostlamoq; yo'qolmoq, o'lmoq, so'nmoq; bekor ketmoq, unutmoq; **his hopes ~d** uning umidlarini puchga chiqdi
- evaporated** [i:væpə'reɪtɪ] *a* quyultirilgan; quyulg'an, quyuq tortgan; ~ milk quyultirilgan sur
- evaporation** [i:væpə'reɪʃ(ə)n] *n* bug'lantirish, bug'ga aylantirish, bug'lanish
- evaporative** [i:væpə'reɪtɪv] *a* bug' hosil qiladigan
- evaporator** [i:væpə'reɪtər] *n tex.* bug'latgich
- evasion** [r'veɪʒ(ə)n] *n* og'ish, chetga chiqish; 2) (*burch va sh. k. ni bajarishdan*) bosh tortish
- evasive** [i'veɪsɪv] *a* gapni chalg'itadigan, to'g'ri javobdan qochadigan, noaniq, mujmal
- Eve** [i:v] *n* 1) Odam Atoning jufti Momo Havvo; 2) ayol; **daughters of ~** ayollar
- eve** [i:v] *n* arafa; **on the ~ of ...** ...ning arafa-sida; **Christmas ~** rojdestvo arafasi
- even** I [i:v(ə)n] *n* shoir. oqshom, kechki payt, kechqurun
- even** II [i:v(ə)n] *1. a* 1) to'g'ri, tekis; ~ development tekis (bir maromda) rivojlanish; 2) bir xil; ~ date hisob. bir xil kun (sana); 3) bir xil darajada, teng, baravar (*with*); ~ with the ground yer bilan teng; to get (*yoki to be*) ~ with smb. kim biladir orani ochiq qilmoq; 4) to'g'riso'z, sofdir; *2. v* teng-
- lashtrimoq, to'g'rilamoq; *3. adv* hatto, hat-toki; ~ if, ~ though hatto... bo'lgan taqdirda ham
- evenhanded** [i:v(ə)n 'hænddɪd] *a* beg'araz, xolis, odil, betaraf, adolatlidi
- evening** [i:vniŋ] *n* 1) kechqurun, oqshom; in the ~ kechqurun, kechki paytda; **on Monday ~** dushamba oqshomida; 2)unning ikitinchi yarmi; **good ~** xayrli oqshom
- evenly** [i:v(ə)nli] *adv* 1) teng, bab-baravar, teng-baravar, bir xil, bir xilda, bir maromda, bir me'yorda; 2) og'irlik (vazminlik, bosiqlik) bilan
- even-minded** [i:v(ə)n'maɪndɪd] *a* yuvosh, beozor, vazmin, og'ir, bosiqlik
- evensong** [i:v(ə)nson] *n* cherk. kechki ibodat (*xristianlarda*)
- event** [i'vent] *n* 1) voqeа, hodisa; **in the ~ of agar, mabodo ...sa; an international ~** xalqaro voqeа; 2) sports. musobaqa; **a jumping ~** sakrash musobaqasi; 3) natija
- eventful** [i'ventf(ə)l] *a* voqealarga to'la, voqealarga boy
- eventiente** [i:v(ə)ntaɪd] *n* tong yorishgan yoki qosh qoraygan payt
- eventless** [i'ventləs] *a* voqealarga boy bo'l-magan, zerikarli
- eventual** [i'ventʃuəl] *a* 1) bo'lishi mumkin bo'lgan, amalga oshirsa bo'ladijan; ro'yoga chiqadigan; 2) eng so'nggi, oxirgi, yakuniy
- eventuality** [i'ventʃu'ælitɪ] *n* qulay fursat; imkoniyat, imkon
- eventually** [i'ventʃ(ə)lɪ] *adv* axir, vaqtি ke-lib, bir kun kelib
- eventuate** [i'ventʃueɪt] *v kit.* tamom bo'l-moq, tugamoq, bitmoq, bartaraf (bir yoqli, hal) bo'lmoq
- ever** [e've] *adv* 1) gachondir, hech; **have you ~ been in the USA?** siz hech AQSHda bo'lganmisiz? 2) har doim, abadiy; **for ~ abadiy, umrbod; Zulfiya will ~ be a great poet** Zulfiya har doim buyuk shoira bo'lib qoladi; 3) ~ so juda (*nisbatan*); **this road is ~ so much shorter bu yo'll anchagina qisqaroq; for ~ and ~ abad ul-abad; for ~ and a day** har doim
- everglade** [evəgleɪd] *n* baland o'tlar o'sgan serbotqoq pasitetkisliklar; E.State Serbot-qoq shtat (*Florida shtatining nomi*)
- evergreen** [i'veagrɪ:n] *1. a* hamisha yashil, doim ko'm-ko'k; *2. n* doim yashil o'simlik
- ever-growing** [evə'grəʊɪŋ] *a* doimo (hamma vaqt, har doim, hamisha) o'sadigan
- everlasting** [evə'ləstɪŋ] *1. a* abadiy, boqiy, mangu; *2. n* abadiylik, boqiylik, mangulik
- evermore** [evə'mɔ:] *adv* umrbod, mangu

- everpresent** [evə 'prez(ə)nt] *a* har yerda
hozir-nozir, hech joydan qolmaydigan
- evert** [/'vɔ:t] *v* butunlay teskarisini (aksini)
aytmoq; butunlay boshqacha qilib ko'rsatmoq
- every** [/'evri] *a* har bir, har qanday ~ word
har bir so'z; ~ year har yili; ~ one har kim;
~ time har safar
- everybody** ['evrɪbɒdi] *pron.* 1) har bir kishi;
2) hamma
- everyday** ['evrɪdeɪ] *a* har kungi, kundalik,
odatiy; ~ sentences doim ishlatalidigan
iboralar
- everyman** ['evrɪmən] *n* oddiy (el qatoridagi,
hammagaga o'xshagan) odam; 2) tor fikrli
kishi, tirkchiqlikdan boshqani bilmaydigan
odam
- everyone** ['evrɪwʌn] = everybody
- everyplace** ['evrɪpleɪs] *adv* har (hamma)
yerda, hamma joyda
- everything** ['evrɪθɪŋ] *prep. indef.* hamma
narsa, har narsa
- everyway** ['evrɪwei] *adv* har sohada; turli-
cha
- everywhere** ['evrɪweə] *adv* har joyda, ham-
ma yoqda
- evict** [i'vikt] *v* majburan ko'chirmoq, ko'-
chishga majbur qilmoq
- eviction** [i'vikʃn(ə)n] *n* 1) ko'chirish, surg'un,
yangi rayonlarga ko'chirish; 2) mahrum
bo'lish
- evidence** ['evid(ə)ns] 1. *n* dalil, asos; **histo-**
rical ~ tarixiy dalillar; 2) dalil, ashyo; **oral**
and written ~ og'zaki va yozma dalillar;
2. *v* 1) guvoh bo'lmoq; 2) tasdiqlamoq;
3) ko'rsatma bermoq
- evident** ['evɪd(ə)nt] *a* aniq, oydin, ravshan,
ochiq-oydin ko'riniq turgan, ayon, oshkora
- evidential** ['evɪdəns(ə)l] *a* asosli, dalil bo'la
oladigan, ishonchli
- evidentiary** ['evɪdəns(ə)rɪ] = **evidential**
- evidently** ['evid(ə)ntli] *adv* aniq, ravshan,
shubhasiz
- evil** [i:v(ə)l] 1. *a* yomon, yaramas, halokatlil;
2. *v* yomonlik, yovuzlik
- evil-doer** [i:v(ə)l'du:e] *a* jinoyatchi, xiyo-
natchi; yomonlik qiluvchi; yovuz odam
- evil-minded** [i:v(ə)l'mændɪd] *a* yovuz ni-
yatli, niyati buzuq, jahli yomon, battol,
badjahl
- evince** [i:vɪns] *v* ko'rsatmoq, namoyon qil-
moq
- evincible** [i:vɪnsəb(ə)] *a* isbotlanishi mum-
kin bo'lgan, isbot qilib bo'ladigan
- evincive** [i:vɪnsɪv] *a* asosli, ishonchli, dalil
bo'la oladigan
- evirate** [i:vɪreɪt] *v kit.* axtalamoq, bichmoq
- eviscerate** [i:vɪsareɪt] *v* ichak-chovog 'ini
olib tashlamoq, ichak-chovoqdan tozala-
moq (*parranda, baliq haqida*)
- evocation** [eva'keɪʃ(ə)n] *n* tex. 1) esga so-
lish, yodga tushirish, xotirlash; 2) yur. quiyi
suddan yuqori sudga ishni talab qilish
- evocative** [i:vʊkətɪv] *a* esga soladigan,
yodga tushiradigan
- evoke** [i:vʊk] *v* 1) esga solmoq; 2) (*his-*
tuyg'u va sh. k. ni) uyg'otmoq; 3) yur. quiyi
suddan yuqori sudga ishni talab qilib
olmoq
- evolution** [i:və'lju:s(ə)n] *n* 1) rivojlanish,
avj olish; taraqqiyot; 2) evolutsiya (*tabiat va jamiyatdagि uzluksiz o'zgarish, rivojlanish jarayoni*), tadrijiy rivojlanish
- evolutional** [i:və'lju:s(ə)nəl] *a* evolutsiyaga
(*tarixiy rivojlanishga*) oid
- evolutionary** [i:və'lju:sən(ə)rɪ] = **evolu-**
tional
- evolutionism** [i:və'lju:s(ə)nɪz(ə)m] *n* evo-
lutsiya nazariyasi
- evolutionist** [i:və'lju:s(ə)nɪst] *n* evolu-
tionist (*evolutsionizm tarafdori*)
- evolutive** [i:və'lju:tɪv] *a* rivojlanishga yordam
beradigan; rivojlanish jarayonida turgan
- evolve** [i:vɒlv] *v* rivojlanirmaq, taraqqiy
etirmaq
- evolvent** [i:vɒlvənt] *n mat.* razvyortka, yo-
yilgan holat (*geometrik shaklning tekislikda yoyilgan holati*)
- evolution** [i:vəlūʃ(ə)n] *n* ildizi bilan yulib olish,
majburan chiqarib olish
- ewe** [ju:] *n* sovlig qo'y. qo'y
- ewer** ['ju:ə] *n* ko'za, kuvacha (*asosan, yuvinish uchun*)
- ex- [eks-]** *pref.* eks, sobiq, o'tgan; **ex-cham-**
pion sobiq champion
- exacerbate** [ig'zæsəbeit] *v* 1) o'tkirlashtir-
moq, kuchaytirmaq; 2) *tib.* kasalning ku-
chayishi
- exacerbation** [ig'zæsə 'beɪʃ(ə)n] *n* torti-
shuvning (janjalning) kuchayishi, torti-
shuvni (janjalni) kuchaytirish; (*kasalning*)
kuchayishi
- exact** [ig'zækɪt] 1. *a* 1) talabchan, qattiq;
2) aniq, puxta; ~ meaning aniq ma'no (fikr);
~ sciences aniq fanlar (*matematikaga asoslangan fanlar*); ~ memory yaxshi xotira;
2. *v* talab qilmoq, undirmaq
- exacting** [ig'zækɪng] *a* talabchan, qattiq-
qo'i
- exaction** [ig'zækʃ(ə)n] *n* 1) qo'yarda-qo'y-
may talab qilish, xiralik bilan so'rash, undi-
rish; 2) yur. sudga chaqiruv
- exactitude** [ig'zæk'titju:d] *n* aniqlik, to'g'-
rilik

- exactly** [ig' zæktli] *adv* aniq, to'g'ri; *I don't know ~ what happened* aniq nima bo'lga-nini bilmayman
- exactness** [ig' zæktnəs] *n* aniqlik, to'g'ri-lik
- exactor** [ig' zækta] *n* qo'rqtib (yoki do'q-po'pis va boshqa yo'llar bilan) undiruvchi, oluvchi, tovlamachi, tamagir, yulg'ich
- exaggerate** [ig' zædzəreit] *v* 1) orttirib yubormoq, bo'rttirib ko'rsatmoq; to ~ **dif-ficulties** qiyinchiliklarni bo'rttirmoq; 2) kengaytirmoq; to ~ in scale mashtabni kengaytirmoq
- exaggerated** [ig' zædzəreitid] *a* bo'rttirib yuborilgan
- exaggeratedly** [ig' zædzəreitidl] *adv* oshirib, bo'rttirib
- exaggeration** [ig' zædzərətʃən] *n* 1) mu-balag'a, lof; 2) bo'rttirib ko'rsatish, bo'rttirish
- exaggerative** [ig' zædzərətiv] *a* oshirib yuboriladigan; bo'rttirib ko'rsatilgan
- exalt** [ig' zo:t] *v* ulug'lamoq, shuhratini oshirmoq, ko'klarga ko'tarmoq
- exaltation** [egzɔ:lteʃən] *n* 1) ulug'lash; 2) katta shavq (zavq), xursandlik
- exalted** [ig' zo:tnd] *a* g'oyat zavqli, zavqqa to'lgan, qovonchli, o'zida yo'q xursand
- exam** [ig' zæm] *n* so'zl. imtihon
- examination** [ig' zæmɪ'nɛʃən] *n* 1) tek-shirish, ko'rik; ~ of equipment texnik ko'rik; tekshirib (qarab, ko'rib) chiqish, tekshiruv, nazorat; custom-house ~ bojxona tekshirivi; 2) yur' qidiruv, so'roq; 3) imtihon; to take an ~ imtihon topshirmoq; to pass one's ~ imtihondan o'tmoq; to fail an ~ imtihondan yiqilmoq
- examinational** [ig' zæmɪ'nɛʃənl] *a* imtihonga (sinovga) oid
- examination-paper** [ig' zæmɪ'nɛʃən,peɪ-pə] *n* imtihon varaqasi
- examine** [ig' zæmin] *v* 1) tadqiq qilmoq, tanishmoq; 2) tekshirmoq; to ~ the conditions holatni (shart-sharoitni) tekshirmoq; 3) imtihon olmoq
- examinee** [ig' zæmɪ'ni:] *n* imtihon topshiruvchi kishi
- examiner** [ig' zæmɪnər] *n* imtihon oluvchi
- example** [ig' zo:mp(ə)l] *n* misol; 2) namuna; for ~ masalan; to give an ~ misol keltirmoq
- exanimate** [ig' zænimɪt] *a* o'lik, jonsiz, tiriklik nishonasi yo'q; so'ligan
- exarch** [eksə:k] *n* cherk. ekzark (pravoslav cherkovi tashkilotida: mustaqil cherkov boshlig'i)
- exarchate** [eksə:keɪt] *n* cherk. ekzarkat
- exasperate** [ig' za:speret] *v* 1) g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq; g'ashiga tegmoq; 2) (og'riq, g'azab va b. ni) kuchaytirmaoq, zo'raytirmaoq, oshirmoq; to ~ enmity adovat tug'dirmoq; adovatni avj oldirmoq
- exasperating** [ig' za:speretinq] *a* jahlini chi-qaradigan; g'ashiga tegadigan
- exasperation** [ig' za:spe'reitʃən] *n* 1) g'azablaniш, achchiqlanish, jahli chiqish; 2) tib, kasalning o'qtin-o'qin tutib qolishi, zo'rayishi
- ex cathedra** [ekska'θi:dra] *adv* lot. qat'iy ishonch bilan; hukmnamo ohangda, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan tarzda
- excavate** [ekska'veit] *v* qazimoq, kovlamoq, o'yomoq
- excavation** [ekska'veiʃən] *n* kovlash, qazish, o'yish
- excavator** [ekska'veitor] *n* 1) ekskavator; 2) yer kovlovchi (qazuvchi)
- exceed** [ik' si:d] *v* ortiq bo'lmoq, o'tib ketmoq, ustun chiqmoq; oshirmoq, oshib ketmoq; to ~ by ...ga ko'tarilmoq, oshirib yubormoq
- exceeding** [ik' si:diŋ] *a* beo'lchov, behad, cheksiz
- exceedingly** [ik' si:diŋli] *adv* juda, g'oyatda, niyoyatda; favqulodda
- excel** [ik' sel] *v* 1) ortiq (afzal) bo'lmoq, oshib ketmoq, ustun chiqmoq; 2) biror xususiyati bilan boshqalardan farq qilmoq (**in**, **at**); to ~ smb. at smth. kimnidir nimadandir ustun (afzal) ko'rmoq
- excellence** [eksələns] *n* ustunlik, afzallik, ortiqlik
- excellency** [eksələnsi] *n* zoti oliy, janobi oliy
- excellent** [eksələnt] *a* 'lo, oliy, zo'r, ajoyib
- excelsior** [ik' sel'siɔ:r] *lot. 1. int.* yanada yuskakroq (*shun., Nyu-York shtatining shiori*); *2. n* yaxshilarning eng yaxshisi bo'lgan kishi
- except** [ik' sept] *1. v* inkor (rad) etmoq, chiqarib tashlamoq; *2. prep.* ...dan boshqa, tashqari
- excepting** [ik' septinq] *prep.* ...dan tashqari
- exception** [ik' sepʃən] *n* istisno, mustasno
- exceptionable** [ik' sepʃənəbəl] *a* no-munosib, nojo'ya, benuqson (sof, pok) deb bo'lmaydigan, kamchiliklardan xoli emas, e'tirozga sabab bo'ladigan
- exceptional** [ik' sepʃənl] *a* 1) maxsus, alohida; 2) g'ayrioddiy; o'zgacha
- exceptionally** [ik' sepʃənlit] *adv* favqu-lodda, juda, g'oyat, niyoyatda, haddan tashqari
- exceptionive** [ik' septiv] *a* tirmoq ostidan kir izlaydigan, injiq

excerpt [eksɔ:pł] 1. n ko'chirma, parcha, bo'lak; sitata; 2. v (*parchani*) tanlamoq, tanlab olmoq, tanlamoq
excretion [ek'se:pʃ(ə)n] n 1) sitata (*matn parchasi*), parcha; 2) sitata (*parcha*) tanlab olish

excess [ik'ses] 1. n 1) mo'llik, ortiqchalik; in ~ of (*norma va sh. k. dan*) ko'p, ortiq, oshiq; 2) keragidan ortiq narsa, ortiq, ortiqcha; 2. a ortiqcha, ehtiyojidan ortiq; ~ luggage qat'iy belgilangan miqdordan ortiqcha bo'lgan yuk; ~ fare tem. y. (*chipta uchun*) qo'shimcha to'lov; ~ profit qo'shimcha foyda; ~ profits tax qo'shimcha foyda uchun to'lanadigan soliq

excessive [ik'sesiv] a haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta

exchange [iks'tseindz] 1. n 1) almashish, ayriboshlash; in ~ for ...ni ...ga almashtirish; cultural ~ madaniy boyliklarni o'rtoqlashish, madaniy aloqa; ~ of prisoners harbiy asirlarni almashtirish; 2) mol. pulni maydalash; rate of ~ valuta kursi (*valutalarning bir-biriga nishshan qadr-qimmati*; biror mamlakat pul hirligining boshqa mamlakat valutasi bilan (*ifodalangan qiyomi*)); foreign ~ a) chet el valutasi; b) chet el valutasining kursi; bill of ~ veksel (*qarz hujati*, pul qarz olganim haqidagi tilxat); 2. v almashmoq, (pulni) maydalamoq; to ~ for ...ga (...bilan) almashtirmoq

exchangeable [iks'tseindzəb(ə)] a almash-tirsma bo'ladigan

exchequer [iks'tjeke] n davlatga qarashli mol-mulk, pul, mablag', xazina, g'azna

excisable [ek'sarzəb(ə)] a aksiz solig'i soli-nadigan

excise I [ek'saiz] v kesib olmoq, kesib tash-lamoq

excise II [ek'saiz] n aksiz (*keng iste'mol mollariga solinadigan qo'shimcha soliq*)

exciseman [ek'saizmən] n (*pl-men* [-man]) aksiz amaldori, aksiz yig'uvchi; aksiz boshqarmasining xizmatchisi

excision [ek'siz(ə)n] n 1) tishni olish (*sug'urib olib tashlash*); 2) qirqish, kesish

excitability [ik'sarts'bili'ti] n tez ta'sirlanish, hayajonga kelish, ta'sirchanlik

excitable [ik'saitb(ə)] a tez (*salga*) haya-jonlanadigan; ta'sirlanadigan

excitant [eks'aɪt(ə)nt] 1. a 1) hayajonga keltiruvchi, to'lqinlaniruvchi; 2) badanni uyg'otuvchi, jlonlantiruvchi, kishini harakatga soluvchi; 2. n badanni uyg'otuvchi doridarmoq

excitation [eks'aɪteʃ(ə)n] n 1) fiziol. asab-larning tashqi ta'sirdan qo'zg'alishi, uyg'o-

nishi; 2) asabiy holat, hayajonlanish, to'i-qinlanish

excitative [ek'saɪtətiv] a hayajonga keltiruv-chi, to'lqinlaniruvchi; jlonlantiruvchi, kishini hayratga soluvchi

excitatory [ek'saɪtətɔrɪ] = excitative

excite [ik'sait] v 1) qo'zg'atmoq, undamoq; 2) ta'sir qilmoq, hayajonlanmoq, hayajon-lantirmoq, to'lqinlaniruvchi

excited [ik'saitd] a 1) xursand, xursand bo'lgan; 2) hayajonlangan, to'lqinlangan; to be ~ about ...dan hayajonlanmoq
excitedly [ik'saitdlt] adv hayajonlanib, to'lqinlanib, hayajon bilan

excitemen [ik'saitmənt] n qiziqish tug'di-rish; ta'sirlanish, hayajonlanish; in ~ haya-jonda

exciter [ik'saitə] n 1) el. qo'zg'atuvchi omil; 2) qiziqish uyg'otuvchi, hayajonlantiruv-chi omil

exciting [ik'saitɪŋ] a 1) hayajonga keltiruv-chi, to'lqinlaniruvchi, jlonlantiruvchi; 2) badanni uyg'otuvchi, jlonlantiruvchi, kishini harakatga soluvchi; 3) kishini o'ziga torta-digan, qiziqitradigan, maroqli, qiziqarli, jo-zibali, maftunkor; an ~ story maroqli hikoya

exclaim [ik'skleim] v xitob qilmoq, undamoq, chaqirmoq, hayqirmoq, na'ra tortmoq; to ~ against norozilik (*e'tiroz bildirmoq*), qarshi chiqmoq; to ~ at juda ham hayron qolganini (*ajablanganini*) ifoda etmoq

exclamation [eks'klə:meɪʃ(ə)n] n xitob, nido, undov, hayqiriq; 2) attr. undov bildiruvchi; undov ...; an ~ mark undov belgisi

exclamatory [ek'sklæmət(ə)n] a undovni bildiruvchi (*ifodalovchi*), xitobli, undalma; an ~ sentence undov gap

exclude [ik'skulud] v 1) ruxsat bermaslik, kiritmaslik; chiqarish yubormoq, chiqarmoq; 2) haydamoq

exclusion [ik'skulū:ʒ(ə)n] n 1) istisno, mustasno; 2) chiqarish, haydash; to the ~ of ...dan boshqa, ...dan tashqari

exclusive [ik'skulū:siv] a maxsus, alovida, ayrim, boshqalardan farqli, o'ziga xos; ~ privileges maxsus imtiyozlar; 2) birdan bir, yolg'iz; yakka-yagona; an ~ occupation birdan bir mashg'ulot (hunar, kasb; ovunchoq, ermak); an ~ interview maxsus intervyyu

exclusively [ik'skulū:sivli] adv yolg'iz, fa-qat, nuqul

excogitate [eks'kɒdʒɪteɪt] v o'ylab chiqar-moq, ixtiro qilmoq

excogitation [eks'kɒdʒɪteɪʃ(ə)n] n o'ylab topish, o'ylab chiqarish, o'zidan to'qib ay-tish

- excommunicate** [eks'kɔ:mju:nik(e)nt] 1. v cherkovdan ajratmoq (chiqarmoq); 2. a cherkovdan ajratilgan, chiqarilgan, haydal-gan
- excommunication** [eks'kɔ:mju:nɪ'keɪʃ(ə)n] n cherkovdan chiqarish (ajratish, haydash)
- excoriate** [eks'kɔ:rɪeɪt] v terisini shilmoq (shilib, ajratib olmoq)
- excoriation** [eks'kɔ:nɪ'ɛrf(ə)n] n terisini shi-lish (shilib, ajratib olish)
- excorticate** [iks'kɔ:tiket] v po'stlog'ini shilib olmoq (ajratmoq)
- excrement** [eks'krɪmənt] n bavl, chiqindi (*najas, siydiq*)
- excrecence** [ɪk'skres(ə)ns] n 1) o'sib (ko'-payib) ketish; 2) o'simta, qatqaloq
- ex crescent** [ɪk'skres(ə)nt] a ortiq, oshiq, ortiqcha, oshiqcha
- excreta** [ɪk'skri:tə] n *pl* fiziol. 1) najas, axlat; 2) organizmdan ajralib chiqqan narsa (*ter, yirin va h. k.*)
- excrete** [ɪk'skri:t] v fiziol. ajratmoq, ajratib chiqarmoq
- excretion** [ɪk'skri:ʃ(ə)n] n fiziol. ajratish, ajratib chiqarish
- excretive** [ɪk'skri:tiv] a 1) organizmdan ajralib chiqadigan; 2) ajratib chiqishga yor-dam beradigan
- excretory** [ɪk'skri:t(ə)n] a Anat. tashqariga chiqadigan
- excruciate** [ɪk'skrū:sieit] v azob (ozor) ber-moq
- excruciating** [ɪk'skrū:sieitɪŋ] a azob bera-digan, qiyaydigan
- excruciation** [ɪk'skrū:sieɪʃ(ə)n] n 1) azob-lanish, qiyalish; 2) azob berish, qiyash
- exculpate** [ɪks'kɔ:lpeɪt] v yur. oqlamoq, gunohsiz (beayb) deb topmoq
- exculpation** [ɪks'kɔ:lpeɪʃ(ə)n] n oqlash haqidagi hukm, oqlash, to'g'ri deb topish
- exculpatory** [ɪk'sklɒpətrɪərɪ] a oqlaydigan, aybsizligini ko'rsatadigan, isbotlaydigan
- excursion** [ɪk'ska:ʃ(ə)n] n sayr, (*qisqa muddati*) safar yoki sayohat, ekskursiya; to go on an ~ ekskursiyaga bormoq
- excursionist** [ɪk'ska:ʃ(ə)nɪst] n ekskursant, ekskursiyachi
- excursive** [ɪk'ska:sɪv] a 1) tartibsiz, betar-tib; ~ reading tartibsiz o'qish; 2) (*yo'ldan, kursdan*) og'adigan
- excursus** [ek'ska:səs] n (*pl -es [-iz]*) 1) eks-kurs (*asosiy mavzudan chetga chiqib, shu mavzuga doir ikkinchi darajali masala-larni ham ayтиb o'tish*); 2) (*mavzudan*) chetga chiqish
- excusable** [ɪk'skju:zəb(ə)l] a kechirsa bo'-ladigan, kechirimli
- excusatory** [ɪk'skju:zət(ə)rɪ] a kechirim ohangiday, kechirimli
- excuse** [ɪk'skju:s] 1. n 1) oslash, bahona, vaj; ~ for ... ga bahona; in ~ of smth. nimanidir bahona qilib; 2) uzr, kechirim; 2. v [ɪk'skju:z] 1) kechirmoq, afv etmoq; 2) ozod qilmoq (ishdan, vazifadan); ~ me! ke-chirasiz! ~ me for disturbing bezovta qil-ganim uchun kechirasiz
- ex-directory** [eks'dɪrekt(ə)rɪ] a 1) ro'y-xatda ko'rsatilmagan; 2) telefon daftariга kiritilmagan
- executae** [eks'ekseɪt] n lot. biror yerga qanchadir muddatga horib kelish uchun universitet yoki monastirdan olinadigan ruxsatnomasi
- execrable** [eks'kri:kəbl(ə)] a jirkanch, xunuk; juda yomon
- execrate** [eks'kri:kret] v 1) juda yomon ko'r-moq, nafratlanmoq; 2) la'natlamoq, la'nat o'qimoq, qarg'amoq, nafrat yog'dirmoq
- excretionary** [eks'kri:kreɪʃ(ə)n] n la'nat, nafrat, qarg'ish
- executant** [ɪg'zekjut(ə)nt] n bajaruvchi, ijro etuvchi, amalgalashuvchi
- execute** [eks'eksju:t] v 1) bajarmoq, amalgalashirmoq; to ~ plan rejani amalgalashirmoq; 2) (*rol va sh. k. ni*) ijro etmoq, (*surat, haykal*) yaratmoq; 3) qatl etmoq
- execution** [eks'eksju:ʃ(ə)n] n 1) bajarish, bajarilish, amalgalashirish, 2) (*san'at asarini*) ijro etish; 3) qatl etish
- executant** [eks'eksju:ʃ(ə)n] n 1) jallod; 2) *ko'ch. jabr-zulm* qiluvchi, ezuvchi, zolim
- executive** [ɪg'zekjutiv] 1. a ijroiya, ma'muriy, ijro etuvchi, bajaruvchi, amalgalashuvchi; an ~ committee ijroiya qo'mitasi; an ~ council amer. ijroiya kengashi; an ~ secretary mas'ul kotib; an ~ order amer. prezident farmoni; 2. n 1) amaldor (mansab dor) shaxs, rahbar, boshliq (*firmałarda, shirkatlarla*); business ~s ishlamarlonlar doira-si vakillari; 2) (*the ~*) ijrochi hokimiyat; 3) (*the ~*) ijro etuvchi organ
- executor** [ɪg'zekjutər] n 1) vasiy; 2) sud ijro-chisi; 3) jallod
- executrix** [ɪg'zekjutriks] n (*pl -trices [-trai-si:z]*) yur. vasiy ayol
- exegeses** [eks'ri:dʒi:sɪ:z] pl of exegesis
- exegesis** [eks'ri:dʒi:sɪ:sɪs] n (*pl -ses [-si:z]*) adab, (*asosan, diniy narsalarni*) sharhlash, izohlab berish
- exegetic(al)** [eks'ri:dʒetɪk(ə)l] a (*asosan, diniy yozma mainlarni*) sharhlovchi, izoh-llovchi, sharhlab (izohlab) beruvchi
- exemplar** [ɪg'zemplər] a namuna, nusxa
- exemplary** [ɪg'zemplərɪ] a namunali, namu-na bo'ladigan

- exemplification** [ig.zemplifi'kef(ə)n] n 1) misol bilan tushuntirish; 2) *yur. hujjatning tasdiqlangan nusxasi*
- exemplify** [ig'zemplifai] v 1) misol bilan tu-shuntirmoq, tasdiqlamoq; misol keltirmoq; 2) misol bo'lib xizmat qilmoq
- exempt** [ig'zempt] 1. *a (soliqdan, harbiy xizmatdan)* ozod qilingan, (vazifasidan, soliq to'lashdan) bo'shatilgan; 2. *v (harbiy xizmat va b. dan)* ozod qilmoq
- exemption** [ig'zemp[(ə)n]] n (*soliq to'lash va b. dan*) bo'shatish, ozod qilish; ~ from military service harbiy xizmatdan ozod qilish
- exequies** ['eksikwiz] n pl dafn qilish, ko'mish marosimi
- exercise** ['eksəsaiz] 1. *v mashq qilmoq, ijro etmoq; 2. n 1)* mashq; mashq' ulot; 2) badan-tarbiya (jismoniy tarbiya) mashqi; **to take ~** sport bilan shug'ullanmoq
- exergue** [ek'sə:g] n (*meiall va qog'oz pul-larning orqasida*) yozuvlarning joyi va yozuv
- exert** [ig'zə:t] v 1) zo'r bermoq, chiranmoq; **to ~ oneself** harakat qilmoq; 2) ta'sir etmoq (ko'rsatmoq); **to ~ one's influence** ta'sir ko'rsatmoq
- exertion** [ig'zə:sf(ə)n] n zo'r g'ayrat, diq-qat-e tibor, qizg' inlik
- exes** ['eksiz] n (*expenses ning qisgartmasi*) pl so'zl. chiqimlar, xarajatlar, xarjlar, sarflar
- execute** ['eksiant] v lot. teatr. „ketadilar“ sharhi (muallifning pyesa matniga bergen tushuntirishi)
- exfoliate** [eks'fəuliet] v shulinmoq, archilmamoq, po'st tashlamoq
- exfoliation** [eksfə'lieʃ(ə)n] n 1) oqlash, ar-chish, tozalash, po'stini olish; 2) qatlamaq qilib ko'chirish
- ex gratia** [eks'greif(ə)tə] adv lot. ixtiyoriy, ko'ngilli; har kimning o'z ixtiyor (xohishi) bilan qilinadigan; ~ payment ixtiyoriy to'lov
- exhalation** [eksħa'leʃ(ə)n] n 1) nafas chi-qarish; 2) bug'lanish, bug'ga avlanish
- exhale** [eks'hēl] v 1) nafas chiqarmoq; 2) bug'lanmoq, bug'ga aylanmoq
- exhaust** [ig'zə:st] 1. *n chiqarish, chiqish (ishlangan gazlar haqida); 2. v 1)* holdan toydirmoq; tinkasini quritmoq qiyarnomoq; 2) bitirmoq, tamom qilmoq, tugatmoq, sop (tamom) qilmoq, quritmoq; ishlatalib (foydalanim) tugatmoq
- exhausted** [ig'zə:std] a ozib ketgan, oriqlangan, darmoni qurigan, holdan toygan, tinka-madorni qurigan
- exhauster** [ig'zə:ste] n tex. 1) so'ruvchi ven-tilator, 2) changso'rар, changyutgich (uy
- va jihozlarning changini so'rib tozalaydi-gan apparat)
- exhaustive** [ig'zə:stib(ə)] a tugaydigan, tamom bo'ladigan; cheklangan
- exhausting** [ig'zə:stij] a charchatadigan, zeriktiradigan, juda og'ir, mashqaqali, tinka-madorni quritadigan, kuch-quvvatni oladigan; holdan toydiradigan
- exhaustion** [ig'zə:stʃ(ə)n] n 1) ozib (oriq-lab) ketish, ozib-to'zish, ozg' inlik; 2) holi-joni qolmay charchash, tinkasi qurish, sula-yish, lohas bo'lish, lohaslik; **to dance oneself to ~** to yiqilib qolguncha raqsga tush-moq; 3) *tex. so'rib olish, tortib olish*
- exhaustive** [ig'zə:stiv] a 1) to'la-to'kis, tulgal, mukammal; 2) ozdiradigan, oriqlatib yuboradigan; darmomni quritadigan, holdan toydiradigan
- exhibit** [ig'zibit] 1. n eksponat (ko'rgazma-ga qo'yilgan narsa, material); 2. v 1) ko'rgazmaga qo'yamoq; 2) ko'rsatmoq, namo-yish qilmoq
- exhibition** [eks'i:bɪʃ(ə)n] n ko'rgazma, namoyish
- exhibitioner** [eks'i:bɪʃ(ə)nə] n 1) ekspon-ent (ko'rgazmaga o'z eksponatini qo'yadi-gan kishi, tashkilot yoki mamlakat); 2) stipendiat, stipendiya oluvchi (kishi)
- exhibitionism** [eks'i:bɪʃ(ə)nɪz(ə)m] n o'zini ko'z-ko'z qilishga qiziqish
- exhibitor** [ig'zibitə] n eksponent (ko'rgazmaga o'z eksponatini qo'yadigan kishi, tashkilot yoki mamlakat)
- exhilarate** [ig'ziləret] v 1) ko'nglini ochmoq, xursand qilmoq; 2) jondartirmaq, dalda (madad) bermoq, ruhlantirmaq
- exhilarated** [ig'ziləreit] a 1) shod, xur-sand; 2) tetik, bardam, g'ayratli, tiyrak, ruhi ko'tarilgan, kayfi chog'; shodmon
- exhilaration** [ig.zilə'reiʃ(ə)n] n vaqtichog'-lik, xursandlik, quvnoqlik, xushchaqchaqlik
- exhort** [ig'zə:t] v nasihat qilmoq, o'git ber-moq
- exhortation** [eksɔ:t̪eʃ(ə)n] n 1) nasihat (o'git) qilish; pand-nasihat, o'git; 2) targ'ib (targ'ibot) qilish, tarqatish
- exhortative** [ig'zə:t̪ativ] a o'gitga (pand-nasihatga) oid; nasihatnomuž
- exhortatory** [ig'zə:t̪at̪orij] = exhortative
- exhumation** [eksju:meʃ(ə)n] n eksgumat-siya (murdani sud-meditsina ekspertizasi uchun go'rdan kovlab olish)
- exhume** [eks'hju:m, ig'zju:m] v 1) murdani sud-meditsina ekspertizasi uchun go'rdan kovlab olimoq; 2) yerdan qazib olimoq
- exigence** ['eksidʒ(ə)ns] n biror narsaning ju-da zarurligi; biror narsaga g'oyat muhtojlik

- exigency** [eksidz(ə)nsı] = **exigence**
- exigent** [eksidz(ə)nt] a) **talabchan, qattiq-qo'l;** 2) **shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan**
- eligible** [eksidzəb(ə)l] a) **talabchan, talabi zo'r; didi baland**
- exiguity** [eksı 'gju:itı] n 1) **ozlik, yetarli (ko'p) emaslik; 2) sayozlik; 3) arzimaslik, arzimaganlik**
- exiguous** [eg 'ziguəs] a **kitob. oz, kam, ozgina, yetarlichcha bo'laman**
- exile** [eksail, egzaıl] 1. n **quvg'in, surgun; badarg'a; to live in ~ surgunda bo'lmoq yoki yashamoq; to be sent into ~ surgun qilinmoq; 2. v **surgun qilmoq, badarg'a qilmoq****
- exility** [egzilitı] n **yupqalik, nafislik, ingichkalik, noziklik, nazokat**
- exist** [ig zist] v 1) **mavjud bo'lmoq; 2) tırıkkılıchik o'tkazmoq; yashamoq**
- existence** [ig zist(ə)nsı] n 1) **mavjudilik, borlık; 2) turmush, tırıkkılıchik, hayot; a wretched ~ nochorlik, bechoralik, ojizlik; in ~ tabiatda mavjud bo'lgan**
- existent** [ig zist(ə)nt] a **mavjud, bor bo'lgan, bor, naqd**
- existential** [legzi 'sten(ə)] a 1) **kir. borlıqqa (haqiqiyilikka) oid; 2) fals. ekzistensial, ekzistensializmga oid**
- existentialism** [legzi 'sten(ə)lız(ə)m] n **fals. ekzistensialist (mavjudilik falsafası - falsafiy yo'nalish)**
- exit** [eksıt, egzıt] 1. n **chiqish, chiqish yo'li; no ~! chiqish uchun yo'l yo'qı; 2) (aktyorning sahnadan) chiqib ketishi; 3) yo'q bo'lish, o'lim; 4) attr. an ~ visa (yoki permit) chiqish vizasi; 2. v **teatr. "chiqib ketmoq" (shark)****
- ex-libris** [eksı 'li:bris] n **lot. ekslibris (kitob egasining familiyasi yozilgan, badiiy uslubda tayyorlangan yoriqicha)**
- exobiology** [eksə'bıə'lı 'pladʒı] n **ekzobiologiya (yerdan tashqaridagi hayot biologiyasi)**
- exodus** [eksədıs] n **ommaviy (ko'pchilik bo'lib) safarga chiqish (asosan, ko'chman-chilar haqida)**
- ex officio** [eksə'fisiəu] a lot. **vazifasi bo'yicha; egaliab turgan lavozimiga ko'ra**
- exogamy** [eg 'səgəmı] n **ekzogamiya (o'z qabilasidagi, urug'idagi kishiga uylanish yoki erga tegishini man qiluvchi odat)**
- exonerate** [ig zomereit] v 1) **og'ir yukni olib tashlamoq; (majhuriyat, javobgarlik va sh. k. dan) ozod qilmoq; 2) yengillashitirmoq; 3) gunohini (oqlamoq) kechirmoq; shon-sharafini (obro'-e'tiborini yoki ilgarigi hu-**
- quqlarini) tiklamoq; to ~ oneself o'zini oqlamoq, abybsizligini isbotlamoq**
- exoneration** [ig, zona 'rej(ə)n] n **yur. 1) oqlash, oqlash haqida hukm; 2) (majburiyat, javobgarlik va sh. k. dan) ozod qilish**
- exonerative** [ig 'zomereitiv] a **yur. 1) oqlaydigani, abybsizligini ko'rsatadigan; 2) (majburiyat, javobgarlik va sh. k.) og'ir vazifani olib tashlaydigan**
- exorbitance** [ig zo:bıt(ə)nsı] n **haddan tashqarilik, benihoya darajadalik, (o'ta) ortiqlik; cheksizlik**
- exorbitancy** [ig zo:bıt(ə)nsı] = **exorbitance**
- exorbitant** [ig zo:bıt(ə)nt] a **haddan tashqari, o'ta**
- exorcism** [eksɔ:sız(ə)m] n **afsun (jodu, sehr, duo) orqali jin va ajinalarni haydab yuborish**
- exorcize** [eksɔ:saizı] v 1) **avramoq, afsunla-moq, sehrlamoq; 2) duo orqali jin va ajinalarni haydamoq**
- exordia** [ek 'so:dıa] pl of **exordium**
- exordial** [ek 'so:dıəl] a **boshlang'ich, kirish (insho va sh. k. ning qismi haqida)**
- exordium** [ek' so:dıam] n (pl -dia [-dıa]) **kirish, muqaddima, daromad, so'zboshi**
- exosphere** [eksəusfər] n **ekzosfera (atmosferaning eng sıyrak tashqi qatlami)**
- exoteric** [eksə(u)sətik] a **hammaning kuchi (qurbi, imkonи) yetadigan; hammaning imkonи doirasidagi; hamnabop**
- exothermal** [eksə(u)'θə:ml] = **exothermic**
- exothermic** [eksə(u)'θə:mik] a **fiz. ekzotermik (kimyoviy reaksiya jarayonida o'zidan issiqlik chiqaradigan)**
- exotie** [ig 'zotik] 1. a 1) **ekzotik (chet yoki uzoq mamlakatlarga xos); 2) ajoyib, qiziq, g'lati, g'ayrioddiy; 2. n hot. ekzotik o'simlik**
- expand** [ik 'spænd] v 1) **kengaytimoq; yoymoq, rivojlantirmoq; 2) (o'lchan, hajmni) ko'paytirmoq, oshtirmoq; 3) (yelkan va sh. k. ni) yoymoq**
- expansive** [ik 'spænsıv] n **keng sath, ko'lam (bo'y, en va balandlik), kenglik**
- expansible** [ik 'spænsıb(ə)l] a **cho'ziladigan, uzayadigan, cho'ziluvchan; kengaya-digan, kengayuvchan**
- expansibility** [ik 'spænsıbı 'bilitı] n **cho'ziluvchanlik, kengayuvchanlik**
- expansion** [ik 'spæn[(ə)n] n 1) **kengaytirish, cho'zish, ko'paytirish; 2) yoyilish, tarqalish, eskpansiya**
- expansionism** [ik 'spænsı(ə)nız(ə)m] n **bos-qinchilik siyosati**
- expansive** [ik 'spænsıv] a 1) **keng, bepo-von; 2) o'zini tiya olmaydigan, tez qizisni boketadigan; 3) ko'ngli ochiq, samimiy (xa-**

- rakter haqida); an ~ smile yoqimli tabas-*
sum
- expansivity** [lekspæn' siviti] *n* o'zini tiya
olmaslik, tez qizishib ketishlik
- expat** [ek 'spæt] *so'zl.* = *expatriate*
- expatriate** [ik 'spejjet] *v* tarqalmoq, yoyil-
moq, kengayib ketmoq
- expatriate** [ek 'spætnət] *1. n* emigrant, mu-
hojir; 2. o'z yurtini tark etuvchi; 2. v hay-
damoq, surgun qilmoq (Vatandan)
- expatriation** [ek, spætri 'eif(ə)n] *n* emigrat-
*siya (chei mamlakatga ko'chib ketish), mu-
*hojirlik**
- expect** [ik 'pekt] *v* kutmoq, umid qilmoq;
*I ~ed you yesterday men sizni kecna kut-
*dim**
- expectance** [ik spekt(ə)ns] *n* 1) kutish; poy-
lash; 2) umid, ishonch
- expectancy** [ik 'spekt(ə)nsi] = **expectance**
- expectant** [ik spekt(ə)nt] *1. n* da'vogar,
nomzod; 2. a 1) homilador; an ~ mother
ona bo'ladigan ayol; 2) ko'z tutayotgan,
*umid qilayotgan; 3) payt poylaydigan, fur-
sat kutadigan; poylovchi, kutuvchi, ogoh;
intizor; an ~ policy payt poylash siyosati;
*an ~ treatmen tib. simptomatik davolash**
- expectation** [ekspektor'eis(ə)n] *n* kutish, ko'z
tutish; to come up to one's ~ kutganidek
*bo'lmoq; beyond one's ~ kimningdir kut-*ganidan ham ziyoda**
- expectorant** [ik 'spektərənt] *n* tib. balg'am
ko'chiradigan (tashlatadigan) dori
- expectorate** [ik spektəreit] *v* yo'talib tupu-
rib tashlamoq
- expectoration** [ik, spekta reiʃ(ə)n] *n* yo'ta-
lib tupurib tashlash
- expedition** [ik 'spi:dɪəns] *n* maqsadga mu-
vofiqlik, ma'qullik, maqbullik
- expedency** [ik 'spi:dənsi] = **expedience**
- expedient** [ik 'spi:dient] *1. a* maqsadga mu-
vofiq, ma'qul, maqbül; 2. n maqsadga eri-
shish uchun qo'llaniladigan vosita; 2) hiyla,
nayrang, makr (ishlatish); to go to every ~
hammasiga ko'nmoq; rozi bo'lmoq; hech
narsadan qaytmaslik (toymaslik)
- expedite** [ekspidit] *1. a 1) tezlik bilan bo'-
ladigan (qilinadigan), tez bo'lib o'tadigan;
*2) qulay, soz, yaxshi, ma'qul, mos keladi-
*gan; 2. v 1) ko'maklashmoq, yordamlash-
*moq; tezlashtirmoq; 2) tez tugatmoq (ish
*va b. ni); to ~ matters ishni osonlashtir-
*moq******
- expediter** ['ekspiditər] *n* dispatcher (*mar-
*kazlashgan boshqaruv punkti yoki siste-
masining xodimi)**
- expedition** [ekspsi 'di:s(ə)n] *n* 1) ekspedi-
siya (biror maqsad bilan uyushtirilgan sa-
*far); 2) tezlik, chaqqonlik, ildamlik, ja-
*dallik; 3) shoshilishlik, shoshqaloqlik,
shoshma-shosharlik, shoshilish, oshiqish;
*with ~ tezlik (zudlik) bilan, shoshilinch
*ravishda, kechiktirilmasdan****
- expeditionary** [lekspri 'di:(ə)nətəri] *a* 1) eks-
peditson (mol, tovar tarqatish ishlari bilan
*shug 'ullanadigan); 2) ekspeditsiya o'id;
ekspeditsiya...; 3) ekspeditsion (maxsus
maqsad bilan uyushtirilgan otradga o'id);
~ force ekspeditsion qo'shinlar (maxsus
*qo'shingar)**
- expeditious** [ekspsi 'di:ʃəs] *a* tezlik bilan bo'-
*ladigan; tez bo'lib o'tadigan; tez, ildam, ja-
*dal**
- expel** [ik 'spel] *v* haydamoq, haydab chiqar-
moq, haydab yubormoq
- expellee** [eksps'a li:] *n* haydalgan (badarg'a,
surgun) qilingan odam
- expend** [ik 'spend] *v* sarflamoq, sarf qilmoq
- expendable** [ik 'spendəb(ə)l] *a* sarflanadi-
gan, xarajat qilinadigan
- expendables** [ik 'spendəb(ə)lz] *n pl* harb.
ta'minotdag'i sarflanadigan narsalar
- expenditure** [ik 'spenditər] *n* sarf qilish, sarf-
lash, xarajat
- expense** [ik 'spens] *n* chiqim, xarj, xarajat,
sarf; heavy ~s katta xarajat; to cut down
*~s xarajatlarni qisqartirmoq; to go to ~pu-
lini sarflamoq; xarajat qilmoq; to put smb.
*to ~ kimnidir pul sarflashga majbur qilmoq**
- expensive** [ik 'spensiv] *a* qimmat, bahosi
baland; ~ clothes qimmat kiyimlar
- experience** [ik 'spi:(ə)rəns] *1. n* (*hayotiy*)
*tajriba; to know smth. by (from) ~ niman-
*nidir tajribasidan bilmox; to learn by ~ ni-
manidir tajribasidan o'rganib (bilib) olmoq;
*2) ish tajribasi; 3) mahorat; 2. v boshdan ke-
*chirib (tajribadan) bilib olmoq; to ~ the bit-
*terness of smth. nimaningdir achchiq ta'-
*mini (taxir mazasini, achchiq hidini) bilib ol-
*moq*******
- experienced** [ik 'spi:(ə)rənst] *a* tajribali, ma-
horatl, mohir
- experimental** [ik, spi:(ə)r'i enʃ(ə)l] *a fals.* taj-
ribaga asoslangan
- experiment** *1. n* [ik 'speriment] tajriba; an
~ in chemistry kimyoviy tajriba; 2. v [ik 's-
periment] tajriba o'tkazmoq
- experimental** [ik, spəri 'mentl] *a* tajribaga
oid, ilmiy tajribaga asoslangan
- experimentalize** [ik, spəri 'ment(ə)laiz] *v* il-
miy tajriba o'tkazmoq, sinab ko'rmoq
- experimentally** [ik, spəri 'ment(ə)li] *adv*
1) tajriba asosida; 2) sinov (tajriba) tariqasida
- experimentation** [ik, spəri'men 'teiʃ(ə)n] *n*
ilmiy tajriba (eksperiment) o'tkazish

experimenter [ɪk'sperimentər] *n* ilmiy tajriba o'tkazuvchi; tajribachi, tajriba yo'li bilan bivor narsa yetishtiruvchi (*dehqon*)

expert [ekspə:t] *1. n 1)* ekspert (*tekshirish o'tkazadigan mutaxassis*); *2) mutaxassis; 3) attr. an ~ evidence* mutaxassislarning ko'rsatmasi (*fikri*); *2. a tajribali, mohir, mahoratl (at, in); (yuqori) malakali expertise* [ekspe:t̩iz] *n fr. 1) ekspertiza, tekshirish; 2) maxsus bilim va tajriba expliate* [ekspie:t̩] *v kit. gunohini yuvmoq expiation* [ekspri'eʃ(ə)n] *n gunohini yuviш expiatory* [ekspie:t̩riɔ] *a gunohini yuviшgan, gunohdan xalos qiladigan*

expiration [ekspl̩'reiʃ(ə)n] *n 1) nafas chiqarish; 2) o'tish, tugash, tamom bo'lish (vaqt, muddat haqida)*

expiratory [ɪk'spaɪrətɔ:rɪ] *a nafas chiqarishga oid, nafas chiqarish*

expire [ɪk'spaɪə] *v 1) tugamoq, bitmoq, o'tmoq, to lmoq (*muddat haqida*); 2) nafas chiqarmoq; 3) o'lmoq, yafot etmoq*

expiry [ɪk'spaɪəri] *n 1) yetish, tugash; 2) muddatning tugashi*

explain [ɪk'splein] *v tushuntirmoq, izohlamoq; tushuntirib bermoq; to ~ away o'zini oqlamoq, aysizligini isbotlamoq, haqligini ko'rsatmoq*

explainable [ɪk'spleinəb(ə)l] *a sababini tushunib (tushuntirib) bo'ladigan, sababi bor*

explanation [ekspl̩ə'neʃ(ə)n] *n 1) tushuntirish, izohlash; 2) izoh, sharh, talqin*

exploratory [ɪk'splɔ:rətɔ:rɪ] *a tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish...*

expletive [ɪk'spli:tiv] *1. a 1) bo'sh joyini to'ldirishga xizmat qiladigan; qo'shimcha, kiritilgan, qo'shilgan; 2) haqoratl, uyatli (*so'z haqida*); 2. n 1) tilsh. qo'shilgan (kiritilgan) so'z (mas., „demak“ va sh. k.); o'r ganish bo'lib qolgan (parazit) so'z; 2) odatta, doim nutqda ishlatiq turiladigan haqoratl so'z, so'kish so'zi*

explicable [eksplikəb(ə)l] *a sababi bor, sababli, sababini tushunib bo'ladigan*

explicate [eksplikeit] *v 1) (fikri) davom ettirib chuqurlashtirmoq; (g'oyani, fikri, rejani) kengaytirmoq, rivojlantrimoq, o'stirimoq; 2) tushuntirmoq, anglatmoq, tushuntirib bermoq*

explication [ekspl̩'i:kʃ(ə)n] *n 1) sabab (bahona) qilishi; 2) tushuntirish*

explicative [eksplikətiv] *a 1) izohlaydigan; tushuntirib beradigan; 2) aniq, ravshan, tushunarli*

explicatory [eksplikeit(ə)n] = **explicative**

explicit [ɪk'splɪsɪt] *a 1) aniq, ravshan; 2) sa-*

numiy, sofdi

explode [ɪk'splaʊd] *v portlatmoq, port-*

lamoq; to ~ a mine minani portlatmoq;

2) buzmoq, qo'pormoq

exploded [ɪk'splaʊdɪd] *a: an ~ custom*

bekor (yo'q) qilingan urf-odat (udum, odat)

exploder [ɪk'splaʊdər] *n 1) portlatuvchi*

moslama, portlatgich; 2) portlatgich modda

exploit *1. v [ɪk'splɔ:t̩] 1) birovning kuchidan (mehnatidan) toydalamoq; 2) amer. sav.*

reklama qilmoq, taklif qilmoq; 2. n [ek-

splɔ:t̩] qahramonlik, mardlik, jasorat

exploitation [eksplɔ:t̩'reiʃ(ə)n] *n foydala-*

nish, ishlatish, ishga solish

exploiter [ɪk'splɔ:t̩ər] *n eskploatatsiya qiluv-*

chi, ekspluator, foydalanuvchi, ishlatuvcchi

exploration [eksplɔ:t̩'reiʃ(ə)n] *n tadqiqot,*

tadqiq etish, o'rganish

explorative [ɪk'splɔ:rətɪv] = **exploratory**

exploratory [ɪk'splɔ:rət̩(ə)rɪ] *a tadqiqiy,*

tadqiqotga oid, tekshirishga oid

explore [ɪk'splɔ:r] *v o'rganmoq, tadqiq et-*

moq; to ~ the Antarctica Antarktikani o'rga-

moq; 2) tib. yarani (jarohatni) tekshir-

moq

explorer [ɪk'splɔ:rər] *n tadqiqotchi, tekshiruvchi*

explosion [ɪk'spləʊz(ə)n] *n 1) portlash;*

2) avj olish; 3) tez o'sish; cultural ~ mada-

niyatning gullashi

explosive [ɪk'spləʊzɪv] *1. a portlovchi, port-*

laydigan; an ~ bomb portlovchi bomba; an ~ bullet portlovchi (yorilib ketadigan) o'q;

2. n portlovchi modda

exponent [ek'spo:nənt] *1. n 1) tushuntiruvchi, izohlovchi; 2) (musiqiy asarni) ijro etuvchi; 3) namuna; 4) eksponent, ko'rgazma ishtirokchisi; 2. a tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish...*

exponential [ekspl̩'nens(ə)n] *a mat. ko'r-satkichli*

export *1. n [ɪk'spo:t̩] 1) (pul, mol va b. ni)*

chet elga chiqarish; 2) attr. eksportga oid;

eksport qilinadigan, chet elga chiqariladi-

gan, eksport ...; 3) tashishga (olib chiqish-

ga) oid; tashish ...; obil chiqish...; chetga

mol obil chiqishga (chiqarishga) oid; ~duty

chet elga chiqariladigan mollar uchun to'la-

nidagan boj; 2. v [ɪk'spo:t̩] chetga chiqar-

moq

exportation [ekspl̩'reiʃ(ə)n] *n obil ketish,*

tashib ketish; tashqariga (chetga) mol chi-

qarish

exporter [ɪk'spo:t̩ər] *n eksportchi, eksport,*

eksport qiluvchi (chet elga mol chiqaruv-

chi davlat)

expose [ɪk'spu:z] *v 1) (quyosh, yomon ob-*

havo va sh. k.) ta'siri ostiga qoldirmoq;

- 2) (*xavfga*) uchramoq, duchor bo'lmоq; 3) fosh etmoq, (*sirni*) ochmoq; 4) nusxa ko'chirmoq
- exposition** [*lekspə'zɪʃ(ə)n*] n 1) tavsiy, ta'-rif, tasvir, bayon; 2) tasvirlab (ta'riflab) berish; 3) ko'rgazma; 4) *adab*. mus. ekspozitsiya (*adabiy yoki musiqa asarlarining kirish qismi, muqaddimasi*)
- expulsive** [*ɪk'spʊzɪtɪv*] a 1) tushuntirib beradigan, izohlaydigan; 2) tasviriy, tavsiy
- expositor** [*ɪk'spɒzɪtə*] n sharhlovchi, izohlovchi, tushuntirib beruvchi
- expostory** [*ɪk'spɒzɪt(ə)rɪ*] a tushuntirib beradigan, izohlaydigan, tushuntirish...
- expostulate** [*ɪk'spɒstʃuleɪt*] v ko'ndirishga harakat qilmoq, pand-nasihat qilmoq, ko'ndirmoq, unatmoq
- expostulation** [*ɪk'spɒstʃʊlətɪə*] n nasihat (o'git) qilish, pand, nasihat, o'git
- exposure** [*ɪk'spəʊzə*] n 1) tashqi ta'sir ostiga qoldirish; (*yong' ir, quyosh va sh. k. ga*) qo'yish; 2) (*xavf va sh. k. dan*) himoya qilin-ganlik; 3) fosh etish; ochib tashlash
- expound** [*ɪk'spaʊnd*] v bayon (hikoya) qilmoq, ifoda etmoq, aytib bermoq
- express** [*ɪk'spres*] 1. n tem. y. ekspress (*odat-dagidan tez yuradigan poyezd*); 2. a tez, shoshilinch, tez yuradigan; an ~ train eng tez yuradigan poyezd; ~ delivery tez yet-kazib (eltilib) berish; 3. adv shoshilib, shoshilinch (oshig 'ich) ravishda, tezlik (zudlik) bilan; to travel ~ eng tezyurar poyezdda bormoq; 4. v 1) eng tez yuradigan poyezd bilan (shoshilinch pochta orqali) jo'natmoq; 2) bildirmoq, ifodalamoq; to ~ one's opinion o'z fikrini bayon etmoq
- expressible** [*ɪk'sprɛsəbl(ə)l*] a ifoda etib bo'-ladigan
- expression** [*ɪk'spreʃ(ə)n*] n 1) ifoda, ibora; to give ~ ifoda etmoq; 2) (*yuz, ko'z va sh. k. dagi*) ifoda
- expressionism** [*ɪk'spreʃ(ə)nɪz(ə)m*] n ekspressionizm (*Yevropada san'at va addabiyotda XX asrning birinchi yarmida paydo bo'lgan yo'nalish. Bu yo'nalishning namoyondalarini san'atkorning asosiy vazifasi insonning ichki dunyosini yoritishdan iborat, deb hisoblaydilar*)
- expressive** [*ɪk'spresaɪv*] a 1) ifodaligi, jonli, ma'noli, ta'sirli, ma'nodor; ~ voice jonli ovoz; ~ glance ma'nodor qarash; 2) ifodalovchi, bildiruvchi, izoh etuvchi, ko'rsa-tuvchi; ~ of joy xursandchilikni ifodalovchi; ~ of despair tushkunlikni ifodalovchi
- expressly** [*ɪk'spreʃli*] adv 1) atayin, atay-lab, jo'rttaga, qasddan; 2) aniq, ravshan
- expressman** [*ɪk'spresmən*] n (*pl -men [-mən]*) amer. transport idorasining vakili
- expressway** [*ɪk'spresaʊ̯*] n amer. avtostrada (*avtomobillar qatnovi uchun maxsus qurilgan va uskulalangan katta yo'l*)
- expropriate** [*ɪk'sprəʊpriet*] v 1) musodara qilmoq, mol-mulkdan mahrum qilmoq; 2) egasidan tortib olmoq
- expropriation** [*ɪk'sprəʊpri'eɪʃ(ə)n*] n 1) majburiy tarzda tortib olish; 2) mulkdan majburan mahrum qilish, musodara qilish
- expulsion** [*ɪk'spʌlɪʃ(ə)n*] n (*maktab, klub va b. dan*) quvish, chiqarish; 2) surgun, bardarg'a, quvg'i
- expulsive** [*ɪk'spʌlɪsɪv*] a haydovchi, quvib (surib) chiqaruvchi
- expunge** [*ɪk'spʌndʒ*] v 1) (*ro'yxatdan, kitob-dan*) o'chirmoq; 2) yo'q qilmoq, o'chirib tashlamoq
- expurgate** [*ɪk'spɜːgəteɪt*] v kitobdagagi kerak bo'lmagan joylarni o'chirmoq
- expurgation** [*ɪk'spɜːgətɪə*] n kitobdagagi kerak bo'lmagan joylarni o'chirish
- exquisite** [*ɪk'skwɪzɪt*] 1. n olifta, satang, o'ziga bino qo'yuvchi odam; 2. a 1) nazokatl, latofatli, nozik, nafis, go'zal; 2) qattiq, kuchli, o'tkir, zo'r, og'ir; an ~ pain qattiq og'riq; 3) juda yaxshi, g'oyat yoqimli, juda chiroylil, zebo, ko'rkan, dilbar, ajoyib
- exsanguinate** [*ɪk'sæŋgwɪneɪt*] v qonsizlan-tirmaq, qonini ketkazmoq, qonini qochirmoq
- exsanguine** [*ɪk'sæŋgwɪn*] a qonsiz, qoni kam, qoni qochgan
- excind** [*ɪk'sɪnd*] v kesib (qirqib) olmoq; kesib (qirqib) tashlamoq
- ex-service** [*ɪks'se:sɪvɪs*] a 1) harbiy xizmat-dan bo'shatilgan; 2) iste'foga chiqqan, iste'fodagi
- ex-serviceman** [*ɪks'se:sɪvɪsmən*] n (*pl -men [-mən]*) urush faxriysi, sobiq jangchi
- exsiccate** [*ɪksɪkət*] v 1) quritmoq; 2) qurimoq
- exsiccation** [*ɪksɪ'seɪkeɪʃ(ə)n*] n 1) quritish; 2) qurish
- extant** [*ɪk'stænt*] a bor, mavjud, yashayotgan, kun kechirayotgan
- extemporaneous** [*ɪk'stempə'reɪnəs*] a 1) tasodifiy, kutilmagan, nogahoniy; 2) tayyorlanmagan, oldindan tayyorlarlik ko'rmagan
- extemporary** [*ɪk'stempə'rerɪ*] a 1) ma'lum tayyorgarlik ko'rmagan, maxsus tayyorlanmagan; 2) tayyor (taxt) emas
- extempore** [*ɪk'stempə'rerɪ*] 1. a maxsus tayyorlanmagan, tayyorgarliksiz aytilgan (ijro etilgan); 2. adv tayyorlanmasdan, oldindan tayyorgarlik ko'rmsadan, to'g'ridan to'g'ri, birdaniga, qo'qqisdan

- extemporization** [ek,stempəraɪ'zeɪʃ(ə)n] *n* tayyorgarliksiz (birdan) kuy yaratish
- extemporize** [ik stempəraɪz] *v* (*ijo payida*) tayyorgarliksiz aytmoq, to'qimoq, yaratmoq
- extend** [ɪk 'stend] *v* 1) cho'zmoq, uzatmoq; to ~ one's hand for a handshake so'rashish uchun qo'l cho'zmoq; 2) kengaytirmoq, uzaytirmoq; 3) (*muddatni*) cho'zmoq, uzaytirmoq
- extended** [ɪk 'stendɪd] *a* 1) uzoq muddatli, uzoq davomli, uzoqqa cho'zilgan (cho'ziladigan), uzoq davom etgan (etadigan); in an ~ sense keng ma'noda; an ~ payment uzaytirilgan to'lov muddati; 2) keng tarqalgan, keng yoyilgan, ko'p uchraxdigan; an ~ sentence gram. yoyiq gap
- extender** [ik 'stendə] *n* 1) uzaytirgich; 2) tex. to'dirgich
- extensibility** [ik,stensa 'biliti] *n* cho'zilish, uzayish, kengayish; cho'ziluvchanlik, kengayuvchanlik
- extensible** [ik 'stensəb(ə)l] *a* cho'ziladigan, uzayadigan, kengayadigan, kengayuvchan, cho'ziluvchan
- extensile** [ɪk 'stensail] *a* cho'ziladigan, uzyadigan
- extension** [ik 'stenʃ(ə)n] *n* 1) kengaytirish; 2) yo'yish; cho'zish, uzaytirish; 3) qo'shilgan narsa, qo'shimcha, ilova
- extension course** [ik 'stenʃ(ə)nko:s] *n* malaka oshirish kurslari (asos., sirtqi va kechki)
- extensive** [ik 'stensiv] *a* 1) keng, bepyon; ~ front harb. keng front; ~ discussion keng muhokama qilish; ~ plans katta rejalari; 2) q.x. ekstensiv (*sifatga e'tibor bermay, faqat miqdorni oshirishga, hajmni kengaytirishga qaratilgan*); 4) hamma tomonga; to travel ~ ko'p sayohat qilmoq; turli mammakallarga bormoq
- extensively** [ik 'stensivli] *adv* 1) keng, katta; 2) keng ravishda, keng ko'lamma, har taraflama; 3) mufassal, to'la, to'liq
- extensor** [ik 'stensə] *n* Anat. yoziladigan mushak (muskul)
- extent** [ik 'stent] *n* 1) masofa, keng satth (*maydon, joy*); 2) o'cham, miqdor; 3) ko'lam (*bo'y, en va balandlik*), miyos, daraja; to what? qay darajada? qanchalik? nechog'lig? naqadar? to a great ~ ma'lum (ko'p) darajada; to exert oneself to the utmost ~ bor kuchi bilan harakat qilmoq
- extenuate** [ik 'stenjuət] *v* 1) kuchsizlantirmoq, darmonsizlashtirmoq, kuch-quvvadan qoldirmoq; 2) (*aybni*) yumshatmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq, yengillashirmoq; 3) bahona (uzr) bo'lib xizmat qilmoq
- extenuation** [ek,stenju'eɪʃ(ə)n] *n* 1) holdan toyish, ozib-to'zish, behollik, bemajollik; 2) uzr, qisman bahona
- extenuatory** [ik 'stenjuæt(ə)n] *a* 1) (*gunohni*) yengillatuvcchi; 2) (*og'riqni*) pasaytiruvchi
- exterior** [ik 'stri(ə)nə] *a* ustki, tashqi
- exteriority** [ik,sti(ə)n'i] *n* ustki (tashqi) tomoni
- exteriorize** [ik 'stri(ə)nəraɪz] = externalize
- exterminate** [ik 'stɜ:mɪneɪt] *v* tag-tomiri bilan yo'q qilmoq; barham bermoq, ildizini quiritmoq
- extermination** [ik,stɜ:mi'neʃ(ə)n] *n* qirish, yo'q qilish, tag-tomiri bilan yo'q qilish
- exterminator** [ik 'stɜ:minətə] *n* qiruvchi, qiruvchi samolyot
- exterminatory** [ik 'stɜ:minət(ə)n] *a* qiruvchi, qiron soluvchi, qirg'in keltiruvchi, qironli; an ~ war qirg'inbarot jang
- external** [ik 'stɜ:n(ə)l] 1. a tashqi, xorijiy; sirtqi; ~ force tashqi kuch; the ~ world tashqi dunyo; 2. n tashqi ko'rinish, qiyofa, turq; an ~ angle tashqi burchak; to judge by ~s tashqi ko'rinishiga qarab baho bermoq
- externality** [eks'tɜ:nəliti] *n* tashqi ko'rinish, qiyofa, aft-angor, turq
- externalize** [ek 'stɜ:nəlaɪz] *v* gavdalantirmoq, mujassamlantirmoq; gavdalantirib ko'rsatmoq
- territorial** [ekster'i:tɔ:rɪəl] *a* eksterritorial (eksterritoriallik huquqiga ega bo'lган)
- extraterritoriality** [eks,teritor'i:tɔ:lɪt̩i] *n* eks-territoriallik (che'l elda xizmat qiladigan diplomatik vakillarning faqat o'z davlati qonunlariga bo'yusunish huquqi)
- extinct** [ik 'stɪŋkt] *a* 1) o'chgan, so'ngan, o'chib (so'nib) qolgan; an ~ volcano so'nib qolgan vulqon; 2) qirilib ketgan, yo'q bo'lib ketgan (*qabilə, hayvon turi va sh. k. haqida*); 3) iste'moldan chiqqan (so'z, odat va sh. k. haqida)
- extinction** [ik stɪŋkʃ(ə)n] *n* o'chirish, so'ndirish; 2) (*qabilə, hayvon turi va sh. k. ning*) yo'q bo'lib ketishi; qirilib ketishi
- extinguish** [ik 'stɪŋgwɪʃ] *v* 1) o'chirmoq, bartaraf qilmoq; 2) yo'q qilmoq, qirmoq, bitirmoq; 3) (*umid, sevgini*) so'ndirmoq
- extinguisher** [ik 'stɪŋgwɪʃə] *n* o'chirgich, o'chirgich, o'chiruvchi
- extirpate** [ekstɜ:pɪt] *v* tag-tomiri bilan yo'q qilmoq, barham bermoq, ildizini quiritmoq
- extirpation** [eks'tɜ:pɪʃ(ə)n] *n* barham berish, tugatish, yo'qotish, tag-tomiri bilan yo'q qilish

- extirpator** [ek'strɔ:pətər] *n* tag-tomiri bilan yo'q qiluvchi, barham beruvchi (*kishi*)
- extol** [ɪk 'stɔ:l] *v* juda ham maqtab yubormoq, rosa ta'rif-tavsif qilmoq, ko'klarga ko'tarmoq
- extort** [ɪk 'sto:t] *v* qo'rqtib (*yoki tovlab*) pulini olmoq
- extortion** [ɪk 'sto:j(ə)n] *v* qo'rqtib (*yoki do'q-po'pisva boshqa yo'llar bilan*) undirish
- extortionate** [ɪk 'sto:j(ə)nɪt] *a* 1) haddan tashqari baland (*narxlar to'g'risida*); 2) tamagirlikka qaratilgan, tovlamachilikdan iborat bo'lgan
- extortioner** [ɪk 'sto:j(ə)nər] *n* qo'rqtib (*yoki do'q-po'pisva bilan*) undiruvchi, bosmachi, o'g'ri; tovlamachi, tamagir, yulg'ich
- extra** ['ekstra] *1. a* 1) qo'shimcha; ~charges qo'shimcha xarajat; 2) maxsus; 3) olyi sisfat; 2, n qo'shimcha nimadir narsa
- extra-** ['ekstra-] *pref.* -dan tashqari, -dan ortiq
- extracellular** [ekstrə'selju:lə] *a biol.* hujayraga oid bo'limgan, g'ayrihujayraviy
- extract** *1. n* [ekstræk:t] *n* parcha, ko'chirma; *2. v* [ɪk 'stræk:t] *v* 1) sug' urib (*yoki oldirib*) tashlamoq; to ~ a tooth tishni sug' urmoq; 2) (*shirasini*) siqib chiqarmoq; 3) chiqarmoq; 4) *mat.* ildizini topmoq
- extraction** [ɪk 'stræk:t(ə)n] *v* 1) parcha, ko'chirma; 2) kelib chiqish; nasab, nasl-nasab; **an American of Germany** ~ Nemis millatiga mansub amerikalik
- extractive** [ɪk 'stræk:tiv] *1. a* 1) ajratib oladigan; 2) ajratib olish yo'li bilan hosil qilin-gan; *2. n* ekstrakt (*kimyoiy yo'l bilan organik to'qimalaridan olingen modda*)
- extractor** [ɪk 'strækta] *n* tib. jarohlik qis-qichi
- extracurricular** [ekstrək'rikjulər] *a* 1) majburiy bo'limgan, ixtiyoriy; 2) dars-dan tashqari
- extradite** [ekstrə'dait] *v* jinoyatchini boshqa davlatga bermoq
- extradition** [ekstrə'dɪʃ(ə)n] *n* jinoyatchini boshqa davlatga topshirish
- extra-judicial** [ekstrədʒu:'dɪʃ(ə)n] *a jur.* norasmiy, ko'rib chiqilayotgan ishga aloqadar bo'limgan
- extramarital** [ekstrə'mærtl] *a* nikohsiz, nikohdan oldingi, nikohdan oldin bo'lgan
- extra-mundane** [ekstrə'mʌndən] *a din.* narigi dunyoda bo'ladigan, narigi dunyodagi
- extra-mural** [ekstrə'mju:(ə)rəl] *a* sirtqi yoki kechki; ~ courses sirtqi o'qish kurslari
- extraneous** [ɪk 'streməs] *a* begona, yet, o'z-ga, tashqi, sirtqi
- extra-official** [ekstrə'fɪʃ(ə)l] *a* rasmiy emas, norasmiy
- extraordinarily** [ɪk 'stro:d(ə)n(ə)rɪlɪ] *adv* g'ayrioddiy tarzda, juda ham ajoyib
- extraordinary** [ɪk 'stro:d(ə)n(ə)rɪ] *a* 1) fav-qulodda, turfa, hayron qolarli, sira ko'rilmagan (eshitilmagan); haddan tashqari, ajoyib, g'alati; 2) tasodifiy
- extrapolation** [ek,stræpə'leɪʃ(ə)n] *n mat.* ekstrapolatsiya (*narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingen xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tathiq etish*)
- extra-territorial** [ekstrəter'i:tɔ:rɪəl] *a eks-territorial* (eksteritoriallik huquqiga ega bo'lgan)
- extravagance** [ɪk 'strævægəns] *n* isrofgarchilik, nobudgarchilik, behuda sarflashlik, sovurib yuborishlik
- extravagancy** [ɪk 'strævægənsi] = **extrava-gance**
- extravagant** [ɪk 'strævægənt] *a* 1) isrofgar, nobudgar, behuda sarf qiluvchi, sovurib yuboruvchi; 2) beaqi, esi yo'q, tentak, jinni, ko'nligi kelganini qilaveradigan, bema'ni (ahmoqona) ish tutadigan; ahmoqona, telba-teskar; 3) bema'ni, kelishmagan, kurakda turmaydigan, tuturiqsiz; 4) adashib yuradigan, sanqi, darbadar; 5) haddan tashqari, cheksiz (*talab to'g'risida*)
- extravaganza** [ek,strævə'gænzə] *n teatr.* ertak sujetiga asoslangan teatr yoki sirk tomoshasi
- fivefold** [‘faɪvfolڈ] *1. a* besh karra, besh his-sa oshiq; *2. adv* besh marta oshiq bahoda (miqdorda)
- fiver** [‘faɪvə] *n* so'zl. besh funt sterlinglik yoki dollarlik pul
- fivescore** [‘faɪvs考ə] *n* yuz, yuztalik, yuz funt sterlinglik yoki dollarlik pul
- five-star** [‘faɪv ‘sta:] *a* besh yulduzli, eng yuqori darajadagi
- five-year** [‘faɪv,jeə] *a* besh yillik; *a ~ plan* besh yillik reja
- fix** [fiks] *v 1* o'rnatmoq, mahkamlamoq; 2) (*narx, muddat*) belgilamoq; 3) ta'mirlamoq; *to ~ a broken lock* buzuq qulfini tu-zatmoq; *to ~ a coat* pidjakni yamamoq, tuzatmoq; 4) tatbiq qilmamoq; kiritmoq; 5) (*digqatni, e'tiborni*) o'ziga tortmoq; *to ~ one's eyes on smth.* biror narsaga ko'z tikmoq; 6) o'matmoq, joylamoq; *to ~ oneself in a place* o'mashib olmoq, joylashib olmoq; 7) kelishmoq

fixate [fikseit] v 1) mahkamlamoq, mahkam o'rnashtirmoq; 2) *psixol.* miyaga o'mashib qolgan sifrdan azoblanmoq
fixation [fik'seif(ə)n] n 1) qayd qilish, yozib olish; **price** ~ bahomi qo'yish; 2) mustahkamlash
fixative [fiksativ] n fiksaj (*fotomaterial yuviladigan maxsus kimyoiy eritma, mahkamlagich*)
fixture ['fiksətʃə, -juə] n fiksator (*sochni silliqlash uchun ishlataladigan moy*)
fixed [fikst] a 1) qimirlamaydigan, doimiy; 2) belgilangan; 3) o'matilgan
fixedly ['fiksidlı] adv 1) tikilib, sinchiklab; to look ~ at smb. tikilib qaramoq; 2) qattiq, mustahkam, pishiqlib
fixedness ['fiksıdnəs] n 1) jumlik, sokimlik; 2) barqarorlik, turg'unlik, o'zgarmaslik
fixer ['fiksə] n 1) sozlovchi usta; 2) fiksaj (*fotomaterial yuviladigan maxsus kimyoiy eritma, mahkamlagich*)
fixings ['fiksinqz] n pl so'zl. 1) asbob-uskuna, jihoz; 2) (*libosni*) bezash; 3) oshx. garnir
fixity ['fiksiti] n o'zgarmaslik, turg'unlik; the ~ of look sinchikovlik bilan tikilish
fixture ['fiksṭə] n moslama; armatura (*mayda-chuyda o'rnatish qismrlari*)
fizzgig ['fizgig] n tannoz ayol
fizz [fiz] 1. n 1) vishillash, pishillash, vijilash; 2) vishillaryadigan ichimlik; 3) hushtak;
 2. v vishillamoq, pishillamoq, vijillamoq
fizzle ['fiz(ə)n] n shipillaydigani tovush
fizzy ['fizi] a so'zl. gazlangan, vishillaryadigan
fjord [fjɔ:d, fi:ɔ:d] n fiord (*qirg'og'lari qoyali, tor va chuqur dengiz ko'rfazi*)
flabbergast ['flæbər:gə:st] v so'zl. hayron (lol) qoldirmoq
flabbergasted ['flæbər,gə:stid] a hayratda qolgan, lol, hayron qolgan
flabby ['flebi] a 1) osilgan, osilib tushgan; 2) kuchsiz, bo'sh, bo'shashgan
flaccid ['fleksid] a kuchsiz, bo'sh
flag [flæg] 1. n 1) bayroq; the ~ of truce parlament bayroq'i; 2) bayroqcha (*taksi va shu kabilarda*); a taxi with ~ up bo'sh taksi; 3) deng. flagman (1. eskadra qo'mondoni; 2. eskadra qo'mondoni turadijan yirik dengiz kemasi; ma'lum hudud flotining eng katta yoki eng yaxshi kemasi); 4) to keep the ~ flying taslim bo'lmasisi; 5) bot. sapsargul; 6) toshtaxta (*plita*); 2. v 1) signal (belgi, xabar) bermoq; 2) bayroqlar bilan bezamoq
flag-captain ['flæg, 'kæptin] n flagman kemasining kapitani
Flag Day ['flægdei] n amer. 14-iyun AQSH-ning bayroq'i o'matilgan (ta'sis etilgan) kun

flagellant ['flædʒɪlənt] n o'zini-o'zi qiyaynaydigan kishi
flagellate ['flædʒəleit] v kaltaklamoq; qamchilamoq, savalamoq, do'pposlamoq
flagellation [,flædʒi'leif(ə)n] n savalash, urish, qamchilash, do'pposlash
flageolet [,flædʒə'let] n mus. flajolet (1. *puff lab chalinadigan fleytasimon qadimiy musiga asbobi*; 2. *cnolg'u asbobining toriga qo'il tekkanda chiqadigan mayin tovush*)
flagging I ['flægɪŋ] n toshtaxtadan qilingan pol
flagging II ['flægɪŋ] a so'libigan, so'lib tushgan
flagitious [flæ'dʒɪʃəs] a jinoyatkorona, jirkanch, yaramas, razil; sharmandalarcha
flagman ['flæqmən] n (pl -men [-mən]) harb. xabar (*signal*) beruvchi kishi
flag-officer ['flæg,ofɪsə] n 1) admiral (*harbiy florda oly unvon va shu unvonga ega bo'lgan kishi*); 2) qo'mondon
flagon ['flæqən] n flyaga (*suyuqlik tashiladigan katta idish*); katta butilka
flagpole ['flægpəol] = **flagstaff**
flagrant ['fleigrənt] a mudhish, qo'pol, dahshatl; a ~ crime mudhish jinoyat
flagship ['flæg,ʃɪp] n flagman kemasi (*flagman - 1. eskadra qo'mondoni; 2. eskadra qo'mondoni turadijan yirik dengiz kemasi; ma'lum hudud flotining eng katta yoki eng yaxshi kemasi*)
flagstaff ['flægsta:f] (pl -staves [-sta:vz])
flagshtok (hayroq o'rnatiladigan tik xoda)
flag-station ['flæg,stei[ə)n] n poyezdlar talab qilinganda to'xtaydigani bekat
flagstaves ['flægstə,vz] pl of **flagstaff**
flag-waving ['flæg,weivɪŋ] n 1) harb. jarg. bayroq bilan signal berish; 2) qilich yalong'ochlash, qurolni pesh qilish, urush bilan do'q urish (po'pis qilish, tahdid qilish)
flail [fleil] v silkimoq, qimirlatmoq
flair [flea] n hid sezish qobiliyat; to have a ~ for smth. nimaningdir hidini sezmoq
flak [flæk] 1) n 1) zenit artilleriyasi; 2) zenit to'plaridan yog'dirilgan o'q
flake I [fleik] 1. n 1) parcha; a ~ of fire olov parchasi; 2) qatlam; 2. v pag'a-pag'a bo'lib yog'moq, qoplamoq
flake II [fleik] n baliqlarni quritish qurilmasi
flake out ['fleik' aut] v so'zl. 1) (*charchoqdan*) holdan toymoq, tinkasi qurimoq; 2) bir lahzaga yuguga ketmoq; 3) hushidan ketmoq, behush bo'lib qolmoq
flaky ['fleiku] a 1) qat-qat, qatma-qat; 2) pag'a-pag'a
flam ['flæm] 1. n qalbaki, soxta; 2. v aldamoq, ahmoq qilmoq

flambé [flombeɪ] *a fr. spirt quyib kuydirilgan (taom haqida)*

flambeau [flæmboʊ] *n (pl -eaux [-əʊz])* mash'ala, mash'al

flamboyance [flæm'bɔɪəns] *n yorug'lik, ko'zga yaqinlik*

flamboyancy [flæm'bɔɪənsi] = **flamboyance**

flamboyant [flæm'bɔɪənt] *a ko'zga yaqin, yorqin, yarqiragan*

flame [fleɪm] *1, n 1) alanga, olov; in ~s alan-ga ichida; 2. v lovvullab yommoq, alanga olmoq*

flamenco [fle'meniko] *n flamenko (ispan lo'lilarining musiqiy uslubi va raqsı)*

flame-thrower [fleim,θraʊə] *n o'tsoshar*

flaming ['fleɪmɪŋ] *a 1) yorug', yorqin; 2) tiniq, yaltiroq; ~ colours yorqin ranglar; 3) issiq; ~ August issiq avgust*

flamingo [fle'mingəʊ] *n (pl -os, -oes [-əʊz]) zool. qızıl g'oz (bo'yni va oyoqlari uzun, och pushti rang suv qushi)*

flammable ['flæməbl(a)] *a tez o't oladigan, yong'in jihatidan xavfli*

flamy ['fleɪmi] *a 1) o'tga oid; 2) alangali*

flan [fleɪn] *n pishloqli, mevali pirog*

flange [fleɪndʒ] *n 1) tex. planets, gardish; 2) chet, hoshiya, qırq'oq, qırra; 3) reborda (q'ildirakning temiri izāzan chigib ketishi-dan saqlaydigan yon gardishi)*

flank [flæŋk] *1. n yon; yonbosh, chakka; 2. v yon tomonidan zarba bermoq*

flanker ['flæŋkə] *n harb. yon tomonidan (yoki orqasidan) kelib, o'tib*

flannel ['fleɪnl] *n flanel (ipdan yoki jundan to'qilgan yengil mato)*

flannedel ['fleɪnləd] *a flanel kastum kiygan*

flap [flæp] *1. n 1) qanot qoqish; 2) yengil zarba; 3) itning osilgan uzun qulog'i; 4) tel-pak qulog'i; 5) taqillatish; 2, v 1) qanot qoqmoq; 2) silkitmoq, qoqmoq; 3) taqillatmoq*

flapdoodle ['flæp,du:dl] *n so'zl. safsata, be-ma'nii gap*

flap-eared ['flæpiəd] *a quloplari osilgan, shalpalangqulog*

flapjack ['flæpdʒæk] *n 1) blin (quymoqsimon xamir ovqat); 2) oladya (tovada pishi-rilgan qalin quymoqsimon non); 3) obinon, kulcha*

flapper ['flæpə] *n 1) pashsha qo'rígich; 2) shaqildaq*

flare [fleɪr] *1. n 1) yarqirash, chaqnash; 2) alanga, mash'ala; 2. v 1) kengaymoq; sirtiga chiqmoq, ko'rınmoq; 2) o't olmoq, tu-tashmoq*

flared [fleɪd] *a yarqiragan*

flared skirt ['fleɪd'skə:t] *n klyosh yubka (karnay bichiq yubka)*

flare-up ['flea(r)'ʌp] *n birdan (lov etib) yonish*

flaring ['fle(ə)nɪŋ] *a 1) ko'zni oladigan, yar-qiroq; 2) ko'zga tashlanadigan*

flash [flæʃ] *1. n 1) chaqnash, chaqnab ketish; 2) oz vaqt, biror soniya; 2. v 1) yal-tiramoq, chaqnamoq; his eyes ~ ed fire ko'zlaridan o't chaqnardi; to ~ a look (a glance) at smb. biror narsaga ko'z tashlamoq, ko'z qirini tashlamoq; 2) (fikr) yarq etmoq; 3) telegraf, radio va h. k. dan xabar (axborot) bermoq*

flashback ['flæʃbæk] *n 1) o'tmishga nazar tashlash; 2) esdalik, xotira*

flashbulb ['flæʃbulb] *n foto. birdan (lov etib) yonib o'chadigan lampa*

flash burn ['flæʃbə:n] *n yorug'lik nurlanishi natijasida kuygan joy*

flasher ['flæʃə] *n 1) milt-milt etib o'chib-yonib turadigan moslama; 2) milt-milt etib yonib turgan mash'alai*

flash flood ['flæʃ,flæd] *n to'satdan paydo bo'lgan suv toshqini (yong'irdan so'ng)*

flashgun ['flæ:gʌn] *n foto rasm tushiradigan apparatga o'rnatilgan birdan (lov etib) yonib o'chadigan lampa*

flash-house ['flæʃhaʊs] *n buzuqxona, o'g'rixona, yomonlar makoni*

flashing ['flæʃɪŋ] *n chaqnash*

flash-light ['flæʃlaɪt] *n 1) xabar chirog'i; 2) foto, yarq etuvchi chiroq*

flash point ['flæʃpoɪnt] *n 1) alanganish harorati; 2) chek, chegara (sabr, bardosh va b. haqida)*

flashy ['flæ:sɪ] *a 1) namuna sifatida ko'rsatiladigan, ko'z-ko'z qilinadigan; 2) ko'zga tashlanadigan, hammani o'ziga qaratadigan, serhasham*

flask [fleo:sk] *n 1) suvdon; 2) suyuqlik tashiladigan katta idish*

flasket [flea:skɪt] *n 1) kichkina suvdon (flyaga), suyuqlik tashiladigan kichkina idish; 2) shev. kiyim solinadigan savat, kiyimsavat*

flat I [*flæt*] *n 1) kvartira, uy, xona, turar joy; 2) pl xonalari ko'p uy*

flat II [*flæt*] *1. n 1) yassilik, yalpoqlik; 2) past tekisilik, qırq'oq; 3) amer. so'zl. havosi (dami) chiqqan shina; 2. a 1) yassi, bir tekis; a ~ roof yassi tom; a ~ nose pu-chuq (burun); 3) qat'iy, to'g'ri; that's ~ bu qat'iy hal qilingan; 4) zerikarli, bir zayldagi (hayot haqida)*

flat-boat ['flætbə:t] *n tagi yassi qayiq*

flat-broke ['flætb्रəʊk] *a so'zl. tamoman barbos bo'lgan*

flat-car ['flætkɑ:] *n amer. tem. y. ochiq yuk vagoni*

flat-fish ['flæt,fiʃ] *n* yassi (yapaloq) baliq
flat-foot ['flætfʊt] *n* tib. yassi oyoqlik, yassi tovonlik, yalpoq oyoqlik, tovonning tekisligi
flat-footed [,flæt'fʊtɪd] *a* tib. yassi oyoqli
flat-iron ['flæt,aɪrən] *n* 1) dazmol; 2) tilim-tilim tunuka
flatland ['flætlænd] *n* tekislik, tekis
flatlet ['flætlɪt] *n* kichkina kvartira, kvartiracha
flatly ['flætlɪ] *adv* 1) tekis, tep-tekis, silliq; 2) zerikarli qilib, diqqatini oshirib
flatness ['flætnəs] *n* 1), yassilik, tekislik; 2) zerikish, diqqati oshish
flat-out [,flæt' aut] *adv* so'zl, bor kuchi bilan, kuchi boricha, umidsizlik bilan
flat spin ['flæt spin] *n* 1) av. deyarli horizontal shtopor (*samolyotning pastga qarab buralish sho'ng iши*); 2) so'zl, hayajonlanish holati, iztirov chekish holati
flatten ['flætn] *v* tekis qilmoq, tekislamoq, dazmollamoq, to'g'rilamoq, erib ketmoq
flatter ['flætə] *v* xushomad (laganbardorlik) qilmoq; you ~ me! siz menga xushomad qilyapsizmi!
flatterer ['flæt(ə)rə] *n* xushomadgo'y (laganbardor) odam
flattering ['flæt(ə)rɪŋ] *a* 1) xushomadgo'y, laganbardor; 2) ma'qul bo'ladigan, manzur bo'ladigan, xush yoqadigan, maqtovli
flattery ['flæt(ə)n] *n* xushomad, tilyog 'lama maqtov
flatting ['flætnɪŋ] *n* tex. chig'irlash, chig'irlab yoyish
flatting mill ['flætnɪŋmɪl] *n* metall yoyadigan (taxtalarydigan) mashina
flat-top ['flætɒp] *n* amer. so'zl. samolyotlar uchishi va qo'nishi uchun moslangan harbiy kema
flatulence, -cy ['flætjuləns, -sɪ] *n* 1) tib. qorinda (ichda) gazning to'planishi; meteorizm (ich dam bo'lishi); ichakda ko'pel yel to'planishi natijasida qorinning taranglashishi; 2) o'ziga bino qo'yanlik, gerdayganlik, manmanlik, mutakkabirlik
flatulent ['flætjulənt] *a* 1) tib. gaz to'plovchi (ichakda); 2) tib. qorinda gaz to'planishdan azob tortadigan; 3) o'ziga bino qo'ymoq, gerdaygan, manman, mutakkabir flatus ['flεrtəs] *n* ichakda (qorinda) gazning to'planishi; shishish, qappayish (*qorin haqida*)
flatware ['flætweə] *n* 1) yapaloq (sayoz, yassi) idish; 2) amer. osxona (ovqatlanish) anjomlari (likopcha, pichoq, vilka, qoshiq va sh. k.)

flatways ['flætweɪz] *adv* yoni bilan, keng tormoni bilan
flaunt [flɔ:nt] *v* ko'z-ko'z qilmoq
flautist ['flɔ:tɪst] *n* fleyita chaluvchi (*fleyta – naysimon musiqa asbobi*)
flavescence [flæ'ves(ə)nt] *a* sarg'ayib ko'rindigan, sarg'ayib turgan, sariq bo'lib turgan; sarg'ish, sariqqa moyil, sariqroq
flavin ['fleɪvn] *n* sariq ho'yoq
flavor ['fleɪvə] *amer.* = **flavour**
flavoring ['fleɪv(ə)rɪŋ] *amer.* = **flavouring**
flavorless ['fleɪvələs] *amer.* = **flavourless**
flavorous ['fleɪvərəs] *a* 1) mazali, lazzatl, totti, shirin; 2) hidi yaxshi, xushbo'y, muat-tar
flavour ['fleɪvə] *n* 1) ta'm, maza, lazzat; 2) yoqimli hid; **the ~ of food** ovqat hidi
flavouring ['fleɪv(ə)rɪŋ] *n* 1) ovqatni xushbo'y qilish uchun ishlataladigan ziravor; 2) xushbo'y narsalari
flavourless ['fleɪvələs] *a* 1) bemaza, ta'm-siz; 2) hidi yo'q, hidsiz
flaw [flɔ:] *1, n* 1) kovak, tirkish, yoriq; 2) (*metall va b. haqida*) darz ketish; 3) yaroqsiz mahsulot; 4) so'zl. qattiq (shiddatl) shamol, bo'ton; 2. v darz ketmoq, yorilmoq; yaroqsizlanmoq
flawless [flɔ:ləs] *a* benuqson, bekam-ko'st
flawy ['flo:ti] *a* nuqsonli, illatl, kamchiligi bor
flax [flæks] *n* zig'ir, zig'irpoya tolasidan to'qilgan mato
flexen [flæks(ə)n] *a* 1) zig'ir, zig'irdek mayin (soch haqida); 2) och sariq, malla (sochning rangi haqida)
flex-seed ['flækssii:d] *n* zig'ir urug'i
flexy ['flæksi] *a* 1) zig'irga oid; 2) zig'ir tolasidan tikilgan
fly [flei] *v* shilmoq, terini ajratmoq
fly-flint ['fleiflɪnt] *n* qo'qtib undiruvchi (tovlamachi) kishi, tamagir, yulg'ich
flea [flı:] *n* 1) burga; 2) qizg'ish rang
flea-bag ['fli:bæg] *n* so'zl. qopko'rpa (sovqa joylarda ichiga kirib yotiladigan qopsimon ko'rpa)
fleabite ['fli:bɪt] *n* 1) arzimagan narsadan kamchilik topish, arzimagan narsaga ko'yish (ranjitish); 2) arzimagan og'riq; 3) otning oq junidagi sariq dog
flea-bitten ['fli:bitn] *n* 1) burga chaqqan, burga chaqib olgan; 2) xarob (abgor) bo'lib qolgan, pastlashib (qashshoqlashib, kambag'allashib) ketgan, singan, tushkunlikka (inqirozga) yuz tutgan; abgor, faqirona; 3) ola, chavkar (*ot tusi*)
fleam [fli:m] *n* tib. lanset (*dudama jarrohlar nishitari*)

flea market [fli:ma:kit] n so'zl. eskibozor; chayqov bozori

flea-pit ['fli:pit] n iflos uy (xona)

fleck [flek] 1. n tomchi; 2) dog'; iz; 3) sepi-kil; 2. v dog' bilan qoplanmoq

lecker ['fleka] v 1) yoziб-chizib tashlamoq, ola-bula qilib tashlamoq; 2) har xil narsalar bilan to'ldirmoq

flexion ['flek:(ə)n] = flexion

fled [fled] past., p. p. of flee

fledge [fledз] v 1) pat chiqazmoq; 2) qush-larni boqmoq

fledged [fledзd] a 1) pat chiqargan; 2) ucha oladigan (qushlar haqida)

fledg(e)ling ['fledзlɪŋ] n 1) pat chiqazgan qush bolasi; 2) tajribasiz yigitcha

flee [fli:] v (fled) 1) qochib qutulmoq; qochmoq; to ~ the country mamlakatdan qochmoq; 2) o'zini chetga olmoq; to ~ the society of men jamiyatdan o'zini chetga oladigan kishilar

fleece [fli:s] 1. n qo'y juni; 2. v 1) qo'y junnini olmoq; 2) tozalamoq; shilib olmoq; to ~ a person of all his money kimningdir pulim oxirigacha shilib olmoq

fleecy [fli:sı] a serjun, juni qalin, qalin junli; ~ hair jingalak sochlari

feer [fli:r] 1. n nafratli qarash; 2) maskara qilish; 2. v 1) nafrat bilan tabassum qilmuoq; 2) maskara qilmuoq, ustidan kulmoq

fleet [fli:t] 1. n 1) flot; 2) park (avtomobil, traktor va b. uchun); 2. a tez, uchqur, a ~ of foot tezurari

fleet-footed [fli:tfu:nd] a chaqqon, chopqir, oyog'i yengil

fleeting [fli:tinq] a 1) tezlik bilan bo'ladigan; 2) bir lahzali, tez o'tib ketadigan, vaqtinchalik; a ~ glance ko'z (nazar) tashlash, bir qarab qo'yish; ~ impression yuzaki taassurot

Fleet Street [fli:tstri:t] n 1) Flit-strit (*Londonning asosiy nashriyotlari joylashgan ko'cha; Angliyaning gazeta ishlab chiqarish markazi*) 2) Angliya matbuoti

Fleming [flemıŋ] n flamand (asosan, *Belgiyaning shimalida yashaydigan, tili german tillari oilasiga mansub xalq*)

Flemish [flemıʃ] 1. a flamandlarga va Flamandiyaga oid; 2. n flamand tili

flench [flenʃ] = flense

flense [fens] v dengiz hayvonlarining moyini eritib olmoq

flesh [fles] 1. n 1) (xom) go'sht; wolves live on ~ bo'rilar go'sht bilan oziqlanadilar; 2) tana; 3) jism; 2, v 1) (ittarni, lochinni) ovga o'rgatmoq; 2) so'zl. to'lishmoq, semimoq; 3) rahmsiz qilib yubormoq, bag'ritosh qilib qo'ymoq

flesh-coloured ['fles,kʌləd] n oq-sariq rang

flesh-fly ['fleʃflai] n go'sht pashshasi

fleshings ['fleʃɪŋz] n pl badanga yopishib turadigan oq-sariq rangdag'i sportchilar kiyimi (sahnaga chiqish uchun kiyiladigan)

fleshily ['fleʃli] a shahvoni, shahvatga oid;

his (tuyg'u) qo'zg'atadigan

flesh-pot ['fleʃpot] n go'sht pishiriladigan qozon

flesh tights ['fleʃtaɪts] = fleshings

flesh-wound ['fleʃwu:nd] n yuzdag'i (yen-gil) jarohat

fleshy ['fleʃli] a 1) go'shtli; 2) semiz, to'la

fleur-de-lis [flə:də 'lis] n fr. bot. gulsapsar

flew [flu:] past. of fly II,

flies [flu:z] n pl osilgan lablar (iskovuch it va b.)

flex [fleks] 1. n egiluvchan kanop; 2. v egimoq, qayirmoq, egilmuoq

flexible ['fleksib(ə)l] a qayishqoq; egiluvchan, bukiluvchan

flexibility [,fleksə'biliti] n moslashuvchanlik, egiluvchanlik

flexion [flek:(ə)n] n 1) egilgan yoki bukilgan joy; 2) egish, bukish, qayirish; 3) gram.

fleksiya (so'zning turlanish yoki tuslanishda o'zgaradigan qo'shimchasi, tugallammasi)

flexitime ['fleksitərm] n erkin ish tartibi (isning boshanish va tugash vaqtini erkin ravishda tanlab olish)

flexor ['fleksə] n egiladigan yoki bukiladigan mushak

flexure ['flekʃə] n egish, bukish, egilish, bukilish

libertigibbet ['liberti:dʒibet] n 1) sergap (ezma, vaysaqi, safsataboz, ichida gap turmaydigan, og'zi bo'sh) odam; g'iybatchi odam; 2) mulohazasiz (yengiltak) yoki ishonchsiz odam

flick [flık] 1. n 1) yengil zarba; 2) qo'pol harakat; 3) so'zl. kinoseans; 2. v chertmoq

flicker ['flıkə] 1. n 1) miltillash, milt-milt yonib turish; 2) amer. qizilishton; 2. v 1) miltillamoq, miltillab ko'rinxmoq; 2) qalitiramoq

flickering ['flık(ə)rıŋ] a tebranuvchi, tebranib turadigan

flick knife ['flıknaiʃ] n prujinali pichoq

flier ['flıər] n uchuvchi (samolyot, vertolyot, kabilarni boshqaruvchi mutaxassis)

fliers ['flıəz] n 1) pashsha; 2) yirmoch

flight [flaɪt] 1. n 1) uchish; the ~ of a bee asalarilarning uchishi; 2) (to'xtovsiz) parvoz; 3) vaqtning tez o'tishi; 4) gala; 5) to'da; 6) qochish, qochib ketish; 2. v har yoqdan uchib kelib to'planmoq

flight-deck [flantdek] *n av.* kemaning uchish sahnı (*samolyotlar uchishi va qo' nishi uchun moslangan harbiy kema*)

flight-lieutenant [flaitlef' tenənt] *n av.* havo floti kapitani (*Angliyada*)

flight-shot [flaitʃɒt] *n o'* qning uzoqqa ketish masofasi

flighty [flartı] *a 1)* o'zgaruvchan, o'zgarib turadigan; *2)* tez aynib turadigan, tez-tez o'zgarib turadigan

flim-flam [flimflæm] *1. so'zl.* *n berna'nı gap, safsata;* *2. v aldarnoq, yolg'on gapiromoq*

flimsy [flimzi] *a 1)* nozik, hilpirama, yengil (*mato to'g'risida*); *2)* chidamsiz, mo'rt;

3) tuturiqsiz, sabotsiz, assosiz

flinch [flintʃ] *v seskanib ketmoq; cho'chib (sapchib) tushmoq*

flinders [flindəz] *n pl* singan ho'laklar, mayda tarashalar; **to break in** ~ sinib sochilib ketmoq

fling [flinq] *1. n 1)* irg'itish, uloqtirish, otib yuborish; *2)* urinish; **to have a ~ at smth.** biror narsaga urinib ko'rmoq; *3)* *shotl.* tez rad etish; *2. v (flung) 1)* irg'itmooq, otmoq; **to ~ a stone at smb.** kimadir tosh otmoq; *2)* oyog'idan chalmoq; *3)* *shotl.* sho'x o'yamoq; *4)* amer. aldamoq

flint [flint] *n* chaqmoq tosh

flint-glass [flintgla:s] *n* flintglas (*optik shish shaning bir turi*)

flint-hearted [flint 'ha:tɪd] *a* qahri qattiq, bag'ritosh, rahmsiz

flint-lock [flintlok] *n tar.* chaqmoq miltiq

flint-paper [flint,peipə] *n* jilvîr(lı) qog'oz

flinty [flintı] *a* toshloq, toshi ko'p

flip [flip] *1. n 1)* chertki, chertish, yengil zarba; *2)* spirtili issiq shirin pivo; *2. v* chertmoq, yengil zarba bermoq

flip-flop [fliflop] *n 1)* *pl* rezinali shippak; *2)* amer. salto-mortale, havoda umbaloq oshish; *3)* arg.'imchoq, hayinchak

flippancy [flipənsı] *n 1)* yengiltaklik, mulohazasizlik; *2)* betayinlik

flippant [flipənt] *a 1)* yengiltak, mulohazasiz; *2)* qo'pol, dag'al; **a ~ answer** qo'pol javob

flipper [flıpə] *n zool.* suzgich (*suv hayvonlarining suzish organı*)

flipping [flipiŋ] *a so'zl.* la'nati (*haqorat qılışı*)

flirt [flı:t] *1. v* nozlanmoq, noz-karashma qılımoq, ishva qılımoq; *2. n* tannoz ayol, ishvagar ayol

flirtation [flı:t' teɪʃ(ə)n] *n* ishva, noz-karashma

flirtatious [flı:t' teɪʃəs] *a* tannoz, ishvagar, ishvali; noz-karashma qılıshni yaxshi ko'radigan

flirty [flı:tɪ] *a* tannoz, ishvagar, ishvali **flit** [flıt] *v* bir joydan boshqa joyga uchmoq, ko'chmoq

fletch [flıtʃ] *n* gorbil, kapantaxta

flitter [flıtə] *v* parillab uchmoq, parvoz qılımoq

flivver [flıvə] *n so'zl.* eski, arzon avtomobil

float [fləut] *1. n* po'kak, qalqi; *2. v 1)* (*havo, oqim ho'ylab*) suzmoq; *2)* (*suv va b. suyuqliklar*) yuzasida oqmoq, qalqimoq

floatable [fləutəb(ə)l] *a* suzib yuruvchi, suzuvchi, qalqib yuruvchi

floatage [fləutɪdʒ] *n* suzish (suzib yura olish) qobiliyatı

floatation [fləutɪ' teɪʃ(ə)n] *n 1)* suzish, suzib yurish; *2)* *tog'*. floatsiya (*foydatlı qazılmalarnı yokirudan boyitish usulı*)

floater [flautə] *n* mavsumiy ishchi

floating [fləutɪŋ] *a 1)* suzuvchi; *a ~ cargo* dengiz yuki; *a ~ island* suzuvchi orol; *2)* qo'zg' aluvchan

floating bridge [fləutɪŋ bridʒ] *n* ponton (*vaqtincha qurilgan ko'chma*) ko'prik, suzuvchi (qalqima) tayanchdagı ko'prik

floatplane [fləutplene] *n* qalquvchi, suvda yura oladigan (suvdan ko'tarilib, suvgaga qo'na oladigan) gidrosamolyot

floaty [fləuti] *a 1)* (*suvda*) suzib yuruvchi; *2)* yengil

floculate [flökjuleit] *v 1)* kim. parcha-parcha bo'lib tushmoq; *2)* kesakchalar hosil qilish (*turopaq haqida*)

flock [flok] *1. v* katta-katta guruh bo'lib to'planmoq; **to ~ about smb.** kimningdir (*atrofiga to'planmoq*); *2. n 1)* guruh, gala; **a ~ of wild ducks** yovvoyi o'rdaklar galasi; *2)* to'da

floe [fløʊ] *n* suzib yuruvchi katta muz parchasi

flog [flɒg] *v* urmoq, savalamoq, kaltaklamoq

flogging [flɒgiŋ] *n 1)* urish, kaltaklash; *2)* tan jazosi; jismoniy jazo

flood [fləd] *1. n 1)* (*muz, qor erishi tufayli bo'ladigan*) suv toshqini; *2)* suvning ko'tarilishi (*okean va dengizlarda*); *2. v* suv bosmoq, suv toshmoq

flood-gate [flædgɛɪt] *n* shluz (*suv sathi turlichä bo'lgan bir joydan ikkinchi joyga kematarnı o'tkazish uchun xizmat qılıvchigidrotexnik inshoot*)

floodlight [flædlایt] *1. n* projektor, projektor yorug'ligi; *2. v* projektor bilan yoritmoq

floodlit [flædlt] *a* projektorlar bilan yoritilgan

flood plain [flædplein] *n* qayir (*daryo yogasidagi suv bosadigan, ko'pincha, o'tloq yerlar*); suv bosadigan o'tloq

flood tide [flə:dtaɪd] *n* suvning ko'tarilishi
(okean va dengizlarda)

floodwater [flæd, wɔ:tə] *n* toshqin paytida
quruqlikni bosib oladigan suv

floor [flɔ:r] 1. *n* pol; 2) okean tubi; 3) (*qo-nun chiqaruvchi*) majlis a'zolarining joyi;
the ~ of the House majlislar zalidagi parla-
ment a'zolarining joyi; 4) majlisda so'zga
chiqish huquqi; to have (*yoki to take*) the
~ so'zga chiqmoq, so'z olmoq; to get the
~ o'tirgan o'nidan savol bermoq; 5) parla-
ment a'zolarining o'mni; 6) qavat; 2. *v* 1) pol
qoqmoq; 2) polga yiqitmoq

floorboard [flɔ:bɔ:d] *n* pol taxtasi

floor-cloth [flɔ:kloth] *n* 1) pollatta, pol
yuviladigan latta; 2) linoleum

flooter [flɔ:tə] *n* 1) qiyin (tang) ahvol;
2) og'ir topshiriq; 3) esni og'diradigan
(anqaytirib qo'yadigan) zarba

flooring [flɔ:riŋ] *n* 1) kat, to'shamma; 2) pol
qoqish; 3) qur. pol taxta

floor lamp [flɔ:læmp] *n* torsher (*tik asosga
baland o'rnatilib, polga qo'yiladigan chiroq*)

floor show [flɔ:səʊ] *n* xalq oldida (ichida)
ko'rsatiladigan tomosha

floorwalker [flɔ:,wɔ:kə] *n* universal maga-
zinining ma'muriyati

floosie ['flu:zi] *n* sayoq (suyuqoyoq) xotin,
buzuq (fohisha) ayol

floozie ['flu:zi] = floosie

floozy ['flu:zi] = floosie

flop [flɒp] 1) shap etib tushmoq, tez va be-
so'naqay harakatlanmoq; 2) osilib turmoq;
3) muvaffaqiyatsizlikka uchramoq

floppy ['flɒpi] *n* disketa, kompyuter diske-
tasi

floppy disk [flɒpi 'disk] *n* inform. disketa,
egiluvchan magnitli disk

flora [flɔ:ra] *n* (*pl -ae, -s [-z]*) flora (*o'sim-
liklar dunyosi*)

florae [flɔ:rai, -ri:] *pl* of flora

floral [flɔ:rəl] *a* gulga oid, gul

Florentine [flɔ:rəntain] 1. *a* Florensiya yoki
florensiyaliklarga oid. Florensiya ...;
florensiyaliklar ...; 2. *n* Florensiya aholisi,
florensiyalik, florensiyalik ayol

fluorescence [flo'res(ə)ns] *n* gullash, guli
ochilish

floret [flɔ:rɪt] *n* kichkina gul, gulcha

floriated [flɔ:rɪeɪteɪt] *a* gul solingen naqshli

floriculture [flɔ:rɪkʌltʃə] *n* gulchilik

florid ['flɔ:rid] *a* 1) qizil, qip-qizil, qirmizi
(*yuz haqida*); 2) gulli, sergul; guldor; 3) dab-
dabali, balandparvoz

florin ['flɔ:rɪn] *n* tar. florin (*turli mamlakat-
larning tilla tangasi*)

florist ['flɔ:rist] *n* gul sotuvchi

floruit [flɔ:rūit] *n* tarixiy shaxsning faoliyat
ko'rsatgan yillari

floss [flos] *n* 1) xom ipak; 2) tikish uchun
ishlatiladigan mayin ipak yoki paxtadan
maxsus tayyorlangan ip

flossy ['flosi] *a* ipakdek mayin, ipaksimon,
ipakka o'xshagan, ipak..., shoyi...

flotage [fləʊtɪdʒ] = floatage

flotation [fləʊ 'teɪʃ(ə)n] = floatation

flotilla [flə 'tilə] *n* flotiliya (*biror daryo,
ko'l yoki dengizda yuradigan harbiy kema-
lar majmuyi*)

flotsam ['flɔts(ə)m] *n* tashlab yuborilgan
va suv ustida suzih yurgan tashlandiq nar-
sa; suzil yuradigan tashlandiq parchalar

flounce [flaʊns] 1. *v* otimoq, otishmoq; 2. *n*
1) qo'pol harakat; 2) oborka, burma

flounder I ['flaundə] *n* kichkina kambala,
kichkina qalqonbaliq (*ikki ko'zi bir tomon-
da bo'lgan yapaloq dengiz balig'i*)

flounder II ['flaundə] *v* 1) tipirchilamoq,
pitirchilamoq; tipir-tipir (pitir-pitir) qilmоq;
qiyinchilik bilan harakat qilmоq; 2) gapdan
adashmoq, yanglishmoq, aralshtirmoq; to
~ through a speech qiyinchilik bilan (*zo'r-
g'a*) tushuntirib bermoq (*max., che tiliida*)

flour ['flaʊə] *n* 1) un; 2) poroshok, kukun;
3) upa

flourish ['flaʊrɪʃ] 1. *v* yashnamoq; gullamoq;
2. *n* gullahsh, yashnash

flourishing [flaʊrɪʃɪŋ] *a* 1) gullayotgan, gull-
ab turgan; 2) ko'ch gullayotgan, yashna-
yotgan, gulday (gul-gul) ochilgan, obod,
tarraqtiy etayotgan, ravnag topayotgan

floury ['flau(ə)rɪ] *a* 1) unga oid; un solingen
(solinadigan); unli, un ...; undan (xamir-
dan) tayyorlangan, xamir ...; 2) tarkibida
un bo'lgan; 3) un sepilgan

flout [flaʊt] *v* iqtisotsizlik ko'rsatmoq,
mensimay qaramoq; to ~ smb.'s advice kim-
ningdir (birovning) maslahatiga ahamiyat
bermaslik

flow [fləʊ] 1. *n* 1) oqim, oqish, oqib ketish;
2) raxonlik, siliqlik (*nutq haqida*); 3) mo'l-
ko'lilik, serobgarchilik, to'kin-sochinlik;
farovon hayot, farovonlik, ma'murchilik,
to'qchilik; a ~ of spirits xushchaqchaqlik,
quvnoqlig, shodmonlik; 4) *tib*. menstruatsiya,
oy ko'rish, hayz; 2. *v* oqmoq, tommoq,
chakka o'tmoq

flowchart [fləʊtʃə:t] *n* diagramma, sxema
(*shartli tasvir, chizma*)

flower ['flaʊə] 1. *n* 1) gul; 2) gullash; 2. *v*
1) gullamoq; 2) gullar bilan bezatmoq

flower-bed ['flaʊəbed] *n* klumba (*to'garak
yoki boshqa biror shakldagi gulzor*)

flower-de-luce [flaʊədə 'lu:s] = fleur-de-lis

floweret [fluə(r)ənt] *n* kichkina gul, gulcha (chechak)

flower-garden [fluə(r)ədn] *n* gulkona, gulkor, chamanzor

flower-girl [fluə(r)əgl] *n* gulchi, gul sotuvchi ayol

flowering [fluə(r)əm] *n* gullah, guli ochilish

flower-piece [fluə(r)əps] *n* ras. gullar tasviri tushirilgan surʼat

flower-pot [fluə(r)əpt] *n* tuvak, guldon

flower-show [fluə(r)əʃu] *n* gullar ko'rgazmasi

flowery [fluə(r)əri] *a* gulli, sergul, guldor

flowing [fluə(r)əŋ] *a* shosmasdan (bir tekis) ijro etiladigan (*uslub haqida*); 2) hozirgi, shu kundagi

flown I [fluən] *a* boshqariladigan, boshqarsa bo'ladigan (*parvoz haqida*)

flown II [fluən] *p. p. of fly II*, 2

flu [flu:] *n* so'zl. gripp

fluctuate [flu:kts'uet] *v* tebranmoq, pirpiramoq, hilpiramoq, silkinmoq

fluctuation [flu:kts'ueʃən] *n* tebranish

flue [flu:] *n* 1) dudburon, mo'ri, mo'rkon; 2) *tex.* bug' qozoni orqali issiq futun o'tkazadigan truba, o't quvuri; 3) baliq ovlaydigan katta to'r

fluency [flu:ənsi] *n* raxonlik, silliqlik (*nutq haqida*)

fluent [flu:ənt] 1. *a* 1) oquvchan, (suyulib) oqib ketadigan, suyuq; 2) raxon (*nutq haqida*); 2. *n mat.* o'zgaruvchan miqdor

fluently [flu:ənlı] *adv* 1) tekislab, silliq qilib; 2) tutilmasdan, qiyalmasdan, raxon (*nutq haqida*)

fluff [flʌf] *n* par, momiq, tuk, tivit, mo'y

fluffy [flʌfi] *n* 1) yumshoq, mayin, momiq-day; 2) so'zl. tez esidan chiqadigan (unutadigan), unutuvchan, xotirasi past, faromushxotir; 3) so'zl. mast, oyoqda tura olmaydigan

fluid [flu:d] 1. *a* suyuq; 2. *n* suyuqlik

fluidity [flu: i'ditı] *n* 1) suyuqlik holati; 2) oquvchanlik, (suyulib) oqib ketish xususiyati; 3) nutqning raxonligi; 4) o'zgaruvchanlik, o'zgarib turish

fluke [flu:k] *n* baxtli tasodif; 2) *zool.* kambala, qalqonbaliq; 3) langarning lapasi (*tayanch nuqtalari*)

flukey [flu:ki] *a* 1) tasodify, tasodifan bo'lган (bo'lib qolgan), kutilmaganda yuz berган (sodir bo'lgan), kutilmagan, nogahoniylig; 2) omadga bog'liq bo'lgan

flume [flu:m] *n* 1) sun'iy kanal; 2) oqimli tog' darasi; 3) *tex.* tarnov, nov

flummery [flu:məri] *n* so'zl. quruq xushomad; bekorchi gap, safsata

flumox [flu:məks] *v* so'zl. xijolat qilmoq, xijolatga solmoq, uyaltirib qo'ymoq, uyatga qoldirmoq; qiyin (tang, og'ir) anvolga solib qo'ymod

flump [flu:mp] *1. n* noaniq tovush (gupulash, duk-duk urish, tepish); taqillagan (dukuillagan, taraqlagan) ovoz; taqillash, dukuillash, taraqlash; taqir-tuqur, taraqturq, duk-duk, dukur-dukur; 2. v 1) taraqturq qilib tushmoq yoki harakat qilmoq; 2) (nimandir) polga taraq etib otib yubormoq yoki qo'ymoq

flung [flu:g] *past, p. p. of fling* 2

flunk [flu:nk] *amer. so'zl.* 1. *n* to'la-to'kis barbob bo'lishi; 2. v imtihondan yiqilmoq; *to ~ out* o'zlashtir olmaganligi uchun haydab yubormoq (*o'quv yurtidagi*)

flunkey [flu:nki] *n* 1) xizmatkor; malay; 2) tiz cho'kib sajda qiluvchi, lagabardor

fluorescence [flu:(ə)'res(ə)n] *n* nurlanish, yorug'lik (nur) sochish; fluoressensiya (*ba'zi jismalarni nurlantirganda ularning yaltrrab ko'rinishi*)

fluorescent [flu:(ə)'res(ə)nt] *a* fluoressensiya oid, nurlatilganda yaltrrab ko'rinadigan; *a ~ lamp* kunduzgi yorug'lik lampasi

fluoride [flu:(ə)'raɪd] *n* kim. florid; **anhydrous hydrogen** ~ florli vodorod

fluorine [flu:(ə)'ri:n] *n* kim. flor (*achchiq hidli, rangsiz gaz*)

fluorspar [flu:spa:] *n* min. rangsiz, shuningdek, binafsharang, pushti rang kristallar hosil qiladigan mineral (*metallurgiya, kimyo sanoati, optika va sh. k. da qo'llanadi*)

flurry [flu:ri] *n* 1) to'satdan yog' gan yomg'ir yoki qor, bo'ton; 2) sarosima, tartibsizlik, besaranjomlik

flush I [flu:s] *1. v* 1) yuvib tozalamoq; 2) to'ladirib yubormoq; 3) qizarmoq; 4) pirillab uchib ketmoq; 2. *n* 1) oqim; 2) qizilik (*yuzdag'i*)

flush II [flu:s] *1. n* qo'rqb (cho'chib) pirillab uchib ketgan qushlar galasi; 2. v (*yovvoyi qushlarini*) qo'rqtib yubormoq

flush III [flu:s] *n* bir xil turdag'i (rangdag'i) qartalar

fluster [flu:stə] *v* xavotirlanmoq

flute [flu:tı] *1. n* nay; 2. v nay chalmoq

flutist [flu:tist] *n* naychi

flutter [flu:tə] *1. v* 1) silkitmooq, qoqmoq; 2) hilpiramoq; 3) tez-tez urmoq, dukuillamoq; 2. *n* hovliqish; 2) hilpirash; 3) qoqish

fluty [flu:ti] *a* nay ovozini eslatadigan; yumshoq va toza

fluvial [flu:vıəl] *a* daryoga oid, daryoda bo'ladijan

flux [flʌks] 1. n 1) doimiy harakat; 2) oqish, oqib ketish, borish; 2. v oqib ketmoq, oqib chiqmoq

fluxion [flʌkʃ(ə)n] n 1) mat. hosila, yasama; 2) tib. qon yoki suyuqlikning quyulishi (yuzga yoki tananining bosqqa a'zolariga)

fly I [flai] n pashsha; chivin

fly II [flai] 1. n uchish, parvoz qilish; to ~ in uchib kirmoq; to ~ out uchib chiqmoq; to ~ over uchib o'tmoq; 2. v (flew; flown) uchmoq, ko'tarilmoq; to ~ at kimadir hujum qilmоq, so'kish so'zlarini aytib tashlanmoq (yopishib ketmoq); to ~ in havo yo'li orqali yetkazib bermoq; to ~ into 1) qattiq g'azablannoq; 2) qoyil qolmoq, tahsin o'qimoq; 3) uchib kirmoq (xona va b. ga); ~ off 1) shoshganicha (shoshilib, shoshib) qochib qutulmoq; 2) chiqib ketmoq, uzilish (yoki ko'chib) tushmoq, uchib chiqib ketmoq (mas., bolg'a sopi va b. dan); to ~ on = to ~ at; to ~ out qizishmoq, jahli (achchig'i) chiqib ketmoq, qoni (zardasi) qaynamoq; to ~ over ...dan sakrab o'tmoq (oshib o'tmoq); to ~ round aylanmoq, aylanbir yurnomoq; gir-gir aylanmoq (g'ildirap haqida); to ~ upon = to ~ at; 3. a so'zl. 1) chaqqon; 2) ayyor

fly III [flai] a bilmidon, bilammon, bilag'on, ma'lumotli, tajribali, donishmand, aqli, fahm-farosatlari

fly agaric [flai ægarik] n muxomor (zaharli zamburug' turi; suvidan pashshadori sifatida foydalaniladi)

fly-away [flaiə wi:] a 1) keng; hilpiragan; 2) yengiltak, qar'iylatsiz

fly-bitten [flai 'bitn] a pashshalar o'tirib (bulg'ab) tashlagan

flyblow [flarbłeu] 1. n pashsha urug'i; 2. v tuxum qo'yimoq (pashsha haqida)

flyblown [flarbłun] a buzilgan, aynigan, hidlangan (pashsha o'tirgan go'shi haqida)

fly-by-night [flairbai,nart] a 1) ishonib (orqa qilib) bo'lmaydigan, ishonchisz; 2) mas'uliyatni his qilmaydigan, javobgarlikni sezmaydigan, beparvo

flycatcher [flai,kætʃə] n zool. uzun-quyruq; uzunquyruq chumchuq (hasharotxo'r qush)

flyer [flaiə] n 1) uchuvchi; 2) qush, hasharat, ko'rshapalak va sh. k.

flyling [flaing] a uchadigan; a ~ machina samolyot; 3. n uchish, parvoz

flying boat [flaing 'bœt] n av. uchar qayiq (samolyot)

flying bridge [flaing 'bridʒ] n osma ko'prik flying fish [flaing,fɪʃ] n uchar baliq (suvdan ko'tarilib biroz ucha oladigan baliq)

Flying Fortress [flaing 'fɔ:tris] n av. uchar qal'a (uzoqqa uchadigan og'ir bombardimonchi samolyot)

flying instrument [flaing,instrément] n av. uchish asbob-uskulalari

flying officer [flaing,ofisə] n uchuvchizobit (Angliyada)

flying saucer [flaing 'so:sə] n uchar tarelka (likopcha)

flying start [flaing 'sto:t] n yaxshi (muvaffaqiyatli) boshlanish; to get off to a (~ yangi ish va b. ni) muvaffaqiyatli boshlamoq

fyleaf ['flarlifl] n poligr. kitobning boshi yoki oxiridagi yoziilmagan toza varad

flyman ['flaimən] n (pl -men [-mən]) 1) teatr. dor (dekoraasiyalarni mahkamlash va ka'tarish-tushirish uchun sahna shipiga o'rnatilgan panjaralar)da ishlaydigan ishchi-xodim; 2) aravakash, izvoschi

flyover ['flai,əvər] n estakada (yo'l tepe-siga qurilgan osma ko'prik); 2) attr.: a ~ crossing yo'llarning turli darajada kesishib o'tilishi; yo'llar turli darajada kesishib o'tgan joy

fly-paper ['flai,peipa] n pashsha o'ldiradijan yopishqoq qog'oz

fly-sheet ['flai,ʃe:t] n varaq

fly title ['flai,titl] n poligr. shmustitul (ki-tohning tutilgan oldindi varag'i, kitob bo'limi yoki bobu oldidiagi sarlavha yoziladijan sahifa)

fly-trap ['flaitræp] n pashshatutqich

flyweight ['flaiweit] n 1) yengil vazn (havaskor hoksda); 2) yengil vazndagi bokschini

fly-wheel [flaiwi:l] n tex. maxovik, salmoqli g'ildirak

foal [fəʊl] 1. n toy; xo'tik; 2. v qulunlamoq; toylamoq; tug'moq

foam [fəʊm] 1. n ko'pik; 2. v ko'pirmoq, ko'piklanmoq

foam-rubber [fəʊm 'rʌbə] n g'alvirak rezina

foamy [fəʊmi] a ko'pikli, ko'pig'i bor; serko'pik

foh I [fɒb] n cho'ntak saat

foh II [fɒb] v: to ~ off smb. with smth. (soxta narsalar, yolg'on va'da va b. bilan) kimnidir aldamoq

focal ['fəʊk(ə)] a markaziy, eng muhim, bosh; a ~ point markaziy qism, markaziy nuqtasi

foci ['fəukəri] pl offocus

focus ['fəukəs] n (pl -i [-kai]) 1) fiz. fokus (nurlarning kesishgan nuqtasi); in ~ fokusda; out of ~ fokusdan tashqarida; 2) biror narsa to'plangan joy, o'choq,

markaz; the ~ of interest qiziqish doirasi; to bring to a ~ (*biror masalani*) ko'tarib chiqmoq, o'traga tashlamoq

fodder [fɒdə] n 1 hayvonlarga oziq-ovqat, oziqa, yem; 2. v (*hayvonnı*) oziqlantirmoq
foe [fəʊ] n shoir, dushman, raqib, g'anim
foetal [fi:təl] a *tib*, embrionli

foetid [fi:tɪd] = fetid

foetus [fi:təs] n qorindagi bola

fog I [fɒg] 1. n 1) quyuq tuman; 2) havo tar-kibida tutun *yoki* chang; zimiston; 3) in a ~ tumandagidek; og'ir ahvolda, og'ir holatda; 2. v tuman bilan qoplanmoq; tumanlashmoq

fog II [fɒg] 1. n q.x. 1) o'tzor; 2) o'rilmay qolgan o't; 2. v yaylovda hayvonlarni o'ilatish; 2) (*o'mi*) chala o'rmög

fogey [fəʊgi] n eskicha (eskilarga amal qiluvchi) odam, mutaassib

foggy [fɒgi] a 1) tumanli; qorong'i; a ~ idea noaniq fikr; 2) fiz. noaniq, mujmal

fog-horn [fɒgh:n] n sirena, tuman paytida kemalarni ogohlantirish uchun berilgan ovoz

fogy [fəʊgi] = **fogey**

foible ['fɔib(ə)l] n zaif joy, kamchilik

foie gras [fwa: 'gra:] n g'oz jigaridan tayyorlangan pashtet (*taom*)

foil I [fɔ:l] n 1) folga, zar qog'oz (*juda yupqa metall list*); 2) staniol (*qalaydan tayyorlangan zar qog'oz*); 3) hayvonning izi; 2. v

1) boshi berk ko'chaga kirib qolmoq; (*rejani*) buzmoq; 2) (*itni*) izdan adashtirmoq; 3) so'zl. hujumni qaytarmoq, yengmoq

foil II [fɔ:l] n rapira (*qılıchbozlikda qo'llanıdigan, chor qırra qılıchsimon quroł*)
foist [fɔ:st] v suqmoq, tiqmoq, solmoq, tiqib qo'yamoq

fold [fəuld] 1. n 1) hoshiya, kiyimdagи taxlam, chiziq, yo'l; 2) (*qo'ylar uchun*) qo'ra; 2. v 1) (*mato va h. k. ni*) taxlamoq; buklamoq, qayirmoq; to ~ ones arms ko'krakka qo'lni zanjir qilmoq (*govushtrirmoq*); 2) qoplamoq; hills ~ ed in mist tog'larni tuman qopladи; 3) qo'raga kiritmoq

foldaway [fəuldə,wei] n buklama, bukiladigan; yopiladigan, yig'iladigan; a ~ bed buklama (buklandigan) karavot

folder [fəuldə] n (*qog'oz va hujjatlar uchun*) papka

folding [fəuldɪŋ] a buklama, yig'iladigan

folding-bed [fəuldɪŋbed] n buklandigan karavot (*sayohatlarda*)

folding-chair [fəuldɪŋ'če] n buklandigan kursi, taxlama kursi (*stul*)

folding-cot [fəuldɪŋ'kɒt] = **folding-bed**

folding-stool [fəuldɪŋ'stu:l] = **folding-chair**

foliage ['fəulɪndʒ] n barglar, yaproqlar

foliate ['fəulɪt] a bargli, yaproqli

folio ['fəulɪəu] n (pl -os [-əuz]) 1) infolio (1/2 taboqli bichim); 2) foliant (*juda katta va qalin kitob*)

folk [fəuk] n 1) odamlar; old ~ qariyalari; rich ~ boyilar; my ~ so'zl. qarindoshlarim; the old ~ at home qariyalari, ota-onam (*uydagilar*); 2) esk. xalq; 3) attr. xalqqa oid; ommaviy

folk-etymology [,fəuketi'mplədʒi] n xalq etimologiyasi (*sixta etimologiya*)

folk-lore [fəuklɔ:] n xalq og'zaki ijodi; folklor

folk song [fəukson] n xalq qo'shig'i, xalq kuyi

folksy ['fəuksi] a 1) kirishuvchan (*muomalada*); 2) xalqqa yaqin

folkways ['fəukweɪz] n pl xalq an'analari

follicle ['fɒlik(ə)l] n zool. pilla; 2) bot. qo'zoq, po'choq

follow [fələu] v 1) ergashmoq, orqasidan bormoq, amal qilmoq; a **concert** ~ ed the lecture/the lecture was ~ ed by a concert

ma'ruzadan so'ng konservt bo'ldi (*berildi*); one misfortune ~s (upon) another baxtsizlik ustma-ust keldi, baxtsizlik ketmekte keldi; 2) hamroh bo'lmog; 3) fikrini qo'llamoq; I cannot ~ you in all your views men sizning hamma fikrlaringizni qo'llayvermayman; 4) (*biror narsa bilan*) mashg'ul bo'lmog; to ~ the plough yer haydamoq; to ~ the hounds ov itlari bilan ov lamoq; to ~ the law huquqshunos bo'lmog; to ~ the sea dengizchi bo'lmog; 5) poylamoq, kuzatmoq; 6) ko'z qiri bilan kuzatmoq; 7) tinglamoq; (do) you ~ me? tushunarlimi? 8) mantiqan kelib chiqmoq; to ~ on kuzatishni (izidan yurishni) davom ettirmoq; to ~ out oxirigacha bajarmoq (ijro etmoq)

follower [fələʊə] n izdosh, tarafdar, muxlis, shogird

following [fələʊɪŋ] a keyingi, navbatdagি

follow-up [fələʊʌp] n ijroni tekshirish

folly ['fɒli] n ahmoqlik, aqslizlik

foment [fəu 'ment] v 1) *tib*. malham qo'yamoq, malham surmoq; 2) yomon ishga undamoq, g'alamiqlik qilmoq; 3) yondirmoq, alanga oldirmoq

fomentation [fə'menə 'tef(ə)n] n 1) g'alamislik, ig'veorgarlik; ig'vo, fitna; ~ of discontent norozligini avj oldirish; 2) og'rigan joyni suyuq dorı yoki issiq suvg'a ho'llangan bint bog'lash bilan davolash

fond [fɒnd] a sevuvchi, yoqtiruvchi, yaxshi ko'ruvchi; to be ~ of smb. (smth.) kimnidir (nimaniidir) sevmoq

- fondant** [fondant] *n* oshx. pomadka (*meva shirasi va shakardan qilingan yumshoq konfet*)
- fondle** [fondl] *v* erkalamoq, suymoq, erkalatmoq
- fondling** [fondlinj] *n* eng yaxshi ko'rilgan (hamma sevgan) odam, arzanda
- fondly** [fondli] *adv* 1) muloyimlik (yumshoq qilib, xushmuomalalik, mehrbonlik) bilan; 2) soddalik bilan, soddalarcha, ishonuvchanlik bilan
- fondness** [fondnəs] *n* nazokat, latofat
- fondue** [fondju:] *n* oshx. fondyu (*maydalanlangan go'shi va sabzavotlardan tayyorlan-gan taom*)
- font** [fɔnt] *n* 1) cherk. jom, tog' ora (*bolani suvga botirish cho'qintiriladigan katta idish*); 2) poligr. shrift
- food** [fu:d] *n* oziq-ovqat, oziqa, yemish, yem; the ~ here is excellent bu yerning ovqatlari juda yaxshi; to become ~ for fishes cho'kmoq, cho'kib ketmoq; to become ~ for worms bo'lmoq, qurt-qumursqaga yem bo'lmoq
- food-card** [fu:d,ka:d] *n* oziq-ovqat kartochkasi
- food poisoning** [fi:d,pɔɪz(ə)nɪŋ] *n* oziq-ovqatlardan zaharlanish
- food-stuffs** ['fu:dstʌfs] *n* oziq-ovqat mahsulotlari
- fool I** [fu:l] 1. *n* ahmoq; tentak; devona; 2. *v* aldamoq, ahmoq qilmoq; to ~ about ishsiz laqillab yurmoq; to ~ after (*kimningdir*) ketidan (orqasidan) ergashib yurmoq, ilakishmoq; to ~ around = to ~ about; to ~ away (*imkoniyat va h. ni*) qo'ldan boy bermoq; to ~ out aladb qo'lg'a kiritmoq, yolg'on gapirib erishmoq; to ~ with ermak qilmoq, ovunmoq; o'yanoq, o'zini yupatmoq, vaqtini chog' qilmoq
- fool II** [fu:l] *n* kisel (*quyuqroq ichimlik*)
- foolery** ['fu:ləri] *n* ahmoqona xatti-harakat, ahmoqlik, tentaklik
- foolhardy** [fu:l,hɑ:di] *a* behudaga tavakkal qiladigan, o'zini behudaga xavf ostiga qo'-yadigan
- foolish** ['fu:lɪʃ] *a* kaltafahm, tentak, jinni; ~ness tentaklik
- foolproof** ['fu:lpru:f] *a* ishonchli, adashmaydigan
- foolscap, fool's cap** [fu:lzkæp] *n* 1) 33,6x42 sm li qog'oz bichimi; 2) qiziqlichi (masxaraboz)ning qalpog'i
- fool's gold** [fu:lzgould] *n* pirit (*ba'zida yang-lishib oltin deb hisoblanadigan metall*)
- fool's paradise** [fu:lz 'pærədaɪs] *n* betashvish hayot, beg'am (heparvo) yashash
- foot** [fʊt] *n* (*pl feet [fɪ:tɪ]*) 1) oyoq (*to piqdan pasiki qismi*); on ~ pivoda, yayov; to strike one's ~ against smth. oyog'ini biror narsaga urib olmoq; 2) tovon; 3) fut (*30,48 sm ga teng uzunlik o'chovi*)
- footage** [fʊtɪdʒ] *n* 1) film yoki plyonkaning futlardagi uzunligi; 2) oyoq kaftida o'l-changan uzunlik
- foot and mouth disease** [fʊtənd 'mauθ-di,zi:z] *n* vet. oqsim, oqsim kasalligi
- football** ['fʊtbɔ:l] *n* futbol; at a ~ match futbol o'yinida (musobaqasida)
- footballer** ['fʊtbɔ:lər] *n* futbolchi
- footbath** ['fʊtbɔ:θ] *n* oyoq vannasi, oyoqlarga vanna qilish
- footboard** ['fʊtbɔ:d] *n* 1) zina, zinapoya (*transportda*); 2) orqa o'rindiq (*qadimga yopiq aravalalar orqasida xizmatkorlar o'tiradigan joy*); 3) zinapoya, pog'ona
- foot brake** ['fʊtbreɪk] *n* oyoq tormozi
- footbridge** ['fʊt,b्रɪdg] *n* yayov o'tadigan (piyoda o'filadigan) ko'pri
- footer** ['fʊtər] *n* 1) so'zl. futbol; 2) piyoda
- footfall** ['fʊtfɔ:l] *n* qadam, qadam tashlash
- footfault** ['fʊ:tfɔ:lɪt] *n* to'pni oshirayotgan paytda noto'g'ri qadam tashlagani uchun to'p oshirishdan mahrum bo'lmoq, to'pni raqib tononga bermoq (*tennisda*)
- foot-gear** ['fʊtgɪə] *n* 1) oyoq kiyim, moyabal; 2) paypoq
- Foot Guards** ['fʊtɡʊ:dz] *n pl* gvardiyachilarining piyoda askarları (*harbiy qism nomi*)
- foothill** ['fʊt,hɪl] *n* tog' etagi; adirlar
- foothold** ['fʊthaʊld] *n* 1) oyoq uchun tirkak; 2) tayanch nuqtasi, tayanch punkti; to gain a ~ oyoqda qattiq (*mustahkam*) o'rnatshib olmoq
- footing** ['fʊtɪŋ] *n* so'zl. 1) holat, vaziyat; 2) tik turish, muvozanat
- footle** ['fʊtl] *v* so'zl. ahmoqlik (tentaklik) qilmoq, jinnilik qilmoq
- footless** ['fʊtləs] *a* 1) oyog'i (oyoglari) yo'q, oyoqsiz, cho'loq; 2) asosiz; 3) so'zl. uquvsiz, kaltafahm, ovsar
- footlights** ['fʊtlایts] *n* rampa (*sahna oldiga o'rnatilgan, yorug'i faqat sahnaga rushadigan chiroqlar*)
- footling** ['fʊtlɪŋ] *a* arzimas, ahamiyatsiz, behuda; oson
- footloose** ['fʊtu:s] *a* erki o'zida bo'lgan, qaramo bo'laman, mustaqil, erkin, hur
- footman** ['fʊtmən] *n* (*pl -men [-mən]*) 1) yugurdak; 2) piyoda askar
- foot-mark** ['fʊtmə:k] *n* iz, oyoq izi
- foot-note** ['fʊtnət] *n* (*sahifa ostidagi*) izoh
- footpace** ['fʊtpes] *n* qadam, odim; at (a) ~ qadamlab, shoshmay qadam tashlab

footpad [‘fʊtpæd] *n tar. qaroqchi, bosqinchi, yo‘lto‘sar*

foot-passenger [‘fʊt,pæs(ə)ndʒə] *n piyoda, yayov yuruvchi*

foot-path [‘fʊtpa:θ] *n piyoda yurishga mo‘ljallangan yo‘l, so‘qmoq, yo‘l*

foot plate [‘fʊtpleɪt] *1) parovoz haydovchisining maydonchasi; 2) attr. parovozga oid, parovoz...; a ~ crew parovoz brigadasi*

footprint [‘fʊtprɪnt] *n oyoq izi*

foot-race [‘fʊtrɛs] *n yugurish musobaqasi*

footsie [‘fʊtsi:] *n so‘zl. to play ~ (kim bilan-dir)* o‘ynayverib Joniga tegmoq

footslag [‘fʊtslɒg] *v (asos., uzoq masofaga) bormoq yoki qadam tashlamoq*

footslogger [‘fʊt,sloɡə] *n so‘zl. 1) piyoda askar; 2) piyoda, yayov yuruvchi*

foot soldier [‘fʊt,seʊldʒə] *n piyoda askar*

footsores [‘fʊtsɔ:s] *adv siyqalangan oyoqlar bilan, oyoqlari tolib*

footstalk [‘fʊtstɔ:k] *n bot. poya, tana*

footstep [‘fʊtstep] *1) qadam, odim; 2) iz*

footstool [‘fʊtstʊl] *n oyoq ostiga qo‘yiladigan kursicha*

footway [‘fʊtwےɪ] *n 1) piyoda yurishga mo‘ljallangan yo‘l; yo‘lka*

foot-wear [‘fʊtwےə] *n poyabzal, oyoq kiyim*

footwork [‘fʊtwے:k] *n oyoqning ishlashi, oyoqning faoliyati (sport, raqs va b. da)*

footworm [‘fʊtwے:n] *a 1) charchagan, hor-gan, toliqgan, horg‘in (yo‘lovchi haqida); 2) tepkilab (bosib) tekislangan, tepkilab (bosib) zichlangan (so‘qmoq yo‘l haqida)*

foozle [‘fu:z(ə)l] *v (ish va b. ni) nardan-beri (chala-chulpa, palapartish) bajarmoq*

fop [fɒp] *n olifta, satang, o‘ziga bino qo‘yuvchi odam*

foppery [‘fɒp(ə)rɪ] *n oliftalik, satanglik*

foppish [‘fɒpɪʃ] *a olifta, satang, havoyi, o‘ziga bino qo‘yanan*

for [fɔ:r] *prep. cj. 1) davomida, vaqtida; 2) uchun; 3) sababli; ~ life umrbod; ~ ever butunlay; abadiy; ~ example misol uchun, chunonchi; 4) ...ga qarshi; medicine ~ a cough yo‘talga qarshi dori*

forage [‘fɔ:ridʒ] *1. n yem-xashak; 2. v yem-xashak tayyorlamoq*

forage cap [‘fɔ:ridʒkæp] *n pilotka (harbiyalar, uchuvechilar kiyadigan yozlik bosh kiyim)*

forager [‘fɔ:ridʒə] *n furajir, yem-xashakchi, yem-xashak tayyorlovchi*

foramen [fo’reɪmən] *n (pl -mina, -s [-z]) anat. zool. bot. teshik, yo‘l, kanal*

forasmuch... *as [fərəz matʃ...əz] adv modimi, hamonki; sababli, uchun*

foray [‘foreɪ] *n bosqin, hujum, bostirib keliш*

forbad, forbade [fə:bæd, fə:b'eɪd] *past. of forbid*

forbear I [fə:bɛə] *n avlod; ajdod; ota-bobo*

forbear II [fə:b'beə] *2. v 1) (forbore; forborne) o‘zini tiymoq (tutmoq, to‘xtatmoq); 2) chidamli bo‘lmoq, sabr-toqat qilmoq*

forbearance [fə:b'be(a)rəns] *n o‘zini tiyishlik; sabr-toqat*

forbid [fə:bɪd] *v (forbad, forbade; forbidden) taqilamoq, man etmoq*

forbidden [fə:bɪdn] *p. p. of forbid*

forbidding [fə:bɪdɪŋ] *a 1) o‘ziga jalb qilmaydigan, jozibasiz, yoqimsiz, ko‘rimsiz; sovuq, jirkanch, kishini sovitadigan, o‘zidan ochiradigan; a ~ look yoqimsiz aft-angor (tashqi ko‘rinish, qiyofa), sovuq bashara, yoqimsiz ko‘rinish; 2) do‘q (tah-did)ni ifodalaydigan; xavfli, xatarli, qo‘r-qinchli, tahlikali, dahshatli; 3) yaqinlashib (yoniga borib) bo‘lmaydigan; a ~ coast yaqinlashib bo‘lmaydigan qirg‘oq*

forbore [fə:bɔ:r] *past. of forbear II*

forborne [fə:bɔ:n] *p. p. of forbear II*

force [fɔ:s] *1. n 1) kuch, zo‘rlik; the ~ of the blow zarba kuchi; 2) majburlash; by ~ kuch bilan, zo‘rlab, majburan; 3) harbiy guruh; 2. v 1) majbur qilmоq, zo‘rlamoq; to ~ smb. to do smth. kimnidir nimagadir maiburlamoq; 2) kuch bilan olmoq; 3) tez-lashitirmoq*

forced [fɔ:st] *a majbur bo‘lgan, nochor, majburiy*

forcedly [fɔ:sidli] *adv majbur bo‘lganidan (majburlikdan), noilojlikdan (ilojsizlikdan, noilojan); biror majburiyat ostida*

force-feed [fɔ:sfi:d] *v (asos., mahbuslarni) majburiy ravishda (zo‘rlab) ovqatlantirmoq*

forceful [‘fɔ:sf(ə)l] *a 1) kuchli, baquvvat; 2) amaliy natija (foyda) beradigan; ta’sir ko‘rsatadigan; ta’sirli, ta’sirchan*

force-land [‘fɔ:slaend] *v av. majburan qo‘nmоq*

forceless [‘fɔ:sles] *a kuch-quvvatdan qolgan, bequvvat, bedarmon, kuchsiz, darmonsiz, zaif, notavon*

force majeure [fɔ:smǣ:ʒeɪr] *n fr. yur. yen-gib bo‘lmaydigan kuch*

force-meat [‘fɔ:smi:t] *n qiyima*

forceps [fɔ:sep:s] *n jarrohlilik qisqichi, pinset*

force-pump [fɔ:spamp] *n tex. dam beradigan nasos*

forcible [fɔ:səb(ə)l] *a 1) majburiy, zo‘raki; 2) asosli, ishonchli (fikr va b.)*

forcing ['fɔ:sɪŋ] n 1) majburan qilish, zo'rash, kuch ishlatish; 2) q.x. qo'zg' atish, kuchaytirish (bo'yini); (o'simliklarni) issiqxona (parnik)da tezlashtirib yetishtirish; 3) attr. a~ bed issiqxona (parnik)

Ford [fɔ:d] n ford (*avtomobil*)
ford [fɔ:d] 1. n kechuv, kechish; 2. v kechib o'tmoq

fore [fɔ:] 1. n yuz (old) tarafi; 2. a yuz (old) tarafdag'i

fore-and-aft [fɔ:(r)ənd 'a:ft] a *deng*. bo'ylama, uzunasiga, bo'yiga

forearm I ['fɔ:ra:m] n bilak

forearm II [fɔ:ra:m] v oldindan (ilgaridan) qurollangan

forebear [fɔ:bear] = **forbear I**

forebode [fɔ:'bəud] v 1) bashorat qilmoq, oldindan xabar bermoq; 2) oldindan sezmoq

foreboding [fɔ:'bəudin] n oldindan sezish, ko'ngil sezish

fore-cabin [fɔ:,kæbɪn] n *deng*. 1) komandir salonı; 2) passajirlar turadigan ikkinchi darajadagi joy

forecast [fɔ:ko:st] 1. n bashorat, karomat, oldindan aytish; **weather** ~ ob-havo ma'lumoti; 2. (**forecast**, **fore-casted**) v oldindan aytib bermoq, bashorat qilmoq

forecastle ['fauks(ə)l] n *deng*. bak (*ba'zi kemalarining old qismi*)

foreclose [fɔ:klaʊz] v oldini olmoq, ehtiyoj chorasini ko'rmoq

foreclosure [fɔ:'kluəzə] n *yur.* garovga qo'yilgan narsani pul to'lab qaytarib olish huquqini bekor qilish

forecourt [fɔ:ka:t] n tashqi hovli, bino oldindagi yalanglik

foredoom [fɔ:du:m] v 1) (*taqdırıñ*) oldindan hal qilib qo'ymoq; 2) duchor (mahkum) qilmoq (**to**)

fore-edge [fɔ:redʒ] n kitobning old tomon-dagi cheti (qirg'og'i)

forefather [fɔ:,fa:ðə] n ota-bobo, avlod-ajdod

forefinger [fɔ:,fɪŋgə] n ko'rsatkich barmoq

forefoot [fɔ:fʊt] n hayvonlarning oldindi oyogi

forefront [fɔ:frant] n oldindi o'rın, muhim o'rın

foregather [fɔ:'gæðə] v to'plamoq, yig'moq

forego [fɔ: 'geʊ] v (**forewent**; **foregone**)

ilgari bo'limoq, oldin yuz bermoq

foregoing [fɔ:gəʊɪŋ] a ilgari, ilgarigi, oldindi, o'tgan, oldin bo'lgan

foregone [fɔ:gən] 1. p. p. of **forego**; 2. a ilgarilab ketgan, oldinda o'tib ketgan

foreground [fɔ:graund] n 1) oldindi planda (*suratda*); 2) ko'zga yaqin, ko'zga tashlagidan joy

forehand [fɔ:hænd] n o'ng tarafdan urish (*tennis va b. da*)

lathi [lə:trɪ] = lathee	launch II [lə:ntʃ] <i>n 1)</i> barkas (<i>ka'p eshkakli katta qayiq</i>); <i>2) kater</i> (<i>maxsus kichik kema</i>); <i>a pleasure ~</i> sayr qilish qayig'i
lathing [lə:θɪŋ] <i>n</i> tom yopish, suvash va h. k. uchun qator yoki katak-kataq qilib qo'qilgan taxtalar	launcher [lə:ntʃə] <i>n</i> (<i>raketalarini</i>) uchirish qurilmasi
lathy [lə:θɪ] <i>a</i> bo'yı uzun; orig	launching pad [lə:ntʃɪnpæd] = launching ramp
latibullize [lə:tɪbju:lɪz] <i>v</i> inda (uyada) uyquga ketmoq	launching ramp [lə:ntʃɪnræmp] <i>n</i> harb. (<i>raketalarini</i>) uchirish qurilmasi
Latin [lætɪn] <i>1. n 1)</i> lotin tili; <i>2) lotin alif-bosi;</i> <i>2. a lotin ...; lotincha</i>	launching site [lə:ntʃɪnsaɪt] <i>n</i> harb. ishga tushirish maydoni
Latinize [lætɪnɪz] <i>v</i> lotinlashtirmoq	launder [lə:n'də] <i>v</i> kiyimlarni yuvib dazmollamoq
latitude [lætɪtju:d] <i>n geogr. astr.</i> kenglik	laundrette [lə:n'dret] <i>n o'z-o'ziga xizmat qilish, kir yuvish ishxonasi (kirkxonasi)</i>
latitudinarian [lætɪtju:d(ə)n 'e(ə)rɪən] <i>1. a 1)</i> erkin fikrlaydigan, hursifikli; <i>2) chiqishib keta oladigan, sabr-toqat qiladigan, sabr-toqatli; 2. n 1)</i> sabr-toqatli (<i>chiqishib keta-veradigan</i>) odam; <i>2) keng qarashli odam</i>	laundress [lə:n'dris] <i>n</i> kir yuvuvchi ayol
latrine [lə:tri:n] <i>n</i> janoat joyidagi hojatxona	laundromat [lə:ndrəmæt] <i>n amer. kir yuvish korxonasi</i>
latter [lætə] <i>1. a 1)</i> yaqinda bo'lgan, yaqindagi; <i>2) oxirgisi, oxindagi; 2. n ikkitadan ikkinchisi (oxirgisi, keyingisi)</i>	laundry [lə:ndri] <i>n</i> kir, kirxona; ~ soap kir sovun
latter-day [lætdeɪ] <i>a 1)</i> zamonaviy, hozirgi; <i>2) eng yangi</i>	laureate [lə:rɪt] <i>1. n laureat; 2. a 1)</i> g'alaba toji bilan taqdirlangan; <i>2) boshiga dafna yaprog'idan qilingan g'alaba chambari kiydirilgan</i>
latterly [lætlɪ] <i>adv</i> yaqinda, yaqindagina	laurel [lɔ:rl] <i>1. n hot. asl dafna (daraxti); 2. v g'alaba toji bilan taqdirlamoq</i>
lattermost [lætəməʊst] <i>a</i> oxirgi, keyingi, so'nggi	laurelled [lɔ:rəld] <i>a</i> mashhur, atoqli, nomi chiqqan
lattice [lætɪs] <i>1. n</i> panjara; <i>2. v</i> panjara o'rnatmoq	laurel oak [lɔ:rələk] <i>n</i> dafna daraxining to'nkasi
latticed [lætɪst] <i>a</i> panjaralari, panjarasimon	lay [læv] <i>n 1)</i> kiyinish xonası; kiyimxona; <i>2) hojatxona</i>
Latvian [lætvɪən] <i>a</i> Latviyaga va Latviyalikliklarga oid; <i>2. n latviyalik ayol yoki erkak</i>	lava [lə:və] <i>n</i> lava (<i>vulgonlardan otlib chiqadigan suyuq cho'g' modda</i>)
laud [lɔ:d] <i>1. n</i> (<i>oliv darajadagi</i>) maqtov, madh, sano; <i>2. v</i> maqtamoq, madh etmoq	lavatory [lə:vətə(r)] <i>n</i> hojatxona
laudable [lɔ:dəb(ə)l] <i>a</i> maqtasa bo'ladigan, maqtovga sazovor	lave [leiv] <i>v 1)</i> yuvmoq; <i>2) yuvinmoq, cho'milmamoq</i>
laudanum [lɔ:dənəm] <i>n</i> afyun nastoykasi, damlamasi	lavement [lə:lvment] <i>n</i> rib. yuvish, klizma
laudation [lɔ:deɪʃən] <i>n</i> maqtov, tasanno, hamd-u sano, madhiya	lavender [lævəndə] <i>n bot.</i> lavanda (<i>havorang yoki binafsharang gulli, xushbo'y, doim yashil o'simlik</i>)
laudative [lɔ:di:tiv] = laudatory	
laudatory [lɔ:dətə(r)] <i>a</i> maqtovga oid, maqtovli, maqtalgan, maqtovdan iborat bo'lgan	
laugh [lə:f] <i>1. n</i> kulgi, kulish; <i>to raise a ~</i> kuldirmoq; <i>2. v</i> kulmoq; <i>to ~ at a joke</i> zildan kulmoq; <i>to ~ at ustidan kulmoq</i>	

- lavender-water** [lævəndər, wɔ:tə] *n* lavanda suvi
- laveroock** [læv(ə)rək] = **lark I**
- lavish** [lævɪʃ] *1. a* saxiy, qo'li ochiq, hotamtoy, olyihimmat; *2. v* saxiy bo'lmoq, saxiylik qilmoq
- lavishness** [lævɪʃnəs] *n* *1)* saxiy, ochiqqo'llik, qo'li ochiqlik, olyihimmatlik, hotamtoylilik; *2) mo'l-ko'lchilik*, serobgarchilik, farovonlik
- law** [lɔ:] *n* qonun, qoida, huquq; **to read** ~ qonunni o'rganmoq; ~ **and order** huquqiy tartib; **to go to** ~ sud jarayonini boshlamoq
- law-abiding** [lɔ:(r)a'baidɪŋ] *a* qonunga bo'ysunuvchi
- law-book** [lɔ:buk] *n* kodeks (*qonunlar maj-mui*)
- law-breaker** [lɔ:,breɪkə] *n* jinoyatchi, qonunbuzar
- law-court** [lɔ:kɔ:t] *n* sud
- lawful** [lɔ:f(ə)l] *a* qonuniy, qonun asosidagi; ~ **authority** qonuniy hokimiyat
- lawgiver** [lɔ:,gɪvə] *n* qonun chiqaruvchi
- law(k)s** [lɔ:ks] *int so'zl.* nahotki, rostdanmi
- lawless** [lɔ:ləs] *a* qonunsiz, noqonuniy
- law-list** [lɔ:lis̩t] *n* yillik yuridik ma'lumot-noma (yo'rionoma)
- lawmaker** [lɔ:,meɪkə] = **lawgiver**
- law-making** [lɔ:,meɪkɪŋ] *1. n* qonunlar chiqarish; *2. a* qonun chiqarishga oid
- lawn** [lɔ:n] *n* kichik o'tzor, maysazor
- lawn hockey** [lɔ:n,hɔ:kɪ] *n* chim ustida(gi) xokkey
- lawn-mower** [lɔ:n,məʊə] *n* o't o'radigan o'roq mashina
- lawn party** [lɔ:n'pa:ti] *n amer.* mehmonlar ni bog'da kutish
- lawn-sprinkler** [lɔ:n,sprɪŋklə] *n* maysalariga suv quydigan mashina
- lawn tennis** [lɔ:n'tenɪs] *n sport.* chim tennis
- lawny** [lɔ:ni] *a* *1)* batistdan tikilgan; *2) ya-shil o'tlar bilan qoplangan*
- law-offender** [lɔ:,fendə] = **law-breaker**
- law-officer** [lɔ:(r),ofɪsə] *n* sud idorasi xodimi
- lawsuit** [lɔ:sju:t] *n* sud jarayoni
- law-term** [lɔ:ts:m] *n yur.* *1)* yuridik atama (termin); *2)* sud sessiyasining jarayoni
- lawyer** [lɔ:,jə] *n* advokat, yurist, oqlovchi, huquqshunos
- lax** [læks] *a* kuchsiz, bo'sh, so'lg'in, bo'shashgan
- laxative** [læksətɪv] *1. n* surgi dori; *2. a* ich suradigan; bo'shashtituvchi
- laxity** [læksɪtɪ] *n* *1)* sustifik, bo'shashganlik; *2) beparvolik, mas'uliyatsizlik; 3) noaniqlik, noma'lumlik*
- lay** I [lei] *1. v* (*laid*) qo'yimoq, joylamoq; *to ~ eggs* tuxum qo'yimoq; *to ~ about one chap va o'ng* tomonga zarba bermoq; *to ~ aside* (bir chetga) tashlamoq, otmoq, irg'itmoq; *to ~ by* keyinga surmoq, cho'zmoq, kechiktirmoq; *to ~ down* *1)* yotqizib qo'yimoq; *2)* (*reja*) tuzmoq; *3)* (*bino, kema*) qurmoq, solmoq; pojdevor qo'yimoq, asos solmoq; *to ~ down the law* qonun o'namatmoq; *to ~ down with* (*nima bilandir*) qoplamoq; *to ~ in* g'amlab qo'yimoq, zaxiraga qilib qo'yimoq, zaxiraga olib qo'yimoq; *to ~ off* (*kiyimni*) yechmoq; *to ~ on* *1)* (*soliq*) solmoq; *2)* (*zarbalar*) bermoq; *to ~ over* *1)* cho'zilib yotmoq; *2)* qoplamoq; *3)* qoldirmoq, kechiktirmoq; *to ~ up* *1)* ko'tarmoq, olib chiqmoq; *2)* vaqtinchalik safdan chiqarmoq; *2. n* o'rin, joy; joylashish tartibi
- lay II** [lei] *past. of lie II, 1*
- layahout** [leɪəbaut] *n so'zl.* bekorchi, yal-qov, tanbal
- lay-by** [leɪbə] *n* yo'l ustidagi avtomobillar to'xtash joyi
- lay-days** [lei,deɪz] *n pl tij.* to'xtash (to'xtab turish) vaqtulari (kunlari)
- layer** [leɪə] *n* *1)* qatlam; *2) bot.* o'simliklarning bir novdasini ko'mib yangi tup hosil qilish va shu yo'l bilan hosil qilingan ko'chat
- layette** [leɪ'et] *n* chaqaloqning kiyim-kechak komplekti; chaqaloqbop kiyim-kechak
- lay-figure** [leɪ'fi:gə] *n* *1)* manekin (kiyimlarni namoyish etish yoki o'chab ko'rish uchun gavda qolipi); *2) ko'ch.* quruq gavda (sumbat)
- layman** [leɪmən] *n* (*pl -men [-mən]*) mu-taxassis bo'lмаган kishi
- lay-off** [leɪ 'ɒf] *n* *1)* ishlab chiqarishni bir muncha vaqt (biroz) to'xtatib turish; *2) ish yo'qligidan ishchilarni vaqtinchalik ishdan bo'shatish*
- layout** [leɪaut] *n* *1)* joylashish (o'rashish) tartibi; *2)* (*kitob, gazetalarning*) maketi; *3) reja, chizma*
- lay-over** [leɪ 'əʊvə] *n* *1)* dasturxonning ustiga qoyiladigan salfeтика; *2) amer.* (yo'lda) to'xtab dan olish
- lazaretto** [læzə'rætəʊ] *n* (*pl -os [-əʊz]*) *1)* moxovxonha (*moxovxolar kasalxonasi*); *2)* kasallik tarqalmasligi uchun vaqtinchalik ajaratib qo'yilgan kema yoki bino
- laze** [leɪz] *v* *so'zl.* yalqovlik (bekorchilik) qilmoq
- laziness** [leɪzɪnəs] *n* dangasalik, ishyoqmaslik
- lazy** [leɪzi] *n* dangasa, tanbal, ishyoqmas

lazy-bones [l'ei:zibəunz] *n so'zl.* dangasa, tanbal, ishyoqmas, yalqov
lea [li:] *n she'r.* maysazor, o'tloq
leach [li:tʃ] *v suyuqlıkdə eritib ajratıb olmoq*
lead I [led] *n qo'rg'oshın, qo'lom;* white ~ qo'rg'oshınli belitə, qo'rg'oshın belitasi; red ~ surik (qizg'ish, to q sariq yoki qizg'ish-jigarrang bo'yog)
lead II [li:d] *v (led)* 1) rahbarlik qilmoq, boshqarmoq; 2) olib (yetaklab, boshlab) bormoq; **to ~ by the hand** qo'lidan ushlar bormoq; **to ~ nowhere** hech narsaga olib kelmaslık; **to ~ the way** o'zi bilan olib (boshlab) bormoq; 2) ilgarilab ketmoq (*predlog va ravishlar bilan keladi*); **to ~ away** 1) chalg'itmooq, adashtirmoq; 2) ergashdırıb ketmoq; **to ~ off** (*muzokara va b. ni*) boshlamoq, ochmoq; **to ~ out of** (biror tomonga) qaragano bo'lmoq; tutashmoq (*xona haqida*); **to ~ to nimagadir** yoki kımgadir olib bormoq; **to ~ up (to)** 1) biror yoqqa olib bormoq; 2) biror narsaga olib bormoq; biror narsaga sabab bo'lmoq; 3) asta-sekin tay-yorlamoq
leaded [ledid] *a qo'rg'oshınlangan*
leaden [ledn] *a qo'rg'oshinga oid*
leader [li:də] *n yetakchi, rahbar, boshlıq leaderette* [li:də'ret] *n gazetadagi kichkına maqola*
leadership [li:də'sip] *n rahbarlik, yetakchılık*
leader-writer [li:da,rantə] *n bosh maqola muallifi (gazeta, jurnalda)*
lead glance [led 'gla:n̩s] *n min.* yaltiroq qo'rg'oshintosh, qo'rg'oshın rudsarı
lead-in [li:dn̩] *n kiritiliş (o'rnatish) o'mni*
leading [li:diŋ] *a bosh, yetakchi, ilg'or, oldindagi; a ~ article bosh maqola; a ~ case yur. sud pretsedenti; a ~ lady bosh rolnı ijrı etadigan aktrisə; a ~ man bosh rolnı ijrı etadigan aktyor; a ~ writer mash-hur (buyuk, atoqli) yozuvchi*
leading-strings [li:diŋstrin̩z] *n pl* (*bolani tutib turish uchun xizmat qiladigan*) qayish, tasma
lead line [*ledlain*] *n deng. lotlin (lot bog'-lanadigan arqon, tros)*
lead-lotion [*led 'ləʊf(ə)n*] *n qo'rg'oshınli malham*
lead-off [li:d 'of] *a bosh, boshi, uchi, boshlanishi*
lead pencil [*led 'pens(ə)l*] *n grafit qalam*
leadsman [li:edzmən] *n (pl -men [-man])* deng. dengiz chuqurligini o'chaydigan kishi
lead time [li:dtairm] *n 1)* yangi mahsulotni o'zlashtirish vaqtı; 2) ushlanish, cho'zilish
lead-up [li:da:p] *n 1)* tayyorgarlik; 2) muqad-dima

leaf [li:f] 1. *n (pl leaves)* 1) barg, yapraq; **the fall of the ~** bargning to'kilishi; a ~ bridge ko'tariladigan ko'pri; **to turn over a new ~** yangi hayotni boshlamoq; **to come into ~** barglar bilan qoplamoq; 2) varaq; 2. v 1) varaqlamoq; 2) barglari to'kilməq
leafage [li:fidʒ] *n barglar, yaproqlar*
leaflet [li:fi:t̩] *n 1)* bot, yaproqcha; 2) varaq
leafstalk [li:fsto:k] *n bot.* barg qalamchasi, yapraq bandı
leafy [li:fi:t̩] *a barglar bilan qoplangan, barglı; a ~ forest* barglı o'mon; ~ shade barg soyasi
league [li:g] 1. *n 1)* ittifoq, hamdo'stlik, birlashma; 2) liga; 2. *v birlashmoq*
leaguer I [li:gə] *n birlashma (ittifoq) a'zosi*
leaguer II [li:gə] *n qurshovdagı lager*
leak [li:k] 1. *n o'tib ketish, oqish; 2. v oqmoq, o'tib ketmoq; to ~ out 1)* sizib chiqmoq, sizib o'tmoq; 2) ko'ch. ko'rimmoq; ma'lum bo'lmoq (*sir, yangilik haqida*)
leakage [li:kidʒ] *n oqish, chakka (tomdan o'tadigan chakka)*
leaky [li:ki] *a teshilgan; a ~ vessel* ko'ch. sırmı ochib (oshkor etib) qo'yadigan odam
leal [li:l] *a shott, to'g'ri, sodiq*
lean [li:n] 1. *a oriq, ozg'in, kamchil, siyrak; ~ years* hosilsiz yillar, kamhosil yillar; 2. *n yog'siz go'sht; 3. v (leaned, leaned)* 1) og'moq, qayrilmomoq; **to ~ to the right** o'ngga og'moq; 2) suyanmoq; **to ~ against something** biror narsaga (nimagadir) suyanmoq; **to ~ against a wall** devorga suyanmoq; **to ~ back** orqaga tashlamoq; **to ~ forward** oldinga og'moq
leaning [li:nin] *n mayl, havas, qiziqish*
leant [lent] *past., p. p. of lean* 3
lean-to [li:ntu] *n bostirma, avyon*
leap [li:p] 1. *n 1)* sakrash, irg'ish; **to take a ~** sakramoq; 2) to'siq, g'ov; 2. *v (leapt, leaped)* sakramoq
leap-day [li:dei] *n 29-fevral (kabisa kuni)*
leap-frog [li:pfrɒg] 1. *n tartibszizlik, be-qarorlılık; 2. v sakrab o'tmoq, hatlamoq*
leapt [lept] *past., p. p. of leap* 2
leap-year [li:pi:ə] *n kabisa yili*
learn [lə:n] *v (learnt, learned)* 1) o'qimoq, saboq olmoq; o'rganmoq; **to ~ English** ingлиз tilini o'rganmoq; **to ~ by heart** yodlamoq; **to ~ by rote** tushunmasdan (ko'r-ko'rona) yodlamoq; 2) bilib olmoq
learned [lə:nid] 1. *past., p. p. of learn*; 2. a 1) o'rgatilgan; 2) chuqur bilimga ega, olim; 3) ilmiy
learner [lə:nə] *n o'rganuvchi, o'quvchi, tababa; an advanced ~* yaxshi tayyorlangan o'quvchi

- learning** [lə:nɪŋ] n o'qish, ta'lim olish; the ~ of languages tillarni o'rganish
- learnt** [lə:nt] *past., p. p. of learn*
- lease I** [lɪ:s] 1. n ijara, kira; to grant smth. ~ by ~ijaraga biror narsani bermoq; 2. v ijaraga bermoq
- lease II** [lɪ:s] n *to 'q.* ip taqsimlaydigan asbob
- leasehold** [lɪ:shəuld] n 1) ijara, kiradan foy-dalanish; 2) ijaraga olingan narsa
- leaseholder** [lɪ:s,həuldə] n ijaraga olgan odam, ijarachi
- leash** [li:ʃ] n it arqoni, tasmasi
- least** [li:st] a eng kam, oz; the ~ chance eng oz imkoniyat; to ~ for hech bo'limganda, kamida
- leastways** [lɪ:stweɪz] *adv eng* kamida, oz (kam) deganda; ozi bilan, hech bo'limganda, loaqal, juda bo'lmassa
- leastwise** [lɪ:stwaɪz] = leastways
- leather** [leðə] n pishirilgan teri, charm (*charmandan qilingan narsalar: koptok, qayish*)
- leather-back** [leðəbæk] n zool. terisi qalin toshbaqa
- leathercoat** [leðəkəut] n po'sti qattiq olma
- leatherette** [leðə'ret] n sun'iy yo'l bilan qilingan charm
- leather-head** [leðə'hed] n so'zl. to'nka, ahmoq, galvars
- leathern** [leðən] a charmdan (teridan) qilingan
- leather-neck** [leðənek] n so'zl. dengiz pi-yoda qo'shimlarining askari
- leatherery** [leðə(r)i] a dag'al, charmga o'xshagan; a ~ beefsteak tagcharmga o'xshagan qattiq bifshteks
- leave** [li:v] 1. v (left) jo'nab ketmoq; to ~ for ... ga, ...da qoldirmoq; to ~ alone yolg'iz qoldirmoq; tinch qo'yimoq; to ~ hold of qo'ldan chiqarib (qo'yib yoki tashlab) yubormoq; 2) bermoq, qoldirmoq, taqqdim etmoq; (*merosni*) vasiyat qilib qoldirmoq; ~ it to me buni menga qoldirib keting; to ~ behind qoldirmoq, (esidan chigarib tashlab) ketmoq; to ~ off nimadir qilishni to'xtatmoq; odatini tashlamoq; to ~ out qo'ldan chiqarib yubormoq, boy bermoq; to ~ over 1) bir chetga olib qo'yimoq; 2) kechiktirmoq, keyinga surmoq; 2. n 1) ijozat, ruxsat; 2) mehnat ta'tili; on ~ mehnat ta'tilda
- leaved** [li:vd] a barglar bilan qoplangan
- leaved** [-li:vd] murakkab so'zlarda qandaydir bargli degan mazmuni beradi; a large~ tree katta bargli daraxt
- leaven** [lev(a)n] n xamirturush
- leaves** [li:vz] *pl of leaf* 1
- leave-taking** [li:v,tekiŋ] n xayrlashish
- leavings** [li:vɪŋz] n *pl* qoldiq, chiqit, chiqindi
- Lebanese** [lebə ni:z] 1. a Livanga va livanliklarga oid; 2. n livanlik erkak yoki ayol; the ~ livanliklar
- lecher** ['letʃər] n buzuq odam, suyuq-oyoq
- lecherous** ['letʃ(o)rəs] a buzuq, axloqsiz, suyuqoyoq
- lechery** ['letʃəri] n fohisha, fohishabozlik
- lecithin(e)** ['lesɪθ(a)ɪn] n kim. letsitin
- lectern** ['lektən] n qiya stol (*cherkova*)
- lection** ['lekš(ə)n] n 1) leksiya, ma'ruza; 2) o'qish; 3) matn varianti (*adabiy asarning boshqasidan birmuncha farq qiladigan bivor qismi*)
- lector** ['lektɔ:] n 1) ovoz chiqarib o'qiydigan kishi; 2) lektor, ma'ruzachi
- lecture** ['lekʃtʃə] 1. n leksiya, ma'ruza; at the ~ leksiyada; 2. v leksiya (ma'ruza) o'qimoq
- lecturer** ['lektʃ(ə)rə] n ma'ruzachi
- lectureship** ['lektʃəʃɪp] a lektorlik, leksiya o'qish
- led** [led] *past., p. p. of lead*
- ledge** [ledʒ] n planka, uzun taxtacha
- ledger** ['ledʒə] n hisob. katta daftар
- ledger-hait** ['ledʒəbeit] n yem, xo'rak (*qarmoqqa, qopqonga qo'yilgan yemish*)
- lee** [li:] 1. n himoya, to'siq, g'ov; under the ~ of something nimaningdir himoyasida; 2. a shamolga teskarı, shamoldan panada; ~ side kemaning shamolga teskarı bo'lgan von devori (borti); ~ shore shamolga teskarı bo'lgan qirg'oq
- leech** [li:tʃ] 1. n zool. zuluk; 2. v zuluk qo'yimoq
- leek** [li:k] n ko'k piyoz; wild ~ yovvoyi sarimsoq piyoz
- leer** [lia] 1. n ko'z qiri bilan qarash; 2. v ayorlarcha qaramoq, ko'z qiri bilan qaramoq
- leery** ['li:(ə)n] a quv, ayyor, mug'ambir
- lees** [li:z] n quyqa, qoldiq, cho'kindi
- leeward** ['li:wəd] 1. n shamolga teskarı tomon; 2. a shamolga teskarı; 3. *adv* shamolga teskarı tornonga
- leeway** ['li:wei] n so'zl. (vaqt, joy, pul va sh.k.) zapasi, ehtirot uchun olib qo'yilgan qismi
- left I** [left] a chap, so'l; to the ~ chapga; on the ~ hand side chap qo'l tarafda (tomon-da)
- left II** [left] *past., p. p. of leave* 1
- left-hand** [left 'hænd] a 1) chap, so'l, chap tomondagi; a ~ side chap tornon; 2) chap qo'l bilan bajarilgan; a ~ blow chap qo'l bilan berilgan zarba
- left-handed** [left 'haendid] a chapaqay, chap qo'l bilan qilingan; a ~ person chapaqay odam

- left-hander** [lɛft 'hændə] *n* 1) chapaqay; 2) chapaqay bokschi
- leftist** [lɛftɪst] *n* so'l partiya a'zosi
- left luggage office** [lɛft 'laɡidʒofɪs] *n* tem. y. omonat saqlash kamerasi, omonatxona
- leftmost** [lɛftməʊst] *a* chap tomondan oxirgisi
- left-over** [lɛft,əʊvə] *n* qoldiq, sarqit, qolgan ovqat
- leftward(s)** [lɛftwəd(z)] *adv* chap tomonidan, chap tomonga
- left wing** [lɛft wɪŋ] *n* 1) siyosiy partiyaning chap qanoti; 2) *sport*, jamoaning chap qanoti
- leg** [leg] 1. *n* 1) oyoq; 2) boldir; 3) yasama oyoq; *a wooden* ~ yog'ach oyoq; 2. *v* 1) yurmoq; 2) (*oyoq bilan*) turtnomoq; 3) oyoqqa zarba bermoq
- legacy** [lɛgəsɪ] *n* meros; **to leave a ~ meros** qoldirmoq
- legal** [lɪ:g(ə)l] *a* yuridik, huquqiy, qonuniy; *a ~ aid bureau* yuridik maslahat; *~ profession* yuristik kasbi
- legalist** [lɪ:gəlist] *n* qonunshunos
- legality** [lɪ:gəlɪtɪ] *n* qonuniylik, qonunga asoslanganlik
- legally** [lɪ:g(ə)lɪ] *adv* qonuniy ravishda, qonunga asoslanib
- legate I** [lɪ'geɪt] *n* Rim papasining diplomatik vakili
- legate II** [lɪ'geɪt] *v* vasiyat qilmoq
- legatee** [lɪ'geɪt̬'ti:] *n* merosxo'r, voris
- legation** [lɪ'geɪʃ(ə)n] *n* diplomatik vakolatxona
- legato** [le'ga:tə] *adv* mus. legato (*musiga asarlarini ijro etishda bir tovushdan ikkinchi tovushga to'xtovsiz va silliq o'tish*)
- leg-ball** [lɛgbɛll] *n* so'zl. qochish, qochib ketish
- legend** [lɛdʒənd] *n* afsona, rivoyat
- legendary** [lɛdʒənd(ə)rɪ] *1. n* 1) afsonalar to'plami; 2) afsonalarni to'plovchi kishi; *2. a* afsonaviy; *~ heroes* afsonaviy qahramonlar
- legerdemain** [lɛdʒədə'meɪn] *n* 1) qo'lning epchil (chaqqon, mobirligi); firibgarlik; nayrangbozlik; 2) ustalik bilan qilingan hiyla (nayrang, firib)
- leggings** [lɛgɪŋz] *n* issiq paypoq
- leggy** [lɛgi] *a* oyoqlari uzun, uzun oyoqli
- leghorn** [lɛghɔ:n] *n* 1) italyan yumshoq (mayin) poxoli; (*shuningdek*) poxol shlapa; 2) leghorn (*serluxum oq tovug*)
- legibility** [lɛdʒə'bilitɪ] *n* aniqlik, tushunarlik
- legible** [lɛdʒəb(ə)l] *a* tushunarli, aniq
- legion** [lɪ:dʒ(ə)n] *a* 1) legion (*Qadangi Rimda: yirik askariy otrad*); 2) son-sanoqsiz, behisob
- legionary** [lɪ:dʒən(ə)rɪ] *1. a* legionerga oid; legioner(lar)...; *2. n* legioner, legion askari
- legionnaire** [lɪ:dʒə'nɛər] *n* legioner, legion askari
- legislate** [lɛdʒɪslæt] *1. v* qonun ishlab chiqmoq, qonun tuzmoq; *2. n* qonun tuzish
- legislation** [lɛdʒɪ'sleɪʃ(ə)n] *n* 1) qonunlar tuzish; 2) qonunlar; **labour** ~ mehnat qonunlari
- legislative** [lɛdʒɪslətɪv] *a* qonun chiqaruvchi organlar
- legislator** [lɛdʒɪsləteɪtə] *n* qonun chiqaruvchi organ yoki kishi
- legislature** [lɛdʒɪslətʃə] *n* 1) huquqshunos; 2) qonun chiqaruvchi hokimiyat
- legist** [lɪ:dʒɪst] *n* yurist, huquqshunos
- legitimacy** [lɪ'dʒɪtɪməsɪ] *n* qonuniylik, qonunga muvosiflik
- legitimate** *1. a* [lɪ'dʒɪtɪmit] qonuniy, haqli; *a ~ child* qonuniy tug'ilgan bola; *2. v* [lɪ'dʒɪtɪmeɪt] qonunlashtirmoq, qonuniy deb bilmox (tan olmoq)
- legitimation** [lɪ,dʒɪtɪ'meɪʃ(ə)n] *n* 1) qonunlashtirish, rasmiylashtirish; *2) (nikohsiz tug'ilgan bolani)* o'g'il qilib olish, o'g'illikka qabul qilish
- legless** [lɛgləs] *a* oyoqsiz, oyog'i yo'q
- legman** [lɛgmən] *n* (*pl -men* {-man}) mahalliy muxbir (*mahalliy hayotdan xabarlar yozib turadigan muxbir*)
- leg-pull** [lɛgpul] *n* so'zl. o'ynash, o'yin qilish; hazil
- leg-puller** [lɛg,pulə] *n* amer. so'zl. siyosiy fitnachi odam
- legume** [lɛgju:m] *n* bot. loviya (*dukkagi va doni*)
- leguminous** [lɛ'gju:minəs] *n* bot. loviyaga oid; loviyalı
- leisure** [lɛʒə] *n* dam, hordiq, bo'sh vaqt; *at ~ bo'sh* (ishdan xoli) vaqtida, bekorchilikda; *to be at ~ bo'sh bo'lmox*
- leisured** [lɛzəd] *a* 1) bo'sh, bekor, ishdan xoli; 2) bekorchi, ishlamaydigan
- leisurely** [lɛzəli] *a* shoshilmay, bemalol, xotirjam
- leit-motif** [lɛitmaʊ,ti:f] *n* mus. leytmotiv (*musiga asarida boshdan oxir takrorla-nuvchi asosiy kuy*)
- lemming** [lɛmuŋ] *n* zool. lemming (*kemiruvchilarga mansub hayvon*)
- lemon** [lɛmən] *n* hot, limon
- lemonade** [lɛmə'neɪd] *n* limonad (*ichimlik*)
- lemon-drop** [lɛməndrop] *n* limondan qilin-gan obakidandon (*konfet*)
- lemon squash** [lɛmən'skwɒʃ] *n* limon suvi aralashirilgan sodali suv (*sun'iy mineralli suv*)

- lemony** [lə'məni] *a* limonga oid; limon ...
- lemur** [lɪ:mər] *n* zool. lemur (*yarim maymun*)
- lend** [lend] *v* (**lent**) qarzga bermoq, vaqtin-chalikka berib turmoq; *to ~ money to smb.* kimadir pul qarz bermoq
- lender** ['lendə] *n* qarz beruvchi (bergan) kishi
- lending library** ['lendɪŋ laibr(ə)n] *n* kitob-larni uyg'a berib yuboradigan kutubxonalar
- length** [lənθ] *n* uzunlik; *the ~ of the day* kunning uzunligi
- lengthen** ['lenθ(ə)n] *v* 1) uzaytirmoq, cho'zmoq; 2) cho'zilmoq, uzayib qolmoq; uzaytirilmoq
- lengthways** [lenθweɪz] *adv* uzunasiga, bo'y-lamasiga, bo'yiga
- lengthy** ['lenθi] *a* juda uzun, uzoq
- lenience** ['li:nɛns] *n* yengillik, ko'ngilchanlik
- leniency** ['li:nɛnsi] = lenience
- lenient** ['li:nɛnt] *a* yengil, bo'sh, ko'ngli bo'sh; marhamatli, iltifotli
- lenitive** ['lenitiv] 1. *a* tib. yumshatadigan, yumshatuvchi; 2. *n* yumshatadigan, tinch-lantiradigan dori
- lenity** ['leniti] *n* 1) rahm, rahmdillik; 2) yums-hoqlik
- lens** [lenz] *n* (*pl -es [-iz]*) linza, optik oyna; lupa
- lent** [lent] *past., p. p. of lend*
- lenten** ['lent(ə)n] *a* (*taom haqida*) yovg'on, go'shtsiz, sutsiz (*sabzavot va baliqdan qilingan*)
- lenticular** [len'tikjulə] *a* 1) *opt.* ikkiyoqlama qabariq; linzasimon; linza shaklidagi; 2) *anat.* ko'z gavhariga oid
- lentil** ['lentl] *n* hot, yasmiq (*o'simlik*)
- Leo** ['li:u] *n* arslon burji
- leonine** ['li:ənain] *a* sherga (arslonga) oid
- leopard** ['lepad] *n* zool. qoplon
- leopardess** ['lepadəs] *n* qoplonning urg'o-chisi
- leotard** ['li:əta:d] *n* triko (*sportchilar kiyimi*)
- leper** ['lepa] *n* moxov odam
- leporine** ['lepərəin] *a* zool. quyonga oid; quyon
- leprechaun** ['leprəkə:n] *n* elf (*ruh, pari kabi afsonaviy maxtug*)
- leprosy** ['leprəsi] *n* moxov (*kasallik*)
- leprous** ['leprəs] *a* 1) moxova oid; moxov...; 2) moxov kasalligiga xos bo'lgan
- lesse-majesty** ['leiz' mædʒisti] *n* davlatga xoinlik qilish
- lesion** ['li:3(ə)n] *n* zararlanish, lat yeish, shikastlanish
- less** [les] *a* (*little ning qiyosiy darajasi*) kichikroq, kamroq, ozgina, kam; *to drink to the ~* so'nggi tomchisigacha ichib tugatmoq
- lessee** [le'si:] *n* ijaraq olgan (o'tirgan) odam, ijarachi
- lesson** ['les(ə)n] *v* kamaymoq, ozaymoq; kamaytirmoq, ozaytirmoq; *to ~ speed tezlikni kamaytirmoq; to ~ the hours of work ish kunin qisqartirmoq*
- lesser** ['lesə] *a* kamroq, ozroq, kichkina, oz, kam
- lesson** ['les(ə)n] *n* dars; *to give ~s in Uzbek o'zbek tilidan dars bermoq; at the end of the ~ darsning oxirida; at the ~ darsda; the ~ is over dars tugadi*
- lessor** ['lesɔ:] *n* ijaraq beruvchi kishi
- lest** [lest] *cj* bo'lmasisligi (qilmasligi) uchun
- let** [let] *v* (**let**) ruxsat bermoq; iyozat bermoq; qo'yib yubormoq
- letdown** ['let'daun] *n* 1) ko'ngil qolish (so-vish), ixlosi qaytish; umidsizlik; umidi puchga chiqish; 2) yomon ahvolga tushish; yomonlashish, battar bo'lish
- lethal** ['li:θəl] *a* o'ldiradigan, halokatl
- lethargic** [ləθərgik] *a* lanj, bo'shashgan
- lethargy** ['leθərdʒi] *n* 1) uyqu (uzoq uvlash) kasalligi; 2) lanjlik, sustlik
- Lethe** ['li:θi] *n* yur. mif. Leta (*yer ostidagi unutish daryosi*)
- lethiferous** [ləθ'fɪfərəs] *a* o'ldiradigan, ajal keltiradigan, qirg'in qiladigan; o'limga, halokatga olib boradigan, halokatl
- let-off** ['let'of] *n* 1) kechirish, avf etish, gunohidan o'tish, kechib yuborish; 2) belgilangan jazodan ozod etish
- Lett** [let] *n* 1) latish; latish ayol; 2) latish tili
- letter** ['letə] *n* xat, noma, maktub; *in a ~ xatda;* 2) harf, *in block ~s* bosh harflar bilan
- letter-box** ['letəboks] *n* pochta qutisi
- lettered** ['letəd] *a* 1) ko'p o'qigan, o'qimishli; 2) odobli, tarbiyalı
- letter-foundry** ['letə,faʊndri] *n* poligr. harf quyadigan joy (*ishxona, sex*)
- lettering** ['let(ə)rɪŋ] *n* 1) harflar bilan yozish; 2) ustiga yozilgan xat, yozuv
- letterless** ['letələs] *a* ilmsiz, bilimsiz, o'qimagan, omi, savodsiz, o'qish-yozishni bilmaydigan
- letter-paper** ['letə,peɪpə] *n* pochta qog'oz'i
- letter-perfect** ['letə, 'pɜ:fɪkt] *a* teatr. o'zing rolini puxta biladigan
- letterpress** ['letəpresa] *n* kitobdag'i matn
- letter-weight** ['letəweɪt] *n* qog'oz bostirgich, qog'oz bostirib qo'yiladigan narsa
- Lettish** ['letiʃ] 1. *a* latishlarga oid; latish(lar)...; 2. *n* latish tili

lettuce [l̥etis] n bot. salat, kohu (<i>ko'kat o't-lardan bir turi</i>)	liaise [l̥eɪz] v aloqani kanda qilmay xat yo-zishib turmoq
letup [l̥etap] n so'zl. 1) kuch-quvvatdan qolish, zaiflashish, darmonsizlanish, holsizlanish, holdan toyish, susayish; 2) to'xtatish, tugatish, to'xtash, tugash; 3) birmuncha vaqt to'xtatish, to'xtatib qolish, to'xtatib turish; biroz to'xtash, to'xtatish, to'xtab turish	lian [l̥aɪən] a alodogchi, yolg'onchi
leucocyte [l̥ɪk(j)u:kəsait] n fiz. oqqon tanachalari	libel [l̥ɪlb̥(ə)l̥] 1. n tuhmat, bo'hton; 2. v tuhmat qilmoq, bo'hton qilmoq
leuk(a)emia [l̥ɪk(j)u:kɪ:mɪə] n tib. oqqon kassaligi	liberal [l̥ɪlb̥(ə)rəl̥] a 1) hur (erkin) fikrlovchi; 2) bo'sh, ko'ngilchan; 3) saxiy, saxovatli; 4) gumanitar; ~ arts gumanitar fanlar
lev [lef] n lev (<i>Bolgariyada: pul birligi</i>)	liberalism [l̥ɪlb̥(ə)rəl̥ɪz(ə)m] n ko'ngilchanlik
levee I [levi] n kermalar to'xtaydigan joy	liberate [l̥ɪb̥əreɪt̥] n ozod qilmoq; to ~ slaves qullarni ozod qilmoq
levee II [levi] n 1) (<i>davlat hoshlig ining</i>) qabuli; 2) (<i>mehmonlar</i>) yig'ilishi	liberation [l̥ɪb̥ə'reɪʃ(ə)n] n ozodlik, ozod qilish
level [lev(ə)] n bosqich, daraja	liberator [l̥ɪb̥əreɪt̥ə] n ozod qiluvchi, xaloskor
levelcrossing [lev(ə)'krɔ:sɪŋ] n temir yo'l kesib o'tiladigan joy	libertarian [l̥ɪb̥ə'te(ə)rɪən] n siyosiy va shaxsiy erkinliklar tarafdoi
level-headed [lev(ə)l̥ 'hɛdɪd̥] a og'ir, vazmin, bosiq, fe'li yaxshi	libertine [l̥ɪb̥ətɪ:n] n 1) axloqsiz, buzuq odam; 2) tar. ozod qilingan qul <i>yoki</i> dehqon
leveller [lev(ə)lə] n tenglik uchun kurashuvchi odam	liberty [l̥ɪb̥ət̥i] n ozodlik, erkinlik; ~ of conscience vijdon erkinligi
lever [l̥i:və] n 1) dastak, pishang; 2) vosita; kalit; a control ~ boshqaruv dastagi; a starting ~ ishga soladigan dastak (pishang)	Libra [l̥i:brə] n astr. tarozi burji
leverage [l̥i:v(ə)rɪdʒ] n pishangning harakati; yuqoriga ko'taruvchi kuch	librarian [l̥ai 'bre(ə)rɪən] n kutubxona xodimi, kutubxonachi
leveret [lev(ə)rɪt̥] n quyon bolasi	library [l̥aɪbr̥(ə)rɪ] n kutubxona
leviathan [l̥i 'væθəθ(ə)n] n juda katta, bayhat narsa	lice [l̥aɪs] pl of louse
levigate [l̥evɪgeɪt̥] v shafqatsizlik bilan jazolamoq, kulini ko'kka sovurmoq	licence [l̥aɪs(ə)ns] 1. n 1) ruxsat, ijozat; 2) ruxsatnoma, guvohnoma; a driving ~ haydovchilik guvohnomasi; 2. v ruxsat etmoq; to ~ a book kitobning chiqishiga ruxsat bermoq
levitate [l̥evɪteɪt̥] v ko'tarilmoq, ko'tarmoq	licentiate [l̥ai 'senʃnt̥] n litsenziya (diplom) egasi
levity [l̥evɪtu] n yengiltaklik, yuzakilik	licentious [l̥ai 'senʃəs] a axloqsiz, buzuq
levy [levi] 1. n (<i>soliqni</i>) olish, yig'ish, undirish; 2. v (<i>soliq va sh. k.</i>) olmoq, yig'moq, undirmoq	lichen ['laɪkən] n tib. temiratkı
lewd [lu:d] a shahvoniy; suq	lich-gate [l̥ɪtʃgeɪt̥] n o'likxona, murdaxona
lewis [lu:is] n tex. anker bolt	lick [lɪk] v yalamoq
lewisisite [l̥u:isait̥] n kim. lyuizit (<i>zaharli modda</i>)	licking [l̥ɪkɪŋ] n 1) yalash; 2) so'zl. savash, qamchilash, urish
lexical [l̥ekslɪk(ə)] a leksikaga (so'z boyligiga) oid; lug' aviy	licorice [l̥ɪlk(ə)rɪs] n bot. qizilmiya, shirin-miya (<i>dukkakli o'simlik</i>)
lexicographer [l̥eksl̥i 'kogrəfə] n leksikograf, lug' atshunos, lug' atchi	lid [lɪd] n qopqoq
lexicography [l̥eksl̥i 'kogrəfi] n leksikografiya, lug' atshunoslik, lug' atchilik	lie I [l̥ai] 1. n yolg'on, aldash; 2. v aldamoq, yolg'on gapirmoq
lexicology [l̥eksl̥i 'kolədʒi] n leksikologiya	lie II [l̥ai] 1. v (lay; lain) 1) yotmoq; to ~ down yotmoq; 2) joylashgan bo'limoq; 2. n uya, in
lexicon [l̥eksl̥i:kən] n lug' at	liege [l̥i:dʒ] n tar. qaram bo'lgan kishi
liability [l̥aɪə'bɪlɪti] n majburiyat, javobgarlik, mas'uliyat	lien [l̥i:n] n yur. qarzdor taraf mulkini xatlash huquqi
liable [l̥aɪə'bəl̥] a 1) ehtimol, bo'lishi mumkin bo'lgan; 2) duchor, giriftor; 3) javobgar, mas'ul	lieutenant [lef 'tenənt] n leytenant
	life [l̥aɪf] n (pl lives) hayot, yashash
	lifebelt [l̥aɪfbelt̥] n ehtiyyot (qutqarish) kamari (<i>suvga cho'kmaslik uchun belga bog'lanadigan po'kak kamar</i>)

- lifeboat** [ˈlaɪfbəʊt] *n* qutqaruvchi qayiq
- life-buoy** [ˈlaɪfbɔɪ] *n* qutqarish chambara-
- life-guard** [ˈlaɪfga:d] *n* imtiyozli maxsus gvardiya qismi, qo'shini
- lifelong** [ˈlaɪflɔŋ] *a* umrbod, umrning oxiriga gacha davom etadigan
- life-size(d)** [ˈlaɪf̩ ˈsaɪz(d)] *a* o'z kattaligidagi portret
- lifetime** [ˈlaɪftaɪm] *n* umrning uzoqligi; *it is all in a (one's) ~* hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin
- lift** [lɪft] *1. v* ko'tarmoq; yuqorilatmoq; *2. n* 1) ko'tarilish; 2) lift
- ligament** [lɪg'mənt] *n* anat. pay, paycha
- light** [laɪt] *1. n* 1) yorug'lik, yoritish; 2) olov; o't; yoritgich; *2. a* 1) yorqin; oqargan; 2) yengil; 3) bilinar-bilinmas; *3. v* (*lit*) 1) (*gugurt, papirovs va h. k. ni*) yoqmoq; 2) yoritmoq
- lighten** [laɪtn] *v* yoritmoq; yorug'lik bermoq; yarqiramoq
- lighter** [laɪta] *n* 1) yoritgich, yoritish asbob; 2) zajigalka (*o't chiqaradigan, papirovs tutatadigan cho'ntak asbob'i*); 3) deng yuk kemasni
- light-headed** [laɪt̩ 'hedɪd] *a* bosh aylanish, gangish
- light-hearted** [laɪt̩ 'ho:tɪd] *a* beg'am, beparvo, betashvish
- lighthouse** [ˈlaɪθaʊs] *n* mayoq (*kemalarga yo'lkor'satish uchun dengiz qirg'og'i yoki orollarga qurilgan va signal vositalari bilan jinozlangan minorasi*)
- lighting** [laɪtnɪŋ] *n* 1) yorug'lik, chiroq; 2) yoritish moslamasi
- light-minded** [laɪt̩ 'maɪndɪd] *a* yengiltak, mulohazasiz; oqibatni o'ylamaydigan
- lightning** [laɪtnɪŋ] *n* 1) chaqmoq; 2) shu'la, yashin
- lightning-conductor** [laɪtnɪŋkən,dʌktə] *n* yashinqaytargich
- lights** [laɪts] *n* (*cho'chqa, qo'y va b. ning taom tayyorlashda ishlataladigan*) o'pkasi
- lightsome** [laɪtsəm] *a* 1) yorug', yorqin, ravshan, quyoshli; 2) rangi ochiq
- lignite** ['hgnait] *n* lignit (*toshka mirning bir turi*)
- like** [laɪk] *1. a* o'xshash; *2. v* yoqtirmoq
- likelihood** [laɪklihʊd] *n* bo'lishi mumkinlik, ehtimollik
- likely** [laɪkli] *a* 1) yuz berishi mumkin bo'lgan, ehtimol; 2) munosib, bop, mos
- likem** [laɪkən] *n* qiyoslamoq, taqqoslamoq, solishtirmoq; o'xshatmoq
- likewise** ['laɪkwaɪz] *adv* shunday tarzda, shu yo'sinda
- liking** [laɪkɪŋ] *n* xush ko'rish, yaxshi ko'rish, yoqtirish
- lilac** [ˈlaɪlæk] *n* bot. siren (*xushbo'y, och binasharang gul*)
- lift** [lɪft] *n* vazn; maqom, ritm, marom
- illy** [lɪlɪ] *n* bot. marvaridgul, nilufar
- limb** [lɪm] *n* 1) shox-shabba; 2) odam qo'li yoki oyog'i
- limber** ['lɪmbə] *a* egiluvchan, bukiluvchan, moslashuvchan
- lime** [laɪm] *1. n* ohak; slaked ~ so'ndirilgan ohak; *2. v* ohak bilan oqlamoq
- limelight** [laɪmlaɪt] *v* 1) aniq yoritmoq, ravshan qilib ko'sratmoq; 2) e'tiborni o'ziga jaib qilmоq
- limestone** [laɪmstæʊn] *n* ohaktosh (*ohaklı tog jinsi*)
- limit** [lɪmɪt] *1. n* chek, chegara; *2. v* chegaralamoq, cheklab qo'yamoq
- limitation** [lɪmɪt̩ teɪʃ(ə)n] *n* cheklash, oxirgi muddat
- limited** [lɪmɪtid] *a* 1) chegaralangan; 2) cheklangan
- limousine** [lɪməzi:n] *n* limuzin (*yengil avtomobil*)
- limp** [lɪmp] *v* 1) oqsamoq; 2) qiyinchilik bilan yurmoq
- limpid** [lɪmpɪd] *a* tiniq, shaffof
- linchpin** [lɪntʃ,pɪn] *n* g'ildirak o'qi
- linden** [lɪndən] *n* soxta (qalbaki) narsa (*huj-jat va sh. k.*)
- line** [laɪn] *1. n* yo'l, chiziq; *in a ~* bir chiziqda; *2. v* chizmoq, chizib o'tkazmoq
- lineage** [lɪnɪdʒ] *n* 1) kelib chiqishi, nasabi, paydo bo'lishi; 2) nasl, avlod
- linear** [lɪnɪə] *a* chiziqli, chiziqlardan tuzilgan, chiziq shaklidagi
- lineman** ['lammən] *n* (*pl. -men [-mən]*) yon chiziq hakami
- linen** ['linɪn] *n* choyshab, surp
- liner** ['laɪnə] *n* layner (*yurik samolyot*)
- linesman** ['lamz̩mən] = lineman
- linger** [lɪngə] *v* 1) uzoq turib qolmoq, qolib ketmoq; 2) sustashlik qilmoq, orqaga sudramoq, cho'zmоq
- lingerie** ['lænz̩ri] *n* fr. ayollar ichki kiyimi
- lingo** [lɪŋgə] *n* (*pl. -oes [-əʊz]*) 1) yaxshi tu-shunib bo'lmaydigan til (jargon); 2) chet tili
- lingual** [lɪŋgwəl] *a* 1) anat. tilga oid; til...; 2) tilsh. til yordamida paydo bo'ladigan
- linguist** [lɪŋgwɪst] *n* tilshunos; tilchi
- linguistic** [lɪŋ'gwɪstɪk] *n* tilshunoslikka oid, tilshunoslik...
- linguistics** [lɪŋ'gwɪstɪks] *n* tilshunoslik
- liniment** [lɪmɪmənt] *n* farm. suyuq malham
- lining** ['laɪnɪŋ] *n* astar; qoplama

- link** [lɪŋk] 1. n 1) qo'shilish; ulanish; 2) halqa; 3) aloqa; 2. v aloqa bog'lamoq, ulamoq, bog'lamoq
- linino** ['lainəʊ] = **linoleum**
- linoleum** [lɪ'nəʊliəm] n linoleum (*gatin material*)
- linseed** ['lɪnsi:d] n zig'ir urug'i; ~ oil zig'ir yog' (moy)
- lion** ['laɪən] n zool. sher, arslon
- lioness** ['laɪənəs] n urg'ochi sher (arslon)
- lip** [lɪp] n lab, dudoq
- lipstick** ['lɪp,stɪk] n lab bo'yog'i
- liquefy** ['lɪkwɪfɪz] v suyultirmoq, suyuq holga keltirtmoq
- liqueur** ['lɪk'juər] n fr. likor (*o'tkir shirin spirtili ichimlik*)
- liquid** ['lɪkwid] n suyuqlik
- liquidate** ['lɪkwidēt] v 1) to'lamoq; beremoq; 2) qarzini tugatmoq; 3) kasod bo'lmoq (*tashkilot, firma haqida*); 4) yo'q qilmoq; tugatmoq, bitirmoq
- liquidation** ['lɪkwi'deʃ(ə)n] n tugatish, yo'q qilish; 2) qarzni to'lash
- liquor** ['lɪkər] n spirtli ichimlik
- liquorice** ['lɪk(ə)rɪs] n bot. qizilmiya, shirin-miya (*dukkkali o'simlik*)
- lisp** [lɪsp] n tovushni buzib talaffuz qilish
- lisson(e)** ['lis(ə)m] a egiluvchan, bukiluvchan
- list** [lɪst] 1. n ro'yxat; **duty** ~ navbatchilik ro'yxati; 2. v ro'yxatga kirgizmoq, ro'yxat tuzmoq
- listen** ['lis(ə)n] v tinglamoq; **to ~ to ...ga qu-loq solmoq, ...ni tinglamoq; to ~ to a lecture ma'ruzani tinglamoq; ~er tinglovchi**
- listless** ['listləs] a beparvo, logayd, bee'tibor
- lit** [lɪt] *past.*, p. p. of light 3
- liter** ['lɪ:tə] = **litre**
- literacy** ['lɪt(ə)rəsi] n savodxonlik, o'qish-yozishni bilih
- literal** ['lɪt(ə)rəl] 1. a harf bilan ifodalangan, so'zma-so'z, aynan; 2. n terishda (bosishda) yo'liq' yilgan xato
- literary** ['lɪt(ə)rəri] a adabiyotga oid; adabiyotdag'i, adabiy; a ~ work adabiy asar; ~ heritage adabiy meros
- literate** ['lɪt(ə)rət] a 1) savodli, o'qimishli; 2) savodli kishi
- literature** ['lɪt(ə)rətʃə] n adabiyot
- little** ['laɪtə] a 1) egiluvchan, bukiluvchan; 2) moslashuvchi, uddaburon, epchil
- lithium** ['lɪθiəm] n kim. litiy (*kimyoiy element*)
- lithographic** ['lɪθə'græfɪk] a toshbosma usulida bosilgan
- lithography** ['lɪ'θoɡrəfi] n litografiya, toshbosma
- Lithuanian** [lɪθju' emiən] 1. a Litvaga va litvaliklarga oid; 2. n 1) litvalik kishi **yoki** ayol; 2) litva tili
- litigant** ['lɪtɪgənt] 1. n yur. taraf, tomon (*sud jarayonida*); 2. a sultanuvchi
- litigate** ['lɪtɪgeɪt] v sudlashimoq, tortishmoq
- litigious** [lɪ'tɪdʒəs] a yur. sudbozlikka oid
- litmus** ['lɪtməs] n kim. laksmus (*to'q binaf sharang bo'yog modda*)
- litre** ['lɪ:tə] n lit; **by the ~** litrab
- litter** ['lɪtə] n supurindi, axlat
- little** ['lɪtl] (less, lesser; least); 1. a kichkina, kam; 2. **adv oz**
- littoral** ['lɪt(ə)rəl] a qirg'oq bo'yidagi, qirg'oq oldidagi, qirg'oq bo'y'i
- live** 1. v [lɪv] yashamoq, turmoq; kun kechirmoq; 2. a [lɪv] 1) jonli; 2) g'ayratli; 3) tirk; ~ stock chorva
- livelihood** ['lɪvlɪhūd] n tirikchilik vositasi; to earn an honest ~ halol mehnati bilan yashamoq
- livelong** ['lɪvlɔŋ] a butun, but, to'la, to'liq
- lively** ['lɪlvɪ] 1. a tirk, jonli; xushchaqchaq; 2. **adv** xushchaqchaqlik bilan
- liven** ['lɪrv(ə)n] v jontantirmoq; qizimoq, qizg'in tus olmoq
- liver** ['lɪvər] n Anat. jigar
- livery** ['lɪv(ə)rɪ] n liveyra (*aravakash, darvozabon va sh. k. ning zarrin ugali kiyimi*)
- lives** [laɪvz] pl of life
- live-stock** ['lɪvstok] n uy hayvonları
- livid** ['lɪvid] a so'zl. g'azablangan, achchig'i chiqqan
- living** ['lɪvɪŋ] 1. n turmush tarzi, tirikchilik; 2. a tirk; ~ languages tirik til
- lizard** ['lɪzəd] n zool. kaltakesak
- lo** [ləʊ] int. mana! qara! eshit!
- load** [ləʊd] 1. n 1) yuk; 2) og'irlik, og'ir yuk; 2. v 1) yuk ortimoq, yuklamoq; 2) o'qlamoq
- loadstone** ['ləʊdsteɪn] = **lodestone**
- loaf** [ləʊf] (pl loaves) 1. n bulka (*non*); 2. v tentiramoq, sanqib yurmoq, vaqt ni bekorga o'tkazmoq
- loafer** ['ləʊfər] n bekorchi, dangasa, ishyoq-mas kishi
- loaf-sugar** ['ləʊf,sʊgər] n tozalangan kesma oq qand
- loam** [ləʊm] n unumdor (serhosil) yer
- loan** [ləʊn] 1. n qarz; zayom; **government ~s** davlat zayomi; 2. v qarz bermoq
- loath** [ləʊθ] a xohishsiz, istaksiz
- loathe** [ləʊð] v yomon ko'rmoq, nafratlanmoq
- loathing** ['ləʊðɪŋ] n nafrat; to be filled with ~ nafratlanmoq
- loathsome** ['ləʊðs(ə)m] a jirkanch, nafrat uyg'otadigan

loaves [ləuvz] *pl of loaf* 1
lob [lob] *v to'pnı (koptokni) yuqoridan uloqtirmoq*
lobby ['lobbi] *n koridor, qabulxona*
lobe [ləub] *n 1) qulog yumshog'i; 2) tex. kulachok, kulak*
lobster ['lobstə] *n zool. katta dengiz qis-qichbaqasi*
local ['ləuk(ə)] *a mahalliy; the ~ doctor mahalliy shifokor*
locale [ləu 'ka:l] *n voqeа (hodisa) yuz ber-gan joy*
locality [ləu 'keleti] *n joy, yer; o'lka, tuman*
localization [ləukeləz'eis(ə)n] *n harbiy ni-zolarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik*
localize [ləukelaiz] *v tarqalishini cheklamoq, ma'lum joyda to'xtatmoq*
locate [ləu 'keit] *v 1) turgan joyini aniqlamoq; 2) joylashtirmoq, o'mashtirmoq*
location [ləu 'kei:(ə)n] *n 1) (nimaningdir) joyini, o'mini aniqlash; 2) joylashgan o'rni*
loch [lok] *n shotl. ko'l*
lock I [lok] *n soch jingalagi, zulfi*
lock II [lok] *1. n qulf; 2. v qulflamoq, berkitmoq*
locker ['lokə] *n 1) shkaf, shkafcha; 2) katta sandiq*
locket ['lokɪt] *n medalyon; gold ~ oltin medalyon*
lock-out ['lok 'aut] *n ishchilarni yoppasiga ishdan bo'shatish yoki korxonani yopib qo'yish*
locksmith ['lok,smiθ] *n chilangar*
locomotion [ləukə məu̯(ə)n] *n siljish, jilish, joyidan qo'zg'alish*
locomotive [ləukə 'məutiv] *1. n lokomotiv (parovoz, teplovoy va sh. k. ning umumiyy nomi); 2. a harakatlantiruvchi, harakatga keltiluvchi*
locum [ləukəm] *n: to do ~ vaqtinchalik vazifani bajarmoq (shifokor va b. haqida)*
locus [ləukəs] *n lot. 1) turar joy, yashash joyi; 2) mat. nuqtaning geometrik o'mi*
locust [ləukast] *n 1) zool. chigirkta; 2) bot. og akas (og gulli dukkakli daraxt)*
lode [ləud] *n geol. qatlam, kon*
lodestar ['ləudsta:] *n yo'l ko'rsatadigan yulduz, yo'lchi yulduz*
lodestone ['ləudstə:n] *n magnit temir-tosh (magnit xususiyatiga ega bo'lgan temir rudasasi)*
lodge [lodʒ] *1. n kichkina uy, uycha, kulba; 2. v ijaraada yashamoq*
lodger ['lodʒə] *n 1) yashovchi, istiqomat qiluvchi; 2) ijaraada yashovchi*
lodging ['lodʒɪŋ] *n turar joy, uy-joy, makon*

lodging-house ['lodʒɪŋhaʊs] *n mebellar bilan ihozlangan uy*
loft ['loft] *n 1) cherdak (ustki tom bilan ostki tom oralig'i); 2) bedaxona, pichanxona; 3) kaptarxona*
lofty ['lofti] *a yuksak; juda baland (insol-larga nisbatan ishlatalimaydi); ~mountains baland (yuksak) tog'lar*
log [log] *n g'o'la; yog'och, xoda*
logarithm ['logarit̫(ə)m] *n mat. logarifm (daraja ko'rsatkichi)*
log-book ['logbuk] *n vaxta jurnali (vaxta-kemada navbatchilik, soqchilik)*
loggerhead ['logəhed] *n ahmoq, galvars, kallavaram*
loggerheads ['logəhədz] *n kelishmovchilik*
logic ['lodʒik] *n mantiq*
logical ['lodžik(ə)] *a mantiqiy*
logo ['logəu] *n marka, emblema*
log-rolling ['log,rolin] *n amer. o'zaro xizmat (siyosatda)*
loin [lɔɪn] *n pl bel*
loin-cloth ['lɔɪnkloθ] *n songa bog'langan bint*
loiter ['lɔɪtə] *v sang'imiq; bekor yurmoq*
loll [lol] *v egmoq, engashitirmoq*
lollipop ['lollipop] *n 1) tayoqchali so'rg'ich qand; 2) shirinlik, qand-qurs*
lone [ləun] *n yakka, yolg'iz; ~ly tanho, yolg'iz; to feel ~ o'zini yolg'iz his etmoq*
loner [ləunə] *n amer. hech kimi yo'q odam, so'qqabosh kishi*
lonesome ['ləuns(ə)m] *a yakka, yolg'iz, tanho*
long [lon] *a uzun, uzoq; ~ after ancha vaqt o'tgandan kevin; not ~ after ozroq o'tgandan keyin, sal o'tib; ~ before bundan ancha oldin (ilgari); in the ~ run oxiri, nihoyat*
long-drawn [lon 'drɔ:n] *a cho'zilgan, davomli*
longevity [lon 'dʒevitı] *n uzoq umr, uzoq umr ko'rish, ko'p yashash*
longing ['lonɪŋ] *n tilak, orzu, xohish-istik*
longitude ['londʒitju:d] *n geogr. uzunlik*
long-jump ['londʒamp] *n uzoqqa sakrash sporti*
long-life [,lon'laif] *a uzoqqa (ko'pga) chidaydigan*
long-lived [,lon 'livd] *a uzoq yashaydigan, uzoq umr ko'radigan*
long-range [,lon'reindʒ] *n uzoqqa otadigan (to'p); a ~ gun uzoqqa otadigan quroq*
long-standing [,lon 'stændɪŋ] *a 1) uzoqqa cho'zilgan; uzoq davom etgan; 2) azalg'; a friendship of ~ azalgi qadrdon do'st*
long-suffering [,lon'saf(ə)n] *a jafoakash, bardoshli, sabrli, chidamli*

long-term [lɔŋ'tɜ:m] <i>a</i> uzoq muddatli	loss [lɒs] <i>n</i> 1) talafot, yo'qotish; 2) ziyan
long-wave [lɔŋ'weɪv] <i>n</i> uzun to'lqinli radio-	lost <i>[lɒst]</i> <i>a</i> yo'qotilgan, qo'ldan boy beril-
stansiya	gan
long-winded [lɔŋ'wɪndɪd] <i>a</i> uzundan-uzun,	lost II [lost] <i>past, p. p. of lose</i>
cho'zilib ketgan; zerikarli	lot [lɒt] <i>n</i> 1) ko'rgilik, qismat, taqdir; 2) an-
loo [lu:] <i>n</i> hojatxona	cha, ko'p miqdor; a ~ of ko'p; 3) qur'a;
look [lu:k] 1. <i>v</i> qaramoq, nazar tashlamoq;	4) (yer) maydoni, uchastkasi; a parking
to ~ after g'amxo'rlik qilmoq, parvarish	~ avtomobillar to'xtash joyi
qilmoq; to ~ at qaramoq; to ~ for qidirmoq;	loth [laʊθ] = loath
to ~ like o'xshamoq; to ~ over ko'z yugur-	lotion ['laʊʃ(ə)n] <i>n</i> malham (<i>suyuq dori</i>)
tirmoq; 2. <i>n</i> qarash, nazar solish, boqish	lottery ['lɒt(ə)rɪ] <i>n</i> lotereya
looker-on [lu:kə'ron] <i>n</i> kuzatuvchi, tomos-	lotus ['ləʊtəs] <i>n</i> bot尼lfasar
shabin	loud [laud] <i>a</i> baland ovozli; shovqinli; in a
looking-glass ['lukɪŋglə:s] <i>n</i> ko'zgu, oyna	~ voice baland ovozda
look-out ['luk'au:t] <i>n</i> 1) hushyorlik, ogohlik,	loudly ['laudli] <i>adv</i> baland, qattiq, baland
sezgirlik; 2) kuzatuvchi	ovozi bilan
loom [lu:m] <i>n</i> to'q. to'qish dastgohi	loudness ['laudnəs] <i>n</i> balandlik, qattiqlik
loon [lu:n] <i>n</i> so'zl. yaramas, ablah odam	loud-speaker ['laud spi:kə] <i>n</i> radiokarnay
loony ['lu:nɪ] <i>n</i> aqdan ozgan, jinni, telba	lounge [laundʒ] <i>v</i> cho'zilib yotmoq, yoyilib
loop [lu:p] <i>n</i> sirtmoq, ilmoq, halqa	o'tismoq
loop-hole ['lu:pʰəʊl] <i>n</i> 1) tuynuk, teshik;	lounge suit ['laundʒs(j)u:t] <i>n</i> pidjak, kas-
2) odam sig'adigan teshik	turn
loose [lu:s] 1. <i>a</i> bo'sh; yengil; ozod, erkin;	lour ['laʊə] <i>v</i> qovog'ini solmoq, xo'mray-
2. <i>v</i> ozod bo'lmox; yechmoq; ochmoq	moq; 2) bulut qoplamox (bosmoq)
loosely ['lu:sli] <i>adv</i> erkinlik bilan, erkin,	louse [laus] <i>n</i> (pl lice) bit
hur, ozod	lousy ['laʊzɪ] <i>a</i> bitlab ketgan, bit bosgan
loosen ['lu:s(ə)n] <i>v</i> bo'shashtirmoq; to ~ di-	lout [laut] <i>n</i> bezori, tarbiyazis kishi
cipline intizomni bo'shashtirmoq	loutish ['laʊtɪʃ] <i>a</i> tarbiyazislarga xos, bezo-
loot [lu:t] 1. <i>n</i> 1) o'g'irlangan mol-mulk;	rilarcha
2) (<i>mansabдор va sh. k. ning</i>) noqonuniy	louver ['lu:və] <i>n</i> jaluba (<i>yog' och darparda,</i>
daromadi; 2. <i>v</i> o'g'irlamoq, talamoq, shil-	<i>chiy parda va sh. k.)</i>
moq	louvre ['lu:və] = louver
lop I [lop] 1. <i>n</i> mayda novdalar (shox, bu-	lovable ['laʊəb(ə)l] <i>a</i> yoqimli, dilbar, jozi-
toojar); 2. <i>v</i> butoqlamoq	bali
lop II [lop] <i>v</i> osilib turmoq	love [lav] 1. <i>n</i> sevgi, muhabbat; 2. <i>v</i> sevmoq;
lop III [lop] <i>n</i> deng. to'lqin, to'lqinlar	yaxshi ko'romoq; to be in ~ with ...ni sevmoq
lope [ləʊp] <i>n</i> katta-katta qadam	lovely ['laʊvlɪ] <i>a</i> yoqimli, xushbicim
lop-eared [ləʊp'red] <i>a</i> qulogqlari osilgan,	lover ['laʊə] <i>n</i> 1) o'y Nash, jazman; 2) se-
shal pangqulog	vishganlar; 3) ishqiboz, muxlis
lop-sided [lop'saɪd] <i>a</i> bir tomonga egil-	loving ['laʊvɪŋ] <i>a</i> menribon, mehrli, sevuvchi
gan, qiyshaygan	low [ləʊ] 1. <i>n</i> ma'rash; 2. <i>v</i> ma'ramoq; 3. <i>a</i>
loquacious [ləʊ(u)'kweɪʃəs] <i>a</i> sergap, ezma,	past; baland emas; at a ~ price past narxda
vaysaqi	lower ['ləʊə] 1. <i>a</i> pastki, quyi, ostki; 2. <i>v</i>
lord [lɔ:d] <i>n</i> 1) lord, lordlar partiyasining	1) pastga tushirmoq; 2) kamaytirmoq, pa-
a'zosi; 2) boshqaruvchi	saytirmoq
lordship ['lɔ:dʃɪp] <i>n</i> tar. hokimiyat; hukm-	lowland ['ləʊnlənd] <i>n</i> 1) pasttekislik; 2) ge-
ronlik, lordlik; your ~ zoti oliylari	ogr. vodiy
lore [lɔ:r] <i>n</i> an'anaviy amaliy bilimlar	loyal ['lɔɪəl] <i>a</i> sodiq, sadoqatli; a ~ wife sa-
longrette [lɔ:g'ret] <i>n</i> 1) buklama dastali	doqatli xotin
ko'zoynak; 2) teatr turbini	loyalty ['lɔɪəlti] <i>n</i> sodiqlik, sadoqat
lorn [lɔ:n] 1) baxtsiz, baxti qora, sho'rpe-	lozenge ['lɒzɪndʒ] <i>n</i> 1) romb (<i>hamma to-</i>
shana; 2) yetim qolgan; 3) tashlab ketilgan	<i>moniari teng parallelogramm</i>); 2) dori, tab-
lorry ['lɔ:ri] <i>n</i> yuk mashinasi	letka
lose [lu:z] <i>v</i> (lost) 1) yo'qotmoq, mahrum	lubber ['la:bə] <i>n</i> beso'naqay odam, qo'pol, ep-
bo'imoq; to ~ one's money pul yo'qot-	siz, lapashang
moq; 2) sarflamoq; 3) yutqazmoq; to ~ a	lubricant ['lu:brikənt] <i>n</i> moy, moylash ma-
game o'yinni yutqazmoq	teriali

- lubricate** [lu:brikeɪt] *v (avtomobil va b. ni) moylamoq*
- lubricious** [lu:bri'keɪʃ(ə)n] *n moylash*
- lucid** [lu:sid] *a aniq, ravshan, tushunarli*
- lucidity** [lu: 'sidi] *n aniqqlik, ravshanlik, tushunarlik*
- luck** [lʌk] *n 1) taqdir; 2) baxt, omad; 3) muvaffaqiyat*
- luckily** [lʌkli] *adv xayriyat, yaxshiyam*
- lucky** [lʌki] *a baxtli, baxtiyor, omadli, omadi chopgan*
- lucrative** [lu:kretiv] *a foydali, foya keltiradigan, serdaromad*
- ludicrous** [lu:dikrəs] *a bema'ni, tuturiqsiz; kelishmagan, kulgini qistaydigan*
- lug** [lʌg] *v sudramoq, tortmoq, sudrab bommoq*
- luggage** [lʌgɪdʒ] *n bagaj, yuk; a ~ van yuk vagoni; a ~ boot yuxxonasi (avtomobil-larda)*
- lugubrious** [lu: 'gu:briəs] *a qayg'uli, g'amgin, achinarli; motamsaro*
- lukewarm** [lu:k 'wɔ:m] *a 1) iliq; 2) loqayd, qiziqmaydigan, ishtiyosiz*
- lull** [lʌl] *v allalammoq, uxlatmoq*
- lullaby** [lʌləbəi] *1. n alla qo'shig'i; 2. v alla aytmoq*
- lumbago** [lʌm'bəgeɪə] *n rib, belog'riq, bel sanchig'i*
- lumber** [lʌmbə] *1. n 1) keraksiz beso'naga yarsalar; eski mebellar; 2) amer. yog'och, xoda*
- luminary** [lu:min(ə)rɪ] *n yoritgich; mash'al*
- luminous** [lu:minəs] *a yarqiraydigan, yonadicidan*
- lump** [lʌmp] *n parcha, burda, zuvala*
- lunacy** [lu:nəsi] *n ahmoqlik, jinnilik*
- lunar** [lu:nə] *a oyga oid, ov...*
- lunatic** [lu:nətik] *1. a lunatik, oyparast (uyqusida uyg'oqdek yuraveraaigan); 2. n oyparast odam*
- lunch** [lʌntʃ] *1. n ikkinchi nonushta, tushlik, 2. v ikkinchi nonushta qilmoq*
- luncheon** [lʌntʃ(ə)n] *n tushlikda yeylimagan taom; 2) yengil nonushta*
- lung** [lʌŋ] *n ana, o'pka; the ~ o'pkalar*
- lunge** [lʌndʒ] *v tashlanmoq, hamla qilmoq*
- lurch** I [lɜ:tʃ] *1. n bir yonga qiyshayish, og'ish (kema haqida); 2. v og'moq, qiyshaymoq*
- lurch** II [lɜ:tʃ] *n : to leave smb. in the ~ qiyin vaziyatda tashlab ketmoq*
- lure** [lɪ(j)ʊə] *1. n 1) qiziqtiradigan (havasini keltiradigan) narsa; 2) yo'ldan ozdiradigan narsa, vasvasa; 3) yoqimilik, jozibalilik, ko'rakilik; 4) o'ziga tortadigan (jozibador) kuch; 2. v o'ziga tortmoq (qaratmoq), jalb qilmoq; qiziqtirmoq, havasini kelturnoq;*
- vasvasa** qilmoq, qiziqtirib biror ishga tortmoq, yo'ldan urmoq
- lurid** [lɪ(j)uərd] *a 1) alangali, o'tga (alanga-ga) oid; 2) momaqaldiroqli; jalali; zim-ziyolurk [lɜ:k] *v yashirinib turmoq, ko'zga tashlanmay turmoq**
- luscious** [lʌ'sɪəs] *a 1) xushbo'y, hidi yaxshi, muattar; 2) shirin, mazali; 3) ko'ngilga uradigan, chuchmal*
- lush** [lʌʃ] *n spirli ichimlik*
- lust** [lʌst] *n 1) nafs, hirs, shahvat; 2) orzu, istak, ishtiyooq*
- luster** [lʌstə] = lustre
- lustre** [lʌstə] *n 1) yaltiroqlik, jiyo, sayqal; 2) lustra, qandil, chilchiroq*
- lusty** [lʌsti] *a 1) sog'lom, baqvut; 2) semiz, baqaloq*
- lute** [lu:tɪ] *1. n 1) ud (qadimgi musiga asboblaridan birining nomi); 2) mumsimon modda, zamazaka*
- luxurious** [lʌg'zju(ə)rɪəs] *a muhtasham, dang'llarna, serhasham, dabdabali*
- luxury** [lʌkʃ(ə)n] *n dabdaba, hasham*
- lye** [lai] *n kul suvi, ishqorli suv*
- lying** [laiŋ] *a 1) yolg'onchi, aldamchi; 2) yolg'on; 3) yotiq, yotgan*
- lymph** [limf] *n fiziol. limfa (organizmada qon bilan to'qimalar o'rtasida modda almashinuvini ta'minlovchi suyuqligi)*
- lynch** [lɪntʃ] *v amer. sudsiz, so'roqsiz jazalamoq*
- lynx** [lɪŋks] *n zool. silovsin*
- lyre** [lare] *n 1) lira (pul birligi); 2) lira (musiga asbob)*
- lyric** [lɪrik] *a lirik; ~al lirikaga oid*
- lyrics** [lɪrɪks] *n pl 1) lirik she'rlar; 2) lirika*
- lyrist** [lɪrist] *n lirik shoir*
- lysis** [laɪsɪs] *n tib. lizis (haroratning sekinsta pasayib, hemorning sog'ayib borishi)*
- lysol** [laɪsol, -səʊl] *n lizol (dezinfeksiya uchun ishlataladigan qizg'ish-qo'ng'ir moysimon modda)*

M

- M, m** [em] *n ingliz alifbosining o'n uchinchi harfi*
- MA** [ma:] *n (Master of Arts ning qisqartirilgan shakli) san'at sohasi magistri*
- ma** [ma:] *n (mamma so'zining qisqartirilgan shakli) oyi, ona*
- ma'am** [mæm, ma:m] *n (madam so'zining qisqartirilgan shakli) xonim, bekam*
- mac** [mæk] *n (mackintosh so'zining qisqartirilgan shakli) makintosh (nam o'imaydigan matodan tikilgan yengil palto)*

- macabre [mə'kə:bṛ(ə)] *a fr.* 1) qayg'uli, g'amgin; 2) dahshatli, vahimali; **dance** ~ o'lim raqsi
- macaco [mə'kerkəvə] *n zool.* lemur
overrate [əʊvə 'reɪt] *v* oshirib (ortiqcha) baho bermoq, yugori baholamoq
overreach [əʊvəri:tʃ] *n* 1) makkorlik, ay-yorlik, hiylagarlilik, makr, hiyla; 2) chalishish (*otlar illati*)
override [əʊvə 'raɪd] *v* 1) rad etmoq, e'tiborga olmaslik; 2) bosib olmoq, bosib ketmoq
overriding [əʊvə 'raɪdn̩] *a* birinch'i darajali, eng ahamiyatli, juda muhim, eng zarur
overrule [əʊvə 'ru:l] *v* hokimlik (hukmronlik) qilmoq, hokim (hukmron) bo'lmoq
overrun [əʊvə 'rʌn] *v* (**overran**; **overrun**) toshib ketmoq, toshmoq
oversaw [əʊvə 'sɔ:] *past of oversee*
oversea(s) [əʊvə 'si:(z)] *a* dengiz ortidan; dengiz ortida; boshqa mamlakatlarda; ~ trade tashqi savdo
oversee [əʊvə 'si:] *v* (**oversaw**; **overseen**) nazorat qilib (ko'rib) chiqmoq
overseen [əʊvə 'si:n] *p. p. of oversee*

overseer [əʊvər'sɪə] *n* kuzatuvchi, nazoratchi, nazorat qilib (qarab) turuvchi
overshadow [əʊvər 'sæðəʊ] *v* 1) to'smoq, pana (qorong'i) qilmоq; qoplah olmoq; 2) saqlamoq, ehtiyyot qilmоq
overshoe [əʊvəsəʊ:] *n* kalish; botik
oversight [əʊvəsait] *n* e'tiborsizlik, diq-qatsizlik, xato qilishlik
over-simplify [əʊvər'simplifɪs] *v* 1) haddan tashqari soddalashtrimoq, osonlashtirmoq; 2) yuzakilashtirmoq, sayqallashtirmoq
oversleep [əʊvər 'slɪ:p] *v* (overslept) uxlab qolmoq, odatdagidan ko'proq uxlamoq
overslept [əʊvər slept] *past., p. p. of oversleep*
overstate [əʊvər 'steɪt] *v* ortitrib (bo'rttirib) yubormoq; bo'rttirib (oshirib) ko'rsatmoq
overstep [əʊvər 'step] *v* 1) oshirib yubormoq; chegaradan chiqmoq; 2) hatlamoq, hatlab o'tmoq
overstrain [əʊvər 'streɪn] *v* juda charchatmoq (toliqtimoq), madorini quritmoq
overstrung [əʊvər strʌŋ] *a* juda tarang (*asab haqida*)
overt [əʊvə:t] *a* ochiq, oshkora; ochiqdan ochiq, ro'yirost
overtake [əʊvər 'teɪk] *v* (overtook; overtaken) yetib olmoq, quvib yetmoq
overtaken [əʊvər 'teɪken] *p. p. of overtake*
overtax [əʊvər 'tæks] *v* 1) yuk bo'lib tushmoq, og'irlashtirmoq; 2) soliqlar bilan qiyinab qo'yimoq
overthrew [əʊvər 'θru:] *past. of overthrow* 2
overthrow 1. *n* [əʊvərθrəʊ] ag'darish, yiqitish, qulatish; 2. *v* [əʊvərθrəʊ] (*overthrew; overthrown*) ag'darmoq, qulatmoq, yiqitmoq
overthrown [əʊvər 'θrəʊn] *p. p. of overthrow* 2
overtime [əʊvət�rm] *adv* ish vaqtidan tashqari
overtone [əʊvətəʊn] *n* 1) mus. oberton (*asosiy tonga alohida tus beruvchi qo'shimchasi*); 2) ma'no, mohiyat
overtook [əʊvər 'tuk] *past. of overtake*
overture [əʊvətjʊə] *n* 1) zondlash (*ichki a'zolarni naychimon asbob bilan tekshirish yoki davolash*); 2) sinov shari (*ob-havo sharoitini tekshirib ko'rish uchun havoga uchiriladigan shar*); 3) tashabbus, g'ayrat, harakat; 4) mus. overtura (*orkestr uchun yozilgan sonata shaklidagi mustaqil konservtasasi*); 5) do'stona munosabatlarni bog'lash uchun harakat qilish
overturn 1. *n* [əʊvətɜ:n] yuqorida tashash, qulatish, tashlab yuborish; 2. *v* [əʊvətɜ:n] yuqorida tashlamoq, qulatmoq, tashlab yubormoq

overvalue [əʊvər 'væljū:] 1. *n* yangidan baho qo'yish, qaytadan narx belgilash; 2. *v* ortiqcha baho bermoq, bahosini oshirib yuborish
overweening [əʊvər wi:nɪŋ] *a* o'ziga juda bino qo'ygan, o'ziga ortiq darajada isnongan
overweight [əʊvər 'weɪt] *a* ortiqcha vaznli, og'ir
overwhelm [əʊvər 'welm] *v* 1) to'lдirmoq, ko'mmoq, to'lдirib (ko'mib) qo'ymoq; 2) suv boстirmoq, suv toshrimoq; 3) savol yog'dirmoq, savolga ko'mib tashlamoq
overwhelming [əʊvər 'welmin] *a* behisob, son-sanoqsiz, beedad, bitmas-tuganmas
overwork [əʊvər wɜ:k] *v* haddan tashqari ko'p ishlarmoq, madori qurimoq, holdan toymoq
overwrought [əʊvər rɑ:t] *a* 1) ishlab qattiq charchagan, holdan toygan, madori qurigan; 2) asabiy holatda, asabiylashayotgan
ovum [əʊvəm] *n* biol. tuxum, hujayra
owe [əʊ] *v* 1) qarz bo'lmоq, kimdandir qarzdor bo'lmоq; 2) minnatdoz bo'lmоq
owing [əʊɪŋ] *a* to'lanmagan, qarzdor
owing to [əʊɪŋtʊ] *prep.* sababli, tufayli, uchun, natijasida, sharofati bilan
owl [əʊl] *n* zool. boyqush, boyo'g'li
own [əʊn] 1. *v* egallamoq, ega bo'lmоq; 2. *a* o'ziniki
owner [əʊnə] *n* xo'jayin; egasi, sohib
ownerless [əʊnələs] *a* 1) egasi yo'q, hech kimda qarashli bo'lmagan; 2) qarovsiz qolgan, nazoratsiz, egasiz, xarob; 3) boqimsiz, uysiz, boshpanasiz, ko'chada qolgan
ownership [əʊnəsʃɪp] *n* 1) mulk, mulkchilik, egalik, egalik huquqi; 2) ega bo'lish, egalik qilish
ox [əks] (*pl. oxen*) *n* zool. buqa, ho'kiz
oxalic [ək'sælik] *a* kim. shovulga oid, shovuldan tayyorlangan
oxbow [əksbəʊ] *n* 1) bo'yinturuq; 2) asorat, jabr-zulm, sirtmoq; 3) eski o'zan (qurib qolgan daryo o'zani); 4) daryo (*yoki ko'l*) qo'ltig'i
oxen [əks(ə)n] *n* 1) *pl. of ox*; 2) shoxli mol
oxherd [əksha:d] *n* cho'pon, podachi
oxidate [əksɪdeɪt] = **oxidize**
oxidation [əksɪ'deɪʃ(ə)n] *n* kim. oksidlash; oksidlanish
oxide [əksaɪd] *n* kim. oksid (*kimyoiy elementlarning kislород bilan birikmasi*)
oxidize [əksɪdaɪz] *v* kim. oksidlamoq, oksidlanmoq
oxter [əkstə] *1. n* shotl. qo'ltiq, yelkaning ichki qismi; 2. *v* 1) qo'ltig'idan yoki qo'lidan ushlab tutib turmoq, ko'tarib turmoq; 2) quchoqlamoq, bag'riga bosmoq

oxygen [’oksidz(ə)n] *n* kim. 1) kislorod; 2) attr. kislorodga oid, kislorodli

oxygenate [ok’sidzneit] *v* 1) oksidlamoq; 2) kislorodga to’yintirmoq

oxygenous [ok’sidzənəs] *a* kislorodga oid, kislorodli

oxygen [’oksigon] *n* o’tkir burchakli uch-burchak

oyster [’ɔstə] *n* chig’anoq, yesa bo’ladigan dengiz molluskasi

ozocerite, ozokerite [’o:zərɪt] *n* min. ozokerit, tog’ mumi

ozone [’əuzəun] *n* kim. ozon (*kislodning uch atomli molekulasidan iborat gaz, kislodning bir ko’rinishi*)

ozonize [’əuzə(u)naiz] *v* kim. 1) ozonga aylantirmoq, ozonlamoq; 2) ozon ta’sirida (ozonlab) tozalamoq

P

P, p [pi:] *n* ingliz alifbosining o’n oltinchi harfi; *to mind one’s P’s and Q’s* ehtiyoj bo’lmoq, birovning ishiga aralashmaslik

pa [pa:] *n* („papa“ ning qisqartmasi) so’zl. ota, dada, ada, dadajon

pabular(y) [’pæbjulə(r)n] *a* 1) oziq-ovqatga oid, oziq-ovqat. 2) yeyiladigan, ovqatga ishlatalidagan

pabulum [’pæbjuləm] *n* ko’ch. oziqa, manba, material

pace I [peis] 1. *n* 1) qadam, yurish; snail’s ~toshbaqa qadarni; 2) qadamning uzunligi; 3) tezlik; *to go ~ yeldekkuchmoq, yeldekkuchmoq* (tez) ubich bormoq, *to keep ~ with kim bilandir baravar* (teng, bir qatorda) yurmoq, bormoq; 4) yo’rg’ alash, yo’rg’ alab yurish; 2. *v* qadam tashlamoq

pace II [peisi] *adv* lot. kimningdir ruxsat bilan

pace-maker [’peis,meikə] *n* 1) peshqadam (*yugurish va b. da*); 2) *tib.* elektrokardiostimulator

paccer [’peisə] *n* yo’rg’ a (ot)

pacha [’po:ʃə, po’ʃə:tur] tur. podsho (*Turk sultonligida va Misirda generallar, a’yonlar ning oliy unvoni va shu unvonni olgan kishi*)

pachyderm [’pækidz:m] *n* zool. qalin terili hayvon

pachydermatous [,pækɪd’ðɜ:mətəs] *a* zool. terisi qalin, qalin terili

pacific [pa’sifik] *a* sokin, tinch, osoyishta;

~ally tinchlik bilan; *the Pacific* Tinch okeani

pacification [’pækɪfɪ’keiʃən] *n* tinchitish, tinchlantirish, yupatish, ovutish, taskin (orom) berish

pacifier [pə’sifikeitə] *n* tinchlik o’matuvchi shaxs

pacificatory [pə’sifkat(ə)rɪ] *a* 1) murosasoziikkiga oid, murosaga keltiradigan, yarash-tiradigan, kelishitiradigan; 2) ko’ngilini tinchlantiradigan, yupatadigan, xotirjam qiladigan

pacifism [pə’sifisiz(ə)m] = pacifism

pacifist [pə’sifist] = pacifist

pacifism [’pæsfiz(ə)m] *n* patsifizm (*har qanday urushlarga, jumladan, milliy ozodlik urushlariga ham qarshi chiqadigan, tinchlikni passiv ravishda targ’ib qiladigan kishilar harakati*)

pacifist [’pæsfist] *n* patsifizm tarafdoi

pacify [’pæsfai] *v* tinchlantirmoq, yupatmoq, ovutmoq, xotirjam qilmoq

pack [pæk] 1. *n* 1) qog’ozga o’ralgan narsa, tugun; 2) to’da; *a ~ of wolves bo’rilar to’dası; a ~ of crooks mayda o’g’rilar to’dası; a ~ of lies nuqul (butkul, boshdan-oyoq) yolg’on*; 2. *v* 1) joylamoq, joylashtirmoq, biror idishga solib qo’ymoq; 2) to’daga birlashtirmoq (*bo’rilar, qushlar va b. lar to’g’risida*)

package [’pækidz] *n* 1) toy, tugun, bo’xcha; 2) dasta, bog’lam, taxlam; 3) posilka; 4) qog’ozga o’ralgan narsa; 5) sigareta qutisi; 6) jolash, o’rash, solish

packaged [’pækidzəd] *a* o’ralgan, solingen, joylashtirilgan

package holiday [’pækidz,holidi] *n* barcha xizmatlar uchun oldindan birdaniga to’lanadigan turistik sayohat

packager [’pækidzə] *n* amer. radio, tlv. dasatur tuzuvchi (tayyorlovchi) kishi

packaging [’pækidzinq] *n* joylash, o’rash, solish

pack-animal [’pæk,ænim(ə)] *n* yuk tashuvchi hayvon

packed [’pækt] *a* 1) joylashtirilgan, toylashirilgan; toylangan; 2) o’ralgan, solingen

packer I [’pækə] *n* 1) o’rab joylaydigan kishi, qadoqlovchi; 2) joylovchi, toylovchi

packer II [’pækə] *n* so’zl. g’irrom, tirriq, muttaham, qallob kishi

packet [’pækɪt] *n* paket, idish, tuguncha

packet-boat [’pækɪt,bəut] *n* pochta yulalarini va passajirlarini tashiydigan kema

pack-horse [’pækho:s] *n* yuk tashiydigan ot, ishchi ot

pack-ice [’pækɪs] *n* pak (*qutb suvlarida suzib yuradigan ko’p yillik qalin muz*)

packing [’pækɪŋ] *n* 1) joylash, o’rash, solish, joylashtirish; 2) ma’lum tartibda taxlash, taxlab qo’yish, g’aram qilish

packing-case [’pækɪŋkeis] *n* joylash uchun mo’ljallangan quti

- packing-needle** [ˈpækɪŋ,nɪ:dl] *n* o'ralgan narsani tikadigan igna
- packing-sheet** [ˈpækɪŋfi:t] *n* o'rash uchun ishlatalidigan bo'z
- packman** [ˈpækmen] *n* (*pl.*-*men* [-mən]) ta-shuvchi, yetkazib beruvchi, tarqatuvcchi
- pack-running** [ˈpæk,rənɪŋ] *n* 1) poda-poda (gala-gala) bo'lib yashash; 2) *ko'ch.* ongsiz ravishda ko'pchiilikka ergashish
- pack-saddle** [ˈpæk,sædł] *n* yuk ortiladigan egar
- packthread** [ˈpækθred] *n* ingichka arqon, kanop, chilvir, kanop ip
- pack-train** [ˈpæktreɪn] *n* yuk tashiydigan karvon
- pact** [pækt] *n* ahdnoma, shartnoma, xalqaro bitim; a **non-aggression** ~ hujum (tajovuz) qilmaslik haqida bitim; to enter into a ~ shartnoma tuzmoq
- pad I** [pæd] *n* 1) yumshoq egar; 2) yumshoq qistirma (ikki narsa orasiga qistirib qo'yilgan narsa); 3) yostiq, yostiqcha, yostiqsimon yumshoq narsa
- pad II** [pæd] *n* to'qilgan savat (*o'lchov si-fatida*)
- padded** [ˈpædɪd] *a* qoqib qo'yilgan, qoqib tashlangan
- padding** [ˈpædɪŋ] *n* 1) tiqb to'ladirish; 2) tiqb to'ladirigandan narsa; tiqma material; 3) vatin
- paddle** [ˈpædl] *1. v* eshkak eshmoq; *2. eshkak, chovxoda, chov*
- paddle-boat** [ˈpædl,bəut] *n* g'ildirakli paroxod
- paddle-box** [ˈpædlboks] *n* eshkak parraging g'ilofi
- paddle-wheel** [ˈpædlwi:l] *n* eshkak parakk (*kemalarda*)
- paddling pool** [ˈpædlɪnpu:l] *n* so'zl. bolalar che'miladigan hovuzcha
- paddock** [ˈpædk] *n* 1) ihota qilingan (*o'rangan*) yaylov; 2) o'tar, qo'ton, molxonha
- Paddy** [pædi] *so'zl.* Peddi (*irländiyalik-larning hazillashib chaqiradigan lagabi*)
- paddy I** [pædi] *n* ishllov berilmagan guruch
- paddy II** [pædi] *n* so'zl. 1) qattiq g'azab, qahr; 2) g'azabning avj olishi, o'ta g'azablanish
- paddywhack** [ˈpædiwæk] = **paddy II**
- padishah** [ˈpædɪʃa:] *n* fors. podsho, podshoh
- padlock** [ˈpædlɒk] *1. n* osma qulf; *2. v* osma qulf bilan bekitmoq
- padre** [pɑ:dr(e)] *n* isp. katoliklar ruhoniysi
- padrone** [pɑ:ˈdrəʊni] *n* it. (*pl.*-*ni* [-ni:]) 1) mehmonxonha xo'jayini; 2) (*O'rta Yer den-gizi saydo kemasining*) kapitani
- padroni** [pəˈdrəʊni:] *pl* of padrone
- padronism** [pəˈdrəʊnɪzəm] *n* ko'chadagi mu-siqachilarning mehnatidan foydalanish
- padshah** [pɑ:dʃa:] = **padishah**
- paeon** [pi:ən] *n* *qad.* grek. g'alaba qo'shig'i
- paederasty** [pedərəstɪ] *n* bolabozlik, barchabozlik, besoqolbozlik
- paediatrician** [pi:dɪətrɪkɪən] *n* pediatr, pediatriya mutaxassisasi, bolalar shifokori
- paediatrics** [pi:dɪə'trɪks] *n* pediatriya (*bolalar kasallikkari va ularni davolash haqidagi fan*)
- paedology** [pi:dələdʒɪ] *n* pedologiya
- pagan** [peɪgən] *1. n* 1) majusiy, butparast; 2) xudoga (dinga) ishommaydigan, dinsiz kishi; 2. a majusiylikka (majusiy larga, butparastlikka, butparastlarga) oid
- pagandom** [peɪgəndəm] *n* majusiylik, butparastlik
- paganish** [peɪgənɪʃ] *a* butparastlikka oid
- paganism** [peɪgənɪz(ə)m] *n* butparastlik, majusiylik
- paganize** [peɪgənaɪz] *v* butparastlikka murojaat qilmoq
- page I** [peɪdʒ] *1. n* sahifa, bet; 2) *poligr.* terilgan yoki bosilgan main sahifasi
- page II** [peɪdʒ] *n* xizmatkor bola
- pageant** [pædʒ(ə)nt] *n* dabbabali tomosha, karnaval namoyishi
- pageantry** [pædʒ(ə)ntri] *n* jozibali manzara, dabbabali tomosha
- pagehood** [peɪdʒhʊd] *n* mahramlik, xizmatkorlik davri
- pager** [peɪdʒə] *n* peyjer (*xizmatchilarni chaqirish uchun mo'ljallangan kichik hajmadigi moslama*)
- pagina** [pædʒɪn(ə)] *a* betlar bo'yicha bajariladigan, har beti ko'zda tutilgan
- paginate** [pædʒɪneɪt] *v* sahifalariga raqam qo'yib chiqmoq
- pagination** [pædʒɪ'nɛɪʃn(ə)] *n* betlarni raqamlash
- pagoda** [pə'gədə] *n* 1) pagoda (*Qadimgi Hindistonning ibodatxonasi rasmi tushirilgan tilla yoki kumush tangasi*); 2) ibodatxona, budda dini ibodatxonasi; 3) gazeta, tabaka va b. sotiladigan kichkinan do'koncha
- pagoda-tree** [pə'gədətri:] *n* bot. hind anjirining daraxti
- pagurian** [pə'gju(ə)nən] *a* zool. qisqichba-qasimonlarga oid
- pan I** [pa:] *int.* 1) tuf, tfu; 2) tuf, tuf-e, tuf-a (*qattiq noroziligid, nafratlanish ma'nosida*)
- pan II** [pa:] *n* mustahkamlangan mahalliy qishloq (*Yangi Zelandiyada*)
- paid** [peɪd] *a* 1) ijaraqaga olingen, yollangan, kiraga olingen, kira qilingan; 2) to'langan (*haq, xarajat, soliq va b. haqida*)

paid-in [peɪd ɪn] *a to'langan, to'lab qo'-yilgan, topshirilgan (pul haqida)*

paid-up [peɪd-ʌp] *a puli to'langan, puli berilgan*

pail [peɪl] *n 1) chelak, paqir, satil; 2) pastak yog'och idish, bak*

painful [peɪflʊl] *n ichi to'ldirilgan chelak*

pailles [pæhæs, pæl ʃæs] *n poxol to'shak*

paillette [pæl'jet] *n 1) emalga qo'shiladigan zar qog'oz; 2) yaltiroq tangachalar*

pain [peɪn] *n og'riq, dard; alam, g'am, ranj, qayg'u; to register ~ og'riq sezmoq; to be in ~ biror kasalga yo'liqmoq (uchramoq, duchor bo'lmoq); to give one ~ so'zl. kimnidir ranjtimoq (xafa qilmamoq); to take ~ hafsala (harakat, qunt) qilmamoq, tirishmoq, urinmoq, intilmoq*

pained [peɪnd] *a xafa bo'lgan, ranjigan; she looked ~ uning qiyngalani (xafa bo'lGANI) yuzidan ko'rinih turardi*

painful [peɪnf(ə)l] *a azob beradigan, og'ritadigan, og'rig'i zo'r, alamlı; a ~ problem mushkul (qiyan, chigal) masala*

pain-killer [peɪn,kɪlə] *n so'zl. og'riqni qoldiradigan doiri-darmon*

painless [peɪnləs] *a og'riqsiz, og'ritmaydigan, bezozor; ~ dentistry tishni og'riqsiz davolash yoki olib tashlash*

pains [peɪnz] *n 1) erishish, muvaffaq bo'lish, qozonish; 3) urinish, tirishish, harakat (hafsala) qilish; 3) harakat, hafsala, qunt; 4) harakatchanlik, tirishqoqlik*

painstaking [peɪnz,teɪkɪŋ] *1. n urinish, tirisshish, harakat qilish; 2. a harakatchan, tirishqoq, serharakat; a ~ job ko'p mehnat talab qiladigan (sermashaqqat, mashaqqatli) ish*

paint [peɪnt] *1. n bo'yoq; 2. v bo'yamoq, chizmoq; tasvirlamoq; wet/fresh ~ (e'lon) ehtiyyot bo'ling, bo'yalgan; to ~ in bright colours yarqiragan (ochiq) ranglar bilan tasvirlamoq*

paint-box [peɪntboks] *n bo'yoq qutisi*

paintbrush [peɪntbrʌʃ] *n cho'tka, mo'yoqalam*

painted [peɪntid] *a bo'yalgan, bezatilgan*

painter I [peɪntə] *n 1) rassom, musavvir; 2) bo'yoqchi*

painter II [peɪntə] *n deng. falin (qayiqni biror narsaga bog'lash uchun ishlataladi-gan arxon)*

painter III [peɪntə] *n amer. shev. puma (Amerika yovvoyi mushug'i)*

painting [peɪntɪŋ] *n 1) musavvirlilik (rasomlik) san'ati; 2) rassomlik; 3) rassomlik san'ati asarlari; 4) rasmlar, tasvirlar*

painty [peɪnti] *a 1) yangi bo'yalgan; ~ smell bo'yoq hidi (isi); 2) keragidan ko'p rang berilgan*

pair [peə] *1. n 1) juft; qo'sh; in ~s juft-juft bo'lib; 2) ikkita qismdan iborat bo'lgan narsa; a ~ of scissors qaychi; 2. v 1) juftlamoq; 2) nikohlamoq; to ~ off 1) juft-juft (ikkitadan) bo'lib bo'linmoq; juft-juft (ikkitadan) bo'lib chiqib ketmoq; 2) so'zl. uylanmoq, turmushga chiqmoq (*with*)*

pair- [-peə] *murakkab so'zlarda xona (bo'lma, uy) tarjimalarini beradi; mas., four-pair front to'trinchi qavatdag'i oynalari ko'chaga qaragan xona*

pair-horse [peəho:s] *a 1) juft, juft bo'lib; 2) qo'sh otli, ikki ot qo'shilgan*

pair-oar [pe(ə)rɔ:] *n sport. ikki eshkakli qayiq*

pajamas [pə'dʒə:məz] *n pl pijama (ko'pincha, kurtka va shimdan iborat uy kiyimi)*

Pakistani [pækɪ'stā:nɪ] *1. n pokistonlik erkak, pokistonlik ayol; 2. a Pokiston va pokistonliklarga oid*

pal [pæl] *n so'zl. oshna, og'ayni, jo'ra, o'rtoq, do'st; to ~ up with (to) kim biladir do'stlashmoq*

palace [pælɪs] *n saroy, qasr, hashamatli uy, koshona*

paladin [pælədɪn] *n tar. paladin (o'rtalarda saroy a'yon, jasur ritzar)*

Palaeogene [pælēəʊdʒi:n] *n geol. paleogen (kaynozoy erasining birinch'i davri)*

palaeographer [pælə'ɒgrəfə] *n paleograf, paleografiya mutaxassis*

palaeography [pælə'ɒgrafi] *n paleografiya (qadimgi qo'lyozmalarning xati va tashqi ko'rinishlarini o'rganuvchi fan)*

palaeolithic [pælē'əθik] *a paleolitga oid, paleolit...; the P. age paleolit davri (eng qadimgi tosh davri)*

palaeontology [pælēon'tolədʒi] *n paleontologiya (yer geologik tarixining qadimgi davrlarda yashagan va toshqotgan hayvon va o'simliklar haqidagi fan)*

Palaeozoic [pælē'əzɔɪk] *a geol. paleozoy erasi (yer geologik tarixining mezozoy erasidan oldingi uchinchi erasi)*

palankeen [pælən'ki:n] *n 1) taxtiravon; 2) zambil*

palanquin [pælən'ki:n] = **palankeen**

palatable [pælətəb(ə)l] *a 1) mazali, lazatlil, totli, shirin, xushbo'y; 2) yoqimli, yoqimtoy, dilkash*

palatal [pælətl] *a 1) tanglayga oid, tanglay...; 2) fon. yumshoq, yumshalgan*

palatalization [pælətələz'zeif(ə)n] *n fon. yumshatish (tilning o'rtal qismi yuaori tanglayga ko'tarilishi natijasida undosh tovushlarning yumshalishi)*

palatalize [pælətəlaɪz] v yumshatmoq, mu-
loyim qilmoq
palate [pælit] n 1) *anat.* tanglay; 2) havas,
qiziqish, ishtiyog
palatial [pæl'leɪʃ(ə)n] a 1) saroyga oid;
2) dabdabali, hashamatli, muhtasham
palatine [pælətæn] a *anat.* tanglayaga oid;
~ bones tanglay suyaklari
palaver [pɑ:lə'ver] 1. n 1) kengash, kengash
majisi; 2) bekorchi gap, safsata; 3) yolg'on
so'zlar; 2. v 1) bekorchi gaplarni gapirmoq;
2) gapni boshqa yoqqa burmoq
pale I [peɪl] 1. n 1) qoziq, qoziqpoya; 2) che-
gara, chiziq; 2. v aylantirib o'rab olmoq,
atrofini o'rab ajratmoq
pale II [peɪl] 1. a rangi o'chgan, rangsiz; to
be ~ with ...dan rangi oqargan; 2. v rangi
o'chmoq, oqarib (bo'zarib) ketmoq
paleaceous [peɪl'eɪsɪəs] a choriga, to'ponga
oid
pal-e-face [peɪlfɛs] n rangi o'chgan (ketgan,
oqargan, bo'zargan) odam
Palestinian [pæl'ə stinɪən] 1. a Falastin va
falastinliklarga oid; 2. n Falastin aholisi
paletot [pælətəʊ] n fr. keng palto
palette [pælət] n palitra (*musavvirlarning*
bo'yiq qoradigan taxtasi)
palfrey [pɔ:lfrɪ] n esk. shoir. miniladigan ot
Pali [pa:li] n pali (*hind shevasi*)
palimpsest [pælɪmpest] a avvalgi mat-
ning o'miga yozilgan
palindrome [pælɪndrɔm] n *adab.* palindrom
(*boshidan ham, oxiridan ham bir xil o'qiladi-*gan so'z yoki birikma)
palling [pɛllɪŋ] n qadimgi qal'a devori (zich
qoqligan, yuqori qismi uchli qoziqlardan
iborat yog'och devor)
palinode [pælinəud] n grek. o'zining ayt-
gan so'zidan kechish
palisade [pælɪs'eɪd] n 1) qoziqdevor; 2) yo-
g'och qal'a devori
palisander [pælɪ'sændə] n palisandr (*issiq*
mamlakatlarda o'sadigan ba'zi daraxt-
larning pishiq va qimmatbaho yog'ochi)
palish [pɛlli] a rangi oqargan, rangi o'ch-
gan
pall I [pɔ:l] n parda, darparda; a ~ of smoke
tutun qatlarni
pall II [pɔ:l] v ionga tegmoq, bezor qilmoq
palladium [pɔ:leidəm] n kim. palladiy (*pla-*
tina rudasida uchraydigan kumush tusli
nodir metalli)
pallet I [pælit] n yotish uchun poxoldan
qilingan joy
pallet II [pælit] n taglik (*biror narsaning*
tagiga qo'yildigan buyum)
pallet-bed [pælitbed] = pallet I

pallia [pælɪə] pl of **pallium**
palliasse [pælɪæs] n poxol to'shak
palliate [pælti'eit] v 1) (*og'rinqi*) vaqtinchalik qoldirmoq; 2) (*jinoyatni, aybni*) yengillash-tirmoq
palliation [pælɪ'eɪʃ(ə)n] n 1) (*og'rinqi*) vaqtinchalik qoldirish; 2) (*aybni, jinoyatni*) yengillashtirish
palliative [pælɪ'tiətɪv] 1. a 1) palliativ (*kasalga vaqtinchalik yengillik beruvchi dori*)ga
oid; palliativ...; 2) yumshatadigan, yumshoq (muloyim) qiladigan, pasaytiradigan,
kamaytiradigan; 2. n palliativ (*kasalga vaqtinchalik yengillik beruvchi dori*)
pallid [pælid] a murdadek rangi o'chgan
pallidness [pælidnəs] n haddan tashqari
(vhahimali) rangsizlik
pallium [pælɪəm] n lot. (pl -lia [-lɪə])
1) plash; 2) yelkaga tashlanadigan yengsiz
keng kiyim
pallor [pælər] n rangsizlik, rangi o'chganlik
palm I [pɔ:m] 1. n 1) kaft; hovuch; 2) chov-
xoda (eshkak)ning kafti (qanoti); 2. v (*qarta*
va b. ni) kaftiga yashirmoq
palm II [pɔ:m] 1. a bot. 1) palma, palma
daraxti; 2) palma daraxting novdasi;
2. attr. palma daraxtiga oid, palma darax-
tidan qilingan, palma daraxtidan olingan
palmaceous [pɔ:meɪʃəs] a bot. 1) palma
daraxtiga oid; palma ...; 2) palma darax-
tidan qilingan (olingan)
palmary [pælm(ə)rɪ] a birinchi o'rinni (bi-
rinchilikni) bersa bo'ladigan, g'olib bo'-
lishga arziyidigan; juda yaxshi, ajoyib
palmate ['pælmət] a bot. barmoqsimon,
panjasimon, shapaloq...
palm-cat [pɔ:mkæt] = palm-civet
palm-civet [pɔ:m'sivɪt] n zool. palma suv-
sari
palmchrist ['pɔ:mkrɪst] n hot. kanakunjut
palmer [pɔ:ma] n 1) ziyoratchi, hoji; 2) ka-
palakning tuxumdan chiqqan qurti
palmetto [pæl'metəʊ] n bot. (pl -os [-əʊz])
bo'yli past palma
palmiped(e) ['pælmɪpə(-pi:d)] 1. n zool.
tutash panjali qush; 2. a zool. tutash pan-
jali
palmist [pɔ:mɪst] n xiromant, folbin
palmistry ['pɔ:mɪstri] n folbinlik (*kaf'dagi*
chiziqlarga qarab fol ochishdan iborat
firibgarlik)
palm-oil [pɔ:mɔɪl] n 1) palma moyi; 2) so'zl.
pora
palm-tree [pɔ:mtri:] n palma daraxti
palm-worm ['pɔ:mwɔ:m] n kapalakning
tuxumdan chiqqan qurti

palmy [pa:mı] a palma daraxtiga oid, palma daraxti

palp [pælp] n zool. paypaslagich, qisqich (ba'zi hasharot va hayvonlarning mo'y-lovsimon qo'llari)

palpability [,pælpə'bilitı] n 1) sezilish, sezilish mumkinlik, seziluvchanlik; 2) aniqlik, ayonlik

palpable [pælpəb(ə)l] a 1) sezilarli, sezib bo'ladijan, sezish mumkin bo'lgan, ko'zga ko'rinarli; 2) aniq, oydin

palpal [pælpal] a zool. sezadigan, sezish uchun xizmat qiladigan, seuzvchi, sezish... **palpate** [pælpet] v 1) tib. (bemorning og'-rigan joyini barmoqlar bilan) paypaslab ko'rmoq; 2) paypaslamoq, ushlab ko'rmoq; paypaslab ko'rmoq

palpation [pæl' pej(ə)n] n tib. paypaslash (kasal joylarni barmoqlar hilan paypaslab ko'rish usuli); 2) paypaslash, ushlab ko'rish, paypaslab ko'rish

palpitate [pælpit'eit] v qaltilramoq, titramoq

palpitation [pælpɪ'teɪʃ(ə)n] n tomir urishi, tomir tepishi, yurakning (qon tomirining) tepih turishi; 2) qaltilash, titroq

palpi [pælpai] pl of palpus

palpus [pælpus] n (pl -pi [-pai]) = palp

palsied [pɔ:lzid] a falaj, shol, falaj (shol) bo'lgan

palsy [pɔ:lzı] 1. n paralich, shol, falaj; 2. v falaj (shol) qilmoq

palter [pɔ:ltə] v 1) ikkiyuzlama(chi)lik (munofiliqlik) qilmoq, bilib turib yolg'on gapirmoq; 2) mug'ambirlik (ayyorlik) qilmoq

paltry [pɔ:ltırı] a arzimagan, ahamiyatsiz, mayda-chuyuda

pampas [pæmpas] n pl pampa (Janubiy Amerika dashi)

pamper [pæmpər] v erkalamoq, suymoq, erkalamoq, erka qilib o'sirmoq

pamphlet [pæmfli:t] n 1) risola; 2) pamphlet (biror shaxsga, ijimoiy tuzumga yoki hayingim ayrim illatlariga qarshi qaratilgan o'tkir satirik, baditiy-publisistik asar)

pamphleteer [pæmfli:tə] n 1) pamphletchi, pamphlet yozuvchi; 2) pamphlet yozmoq

pan [pæn] n 1) kastrulka; 2) kosa; 3) tos, jom, tog'ora, tunuka, tova

panacea [pænə'sıə] n panatseya (alkimyo-garlar tomonidan go'yo har qanday kasa-salga davo deb qaratilgan dori)

panache [pa'næ], [pæ-] n 1) o'zini ko'rsatish (ko'z-ko') qilish; 2) maqtanchoqlik, maqtanishlik

panama [pænə'ma:] n 1) panama (serbar soyabonli yozlik shlapa); 2) panama (oliy

mansabdorlarni pora bilan sotib olish kabi yirik firibgarliklar)

panatela [pænə:tələ] n ingichka uzun sigara

pancake [pænkeɪk] n blin (quymoqsimon xamir ovqat)

pancratium [pæn'kreɪʃəm] n yun. kurash va boks musobaqasi

pancreas [pænkrɪəs] n anat. oshqozonosti bezi, me'da ostidagi bez

panda [pændə] n zool. mushuksimon ayiq, panda

pandect [pændekt] n (odat., pl) qonunlar to'plami (majmuasi)

pandemic [pæn'demik] n tib. pandemiya (katta hududlarga tarqaladigan epidemik kasallik)

pandemonium [pændə'məniəm] n 1) do'zax, jahannam; 2) to's-to'polon, shovqinsurron

pander [pændə] n 1) qo'shmachi, dalla; 2) sherik, hamtovoq

pane [pein] n deraza oynasi

panegyric [,pæn'ɪdʒɪrik] 1. n maqtov, madhiya, haddan tashqari maqtov; 2. a maqtaligan, ko'klarga ko'tarilgan

panegyrical [,pæn'ɪdʒɪrik(ə)l] a maqtovga (madh qilishga) oid; maqtovli, maqtovdan iborat, maqtov (madhiya)..

panegyrist [,pæn'ɪdʒɪrst] n maddoh, madhiyachi, madh etuvchi odam

panegyrize [,pænɪdʒɪraɪz] v juda maqtamoq, qasf etmoq, maqtab ko'klarga ko'tarmoq, tasanno o'qimoq

panel [pænl] n 1) filyonka (bir rom yoki rankaga o'rnatilgan yupqa taxta yoki fanel); 2) panel (devorlarning pastki qismini yog och-taxta bilan qoplash yoki bo'yab yo'yish); 3) panno (1. rasm yoki naqshlar bilan bezatilgan devor yoki ship; 2. devoring biror qismini egallab turadigan katta rasm); 4) ro'yxat; 5) komissiya; 6) mutaxassislar guruhi; 7) radio yoki teleeshitirish ishtiroychiklari

pang [pæn] n to'satdan paydo bo'lgan qat-tiq (kuchli) og'riq

pangolin [pæn'gəulin] n zool. yashcher (asosan, Afrika va Janubiy Osiyoda bo'ladigan kaltakesakka o'xshagan yirik sute-mizuvechi hayvon)

panhandle [pæn,hændl] n kastrulkaming dastagi

panhandlers [pæn,hændlə] n amer. so'zl. gadoy, tilanchi, sadaqachi

panic [pænik] 1. n vahima, sarosima, hayjon, dahshat; 2. v qo'rqtimoq, vahimaga tushmoq (solmoq)

- panicky** [pænɪkɪ] *a so'zl. darrov vahimaga tushadigan, qo'rqaq, yuraksiz*
- panicle** [pænɪk(ə)l] *n bot. ro'vak, popuk*
- panic-monger** [pænik,mæŋgə] *n vahimachi*
- panic-stricken** [pænik,strikən] *a sarosimaga tushgan, vahima bosgan*
- paniculate** [pænɪklju:tət] *a bot. popukli, ro'vakli*
- panne** [pæn] *n panbarxat, ipak, baxmal*
- pannikin** [pænɪkɪn] *n tunuka krujka; kastrulka; kosa*
- panoppled** [pænəplid] *a to'la qurollangan holda, shaylanib, tayyor turib*
- panoply** [pænəpli] *n yarog'-aslaha, qurolyarog'*
- panorama** [pænərəʊmə] *n panorama, manzara, ko'rinish*
- panoramic** [pænərə'metik] *a panoramaga oid; panoramali, panorama...*
- panpipe** [pænpaip] *n mus. sibizg'a (nay); burg'u*
- pansy** [pænzɪ] *n bot. kapalakgul, farang, binafsha*
- pant** [pænt] *v hansiramoq, harsillamoq, nafasi qaytmooq*
- pantaloons** [pæntəlu:n] *n shim*
- partechnicon** [pæn'teknɪkən] *n mebel tashiydigan avtomobil*
- pantheism** [pænθi̇żm(ə)m] *n fals. panteizm (xudo bilan tabiat bir deb qaraydigan diniy-falsayta 'limot)*
- pantheist** [pænθi̇st] *n panteist (panteizm tarafdori)*
- pantheistic(al)** [pænθi̇stɪ 'istik(ə)l] *a fals. panteizmga oid; panteistik...*
- pantheon** [pænθi̇on] *n panteon (1. mash-hur kishilar dafn etiladigan bino, daxma; 2. yunon va rımlarda: barcha xudolarga atab qurilgan ibodatxona; 3. kit. biror dinga mansub bo'lgan hamma xudolarning unumiy nomin)*
- panther** [pænθə] *n zool. 1) qoplon; 2) amer. puma (Amerika yovvoyi mushugi); yaguar (yo'lbarssimon yirtqich hayvon)*
- panties** [pæntɪz] *n pl bolalar trusigi (kalta ishtonii)*
- partile** [pæntail] *n nova-nova cherepitsa (cherepitsa – tomga yopiladigan sopol)*
- panto** [pæntəʊ] *n pantomima (so'zsiz, imo-ishoralar bilan ko'rsatiladigan tomosha)*
- pantograph** [pæntɔgræ:f] *n pantograf (chizma, plan va sh. k. ning masshiabini o'zgartirib ko'chirish uchun qo'llaniladi-gan asbob)*
- pantomime** [pæntəmaim] *n pantomima (so'zsiz, imo-ishoralar bilan ko'rsatiladi-gan tomosha)*
- pantomimic** [pæntə'mimɪk] *a pantomima-ga oid; pantomimik*
- pantry** [pæntri] *n ombor, omborxona (oziq-ovqatlar uchun)*
- pantryman** [pæntrɪmæn] *n (pl -men [-man]) bufetchi*
- pants** [pænts] *n amer. so'zl. ishton; shim*
- pap I** [pæp] *n kasha, bo'tqa*
- pap II** [pæp] *n anat. emchak uchi*
- papacy** [peipasi] *n papalik, papa hukmronligi, papa hokimiyyati*
- papal** [peip(ə)l] *n papaga oid, papa*
- papaveraceous** [pæp'verəs] *n papalik, papa hukmronligi, papa hokimiyyati*
- paper** [peipə] *n 1) qog'oz; 2) gazeta; 3) ilmiy ma'ruza*
- paperback** [peipəbæk] *n qog'oz muqovali kitob*
- paper clip** [peipəklip] *n qog'oz qisqichi*
- paper fastener** [peipə,fa:s(ə)nə] = **paper clip**
- paperhanger** [peipə,hæŋə] *n gulqog'oz yopishituvchi usta*
- paper knife** [peipanaif] *n qog'oz kesadigan pichoq; keskich pichoq*
- paper mill** [peipə,mil] *n qog'oz fabrikasi*
- papers** [peipəs] *n hujjalalar, qog'ozlar*
- paper stainer** [peipə,steɪnə] *n gulqog'oz ishlab chiqaruvchi fabrika egasi*
- paperwork** [peipəwə:k] *n 1) kanselariya ishi; 2) yozma ish; 3) hujjalarni (yozma ishlarni) tekshirish*
- paperry** [peipərɪ] *a 1) qog'ozga o'xshagan; 2) yupqa, ingichka*
- papier mâché** [pæpti:p'mæʃeɪ] *n fr. pape-mashe (yelim, gips va bo'r aralashitirilgan qog'oz massa; pressda siqib har xil hu-yumlar yasashda ishlatalidi)*
- papilionaceous** [pæp'ilijə'nɛʃəs] *a bot. kapalakka (parvona)ga oid; kapalak...; parvona...*
- paperilla** [pæp'plə] *n (pl -lae [-li:]) anat. zool. bot. 1) emchak uchi; 2) g'uddacha (terida, shilliq pardalarda); 3) bo'rtiqcha, do'ngcha, shishcha*
- papillary** [pæp'pləri] *a 1) emchak uchiga o'xshagan; 2) g'uddacha (do'ngcha, shishcha)ga o'xshagan*
- papillate** [pæp'ilæt] *a g'uddacha (shishcha) bilan qoplangan*
- papillose** [pæp'iləs] *a 1) g'adir-budur, g'udda-g'udda; 2) so'gall, so'gal bosgan; serbuqoq*

papist ['pe:pist] *n* katolik (*katoliklar mazhabidagi kishi*)

papistic(al) ['pa:pistik(əl)] *a* katoliklarga oid; katoliklar...

papistry ['pe:pistri] *n* katoliklik

papoose ['pa:poo:s] *n* go'dak, chaqaloq, bola (*Shimoliy Amerikaga oid yosh hindu*)

pappose ['pa:pəʊs] *a* bot. toj (gultoj)li

pappus ['pa:pəs] *n* bot. toj, gultoj (*gulbarglardan tashkil topgan va gulkosani to'ldirib turgan qismi*)

pappy ['pe:ppi] *a* nozik, muloyim, yumshoq

paperika ['pe:prika] *n* qizil qalampir, garm-dori

Papuan ['pe:pju:n] *1. a* papuaslarga (papua tili va madaniyatiga) oid; *2. n* papuas, papuaslar (*Yangi Gvineya va Melaneziyaning bo'zi orollariga yashlovchi tubjoyahol*)

paperula ['pe:pjulə] *n* pl. -lae [-li:] *tib.* papula, tuguncha (*organizmendagi ayrim hujayralarning yig'ilgan – to'plangan joyi*)

papulae ['pe:pjuli:] *pl of papula*

paperular ['pe:pjulər] *a* *tib.* tuguncha (papula)ga oid, tuguncha...

papule ['pe:pju:l] = **papula**

papulose ['pe:pjuləs] *a* *tib.* 1) g'adir-budur, g'udda-g'udda; 2) tuguncha (papula)ga oid; tuguncha...

papulous ['pe:pjuləs] = **papulose**

papyraceous ['pe:pri:rei:səs] *a* qog'ozga o'x-shagan, qog'ozsimon

papyri ['pe:pri:pai(ə)rəi] *pl of papyrus*

papyrus ['pe:pri:pai(ə)rəs] *n* (pl. -ri [-rai]) papyrus (*tropik birlasmatlarda o'sadigan qamishsimon o'simlik*)

par [pa:] *1. n* tenglik, baravarlik, bir xillik; *2. ustiga yoziб qo'yilgan qiymat, normal narx, o'z narxi; nominal (biror narsaning belgilangan, ustiga yoziлgan bahosi); 3) normal holat*

parable ['pe:rəb(ə)l] *n* hikoyat, shama, kesaatiq, qochirim

parabola ['pe:rə'bələ] *n* geom. parabola (*egri chiziqning bir turi*)

parabolic ['pe:rə'bɔlik] *a* parabolaga oid; parabola...

parabolical ['pe:rə'bɔlik(ə)l] *a* 1) kinoyalı, shamali, qochirimli, kinoya (qochirim)dan iborat bo'lgan; 2) metaforadan iborat bo'lgan, metaforali, majoziy, metaforlik

paracetamol ['pe:a:sitəməl] *n* *tib.* parasetamol

parachronism ['pe:rəkroniz(ə)m] *n* paraxonizm, xronologiyadagi xato

parachute ['pe:rə[u:t] 1. *n* parashut; ~ landing parashut bilan qo'nish; 2. *attr.* parashutga oid; ~ jump parashut bilan sakrash

parachutist ['pe:rə[u:t]ist] *n* parashutchi

Paraclete ['pe:raklit:] *n* din. yupatuvchi, ovutuvchi, tasallı (taskin) beruvchi

parade ['pe:reid] *n* 1) parad, namoyish; 2) namoyish qilish; 3) ko'rlik; **a mannequin** ~ modani namoyish qilish

parade-ground ['pe:reid,graund] *n* mashq maydoni, harbiy mashq o'tkaziladigan maydon

paradigm ['pe:rədaim] *n* 1) namuna, misol; 2) tilsh. paradigm (*1. tilbiriknalari, grammatik shakllarning umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi, xususiy ma'nosiga ko'ra farqlanuvechi tizimi; 2. biror so'zning turlanish yoki tuslanish shakllari tizimi*)

paradisaic(al) [,pe:rədi: 'señik(əl)] = **paradisiac(al)**

paradise ['pe:rədais] *n* 1) jannah; 2) so'zl. teatrning eng yuqori qavatidagi joy

paradisiac(al), paradisic(al) ['pe:rədi: 'sañæk(əl)] *a* jannahga oid; jannah...

paradox ['pe:rədoks] *n* paradox (*umum tomonidan qabul qilingan fikrlarga, ilmiy qoidalarga mos kelmaydigan, shuningdek, sog'lom aqlga zid fikr*)

paradoxical [,pe:rə 'doksik(ə)l] *a* paradoxal, paradoxli, mantiqqa (aqlga) mos kelmaydigan, aqlga sig'maydigan

paraffin ['pe:rəfin] *n* 1) kim. parafin (*asosan, neftidan olinadigan mumsimon mahsuloi*); 2) kerosin

paraffin oil [,pe:rəfin 'o:l] *n* 1) parafin nefti; 2) kerosin

paragon ['pe:rəgən] *n* namuna, misol; *a ~ of beauty* go'zallik namunası

paragraph ['pe:rəgra:f] *n* 1) yangi qator, abzas, xat boshi; 2) paragraf

paragraphic(al) [,pe:rə 'græfik(əl)] *a* paragraf, punkt yoki alohida qaydlardan tashkil topgan

parakeet ['pe:rəki:t] *n* zool. uzun dumli to'ti

paralinguistics ['pe:rəlɪŋ 'gwistiks] *n* paralingvistika (*tilshunoslikning imo-isholarlar bilan shug'ullanadigan bo'limi*)

parallelax ['pe:rəlæks] *n* parallaks (*kuzatuvchining fazoda bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko'chishi yoki o'tishi vaqtida yorit-qichlar siljishini o'chaydigan burchak*)

parallel ['pe:rəlel] *1. n* mat. parallel, parallel chiziq (*o'zaro yondosh chiziglarning har biri*); *2. v* qiyoslamoq, solishtirmoq

parallelepiped ['pe:rə,lel'paide:d] *n* geom. parallelepiped (*qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng va parallel bo'lgan olti yoqli geometrik jism*)

parallelism ['pe:rəleliz(ə)m] *n* 1) mat. parallelizm, parallelilik (*to'g'ri chiziglarning*

- yoki tekisliklarning bor bo'yicha bir-biridan teng masofada turishi); 2) ikki ish, harakat, hodisa va sh. k. ning bir vaqtida va bir xilda davom etishi; 3) *adab*, biror jumlaning (poetik tasvir vositalaridan birining) bevosita o'zidan keyin kelgan jumla bilan sintaktik va intonatsion jihatdan bir xilda tuzilishi
- parallelogram** [pærə'lægərm] n geom. parallelogramm (*qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng va parallel bo'lgan to'rtburchak*)
- paralogize** [pærə'rældʒɪz] v noto'g'ri (xato) xulosa qilmoq
- paralyse** [pærəlaɪz] v (shol) falaj bo'lmoq
- paralysed** [pærəlaɪzd] a falaj, shol; falaj (shol) bo'lgan
- paralysis** [pærə'lælɪsɪs] n (pl -ses [-si:z]) 1) shol, falaj; 2) falajlik, shollik
- paralytic** [pærə'lɪtɪk] n falaj (shol) bo'lgan kishi
- paramedic** [pærə'medɪk] n amer. olyi ma'lumotga ega bo'lмаган тиббиёт ходими
- parameter** [pə'ræmɪtər] n 1) mat. parametr; 2) o'chov, o'cham, andaza
- paramilitary** [pærər'militrɪ] a harbiylashgan; harbiylashtirilgan
- paramo** [pærə'moʊ] n (pl -os [-əʊz]) dovdaraxtsiz (quruq) yassi tog'lik, tepalik (*Janubiy Amerikada*)
- paramount** [pærə'maʊnt] a birinchi darajali, olyi
- paramour** [pærə'muər] n 1) o'ynash, jazman; 2) oshiq, ma'shuq, mahbub
- parang** [pærəŋ] n parang, malayaliklarning katta pichog'i
- paranoia** [pærə'nɔɪə] n tib. paranoya (*ruihiy kasallik*)
- paranoiac** [pærə'nɔɪæk] n tib. paranoik, paranoya kasaliga yo'liqqa odam
- paranoid** [pærə'nɔɪd] 1. a paranoya kasaligiga uchragan; 2. n paranoya kasaliga chalilgan (yo'liqqa) odam
- parapet** [pærəpɪt] n suyanchiq, to'siq, panjara
- paraphernalia** [pærəfə'nɛliə] n pl shaxsiy mol-mulk (bisot, dunyo)
- paraphrase** [pærəfreɪz] v 1) aytib (so'zlab) bermoq, gapirib bermoq, boshqa so'zlar bilan aytib bermoq; 2) qayta hikoya qilmoq
- paraphrastic** [pærə'fræstɪk] a parafrazaga oid (*parafraza – 1. adabiyotda biror asar mundarijasini, ma'nosini boshqa so'zlar bilan aytib berish; 2. musiqada boshqa musiqiy asardan yoki xalq kuyularidan olib ishlangan yengil, sho'x asar yoki pyesa*)
- paraplegia** [pærə'pli:dʒ(ɪ)ə] n tib. paraplegiya
- parasite** [pærəsait] n 1) tekinxo'r, ishyoqmas, haromtovoq; 2) biol. parazit (*boshqa organizm hisobiga yashovchi organizm*)
- parasitic(al)** [pærə sitik(ə)l] a 1) parazitga xos, parazit; 2) tekinxo'r, haromtovoq
- parasiticide** [pærə 'situsard] n parazitlarga qarshi (parazitlarni yo'q qilish uchun qo'llangan) dori
- parasitism** [pærəsaitiz(ə)m] n biol. parazitizm (*bir organizmning boshqa organizm hisobiga yashamoq*)
- parasite** [pærəsaitaɪz] v biol. boshqa organizm hisobiga yashamoq
- parasol** [pærəsol] n kichkina soyabon (*quyoshdan saqlash uchun*)
- patrooper** [pærə,tru:pə] n harb. de-santchi-parashutchi
- paratroops** [pærətruu:ps] n pl parashut qisimi
- paratyphoid** [pærə 'tarfoid] n tib. paratif (*ichterlama kasaliga o'xshash yuqumli kasallik*)
- parboil** [pə:bɔɪl] v 1) qaynatmoq, qaynatib pishirmoq; 2) qaynoq suvgaga botirib olmoq; 3) terlamoq, isib ketmoq
- parbuckle** [pə:bʌk(ə)l] 1. n 1) bochkalarini ko'tarish va tushirish moslamasi; 2) *deng*. yuk ko'taradigan osma argon; 2. v osma argon bilan yukni ko'tarish (*up*) yoki tushirish (*down*)
- parcel** [pə:s(ə)l] 1) posilka; 2) paket, qo'g'oz paket, qog'ozga o'ralgan narsa
- parcel post** [pə:s(ə)lpəust] n pochta-posilka xizmati
- parcenary** [pə:sin(ə)rɪ] n yur. hamvorislik, vorisdoshlik, birga voris bo'lish, birligida-dagi vorislik
- parcener** [pə:sinə] n yur. hamvoris, voris-dosh, birga voris bo'lgan odam
- parch** [pə:tʃ] v 1) quritmoq, qotirmoq, qoq qilmoq, suvini chiqarmoq; 2) salgina qovurmoq
- parched** [pə:tʃɪt] a 1) kuydirilgan, yondirilgan; 2) qurigan, qurib qolgan
- parchment** [pə:tʃmənt] n pergament (*suv, yog'ni o'ziga shimmaydigan qilib ishlangan qog'oz*)
- parcook** [pə:kuk] v chala (yarim) qaynatmoq
- pardon** [pə:dn] 1. n 1) kechirim, afv, kechirish; 2) afv etish, gunohidan o'tish, kechirib yuborish; 2. v kechirmoq, afv etmoq
- pardonable** [pə:d(ə)nab(ə)l] a kechirarli, uzrli, kechirsra bo'ladijan
- pare** [peə] v kesmoq, bir qavatini kesib olib tashlamoq; 2) tozalamoq, (*kartoshka*) artmoq

- paregoric** [pæri'gorik] *nib.* 1. *a* og'riqni qoldiradigan, bosadigan, to'xtatadigan (*dori-darmon haqida*); 2. *n* og'riqni qoldiradigan dori-darmon
- parent** [pe(ə)rənt] *n* 1) ota-ona; 2) ajdod
- parentage** [pe(ə)rəntidʒ] *n* 1) kelib chiqish; nasab; nasa-nasab, shajara, asli; 2) onalik; otalik, ota bo'lish
- parental** [pe'rentl] *a* ota-onaga oid; ota-ona...
- parentheses** [pa'renθi:sɪz] *pl* of parenthesis
- parenthesis** [pa'renθi:sɪs] *n* (*pl* -theses [-si:z]) 1) gram, kirish so'z yoki gap; 2) (*pl*) kichik qavs; 3) intermediya (*drama yoki opera asarlarining ikki pardasi o'tasida o'ynaladigan, odatda, kulgili kichik sahna asari*)
- parenthetic(al)** [pærənθ'etik(ə)l] *a* 1) kirish, daromad; 2) qavs ichiga olingan
- parenthood** [pe(ə)rənthʊd] *n* onalik; onalik par excellence
- [pə:r ɛks(ə)lə:n̩s]* *adv* fr. asosan, ko'pincha, ko'proq, ayniqsa
- parget** [pa:dʒɪt] 1. *v* suvamoq, suvoq qilmoq; 2. *n* suvoq; 2) suvash, surkash, chaplash; 3) gips (*mineral va undan tayyorlangan qurilish materiali*); 4) belila (*oq mineral bo'yoq*)
- partetting** [pa:dʒɪtinq] *n* (*naqshinkor, ornamental*) suvoq (*suvash*)
- pariah** [pə'rɪə] *n* xo'rangan, tahqirlangan, jamiyatdan haydalgan; huquqsiz, ezilgan, mazlum odam
- pariah dog** [pə'rɪədɒg] *n* daydi it
- parietal** [pə'rɪətl] *a* *anat.* bosh suyagining tepe qismiga oid; boshning (bosh suyagining) tepasi...
- parling** [pe(ə)rɪŋ] *n* qiyqim, qirindi, qirqindi, po'st, po'stloq
- parish** [pærɪʃ] *n* 1) qavm, prixod (*biror butxonaga qatnovchi dindorlar*); 2) amer. fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi, fuqarolar okrugi
- parishioner** [pærɪʃ(ə)nə] *n* butxona qavmlaridan biri (*ibodatxonaga qatnovchi dindor kishi*)
- parish register** [pærɪʃ'redʒɪstə] *n* tug'ilganlik haqidagi qayd daftari
- Parisian** [pærɪ'siən] 1. *a* Parij yoki parijsliklarga oid; 2. *n* parijslik kishi yoki ayol
- parity** [pærɪti] *n* 1) tenglik, baravarlik, bir xillik; 2) o'xshashlik
- parity II** [pærɪtu] *n* biol. bola tug'ishga qodirlik
- park** [pa:k] *n* 1) park, istirohat bog'i; 2) park (*mashina, vagon va b. turadigan va ta'miranadigan joy*)
- parka** [pa:kə] *n* parka (*Shimolda yashovchi ba'zi xalqlarning qishlik mo'ynali kiyimi*)
- parking** [pa:kɪŋ] *n* 1) to'xtab turish, to'xtash; 2) to'xtash joyi
- parkway** [pa:kweɪ] *n* amer. park yo'li
- parky** [pa:kɪ] *a* so'zl. sovuq (*ob-havo haqida*)
- parlance** [pa:ləns] *n* til (nutoq) uslubi, gapirish yoki itoda etish uslubi; **in legal** ~ yuridik tilida; **in common** ~ so'zlashtuv tilida
- parlay** [pa:l(e)t] *n* amer. garov, garov o'yash
- parley** [pa:li] 1. *n* muzokara; 2. *v* muzokara olib bormoq, bitinga kelmoq
- parleyvon** [pa:li'vu:] 1. *n* hazil. 1) fransuz tili; 2) fransuz; 2. *v* fransuz tilida vaysamoq
- parliament** [pə:ləmənt] *n* parlament
- parliamentarian** [pə:ləmen'te(ə)rən] *n* parlament a'zosi
- parliamentary** [pə:lə'ment(ə)ri] *a* 1) parlamentga oid; 2) parlamentda qabul qilin-gan
- parlor** [pa:la] *n* 1) oddiy mehmonxona, umumiyy xona (*uya*); 2) alohida xona (*restoran*); 3) qabulxona (*mehmonxona va b. da*)
- parlour** [pa:la] *n* 1) mehmonxona, umumiyy xona; oddiy mehmonxona; 2) alohida xona (*restoranda*); 3) qabulxona (*bank*)
- parlour car** [pa:la:kə:] *n* amer. tem. y. salon-vagon
- parlourmaid** [pə:ləmeɪd] *n* tar. oqsoch, xodima, uy xizmatchisi
- parlous** [pə:ləs] *a* qiyin, mushkul, xavfli
- parochial** [pə'rəʊkiəl] *a* prixdoga (qavmga) oid; 2) tor, cheklangan, chegarajangan
- parochialism** [pə'rəʊkiəlɪz(ə)m] *n* manfaatlarning cheklanganligi; 2) tor mahalliy-chilik
- parodist** [pə'rədɪst] *n* parodiya yozuvchi odam, parodiya muallifi
- parody** [pə'redɪ] *n* parodiya (*hazil yoki hajvyi tarzda boshqa asarga taqlid qilib yozilgan asar*)
- parole** [pə'rəʊl] *n* 1) chin so'z, va'da; 2) harb. parol (*shartlashilgan maxfiy so'z*)
- paronomasia** [pærənəs'meɪzɪə] *n* kalambur, so'z o'yini, tajnis
- parquet** [pa:k(e)i] *n* parket
- parquetry** [pa:kɪtri] *n* parket
- parricide** [pærtsaid] *n* o'z otasi yoki onasini o'ldirishlik; padarkushlik
- parrot** [pærət] 1. *n* zool. to'qitish; 2. *v* to'tiga o'xshab (*maqsadsiz*) qaytarmoq
- parry** [pæn] *v* 1) bo'yin tovlamoq, bosh tortmoq; 2) (*zarba, hujumni*) qaytarmoq
- parse** [pa:z] *v* grammatic tahlil qilmoq
- parsimonious** [pə:sɪ'maʊniəs] *a* 1) tejamkor, ayab sarf qiladigan; rejali; 2) qizg'an-chiq

- parsimony** [pa:siməni] n 1) tejab-tergash, ayash, tejamkorlik; 2) xasis, ziqna, qurumsoq
- parsley** [pa:sli] n bot. petrushka (*kashnich-simon o'simlik*)
- parsnip** [pa:snip] n bot. pasternak (*shirin ildizli xushbo'y o't*)
- parson** [pa:s(ə)n] n pop, monax, ruhoniy
- parsonage** [pa:s(ə)nɪdʒ] n kashish (pop, ruhoniy)ning uyi
- part** [pa:t] 1. n 1) qism, bo'lim; 2) hissa, ulush; in ~ qisman; 3) qism (*kitob haqida*); 4) tana qismi, a'zosi; 5) rol; to play ~ rol o'ynamoq; to take ~ in ...da qatnashmoq (ishtirok etmoq); on the ~ of kimningdir tomonidan; 6) burch, majburiyat, vazifa; 7) tomon, taraf; 8) detal; 2. ~ aylirmoq; ajralmoq; bo'lmoq
- partake** [po:tæk] v (partook; partaken)
 - 1) qatnashmoq, ishtirok etmoq; 2) (*biron narsani*) yemoq, tatab ko'rmoq
- partaken** [po:teɪkən] p. p. of partake
- parterre** [pa:tərə] n fr. teatr. parter (*tomosha zalining pastki qismidagi o'rinlar*)
- partial** [pa:tʃəl] a qisman, to'la bo'lмаган, biroz
- partiality** [pa:ʃi:l'ælitə] n 1) ishqibozlik, qiziqish, ishtiyoyq; 2) mayl, havas, yaxshi ko'rish
- participant** [pa:tisipənt] n ishtirokchi, qatnashuvchi
- participate** [pa:tisipət] v qatnashmoq, ishtirok etmoq; to ~ in ...da ishtirok etmoq (qatnashmoq)
- participation** [pa:tisi:pər̩ən] n qatnashish, ishtirok etish
- participial** [pa:tr̩'sipɪəl] a gram. 1) sifatdoshga oid, sifatdoshli; 2) ravishdoshli
- participle** [pa:ti:sip(ə)] n gram. sifatdosh
- particle** [pa:titik(ə)] n 1) parcha, bo'lak; 2) gram. yuklama
- particoloured** [pa:tū:kələd] a guldor, rangbarang, chipor, olachipor, ola-bula
- particular** [pa:tikjulə] a maxsus, alohida, o'ziga xos
- particularly** [pa:tikjuləli] adv ayniqsa, xususan
- parting** [pa:tnɪŋ] 1. n xayrashuv, xayrashish; 2. a xayrashuvga oid
- partisan** [pa:tri'zen] n 1) tarafdar, muxlis, fidoyi (sodiq) kishi; ixlosmand; 2) partiyan
- partisanship** [pa:tri'zænʃɪp] n tarafdarlik, muxlislik, sodiqlik
- partition** [pa:tū:(ə)n] n 1) bo'lish, parchash; 2) bo'lim; 3) qism
- partly** [pa:tlı] adv qisman
- partner** [pa:tnə] n 1) qatnashuvchi; ishtirokchi; 2) sherik; ~ship hamkorlik, sherrlik
- partook** [pa:tuk] past. of partake
- partridge** [pa:trɪdʒ] n zool. kaklik
- partition** [pa:tju:nɪs(ə)n] n tug'ish, ko'zi yorish
- party** [pa:ti] n 1) partiya; 2) guruh, bo'lim, jamaoa; 3) yig'ilish, bazm
- parvenu** [pa:vənu] n fr. 1) tirrancha, jo'jaxo'roz; 2) mahmadona
- paschal** [pa:esk(ə)] a pasxaga (pasxa bayramiga) oid, pasxa...
- pass** [pa:s] 1. n 1) o'tish joyi; 2) imtühon topshirish; 2. v 1) o'tmoq; 2) kesib o'tmoq; 3) ~ out a) hushidan ketmoq; b) tarqatmoq
- passable** [pa:səb(ə)] a 1) o'tib bo'ladigan, yurib bo'ladigan; 2) chidasa bo'ladigan, durust, uncha yomon emas
- passage** [pa:sɪdʒ] n 1) o'tish; 2) kirish, chiqish, yo'lak; 3) (*kiimb, maqola va sh. k. da*) parcha, qism
- passbook** [pa:sbuk] n bank hisob-kitob daf-tari
- passenger** [pa:sɪndʒə] n passajir, yo'lovchi
- passer-by** [pa:sə'baɪ] n o'tkinchi, yo'lovchi
- passim** [pa:sim] adv lot. har yerda, hamma yoqda, har yoqda, har joyda
- passing** [pa:sɪŋ] a 1) bir onli, bir lahzali, bir onda sodir bo'ladigan, bo'lib o'tadigan, juda tez, oniy; 2) o'tkinchi, vaqtinchal, om'onat; 3) she'r. o'lim; o'lish, vaqtin (qazo) qilish
- passion** [pæs(ə)n] n 1) g'ayrat, qizg'inlik, jo'shqinlik; 2) kuchli his-tuyg'u, muhabbat, ehtiros; 3) shavq, zavq, ishtiyoyq
- passionate** [pæs(ə)nɪt] a jo'shqin, qizg'in, otashin, ehtirosli
- passive** [pa:siv] a faoliyatsiz, harakatsiz, sust; ~ voice gram. majbul nisbat
- passivity** [pa:s'ivitə] n 1) sustlik, faoliyat-sizlik; 2) itoatkorlik, itoat qilish, bo'yusunish
- passport** [pa:sport] n passport
- password** [pa:swɔ:d] n parol (*shartlashilgan maxfiy so'z*)
- pass** [pa:sei] a fr. eski, eskirgan, eskirib qolgan, eskichka, ko'hna, iste'moldan chiqqan
- past** [pa:st] n 1) o'tmish, moziy; in the ~ o'tmishda; distant ~ uzoq o'tmish, moziy; 2) (the ~) gram. o'tgan zamon
- paste** [peist] n 1) xamit; 2) yelim
- paste-board** [peistba:d] n karton, qalin qo'g'oz
- pastel** [pæstl] n 1) pastel (*rassomlikda ishlatalidigan rangdor yumshoq qalamlar*); 2) och, nim, xira (*ranglarga nisbatan*)
- pastil** [pæstl] n tugmachasi (kulcha) dori yoki shirinlik

- pastime** [pa:staim] *n* ermak, ovunchoq
- pastor** [pa:stə] *n* protestant mazhabidagi ruhoniý
- pastoral** [po:st(ə)rəl] *1. a* cho'ponga (podachiga) oid; *2. n* pastoral (*cho ponalr hayoti tasvirlangan badiiy yoki musiqiy asar*)
- pastry** [peistrı] *n* 1) pishiriq; 2) konditer mollari, 3) xamir
- pastry-cook** [*peistrikuk*] *n* konditer, qandolatchi, shakarpaz.
- pasturage** [pa:stjərɪdʒ] *n* yaylov
- pasture** [pa:stʃə] *n* 1) yaylov, o'tloq; 2) yaylovdagı o'tlar, mollarning o'zları uzbiz yeydigan o'tlar
- pasty I** [pæsti] *n* pirog (*ichiga go'shi yoki hoshqa narsalar solib pechkada pishirilgan non*)
- pasty II** [peisti] *a* 1) egiluvchan, qayishqoq; *2)* xamirga o'xshagan, xamirsimon
- pat** [pæt] *v* tarsillatib urmoq, shapaloq solmoq
- patch** [pætʃ] *1. n* yamoq; *2. v* yamamoq
- patch-up** [pætʃ'ʌp] *v* naridan-beri yamamoq
- patchwork** [pætʃwɜ:k] *n* turli rangdagi qiy-qimlardan tikilgan ko'rpa; quroq ko'rpa
- patchy** [pætʃɪ] *a* 1) xol-xol, olachipor, dog'li; *2)* bir xil (bir turli) bo'Imagan, har xil turdag'i, boshqa-boshqa, xilma-xil, turlitumani; *2)* tasodifiy; nogahoniy, kutilmagan
- paté** [pæter] *n fr.* pashtet (*asosan, hayvon, parranda va baliq go'shtidan, jigaridan tayyorlangan taom*)
- paté** [pejt] *n so'zl.* bosh, kalla
- patent** [pejt(ə)nt] *1. a* aniq, yaqqol, ochiq-oydin, ravshan; *2. n* patent (*1. ixtirochiga o'z ixtirosi uchun olgan huquqni tasdiqlovchi hujjar; 2. savdo-sotiq yoki hunar bilan shug'ullanish uchun beriladigan hujjar*)
- pater** [peitə] *n* jarg. ota
- paternal** [pæ:tə:nəl] *a* 1) otaga oid, otaga tegishli; *2)* ota tomon, ota tomonidan
- paternity** [pa:tə:nitı] *n* ota bo'lish, otalik
- path** [pa:θ] *n* 1) so'qmoq, so'qmoq yo'l; *2)* yo'lka
- pathetic** [pa:θetik] *a* ta'sirli, ko'ngilni yum-shatadigan, mehr-shafqatni qo'zg'atadigan; yurakni ezadigan, yurakni achitadigan
- pathetics** [pa:θetiks] *n* ko'tarinki run bilan so'zlash
- pathfinder** [pa:θfaɪndə] *n* tekshiruvchi, tadqiqotchi
- pathless** [po:θləs] *a* yo'l-siz, qatnov yo'lari yo'q
- pathological** [pæθə'lɒdʒɪk(ə)l] *a* patologiyaga oid, patologik
- pathology** [pa:θolədʒı] *n* patologiya (*organizmdagi kasallik jarayonlarini va orga-*
- nizmning normal holatdan chiqish sabablarini o'rganuvchi fan*)
- pathway** [pa:θwei] *n* so'qmoq, so'qmoq yo'l
- patience** [peɪʃ(ə)ns] *n* 1) chidam, sabr, bardosh; toqat; *2)* chidamlilik, bardoshlik
- patient** [peɪʃ(ə)nt] *1. n* kasal, bemon; *2. a* chidamlı; bardoshlı, sabr-toqatlı
- patio** [*pætiəʊ*] *n* isp. (*pl -os [-əʊz]*) ayvon, peshayvon
- patriarch** [peitri:k] *n* 1) qabila yoki urug' boshlig'i; *2)* asos solgan shaxs, asoschi; *3)* cherk. eng katta ruhoniý
- patriarchal** [*peitri:k(ə)l*] *a* 1) qadimiyl, qadimdan qolgan; *2)* patriarch (*qabila yoki urug' boshlig'i*); *3)* hurmatli, izzatli, muh-taram
- patrician** [pætrɪ:tʃ(ə)n] *1. n* 1) patritsiy (*Qadimgi Rimda: oqsuyak, zodagon*); *2)* aslzoda, zodagon
- patrimonial** [*pætri:mənəl*] *a* 1) meros, meros (bo'lib) qolgan; *2)* nasldan naslga o'tgan
- patriot** [*pætriət, -ot, -per-*] *n* 1) vatanparvar; *2)* jonkuyar kishi
- patriotic** [*pætri'otik*] *a* vatanparvarlarcha, vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan, vatanparvarlik...
- patriotism** [*pætriətiz(ə)m*] *n* vatanparvarlik
- patrol** [pæ:trol] *1. n* harh. patrol (*ma'lum hududning xavfsizligini ta'minlash va tartib saglash uchun qo'yilgan kishilar yoki samolyot, kema va sh. k. guruhi*); *2.* v patrullik qilmoq
- patron** [*peitron*] *n* 1) homiy, yonini oluvchi; *2)* doimiy xaridor
yozadigan; 2. *n* yozuv, qayd; xotira
- re-count** [ri:'kaunt] *v* qayta hisoblab sanab
chiqmoq (*asosan, saylovdagi ovozlarni*)

- recount** [rɪ'kaʊnt] *v* hikoya qilmoq, gapirib
(aytiб) bermoq, so'zlab bermoq
- recoup** [rɪ'ku:p] *v* badal (tovon, haq) to'-
lamoq, o'mini to'ldirmoq
- recourse** [rɪ'kɔ:s] *n* yordam so'rab murojaat
qilish; *to have ~ to* yordam so'rab muro-
jaat qilmoq; yordamga yugurmoq
- recover** [rɪ'kʌvə] *v* 1) tuzalmoq; o'ziga kel-
moq; *to ~ from ...* dan tuzalmoq; 2) qaytarib
olmoq
- recovery** [rɪ'kʌv(ə)rɪ] *n* 1) asl holiga qay-
tish, sog'ayish; 2) qaytarib berish
- re-create** [,ri:kri'eit] *v* qayta qurmoq, qayta
barpo (tashkil, buniyod) etmoq
- recreate** ['rekri:t] *v* 1) kuch to'plamoq;
2) hordiq chiqarmoq
- recreation** [,rekri'eɪʃ(ə)n] *n* 1) kuchlarni
qayta tiklash; 2) dam, hordiq, dam olish
- recrimination** [ri:krim'inetʃ(ə)n] *n* o'zaro
yoki qarshi ayblash (qoratalash)
- recruit** [rɪ'krū:t] *v* 1) yollamoq, ko'ngillilar
to'plamoq; 2) (*sog'liqni*) mustahkamlama-
moq
- recruitment** [ri'krū:t'mənt] *n* 1) yiig'ish,
yollahsh, to'plash, xizmatga chaqirish (*yangi
olingan askarlarni*); 2) sog'likni tiklamoq
- recta** ['rektə] *pl* of **rectum**
- rectangle** ['rektaeng(ə)] *n* to'g'ri burchak
- rectangular** [rek'tængjulə] *a* to'g'ri bur-
chaklı
- rectification** [rektrɪf'keʃ(ə)n] *n* to'g'-
rilash, tuzatish; 2) kim tozalash (*suyuqlikni
turlı aralashmalardan ajaratib olish*)
- rectify** ['rektaifai] *v* tekshirib (solishirib)
to'g'rilamoq, to'g'riligini tekshirmoq
- rectitude** ['rek'titju:d] *n* to'g'ri rılık, rostlik,
rostigo'ylik, dangallik
- rector** ['rektə] *n* 1) rektor (*oliv o'quv yurti-
ning rahbari*); 2) pastor (*protestant maz-
habidagi ruhoniy*)
- rectory** ['rekt(ə)rɪ] *n* 1) ruhoniyning daro-
madi; 2) qavm ruhoniysining uyi; 3) qavm
ruhoniysining mansabi
- rectum** ['rek'təm] *n* (*pl -ta*) *anat.* to'g'ri
ichak
- recumbent** [rɪ'kʌmbənt] *a* yotiq, yotgan
- recuperate** [rɪ'k(j)u:pə'reit] *v* sog'aymoq,
tuzalmoq, sog'ayib ketmoq
- recuperation** [rɪ,k(j)u:pa'reiʃ(ə)n] *n* 1) kuch
to'plash; 2) sog'ayib ketish
- recur** [rɪ'ks:] *v* qaytmoq, qaytib kelmoq, tak-
rorlanmoq
- recurrence** [rɪ'kʌrəns] *n* takrorlanish, qaytish
- recurrent** [rɪ'kʌrənt] *a* davriy, vaqt-vaqtı
bilan bo'ladijan, takrorlanib turadigan
- recycle** [,ri:'saik(ə)] *v* qaytadan (boshqat-
dan) ishlatmoq
- red** [red] *a* qizil; qirmizi; *to be ~ with ...* dan
rangi qizarmoq; *to turn ~* qizarmoq; ~
Crescent Qizil Yarimoy jamiyati; ~ **pepper**
qalampir, garmdori
- red baiting** ['red,beɪtɪŋ] *n* amer. tarraqiy-
parvar kishilarni ta'qib qilish
- redbreast** ['redbrest] *n* malinovka (*chum-
chuqsimonlarga mansub sayroqi qush*)
- redcoat** ['redkəut] *n* tar. ingliz askari
- redder** ['redn] *v* 1) qizarmoq; 2) qizil rangga
bo'yamoq
- reddish** ['rediʃ] *a* qizg'ish
- redeem** [ri'di:m] *v* 1) pul to'lab qaytarib
olmoq; 2) qaytarmoq, *to ~ one's good name*
Yaxshi nomni qaytarib olmoq; 3) (*va'dani*)
yajarmoq; 4) (*gunohni*) yuvmoq
- redemption** ['rdempʃ(ə)n] *n* qaytarib (yoki
ajaratib) olish uchun to'lanadigan pul
- redevelop** [rɪ:di:v'eləp] *v* yangidan (qay-
tadan) qurmoq
- red-handed** [red'hændid] *a* 1) qo'llari qon-
ga bo'yalgan; 2) jinoyat joyida ushlangan;
to be caught ~ jinoyat joyida qo'lga tush-
moq
- redherring** [red'herɪŋ] *n* dudlangan baliq
- red-hot** [,red'hot] *a* 1) cho'g'day qizdiril-
gan; 2) asablari qo'zg'algan
- rediffusion** [,ri:di:fju:ʒən] *n* ko'cha, may-
don va b. ni radiolashtirish
- redistribute** [,ri:di'stribju:t] *v* qaytadan
(yangidan) taqsimlamoq, qayta (boshqat-
dan) bo'lmoq
- redistribution** [,ri:di:distri'bju:ʃ(ə)n] *n* yan-
gidan (qaytadan) taqsimlash, qayta taq-
simlanish (bo'linish)
- redolent** ['redələnt] *a* hidi yaxshi, xushbo'y,
muattar
- redouble** [ri:'dʌb(ə)l] *v* 1) ikki hissa oshir-
moq, ko'paytirmoq; 2) kuchaytirmoq, zo'-
raytirmoq, oshirmoq; 3) kuchayib ketmoq,
kuchaymoq
- redoubtable** [rɪ'dautəb(ə)] *a* dahshatlî, qo'r-
qinchli
- redress** [rɪ'dres] *v* tuzatmoq, tiklamoq, asli-
ga keltirmoq
- reduce** [rɪ'dju:s] *v* qisqartirmoq, kamaytir-
moq; *to ~ prices* narxlarni kamaytirmoq
- reduced** [rɪ'dju:st] *a* pasaygan, tushgan, ka-
maygan, ozaygan
- reduction** [rɪ'dækʃ(ə)n] *n* pasaytirish, tu-
shirish, kamaytirish, qisqartirish; ~ *of ar-
maments* qurollarni qisqartirish (kamayti-
rish); ~ *of prices* narx-navonning kamayishi
- redundance**, -cy [rɪ'dʌndəns, -sɪ] *n* 1) had-
dan tashqarilik, o'ta, ortiqlik; keragidan
ortiq narsa; 2) ezmalık; 3) ish joylarini qis-
qartirish

redundant [ri'dʌndənt] *a* ortiqcha, ehtiyo-jidan ortiq

reed [ri:d] *n* 1) *bot.* qamish; qamishzor; 2) tomgga solinadigan qamish yoki poxol

reef [ri:f] *n* 1) rif, suv ichidagi qoya; 2) rif (*yelkanning argon o'tkazadigan teshigi*)

reek [ri:k] *n* sassiq (badbo'y) hid, qo'lansa hid

reel [ri:l] *n* 1) g'altak; 2) (qog'oz) ruloni, o'rani

re-elect [ri:i'lekt] *v* qayta saylamoq, yan-gidan saylamoq

re-election [ri:i'lekʃ(ə)n] *n* qayta saylash, ikkinchi marta saylanish

re-entry [ri:entr] *n* yur. ko'chmas mulkka qaytadan egalik qilish

re-establish [ri:i'stæblɪʃ] *v* qayta tiklamoq, o'natmoq

refectory [ri'fekt(ə)rɪ] *n* 1) (*monastırda*) ovqat yeyiladigan xona; 2) yemakxona, oshxonha (*universitetda, maktabda*)

refer [ri'fə:] *v* 1) gapirmoq, eslatmoq, tilga olmoq; qo'shmoq, dalil qilib ko'rsatmoq; murojaat qilmоq; to ~ to ...ga havola qilmоq; 2) bahona qilmоq; 3) aloqador bo'lmoq; 4) yubormoq, jo 'natmoq, yo'llamoq

referee [ri'refi:] *n* sport. sudya, hakam

reference [ref(a)rans] *n* 1) estash, tilga olish, ayтиб o'tish; 2) ma'lumot; 3) tavsifnoma, tavsiyana

referenda [refe'renda] *pl* of **referendum**

referendum [refe'rendəm] *n* (*pl -da [-də]*) referendum (*umumxalq fikrini olish*)

refill ['ri:fɪl] *n* 1) to'ldirish, to'lg'azish; 2) zapravka, to'ldirib (quyib) olish

refine [ri:fain] *v* tozalamoq, aralashmalar-dan tozalamoq

refined [ri'faɪnd] *a* 1) (*aralashmalar-dan*) tozalangan, oqlangan, oqlama; 2) nafis, no-zik, kelishgan; ~ oil tozalangan (oqlangan) yog'; ~ sugar tozalangan kesma oq qand

refinement [ri'faɪnmənt] *n* 1) (*aralashmalar-dan*) tozalash, oqlash, tozalanish, oqlanish; 2) nazokat; the ~ of one's language til nafisligini ta'minlash

refinery [ri:fain(ə)rɪ] *n* 1) oq qand zavodi; 2) neft haydash zavodi

refit ['ri:fɪt] *n* yamash, tuzatish, remont qilish, ta'mirlash

reflect [ri'flekt] *v* 1) (*nur, issiqlik, tovush kabilarni*) qaytarmoq, aks ettirmoq; 2) soyasini (tasvirini) ko'rsatmoq; 3) o'yylamoq, fikr yuritmoq

reflection [ri'fleks(ə)n] *n* 1) mulohaza; 2) aks; aks etgan (tushgan) shu'la

reflective [ri'flektiv] *a* 1) aks ettiruvchi, soyasini (tasvirini) ko'rsatuvchi; 2) o'ychan (ko'rinish haqida)

reflector [ri'flektə] *n* tex. qaytargich, nur-qaytargich

reflex ['ri:fleks] *n* ko'rinish, qiyofa, shakl reflexion [ri'fleksʃ(ə)n] = reflection

reflexive [ri'fleksiv] 1. *a gram.* o'zlik; 2. *n gram.* 1) o'zlik fe'li; 2) o'zlik olmoshi

reform [ri'fɔ:m] *n* isloh qilish, islohot

reformation [ri'fɔ:meʃ(ə)n] *n* islohot, o'zgartirish, o'zgartirib yuborish

reformatory [ri'fɔ:mətri] *a* axloq tuza-tishga oid; axloq tuzatadigan

reformer [ri'fɔ:meɪ] *n* o'zgartiruvchi, qayta quruvchi, islohotchi

reformist [ri'fɔ:mɪst] *n* islohotchi

refract [ri'frækɪt] *v* fiz. (*nurlarni*) sindir-moq, qaytarmoq, yo'nalishini o'zgartir-moq

refractory [ri'frækɪt(ə)rɪ] 1. *n tex.* o'tga chidamlı material; 2. *a o'jar,* qaysar

refrain [ri'freɪn] *v* 1) o'zini tiymoq, betaraf qolmoq; 2) saqlamoq; 2. *n* naqarot

refresh [ri'freʃ] *v* 1) yangilamoq, shamollatmoq; 2) jonlantirmoq; 3) salqin qilmoq; 4) eslamoq, esga olmoq

refresher [ri'freʃə] *n* 1) malaka oshirish kur-si; 2) orom (rohat, huzur) baxsh etadigan narsa (*ichimlik*)

refreshment [ri'freʃmənt] *n* 1) quvvatlash, mustahkamlash; 2) kuch to'plash; 3) dam olish, istirohat qilish; 4) yengil taom va ichimliklar; gazak

refrigerate [ri'frɪdʒəreɪt] *v* 1) yaxna qilmoq; muzlatmoq; 2) sovuq joyda saqlamoq

refrigerator [ri'frɪdʒəreɪtə] *n* sovitgich, muzlatgich

refuel [ri:fju:əl] *v* yoqilg'i zaxirasini ko'paytirmoq; yoqilg'i quyib to'ldirmoq

refuge ['refju:dʒ] 1. *n* boshpана; to take ~ boshpана topmoq; 2. *v* 1) boshpана ber-moq; 2) boshpана topmoq, yashirinmoq

refugee [refju'dʒi:] *n* 1) muhojir; 2) qo-choq, oqchоq

refund [ri'fand] *v* 1) (*zararni*) qoplamoq; (*qarz va sh. k. ni*) to'lamоq, uzmoq; 2) (*to-lovni*) qaytarmoq, qaytarib bermоq

refusal [ri'fju:z(ə)n] *n* voz kechish, bahridan o'tish, bosh tortish; rad qilish

refuse I [ri'fju:z] *v* voz kechmoq, bahridan o'tmoq; rad qilmoq

refuse II ['refju:s] 1. *n* chiqindi; 2. *a tash-landiq*

refutation [refju'teɪʃ(ə)n] *n* rad qilish, no-to'g'riliqini isbot qilish

refute [ri'fju:t] *v* noto'g'riliqini isbot qilmoq, rad etmoq

regain [ri'geɪn] *v* qayta qo'lga kiritmoq; tik-lamoq

- regal** [ri:g(ə)l] *a* 1) shohona; 2) qirolga (podshoga) oid, qarashli, qirol... podsho...
- regale** [ri'ge:l] *n* bazm, ziyofat
- regard I** [ri'ga:d] *n* 1) ta'zim; 2) humrat; salom; e'tibor; give my best ~s to your father mendan otangizga otashin salom aytning; with (in) ~ to ... xususida, haqida
- regard II** [ri'ga:d] *v* ...deb qaramoq, hisoblamoq, bilmoq; as ~s you sizga kelganda
- regarding** [ri'go:diŋ] *prep.* ... ga kelganda, ... haqida gap kelganda; haqida
- regardless** [ri'ga:dles] *a* 1) pisand qilmaydigan; 2) e'tiborga olmaydigan; ~ of qaramay, ...ni e'tiborga olmay
- regatta** [ri'gætə] *n* sport qayiqlari poygasiga
- regency** [ri'dz:(ə)nsi] *n* mamlakatni vaqtinchalik boshqarib turish, mamlakatga vaqtinchalik hokimlik qilish
- regenerate** *1. a* [ri'dzenərət] 1) qayta o'zgartirilgan; 2) yangilangan, yaxshilangan; *2. v* [ri'dzenəreit] v boshqacha (o'zgacha) qilmоq, to'liq yangilamoq, yangidan qurmoq
- region** [ri:dʒ(ə)n] *n* muvaqqat podsho (hokim)
- regime** [rei'žim] *n* fr. rejim, tartib, tuzum (*hukumat*), idora usuli
- regiment** [*redžimənt*] *n* 1) harb. polk; infantry ~ piyodalar polki; 2) qo'shin, lashkar; 2) *pl* juda ko'p, anchagini
- regimental** [*redʒi'mentl*] *a* polkka oid; polk...
- region** [ri:dʒ(ə)n] *n* 1) mamlakat, o'lka, viloyat, tuman; mintaqqa; ~alist o'lkashunos; 2) soha; 3) (*atmosfera va sh. k.*) qatlami; 4) *anat.* tana qismi, sohasi; 5) joy
- regional** [ri:dʒ(ə)nəl] *a* mahalliy, viloyatga qarashli, regional
- register** [*redʒis:tər*] *1. n* jurnal (*yozish uchun*); *2. v* 1) ro'yxat qilmoq; ro'yxatga kiritmoq; 2) ko'rsatmoq, belgilamoq, qayd etmoq (*asbob haqida*)
- registered** [*redʒistəd*] *a* ro'yxatga olingan, qayd qilingan, yozib qo'yilgan; a ~ letter buyurtma xat
- registerar** [*redʒis'tro:*] *n* 1) FHDYO (*fugarolik holati dalolatnomalarini yozib olish bo'limi*) xodimi; 2) o'quv yurti kotibi; talabalar ro'yxatini o'zlashtirish hisobini yuritadigan universitet xodimi; 3) yur.sudya yordamchisi; 4) ro'yxatga olish byurosi
- registration** [*redʒi'strejʃ(ə)n*] *n* 1) ro'yxatga olish, qayd qilish; 2) FHDYO (*fugarolik holati dalolatnomalarini yozib olish bo'limi*); 3) (*asbobning*) qayd etishi, ko'rsatishi
- registry** [*redʒistrɪ*] *n* 1) ro'yxat bo'limi; devonxona; 2) FHDYO bo'limi
- regress** *1. n* [ri'græs] 1) qaytish, orqaga qaytish; 2) teskari harakat; *2. v* [ri'gres] 1) orqaga qaytarmoq; 2) teskari harakat qilmoq
- regression** [ri'greʃ(ə)n] *n* avvalgi holatiga qaytish
- regret** [ri'gret] *1. n* afsuslanish, achinish; afv, uzr, pushaymon bo'lish, o'kinish; *to feel ~ rahmi kelmoq*; *2. v* afsuslanmoq, achinmoq
- regrettable** [ri'gretəb(ə)l] *a* o'ta achinlarli, qayg'uli, hasratli
- regrettably** [ri'gretablɪ] *a* achinib, qayg'urib, hasrat bilan
- regular** [ri'julər] *1. n* pl 1) muntazam (doimiy) qo'shinlar; 2) so'zl. dnimiy mijoz; *2. a* 1) muntazam; 2) doimiy; 3) malakali, mahoratli; 4) hozirgi, shu paytdagi; 5) *gram. to'g'ri*; ~ verbs to'g'ri fe'llar; 6) odadtagi
- regularize** [*regjuləraɪz*] *v* tartibga solmoq, yo'lga qo'yimoq, yaxshilamoq
- regularly** [*regjulərlɪ*] *adv* tez-tez, muntazam
- regulate** [*regjuleɪt*] *v* 1) tartibga solmoq, yo'lga qo'yimoq; 2) (*talabga, sharoitga*) moslashitirmoq
- regulation** [*regju'leɪʃ(ə)n*] *n* 1) tartibga solish, yo'lga qo'yish, tartib, qoida; ~siz nom; qo'llanma; 2) *attr.* belgilangan; to exceed the ~ speed belgilangan tezlikdan oshirmoq
- rehabilitate** [*ri:(h)bili'teɪt*] *v* 1) huquqni tiklamoq; 2) sog'liqni tiklamoq
- rehabilitation** [*ri:(h)ebili'teɪʃ(ə)n*] *n* oqlash, huquqlarini tiklash; 2) sog'liqni tiklash
- rehearsal** [ri'hæ:s(ə)] *n* repetitsiya, tay-yorgarlik, mashq qilish; **dress** ~ so'nggi (oxirgi) tayyorgarlik
- rehearse** [ri'hæ:s] *v* tayyorgarlik ko'rmoq; mashq qilmoq
- rehouse** [*ri:hauz*] *v* yangi uylarga ko'chirmoq
- reign** [*reɪn*] *1. n* podshohlik; 2) hokimiyat, hukmronlik; *2. v* hukmronlik qilmoq
- reimburse** [*ri:imb's:s*] *v* pulni qaytarib bermoq
- rein** [*reɪn*] *1. v* jilovlamoq; *2. n* jilov; **to draw ~** otning jilovini tortmoq
- reincarnation** [*ri:inko:nɛiʃ(ə)n*] *n* boshqa shaklda ifodalananish, boshqacha shaklga kirish
- reindeer** [*reindɪər*] *n* zool. shimol bug'usi
- reinforce** [*ri:m'fɔ:s*] *v* 1) kuchaytirmoq; mustahkamlamoq; 2) *qur.* (*betonni*) armaturalamoq
- reinforced concrete** [*ri:infəst'koŋkrɪ:t*] *n* temir-beton

reinforcement [ri:ɪn'fɔ:sment] *n* 1) kuchaytirish, mustahkamlash; 2) *qur.* (*temir-betonning*) armaturasi

reins [reɪnz] *n* 1) jilov; 2) yugan; 3) tutib (jilovlab) turuvchi kuch

reinstate [rɪ:ɪn 'steɪt] *v* 1) (*kimsaning huquqlarini*) tiklamoq; 2) (*o'z sog 'lig'ini*) tiklamoq; 3) eski holiga qaytarmoq

reissue [ri: 'ɪsu:] *n* qayta nashr qilingan kitob

reiterate [ri: 'ɪtəreɪt] *v* takrorlamoq, qaytarmoq; qaytadan bajarmoq

reject [ri: 'dɛkt] *v* rad etmoq, yuz o'girmoq

rejection [ri: 'dɛkʃ(ə)n] *n* voz kechish, rad etish; 2) *p!* chiqindilar

rejoice [ri: 'dʒɔ:s] *n* 1) sevinmoq; xursand bo'lmoq; to ~ at nimadandir xursand bo'lmoq; 2) bayram qilmoq

rejoin [ri: 'dʒɔ:n] *v* 1) qaytmoq; 2) qayta qo'shilmoq, birlashmoq

rejoinder [ri: 'dʒɔ:nðə] *n* qarshi harakat, qarshi javob

rejuvenate [ri: 'dʒu:vəneɪt] *v* yoshartirmoq, yosh qilib ko'rsatmoq

rejuvenation [ri: 'dʒu:və'neɪʃ(ə)n] *n* yoshartirish, yosh holiga qaytarish

re-laid [ri: 'leɪd] *past., p. p. of re-lay*

relaid [ri:leɪd] *past., p. p. of relay I*

relapse [ri: 'læps] *n* 1) takrorlanish, qaytarilish; 2) *tib.* kasalning qo'zishi

relate [ri: 'leɪt] *v* 1) hikoya qilib bermoq; 2) munosabat (aloqa) o'matmoq

related [ri: 'leɪtɪd] *a* bog'liq, aloqador; taalluqli

relation [ri: 'leɪʃ(ə)n] *n* 1) qarindosh; tug'ishan; a near ~ yaqin qarindosh; 2) munosabat, rishta, aloqa

relations [ri: 'leɪʃonz] *n* munosabat, aloqa

relationship [ri: 'leɪʃ(ə)nʃɪp] *n* o'zaro munosabat; munosabat; 2) qarindoshlik, yaqinlik

relative [ri: 'relətɪv] 1. *a* nisbiy, qiyosiy, o'zaro; 2. *n* qarindosh; a remote ~ uzoq qarindosh

relax [ri: 'læks] *v* 1) (*muskullarni*) bo'shashatirmoq; 2) tanaffus qilmoq, dam olmoq

relaxation [ri:læk'seʃ(ə)n] *n* 1) bo'shashatirish, (*keskinlikni*) yumshatish; ko'ngil ochish; 2) tanaffus, dam

relaxed [ri: 'lækst] *a* xotirjam, tinch

relaxing [ri: 'laeksɪŋ] *a* pasaytiradigan, kamaytiradigan; yumshoq (muloyim) qiladi-gan

re-lay [ri: 'ler] *v* (**re-laid**) boshqatdan (yanigidan) yotqizmoq, qurmoq

relay II [ri: 'lei] *v* (**re-laid**) (*asosan, otlarni*) alishmoq, alishurmoq

relay II [ri: 'lei] *n sport.* estafetali musobaqa relay-race [ri:letrɛɪs] *n sport.* estafeta yugurish

release [ri: 'li:s] *v* 1) (*qamoqdan*) ozod qilmoq; xalos qilmoq; 2) (*og'rinqi, dardni*) yurnshatirmoq, yengillashirmoq; 3) *tex.* ajratirmoq, uzib qo'yimoq; 4) (*ekranga*) chiqarmoq

released [ri: 'li:sd] *a* 1) (*qamoqdan*) ozod qilingan; 2) yengillashgan (*og'rinq, dard*); 3) *tex.* ajratilgan

relegate [ri: 'leɪgeɪt] *v* 1) jo'natmoq, yo'llamoq, berib yubormoq; 2) (*qandaydır sıfıga*) tegishli bo'lmoq

relent [ri: 'lent] *v* yumshamoq, muloyim (mayin) bo'lmoq

relentless [ri: 'lentləs] *a* ayamaydigan, shafqatsiz, berahm, qahri qattiq

relevant [ri: 'reləv(ə)nt] *a* 1) o'rnli, ahamiyataga ega bo'lgan, muhim o'rın tutgan; 2) ishga aloqador bo'lgan

reliable [ri: 'laɪəb(ə)l] *a* mustahkam, ishonchli; ~ information ishonchli ma'lumot; a ~ friend ishonchli do'st

reliance [ri: 'lərəns] *n* ishonch, ishoniш

relic [relik] *n* 1) iz, qoldiq; 2) sargit; 3) *pl* chirimay saqlangan murda; 4) *pl* esdalik, yodgorlik

relief [ri: 'li:f] *n* 1) yengillashish (*og'rinq, azob haqida*), taskin, tasallii; 2) ishsizlik nafaqasi; 3) yordam, ko'mak

relieve [ri: 'li:v] *v* 1) yengillashirmoq; yengillatmoq, yengil qilmoq; 2) yordam bermoq, yordamga kelmoq

relieved [ri: 'li:vd] *a* xotirjam

religion [ri: 'lɪdʒ(ə)n] *n* 1) din; to get ~ dinga berilmox; 2) rohiblik; to enter into ~ rohiblikka o'tmoq

religious [ri: 'lɪdʒəs] *a* 1) diniy; 2) dinga berilgan, xudojo'y, taqvodor

relinquish [ri: 'lɪŋkwɪʃ] *v* 1) tashlamoq, to'xtatirmoq, bas qilmoq, tark etmoq; 2) bermoq, topshirmoq; 3) yur. (*huquqdan*) voz kechmoq

relish [ri: 'lɪʃ] *n* 1) lazzat, maza; 2) yoqimli ta'm, hid

relive [ri: 'liv] *v* qaytadan hayotga qaytmoq, tirilmox

relocate [ri:leɪt] *v* ko'chmoq, ko'chirmoq

reluctance [ri: 'lʌktəns] *n* xohlamaslik, istamaslik; with ~ uncha xohlamasdan

reluctant [ri: 'lʌktənt] *a* 1) (*nimanidir*) istaristamas bajaruvchi; 2) istar-istamas qiligan, majburiyat yuzasidan bajarilgan

rely [ri: 'lai] *v* suyanmoq, tayanmoq, ishonmoq; to ~ on ... ga ishonmoq (suyanmoq)

- remade** [rɪ: 'meɪd] *past., p. p. of remake*
- remain** [rɪ: 'men] *v qolmoq; ~der qoldiq*
- remaining** [rɪ: 'meininq] *1. a qolgan; 2. n qo-*
lish
- remains** [rɪ: 'meinz] *n pl 1) qoldiq; 2) qolgan*
(ortgan) narsa
- remake** [rɪ: 'meɪk] *v (remade) qaytadan*
qilmoq, yangidan yasamoq
- remark** [rɪ: 'mə:k] *1. v 1) ko'rib qolmoq,*
ko'rmoq, sezmoq; 2) fikr bildirmoq, o'z
fikrini bermoq; 2. n fikr, mulohaza; to pass
a ~ o'z fikrini aytmoq
- remarkable** [rɪ: 'ma:kəbl(a)] *a 1) ajoyib, ajab-*
lanlari, g'alati, ajib; juda yaxshi; 2) mash-
hur, atoqli, mislsiz, misli ko'rilmagan
- remarkably** [rɪ: 'ma:kəblɪ] *adv juda yaxshi,*
ajoyib, benazir
- remedy** [rɪ: 'remdi] *1. v 1) to'g'rılamоq, tuzat-*
moq; 2) davolamoq; 2. n 1) dori-darmon;
2) (biror narsaga qarshi) vosita, chora
- remember** [rɪ: 'membə] *v yodda tutmoq,*
eslamоq, xotirlamoq
- remembrance** [rɪ: 'membrəns] *n esdalik, yod-*
gorlik, xotira
- remind** [rɪ: 'maɪnd] *v esiga tushirmoq, eslat-*
moq, esga tushmoq; to ~ about ...haqida
eslatmoq; yodiga tushirmoq; to ~ of ...ni
eslatmoq; to ~ of somebody biror kishini
eslatmoq; to ~ of something biror narsani
eslatmoq
- reminder** [rɪ: 'maɪndə] *n eslatish, esga solib*
qo'yish; ogohlantirish; eslatma; gentle ~
shama, ishora
- reminisce** [rɪ: 'remɪs'nis] *v o'tmishni xotirla-*
moq
- reminiscence** [rɪ: 'remɪs'nis(a)ns] *n esdalik,*
yodgorlik, xotira
- reminiscent** [rɪ: 'remɪs'nis(a)nt] *a eslatadigan,*
esga solib qo'yadigan
- remiss** [rɪ: 'mis] *a beparvo, beg'am; ishyoq-*
mas
- remission** [rɪ: 'mis(a)n] *n 1) kechirish, afv*
etish, gunhidan o'tish; 2) (jarima, soliq
va sh. k. dan) ozod qilmoq
- remit** [rɪ: 'mit] *v 1) kechirmoq, afv etmoq;*
2) (jarima, soliq va sh. k. dan) ozod qilmoq
- remittance** [rɪ: 'mit(a)ns] *n 1) jo'natish, yu-*
borish; 2) pulni jo'natish
- remnant** [rɪ: 'remnənt] *n 1) sarqit, qoldiq, qol-*
gan ovqat; 2) eskilik sarqiti (qoldig'i);
3) parcha, bo'lak, kesik, laxtak (gazlama
haqida)
- remonstrance** [rɪ: 'monstrəns] *n 1) e'tiroz,*
qarshilik; 2) nasihat (o'git) qilish
- remonstrate** [rɪ: 'mənstri:t] *v norozilik bil-*
dirmoq, qarshilik qilmoq
- remorse** [rɪ: 'mo:s] *n vijdon azobi*
- remorseful** [rɪ: 'mo:sf(ə)] *a afsuslangan, pu-*
shaymon, afsus chekkan
- remorseless** [rɪ: 'mo:sles] *a rahmsiz, shaf-*
qatsiz, berahim
- remorselessly** [rɪ: 'mo:slesli] *adv ayamay,*
rahm-shafqat qilmay, shafqatsizlik bilan,
beshafqat
- remote** [rɪ: 'məut] *a 1) uzoq, olis, viroq; the*
~ past uzoq o'tmish; 2) unchalik katta (yoki
ko'p) bo'lмаган, kam, oz; a ~ controller
bosnqarish pulti
- remotely** [rɪ: 'məuthi] *adv sira, hech, aslo,*
hech bi, zarracha ham
- remoteness** [rɪ: 'məutnəs] *adv olistik, uzoq-*
lik, yiroqlik
- removal** [rɪ: 'mu:v(ə)] *n 1) ko'chish, ko'chi-*
rish (transport vositasida); 2) olib tashlash,
yig'ishtirish, yo'q qilish; 3) (lavozimdan)
ha'shatish
- remove** [rɪ: 'mu:v] *1. n 1) qadam, bosqich;*
uzoqlashish darajasi; at many ~s uzoq
masofada; 2) o'quvchini keyingi sinfga
o'tkazish; his son has not got his ~ uning
o'g'li ikkinchi yilga o'z sinfiga qoldi 2. v
1) chetlashtirmoq; olmoq, tortmoq; 2) siljim-
moq, qo'zg'atmoq, o'mini o'zgartirmoq;
3) yo'q (bartaraf) qilmoq, olib tashlamoq;
4) (lavozimdan) bo'shatmoq; 5) yechmoq
(kiyimi)
- removed** [rɪ: 'mu:vd] *a 1) uzoqlashgan, uzoq-*
laشتirilgan; 2) uzoqdagi, olisdagι
- remuneration** [rɪ: 'mju:nə'reɪʃ(ə)n] *n muko-*
fot, haq
- renaissance** [rɪ: 'neɪs(ə)ns] *n 1) (the R) uy-*
g'onish davri; 2) jonlanish, tiklanish; avj
olish (san'at va b. haqida)
- rename** [rɪ: 'neɪm] *v bashqa nom qo'yimoq,*
nomini o'zgartirmoq
- rend** [rend] *v (rent) ko'chirmoq, shilmoq,*
ko'chirib (shilib) olmoq, ko'chirib (shilib)
tashlamoq
- render** [rendə] *1. n 1) to'lash; 2) to'lanadi-*
gan, olinadigan pul, haq, to'lov; 2. v 1) to'-'
lamoq; 2) bermoq, ko'rsatmoq; to ~
assistance yordan bermoq; 3) ifodalamoq,
bayon etmoq
- rendezvous** [rənd(e)ivu:] *n fr. uchrashuv,*
ko'rishish, ko'rishuv
- renegade** [rə'nɪgɪd] *n xoин, sotqin, xiyo-*
natchi
- renew** [rɪ: 'nju:] *v yangilamoq, tiklamoq, o'r-*
natmoq, qayta qurmoq, boshidan boshlamoq
- renewable** [rɪ: 'nju:əb(a)] *n tiklanadigan re-*
surslar, boylik resurslari
- renewal** [rɪ: 'nju:əl] *n 1) qaytadan (yangit-*
dan) tiklash; yangilash; yangilanish; 2) mud-
datini uzaytirish

renounce [ri'nauns] v 1) (*o'z huquqi, tala-bi, odati va b. dan*) voz kechmoq, bahridan o'tmoq; 2) (*do'silaridan*) kechmoq, yuz o'girmoq

renovate ['renəveɪt] v yangilamoq, tuzatib yangiday qilmoq, pardoz berib yangila-moq, ta'mirlamoq

renovation [rena'veɪʃ(ə)n] n tuzatish, ya-mash, ta'mirlash

renown [ri'naun] n shuhrat, dong, nom, mashhuriik

renowned [ri'naund] a mashhur, atoqli, no-mi chiqqan, dongdorlik

rent I [rent] 1. n ijara puli; 2. v 1) ijaraga ol-moq; 2) ijaraga bermoq

rent II [rent] past., p. p. of rend

rental ['rentl] n ijara haqi

renunciation [ri'nansı eɪʃ(ə)n] n (*huquq va sh. k. dan*) rad etish, voz kechish

reorganization [ri:ɔ:gənər'zeɪʃ(ə)n] n 1) qaytadan tuzish, qayta qurish, qayta(dan) tashkil etish; 2) o'zgartirish, qayta o'zgartirish, o'zgartirib yuborish

reorganize [ri:ɔ:gənaɪz] v qayta tashkil qilmoq

rep I [rep] n pishiq gazlama

rep II [rep] n buzuq (axloqsiz) kishi, xo-tinboz

repaid [ri'peɪd] past., p. p. of repay

repair [ri'peə] v tuzatmoq, sozlamoq; ta'-mirlamoq; to ~ a house uyni ta'mirlamoq; to be under ~ ta'mirlamoq

reparation [repə'reɪʃ(ə)n] n tovon, badal

repartee [repɔ:t̩i:] n gapga ustalik, picching, o'tkiz gap

repast [ri'pa:st] n ovqat, ovqatlanish

repatriate [ri:pætrɪteɪt̩] 1. n vatanga qaytgan (qaytayotgan) kishi; 2. v o'z vataniqa qaytarmoq

repatriation [ri:pætrɪ'eɪʃn] n vatanga qaytish

repay [ri'pei] v (repaid) 1) qarzni to'lamoq (to); 2) (*tashrif*) buyurmoq; 3) mukofotla-moq, taqdirlamoq

repayable [ri'peɪəb(ə)l] a qaytarib to'la-nadigan

repayment [ri'peɪmənt] n pulni qaytarish, to'lanadigan, olinadigan pul, haq, to'lov

repeal [ri'pi:l] v bekor qilmoq, kuchdan goldirmoq (*qonun va b. hagida*)

repeat [ri'pi:t̩] v 1) takrorlamoq, qaytar-moq; 2) yoddan takrorlamoq; 3) takrorlan-moq, yana uchramoq

repeated [ri'pi:tid̩] a tez-tez bo'ladigan, tak-roriy, takror

repeatedly [ri'pi:tidli] adv bir necha marta, qayta, takror-takror, takrorlab

repeater [ri'pi:ta] n 1) takrorlaydigan kishi; 2) takror jinoyat qiluvchi kishi

repel [ri'pel] v 1) itarib yubormoq, tutib yubormoq, surib qo'yimoq; 2) rad qilmoq, qaytarmoq

repellent [ri'pelənt] a 1) nafrat uyg'otadi-gan; 2) kishini achchiqlantiradigan, g'azab-lantiradigan

repent [ri'pent] v achinmoq; pushaymon bo'lomoq; o'kinmoq; ~ance achinish, o'kinish; ~ant achinarli, o'kinchli

repercussion [ri:pɔ: 'kʌʃ(ə)n] n 1) aks sa-do, uzoqdan eshitilgan (yetib kelgan) ovoz; 2) aks, oqibat; ta'sir; natija

repertoire ['repɔ:t̩ərɪ] n narsalar saqlan-digan (asraladigan) joy

repetition [,repɪ'tɪʃ(ə)n] n takrorlash, qaytarish

repetitious [,repɪ'tɪʃəs] = repetitive

repetitive [ri'petitiv] a 1) timimsiz takrorla-nib turadigan; 2) zerikarli, kishini zeriktira-digan

replace [ri'pleɪs] v 1) o'z joyiga qo'yimoq; 2) qaytarmoq; 3) o'mini bosmoq; to ~ the borrowed money olgan pulni qaytarib bermoq

replaceable [ri'pleɪsəb(ə)l] a almashtirib (alishtirib) bo'ladigan, almashinuvchi

replacement [ri'pleɪsmənt] n 1) o'mini olish (bosish); 2) vaqtinchal o'miga ishflash

replay [ri:'pleɪ] v qaytadan (boshqatdan) o'ymamoq, yangidan o'ymamoq (*chal-moq*)

replenish [ri'plenɪʃ] v qaytadan (boshqatdan) to'dirmoq

replete [ri'pli:t̩] a 1) to'ydirligan, to'ydrib yuborilgan; 2) to'la (liq), serob; 3) (*biror narsaga*) boy, mo'l

repletion [ri'pli:t̩ʃ(ə)n] n 1) to'yib ketish, juda to'ydirisib; 2) liq to'lalik, to'lib-tosh-ganlik; 3) qondirish

replica ['repɪkə] n ko'chirma, nusxa, qolip, andaza

reply [ri'plar] 1. v javob bermoq, javob qaytarmoq, javob qilmoq; to ~ to ... ga javob bermoq; 2. n javob; in ~ to ... ga javoban

report [ri'po:t̩] 1. v xabar bermoq, hisobot bermoq; 2. n 1) xabar, hisobot; ~er muxbir; 2) ma'ruza

reporting [ri'po:t̩ɪŋ] n reportaj

repose [ri'peəz] n 1) dam olish, istirohat qilish, orom olish, hordiq chiqarish; 2) na-fasni rostlash

- repository** [ri'pozit(ə)n] *n* narsalar saqlanadigan (asraladigan) joy, o'mborxona
- rehprehend** [,reprɪ'hend] *v* 1) tanbeh bermoq, tergab koyimoq; 2) muhokama qilmoq, hukm chiqarmoq
- represent** [,reprɪ'zent] *v* vakil bo'lmoq, vakil bo'lib qatnashmoq; *to ~ a country* mamlakat vakili bo'lmoq
- representation** [,reprɪzen'teɪʃn] *n* vakilik, vakolatxona
- representative** [,reprɪ'zentətɪv] *n* vakil, delegat, vakil qilib jo'natilgan kishi; *an accredited ~* muxtor vakil
- repress** [ri'pres] *v* 1) (qo'zg'olon va b. ni) kuch bilan bosmoq; 2) jazolamoq
- repressed** [ri'prest] *a* kuch bilan bosilgan, eziqan
- repression** [ri'preʃ(ə)n] *n* jazo, jazo chorasi
- repressive** [ri'presɪv] *a* jazo tariqasida (jazolash uchun) qo'llaniladigan
- reprise** [ri'pri:v] *n* (*o'lim jazosi*) hukm ijrinosini keyinga qoldirish
- reprimand** [*reprima:nd*] *v* tanbeh bermoq, hayfsan e'lon qilmoq, urishmoq
- reprint** [ri'prɪnt] *v* qayta nashr qilmoq
- reprisal** [ri'praɪz(ə)n] *n* jazo, jazo tadbirlari
- reproach** [ri'prəʊtʃ] *n* ta'na, malomat, gina qilish, yuziga solish
- reproachful** [ri'prəʊtʃf(ə)l] *adv* ta'na, ginali, ta'nani ifodalaydigan
- reproachfully** [ri'prəʊtʃf(ə)li] *adv* ta'na bilan, gina qilib, o'pkalab
- reprobate** [r'reprobet] *n* 1) buzuq odam, suyuqyoq; 2) razil (qabih, past) odam, yaramas, ablak, nobakov
- reproduce** [ri'prə'dju:s] *v* 1) qayta (takror) ishlab chiqarmoq; 2) aks ettirmoq, tasvirlamoq; 3) nusxa olmoq; 4) tiklamoq, asliga keltirmoq; 5) ishlab chiqarmoq
- reproduction** [ri'prə'dʌkʃn] *n* 1) qayta ishlab chiqarish; 2) ko'paytirish, ko'payish, nusxa olib ko'paytirish
- reproductive** [ri'prə'dæktɪv] *a* qayta ishlab chiqaruvchi (chiqaradigan)
- reproof** [ri'pru:f] *n* 1) ogohlantirish, tanbeh; 2) ta'na, malomat
- reprove** [ri'pru:v] *v* tanbeh bermoq, tergab koyimoq
- reptile** [r'reptɪl] *n* zool. sudralib yoki o'rmatlab yuradigan hayvon
- republic** [ri'publik] *n* respublika; jumhuriyat; *to proclaim a ~* respublika deb e'lon qilmoq
- republican** [ri'publikən] *a* respublikaga oid, jumhuriyatga oid, respublika..., jumhuriyat...
- repudiate** [ri'pjū:dɪeɪt] *v* 1) rad qilmoq, inkor qilmoq, tonnomoq; 2) voz kechmoq, bahridan o'tmoq
- repugnance** [ri'pagnəns] *n* 1) yoqtirmsaslik, xush ko'rmaslik; nafrat, jirkaniш; 2) zidlik, to'g'ri kelmaslik
- repugnant** [ri'pagnənt] *a* 1) bir-biriga to'g'-ri kelmaydigan; 2) yomon, chidab bo'lmaydigan, nafratni qo'zg'aydigan
- repulse** [ri'pʌls] *n* qarshi zarba, qarshilik; qarshi zarba berish, qaytarish, daf qilish
- repulsion** [ri'palʃ(ə)n] *n* 1) yoqtirmsaslik, xush ko'rmaslik; 2) (*dushmanga*) qarshi zarba berish
- repulsive** [ri'palsɪv] *a* jirkanch, qabih, razil, manfur, juda yomon, yoqimsiz, sovuq
- reputable** [repjutəb(ə)l] *a* humatli, izzatl, muhtaram
- reputation** [,repju:tɪʃ(ə)n] *n* obro', shuhurat, e'tibor, dong, yaxshi nom; *to blacken smb.'s ~* birovning obro'sini to'kmoq
- repute** [ri'pjū:t] *n* obro', e'tibor, shuhurat, dong, yaxshi nom
- reputed** [ri'pjū:tɪd] *a* 1) yaxshi obro'ga ega bo'lgan; 2) mashhur, nom chiqargan
- reputedly** [ri'pjū:tɪdlɪ] *adv* umumiy mulohazalarga ko'ra
- request** [ri'kwest] 1. *n* iltimos, talab; *at the ~ of ...* ning iltimosiga ko'ra; 2. *v* iltimos qilmoq; *to grant smb.'s ~* birovning iltimosini qondirmoq
- require** [ri'kjue] *v* 1) talab qilmoq; buyurmoq; 2) (*nimagadir*) muhtoj bo'lmoq
- requirement** [ri'kjue'mənt] *n* 1) talab, zaruriy sharoit, zarurat, talabnomasi; 2) ehtiyoj
- requisite** [r'rekwizit] *a* kerakli, zarur; *the number of votes ~ for election* saylash uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori
- requisition** [r'rekwɪzɪʃ(ə)n] *n* rasmiy talab; 2) ehtiyoj, talab; 3) talabnomasi
- rescind** [ri'sind] *v* bekor qilmoq, yo'q qilmoq, kuchdan goldirmoq
- rescue** [r'reskju:] 1. *n* qutqarish; ozod qilish; *to come to the ~* yordamga kelmoq; 2. *v* qutqarmoq, ozod (xalos) qilmoq
- rescuer** [r'reskjuər] *n* qutqaruvchi, xalos qiluvchi, xaloskor, najotkor
- research** [ri'sɜ:tʃ] 1. *n* tadqiqot, o'rganish, ilmiy tekshirish; 2. *v* ilmiy ish olib bormoq; *to be engaged in ~* ilmiy ish bilan band bo'lmoq
- researcher** [ri'sɜ:tʃər] *n* tekshiruvchi, tadqiqotchi
- reseat** [ri'si:tʃ] *v* 1) yana (qayta) o'tirg'izmoq; 2) yangi kreslolarni qo'yamoq (*teatr va b. da*)

- resemblance** [ri'zembləns] *n* o'xshashlik, bir xillik, bir xil bo'lish; **to bear** ~ o'xshamoq; **to have a strong ~ to smb.** kimgadir juda o'xshamoq
- resemble** [ri'zemb(ə)l] *v* o'xshamoq, o'xshash bo'lmoq
- resent** [ri'zent] *v* qattiq g'azablanmoq, ach-chiqilanmoq; g'azabi kelmoq
- resentful** [ri'zentf(ə)l] *a* xafa bo'lgan, ran-jigan, ko'ngli og'rigan, dilsiyoh, xafa
- resentment** [ri'zentmənt] *n* g'azab, nafrat, qahr
- reservation** [,rezo'veis(ə)n] *n* saqlash, olib qo'yish, atab goldirish, zaxira qilib qo'yish; oldindan joy band qilib qo'yish (*mehmonxonada*)
- reserve** [ri'zə:v] *1. n* g'arnlab qo'yilgan narsa, zaxira, ehtiyyot; *2. v* 1) g'amlamoq, g'amlab qo'ymoq; 2) (*mehmonxona, restoran va sh. k. dan*) joy band qilib qo'yimoq
- reserved** [ri'zə:vd] *a 1)* kamgap, pismiq; *2)* oldindan buyurtirilgan; **a ~ seat** *a* oldindan buyurtirilgan joy; *b)* teatrqa oldindan olingan chipta
- reservoir** ['rezəvwa:] *n* suv ombori, hovuz
- reshaped** [,ri'ʃept] *a* o'zgargan, o'zgartirilgan, boshqa shaklga o'tkazilgan
- shuffle** [ri'ʃʌfl] *n* o'mini almashtirib qo'yish, boshqa joyga ko'chirib qo'yish, joylarini almashtirib o'matish
- reside** [ri'zaɪd] *v* istiqomat qilmoq, yashamoq, umr kechirmoq
- residence** ['rezidəns] *n* istiqomat qiladigan, yashaydigan joy; turar joy, qarorgoh
- resident** ['rezidənt] *n* doimiy yashovchi (turuvchi) kishi
- residential** [,rezi'den̩(ə)n] *a 1)* yashash uchun mo'lallangan; *2)* yashash joyi bilan bog'liq bo'lgan
- residue** [rezi'dju:] *n* qoldiq, qolgani, ortgani; qolgani narsa
- resign** [ri'zain] *v* iste'foga chiqmoq, ishdan bo'shamoq
- resignation** [,rezig'naiʃ(ə)n] *n* iste'foga chiqish
- resigned** [ri'zaind] *a* gapga kiradigan, rozi bo'ladijan, ko'ngilchan, yumshoq
- resilience** [ri'ziliəns] *n* egiluvchanlik, taranglik, elastiklik, qayishqoqlik
- resilient** [ri'zilient] *a 1)* egiluvchan, qayish-qoq, tarang; *2)* xushchaqchaq, quvnoq
- resin** ['rezin] *1. n* smola, yelim (*ba'zi o'simliklarning oqib chiqib qotih qoladigan shirasi*)
- resist** [ri'zist] *v* qarshilik ko'rsatmoq, qarshilik qilmoq
- resistance** [ri'zistəns] *n* qarshilik, qarshi chiqish, qarshilik ko'rsatish; **to overcome the ~ (of)** qarshilikni yengmoq; **to offer ~** qarshilik qilmoq
- resistant** [ri'zistənt] *a* chidamli, pishiqlik, puxta; mahkam, mustahkam
- resolute** ['rezəlu:t] *a* barqaror, matonatli, mustahkam, salobatli, qat'iy, dadil
- resolutely** ['rezəlu:tli] *adv* qat'iyat bilan, jasurlik bilan, jasurona
- resolution** [,reza'lju:s(ə)n] *n* qaror; **to adopt ~** qaror chiqarmoq; **joint ~** qo'shma qaror; **draft ~** qaror loyinasi
- resolve** [ri'zolv] *1. n* niyat, maqsad, o'y; qasd, ahd; *2. v* qaror qabul qilmoq; qarorga kelmoq
- resonant** ['rezənənt] *a* jarangdor, jarangli, yaxshi eshitiladigan
- resort** [ri'zo:t] *v* 1) himoya, yordam, madad; *2)* taskin, tasalli; *3)* kurort; *4)* yordam so'rab murojaat qilish
- resound** [ri'zaund] *v* ovoz (tovush) chiqarmoq, sadolammoq
- resounding** [ri'zaudin] *n* tovushning qaytishi, tovushni qaytarish
- resource** [ri'sɔ:s] *n* 1) boylik, zaxiralar; **natural ~ s** tabiy boyliklar; *2)* manba, vosita
- resourceful** [ri'sɔ:sf(ə)l] *a* tadbirli, tadbirkor, topqir
- respect** [ri'spekt] *1. n* 1) hurmat, e'tibor; **~ for ...** ga hurmat; **with (in) ~ to ...** xususida, haqida; *2)* munosabat; *2. v* hurmat qilmoq
- respectable** [ri'spektəb(ə)l] *a* hurmatli, izzatlari, muhtaram, hurmatga sazavor bo'lgan, hurmatga loyiq; ulug', tartibili
- respectful** [ri'spektf(ə)l] *a* odobli, hurmat (izzat) qiladigan; hurmat bilan; ehtirom bilan
- respecting** [ri'spektɪŋ] *prep.* **to 'g'risida,** haqida, xususida
- respective** [ri'spekrɪv] *a* mos, muvofig, tegishli, kerakli, loyiq
- respectively** [ri'spekrɪvl] *adv* 1) mos ravishda, tegishlichka, tegishli ravishda; yarasha; *2)* ko'rsatilgan tartibda
- respiration** [respi'reiʃ(ə)n] *n* nafas olish, nafas
- respirator** ['respi'reɪtə] *n* respirator (*nafas olish, ko'rish va eshitish a'zolarini zaharli gaz va changdan saqlaydigan asbob*)
- respite** ['respit] *n* 1) dam olish, nafasni rostlash; *2)* keyinga qoldirish, kechikitish, keyinga surish
- resplendent** [ri'splendənt] *a* yaltiroq, porloq, yorqin, yarqiragan
- respond** [ri'spond] *v* javob bermoq; **to ~ with a blow** qarshi zarba bermoq

- response** [rɪ' spɒns] *n* 1) javob, in ~ to ...ga javoban; 2) sado
- responsibility** [rɪ'sponsəblɪtɪ] *n* javobgarlik, burch, mas'uliyat; to take the ~ javobgarlikni o'z zimmasiga olmoq
- responsible** [rɪ'sponsəb(ə)l] *a* javobgar, mas'ul; to be ~ for smth. nimagadir mas'ul bo'lmoq; ~ for ...ga mas'ul
- responsibly** [rɪ'sponsəblɪ] *adv* mas'uliyatni (javobgarlikni) o'z bo'nyiga olib
- responsive** [rɪ'sponsɪv] *a* javob tariqasidagi (ma'nosidagi), javoban qilingan
- rest I** [rest] *1. n* dam, dam olish; *2. v* dam olmoq
- rest II** [rest] *n* 1) qoldiq; 2) qolganlar, boshqalar; keep the ~ for yourself qolganini o'zingizga oling
- restaurant** ['rest(a)rənt, -ront] *n* restoran
- restful** [restf(ə)] *a* tinchlantritadigan, yupatadigan, ovutadigan, orom beradigan
- restitution** [rɪ'stɪʃn] *tju:[(ə)n]* *n* 1) qaytarish, qaytarib berish; 2) tiklash
- restive** ['restiv] *a* 1) o'jar, qaysar, tutgan joyini kesadigan; 2) asov (ters) ot
- restless** ['restləs] *a* notinch; beorom, tinib-tinchimaydigan; 2) tinch (tek) tura olmaydigan; 3) tashvishli
- restoration** [,restɔ: 'reɪʃn(ə)n] *n* qayta qurish, tiklash, tuzishat, ta'mirlash
- restorative** [rɪ'stɔ:rə'tɪv] *1. a* quvvatni oshiradigan, tetiklantiradigan; *2. n* quvvat (darmo) beradigan vosita
- restore** [rɪ'stɔ:] *v* qayta qurmoq; tiklamoq, tuzatmoq, ta'mirlamoq; to ~ one's health
- sog** [ləni] tiklamoq
- restrain** [rɪ'streɪn] *v* 1) cheklamoq, chek qo'ymoq, chegaralamoq; 2) ozodlikdan mahrum qilmoq, qamoqqa olmoq
- restrained** [rɪ'streɪnd] *a* 1) o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq; 2) cheklangan
- restraint** [rɪ'streɪnt] *n* o'zini dadil tutish, o'zini tuta bilish, o'zini yo'qotmaslik, dadilik
- restrict** [rɪ'strɪkt] *v* cheklamoq
- restricted** [rɪ'strɪktɪd] *a* cheklangan, chegaralangan, tor
- restriction** [rɪ'strɪkʃn(ə)n] *n* cheklash, chek qo'yish; without ~ cheksiz
- restrictive** [rɪ'strɪktɪv] *a* cheklaydigan, chek qo'yadigan, chekllovchi, chegaralovchi
- result** [rɪ'zalt] *1. n* natija, ogibat, samara; without ~ natijasiz; as a ~ of natijada; *2. v* 1) kelib chiqmoq (*from*); 2) biror natija bilan tugamoq (*In*); to ~ in natijaga ega bo'lmoq
- resume** [rɪ'zju:m] *v* yangidan boshlamoq, qaytadan boshlamoq; yana davom ettirmoq; well, to ~ demak, davom etamiz
- résumé** [rɪ'zjumeɪ] *n* fr. 1) qisqacha avto-biografiya; 2) ma'lumot; qisqacha xulosa; konspekt
- resumption** [rɪ'zʌmpʃn(ə)n] *n* yangidan, qaytadan boshlash, davom ettirish
- resurgent** [rɪ'ssə:dʒ(ə)nt] *a* 1) (avvalgi) holi-ga qaytayotgan; 2) tiklanayotgan
- resurrect** [,rezə'rekt] *v* so'zl. 1) tirilmoq, hayotga qaytmoq; 2) tiriltirmoq
- resurrection** [,rezə'rekʃn(ə)n] *n* qaytadan vujudga kelish, tug'ilish, jonlanish, tirlish
- resuscitate** [rɪ'sasiteɪt] *v* tirlitirmoq, hayotga qaytarmoq; *tirilmoq*, hayotga qaytmoq; o'ziga (hushiga) kelmoq
- retail** ['ri:teɪl] *n* 1) chakana savdo; at ~ donalab; by ~ chakanalab, donalab; 2) *attr.* chakana savdoga oid; ~ price chakana narx
- retailer** [rɪ'teɪlə] *n* do'kondor, attor; chakana savdogar; 2) g'i'ybatchi odam, gap tashuvchi
- retain** [rɪ'teɪn] *v* 1) ushlab (saqlab) qolmoq, tutib qolmoq; 2) saqlamoq, asramoq; 3) esda tutmoq, yodda saqlamoq, eslamoq
- retaliatory** [rɪ'tæliətɔrɪ] *v* o'ch olmoq, qasos olmoq, alamini olmoq
- retaliation** [rɪ'tæli'eɪʃn(ə)n] *n* 1) ajr, evaz, mukofot; 2) o'ch, qasos
- retard** [rɪ'tɑ:d] *v* to'xtatmoq, to'xtatib (tutib, ushlab) qolmoq
- retarded** [rɪ'tɑ:did] a sekinlashgan, sekinlagan, sekinlatgan
- retch** [retʃ] *1. n* quish, qayt qilish; qusuq; *2. v* kekirmoq
- retention** [rɪ'tenʃn(ə)n] *n* 1) tutib qolish; 2) saqlab qolish, saqlash; 3) eslab qolish qobiliyati; xotira
- retentive** [rɪ'tentɪv] *a* 1) saqlab qola oladigan, saqlaydigan; 2) yaxshi (*xotira haqida*)
- rethink** [rɪ'thɪŋk] *v* (*rethought*) qaytadan ko'rib chiqmoq; yana bir qarab chiqmoq
- rethought** [,rɪ:θɔ:t] *past, p. p. of rethink*
- reticence** [rɪ'tɪs(ə)ns] *n* 1) o'zini tuta bilish, vazminlik, osoyishtalik; 2) sirini (ichidagini) hech kimga aymastaslik; yashirintlik, maxriylik
- reticent** [rɪ'tɪs(ə)nt] *a* 1) o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq; 2) yashirin, maxfiy
- retinue** [retju:] *n* tantanali yurish, namoyish
- retire** [rɪ'taɪz] *v* 1) uzoqlashmoq, yiroqlashmoq, uzoqqa ketmoq; 2) uxlagani yotmoq; 3) iste'foga chiqmoq; ~d iste'foga chiqqan
- retirement** [rɪ'taɪmənt] *n* iste'foga chiqish
- retiring** [rɪ'taɪ(ə)rɪŋ] *a* kamtar, oddiy, sipo; uyatchan
- retort I** [rɪ'tɔ:t] *n* retorta (*laboratoriyalarda ishlataladigan bo'g'zi uzun va bir tomonqa qaytarilgan idish*)

- retort** [rɪ'tɔ:t] 1. n e'tiroz, qarshilik; qo'rs javob; 2. v 1) qo'rs javob bermoq; 2) rad etmoq
- retouch** [rɪ'taʊtʃ] n retush, retushlash (*retush - bo'yog, qalam kabilar bilan negativ yoki suratning kam-ko'stini to'g'rakash, tuzatish*)
- retrace** [rɪ'treɪs] v iziga (ketiga) tushmoq, orqasidan poylab bormoq, ta'qib qilmoq
- retract** [rɪ'trækt] v 1) tortib (sudrab) kiritmoq (yoki chiqarmoq); 2) (*so'z va sh. k.ni*) qaytarib olmoq; (*va'da va sh. k. ni*) rad etmoq
- retreat** [rɪ'tri:t] 1. n chekinish; 2. v chekinmoq, orqaga qaytmoq
- retrench** [rɪ'trentʃ] v qisqartirmoq, kamaytirmoq, ozaytirmoq
- retrenchment** [rɪ'trentʃmənt] n tejash, (*chiqim va b. ni*) kamaytirish
- retribution** [rɪ'tribju:t(ə)n] n qasos, o'ch, jazo
- retrieve** [rɪ'tri:v] v 1) qayta topib olmoq; 2) o'ziga qaytarib olmoq; 3) oldingi holtiga qaytarmoq
- retrospection** [rɪ'trə:spekf(ə)n] n o'tmishga murojaat, o'tmishga nazar (tashlash)
- retrospective** [rɪ'trə:spektiv] a o'tmishga qaratilgan, o'tmishga nazar solib qilinigan
- retrospectively** [rɪ'trə:spektivli] adv o'tmishga nazar solib, o'tmishni hisobga olgan holda
- return** [rɪ'tɔ:n] 1. n 1) qaytarish, qaytarib berish, qaytib kelish; in ~ javoban; o'miga; in ~ for ...ning o'miga; 2) pl saylov natijalari; 3) xabar, axborot, ma'lumot; 2. v qaytib kelmoq, qaytarib bermoq
- returnable** [rɪ'tɔ:nəbl] a 1) qaytarib berilishi kerak bo'lgan; 2) qaytarib olinadigan (*tara haqida*)
- reunion** [rɪ'ju:nɪən] n qaytadan birlashtirish, qaytadan qo'shilish (birlashish)
- reunite** [rɪ'ju:nɪ:t] v qaytadan qo'shmoq, qaytadan birlashtirmoq
- rev** [rev] so'zl. 1. n („revolution“ ning qisqartmasi) aylanish (*dvigatel, motor haqidagi*); 2. v („revolve“ ning qisqartmasi) aylanmoq
- revanche** [rɪ'vɑ:nʃ] n fr. qasos olish, o'ch olish, intiqom
- revanchist** [rɪ'vɑ:nʃɪst] n qasoschi, qasos oluvchi kishi
- reveal** [rɪ've:l] v ko'rsatmoq, ochmoq, fosh etmoq, oshkor qilmoq, ochib tashlamoq; to ~ a plot fitnani fosh etmoq
- revealing** [rɪ've:liŋ] a fosh qiladigan, aybini (kamchiliklarini) ochadigan
- reveille** [rɪ've:lə] n *harb*, uyg'otish, uyg'otish signali, ertalabki jismoni mashqlar
- revel** [rɪ'vel] 1. n quvnoqlik, xushchaq-chaqlik, xursandlik; 2) pl kichik ziyofat
- revelation** [rɪ'velə:tɪf(ə)n] n 1) (*sir va sh. k. ni*) ochish, fosh etish; 2) *din*. vahiy
- revenge** [rɪ'vendʒ] 1. n qasos, o'ch, intiqom, qasd; 2. v qasos olmoq, o'ch olmoq; to ~ oneself (up) on smb. birovdan o'ch olmoq
- revenger** [rɪ'vendʒə] n qasos (o'ch) oluvchi; qasoskor
- revenue** [rɪ'venu] 1) daromad; 2) daromad manbayi; 3) soliq va yig'imir departamenti; moliya boshqarmasi
- reverberate** [rɪ've:b(ə)rət] v aks etmoq, qaytarmoq
- reverberation** [rɪ've:bə'reɪʃ(ə)n] n aks, tasvir; 2) aksini (soyasini, tasvirini) ko'r-satmoq
- revere** [rɪ've:r] v chuqur izzat-hurmat qilmoq, qadrilamoq, ehtirom qilmoq, ixlos qo'yimoq
- reverence** [rɪ've:rəns] n chuqur hurmat, izzat, ehtirom, izzat-ikrom
- reverend** [rɪ've:rənd] a hurmatli, izzatli, muhtaram
- reverent** [rɪ've:rənt] a hurmat (izzat) qiladigan; odobli
- reverie** [rɪ've:ri] n 1) xayol surish, orzu-xayollarga berilish, xayol surish; 2) orzu, xayol
- reversal** [rɪ've:s(ə)n] n 1) (*tanga pul va b. ning*) teskarli (orqa) tomoni; 2) teskarilik, egrilik; 3) muvaffaqiyatsizlikka uchramoq
- reversible** [rɪ've:sib(ə)n] a 1) asl holiga qayta oladigan; qaytariladigan; 2) ikki tomonlama (*mato haqida*)
- reversion** [rɪ've:sɪʃ(ə)n] n 1) (*oldingi holatda*) qaytish; 2) biol. atavizm (*ajdodlarda bo'lgan belgilarning bir necha bo'g'indan keyingi avlodda takrorlanishi*)
- revert** [rɪ've:t] v 1) oldingi holatga qaytmoq; 2) yur. oldingi egasiga o'tmoq
- revet** [rɪ've:t] v ustini, sirtini qoplamoq
- review** [rɪ'vej] 1. n 1) ko'zdan kechirish, qayta ko'rib chiqish; 2) taqriz, sharh; to pass in ~ ko'zdan kechirmoq; 2. v ko'zdan kechirmoq, qayta ko'rib chiqmoq
- reviewer** [rɪ'vejə] n sharhlovchi; kuzatib horuvchi; taqrizchi

- revise** [ri'vaiz] v 1) qayta ko'rib chiqmoq, tekshirmoq; 2) tuzatmoq, to'g'rilamoq; 3) qarab (ko'rib) chiqmoq
- revised** [ri'vizeid] a tahrir qilingan, tuzatilgan, to'g'rilangan
- revision** [ri'viʒ(ə)n] n qaytadan ko'rish, qaytadan qarab chiqish, takrorlash
- revisionism** [ri'viʒənizm] n siyos. revisionizm (*biror-bir ta'limot, nazariya, nuqtayi nazar prinsiplarini va qoidalalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiluvchi ta'lilot*)
- revisionist** [ri'viʒənist] n revisionist (*revizionizm tarafidori*)
- revival** [ri'varv(ə)l] n uyg'onish, jonlanish, qayta tiklanish, yuksalish
- revive** [ri'veiv] v 1) tiklamoq, jonlanmoq, ruhanmoq; 2) qaytadan (yangidan, boshidan) boshlamoq; to ~ a play tomoshani boshidan boshlamoq
- revoke** [ri'veuk] v (*qonun, buyruq va b. ni*) bekor qilmog
- revolt** [ri'veult] 1. n qo'zg'olon, isyon; 2. v isyon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq, qo'zg'olon qilmoq
- revolting** [ri'veultin] a 1) (*biror narsaga qarshi*) bosh ko'taruvchi; 2) jirkantiradijan, juda xunuk, yoqimsiz
- revolution I** [revə'lu:ʃə(n)] n 1) inqilob; 2) ijtimoiy-siyosiy tuzumdagagi keskin o'zgarish; to'ntarish, to'ntarilish
- revolution II** [revə'lu:ʃə(n)] n 1) aylanish; 2) tex. aylanish, oborot
- revolutionary** [revə'lu:ʃənə(n)] 1. a inqilobi; 2. n inqilobchi
- revolutionize** [revə'lu:ʃənaiz] v revoltsion g'oyalarni tarqatmoq (yoymoq), inqilobiyashitirmoq
- revolve** [ri'veolv] v aylanmoq, aylantirmoq, burammoq, buralmoq
- revolver** [ri'velvə] n 1) to'pponcha; 2) tex. baraban (*mashina va mexanizmlarning silindr shaklidagi qismi*)
- revolving** [ri'velvɪŋ] a aylanadigan, buriladigan, aylanma
- revue** [ri'vju:] v 1) revyu (*teatrda bir mavzudagi ayrim nomer, episod va ko'rinishlardan iborat tomosha*); 2) kundalik umumiyyat mavzudagi bir necha xil nomerdan tuzilgan estrada-teatr tomoshasi
- revision** [ri'vəlʃ(ə)n] n 1) kutilmaganda yuz bergan o'zgarish; 2) nafrat, jiranish; 3) tib. (*qonning*) kamayishi
- revulsive** [ri'valsiv] a tib. diqqatni chetga tortadigan, chalg'itadigan
- reward** [ri'wo:d] 1. n mukofot; 2. v mukofotlamoq, taqdirlamoq
- rewind** [ri'waind] v qaytadan (yangidan) o'ramoq; boshqatdan o'ramoq
- rewrite** [ri'rait] v (**rewrote; rewritten**) qaytadan yozib chiqmoq, ko'chirmoq
- rewritten** [ri'reitn] p. p. of rewrite
- rewrite** [ri'raʊt] past. of rewrite
- rhapsodic(al)** [ræp'sodik(ə)l] a 1) g'oyat zavqli, quvonchli; 2) shod-xurram
- rhapsody** [ræpsədi] n mus. rapsodiya (*xalq qo'shiqlari, dostonlari mavzusidagi misiqa asari*)
- rheostat** [ri'eſtæt] n el. reostat (*tok kuchini va uning kuchlanishini rostlab, taritiba solib turadigan apparat*)
- rhesus** [ri:səs] n zool. rezus (*makakalar urug'iga mansub maymun*)
- rhetor** [ri:tə] n nutqi yaxshi shaxs, notiq, gapdon
- rhetoric** [ri'retɔrik] n notiqlik san'ati
- rhetorical** [ri'tɔrik(ə)l] a 1) dabdabal, ritorik; 2) notiqlik qoidalariga asoslangan
- rhetorician** [ri'retɔriʃən] n mahmadona, gapdon
- rheum** [ru:m] n tumov
- rheumatic** [ru'mætik] 1. a revmatizmga (bod kasalligiga) oid; 2. n bod kasaliga yo'liqkan odam
- rheumaticky** [ru'mætiki] a so'zl. bod kasalligiga oid
- rheumatism** [ru'mætiz(ə)m] n tib. revmatizm, bod (*kasallik*)
- rheumatiz** [ru'mætiz] = rheumatism
- rhinestone** [rainsteon] n 1) tog' xrustali; 2) soxta brilliant
- Rhine wine** [rain' wain] n reynveyn (*uzum vinosining bir nav'i*)
- rhino I** [rainəu], "rhinoceros" so'zining qisqartirilgan shakli
- rhino II** [rainəu] n sl. pul, aqcha
- rhinoceros** [raɪnos(ə)rəs] n zool. 1) shoxli qo'ng'iz; 2) karkidon (*toq tuyogli sutemi-zuvchilarغا mansub, bitta yoki ikkita shoxi bor, terisi qalin, bahaybat katta hayvon*)
- rhododendron** [rəʊdə'dendrən] n bot. alp atirguli
- rhomb** [romb] n mat. romb (*hamma tomonlari teng parallelogramm*)
- rhombi** [rombaɪ] pl of rhombus
- rhombic** ['rombɪk] a rombga oid, rombsimon, romb shaklidagi
- rhomboid** [rombɔɪd] n mat. parallelogramm (*qarama-qarshi tomonlari o'zarlo teng va parallel bo'lgan to'rburchak*)
- rhombus** [rombəs] n (pl -bi [-bar]) romb
- rhubarb** ['ru:ba:b] n hot. rovoch, rivoch (*yirik bargli, ildizi yo'g'on o'tsimon ko'p yillik o'simlik*)

rhumb [ram] *n* *deng.* rumb (*ufqning 32 dan bin qismiga, ya'ni 11.25 ga teng kompas darajasi*)

rhyme [raim] *n* qofiya, qofiyali she'r, double ~ urg'u she'rey satrning oxiridan ikkinchi bo'g'iniga tushadigan qofiya; single ~ urg'u she'rey satrning oxirgi bo'g'iniga tushadigan qofiya

rhymed [raimd] *a* qofiyali, qofiyadosh, qofiyaga solingan

rhymer ['raime] = **rhymer**

rhymer ['raimste] *n* qofiyaboz (*no'noq shoir haqida*)

rhythm [riθ(ə)m] *n* ritm, vazn, marom, magom

rhythmic(al) ['rõmik(ə)l] *a* ritmli, vaznli, changli, bir maqomdag'i; uyg'un, bir tekis

rib [rib] *n* 1) *anat.* qovurg'a; 2) qirra, yon, biqin; 3) o'tkir uch

ribald ['rib(ə)ld] 1. *n* og'zi buzuq odam, qo'pol (dag'al, qo'rs, tarbiyasiz) odam;

2. *a* uyatsiz, adabsiz, yuzsiz, beor

ribaldry ['rib(ə)ldrı] *n* beodob gap, behayo ibora, so'kinish, qo'pollik, dag'allik, qo'rslik

ribbed [ribd] a 1) qovurg'asi chiqqan; 2) qovurg'ali, qirrali, qovurg'asimon

ribbon ['ribən] 1. *n* lenta, tasma; **typewriter** ~ yozuv mashinasining lentasi; 2. *v* lenta bilan bezamoq

ribboned ['rib(ə)nd] *a* lenta bilan bezatilgan

rice [rais] *n* 1) *bot.* sholi; 2) guruch; 3) *attr.* guruchdan qilingan, guruchli; a ~ field sholipoya

rice-flakes [rais 'fleiks] *n pl* parchalangan (yanchilgan) guruch

rice-paper [rais,peipa] *n* sholi qog'oz (*sholi poxolidan qilingan yupqa pishiq qog'oz*)

rice-water [rais,wo:tə] *n* xo'rda, yovg'on xo'rda; guruch qaynatmasi

rich [ritʃ] a 1) boy, badavlat; ~ in ... ga boy; 2) serhosil, hosildor; ~ harvest mo'l hosil; 2) (diqqat-e'fiborga) arziyidigan; qimmatli, loyiq; a ~ suggestion e'fibor berishga arziyidigan taklif

Richard Roe [ritʃəd reʊ] *n* yur. sud jarayonidagi aybdor (javobgar) shaxs (*asosan, ismi ma'lum bo'maganlarga ishlatalidi*)

riches ['ritʃɪz] *n* boylik, mol-mulk; the ~ of the soil yerosti boyliklari

richly ['ritʃli] *adv* farovon, boy, to'q, hasham bilan

richness ['ritʃnəs] *n* boylik, mol-mulk, dunyo, davlat, bisot

rick I [rik] 1. *n* g'aram, to'p; 2. *v* g'aramlamoq, to'plamoq

rick II [rik] = **wrick**

rickets ['rikits] *n* rib, raxit, shirzada, mechekay (*yosh bolalar kasali*)

rickety ['rikiti] *a* 1) raxit (mechkay) kasalligiga oid; 2) nozik, nimjon, zaif (*sog'liq haqida*); 3) liqillab (qimirlab, chayqalib) turadigan, shaloq, bo'sh, liqildoq; a ~ chair omonat (shaloq) stal

ricksha(w) ['rikʃɔ:] *n* yap. riksha (*Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlariida ikki g'ildirakli aravaga qo'shilib, odam va yuk tashiydigan hammol*)

ricochet ['rikəfei] *n* rikoshet (*otilgan tosh, o'q kabilarning tekkan joyidan sapchib, nari uchib ketishi*)

richtus ['rikta:s] *n* lot, og'iz bo'shlig'i

rid [rid] *v* (rid, ridded) ozod qilmoq, qutqarmoq, qutulmoq, qutqazmoq; to get ~ of smth., smth. kimdandir, nimadandir qutulmoq

ridable ['raidi:b(a)l] *a* otda yurishga yaroqli

riddance ['rid(e)ns] *n* 1) qutqarish, ozod qilish, xalos etish; 2) yo'qotish, yo'q qilish, bartaraf qilish, barham berish

riddard ['ind(a)l] *n* darparda (*mehrobda, cherkov ibodatxonasida*)

ridden ['ridn] *p. of ride* 2

-ridden [-,ridn] *a* murakkab so'zlar oldida ishlatalib, (nimaningdir) ixtiyorida, izmida, qo'lida; (*nimagadir*) butun vujudi bilan berilgan, degan ma'nolarni anglatadi

riddle I ['ridl] 1. *n* topishmoq; cho'pchak; 2. *v* muammo qilib gapirmoq

sand-pit [sænd,pit] n ochiq qum koni

sand-shoes [sændʃu:z] n tagi rezinali plajda kiyiladigan oyoq kiyim

sand-spout [sændspa:t] n qum uyurmasi

sandstone [sændstən] n geol. qumtos (qumning jipslanishidan hosil bo'lgan tog'jinsi)

sand-storm [sændsto:m] n 1) samum (*Osiyo va Afrika cho'llarida: issiq va quruq shamol*); 2) qumli bo'ron, qum bo'roni

sandwich [sænwidz] n sandwich, buterbrod (*ustiga sariyog' surtilgan yoki pishloq, kolbasa yaprog'i qo'yilgan bir kesik non*)

sandwich-board [sænwidzbo:d] n reklamalar osib qo'yish uchun qilingan taxta

sandy [sændi] a qumli, qum bilan qoplangan

sane [se:n] a 1) ruhiy jihatdan sog'gom, aqli raso, es-hushi joyida; 2) to'g'ri, oqilona, bama'ni

sang [sæŋ] past. of sing

sanguinary [sæŋgwɪn(ə)rı] a qonga oid, qonli

sanguine [sæŋgwɪn] a serharakat; tez ta-sirlanadigan; xushchaqchaq; ~ of success muvaffaqiyatga ishongan

sanitarian [sænɪ'te(ə)rɪən] 1. a sanitariya

ga oid; sanitariya; 2. n sanitariya shifokori

sanitarium [sænɪ'te(ə)rɪəm] n sanatoriya

yaga oid, gigiyenaga oid, gigiyena qoidalariqa asoslangan, sog'liqni saqlashga xizmat qiladigan, gigiyenik; ~ belt gigiyena kamari (belbog'i)

sanitary [sænit(ə)rı] n sanitariya; ~ engineering sanitariya texnikasi

sanitation [sænɪ'teɪʃ(ə)n] n sog'lig'inini yaxshilash, tuzatish, sog'aytirish

sanity [sænɪti] n aqli rasolik, ruhiy jihatdan sog'gomlik

sank [sæŋk] past. of sink

sans [sæns] prep. so'zl. hazil. yo'glik manosini bildiradi: -siz; ~ teeth tishi yo'q, tishsiz, tishi tushgan

Santa Claus [sæntəklo:z] n qorbobo

sap I [sæp] n 1) (o'simlik) shirası, suvi; 2) ig nabargli daraxtlarning smolali yelimi; 3) ya-

- shash qobiliyati, yashovchanlik; 4) *bot*, *po'stloq osti qatlami* (*daraxting po'stloq ostidagi yangi yog'och qismi*)
- sap II** [sæp] 1. *n* *harb.* ochiq yerdagi okop; yer ostidan kovlangan yer; 2. *v* *harb.* tagidan (ostidan) kovlamoq, qazimoq
- sap III** [sæp] 1. *n* *so'zl.* 1) tushunmasdan yodlovchi, qirotxon; 2) zerikarli ish; 3) tushunmasdan yodlash; 2. *v* tushunmasdan yodlamoq
- sap-green** [sæp 'grin] *n* itshumurt mevasi dan olingen yashil bo'yog
- sap-head** [sæphed] *n* 1) *harb.* ochiq yerdagi okopning boshi; 2) *so'zl.* ahmoq, tentak, nodon
- sapid** [sæpid] *a* 1) shirin, mazali; 2) mazmurdon (*suhabat haqida*)
- sapidity** [sæp 'pidit] *n* 1) ta'm, maza, tot, lazat; 2) mazmendorlik, ma'nodorlik, sermazmunlik, barna'nilik
- sapience** ['sepiəns] *n* donishmandlik, donolik, oqillik
- sapient** ['sepiənt] *a* donishmand, dono, oqil
- sapiential** ['sepi 'en[(ə)]l] *a* 1) donishmand, dono, oqil; 2) ta'lim-tarbiya beradigan, ibratli, nashatomuz, ibrat (saboq, namuna) bo'ladigan
- sapless** [sæpləs] *a* 1) quruq, suvi qochgan; 2) bema'ni, mazmunsiz, ma'nosiz, puch, sayoz
- sapling** [sæplɪŋ] *n* ko'chat, kichkina daraxt, daraxtcha
- saponaceous** [sæpə 'neʃəs] *a* 1) sovunga oid; sovunli; sovun ...; 2) *hazil*. zaytun moyiga oid, zaytun moyi
- saponify** [sə 'ponifai] *v* *kim.* sovunlanmoq
- sapper** [sæpər] *n* minachi (*minalar qo'yuvchi, ularni zararsizlantiruvchi yosh mina otuvchi*)
- sapphire** ['sæfaɪə] 1. *n* sapfir (*zangori yoki ko'kish yoqtu*); 2. *a* to'q ko'k, to'q zango ri
- sappy I** [sæpi] 1) sersuv, shirali, shirador; 2) kuchli, quvvatlari
- sappy II** [sæpi] *a* *so'zl.* aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahm
- saprogenic, saprogenous** [sæprə(u) 'dʒenik, sæ 'prodʒnəs] *a* chiritadigan, iritadigan, chirtuvchi
- saprof** ['sæprot] *n* *bot.* po'stloq osti qatlami (*daraxting po'stloq ostidagi yangi yog'och qismi*)ning chirishi
- sapwood** ['sæpwud] *n* *bot.* po'stloq osti qatlami (*daraxting po'stloq ostidagi yangi yog'och qismi*)
- saraband** ['særəbænd] *n* sarabanda (*qadimgi ispancha raqs va uning musiqasi*)
- Saracen** ['særəs(ə)n] *n* *tar.* saratsinlar (*musulmon xalqlarining qadimgi nomi, musulmonlar*)
- Saracenic** [,særə 'senik] *a* *tar.* saratsinlarga oid; saratsin(lar)...
- Saratoga** [,særa 'tauga] *n* *amer.* katta chamadon, safarga olib chiqiladigan sandiq sareasm [*so:kæz(ə)m*] *n* achchiq kinoya, piching, istehzo
- sarcastic** [sa: 'kæstik] *a* 1) istehzoli, achchiq, zahar; 2) qattiq botadigan
- sarcastically** [sa: 'kæstik(ə)li] *adv* masxara (mazax, mayna) qilib
- sarcoma** [sa: 'kəʊma] *n* (*pl.-ata [-ətə]*) *tib.* sarcoma (*xavfi o'smaning, rakning bir turi*)
- sarcomata** [sa: 'kəʊmata] *pl* of *sarcoma*
- sarcophagi** [sa: 'kɒfəgəi] *pl* of *sarcophagus*
- sarcophagus** [sa: 'kɒfəgəs] *n* (*pl.-agi [-əgəi]*) sarkofag (*qadimgi tosh tobut*)
- sardine** [sa: 'di:n] *n* *zool.* sardina (*selldlarga mansub mayda baliq*); packed like ~s tiqilib ketgan, tiqilib yotibdi, g'ij-g'ij
- sardonic** [sa: 'donik] *a* istehzoli, achchiq, zaharli
- sardonyx** [sa:dəniks] *n* *min.* sardoniks (*qim-mathaho targ'il tosh*)
- sari** [sa:ri] *n* sari (*hind ayollarining kiyimi*)
- sarsenet** ['sa:snit] *n* yupqa astarbop shoyi
- sartorial** [sa: 'tɔ:riəl] *a* tikuvchilikka (mashinachilikka) oid; tikuvchilik (mashinachilik) ...; kiyim tikuvchiga (mashinachiga) oid; mashinachi (kiyim tikuvchi) ...; tikuvchilik ...
- sash I** [sæʃ] *n* 1) belbog', kamar, qayish; 2) orden lentasi
- sash II** [sæʃ] *n* deraza panjarasi
- sash window** ['sæʃ, wɪndəʊ] *n* ko'tarma (ko'tariladigan) deraza
- Sassenach** ['sæsanæk] *n* irl. shotl. ingliz sat [sæt] *past.*, *p. p. of sit*
- Satan** ['seitn] *n* iblis, shayton, jin
- Satanic** [sæ 'tænik] *a* iblisga (shaytonga) oid, iblisga (shaytonga) xos bo'lgan
- satchel** [sætʃ(ə)] *n* jild, sumka (*kitob uchun*)
- state** [seit] *v* to'ydirmoq, to'yg'izmoq; *to - oneself with 1)* (*ovqat yeb*) juda to'ymoq, to'yib ketmoq; 2) (*biror narsani takrorlanaverishidan*) to'ymoq, zerikib ketmoq, charchamoq, bezmoq, qoniga tegmoq
- stateen** [sə 'ti:n] *n* satin (*ipakka o'xshash yaltiroq ip gazlama*)
- stateless** ['seitləs] *a* shoir, to'ymagan, qonmagan
- satellite** ['sæt(ə)laɪt] *n* 1) astr. sun'iy yo'l-dosh; 2) malay, yugurdak; 3) sherik, yordamchi

- satellite dish** [‘sætəlɪndɪʃ] *n* sun’iy yo'l-dosh tarelkasi
- satisfiable** [‘seɪfəbl(ə)l] *a* qoniqadigan, qanoat-lanadigan, qanoat hosil qiladigan, mammun bo’ladigan
- satiate** [‘seɪft(e)ɪt] *1. v* juda to’ydirmoq, to’ydirib yubormoq; *2. a* juda to’yan ketgan, miriqish, juda to’ydirish
- satiety** [sa’tetɪ] *n* to’qlik, to’yanlik, qor-ni to’qlik
- satin** [sætn] *n* atlas (*geografik karta*)
- satinette** [setɪ ‘net] *n* to’q. satinet, yupqa satin
- satin paper** [‘sætin,peɪpə] *n* satindek jilo beradigan qoq’oz
- satiny** [‘sætɪnɪ] *a* ipakdek mayin, ipak-simon, ipakka o’xshagan, ipak (shoyi)...
- satire** [‘sætɪərɪ] *n* 1) hajviy asar; 2) istehzo, kinoya, piching
- satirical** [sa’trɪkl(ə)l] *a* satirik, hajviy
- satirically** [sa’trɪkl(ə)lɪ] *adv* hajv qilib, ustidan kulib, mazax qilib
- satirist** [sæturɪst] *n* hajviyachi, hajv qiluvchi
- satirize** [‘sætɪraɪz] *v* hajv qilmoq, masxara qilmoq, mazax (mayna) qilmoq, kulmoq
- satis** [‘sætɪs] *adv* lot, yetarli, yetarli darajada, yetarlicha
- satisfaction** [‘sætɪsfɪkʃ(ə)n] *n* 1) qondi-rish, qanoatlantirish; it is a ~ to know that ... ni bilish quvonarli (yoqimli); 2) satisfaksiya (*feodal-dvoryanlar jamiyatida: tahqirlangan tomonning izzati nafsi qondirish uchun yakama-yaka olishuv, duel*); to demand ~ duelga chaqirmoq
- satisfactory** [‘sætɪs ‘fækt(ə)rɪ] *a* qanoatlarnarli, qoniqarli
- satisfied** [‘sætɪsfɪd] *a* qoniqqan, qanoat-langan, qanoat hosil qilgan, qongan, mammun bo’lgan
- satisfy** [‘sætɪsfai] *v* qanoatlantirmoq, to’g’ri kelmoq, qondirmoq; to ~ with nimadandir qoniqmoq
- satisfying** [‘sætɪsfajɪŋ] *a* qoniqtiradigan, qanoatlanturadigan, qanoat hosil qildiradigan
- satrap** [‘sætrəp] *n* tar. 1) satrap, viloyat ho-kimi (*Qadıngi Eron va Midiyada*); 2) ko’ch. kit. haddan oshgan (zolim) amaldor
- saturate** [‘sætʃə'reɪt] *v* to’yinmoq, singmoq
- saturation** [‘sætʃə’reɪʃ(ə)n] *n* to’yintirish, to’yg’izish, to’ydirish, qondirish; ~ capacity yutish, (shimish, singdirish, o’ziga olish) qobiligi
- Saturday** [‘sætədeɪ] *n* shanba
- Saturn** [‘sætən] *n* astr. Saturn (*Quyosh sistemasining oltinchi katta sayyorasi: Zuhayl, Kayvon*)
- Saturnalia** [‘sætər ‘neɪliə] *n pl 1* tar. (*Qadıngi Rimda*) hosil bayrami; 2) ko’ch. kayfsafo, aysh-ishrat
- saturnine** [‘sætənɪn] *a* qayg’uli, g’amgin, ma’yus, xafa
- satyr** [‘sætɪər] *n* fokishaboz, buzuq odarn, suyuqyoq
- sauce** [so:s] *n* qayla, ziravor
- sauce boat** [‘sɔ:shəʊt] *n* ziravor qayla (sous) idishi, qayladon
- saucebox** [‘sɔ:shboks] *n* 1) surbet (sur) odam, shilqim, gustox, sulloh; 2) qo’rs (qo’pol muomalali) bola
- saucepans** [‘sɔ:spæn] *n* ovqat pishiriladigan metall idish
- saucer** [‘sɔ:sə] *n* 1) likopcha, tarekkacha, kichkina tarelka; ~ eyes katta va yumaloq ko’zlar; 2) turum, tovon, tayanch; 3) tex. vtulka
- saucy** [‘sɔ:sɪ] *a* 1) surbet, bezbet, shilqim, beor; 2) yaxshi kiyangan, bezangan
- sauerkraut** [‘sauəkraʊt] *n* tuzlangan kar-ran
- sauna** [so:nə, ‘saunə] *n* sauna (*fin hammomi*)
- saunter** [‘so:ntə] *n* 1) sayr, tomosha, aylanib kelish; 2) asta-sekin qadam tashlash
- sausage** [‘sosidʒ] *n* kolbasa, sosiska, hasip, qazi
- sausage meat** [‘sosidʒ mi:t] *n* kolbasaning qiyima go’shti
- sausage roll** [‘sosidʒ’rəʊl] *n* go’shtli yoki sosiskali
- savage** [‘sævɪdʒ] *1. a* 1) yovvoyi, vahshiy; 2) shafqatsiz, zolim; *2. n* 1) yovvoyi odam; 2) so’zl. kishilarga qo’shilmaydigan odam; tortinchoq odam
- savagely** [‘sævɪdʒlɪ] *adv* 1) yovvoyilarcha, yovvoyi holda, vahshiylarcha; 2) shafqatsizlik bilan, zolimlarcha
- savagery** [‘sævɪdʒ(ə)rɪ] *n* 1) yovvoyilik, vahshiylik; madaniyatsizlik; 2) qattiqlik, qo’pollik, dag-allik
- savanna(h)** [sa’vænə] *n* geogr. savannalar, tropik cho’l-biyobonlar
- savant** [‘sæv(ə)nt] *n fr.* olim, biror sohadagi yirk mutaxassis
- save** [serv] *v* 1) qutqarmoq, xalos qilmoq, qutqarib (saqlab) qolmoq; to ~ from ...dan saqlamoq (qutqarmoq); 2) tejamоq, ehtiyoq qilmoq; 2) to ~ oneself kuchini ayamoq (ehtiyoq qilmoq)
- savin(e)** [‘sævɪn] *n* bot. archa, qora archa
- saving** I [‘serɪvɪŋ] *1. n* 1) tejash, ehtiyoq qiliş; 2) qutqarish, xalos qilish; 3) qo’shimcha sharh (tushuntirishni) o’z ichiga olgan; ~ clause qo’shimcha sharhn o’z ichiga olgan maqola; *2. a 1* qutqaradigan, najot be-

radigan, najotbaxsh; 2) tejamkor, ayab (tejab-tergab) sarf qiladigan

saving II [seivin] n pl yig 'ilgan (to~plangan, jamg' arilgan) pul, mablag'; jamg'arma
savings-bank [seivinzbænk] n omonat kas-sa; jamg'arma bank

saviour [seivie] n najotkor, xaloskor, qutqa-nichchi

saviour ['seivie] = savior

savor [seiva] amer. = savour

savory I [seiv(e)rɪ] n hot, jambil

savory II [seiv(e)rɪ] amer. = savoury

savour [seiva] 1. n 1) ta'm, maza, tot, laz-zat; 2) boshqacha, qo'shimcha ta'm, bosh-qa narsadan yuqqan yoqimsiz ta'm; 3) esk. muattar hid, xushbo'y is; 4) ta'mi o'tkirlik, nordonlik

savoury ['seiv(e)rɪ] a 1) mazali, lazzatli, totli, shirin; 2) mazasi (ta'mi) o'tkirl
saw I [so:] 1. n arra; 2. v (sawed; sawed, sawn) arralamoq; arra bilan kesmoq (qirq-moq), tilmoq; ~dust qipiqliq, qirindi; **to ~ the air** qo'l silkitmox

saw II [so:] past. of see

saw III [so:] n matal, maqol

sawbones [so:bənz] n so'zl. jarroh

sawfish ['so:fɪʃ] n zool. arrabaliq (*yirtqich baliqlarning bir turi*)

sawmill ['so:,mɪl] n taxta tiladigan zavod, taxta tilish zavodi

sawn [so:n] p. p. of **saw** I, 2

Sawney ['so:nɪ] n 1) so'zl. soddadil (go'l) odam; befahn (anqov, laqma) odam; 2) shot-landiyaliklar

saw set ['so:set] n kergi (arra tishini chapa-rasta qiladigan ashoh)

sawyer ['so:jə] n arrakash

sax I [sæks] n shifer bolg'asi

sax II [sæks] n saksofon (*puflab chalinadigan musiqa asboblarining bir turi*)

Saxon ['sæks(ə)n] 1. n 1) tar. saksler (*Elba-daryosi bo'yida yashagan german qabilasi*); 2) ingliz

saxony ['sæks(ə)n] n yupqa jun gazlama
saxophone ['sæksəfəʊn] n saksofon (*puflab chalinadigan musiqa asboblarining bir turi*)

say [ser] v (said) gapirmoq, ma'lum qilmoq, aytmoq; I ~ ! menga qara(ng)!; eshit-sang(iz)-chi!; qulqoq solsang(iz)-chi; 2) bay-bay-bay, voy-bo'y; ana xolos; you don't ~ so! qo'ysang(iz)-chi; borli(ing)-e!; they ~ aytishlaricha, odamlarning gapiga qaraganda; what do you ~ to a game of chess bir partiya shaxmat o'ynashga nima deysiz? let us ~ aytaylik, deylik, faraz qiyaylik, masalan; **to ~ a good word for** birov

uchun iltimos qilmoq, bir og'iz gapirib (aytib) qo'ymoq; **to ~ no rad qilmoq**, rad javobi bermoq, yo'q demoq; **to ~ no more Jim bo'lmoq**, Jimib qolmoq, o'chmoq; **to ~ one's lesson darsga javob bermoq**; **to ~ the word buyruq bermoq**; **that is to ~ ya'ni**; **what I ~ is menimcha**; **to ~ on gapishni davom ettirmoq**; **to ~ out ochiqdan ochiq gapirmoq**; **to ~ over qaytarminoq, tak-rorlamoq**

saying ['seɪŋ] n matal, maqol; **as the ~ is** aytganlaridek, aytliganidek; **it goes without** ~ o'z-o'zidan ma'lum (*ravshan, tushunarli*); **there is no ~** aytish qiyin, aytishning imkoniyati yo'q

scab [skæb] n tib. 1) yaradagi qo'tir; 2) qo-raqo'tir, qotgan yara

scabbard [skæbəd] n qin, g'ilof; **to throw away the ~** hal qiluvchi jangda qatnashmoq

scabbies ['skebɪz] n tib, qichima, qo'tir

scabby [skæbi] a qasmoq bog'lagan; qichima (qo'tir) dan azobylanotgan

scabrous ['skebrəs] a 1) g'adir-budur, g'u-dur-budur, silliq emas; 2) qitig'i bor, ser-qitiq; 3) beadab, behayo

scad [skæd] n stavrida (*mayda baliq turi*)

scaffold ['skæfəld] n 1) havoza (*qurilish-larda devor yoniga yog'och yoki metalldan qavat-qavat qilib ishlangan muvaqqat qurima*); 2) jallod to'nkasi, bosh chopiladi-gan kunda

scald I [sko:ld] v ustidan qaynoq suv quy-moq, qaynoq suvga botirmoq

scald II [sko:ld] n skald (*Qadimgi Skandinaviyada: qo'shiqchi-shoir*)

scald III [sko:ld] n qoraqo'tir, qotgan yara

scalding ['sko:ldɪŋ] n ustidan qaynoq suv

quyish, qaynoq suvga botirish

scale I [skeil] 1. n 1) tarozi pallasi; 2) pl tarozi; 3) (the Scales) tarozi (*yulduz burji va zodiac belgisi*); 2. v tarozida tortmoq

scale II [skeil] n 1) tangacha (*balig, ilon, kaltakesak kabilar terisida*); 2) qatma-qat po'stloq

scale III [skeil] n 1) (*xarita, chizmaning*) masshtabi; 2) o'lcham, ko'lam, masshtab;

3) (*odatda, o'lchov asbobida*) shkala

scaled [skeild] a tangachasimon, tangachaga o'xshagan

scalene ['skeili:n] a geom. tomonlari teng bo'limgan

scalp [skælp] 1. n 1) bosh terisi; 2) sochlari bilan shilinib olingen bosh terisi; 2. v bosh terisini shilib olmoq

scalpel ['skælp(ə)l] n jarroh pichog'i (*maxsus pichoqcha*)

scamp [skæmp] n bekorchi, tanbal, ishyoqmas

- scamper** [skæmpə] *n* 1) tez yurish (chopish); 2) tez (ravon) o'qish
- scampi** [skæmphi] *n* qisqichbaqa, sarimsoq-piyoz va ziravorlardan tayyorlangan taom
- scan** [skæn] *n* diqqat bilan o'rganib chiqish; ko'rib chiqish
- scandal** [skændəl] *n* 1) sharmandalarcha xatti-harakat; what a ~! qanday sharmandalik; 2) yomonlab gapirish, yomonlash, g'iybat; to talk ~ yomonlab gapirmoq
- scandalize** [skændəlaɪz] *v* 1) g'azablantirmoq, jahlini chiqarmoq; 2) uyaqtga qo'yamoq, xijolatda qoldirmoq
- scandalmonger** [skændələməŋgə] *n* g'iybatchi odam, gap tashuvchi; suxanchi
- scandalous** [skændələs] *a* 1) uyatli, sharmandali, rasvo; 2) tuhmat qilib aytilgan, bo'hton
- Scandinavian** [skændinəv'iən] *n* 1. a Skandinaviyaga va skandinaviyaliklarga oid; 2. n skandinaviyalik kishi
- scanner** [skænər] *n* skaner
- scanning** [skænɪŋ] *n* matnni diqqat bilan o'qib, uning ikir-chikirlarigacha tushunish
- scant** [skænt] *a* oz, kam, ozgina, yetarli bo'lмаган, yetmaydigan; *v* qizg'anmoq, ayamoq
- scantly** [skæntli] *adv* kam, ozgina, uncha yetarli emas
- scanty** [skænti] *a* yetarli bo'lмаган, yetmaydigan, kam, oz
- scapegoat** [skeipgəut] *n* hamma baloga to'g'anoq odam; boshqalarning gunohiga javobgar bo'lib qolgan odam
- scapegrace** [skeipgrɛs] *n* (*hazil*) yengil (sho'x) yigit; havoyi odam
- scar** [sko:] *n* yara o'mi, yamoq; (*yuzdag'i*) chandiq
- scarce** [skeəs] *a* noyob, kam uchraydigan; *a* ~ book nodir kitob
- scarcely** [skeəslı] *adv* zo'tg'a, qiyinchilik bilan; she can ~ speak Uzbek u o'zbek tilida zo'tg'a gapiradi
- scarcity** [skeəsiti] *n* nuqson, illat, ayb, kamchilik
- scare** [skeə] *n* vahima, hayajon, dahshat, sarojima
- scared** [skeəd] *a* qo'rqqan, cho'chigan
- scaremonger** [skeə, məŋgə] *n* vahimachi
- scarf** [sko:f] *n* (*pl*-*s* [-s], scarves) 1) sharf; 2) galstuk, bo'yinbog'
- scarlet** [sko:lit] *1. n* alvon; qirmizi; qizil (och qizil) rang; *2. a* alvon, qirmizi, qizil (och qizil)
- scarlet fever** [ska:lit 'fi:və] *n* tib. qizilcha (kasallik)
- scarp** [sko:p] *n* tik jar, jarlik, qiyalik, yonbag'ir
- scary** ['ske(ə)rɪ] *a* so'zl. 1) qo'rqinchli, vahimali, dahshatli, mudhish, dahshatga (vahimaga) soladigan; 2) qo'rqaq, qo'rqadi-gan, cho'chidigan
- scathe** [skeɪð] *1. n* zarar, ziyon; *2. a* zarar yetkazmoq
- scatheless** [skeɪðləs] *a* butun, zararsiz
- scathing** ['skeɪðɪŋ] *a* qahri qattiq, shaf-qatsiz, rahmsiz, berahm, zolim
- scather** [skaðə] *v* 1) sochilmоq, yoyilib ketmoq; 2) buzmоq, barhod qilmoq, chippaka (puchga) chiqarmoq
- scatter-brain** [skætəbrem] *n* yengiltak (betayin) odam
- scavenge** ['skævɪndʒ] *v* tozalamoq; to ~ a street ko'chadagi axlatlarni olib tashlamоq
- scavenger** ['skævɪndʒə] *n* farosh, supurib-sidiradigan ishchi
- scenario** [si'nɑ:rɪəʊ] *n* ssenariy
- scene** [si:n] *n* manzara; sahna
- scene-painter** ['si:n,peɪntə] *n* sahnani bezovchi rassom
- scenery** ['si:n(ə)rɪ] *n* manzara (*teatrda sahna jihozları*)
- scenic** ['si:nɪk] *a* sahnaga oid, sahna...
- scent** [sent] *1. n* hid; *is*; *2* atir; *3* iz; *2. v* 1) iskamoq, hidlamoq; 2) atir sepmoq, xushbo'y qilmoq; 3) izidan bormoq
- scented** ['sentid] *a* hidi yaxshi, xushbo'y, muattar
- scepter** ['septə] *n* saltanat hassasi (*podshoh saltanatining aلومати*)
- sceptic** ['skeptik] *n* ishonmovchi, har nar-saga shubha bilan qarovchi
- sceptical** ['skeptik(ə)rl] *a* ishonmaydigan, shubhaomuz
- schedule** ['sedju:l] *1. n* jadval; *2. v* jadval tuzmoq
- scheme** [ski:m] *n* reja, dastur, loyiha; to lay a ~ dastur tuzmoq
- schemer** ['ski:mə] *n* 1) fitnachi, g'alamis; 2) xayolotchi, xayolparast odam
- schism** ['s(k)iz(ə)m] *n* cherkovning ajralishi (*pravoslav va katolik cherkovlarining bir-biridan ajralishi*)
- schizophrenia** [skitsə 'fri:nə] *n* shizofreniya (*ruhiy kasallikning bir turi*)
- scholar** [skolə] *n* olim, bilimli (o'qimishli, ilmi) kishi
- scholarship** ['skoləʃɪp] *1) n* stipendiya; 2) olimlik, bilimdonlik
- scholastic** ['ske:læstɪk] *a* o'qituvchi va o'qituvchilikka oid; o'qituvchi...
- school** [sku:l] *n* maktab; *a* ~boy o'quvchi (*bola*); *a* ~girl o'quvchi (*qiz*); secondary

- ~ o'rtा maktab; **primary** ~ boshlang'ich maktab; to go to ~ maktabda o'qimoq **school-book** [sku:tbook] n darslik **school leaver** [sku:l'i:ve:] n maktabni bitiruvchi **schoolmaster** [sku:l,ma:sta] n maktab o'qituvchisi **school-mate** [sku:l'meit] n maktabdosh o'rtoq **schoolmistress** [sku:l,mistris] n maktabdagi o'qituvchi ayol **schoolroom** [sku:lrum] n sinfxona, darsxona **schooner** [sku:nə] n shxuna (*kichikroq yelkanli kema*) **scatric** [saɪ̯ ætɪk] a anat. quymuchga oid; quymuch... **scatrices** [saɪ̯ ætɪkə] n tib. ishias (*quymuch nervining yallig'lanishi*) **science** [saɪ̯əns] n 1) fan, ilm; a man of ~ olim; applied ~ amaliy fan; natural ~ tabiiy fanlar; 2) mahorat, mohirlik **scientific** [saɪ̯əntɪfɪk] a ilmiy, ilm-fanga asoslangan **scientifically** [saɪ̯əntɪfɪk(ə)li] adv ilmiy nuqtayi nazardan, ilm-fanga asoslangan holda **scientillate** [sɪntɪleɪt] v yarqiramoq, chaqnamoq, yarqirab turmoq, porlamoq **scientillation** [sɪntɪ'lɪfɪ(ə)n] n yarqirash, chaqnash, yarqiroqlik **scientist** [saɪ̯əntɪst] n 1) olim; 2) tabiat hodisalarini tekshiruvchi, tadqiqot qiluvchi olim **scion** [saɪ̯ən] n 1) o'simlik novdasi; 2) avlod, nasl, urug' **scissors** [sɪzəz] n pl qaychi **scoff** [skof] n masxara (mazax) qilish, piching, masxara **scoffer** [skofə] n mazaxchi, pichingchi **scold** [skould] v urishmoq; so'kmoq; ~ing urishish, so'kish **scene** [skən] n bug'doy (arpa) non **scoop** [sku:p] n 1) cho'mich; 2) kurakcha, xonkandoz **scooter** [sku:tə] n samokat (*bolalarning bir oyoqlab yer tepib yurgiziladigan ikki g'ildirakli aravachasi*) **scope** [skəʊp] n 1) saviya; 2) muhit, ko'lam; 3) imkoniyat, erkinlik, maqsad **scorbucut** [sko:bju:tik] n tib. lavsha bilan og'rigan bemor **search** [sko:tʃ] n kuyish, kuyib qolish **score** [sko:] n 1) maxsus belgi; 2) hisob (*o'yinda*) **scorer** [sko:ra] n 1) yutuuq hisobini hisoblovchi kishi; 2) to'purar o'yinchisi **scorn** [skɔ:n] 1. n nafratlanish, jirkanish, hazar qilish; 2. v nafratlanmoq, jirkanmoq, hazar cilmoq **scornful** [skɔ:nf(ə)l] a nafratlari, jirkanch, nafratni (jirkanishni) ifodalaydigan **scorpion** [skɔ:pɪən] n zool. chayon **Scot** [skot] n Snotlandiya **scot** [skot] n tar. soliq, o'pon **scotch** [skɒtʃ] n kertik, kesik, tilingan (kesilgan) joy **Scotchman** [skot'man] n (pl. -men [-man]) shotlandiyalik, shotlandiyalik kishi **scot-free** [skot' fri:] 1. a zarar (shikast) topmagan, eson-omon, sog'-salomat, beshikast; 2. adv bejazo, jazosiz **Scotsman** [skots'man] = Scotchman **Scottish** [skot'shɪ] a shotlandiyaliklarga va Shotlandiyaga oid **scoundrel** [skaundrəl] n razil (qabih, past) odam, yaramas, ablah **scour I** [skauə] a tozalash, artish, yuvish **scour II** [skauə] v izg'immoq, daydib (tentirah) yurmoq **scourge** [skɜ:dʒ] n 1) o'rma qamchi; 2) uzun qamchi, darra **scout** [skaut] n harb. razvedkachi (*dushman va uning qo'shinlari, ularning kuchi, joylanishi va sh. k. to'g'risida ma'lumot to'playdigan jangchi*) **scow** [skau] n kichikroq yuk kemasi **scowl** [skau1] 1. n xafa ko'rinish; 2. v qovog'i solinmoq, qosh-qovog'ini solmoq **scrabble** [skrabə(ə)l] v 1) tirmamoq; 2) tirmashib chiqmoq; 3) so'zl. aji-buji qilib yozmoq **serag** [skræg] n nihoyatda ozg'in, novcha odam **seraggy** [skræggi] a oriq, ozg'in; qotma **scram** [skræm] v jo'nab qolmoq, urib (qochib) ketmoq, justakni rostlamoq **scramble** [skræmb(ə)l] 1. v o'rnalab chiqmoq, tirmashib chiqmoq; 2. n 1) o'rnalab chiqish; 2) mushtlashish, yoqalashish, urishish **scrap** [skræp] n parcha, bo'lak **scraper** [skreip] n tirmaqgan joy, tirmaq izi, chaqa **scrap-heap** [skræphi:p] n axlatxona; to throw on the ~ axlatxonaga tashlamoq **scrap-iron** [skrep' ariən] n temir-tersak **scrap-metal** [skrep' metl] = scrap-iron **scrap paper** [skrep'peipə] n makulatura (*chiqindi, qiyqim-siyqim qog'oz*) **scrappy** ['skræpi] a chiqindilardan iborat bo'lgan **scratch** [skrætʃ] 1. n tirmaqgan joy; 2. v 1) tirdalamoq, tirmamoq; 2) qashimoq; to ~ off

- o'chirib tashlanmoq (*qatnovchilar, nom-zodlar ro'yxatidan*)
- scratchy** [skrætʃi] *a* yaxshi ishlanmagan, naridan-beri qilingan
- scrawl** [skraʊl] 1. *n* qing'ir-qiyshiq (pala-partish) qilib yozilgan yozuv; 2. *v* qing'ir-qiyshiq (pala-partish) qilib yozmoq
- scream** [skri:m] 1. *n* qattiq baqirish, qichqirish; 2. *v* baqirmoq, qichqirmoq; -y baqiroq
- screamingly** [skri:mɪŋli] *adv* juda, g'o-yatda, nihoyatda, juda ham
- screech** [skri:tʃ n 1] xirrillash, xir-xir; 2) g'i-jirlagan ingichka ovoz, g'i-jir-g'i-jir
- screech-owl** [skri:tʃaʊl n 1] *zool.* kichik quloqli boyo'g'li; 2) yomonlik alomati (belgis)
- screen** [skri:n] 1. *n* 1) ko'chma parda, ekran; 2) taxta (*e'lolnar uchun*); 3) *kino*, ekran; 2. *v* ekranshtirmoq, ekranda ko'rsatishga moslashtirmoq
- screw** [skru:] 1. *n* vint, burama mix; 2. *v* buramoq
- screwdriver** [skru:,draɪvə] *n* otvertka, vint buragich
- screwed** [skru:d] *a* mast, aql-u hushini yo'-qotgan, karaxt
- screwy** [skru:] *a* esi past, tentak, jinni
- scribble** [skrib(ə)l] 1. *n* aji-buji (pala-partish) qilib yozilgan; 2. *v* tez va noaniq qilib yozmoq
- scribbler** [skribla] *n* bema'ni yozuv, bo'lar-bo'lmas yozuvchi, iste'dodisz
- scribe** [skrib] *n* xattot, nusxa ko'chiruvchi
- scrimmage** [skrimidʒ] *n* urush, janjal, nizo, araz
- scrimpy** [skrimpi] *a* 1) kambag'al, nochor; 2) xasis, ziqna, qurumsoq
- serimshank** [skrimʃæŋk] *v* o'zini chetga olmoq (tortmoq), o'zini olib qochmoq
- script** [skript] *n* yozuv, dastxat
- scripture** [skriptʃə] *n* muqaddas (diniy) kitob
- scriptwriter** [skript,raɪtə] *n* ssenariy yozuvchi adib, kinodramaturg
- scrofula** [skrofjula] *n* *tib.* shirincha (*bolalar kasalligi*)
- scroll** [skraʊl] *n* qadimgi qo'lyozma
- scrounge** [skraʊndʒ] *v* so'zl. o'g'irtamoq, o'g'irlab olmoq (ketmoq)
- scrub** [skrab] 1. *n* cho'tka bilan tozalash; 2. *v* cho'tka bilan tozalamoq
- scrubbing-brush** [skrabɪnbraʃ] *n* qattiq cho'tka
- scrubby** [skrabɪ] *a* past bo'yli, pastak, bo'-yi past, past bo'y, pakana
- scruff** [skraf] *n* ensa, gardan, bo'yin
- scruffy** [skrafɪ] *a* iflos, loy, isqirt
- scrum(mage)** [skrʌm(ɪdʒ)] *n* urish, janjal, nizo, araz
- scruple** [skru:p(ə)l] *n* juda oz miqdordagi narsa, zig'irday narsa
- scrupulous** [skru:pjułəs] *a* halol, pok, vij-donli, insofli
- scrutinize** [skru:tinaɪz] *v* puxta tekshirmoq, diqqat bilan (e'tibor berib, sinchiklab) ko'rib chiqmoq
- scrutiny** [skru:tini] *n* sinchkov nigoh, diqqat bilan qarash
- scrud** [skud] *n* tez (ildam, jadal) harakat
- scuff** [skuf] *v* eskirmoq, vyrtilmoq; ko'p ishlatib (kiyilib) ishdan chiqmoq
- scuffle** [skaf(ə)l] *n* mushlashish, yoqalishish, urishish
- scullery** [skal(ə)rɪ] *n* idish-tovoq yuvish xonası
- sculptor** [skalptə] *n* haykaltarosh
- sculptress** [skalptrəs] *n* haykaltarosh xotin (ayol)
- sculptural** [skalptʃ(ə)rəl] *a* haykaltaroshlikka oid; haykalga oid
- sculpture** [skalptʃə] 1. *n* haykaltaroshlik; 2. *v* haykal yasamoq; kesib yoki o'yib naqsh solmoq
- scum** [skʌm] 1. *n* 1) ko'pik; 2) po'choq, chiqindi; 2. *v* 1) ko'piklanmoq; ko'pirmoq; 2) ko'pigini olmoq
- seummy** [skʌmi] *a* l) ko'pikli, ko'pigi bor; serko'pik; 2) razil, qabih, yaramas
- scurf** [skɜ:f] *n* 1) qazg'oq, bosh kepagi; 2) qatlam
- scurrilous** [skʌrləs] *a* beadab, axloqsiz, yaramas
- scurry** [skʌrɪ] *n* tez (ildam) harakat
- scurvy** I [skɜ:vɪ] *n* *tib.* singa, lavsha, zangila (*milk kasalligi*)
- scurvy** II [skɜ:vɪ] *a* jirkanch, razil
- scutcher** [skatʃə] *n* 1) titkich; savacho'l; 2) titadigan mashina, paxtatitkich, juntit-kich
- scuttle** I [skatł] *n* ko'mir soladigan quti yoki paqricha
- scuttle** II [skatł] *n* qopqoqli tuynuk, te-shik; 2. *v* kemani cho'ktirmoq
- scuttle** III [skatł] *v* qochib ketmoq, qochib qolmoq, qutulib qolmoq
- scythe** [saɪð] 1. *n* q. x. chalg'i, belo'roq; 2. *v* chalg'i (belo'roq) bilan o'rmoq
- sea** [si:] *n* dengiz; in the ~ dengizda; at ~ dengizda (*sayoharda*); a ~ port dengiz porti; a ~man dengizchi; a ~shore dengiz qirg'og'i; a ~level dengiz sathi; a ~ coast dengiz qirg'og'i (sohili); by ~ dengiz orqali, dengiz bilan; on ~ dengizda
- seabord** [si:bɔ:d] *n* dengiz sohili

- sea-calf** [si:kə:f] *n* zool. tulen (*kurakoyog-lilar oilasiga mansub sutemizuvchi dengiz hayvoni*)
- sea-dog** [si:dgə] *n* 1) sut emizuvchi dengiz hayvoni; 2) yelimbaliq; 3) mohir dengizchi
- sea-front** [si:frənt] *n* 1) dengiz bo'yidagi xiyobon; 2) dengiz bo'yidagi shahar
- seagoing** [si:gəiŋ] *a* uzoq kema safari
- sea-gull** [si:gʌl] *n* zool. chayka, baliqliq (*quash*)
- sea-horse** [si:hɔ:s] *n* zool. dengiz toychasi (*boshi otga o'xshash baliq*)
- seal I** [si:l] 1. *n* zool. tulen (*kurakoyog-lilar oilasiga mansub sutemizuvchi dengiz hayvoni*); *an eared* ~ sivuch, shal pangulqoq tulen; *a fur* ~ dengiz mushugi (*tulennenning bir turi*); 2. *v* tulen ovlamoq
- seal II** [si:l] 1. *n* muhr; 2. *v* muhr bosmoq
- sealer** [si:lər] *n* dengiz mushuklarini ovlay-digan ovchi
- seal-fishery** [si:l,fiʃ(ə)n] *n* dengiz mushugi ovlash
- sealskin** [si:l,skɪn] *n* dengiz mushug'i mo'y-nasi
- seam** [si:m] *n* chok, baxya, tikilgan joy; ~stress tikuvchi
- seaman** [si:mən] *n* (*pl -men [-mən]*) den-gizchi
- seamanship** [si:mənʃɪp] *n* kema yuritish san'ati
- sea-mew** [si:mju:] = **sea-gull**
- seamstress** [semstrɪs] *n* tikuvchi ayol
- seamy** [si:mi] *a* chandiqli, chandiq bilan qoplangan; *a ~ face* chandiqli yuz
- seance** [sənsəns] *n* fr. yig'ilish, kengash, majlis
- sea-piece** [si:pɪs] *n* marina (*dengiz manzara si tasvirlangan rasm*)
- seaplane** [si:pleɪn] *n* gidrosamolyot
- seaport** [si:pɔ:t] *n* 1) dengiz porti; 2) port shahar
- sear I** [sɪə] *a* qurigan, so'lib qolgan, so'ngan
- sear II** [sɪə] *n* harb. tushirish uchun ishlatalidigan dastak (richag)
- search** [sə:tʃ] *n* 1. *v* izlash, izlanish; 2. *v* izlanmoq, izlarnoq, qidirmoq
- searching** [sə:tʃɪŋ] *a* puxta (*sinchiklab*) qilingan, diqqat bilan bajarilgan, puxta
- searchlight** [sə:tʃlaɪt] *n* projektor
- search-party** [sə:tʃ,po:tɪ] *n* qidiruv guruhi (otradi)
- search-warrant** [sə:tʃ,wɔ:rənt] *n* tintuv uchun order
- sea-scape** [si:skeɪp] = **sea-piece**
- seashore** [si:ʃɔ:r] *n* dengiz qirg'og'i (sohili)
- seasickness** [si:siknəs] *n* dengiz kasali (*dengiz to'lqinidan bosh aylanishi, ko'ngil aynishi*)
- seaside** [si:said] *n* dengiz qirg'og'i
- season** [si:z(ə)n] *n* mavsum; yil fasli
- seasonable** [si:z(ə)nəb(ə)] *a* o'z vaqtida bo'ladigan, ayni paytida qilinadigan
- seasonal** [si:z(ə)nəl] *a* sezoni, mavsumli; mavsumiy
- seasoned** [si:z(ə)nd] *a* 1) uzoq turib (saqlanib) yetilgan, turgan; 2) chiniqqan, toblangan; matonath, pishiq
- seasoning** [si:z(ə)nɪŋ] *n* 1) ma'lum vaqt (*yoki ma'lum sharoitda*) saqlab yetiltirish; sıfatini yaxshilash; 2) eskirish; 3) ziravor
- season-ticket** [si:z(ə)n,tikɪt] *n* 1) mavsuumiy chipta; 2) obuna
- seat** [si:t] 1. *n* joy, o'rindiq; *to have* (*yoki to take*) a ~ o'tirmoq; *jump* ~ qaytarma o'rindiq; 2. *v* o'tirmoq; *please be ~ed* marhamat, o'tiring
- sea-wall** [si:wɔ:l] *n* damba, ko'tarma, to'l-qin qaytargich
- seaward** [si:wɔ:d] *a* dengizga olib boradigan; dengizga chiqadigan; dengizga qaragan
- sea-way** [si:wei] *n* dengiz yo'li
- seaweed** [si:wi:d] *n* dengiz o'simligi
- seaworthy** [si:wɔ:ði] *a* suzishga yaraydigan (*kema haqiga*)
- sec** [sek] *a* fr. spirtsiz vino
- secant** [si:kənt] *n* mat. kesuvchi chiziq, kesuvchi tekislik
- secede** [sɪ:sɪ:d] *v* ajralmoq, ajralib (bo'linit) ketmoq
- secession** [sɪ:sɛʃ(ə)n] *n* 1) (*partiya, federasiya va b. dan*) chiqish; 2) ajralish, ajralib ketish
- secessionist** [sɪ:sɛʃ(ə)nɪst] *n* ajratuvchi, ixti-lof soluvchi, buzg'unchi
- seclude** [sɪ:klu:d] *v* ayirmoq, ajratmoq, boshqalardan ajratib (yakkalab) qo'y-moq
- secluded** [sɪ:klu:dɪd] *a* yolg'iz, yakka, tanho, alohida ajralib turadigan
- seclusion** [sɪ:klu:ʒ(ə)n] *n* yolg'izlik, yolg'iz yashash, yakka turish; *to live in ~* yolg'iz yashamoq
- second I** [sekənd] *num. ord.* ikkinchi; ~language ikkinchi til
- second II** [sekənd] *v* qo'llab-quvvatlamoq, ma'qillamoq
- second III** [sekənd] *n* soniya, sekund
- secondary** [sɪ:sekənd(ə)n] *a* 1) ikkilamchi, ikkinchi darajali; 2) o'rtta (*ma'lumoi haqidá*); ~ school o'rtta maktab; 3) geol. mezo-zoy erasiga oid
- second-best** [,sekənd 'best] *a* ikkinchi sort, ikkinchi nav
- second-class** [,sekənd 'klas] *a* ikkinchi darajali; ikkinchi klass

- seconder** [sekəndə] *n* 1) sportchi; 2) taklifni quvvatlovchi
- second-hand I** [,sekənd 'hænd] *a* tutilgan, ishlataliganchi, kiyilgan; eski
- second-hand II** [,sekənd 'hænd] *n* soniya mili
- secondly** [sekəndlı] *adv* ikkinchidan, ikkilamchi
- second-rate** [sekənd'reit] *a* 1) ikkinchi sort, ikkinchi navli; 2) o'ttacha, o'rtamiyona
- secretcy** ['si:kritsi] *n* yashirinlik, maxfiylik, sirlilik
- secret** ['si:krit] *a* maxfiy narsa, sir; ~ly yashirincha
- secretarial** [,sekər'te(ə)rəl] *a* kotibga oid, kotiblik, kotib
- secretariat(e)** [,sekra'te(ə)rət] *n* 1) kotibiyat; 2) kotiblik mansabi
- secretary** ['sekretə(rə)] *n* 1) kotib, kotiba; 2) tashkilot rahbari; ~a general bosh kotib
- secretete** [si:kritiv] *v* 1) ajratmoq, ajratib olmoq; 2) yashirmoq, bekitmox
- secretive** ['si:kritiv] *a* sirli, maxfiy, yashirin, pinhoniy
- secretiveness** ['si:kritivnəs] *n* maxfiylik, yashirinlik
- sect** [seklt] *n* oqim, mazhab
- sectarian** [sek 'te(ə)rən] *a* 1) mazhabparast, bivor mazhabga mansub kishi; 2) o'taketgan mutasabib
- section** ['sekʃən] *n* 1) qism, bo'lak (*mehel va b. da*); 2) sho'ba, bo'lim; 3) paragraf, bo'lim (*kitoblarda*)
- sectional** ['sekʃənal] *a* qismilarga ajratiladigan va qayta yig'ib qo'yiladigan, yig'ma
- sector** ['sektor] *n* 1) sektor; maydon; soha; 2) tex. kulisa (*harakat yo'nalişini o'zgartiradigan mexanizm*)
- secular** ['sekjula] 1. *a* qadimdan qolib kela-yotgan, azalii, qadimgi, eski, ko'hna; 2. *a* dunyoviy kishi, qavm
- secure** ['si:kjuə] 1. *v* xavfsizlikni ta'minla-moq, himoya qilmoq, qo'rqliamoq; 2. *a* 1) xotirjam, sokin; 2) (*bivor narsaga*) ishonchli komil; 3) xavfsiz, himoya qilingan; 4) ishonchli, pishiq, puxta
- security** ['si:kju(ə)rəti] *n* 1) xavfsizlik; 2) xavfsizlik organları; 3) soqchilar, qo'rqlichilar
- sedan** [si'dæn] *n tar.* portshez (*yengil ko'chma kreslo*)
- sedate** [si'deit] *a* tinch, jimjit, sokin
- sedative** ['sedativ] *a* og'rinqi qoldiradigan, og'rinqi bosadigan, tinchlanitiradigan
- sedentary** ['sed(ə)nt(ə)rə] *a* o'tirgan holdagi, o'tirgan holda qilinadigan; o'tiradigan
- sedge** [sedʒ] *n bot.* qamish
- sediment** ['sedimənt] *n* cho'kindi, loyqa, quyqum, cho'kma
- sedimentary** [,sediməntəri] *a* cho'kishga oid; cho'kkani..., cho'kindi...
- sedition** [si'disən] *n* isyon, g'alayon, ig'-vogarlik; an act of ~ig'vo solish
- seditious** [si'disəs] *a* isyonkorlik ruhidagi, isyonkor
- seduce** [si'dju:s] *v* yo'ldan ozdirmoq, aldab nomusiga tegmoq
- seducer** [si'dju:sə] *n* yo'ldan ozdiruvchi, vasa-vasa qiluvchi
- seduction** [si'dakʃən] *n* yo'ldan ozdirish (urish), avrash, aldash
- seductive** [si'daktiv] *a* qiziqtiradigan, havas keltiradigan, qiziqlari
- sedulous** ['sedjuləs] *a* tirishqoq, g'ayrat-chan, serhafsalal, quntli, serharakat
- see** [si:] *v* (saw; seen) ko'rmoq, qaramoq
- seed** [si:d] 1. *n* urug'; don; 2. *v* 1) urug'lamoq; 2) don ekmoq
- seed-bed** ['si:bed] *n* ko'chat ekilgan jo'yak
- seed-cake** ['si:dkæk] *n* ziralı pecheniy *yoki* keks
- seed-corn** ['si:dkɔ:n] *n* ekiladigan don
- seed-drill** ['si:d,drɪl] *n* q. x. qatorlab ekadigan seyalka
- seeding** ['si:dɪŋ] *n* ko'chat, urug'dan ko'-kargan daraxt ko'chat
- seed-maching** ['si:diŋmə,si:n] *n* ekish mashinasi
- seedless** ['si:dles] *a* bot. urug'siz, tuxumsiz, donsiz
- seedling** ['si:dliŋ] *n* urug'dan ko'kartirilgan ko'chat
- seed-pearl** ['si:dpɔ:l] *n* mayda marvarid
- seed-plot** ['si:dpłot] *n* ko'chatxona, nihol-xona
- seed-time** ['si:dtaim] *n* ekish mavsumi
- seedly** ['si:di] *a* serurug', serdon; ~ grapes urug'li uzum
- seeing** ['si:in] *n* ko'rish, ko'rish jarayoni
- seek** [si:k] *v* (sought) 1) izlamoq, qidirmoq; it is yet to ~bu hali topilmadi; 2) intilmoq, harakat qilmoq, tirishmoq, urinmoq; to ~to fame shuhartiga intilmoq
- seem** [si:m] *v* tuyulmoq; ...ga o'xshamoq; to ~to tuyulmoq, bo'lib ko'rinoq
- seeming** ['si:min] *a* ...bo'lib ko'rindigan, tuyuladigan; sun'iy, yasama, soxta, qalbaki
- seemingly** ['si:min'lɪ] *adv* 1) ko'rinishidan, rangidan, basharasidan, chehrasidan; 2) chamasi, aftidan, bo'lsa kerak, o'xshaydi
- seemly** ['si:mlɪ] *a* munosib, loyiq, yarashadigan
- seen** [si:n] *p. p. of see*
- seep** [si:p] *v* sizib kirmoq, sizib o'tmoq

seer I [sɪə] <i>n</i> bashorat qiluvchi, oldindan ko'ra biluvchi	self-conscious [<i>self' kɒnʃəs</i>] <i>a</i> o'z-o'zini anglagan, o'z mohiyatini tushungan
seer II [sɪə] <i>n</i> sir (<i>Hindistondagi og'irlik o'lchovi; mamlakatning turli qismalarida turlicha</i>)	self-consciousness [<i>self' kɒnʃənsəs</i>] <i>n</i> o'zini o'zi anglash, o'z mohiyatini (o'mini, burchini) tushunish
seesaw [sɪ:sɔ:] <i>n</i> bolalar hayinchagi (arg'im-chog'i)	self-contained [<i>selfkən'teɪnd</i>] <i>a</i> odamga qo'shilmaydigan, odamovi, pismiq
seethe [sɪ:θ] <i>v</i> (<i>seethed [-d], sod; seethed, sodden</i>) qaynamoq, jo'sh urmoq	self-control [<i>selfkən'trəul</i>] <i>n</i> o'zini dadil tutish, o'zini tuta bilish, dadilik
segment [sɪ'gment] <i>n</i> bo'lak, pacha, burda	self-defence [<i>selfdɪ'fens</i>] <i>n</i> o'z-o'zini himoya qilish
segregate [sɪ'grɪgeɪt] <i>v</i> chegaralamoq, ajratmoq, ajratib turmoq	self-denial [<i>selfdɪ'neɪəl</i>] <i>n</i> ictiyoriy ravishda o'z manfaatidan voz kechish
segregation [<i>segri'geɪʃən</i>] <i>n</i> yakkalanib (ajralib) qolish; yakkalab (ajratib) qo'yish, yakkalik	self-determination [<i>selfdɪtɜ:mɪ neɪʃən</i>] <i>n</i> o'z taqdirini o'zi belgilash
seine [sɪ:n] <i>n</i> baliq ovlanadigan katta to'r seiner [<i>seɪnə</i>] <i>n</i> seyner (<i>baliq ovlash kemasining bir turi</i>)	self-educated [<i>self' edʒʊkeɪtɪd</i>] <i>a</i> mustaqil ravishda (o'zicha) o'rgangan, o'qigan
seismic [<i>'saɪzmɪk</i>] <i>a</i> zilzila...; seysmi...	self-effacing [<i>self' feɪsɪŋ</i>] <i>a</i> kamtar, oddiy, sipo; kamtarin
seismograph [<i>'saɪzməgra:f</i>] <i>n</i> seysmograf (<i>Yer qimirlashini avtomatik ravishda yozib oladigan asbob</i>)	self-employed [<i>selfɪm'plɔɪd</i>] <i>a</i> o'zining shaxsiy isnxonasiga xizmat qiluvchi
seize [sɪ:z] <i>v</i> bosib olmoq, egallamoq; to ~ by ... dan ushshamoq (tutmoq)	self-esteem [<i>selfɪ 'sti:m</i>] <i>n</i> o'ziga bo'lgan burmat, izzat
seizure [sɪ:ʒɔ:] <i>n</i> 1) musodara qilish; 2) bosib olish, egallash	self-evident [<i>self' evɪd(ə)n</i>] <i>a</i> ochiq-oydin ko'rinib turgan, ayon, oshkorra
seldom [seldəm] <i>adv</i> kam, siyrak, goh-goh, kamdan-kam	self-explanatory [<i>selfɪk 'splænət(ə)rɪ</i>] <i>a</i> ochiq-oydin ko'rinib turgan, aniq, ravshan, o'z-o'zidan tushunarli
select [sɪ 'lekt] <i>v</i> saylab olmoq, ajratmoq, tanlamoq; ~ed tanlangan	self-government [<i>self' gəvnment</i>] <i>n</i> o'zini o'zi idora qilish, ichki ishlarini o'zi hal qilish
selection [sɪ 'lekʃən] <i>n</i> tanlash, saralash	self-importance [<i>selfɪm'po:t(ə)ns</i>] <i>n</i> o'zini hammadan yugori qo'yish, o'zini hamadan aqli fahmlash
selective [sɪ 'lektiv] <i>a</i> saylanadigan, saylaydigan	self-indulgence [<i>selfɪn'daldʒ(ə)ns</i>] <i>n</i> o'z istaklariga erk berish
selectively [sɪ 'lektivli] <i>adv</i> tanlab, saralab; saylab	self-indulgent [<i>selfɪn'daldʒ(ə)nt</i>] <i>a</i> o'z istaklariga erk beradigan
self- [self-] pref. murakkab so'zlarning birinchi tarkibi, harakatning o'ziga qaratilganligini ifoda etadi, o'zini-, o'ziga-, o'zinikiga-	self-interest [<i>self' intrɪst</i>] <i>n</i> o'z manfaatini ko'lash, o'z manfaatini ko'zlab ish tutish
self- [self] n (<i>pl selves</i>) ish-harakatda bevosita ishtirok etuvchi shaxs yoki predmetni bildiradi: o'zi	selfish [<i>selfɪʃ</i>] <i>a</i> xudbinlikka (faqat o'z manfaatini ko'zlashga) oid
self-absorbed [<i>selfab'sə:bɪd</i>] <i>a</i> 1) manmanlikka oid, xudbinlikka oid; 2) o'z fikrlari bilan band	selfishness [<i>selfɪʃnəs</i>] <i>n</i> egoizm, xudbinlik
self-assured [<i>selfə'ʃu:d</i>] <i>a</i> o'ziga ishongan, surbet, bezbet, uysatsiz	selfless [<i>selfles</i>] <i>a</i> fidokor, fidokorona, fidokorlik bilan qilingan
self-centred [<i>self' sentəd</i>] <i>a</i> egoist, xudbin...; igoizm va egoistga oid	self-love [<i>self' lʌv</i>] <i>n</i> o'zinigina yaxshi ko'rish; xudbinlik
self-collected [<i>selfkə'lektɪd</i>] <i>a</i> o'zini tuta biladigan, vazmin, og'ir, bosiq, sipo	self-made [<i>self' meɪd</i>] <i>a</i> hamma narsani o'zi uchun o'zi qilishga majbur bo'lgan
self-command [<i>selfkə'ma:nd</i>] <i>n</i> o'zini dadil tutish, o'zini tuta bilish, esankirammaslik	self-pity [<i>self' pɪti</i>] <i>n</i> o'ziga achinish
self-confessed [<i>selfkən'fest</i>] <i>a</i> o'zini aybdor deb hisoblovchi	self-portrait [<i>self' pɔ:rtrɪt</i>] <i>n</i> avtoportret (<i>rassom yoki haykaltaroshning o'zi ishlagan o'z portreti</i>)
self-confidence [<i>self' konfid(ə)ns</i>] <i>n</i> o'ziga ishonish	self-possessed [<i>selfpə'zest</i>] <i>a</i> o'zini tuta biladigan, og'ir, vazmin
	self-preservation [<i>selfprezə'veʃən</i>] <i>n</i> o'z jonini saqlash, o'z jonini saqlashga intilish

self-reliant [selfrɪ'�ənt] <i>a o'ziga ishongan</i>	semicircle ['semi,sa:k(a)l] <i>n yarim doira</i>
self-respect [selfrɪ'spekt] <i>n o'z qadrini bilish</i>	semicolon [,semi'keulən] <i>n nuqtali vergul</i>
self-righteous [self'raɪtʃəs] <i>a o'zidan (o'z ishidan) xursand, o'ziga bino qo'ygan, mag'rur</i>	semi-detached [,semidɪ'tæft] <i>a umumiy devorga ega bo'lgan; a ~ house</i> qo'shni uy bilan umumiy devorga ega bo'lgan uy
self-sacrifice [,self' sækrifəs] <i>n o'zinı qurban qilish, o'z manfaatlaridan voz kechish</i>	semifinal [,semɪ'fam(ə)l] <i>n sport. yarim final</i>
selfsame ['selfseɪm] <i>a o'shaning o'zi, ay-nan o'sha</i>	seminar ['seminər] <i>n seminar</i>
self-satisfied [,self' sətsfɪstɪd] <i>a o'z ishidan xursand, mag'rur</i>	semolina [,semə'lɪ:nə] <i>n manniy krupa</i>
self-seeking [,self' sɪ:kɪŋ] <i>a o'z manfaatini ko'zlaydigan, manfaatparast</i>	senate ['senɪt] <i>n 1) senat (parlementning qonun chiqaruvchi yuqori palatasi); 2) kengash (universiterda)</i>
self-service [,self' sə:sɪs] <i>n o'z-o'ziga xizmat qilish magazini</i>	senator ['senətər] <i>n senator, senat a'zosi</i>
self-starter [,self' sta:tər] <i>n tex. starter (dvi-gatellarni yurgizib beruvchi, o'toldiruvchi mexanizm)</i>	send [send] <i>v (sent) yubormoq, jo'natmoq</i>
self-styled [,self' 'stɔɪld] <i>a manman, kek-kaygan</i>	senescent ['si'nes(ə)nt] <i>a eskirayotgan, qariyotgan, keksayib borayotgan</i>
self-sufficiency [,selfsə'fɪʃ(ə)nsi] <i>n 1) mustaqillik, erkinlik, tobe (qaram) emaslik, erki (huquqi) o'zidalik; 2) o'ziga ortiq darajada ishonish (bino qo'yish); ortiq darajadagi ishonch</i>	senile ['si:nail] <i>a keksalarga xos bo'igan, keksalarcha, qarigandagi, qari</i>
self-sufficient [,selfsə'fɪʃ(ə)nt] <i>a tobe (qaram) bo'lmagan, erkin, mustaqil</i>	senility [si'nlitı] <i>a keksalik, qarilik</i>
self-support [,selfsə'pɔ:t] <i>n mustaqillik, erkinlik</i>	senior ['si:njər] <i>a katta, yoshi katta; to'n-g'ich; she is five years ~ to me u mendan besh yosh katta</i>
self-supporting [,selfsə'pɔ:tinq] <i>a huquqi o'zida bo'lgan, erkin</i>	seniority ['si:n'oritı] <i>n kattalik, ulug'lik, yu-qorilik (yosh, martaba jihatdan)</i>
self-will [,self' wil] <i>n o'zboshimchalik, qaysarlilik</i>	sensation ['sen' seɪʃ(ə)nəl] <i>n sezgi, his, tuyg'u; 2) sezish, his qilish; 3) hayratga soladi-gan taassurot, hammani hayratga soladigan voqeа, shov-shuv (duv-duv) gap bo'ladigan hodisa</i>
self-willed [,self' wild] <i>a o'zboshimcha, bosh-qaning gapiga kirmaydigan</i>	sensational [sen' seɪʃ(ə)nəl] <i>a shov-shuv (duv-duv) gap bo'ladigan, hammani hayratga soladigan</i>
sell [sel] <i>v (sold) 1) sotmoq; the car is to ~ mashina sotiladi; 2) savdo-sotiq qilmoq; savdo-sotiq bilan shug'ullanmoq</i>	sensationally [sen' seɪʃ(ə)nəl] <i>adv shov-shuv bo'ladigan gaplarni tarqatuvchi kishi</i>
seller ['selər] <i>n 1) sotuvchi, savdogar, sotadigan kishi; 2) bozorgir mol</i>	sense [sens] <i>n 1) his, tuyg'u, sezgi; 2) aql, fahm, idrok, zehn</i>
selvage, selvedge ['selvidʒ] <i>n hoshiya, qirra, yon, chet</i>	senseless ['sensləs] <i>a 1) ma'nosiz, mazmun-siz; 2) hushsiz</i>
selves [selvz] <i>pl of self</i>	sensibility [,sensə'bilitı] <i>n sezuvchanlik, o'ta sezgirlik, ta'sirchanlik</i>
semantic [si'mæntɪk] <i>a semantikaga (so'z ma'nosiga) oid, semantik; ma'noviy</i>	sensible ['sensəbl(ə)] <i>a aqli, bama'ni; o'y-lab ish qiladigan, mulohazali</i>
semaphore ['seməfɔ:r] <i>v ko'rinaradigan signallar bermoq, ko'rinaradigan narsalar vositasida aloqa bog'lamoq (gaplashmoq)</i>	sensitive ['sensitiv] <i>a sezgir</i>
semblance ['sembləns] <i>n 1) o'xshashlik; 2) tashqi (sirtqi) ko'rinish, qiyofa, aflat-angor</i>	sensitivity [,sensi'tiviti] <i>n sezuvchanlik, o'ta sezgirlik; ta'sirchanlik</i>
semen [si'mən] <i>n urug', tuxum, pusht</i>	sensual ['sensuəl] <i>a sezgiga oid; sezilda-gan, bilinadigan, sezib bo'ladigan</i>
semester [si'mestr] <i>n semestr</i>	sensuality [,sen'u'əlitı] <i>n sezuvchanlik (sezgirlik) qobiliyatı</i>
semi- [<i>semi-</i> pref. yarim (<i>old qo'shimcha</i>)	sensuous ['senjuəs] <i>a sezgiga oid, seziladi-gan, bilinadigan</i>
semi-basement ['semi,bēsmənt] <i>n yarim podval (birinchi qavatning tagidagi yarmi yer ostida ho'lgan uy)</i>	sent [sent] <i>past., p. p. of send</i>
	sentence ['sentəns] <i>1. v hukm qilmoq, hukm chiqarmoq; 2. n 1) gram. gap; 2) yur. hukm</i>
	sententious [sen'tenʃəs] <i>a iibratli, nasihat-omuz; saboq bo'ladigan</i>
	sentiment ['sentimənt] <i>n sezish, hissiyot; ~al nozik hissiyotga beriluvchan</i>

- sentimentality** [sentimen̄ tæliti] *n* kimsaga rosa rahmdilik bilan qarash; erkalik, tangtiqlik
- sentinel** [sentin̄(ə)l] *n* soqchi, qorovul, posbon; himoya qiluvchi
- sentry** [sentri] *n* harb. soqchi, qorovul, posbon
- sentry-box** [sentriboks] *n* soqchi budkasi
- separable** [sep(ə)rəb(ə)l] *a* ajraladigan, ajaratiladigan, ajaratib olib bo'ladigan
- separate 1.** *a* [sep(ə)rit] mustaqil, alohida; *v* [sepəreit] 1) bir-biridan ajaratmoq; 2) elakdan (g'alvirdan) o'tkazib ajaratmoq, tozalamoq, sarabal olmoq, saragini sarakka, puchagani puchakka chiqarmoq
- separated** [sepərətud] *a* ajralishgan, xotinimi qo'ygan yoki eridan chiqqan
- separately** [sep(ə)ritli] *adv* boshqalardan ajralgan holda, alohida olib, mustaqil ravishda
- separation** [sepō reiʃ(ə)n] *n* ajralish, ajaratish, taqsimlash
- September** [sep'tembər] *n* sentabr
- septennial** [sep̄ teniəl] *a* yetti yillik, yetti yil davom etadigan; yetti yil mobaynidagi
- septic** [septik] *a* tib. septic (sepsis natijasida sodir bo'ladigan)
- septicaemia** [septi'si:mɪə] *n* tib. sepsis (qonga kirgan zaralar mikroblar tufayli butun organizmning zaharlanishi)
- sepulchral** [sep'palkral] *a* go'rqa, go'ristoniga oid, qabr..., mozor...; ~ **mound** go'r, go'r-tepa
- sequel** ['si:kwəl] *n* 1) natija, oqibat, pirovard; 2) davom ettirish; davom etish
- sequence** ['si:kwəns] *n* 1) izchillik, ketma-ketlik, tartib; the ~ of events voqealarning borishi (rivojlaniishi); 2) natija, oqibat, pirovard
- sequential** [si'kwens(ə)l] *a* keyingi, kelasi, kelgusi; keyingi safar
- sequester** [si'kwestər] *v* boshqalardan ajaratib qo'ymoq, yolg'iz qoldirmoq, odamlardan xoli qo'ymoq
- sere** [si:tə] *a* so'ligan, so'lib qolgan, so'ngan
- serenade** [seren'eid] *n* serenada (*ma'shuqaga atab aytigelan ishqiy qo'shiq*)
- serene** [si:rɪn] 1. *a* 1) ochiq, tiniq, sof, toza, oydin; musaffo, bulutsiz; 2) tinch, osoyishta; 2. *n* musaffo osmon, ochiq havo
- serenity** [si'renitı] *n* 1) ochiqlik, tiniqlik, soflik, musaffolik (*havo, osmon haqida*); 2) tinchlik, osoyishtalik
- serf** [sə:f] *n* qul, asir, mahbus, tutqin
- sergeant** ['se:dʒənt] *n* harb. serjant
- serial** ['si:(ə)nəl] *a* seriyaga oid; seriyali
- serialize** ['si:(ə)nəlaiz] *v* vaqt-vaqt bilan nashr qilmoq
- sericulture** ['seri,kʌltʃər] *n* ipakchilik, pil-lachilik
- series** ['si:(ə)ri:z] *n* qator, bir qator, qator-qator
- serious** ['si:(ə)rɪəs] *a* 1) jiddiy, muhim; 2) xavfli, a ~ illness xavfli kasallik
- seriously** ['si:(ə)rəsli] *adv* 1) jiddiy ravishda; chindan, astoydil; 2) mohirona, ustalik bilan
- seriousness** ['si:(ə)rɪəsnes] *n* jiddiylik, jiddiy-yat
- sermon** ['sə:mən] *n* pand, nasihat
- serpent** ['sə:pənt] *n* zaharli katta ilon
- serpentine** ['sə:pəntain] *a* ayyor, makkor
- serrated** [sə'reifid] *a* tishli
- serried** ['serid] *a* tutash, zich
- servant** ['sə:v(ə)nt] *n* xizmatkor; to engage a ~ xizmatkor yollamoq
- serve** ['sə:v] *v* xizmat qilmoq
- server** ['sə:və] *n* 1) patnis; 2) xizmat ko'rsatuvchi
- service** ['sə:vis] *n* xizmat; xizmat ko'rsatish; at somebody's ~ ning xizmatida
- serviceable** ['sə:visab(ə)l] *a* 1) foydali; manfaatli; 2) mahkam, pishiq, puxta
- serviette** [sə:vɪ:t] *n* fr. qo'l sochiq, salfetka
- servile** ['sə:vail] *a* qulga oid; qullarga xos, qul...; eng og'ir, chidab bo'lmas
- servitude** ['sə:vɪtju:d] *n* xushomadgo'ylik, lagambardorlik, tiz cho'kib sajda qilish
- servitude** ['sə:vɪtju:d] *n* qullik, qul tuzumi
- session** ['seʃ(ə)n] *n* 1) yig'ilish; 2) (parliament) kengashi; 3) o'quv semestri (*Shoilandiya va Amerika universitetlarida*)
- set I** [set] *n* to'plan, sidra, komplekt
- set II** [set] *v* o'rnatmoq, qo'yimoq, joylashirmoq; to ~ off 1) yo'l olmoq, jo namoq; 2) bosqlanmoq; to ~ out 1) jo'namoq, yo'lga tushmoq; 2) (*biror ish*) qilmoqchi bo'lmomoq, niyatida bo'lmomoq; 3) (batasfil) bayon etmoq
- set-back** ['set 'bæk] *n* orqaga qaytish; inqiroz, tanazzul
- settee** ['se:tɪ] *n* kichik divan
- settling** ['setlɪŋ] *n* 1) sharoit, muhit, vaziyat; 2) anjom, idish-tovoq
- settle** ['setl] *v* hal qilmoq, tartibga solmoq, yo'iga qo'yimoq
- settled** ['setld] *a* 1) barqaror, bardoshli, chidamlari, pishiq, mustaqil; 2) aholi yashaydigan
- settlement** ['setlmənt] *n* manzilgoh, joy, makon
- settler** ['setlər] *n* ko'chkindi, ko'chmanchi (*yangi joyga ko'chib borib yashayotgan kishi*)
- settling** ['setlin] *n* 1) loyqa, quyqum; 2) te-kislash, silliqlash

seven ['sev(ə)n] *num. card.* yetti; ~th yet-tinchu; ~ty yetmish; ~teth yetmishinchi; ~fold yetti marta ko'p
seventeen [,sev(ə)n'ti:n] *num.* o'n yetti
sever ['sevə] *v 1)* (*munosabatlarni*) uzmoq;
2) bir-biridan ajratmoq, ayirmoq, judo qilmoq

several ['sev(ə)rəl] *a* bir qancha, bir qator
severally ['sev(ə)rəli] *adv* alohida, boshqa,
bo'lak, ayrim

severance [sev(ə)rəns] *n 1)* (*aloqa yoki munosabati*) uziш, buзish; 2) uзilish, buзilish
severe [sɪ'vɪər] *a* qattiq, keskin; a ~ competition keskin kurash; a ~ headache qattiq bosh og'rig'i; ~ weather sovuq ob-havo
severely [sɪ'vɪərlɪ] *adv* talabchanlik (qattiqko'llik) bilan, qattiq talab qilib
severity [sɪ'veriti] *n* talabchanlik, qattiq-qo'llik

sew [səʊ] *v* (*sewed; sewed, sewn*) tikmoq
sewage ['s(j)u:ɪdʒ] *n* oqindi suvlar, oqova suvlar

sewer I ['səʊə] *n* tikuvchi, tikuvchi ayol
sewer II ['s(j)u:ə] *n* kanalizatsiya trubasi
sewer III ['s(j)u:ə] *n* tar. xizmatkorlar og'asi
sewerage ['s(j)u:ərɪdʒ] *n* kanalizatsiya (*axlat, chiqindi va yog'in suvlarini oqiziladigan qavurlar sistemasi*)

sewing ['səʊɪŋ] *n* tikish, tikuv
sewing-machine ['səʊɪŋmæʃi:n] *n* tikuv mashinasi

sewn [səʊn] *p. p. of sew*
sex [sek:s] *n* biol. jins; the weaker ~ ayollar; the stronger ~ erkaklar

sexual [sek'suel] *a* jinsiyl, shahvoniy
shabby ['fæbi] *a* kiyilgan, yirtilgan, eski

shack {fæk} 1. *n* faqirona uy, kulba, kapa;
2. *v* yashamoq, istiqomat qilmoq

- solicitude** [sə'lɪsɪtju:d] *n* g'amxo'rlik, mehribonlik, jonkuyarlik, kuyinchaklik
- solid** ['sɒlid] *1. a* 1) qotib qolgan, qattiq; 2) aralashtirilmagan, toza, sof, asl; *~ gold* sof oltin; *2. n* fiz. qattiq jism; *2. mat.* jism; *a regular* ~ geometrik jism
- solidarity** [*sɒli'dærɪt̩i*] *n* birdamlik, yakdilik, hamfikrlik, fikrdoshlik
- solidify** [sə'lɪdɪfaɪ] *v* qotmoq, qattiqlashmoq, qattiq holga kelmoq
- solidity** [sə'lɪdɪt̩i] *n* qattiqlik, mustahkamlik
- soliloquy** [sə'lɪloki] *n* 1) o'zi bilan o'zi gaplashish (so'zlashish); 2) monolog (*so'zlashevchingin o'ziga yoki tinglovchilarga qaratilgan nutqi*)
- solitary** ['sɒlit(ə)rɪ] *a* yakka, yolg'iz, tanho; boshqalardan ajralgan
- solitude** ['sɒlitju:d] *n* yolg'izlikdagi hayot, yolg'izlik, g'ariblik
- solo** ['səʊləʊ] *n* mus. solo (*yakka ovoz yoki yakka soz uchun yozilgan musiqa asari va uning ijrosi*)
- soloist** ['səʊləʊɪst] *n* yakka ijrochi, yakka-xon ashulachi, yakka sozanda, yakka raq-qosa
- souluble** ['sɒljub(ə)l] *a* eriydigan, erib ketadigan
- solution** [sɔ:lu:s(ə)n] *n* 1) (*masalanı*) yechish, hal etish; yechim; 2) eritma, qorishma
- solvable** ['sɒlvəb(ə)l] *a* hal bo'ladigan, hal qilib (yechib) bo'ladigan
- solve** [solv] *v* (*masalanı*) yechmoq, hal etmoq
- solvency** ['sɒlv(ə)nsi] *n* 1) eriydiganlik; 2) to'lashga qodirlik (qurbi yetishlik)
- solvent** ['sɒlv(ə)nt] *n* eritgich, erituvchi (eritadigan suyuqlik)
- sombre** ['sombər] *a* qorong'i, qorong'ilik (zulmat bosgan), zulmatdag'i; zim-ziyo
- some** [sam] *1. pron.* 1) ba'zilar, ba'zi birovlar; ayrim kishilar, kimdir; 2) ozgina, biroz, andak; *2. a* allaqanday, qandaydir
- somebody** ['səmbo:dɪ] *1. pron. indef.* kimdir, birov, allakim; *2. n* mo'tabar zot
- somehow** ['səmhaw] *adv* bir amallab, ilojini qilib, yo'lini topib
- someone** ['səmwʌn] = somebody
- someplace** ['səmpləs] *adv* so'zl. biror joyda; biror yerda, qayerdadir, qayergadir, qayerda bo'lmasin
- somesault** ['səməsɔ:lt] *n* umbaloq oshib sakrash
- something** ['səmθɪŋ] *pron. indef.* nimadir, biror narsa, qandaydir bir narsa
- sometime** ['səmtaim] *adv* bir kunmas, bir kun, qachon bo'lmasin, bir payti kelib
- sometimes** ['səmtaimz] *adv* ba'zan, ba'zida, ba'zi vaqida, goho, onda-sonda
- somewhat** ['səmwɒt] *pron. indef.* nimadir, qandaydir bir narsa
- somewhere** ['səmweə] *adv* allaqayda, qayerdadir, bir joyda
- somnambulist** [sɒm'næmbju:lisٹ] *n* o'yparast (*lunatizm kasaliga mubtalo bo'lgan, uyqusida uyg'ogdek yuraveradigan odam*)
- somniferous** [sɒm'nif(ə)rəs] *a* uxlatadigan, uyqu keltiradigan
- somnolence, -cy** ['səmnələns, -sɪ] *n* uyquchilik, seruyqulik, uyqudan bosh ko'tarmaslik
- son** [sən] *n* o'g'il; he is a true ~ of his father u otasining xuddi o'zi (o'zginasi)
- sonata** [sə'no:tə] *n* mus. sonata (*turlı tipdagi uch-to'rt qismidan iborat musiqa asari*)
- song** [sɒŋ] *n* ashula, qo'shid
- songwriter** ['sɒŋ,raɪtə] *n* qo'shiq yozuvchi shoir

- sonic** [sonik] *a* 1) akustikaga oid; 2) tovushga oid; tovush...
- son-in-law** [sanin,lo:] *n* kuyov (*qizining eri*)
- sonny** [sanı] *n so'zl.* (*murojaatda*) o'g'lim, bolam, bo'tam
- sonority** [so' norti] *n* jarangdorlik, tiniqlik
- sonorous** [son(ə)rəs] *a* 1) jaranglagan, jarangdor, tiniq, qo'ng'iroqday; 2) dabdbabli uslub, bejama uslub
- soon** [su:n] *adv* 1) tezda, yaqinda, tez kunda, hademay, ko'p o'tmay; *as ~ as* bilanoq, zahoti, zamon; 2) erta, barvaqt; **the ~er, the better** qancha erta bo'lsa shuncha yaxshi; **~er or later** ertami kechmi; **it's too ~ to tell what's the matter with him** unga nima bo'lganligini hozir aytish qiyin
- soot** [sut] *1. n* qorakuya, qurum, dud, is; *2. v* qurum bosmoq, qurum bilan qoplanmoq; ~y is bosgan
- sooth** [su:θ] *n* haqiqat, chin, bor narsa, to'g'-ri gap
- soothe** [su:θ] *v* yupatmoq, ovutmoq, tinchlantirmoq, taskin bermoq
- soothing** [su:θinq] *a* tinchlantiradigan, yupa-tadigan
- soothsayer** [su:θ,seɪə] *n* oldindan aytib beruvchi, bashorat qiluvchi, bashoratgo'y; fol-bin xotin
- sooty** [sot] *a* qurum bosgan, qurum bilan qoplangan
- sop** [sɒp] *n* bo'lak, parcha, burda, kesik
- soph** [sof] *so'zl. of sophomore*
- sophism** [sofiz(ə)m] *n* safsata (*yuzaki qaraganda to'g'riga o'xshab ko'rindig'an, asliدا esa noto'g'ri xulosa, chalq'itadigan fikr*)
- sophisticate** [sa' fistikeitid] *v* buzmoq, buzib ko'rsatmoq, noto'g'ri talqin qilmoq
- sophisticated** [sa' fistikeitid] *a* 1) o'tkir, sez-gir; nozik, nafis; 2) buzib ko'rsatilgan
- sophistication** [sa,fist'keɪʃ(ə)n] *n* nafislik, noziklik, nazokat
- sophomore** [sofəmɔ:] *n amer.* ikkinchi kurs talabasi
- soporific** [səpɔ:rifɪk] *1. a* narkotik, behush (karaxt) qiladigan, uxlataladigan; *2. n* narkotik modda, uyqu dorı
- soppy** [sɔ:pɪ] *a* ho'l, nam, zax; nam tortgan
- soprano** [so'prəʊnəʊ] *n* (*pl -os [-əuz], -ni [-ni]*) *mus.* soprano (*xotin-qizlarning eng baland ovozi va shunday ovozli xonanda*)
- sorcerer** [so:s(ə)rə] *n* jodugar, sehrgar, af-sungar
- sorceress** [so:s(ə)ras] *n* jodugar ayol
- sordid** [so:dɪd] *a* iflos, bulg'anç, loy
- sore** [so:] *n* 1) o'ta ta'sirchan, hissiyotga beriluvchan; 2) xasta, kasal, bemor
- sorely** [so:li] *adv* shafqatsizlik bilan, beshafqat, ayamasdan, rahm qilmasdan, rahmsizlarcha, zolimlarcha, zolimona
- sorenness** [so:nəs] *n* sezuvchanlik, o'ta sez-girlilik; ta sirchanlik
- sorrel** [sɔ:rəl] *n bot.* otqulog, qo'ziqulog
- sorrow** [sɔ:rəʊ] *n* g'am, tashvish; *to my ~* mening g'amimga
- sorrowful** [sɔ:rəʊf(ə)l] *a* mahzun, qayg'uli, g'amgin, g'amli, xafa
- sorry** [sɔ:ri] *a* achigan; *to be ~* achinmoq; *I am ~* kechirasiz; *to be ~ about ...* uchun kechirim so'ramoq; *to be ~ for doing something* biron ish qigani uchun kechirim so'ramoq (afsuslanmoq); *to be ~ for somebody* kimgadir achinmoq; *to feel ~ for somebody* kimgadir achinmoq
- sorrt** [sɔ:t] *n* nav, xil, tur; *of ~s* aralash; *he needs all ~s of things* unga ko'p turli narsalar kerak
- so-so** [sə:səʊ] *a so'zl. prediс.* ahamiyatsiz, unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan, ahamiyati yo'q
- sot** [sɒt] *n* tuzalmaydigan (ashaddiy) piyonista
- souffle** [su:f(ə)] *n* tib. noaniq tovush (gupulash, duk-duk urish, tepish)
- soufflé** [su:fle] *n fr.* susle (*tarkibida ko'pir-tirilgan tuxum oqi bo'lgan konditerlik mahsulotli*)
- ough I** [saf, sau] *n* shitirlash, shildirash, shitir-shitir qilish
- ough II** [saf, sau] *n* 1) suv oqadigan kanal; 2) yerning zaxini qochirish maqsadida qurilgan quvurlar tarmog'i
- ought** [sɔ:t] *past. p. p. of seek*
- soul** [səʊl] *n* yurak, qalb, ko'ngil
- soulful** [səʊlf(ə)] *a* his-tuyg'uga oid, hayajonli, jo'shqin; his-tuyg'uga fo'la
- sound** [saund] *1. n* tovush, ovoz; *2. v* yang-ramoq, eshitilmoq, ovoz (tovush) chiqarmoq
- sound-film** [saundfilm] *n* ovozli film
- soup** [su:p] *n* sho'rva
- sour** [sɔ:ə] *a* achigan; ~ milk qatiq
- source** [sɔ:s] *n* manba, bosh sabab, birinch Sabab; **reliable ~ of information** ma'lumotning ishonchli manbayi
- sourly** [sɔ:əli] *adv* achitib, nordon (ach-chiq) qilib
- sourness** [saunəs] *n* nordonlik, achchiqlik; nordon (achchiq) ta'm
- south** [sauθ] *n* janub; **~ern** janubiy; **in the ~** janubda; **to the ~ (of) ...**(dan) janubga
- south-east** [sauθ'i:st] *n* janubi sharq, janubi sharq tomon (taraf)

- south-eastern** [sauθ' i:stən] *a* janubiy-sharqiy, janubi sharqdagi
- southerly** [səðəlɪ] *a* janubga oid; janubiy
- southern** [səðən] *1. a* janubga oid; janubiy; *2. n* janublik
- southernmost** [səðənməʊst] *a* eng janubdagı
- southward** [sauθwəd] *1. adv* janubga; *2. a* ... dan janubga joylashgan; *3. n* janubga boradigan yo'lı
- southwards** [sauθwədz] *adv* janubga
- south-west** [sauθ(w) 'west] *n* janubi g'arb, janubi g'arb tomon
- south-westerly** [sauθ(w) 'westəlɪ] *1. a !* ... dan janubgi g'arbda joylashgan; *2. adv* janubi g'arb dan esadigan; *2. adv* janubi g'arb tomonga
- souvenir** [su:və'nɪər] *n fr.* esdalik, yodgorlik
- sovereign** ['sovri:n] *1. n* hukmdor; *2. a* 1) mustaqil; ~ countries murstaqil mammakatlar; 2) olivy, eng yuqori, bosh; *the ~ good eng ulug'ne'mat*; ~ power olivy hokimiyat
- sovereignty** ['sovrinti:] *n* teng huquqlilik, mustaqillik
- sow** [səʊ] *v* (*sowed* [-d]; *sown*, *sowed*) ekmoq, sochmoq, sepmoq
- sower** [səʊə] *n* urug' sepuvchi, urug' sochuvchi
- sowing-machine** ['səʊɪŋmə,ʃi:n] *n* seyalka
- sown** [səʊn] *p. p. of sow*
- spa** [spa:] *n* mineral suvli kurort; *2. mineral suvlari bulog'i*
- space** [speis] *n* 1) fazo, bo'shliq; *2. olam, ko'not*
- spacecraft** ['speiskra:f:t] *n* kosmik kema
- spaceman** ['speismæn] *n* (*pl*-men [-mənl]) kosmonavt; kosmosda (kosmosga) uchuvchi
- spaceship** ['speis,ʃɪ:p] *n* kosmik kema
- spacious** ['speɪfəs] *a* keng, erkin, bepoyon
- spaciousness** ['speɪfəsnəs] *n* kenglik, ylanglik; *2) erkinlik, imkoniyat, yayrab yashash*
- spade** [sperd] *1. n* kurak, belkurak; *2. v* kurak bilan qazimoq
- span I** [spæn] *n* yaqin masofa; *2) vaqt oralig'i; 3) qarich (= 9 duym)*
- span II** [spæn] *past of spin*
- spangle** ['spæŋg(ə)lɪ] *n* yaltiroq tangachalar
- Spanish** ['spæniʃ] *1. n* 1) ispaniyalik; *2. ispan tilisi; 2. a* Ispaniya va ispanlarga oid
- spank** [spæŋk] *n* tarsaki, shapaloq
- spanner** ['spænə] *n* gayka kaliti
- spar I** [spa:] *n* shpat (*silikatlar jinsiga mansub mineral*)
- spar II** [spa:] *v* boks tushmoq, boks bilan shug'ullanmoq
- spare** [speə] *1. v* tejamoq; iqtisod qilmoq; *2. a* bo'sh; ~ time bo'sh vaqt
- sparring** ['spe(r)in] *a* kam, ozgina, yetarli bo'limgan
- spark** [spa:k] *1. n* uchqun; *2. v* chaqnamoq, tovlanmoq
- sparkle** ['spo:k(ə)l] *v* 1) uchqunlamoq; *2) perlamoq*
- sparklet** ['spo:klɪt] *n* mayda uchqun, uchquncha, zarracha
- sparkling** ['spo:klin] *a* yaltiroq, porloq, yorqin, yarqiragan
- sparrow** ['spærəʊ] *n* zool. chumchuq
- sparse** [spa:snəs] *a* siyrak, siyraklashib qolgan; sochib tashlangan, yoyib tashlangan
- sparseness** ['spa:snəs] *n* ozlik, kamlik, yetarli emaslik, tanqislik
- Spartan** ['spo:tn] *n* Sparta davlatiga oid
- spasm** ['spæz(ə)m] *n* siqilish, qisilish, qisilib qolish
- spastic** ['spæstɪk] *n* tib. falaj (shol) bo'lgan kishi
- spat I** [spæt] *n* biroz aytishib qolish, oradan gap o'tish, araz, gina
- spat II** [spæt] *past., p. p. of spit*
- spate** [speit] *n* (*to'satdan*) daryoning toshishi
- spatial** ['speɪʃ(ə)l] *a* makonga oid; joy, makon
- spatter** ['spætə] *n* tomchi, qatra
- spawn** [spo:n] *1. n* 1) uvuldiriq (*baliq, baqa va h. k. tuxumi, urug'i*); *2) nasl, avlod, urug'; *2. v* urug' tashlamoq*
- speak** [spi:k] *v* (*speak; spoken*) gapirmoq, gaplashmoq; *to ~ of ... haqida gaplashmoq; to ~ to ... bilan gaplashmoq*
- speaker** ['spi:kə] *n* notiq, gapga usta odam, nutq so'zlovchi
- spear** [spi:e] *n* nayza
- spearhead** ['spi:hed] *n* o'tkir uch, nayza uchi
- spearmint** ['spi:mɪnt] *n* bot. sada yalpiz
- special** ['speʃ(ə)l] *a* maxsus, alohida
- specialist** ['speʃ(ə)list] *n* mutaxassis
- speciality** ['speʃi 'ælti] *n* soha, ixtisos
- specialization** ['speʃəlaɪz 'zeɪʃ(ə)n] *n* biror ixtisos (soha) bo'yicha tayyorlash, ixtisos (hunar) olish
- specialize** ['speʃəlaɪz] *v* 1) biror soha bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishmoq; hunar olmoq; *2) ixtisoslashmoq*
- specialized** ['speʃəlaɪzd] *a* ixtisoslashtirilgan
- specially** ['speʃ(ə)li] *adv* 1) ixtisoslashtirib, maxsus, alohida; *2) xususan, ayniqsa, eng avval, avvalo*
- specialty** ['speʃ(ə)lti] *n* 1) o'ziga xos xususiyat, fazilat; *2) soha, ixtisos*

- species** [spi:ʃi:z] *n* biol. tur; xil; zot
specific [spi' sifik] *a* o'ziga xos, alohida, maxsus, aniq
specifically [spí sifik(ə)lı] *adv* alohida, maxsus
specification [,spesifi' keiʃ(ə)n] *n* o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash
specify ['spesiʃai] *v* aniq belgilamoq, o'rnatmoq
specimen ['spesi'mən] *n* nusxa, namuna
specious ['spi:ʃəs] *a* durust, tuzuk, yaxshi, qulay; ~ excuse durust bahona; qulay (o'tinli) bahona
speck I [spek] *n* kichkina dog', dog'cha
speck II [spek] *n* dengiz hayvonlarining eritilgan moyi
specs [speks] *n pl* so'zl. ko'zoynak
spectacle ['spektək(ə)l] *n 1* spektakl, tomosha; *2* pl ko'zoynak; *3* manzara, ko'rinish
spectacled ['spektək(ə)ld] *a 1* ko'zoynak taqqan, ko'zoynakli; *2* ko'zoynakli (*ilon haqida*)
spectacles ['spektək(ə)lz] *n* ko'zoynak
spectacular [spek' tækjöls] *a* kuchli taassut tug'diradigan, ta'sirchan; basavlat, kelishgan
spectator [spek' teitə] *n* tomoshabin
spectra [spektra] *pl* of spectrum
spectral [spektral] *a 1* xayolda (tasavvurda) ko'rindigani, xayoldagi, xayoliy; *2* fiz. spektrga oid; spektral
spectre [spekta] *n* xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh; xayolda ko'rinish
spectrum ['spektrəm] *n* (*pl -ra [-ra]*) fiz. 1) spektr; *2 attr.* spektrga oid; spektral; ~ analysis spektral analiz, tahlil
speculate [spekju'leit] *v* *1* o'ylamoq, fikr qilmoq; *2* olisbotarlik qilmoq, chayqov-chiliq qilmoq
speculation [spekju' leʃ(ə)n] *n* o'ylash, fikr yuritish, mulohaza qilish
speculator [spekju'leitor] *n 1* olisbotar, chayqovchi; *2* mutarakkir, chuqur fikr qiluvchi, fikrlowchi
sped [sped] *past., p. p. of speed* **1**
speech [spi:tʃ] *n* nutq, so'zlash (gapisch) qobiliyati
speechless [spi:tʃləs] *a* soqov, gung, tilsiz; *2* indamas, gapirmas
speed [spi:d] *1 v* (**sped**) tezlatmoq, shoshmoq, shoshilmomoq, shoshilishmoq, oshiqmoq, shoshqaloqliq qilmoq; *2. n 1* tezlik, jadalilik; *at a ~ of ...* tezlikda; *2* ildamlik; chaqqonlik; **with all ~** shoshma-shosharlik bilan
speed-boat ['spi:dbəut] *n* tezyurar kater
speeding [spi:dɪŋ] *v* katta tezlikda haydash
speed-limit [spi:d,limit] *n* ijozat (ruxsat) berilgan tezlik
speedway [spi:dwei] *n 1* katta tezlikda yursa bo'ladigan yo'l; *2* poyga uchun mo'ljalangan maxsus maydoncha
speedy [spi:di] *a* tez yuradigan, tezyurar; tezlik bilan bo'ladigan, tez, ildam, jadal
spell I [spel] *1. n 1* afsun, sehr, jodu, duo, kuf-suf; *2* dilrabolik, yoqimililik, jozibadorlik; *2. v* sehrlamoq, afsunlamoq, jodu qilmoq
spell II [spel] *v* (**spelled** [-d], **spelt** so'zlarini harflab yozmoq yoki talaffuz qilmoq)
spellbind [spelbaind] *v* (**spellbound**) sehrlamoq, sehr-jodu qilmoq, sehrlab qo'ymoq
spellbound [spelbaund] *1. past., p. p. of spellbind*; *2. a* sehrlangan
spelling ['spelin] *n* imlo, yozish qoidasi; orfografiya
spelling-book [spelinqbuk] *n 1* imlo qoidalar ma'lumnomasi; *2* imlo bo'yicha mashqlar to'plami
spelt [spelt] *past., p. p. of spell* **II**
spend [spend] *v* (**spent**) *1* sarflamoq; *to ~ on ... ga* (uchun) sarflamoq; *2* (*vaqtin*) o't-kazmoq
spendthrift ['spend,θrift] *n* isrofgar, isrof qiluvchi, behuda sarflovlchi, sovurib yuboruvchi
spent I [spent] *a* ozib (oriqlab) ketgan, ozib-to'zgan
spent II [spent] *past., p. p. of spend*
sperm [spə:m] *n* fiziol. *1* sperma, maniy; *2* spermatozoid, pusht (*erkak urug ining hujayrası*)
sphere [sfı:a] *n 1* doira; *2* shar; *3* globus; *4* sayyora; *5* soha
spherical ['ferik(ə)l] *a* shar shaklidagi, sharsimon, dumaloq, yurnalоq
spice [spois] *n* dorivor, ziravor
spicy ['spaɪsi] *a* o'tkir; xushta'm, xushbo'y
spider ['spaɪdə] *n* zool. o'rgimchak
spigot ['spigət] *n tex.* vtulka
spike [spaik] *1. n 1* o'tkir uch; *2* (*etikning tagiga qoqadigan*) mix; *2. v* mix qoqmoq
spiky [spaiky] *a 1* uchi o'tkir, uchli, qirrali, qirra, nayzard; *2* ming'ir-ming'ir, mijg'ov, janjalash
spill [spill] *v* (**spilled**, **spilt**) to'kmoq, to'kilmoq; to'kib yubormoq; *to ~ blood* qon to'kmoq
spillikin ['spilikin] *pl* mayda-chuyda, arzimagan narsalar bilan ovora bo'lish
spilt [spilt] *past., p. p. of spill*
spin [spin] *v* (**spun**, **span**; **spun**) o'rmoq, o'ramoq; buramoq; yigirmoq, eshmoq, pishitmoq; ~ner yigituvchi, yigiradigan ishchi
spinach ['spinidʒ] *n bot.* ismaloq (*o'simlik*)

- spinal** [spaɪnəl] *a anat.* orqadagi, orqa...; *a ~ column* umurtqa; *a ~ cord* orqa miya; *~ fluid* orqa miya suyuqligi
- spindle** [spindl] 1. *v 1) cho'zmoq, uzaytirmoq, yoymoq;* 2) *val, o'q va sh. k. o'rnatmoq;* 2. *n to'q. urchug*
- spine** [spain] *n anat.* umurtqa
- spineless** [ˈspainləs] *a zool.* umurtqasiz; umurtqa suyagi yo'q
- spinster** [ˈspinstər] *n qari qiz*
- spiny** [spaɪni] *a 1)* tikandek sanchiladigan, botadigan, o'tkirlar; 2) qiyin, mushkul, og'ir, tang
- spiral** [spaɪrəl] *n spiral, burama chiziq; heating ~isitadigan burama chiziq shaklidagi sim*
- spire** I [spaɪə] *n gumbaz, minora, tom kabirning nayzasimon ishlangan ust, uchi*
- spire** II [spaɪə] *n 1) spiral; burama chiziq; 2) bir buram, bir o'rám*
- spirit** [spɪrɪt] 1. *n ruh, kayfiyat;* 2. *v ruhlantrimoq, ilhomlantrimoq, ruhini ko'tarmoq, g'ayratini oshirmoq*
- spirited** [ˈspɪrtɪd] *a dadil, mardonavor; jasur, yurakli*
- spirit-lamp** [ˈspɪrlæmp] *n spirit lampa*
- spiritless** [ˈspɪrlɛs] *a 1) jonsiz, o'lik; 2) so'ligan, so'lib qolgan*
- spiritual** [ˈspɪrtʃʊəl] *a 1) ma'naviy, aqliy, ruhiy; 2) ruhoni, diniy*
- spiritualism** [ˈspɪrtʃʊəlɪz(ə)m] *n spirtualizm (ruhni vogelikning biringchi asosi, materiylaga bog'liq bo'lмаган holda mavjud, deb biluvchi idealistik falsafiy dunyoqarash)*
- spirituous** [ˈspɪrtʃuəs] *a spirtli, tarkibida spirt bo'lgan*
- spit** [spɪt] *v (spat) tupurmamoq, tuflamoq*
- spite** [spaɪt] *n adovat, xusumat, gina; g'azab, qahr, achchiq; in ~of ...ga qaramasdan*
- spiteful** [ˈspaɪtf(ə)l] *a yomon, yovuz; serjahl, badjahl, darg'azab; ichi qora*
- spittle** [ˈspɪtl] *n so'lak, so'lakay; tupuk, turupish*
- spittoon** [spi:tʊn] *n tupdon*
- spiv** [spiv] *n olibsotar, chayqovchi*
- splash** [splæʃ] *v sochmoq, sachratmoq, purkamoq, sepmoq*
- splatter** [splætər] *v chayqalmoq, to'lqinlab urilmoq; shildiramoq*
- spleen** [spaɪn] *n qiyalik, nishab, yonbag'ir*
- spleen** [spaɪn] *n 1) anat. qorajigar, taloq; 2) adovat, xusumat, gina, qahr*
- splendid** [splendɪd] *a hashamatli; dabdabalı*
- splendour** [splendər] *a 1) yaltirash, yarqirash, chaqnash; shu'la; jilva; 2) dahdaba, hashamat, savlat, saltanat, ko'rkamlik*
- splenetic** [splen'etik] *a 1) qorajigarga (talooqqa) oid; qorajigar, taloq...; 2) tez achchiqlanadigan, serjahl*
- splint** [splɪnt] *n 1) pacha, bo'lak, siniq; 2) zirapcha; 3) payraxa, tarasha; 4) tib. shina*
- split** [splɪt] *1. n yorilish, tilinish, tilimtilim bo'lish; 2. v (split) yorilmoq, tilinmoq*
- splitting** [splɪtnɪŋ] *a 1) qattiq, o'tkir, kuchli, qulqoni teshadigan, chinqiroq; 2) boshni aylantiradigan, gangitadigan*
- spodge** [splɒdʒ] = **splotch**
- splotch** [splɒtʃ] *n katta iflos dog'*
- spudder** [splætə] *n noaniq gapirish*
- spoil** [spoɪl] *v (spoilt, spoiled) buzmoq, ay-nitmoq, yomonlashtirmoq*
- spoiled** [spoɪld] *a buzilgan, ishdan chiqqan*
- spoils** [spoɪlz] *n hayvon jasadi, goldiqlari*
- spoilt** [spoilt] *past., p. p. of spoil*
- spoke** I [spook] *v (g'ildirakda) kegav*
- spoke** II [spook] *past. of speak*
- spoken** I [spoukən] *a og'zaki; ~ language*
- og'zaki nutq*
- spoken** II [spoukən] *p. p. of speak*
- spokesman** [ˈspəʊksmən] *n (pl -men [-mən]) 1) vakil; 2) nutq so'zlovchi, ma'ruzachi*
- sponge** [spɒndʒ] *n gubka (mochalka yoki qozon sochiq vazifasida ishlataladigan buyum)*
- sponger** [spændʒə] *n tekinxo'r, haromtovoq*
- sponsor** [spɒnsə] *n 1) homiy; 2) kafil, kafil bo'lgan kishi; ~ship homiylik, kafillik*
- spontaneity** [spɒntə'ni:ti] *n o'z-o'zidan sodir bo'lish, beixtiyor yuz berish; g'ayri-ixtiyoriylik*
- spontaneous** [spɒn'teɪniəs] *a o'z-o'zidan sodir bo'ladigan, beixtiyor yuz beradigan, g'ayriixtiyoriy, beixtiyor*
- spook** [spu:k] *n xayoliy sharpa, ko'lanka, arvoh; xayolda ko'rinish*
- spooky** [spu:ki] *a dahsatli, vahimali, qo'rinchli, mudhish, dahshatga (vahimaga) soladigan*
- spool** [spu:l] *1. n g'altak, kalava; 2. v kalava qilmoq, (g'altakka) o'rab qo'yimoq*
- spoon** [spu:n] *1. n qoshiq; 2. v qoshiqni botirib olmoq*
- spoonful** [spu:nfl] *n bir qoshiq to'la narsa*
- spoony** [spu:ni] *a so'zl. 1) aqli noqis, miyasi yo'q, esi past, kaltafahim; 2) sevib (oshiq bo'lib) qolgan*
- spoor** [spɔ:, spɔ:a] *1. n iz; 2. v izma-iz bormoq*
- sporadic** [spa'raedik] *a onda-sonda (ahyon-ahyonda) bo'ladigan, tasodifiy*
- spore** [spa:] *n biol. spora (gulsiz o'simlik-larning va ba'zi bir hujayrali jonivorlarining urchish organi)*

sport [spɔ:t] <i>n</i> sport; sport o'yinlari	sprinkler [sprɪŋklə] <i>n</i> sochqich, sochuvchi apparat
sporting [spɔ:tɪŋ] <i>a 1)</i> sportga oid; <i>2)</i> ovga oid	sprint [sprint] <i>1. n</i> sport, yaqin masofalarga yugurish, suzish sporti; <i>2. v</i> yaqin masofaga yugurmoq, suzmoq
sportsman [spo:tsmən] <i>n</i> (<i>pl -men</i> [-mən]) sportchi	sprite [sprait] <i>n</i> sehrlab qo'yadigan (maftun qiladigan) go'zal ayol; pari (<i>G'arbiy Yevropa mifologiyasida</i>)
sportsmanlike [spo:tsmənlailk] <i>a</i> sportchi-larga xos bo'lgan	sprout [sprout] <i>n</i> novda, nihol, kurtak; ~ maysa
sportswoman [spo:ts,wumən] <i>n</i> (<i>pl -women</i> [-,wimən]) sportchi ayol	spruce I [spru:s] <i>a</i> olifta, bashang, fason; oliftanamo
sport [spot] <i>1. n 1)</i> dog'; <i>2)</i> qashqa; <i>3)</i> isnod; <i>4)</i> joy, nuqta; <i>2. v 1)</i> dog' qilmoq; <i>2)</i> isnod keltrimoq, nomini bulg'amoq, obro'sini to'kimoq	spruce II [spru:s] <i>n</i> bot. qoraqarag 'ay
sportless ['spɔtləs] <i>a</i> toza, beg'ubor	sprung I [spruŋ] <i>a</i> yorilgan, darz ketgan (<i>raketa haqida</i>)
spotlight [spɔtlait] <i>1. n 1)</i> teatr. yoritish projektori; <i>2)</i> siljyidigan fara; <i>2. v</i> projektor bilan yoritmox	sprung II [spruŋ] <i>p. p. of spring II, 2</i>
spotty [spoti] <i>a 1)</i> xol-xol, olachipor; <i>2)</i> biroz husnbuzar chiqqan, biroz bo'jama toshgan; <i>3)</i> bir xil bo'lмаган, turli-tuman	spry [sprai] <i>n</i> tirik, jonli
spouse [spauz] <i>n 1)</i> er, rafiq, kuyov; <i>2)</i> pl er-xotin, kelin-kuyov	spud [spʌd] <i>n 1)</i> ketmonga o'xshagan asbob; <i>2)</i> so'zl. kartoshka donasi; bir dona kartoshka
spout [spaut] <i>n</i> jo'mrak, tumshuq, burun; bo'g'iz, og'iz (<i>idishda</i>)	spume [spju:m] <i>1. n</i> ko'pik; <i>2. v</i> ko'pirtirmoq, ko'piklantirmoq
sprain [sprein] <i>1. n</i> <i>tib.</i> paylarning shikastlanishi; <i>2. v</i> <i>tib.</i> payni cho'zib yubormoq	spun [span] <i>past, p. p. of spin</i>
sprang [spræŋ] <i>past, p. p. of spring II, 2</i>	spunk [spank] <i>n 1)</i> so'zl. olov, alanga; <i>2)</i> mardlik, jasurlik; <i>3)</i> pilik, qovuq (<i>chaqmoq uchqunidan tutab, o't oladigan paxta kabi narsalar</i>)
sprat [spræt] <i>n</i> kilka (<i>sel'dlar oиласига mansub mayda batiq</i>)	spur [spɔ:s] <i>n</i> shpora (<i>otliqlar etigining poshnasiga taqiladigan temir tepki</i>)
sprawl [sp्रɔ:ł] <i>n</i> beso'naqay (qo'pol) harakat	spurious [spju:(e)rɪəs] <i>a</i> soxta, qalbaki, yasma, yolg'ondakam
sprawling [sp्रɔ:łɪŋ] <i>a</i> cho'zilgan, cho'zilib kengaygan; uzaygan	spurn [spɔ:n] <i>v</i> oyoq bilan itarib yubormoq, turrib yubormoq
spray I [sprei] <i>n</i> novda, shox, butoq	spurt [spɔ:t] <i>n</i> ingichka suyuqlik yoki gaz oqimi; jildiragan (tizillagan) oqim
spray II [sprei] <i>n</i> (<i>sachragan, changday to'zib yurgan</i>) suv zarralari	sputter ['spatə] <i>n 1)</i> shovain-suron, shovshuv, qiy-chuv; <i>2)</i> vishillash, pishillash, vijillash, vij-vij
spread I [spread] <i>1. v</i> (<i>spread</i>) avj oldirmoq, tarqatimoq, yoymoq, cho'zmoq; <i>2. n</i> tarqatish, yoyish	spy [spai] <i>1. n</i> jousus; maxfiy ayg'oqchi; <i>2. v</i> ayg'oqchilik qilmoq, joususlik qilmoq
spreadsheet [spredʃi:t] <i>n</i> katta bichimli jadval	spyglass ['spaigla:s] <i>n</i> kuzatish tribasi (uzun durbin)
spree [spri:] <i>n</i> quvnoq kayfiyat, quvnoqlik, xushchaqchaqlik	squabble ['skwəbl] <i>n</i> o'zaro aytishib qolish, dahanaki jang qilish, bir-birini so'kish, so'kishish
spring [sprɪŋ] <i>n</i> shox, novda	squad [skwɒd] <i>n 1)</i> <i>harb.</i> guruh, to'da; <i>2)</i> ishchilar brigadası
sprightly ['sprɪθlɪ] <i>a</i> ruhi ko'tarilgan, kayfi chog', hayajonli, bezovia	squadron ['skwɒdrən] <i>n</i> <i>harb.</i> eskadron (<i>otliq-askarlar bo'linmasi</i>)
spring I [sprɪŋ] <i>n</i> bahor; <i>in the ~</i> bahorda	sqquid ['skwɒlid] <i>a</i> iflos, bulg'anç; qarovsiz (qolgan), tashlandiq
spring II [sprɪŋ] <i>1. n 1)</i> sakrash, irg'ish; <i>to take a ~</i> sakramoq; <i>2)</i> boshlanish; <i>2. v</i> (<i>sprang; sprung</i>) <i>1)</i> sakramoq, irg'immoq; <i>2)</i> boshlanmoq	sqquall I ['skwɔ:l] <i>n</i> baqirin, qichqiriq, chin-qiriq, faryod, dod-voy
spring-board ['sprɪŋbo:d] <i>n 1)</i> tramlin (<i>sakrashda balandroq ko'tarilishga yordam heradigan moslama</i>); <i>2)</i> <i>harb.</i> harbiy operatsiyaga tayyorgarlik ko'rildigani maydon	sqquall II ['skwɔ:l] <i>n 1)</i> qattiq (shiddatli) shamol, bo'ron; <i>2)</i> so'zl. to'lqinlanish, mavj urish, to'lqin
sprinkle ['sprɪŋk(ə)l] <i>v</i> sochmoq, sachratmoq, purkamoq, sepmoq	squalor ['skwɒla] <i>n 1)</i> kir, chang-chung, xasco'p; <i>2)</i> qashshoqlik, kambag'allik

squander [skwəndə] v sovurmoq, isrof qilmoq, o'rinsiz sarf qilmoq, behuda ketkizmoq
square [skweə] 1. n 1) kvadrat; 2) to'g'ri burchak; 2. a 1) kvadrat shaklidiagi; 2) to'g'ri burchakli

square-built [,skweə 'bɪlt] a keng yelkali, yelkasi keng

squash I [skwɔʃ] v ezmoq, ezib yubormoq, pachoq qilmoq

squash II [skwɔʃ] n bot. qovoq, oshqovoq (*o'simlik va mevasti*)

squat [skwɔt] 1. n 1) cho'kka tushib o'tirish; 2) in, uya

squaw [skwɔ:] n indeyeslar (*Amerikaning qadimiy tub aholisii*)

squawk [skwɔ:k] v qattiq qichqirmoq, chin-qirib baqirmoq, chinqirmoq (*parrandalar haqida*)

squeak [skwi:k] n 1) chiyillash, chirqillash; chiyillagan (chirqiran) ovoz; 2) g'ijrlagan tovush, g'ichir-g'ichir

squeal [skwi:l] n 1) chirillash, chirqillash; chiyillagan ovoz, chinqiriq; 2) chaqimchi, zimdan xabar (gap) tashuvchi

squeamish [skwi:mɪʃ] a ko'ngil aynishga duchor bo'lgan

squeeze [skwi:z] 1. n siqish, qisish; 2. v siqmoq, qismoq; to ~ smb.'s hand kimningdir qo'lini siqmoq

squelch [skwelf] v shalop-shulup qilmoq, pilchillamoq; to ~ through the mud loyda pilchillatib yurmog

squib [skwɪb] n 1) mushakbozlikning hazil-namo bir turi; 2) epigramma (*qisqacha hajiy she'r*)

squiggle [skwig(ə)] n aji-buji narsa, kirdi-chiqdi belgi; shikast xat; chizma-chiziq

squint [skwɪnt] n g'ilaylik

squint-eyed [,skwɪnt 'aɪd] a g'ilay; ko'zi qisiq

squire [skwaɪə] n zamindor, katta yer egasi

squirm [skwɜ:m] v buralib-buralib ketmoq; to'ig'anmoq

squirrel ['skwɪrl] n zool. olmaxon

squirt [skwɜ:t] n 1) ingichka suyuqlik yoki gaz oqimi; 2) shpris (*badanga dori yuboradigan asbob*)

stab [stæb] 1. n 1) zarba berish (*uchi o'tkir quroq bilan*); 2) to'satdan paydo bo'lgan qattiq og'riq; 2. v 1) sanchromoq, tiqmoq

stability [stə'biliti] n turg'unlik, chidamlilik, bardoshlik, barqarorlik

stabilization [stə'bilai'zeʃ(ə)n] n mustah-kamlash, barqaror (mustahkam) qilish

stabilize ['steibilaiz] v mustahkam (barqaror) qilmoq, mustahkamlamoq; barqaror vaziyat barpo etmoq

stabilizer ['steibilatza] n av. stabilizator (*stabillashtiruvchi – bir xil ishlashni ta'minlovchi qurilmalar, moslamalar, vositalar nomi*)

stable I [steib(ə)] a 1) mustahkam, chidamli, bardoshli, pishiq; 2) barqaror, doimiy

stable II [steib(ə)] n otxona, og'il, molxona

stabbing ['steiblin] n iflos joy, otxona; og'il-xona

stack [stæk] 1. n g'aram, to'p; 2. v g'aram-alamoq, to'plamoq

stacked [stækt] a to'plangan, g'aramlangan, bir joyga to'plab qo'yilgan

stadium ['steidɪəm] n stadion, sport maydoni, o'yingoh

staff [sta:f] n xodim, ishchi xodim; a ~ room xodimlar (ishchilar) xonasini

stag [stæg] n 1) erkak bug'u; 2) ho'kiz; qo'chqor; xo'roz kabi hayvonlarning nari, erkagi

stage [steidʒ] 1. n sahna; 2. v sahnalashtrimoq; a ~ manager rejissor

stager ['steidʒə] n : an old ~ tajribali, ko'pnini ko'rgan odam

stagger [stægə] n qimirlash, liqillash, silkinish

stagnant [stægnənt] a 1) oqmaydigan; ko'l-mak suv; 2) qotib qolgan; nodon; orqada qolgan; 3) faoliyatsiz, sust, harakatsiz

stagnate [stæg'n eit] 1) turib qolmoq, turib qotib buzilmoq, aynimoq (*suv haqida*); 2) qotib qolmoq, faoliyatini to'xtatmoq

stagnation [stæg'neʃ(ə)n] n 1) turg'unlik, yurishmay qolish, zavol; 2) chirish, chiriy boshlash

stag night [stæg,nait] = stag-party

stag-party ['stæg,pɑ:ti] n bo'ydoqlar kechasi (oqshorni, o'tirishi)

staid [steid] a og'ir, vazmin, fe'li yaxshi; ijobjiy

stain [stein] 1. n 1) dog'; 2) isnod, bo'yoq; 2. v 1) bulg'amоq; 2) isnod keltirmoq; 3) bo'yamoq

stair [steə] n 1) zinapoya, pog'ona; 2) naron, shoti; zina, pillapoya

staircase ['steɪkeɪs] n 1) zina, pillapoya; 2) zina xonasini (*katta binolarda*)

stake [steik] n 1) qoziq; 2) stolba, ustun

stale [steil] a 1) eskirgan, buzilgan, aynigan; ~ bread qotgan non; 2) dim, dam, bo'g'iq, nafas qaytaradigan, og'ir; ~ air nafasni qaytaradigan og'ir havo

stalemate ['steilmeɪt] n ilojsiz, mushkul ahvol

stalk I [sto:k] n 1) hot. gulband, gul bandi, poya, shoxcha, band, dasta; a cabbage ~ karam o'zagi; 2) zool. oyoqcha; 3) (*qadah*

- va b.) dastasi, bandi, sopi; 4) mo'ri; fabrika quvuri*
- stalk** II [stɔ:k] *n bildirmay (sezdirmay, oyoq uchida) kelish yoki borish*
- stalking-horse** [stɔ:kinhɔ:s] *n bahona, vaj*
- stall** [stɔ:l] *n 1) otnonadagi (og'il yoki molxonadagi) har bir alohida bo'lma, katak; 2) do'kon, do'koncha*
- stallion** [stælɪən] *n a yag'ir, ayg'ir ot*
- stalwart** [stɔ:wə:t] *n 1) sodiq izdosh; 2) sog'-lig'i mustahkam bo'lgan kishi*
- stamen** [steimən] *n bot. changchi, otalik (o'simlik gulida)*
- stamina** [stæmɪnə] *n chidamlilik, bardoshlik, toqatilik; sabr, bardosh*
- stammer** [stæmə] *1. n duduqlanish, soqovlanish; 2. v duduqlanmoq, soqovlanmoq*
- stamp** [stæmp] *1. n 1) tamg'a; muhr; 2) shtamp; 3) marka; 2. v 1) bosmoq (shtamp, muhr); 2) marka yopishtirmoq*
- stamp-duty** [stæmp,dju:tı] *n davlat yig'im, marka solig'i*
- stamped** [stæmp̄t] *a 1) marka yopishtirilgan; 2) muhrlangan*
- stampede** [stæm'pi:d] *n sarosimaga tushib qochish (chekinish)*
- stance** [stæns, sta:n:s] *n ijtimoiy sharoit, ahvol*
- stanch I** [sta:ntʃ] *v qonni (qon ketishini) to'xtatmoq*
- stanch II** [sta:ntʃ] *a sodiq, ishonchli, chin, vafodor, vafoli*
- stanchion** [sta:nʃ(ə)n] *n tirkak, poya, ustun, ustuncha*
- stand** [stænd] *1. n asos; mavqe, o'rin; nuqtayi nazar; 2. v (stood) turmoq, tik (tikka) turmoq; to ~ up turmoq*
- standard** [stændəd] *n 1) qolip, andaza; 2) qar'iy belgilangan o'lcham, me'yor*
- standard-bearer** [stændəd,be(ə)rə] *n 1) bayroqdar, tug'dor; 2) boshliq, sardor, rahnamo*
- standardization** [stændədəz̄] *n standartlash, bir standartga solish (keltirish), bir standartda tayyorlash*
- standardize** [stændədəz̄] *v standartlamoq, bir standartga solmoq (keltirmoq), bir standartda tayyorlamoq*
- stand-by** [stændbar] *1. n 1) ishonchli (mustahkam) odam, tayanch; 2) o'rindosh, o'rinosar, dublor; 2. a zahiradagi, favqulodda hodisada keral bo'ladigan*
- standing** [stændɪŋ] *1. n davom etish (cho'zilish) muddati, uzunlik, uzoqlik; 2. a 1) tik, tik turadigan; 2) doimiy, o'zgarmas; 3) to'xtagan, harakatsiz, ishlamasdan turgan*
- standpoint** [stændpɔint] *n fikr, qarash, nuqtayi nazar*
- standstill** [stændstrɪl] *n to'xtalish, harakatsizlik, faoliyatsizlik, bekor turish*
- stand-up** [stændʌp] *a tik turadigan, o'zi turadigan, tik; a ~ collar tik (turadigan) yoqa*
- stank** [stæŋk] *past. of stink 3*
- staple I** [stɛrp(ə)l] *n band, halqa, tutqich, dasta (chelak, sandiq va h. k. da)*
- staple II** [stɛrp(ə)l] *n 1) xom mol, xomashyo; 2) tola*
- star** [sta:] *n 1) yulduz; 2) ko'ch. yulduz (don-g'i ketgan eng mashhur artist, o'yinch'i va b.)*
- starboard** [sta:bɔ:d] *n deng. o'ng bort (kemada)*
- starch** [sta:tf] *n 1) kraxmal, ohor, nishasta; 2) o'taketgan rasmiyatparastlik, rasm-rusmlarga qattiq rioya qilişlik; 3) amer. so'zl. tezlik, ildamlilik, chaqqonlik*
- stare** [steə] *1. n tikilib qarash, diqqat bilan qarash; 2. v tikilib qaramoq, diqqat bilan qaramoq*
- stark** [stɔ:k] *1. a muzlab qotib qolgan; 2. adv to'liq, to'la, butunlay, mutlaqo; ~ nonsense g'irt bema'nilik*
- starling I** [sta:lin] *n zool. chug'urchiq*
- starling II** [sta:lin] *n 1) suv keskich (kemaining tumshug'i); 2) muzkesar kema*
- starry** [sto:ri] *a 1) yulduzga oid; yulduzli; 2) yorug', yorqin, charaqlagan*
- start** [sta:t] *n 1) jo'natish, yuborish; 2) boishi, avvali; 2. v 1) jo'natmoq, yubormoq; to ~ for ...ga jo'namoq; 2) boshlamoq*
- starter** [sta:ta] *n sport. 1) start beruvchi kishi; 2) sport. (musobaqa) ishtirokchisi; 3) avt. starter; 4) so'zl. biringchi ovqat*
- startle** [stɔ:tł] *n qo'rqish, cho'chish, hurkish; qo'rquv, vahima*
- starvation** [sta: 'veɪʃ(ə)n] *n 1) ochlik, och qolish; 2) ochlikdan o'lish*
- starve** [sta:v] *v ochlikdan o'lmox, och qolmoq*
- starveling** [sta:vrlɪŋ] *n holdan toygan, ozib ketgan, behol, bemajol*
- state I** [steit] *1. n holat, ahvol; vaziyat; 2. v tasdiqlamoq, bildirmoq, bayon etmoq*
- state II** [steit] *n davlat, shiat*
- statement** [stet'mənt] *n 1) tasdiqlash, balyonot; 2) rasmiy hisobot*
- state-room** [steitru:m, -rum] *n 1) asosiy zal; 2) bezatilgan zal; 3) alohida bo'lma*
- statesman** [steitsmən] *n (pl.-men [-mən]) davlat arbobi*
- static(al)** [stætik(al)] *a statikaga oid; statik; muvozanat (turg'un) holatidagi, ko'chmaydig'an*
- station** [steiʃ(ə)n] *n 1) stansiya; 2) vokzal*
- stationary** [steiʃn(ə)ri] *a 1) ko'chmas; 2) doimiy, o'zgarmas; ~ temperature o'zgarmas ob-havo*

stationer [steɪʃ(ə)nə] *n* kanselariya buyumlarini sotuvchi kishi
stationery [ˈsteɪʃən(ə)ri] *n* 1) kanselariya buyumlari; 2) pochta qog'oz'i
station-master [steɪʃ(ə)n,mæ:stə] *n* tem. y. stansiya boshlig'i
station-wagon [steɪʃ(ə)n,wæ:gən] *n* (orga-dagi borti va o'rindiqlari qaytarib, ko'tarib qo'yiladigan) bir nechta o'rindiqdan iborat bo'lgan yengil avtomobil
statist [ˈstetɪst] = **statistician**
statistic(al) [stæt̩ɪstɪk(ə)l] *a* statistikaga oid
statistician [stæt̩ɪ'stɪʃ(ə)n] *n* statistik (statistika bo'yicha mutaxassis)
statistics [stæt̩ɪ'stɪks] *n* 1) statistika, hisobot; 2) *pl* statistik ma'lumotlar
staway [stæt̩ju:ri] *n* haykal taroshlik
statue [stæt̩ju:] *n* haykal
statuesque [stæt̩fʊ 'eskɪ] *a* sovib qotgan, qotib qolgan
statuette [stæt̩fju 'et] *n* haykalcha
stature [stæt̩'tʃə] *n* qad-qomat, gavda
status [stæt̩s] *n* 1) yur. status, huquqiy holat (*belgili haq-huquq*); 2) holat, vaziyat
statute [stæt̩ʃut] *n* nizom, tartibot; qonun
statutory [stæt̩ʃut(ə)n] *a* rasmiy, rasmiylashgan, qaror topgan, belgilangan (*qonun asosida*)
staunch [stɔ:n̩t] *a* sodiq, ishonchli, chin, vafodor, vafoli
stave [steɪv] *n* 1) bochka taxta; 2) tirab qo'yiladigan narvonning xarisi
stay [steɪ] *1. n* qolish, turish, bo'lish; *2. v* qolmoq, ushlaniib qolmoq, turmoq; to ~ at the lyceum litseyda qolmoq
stead [sted] *n* 1) joy, o'rin; *in smb.'s* ~ kimningdir o'miga 2) foyda, naf; 3) yer-mulk
steadfast [stɛdfo:st] *a* mahkam, mustah-kam, puxta, qattiq, chidamlı, pishiq
steady ['stedi] *a* og'ishmaydigan, qat'iy, qattiq, mustahkam, baquvvat
steak [steɪk] *n* 1) baliq yoki go'shtning bo'lagi (*govurish uchun*); 2) bifshteks
steal [sti:l] *v* (*stole; stolen*) o'g'irlamoq, o'g'rilik qilmoq
stealth [stelθ] *n* ayyorlik, mug'ambirlik; by ~ yashirinchha, bekinib, sezdirmasdan, bilmirmasdan
stealthily [stelθili] *adv* bekinib, yashirincha, zimdan, sekin
stealthy [stelθi] *a* yashirin, maxfiy
steam [sti:m] *1. n* bug', bug'lanish; *2. v* bug' (par) chiqarmoq, bug'lanmoq
steamboat [sti:mbo:t] *n* (bug' dvigateli bilan harakatga keladigan) paroxod
steam-engine [sti:m,endʒɪn] *n* bug' dvigateli

steamer [sti:mə] *n* (bug' dvigateli bilan harakatga keladigan) kema, paroxod
steamship [sti:m,ʃɪp] *n* paroxod (bug' dvigateli o'rnatilgan kema)
steed [sti:d] *n* she'r. ot; harbiy jangovar, jan-govar ot
steel [sti:l] *n* po'lat
steel-clad [sti:klæd] *a* bronli, zirhli, zirh bilan qoplangan
steelwork [sti:lwo:k] *n* pl po'lat quyish zavodi
steely [sti:li] *a* po'latdan qilingan
steelyard [sti:lja:d] *n* qo'l tarozi
steep I [sti:p] *a* 1) tik, tikka tushgan, tikka ko'tarilgan; 2) so'zl. haddan tashqari, ortiq darajadagi, o'ta; 3) mumkin bo'lmagan, ehitimoldan uzoq
steep II [sti:p] *v* 1) botirmoq, cho'ktirmoq; 2) ho'llamoq, namlamoq, ivitmoq; 3) qoplab olmoq (*tuman, tutun haqida*)
steeple [sti:p(ə)] *n* gumbaz, minora, tom kabilarning nayzasimon ishlangan ust, uchi
steeplechase [sti:p(ə)ltʃeɪs] *n* sport. to-siqlar osha yugurish poygasi
steeplejack [sti:p(ə)ldʒæk] *n* yuqorida (baland joylarga chiqib) ishlovchi kushi, mutaxassis
steer I [sti:r] 1. *v* 1) rulni boshqarmoq; 2) rahbarlik qilmoq, rahnamolik qilmoq; 2. *n amer.* so'zl. shama, ishora, luqma
steer II [sti:r] *n* axtalangan buqacha (novvos)
steerage [sti:(ə)rɪdʒ] *n* 1) rulni boshqarish; 2) boshqaruv, rahbarlik, idora qilish
steering [sti:(ə)rɪŋ] *n* 1) boshqarish, idora qilish; 2) boshqaruvchi mexanizm
steering committee [sti:(ə)rɪŋkə,mitɪ] *n* reglamentni (ish tartibini) ishlab chiqaruvchi komissiya, boshqaruv organi
steersman [sti:rəzmnə] *n* (*pl -men [-mən]*) rulda turuvchi, rulni boshqaruvchi
stellar [stelə] *a* yulduzga oid; yulduz...
stem [stem] *n* 1) tana; poya; 2) qabila; urug'; 3) gram. o'zak, negiz; 3) sop, dasta, tutqich
stench [stentʃ] *n* sassiq (qo'lansa, badbo'y) hid, badbo'ylik
stenographer [ste'nogrəfə] *n* stenografiist, stenografiist ayol
stenography [ste'nogrəfi] *n* stenografiya (teksmi shartli belgililar bilan tez yozib olish)
stentorian [sten'tɔ:rɪən] *a* momaqaldoiroq singari, juda qattiq ovoz
step [step] *1. n* qadam; *2) harakat; ~ by ~* qadam-baqadan, bosqichma-bosqich; *2. v* 1) odimlamoq; 2) qadam qo'yamoq, qadam tashlamoq, yurmoq
stepbrother [step,brʌðə] *n* o'gay aka, o'gay uka

stepdaughter ['step,dɔ:tə] *n* o'gay qız

stepfather ['step,fɑ:ðə] *n* o'gay ota

stepmother ['step,mæðə] *n* o'gay ona

steppe [step] *n* cho'l, dasht

stepping-stone ['stepɪŋstən] *n* ariqdan o'tib

ketish uchun uning o'rtasiga tashlangan tosh

stepsister ['step,sistə] *n* o'gay opa, o'gay sin-gil

stepson ['stepsən] *n* o'gay o'g'il

stereo ['sti(ə)rɪəʊ] *n* so'zl. 1) stereoskop (ikkita yassi tasvirni bir-biriga qo'shib bo'rttirib ko'rsatadigan optik asbob); 2) bosma qolip

stereotype ['sterɪətaɪp] *n* 1) bosma qolip; 2) bir qolpalidak, bir xildalik, bir taxiidlilik
sterile ['stɛrɪəl] *a* 1) bepusht, bola tug'maydigan; 2) samarasiz, foydasiz, bekor, behuda, natijasiz

sterility [stə'riłti] *n* 1) naslsizlik, tug'maslik; 2) unumsizlik, hosisizlik

sterilization [,steriləz̬(ə)n] *n* 1) sterilizatsiya qilish, sun'iy tarzda bepusht qilish; 2) (suv va sh. k. ni) sterilash, mikroblardan tozalash

sterling ['stə:liŋ] *n* funt sterling (Angliya pul birlig'i)

stern I [stə:n] *a* talabchan, qattiq talab qiladigan, qattiqqo'li

stern II [stə:n] *n* deng. quyruq qism, quyruq, dum, orqa

stethoscope ['stethɔsko:p] *n* tib. stetoskop (yurak urishini va o'pkani eshitib ko'rigan asbob)

stevedore ['sti:vdo:] *n* portda yuk ortuvchi va tushiruvchi ishchi, pudratchi

stew I [stju:] 1. *n* dimlab pishirilgan go'sht; 2. *v* dimlab go'sht pishirmoq

stew II [stju:] *n* (*pl*) fohishaxona

steward ['stju:əd] *n* stuard (*samolyot va kemalarda ofitsiant*); 2) (*katta xo'jalikni* boshqaruvchi)

stewardess [,stju:a'des] *n* stuardessa, hort kuzatuvchisi

stew-p'an ['stju:pæn] *n* yonlari tik tova, past kastrulka

stick [stik] 1. *v* (*stuck*) 1) sanchmoq, suqmoq, qadamoq, tiqmoq; 2) yopishitirmoq, yelimlamoq; 2. *n* tayoq, bassa, kaltak

sticker ['stikə] *n* tikan, tikanak; 2) yopishqoq narsa (*tarkib*); 3) etiketka, yorliq; yopishqoq qog'oz tilimi

stickler ['stiklə] *n* ashaddiy ishqiboz (*muxlis, ixlosmand*)

sticky ['stikl] *a* yopishqoq, yopishadigan, yelimshak

stiff [stɪf] *n* bukilmaydigan, egilmaydigan, qotib qolgan, qattiq; ~en qotmoq

stiffen [stɪf(ə)n] *v* egilmaydigan qilmoq, qotirmoq

stiffly [stɪfl] *adv* mahkam siqib, zichlab

stiff-necked [,stɪf 'nekəd] *a* o'jar, qaysar

stiffness [stɪfnəs] *n* 1) qattiqlik; 2) quyuqlik

stifle ['stɪflə] *v* bo'g'moq, bo'g'ib o'ldirmoq

stifling ['staflɪŋ] *a* bo'g'adigan, dimiqtradiragan

stigma ['stɪgma] *n* (*pl -s [-z], -ta [-ta]*) 1) tar. kuydirib bosilgan tamg'a (*jinoyatchida*); 2) dog', isnod; 3) bot. turnushuqcha, og'izcha

stigmata ['stɪgmətə] *pl* of stigma

stigmatize ['stɪgmətaɪz] *v* 1) tamg'alamoq, tamg'a bosmoq; 2) isnod keltirmoq, sharmanda qilmoq

stile [sta:l] *n* panjara yoki devor orqali o'tish uchun qilingan zinapoya (pog'ona)

still [stil] 1. *adv* haligacha, hali ham, hanuzgacha; is your teacher ~ at the lyceum? o'qituvchingiz hali ham litseydami? 2. a harakatsiz, shovqinsiz, tinch, sokin; 3. v tinchmoq, tinchlantirmoq, yupatmoq

still-born [,stul 'bɔ:n] *a* o'lik tug'ilgan

stillness ['stɪlnəs] *n* 1) jimlik, jimjitalik, suknat; 2) tinchlik, osoyishtalik

stilt [stilt] *n* yog'och oyoq

stilted ['stɪltɪd] *a* soxta, yasama, sun'iy, g'ayritabiyyi

stimulant ['stɪmjuլənt] *n* 1) badanni uyg'otuvchi dori-darmon; 2) spirtili ichimlik; 3) stimul (*rag'battlantiruvchi omil, qiziqniradirigan narsa, qo'zg'atuvchi sabab*)

stimulate ['stɪmjuլeɪt] *v* rag'battlantirmoq; taqdirlamoq

stimulating ['stɪmjuလeɪtɪŋ] *n* rag'battlantirish, qiziqtirish

stimulation [,stɪmju 'leɪʃ(ə)n] *n* 1) qo'zg'a-tish, kuchaytirish; 2) rag'battlantirish

stimuli ['stɪmjułəlɪ] *pl* of stimulus

stimulus ['stɪmjułəs] *n* (*pl -li [-lai]*) 1) rag'battlantiruvchi omil, qiziqtiradigan narsa; 2) ta'sir qiluvchi, qo'zg'ovchi, keltirish chigarovchi

sting [stɪŋ] 1. *n* tishlash, chaqish (*hasharotlar haqida*); nish; nashtar; 2. *v* (*stung*) chaqmoq, tishlamoq, nayzasini sanchmoq (*hasharotlar, o't, tikan haqida*)

stingy ['stɪndʒi] *a* xasis, baxil, ziqla

stink [stɪŋk] 1. *n* sassiq (badbo'y) hid; 2. *a* sassiq, badbo'y; 3. *v* (*stank; stunk*) sasi-moq, sassiq (qo'lansa, badbo'y) hid chiqaramoq; sassitmox

stinky ['stɪŋki] *a* sassiq, badbo'y

stint [stɪnt] *n* cheklash, chek qo'yish; chek, chegara; 2) belgilangan (tayinlangan) ish

stipend ['sta:pənd] *n* stipendiya

stipulate ['stipjuleit] *v* shart qo'yemoq
stipulation [,stipju'leis(ə)n] *n* 1) shart qo'-yish; 2) shart, talab, istak
stir [stɪr] 1. *n* 1) harakat qilish, qimirlash, qo'zg'ash, qo'zg'atish; 2) aralashitirish; 2. *v* 1) aralashitirmoq; 2) harakat qilmoq, qimirlamoq, qo'zg'amоq
stirrup ['stɪrəp] *n* 1) uzangi; 2) *tex.* ilgak, ilmoq
stitch [stɪtʃ] *n* 1) chokning (qaviqning) bir yo'li; 2) *tib.* chok, tikilgan joy; **to put ~es into a wound** yarani tikmoq, choklamоq
stout [staut] *n* oqsichqon (oqsuvsar) va uning terisi, mo'yнasi
stock I [stok] *n* 1) poya; 2) nav, nasl
stock II [stok] *v* ta'munlamoq, yetkazib bermoq
stock-breeder ['stok,bri:de] *n* chorvador
stockbroker [stok,braʊkə] *n* birja dalloli
stockholder [stok,houldə] *n* aksiya egasi, aksiyali jamiyat egasi, aksiyador, aksiyachi
stockinet [,stoki net] *n* 1) trikotaj (*mashina da to'qilgan yumshoq mato*); 2) paypoq to'qish
stocking ['stokiŋ] *n* paypoq
stockist ['stokist] *n* tij. tayyor mahsulotlar zaxirasi mavjud bo'lgan firma
stock-market [stok,mɔ:kɪt] *n* fond birjasi
stockpile ['stokpail] *1. n* 1) ehtiyyot qism; 2) zaxira, qo'r, qut; *2. v* to'plamoq, g'amlab qo'yemoq
stock-still ['stok 'stil] *adv* qo'zg'almay, qimirlamay, harakat qilmasdan, qotib
stock-taking [stok,teikin] *n* tovarlarni qayta hisoblash, inventarizatsiya
stocky ['stoki] *a* pakana, past bo'ylı
stodgy ['stdʒɪ] *a* kishini zerikturadigan, suhbatiidan kishi zerikadigan
stoic ['stɔɪk] *1. n* matonatl (bardoshli) odam; *2. a* matonatl, bardoshli
stoically ['stauk(ə)li] *adv* matonat (mardlik, mardonialik, sabot) bilan
stoke [stɔ:k] *v* o'txonaga, o'choqqa) kanda qilmay o'tin solib turmoq
stokehold ['stəukhaʊld] *n* *deng.* kochegearka, go'lax
stokehole ['stəukhəʊl] = **stokehold**
stoker ['stəʊkə] *n* kochegar, o'tyoqar
stole I [stəʊl] *n* palantin (*xotin-qizlar yel-kaga tashlab yuradigan mo'yna yoki duxo-ba sharf*)
stole II [stəʊl] *past. of steal*
stolen ['stəʊln] *p. p. of steal*
stolid ['stolid] *a* pinagini buzmaydigan, tepsa-tebranmaydigan, sovuqqon, loqayd, beg'am
stolidity [sto'liditi] *n* sovuqqonlik, loqaydlik, beg'amlik

stomach ['stʌmæk] *n* 1) qorin; 2) oshqozon
stomach-ache ['stʌmækkeɪk] *n* qorin (oshqozon) og'rig'i
stomp [stomp] *v* top-top (*yoki gurs-gurs*) qadam tashlab yurmoq
stone [staʊn] *n* 1) tosh; 2) tarozi toshi
stone-blind [,stəʊn 'blaind] *a* butunlay (tamomam) ko'r
stoned [staʊnd] *a* danagi olib tashlangan
stone-mason ['stəʊn,meɪs(ə)n] *n* g'isht te-ruvchi (quruvchi) usta
stoneware ['stəʊnwɛə] *n* 1) kulolchilik bulyumlari; 2) sopol idish
stony ['stəʊni] *a* toshloq, sertosh, toshli
stony-broke [,stəʊn 'brəʊk] *a* butunlay xarob bo'lgan
stood [stud] *past. of stand* 2
stool [stu:l] *n* 1) kursi; 2) sandal
stool-pigeon [stu:l,pidʒin] *n* 1) kaptar, kabutar; 2) xabarchi, xabar beruvchi, darakchi
stoop [stu:p] *n* 1) bukchayganlik, egilganlik; yelkasi chiqqanlik; 2) ta'zim
stop [stop] *1. n* to'xtash, to'xtatish; to'xtatish joyi; bekat; *full ~ nuqta*; *2. v* to'xtamоq, to'xtatmoq
stoppage ['stɒpɪdʒ] *n* 1) ishni to'xtatish, ish tashlash; 2) yo'i harakatidagi tirbandlik
stopper ['stopə] *n* 1) tiqin, probka, po'kak; 2) *deng.* stopor (*ma'lum vaziyatda to'xtatish, siljimaydigan qilib o'rnatish uchun xizmat qiladigan moslama*)
stopping ['stopɪŋ] *n* 1) to'xtash, to'xtalish; dam (tin) olish; to'xtash joyi, bekat; 2) tish plombasi
stop-watch ['stop,wɒtʃ] *n* sekundomer
storage ['stɔ:ridʒ] *n* 1) saqlash; 2) ombor, omborxona, narsalar saqlanadigan joy
store [sto:r] *1. v* om borda saqlamoq, g'amlamoq; *2. n* 1) g'amlab qo'yilgan narsalar, zaxira; in ~ zaxirada; 2) do'kon
storehouse ['stɔ:haus] *n* om bor, omborxona
storekeeper ['stɔ:,ki:pə] *n* 1) do'kondor, ator; 2) omborchchi
store-room ['stɔ:rū:m, -rum] *n* om bor, omborxona
storey ['stɔ:ri] *n* qavat; **to add a ~ to a house** ustiga qurib binoni yana ko'tarmoq
stork [sto:k] *n* zool. laylak
storm I [stɔ:m] *n* bo'ron, dovul
storm II [stɔ:m] *v* mavj urmoq
stormbound ['stɔ:mbaund] *a* po'rtana (kuchli dengiz to'qini) bilan ushlaniib (sekinlanib, to'xtab, kechikib) qolgan
stormy ['stɔ:mɪ] *a* bo'ronli, dovulli; bo'ron aralash
story ['stɔ:ri] *n* 1) hikoya, qissa, ertak, rivo-yat; *2. hodisa, voqeа*

story-teller [stɔ:rɪ,teɪlə] *n* hikoyachi, hikoya qiluvchi; ertak aytib beruvchi
stout [staut] *a 1* mustahkam; qattiq, pishiq;
 2) semiz, to'la
stove [stəʊv] *n* pechka, plita
stow [stəʊ] *v* taxlamoq, joylamoq, taxlab
 (terib, joylab) qo'yomoq
stowage [stəʊdʒɪs] *n* joylash, o'rash, saran-jomlash
stowaway [stəʊəwei] *n* bilet (chipta)siz pas-sajir (*pa-roxod, samolyotda*)
straddle [strædl] *n 1* katta qo'yilgan qadam; 2) katta (yirik) qadam
straggle [stræg(ə)l] *a 1* tartibsiz, hurpay-gan, paxmaygan, to'zigan; 2) yirtilgan, tililgan, juldur
straight [streit] *1. a 1* to'g'ri; 2) to'ppa-to'g'ri; *2. adv* darrov; tezlik bilan; *3. v* to g'-rila-moq
straighten [streitn] *v* tuzatmoq, to'g'rila-moq, yaxshilamoq, to'g'ri yo'lga solmoq, taribga keltrimoq
straightforward [streitfɔ:wəd] *a 1* to'ppa-to'g'ri (*to'xtamay*), bevosita; 2) halol, pok, vijdonli, to'g'ri, soffdil
straightway [streitwei] *adv* darhol, darrov, bir onda, tez, tezda
strain I [strem] *v* tortmoq, cho'zmoq, tarang qilmoq; cho'zib (tortib) kiydirmoq
strain II [strem] *n* zot, nasi, tur (*hayvonlar va o'simliklar haqida*)
strained [stremnd] *a 1* tortilgan, cho'zilgan, tarang qilingin; 2) sun'i, yasama, sa-mimiy emas; 3) buzilgan, buzuq, noto'g'ri
strait [streit] *n (pl)* 1) bo'g'oz; 2) geogr. bo'yin
strait jacket [streit,dʒækɪt] *n* tiydirish ko'y-lagi (*jinnilarغا жазаваси туғанда кидирилдігін, қимлашын го'l qo'y maydigan massus ko'yylak*)
strand I [straend] *n* qirg'oq, sohil
strand II [straend] *v* mushkul (tang) ahvolga tushib qolmoq
stranded [straendid] *a* qirg'oqqa chiqarib (irg'itib) tashlangan
strange [streindʒ] *a 1* ajib; g'alati, qiziq; 2) begona, notanish
stranger [streindʒə] *n* yet, begona kishi
strangle [stræng(ə)l] *v 1)* bo'g'ib o'ldir-moq; 2) bo'g'moq, qismoq
strangulation [stræŋgju'lɛʃ(ə)n] *n* tib. bir-dan nafasi (dami) ichiga tushib ketish, bo'g'ilish
strap [stræp] *1. n* kamar, tasma, qayish; *2. v* 1) qayish bilan bog'lamoq; 2) tasma bilan urmoq
strata [stræ:tə] *pl of stratum*

strategic(al) [stræ'ti:dʒɪk(al)] *a* strategiya-ga oid; strategiya nuqtayi nazaridan ahamiyatlari
strategies [stræti:dʒɪks] *n pl* strategiya (*urush olib borish to'g'risidagi fan; urush olib borish san'ati*)
strategist [stræti:dʒɪst] *n* strateg (strategi-yani yaxshi bilgän möhir lashkarboshi)
strategy [stræti:dʒɪ] *n 1)* strategiya (*urush olib borish to'g'risidagi fan; urush olib borish san'ati*); 2) biror maqsadga erishish uchun ayyorlik ishlatalish; 3) usul, uslub; yondashuv
stratosphere [strætəsfɪə] *n* stratosfera (*atmosferaning troposferadan 8 – 16 kilometr yuqori joylashgan qatlami*)
stratum [strə:təm] *n (pl -ta [-tə])* qatlam, qavat
straw [stro:] *n* poxol, somon, xashak
strawberry [stro:b(ə)rɪ] *n bot.* 1) qulupnay; 2) yertut, yer tuti; **wild** ~ o'rmon yet tuti
stray [strei] *1. a* adashib qolgan, adashgan; *2. v* yo'ldan adashmoq, yo'lini yo'qotmoq
streak [stri:k] *n 1)* yo'l-yo'l chiziq, taram-taram yo'lli; 2) xususiyat, fazilat, xosiyat, xislat; sifat (*fe'l-atvor*)
streaked [stri:kt] *a* yo'l-yo'l chiziqli, taram-taram yo'lli; **marble** ~ **with red** taram-taram qizil yo'lli marmar
streaky [stri:kɪ] *a* yo'l-yo'l, ola-bula, ola-bayroq, taram-taram
stream [stri:m] *1. n 1)* oqim; oqar suv; *2) ariq, soy;* *2. v 1)* oqib bormoq; *2) tomchilamoq;* *3) tommog*
streamer [stri:me:] *n 1)* vimpel (*harbiy kemalarda: uzun, kambar bayroqcha, taniqlik belgisi*); *2) shior, lavha*
streamlet [stri:mlit] *n* kichkina soy, jilg'a, ariq
streamline [stri:mlain] *n* (*havo oqimlari-ning*) yo'naliishi, tomoni, borayotgan (keta-yotgan) tomoni
streamlined [stri:mlaind] *a 1)* yaxshi yo'l-ga qo'yilgan; *2)* zamonaviy lashtirilgan
street [stri:t] *1. n* ko'cha; *in the ~* ko'chada; *2. am:* ko'chaga oid; ko'chada bo'ladigan; ~ fighting ko'cha janglari
strength [strenθ] *n* kuch, quvvat; **beyond one's ~** kimningdir kuchi yetmaydigan darajada
strengthen [strenθ(ə)n] *v* kuchaytirmoq, mustahkamlamoq
strenuous [strenjuəs] *a 1)* kuch, mehnat ta-lab qiladigan; *2)* kuchli, quvvatlari, baquvvat; zabardast
stress [stres] *1. n 1)* urg'u; *2) ta'kidlash;* *2. v 1)* urg'u qo'yomoq; *2) ta'kidlamoq*

- stressful** [‘stresf(ə)l] *a* qattiq hayajon (*ruhiy zarba*)ga sabab bo‘ladigan, (*ruhiy, aqliy*) zo‘riqish kelтирib chiqaradigan
- stretch** [stretʃ] *1. n* cho‘zish, uzaytirish, kengaytirish; *2. v* tortmoq, uzaytirmoq, kengaytimoq, cho‘zmoq
- stretcher** [‘stretʃə] *n 1)* zambil; *2) qolip (poyabzaldo‘zlikda)*
- strew** [stru:] *v* (**strewed** [-d]; **strewed**, **strown**) sochmoq, yomoq, yoyib qo‘ymoq, sochib tashlamoq
- strewn** [stru:n] *p. p. of strew*
- stricken** *I* [‘strikən] *a* (*nimadandir*) hayratda (lol, qoyil) qolgan
- stricken** *II* [‘strikan] *p. p. of strike II*
- strict** [strikt] *a 1)* qat‘iy, qattiq, jiddiy; *2) qattiqqo‘l, talabchan*
- strictly** [‘striktli] *adv* qat‘iyat (qattiqqo‘llik, talabchanlik) bilan
- stricture** [‘striktʃə] *n (pl)* qattiq tanqid; ayblash
- stridden** [‘stridn] *p. p. of stride 2*
- stride** [strand] *1, n 1)* katta qadam; *2) qo‘yilgan oyoqlar orasidagi masofa;* *2. v (strode; stridden)* shaxdarn (katta) qadam tashlamoq
- strident** [‘straid(ə)nt] *a* qattiq, kuchli, shiddati, zo‘r
- strike** [straik] *n 1)* zarba; *2) kutilmagan baxt;* *3) miyaga yalt etib kelgan fikr;* *2. v (struck; struck, stricken) 1) urmoq; zarba bermoq;* *2) hayron qoldirmoq*
- strike-breaker** [‘straik,breika] *n* ish tashlash vaqtida ish tashlamay ish tashlovchi-larga xiyonat qiluvchi shaxs
- striker** [straikə] *n* ish tashlovchi
- striking** [‘straikɪŋ] *a* hayratda qoldiradigan, ajoyib, juda yaxshi
- string** [strinj] *1. n 1)* tor; *2) arqon; ip;* *2. v (strung) 1) tor o‘tkazmoq;* *2) torni taranglatmoq;* *3) (musiqiy asbobni) sozlamoq;* *4) bog‘lamoq*
- stringed** [‘strindʒəd] *a* mus. torga oid, torli, tor; torli musiqa asboblari
- stringency** [‘strindʒ(ə)nsi] *n 1)* talabchanlik, qattiqqo‘llik; *2) ishonchlilik, ishonarlilik, ishontradiganlik*
- stringent** [‘strindʒənt] *a* talabchan, qattiq talab qiladigan, qattiqqo‘l
- stringy** [‘strinj] *a 1)* tolali, sertola; *2) cho‘ziluvchan, cho‘ziladigan, cho‘zilish qobiliyatiga ega*
- strip** [strip] *n 1)* uzun va tor bo‘lak; *2) tasma, lenta*
- stripe** [straip] *n* yo‘l-yo‘l chiziq; hoshiya, jiylak
- striped** [straipt] *a* yo‘l-yo‘l, ola-bula, taram-taram
- stripling** [‘stripliŋ] *n* yosh yigit, o‘spirin, yigitcha
- strive** [straiv] *v (strove; striven) 1) intilmоq, harakat qilmoq;* *2) da‘vo qilmoq*
- striven** [‘striv(ə)n] *p. p. of strive*
- striving** [‘straivɪŋ] *n* intilish, harakat qilish
- strode** [straʊd] *past. of stride 2*
- stroke** [straʊk] *n 1)* urish, turtish; zarb, zarba; *2) tib, shol, falaj*
- stroll** [straʊl] *1. n* sayr, tomosha; *2. v 1)* aylanib yurmoq; *2) sayr qilmoq;* *3) eshkima-shik sanqib yurmoq*
- strong** [strɒŋ] *a* kuchli, qudratli, baquvvat, mustahkam; *a ~man polvon*
- stronghold** [‘strɔːnghɔːld] *n 1)* qal‘a; *2) tayanch, suyanchiq, homiy, muhofazachi*
- strongly** [‘strɔːglɪ] *adv* *1) kuch (zarb, shiddat) bilan;* *2) qat‘iyat (dadillik, jasurlik) bilan*
- stropy** [‘strɔːpi] *a* o‘jar, qaysar, injiq
- strove** [straʊv] *past. of strive*
- struck** [straʊk] *past. of strike 2*
- structure** [‘struktʃə] *n 1)* tuzilish; *2) bino, imorat, qurilish*
- struggle** [‘strʌg(ə)l] *1. v* kurashmoq; *2. n* kurash; jang
- strum** [strʌm] *1. n* jaranglash, ding‘illash, ting‘illash, tiringlash, diringlash; *2. v* jaranglamоq, ding‘illamoq, ting‘illamoq, tiringlamоq
- strung** [straŋ] *1. past., p. p. of string 2;* *2. a* asabiylashgan, hayajonga tushgan; diqqati oshgan, asabi taranglashgan; *a highly ~ person* asabiylashgan kishi
- strut** *I* [strat] *1. n* svatl to‘kib qadam tashlash (yurish); *2. v* svatl to‘kib qadam tashlamоq (yurmoq)
- strut** *II* [strat] *1. n* qur. kashak, tirkovuch, tirkak; *2. v* tiramoq, tirab qo‘ymoq, tirkak qo‘ymoq
- stub** [stab] *n* to‘nka, kunda
- stubble** [‘stab(ə)l] *n* ang‘iz (*ekin o‘rib olin-gan yer*)
- stubborn** [‘stʌbən] *a* o‘jar, qaysar, gapga kirmaydigan, ko‘nmaydigan, unamaydigan
- stucco** [stakəʊ] *1. n* suvash, suvab qo‘yish, suvab chiqish; *2. v* suvamoq, suvoq qilmoq
- stuck** [stak] *past., p. p. of stick 1*
- stuck-up** [stak ‘ʌp] *a* takabbur, manman, kibr-havosi baland, kalondimog‘, dimog‘-dor, kekkayan
- stud** *I* [städ] *1. n 1)* katta qalpoqli mix; *2) tex. shift (metall o‘zakcha); 3) knopka (hosma mix, tugmacha mix); 2. v mix qoqmoq, mix qoqib bezamoq*

stud II [stʌd] <i>n</i> 1) ot zavodi (<i>ot zotini yaxshilash va zotli otlar yetishirish bilan shug'ulananidigan korxonasi</i>); 2) oxtona	stupefaction [<i>stju:pɪfæksʃ(n)</i>] <i>n</i> dong qotib qolish; murdadek (haykaldek) qotish, murda bo'lib qolish
stud-book [<i>stadbuk</i>] <i>n</i> otlarning zoti yozilgan kitob	stupify [<i>stju:pɪfaɪ</i>] <i>v</i> hayron (qoyil) qoldirmoq, mahsilo qilib qo'ymoq
student [<i>stju:d(ə)nt</i>] <i>n</i> talaba	stupendous [<i>stju:pɛndəs</i>] <i>a</i> ulkan ahamiyatli
studied [<i>stadi</i>] <i>a</i> puxta o'ylangan, yaxshilab o'ylab ko'rilgan	stupid [<i>stju:pɪd</i>] <i>a</i> anqov, esi past; aqlsiz, ahmoq, tentak
studio [<i>stju:dɪəʊ</i>] <i>n</i> (<i>pl -os [-əʊz]</i>) 1) studiya (<i>rassom kishi haykal taroshning ishxonasi</i>); 2) radiostudiya (<i>radio eshitirish uchun maxsus jihozlangan bino</i>)	stupidity [<i>stju:pɪdɪtɪ</i>] <i>n</i> ahmoqlik, tentaklik, aqlsizlik
studious [<i>stju:dɪəs</i>] <i>a</i> 1) ilm bilan hand bo'lган; 2) tirishqoq, g'ayratchan, serharakat, serhafsala, quntli	stupor [<i>stju:po</i>] <i>n</i> dong qotib qolish; haykaldek qotish
studiously [<i>stju:dɪəslɪ</i>] <i>adv</i> tirishib, qunt bilan, hafsalal (ishtiyoq) bilan	sturdiness [<i>stɜ:dɪnəs</i>] <i>n</i> qatiqlik, mahkamlik, mustahkamlilik, pishiqlik, puxtalik, chidamlilik
study [<i>stʌdi</i>] <i>1. n</i> 1) o'rganish, o'qish; 2) kabinet, darsxona; 2. <i>v</i> 1) o'rganmoq; 2) o'qimoq	sturdy [<i>stɜ:dɪ</i>] <i>a</i> mahkam, mustahkam, qatiqlik, pishiq, puxta; chidamli; <i>a ~ child</i> baqqut odam
stuff [<i>stʌf</i>] <i>1. n</i> 1) material, narsa; 2) yejiladigan narsa; 3) narsalar, bisot; 4) mato, gazmol; 5) tiqma, to'ldiriladigan narsa; <i>2. v</i> 1) tiqma bilan to'ldirmoq; 2) jig'ildonga urmoq, paqqos tushirmoq; 3) tiqishtrimoq, qalashtrimoq	sturgeon [<i>stɜ:gʒ(ə)n</i>] <i>n</i> <i>zool.</i> osyotr, bikri, bakra, bakrabaliq
stuffing [<i>stʌfin</i>] <i>n</i> tiqma, to'ldirilgan (tiqilgan) narsa (<i>yostiq va b.</i>)	stutter [<i>stʌtə</i>] <i>1. n</i> duduqlik, sogovlik; <i>2. v</i> duduqlanmoq, duduqlanib gapirmoq
stuffy [<i>stʌfi</i>] <i>a</i> dim, bo'g'iq	sty I [<i>staɪ</i>] <i>n</i> cho'chqaxona
stuffy [<i>stʌftfai</i>] <i>v</i> 1) birovni kulgili qilib ko'rsatmoq; 2) yo'qqa chiqarmoq	sty II [<i>staɪ</i>] <i>n</i> <i>tib.</i> govmichcha
stumble [<i>stʌmb(ə)l</i>] <i>v</i> qoqilmoq, chalinmoq	style [<i>stail</i>] <i>n</i> 1) uslub; 2) moda, rasm, fason
stumbling-block [<i>stʌmblɪngblɒk</i>] <i>n</i> qiyin (qiyavdigan, xalaqt beradigan) masala; qiyinchilik, to'sqinlik, xalaqt	stylish [<i>stailɪʃ</i>] <i>a</i> biror uslubda ishlangan, biror uslubdag'i
stump [<i>stʌmp</i>] <i>1. n</i> to'nka, kunda; <i>2. g'o'la, g'o'lacha, kesik; 3) chekib tashlangan papiro; 4) qalam qoldig'; 5) kalta-kulta qalam</i>	stylistic [<i>star'listɪk</i>] <i>a</i> stilistik, uslubiy
stun [<i>stʌn</i>] <i>v</i> 1) urib ag'darmoq; 2) kar (garang) qilmoq, qulqo ni bitrimoq; 3) lol qoldirmoq, hayratda qoldirmoq	stylus [<i>stailəs</i>] <i>n</i> grammofon (ignasi) ninasi
stung [<i>stʌŋ</i>] <i>past., p. p. of sting</i> 2	stymie, stymy [<i>staimi</i>] <i>v</i> qiyin (mushkul) ahvolga solib qo'ymoq
stunk [<i>stʌŋk</i>] <i>p. p. of stink</i> 3	suave [<i>swa:v</i>] <i>a</i> boabdab, odobli; nazokatli
stunner [<i>stʌnər</i>] <i>n</i> so'zl. 1) kishini hayron goldiradigan nusxa (namuna); 2) yoqimli kishi; 3) ajoyib (kishini mahsilo qiladigan) manzara	suavity [<i>swa:vɪtɪ</i>] <i>n</i> xushmuomalalik, muloyimlik, sertakallumlik
stunning [<i>stʌnɪŋ</i>] <i>a</i> 1) kar (garang) qiladigan, qulqo ni bitiradigan; 2) hayratda goldiradigan, dovdiratib qo'yadigan; hayratmuz	sub- [<i>səb-</i>] <i>pref.</i> biror narsaning ikkinchi narsa ostida ekanligini bildiradi: subway 1) yer osti yoki tog' ostidan o'tkazilgan yo'li; <i>2. amer. metro</i>
stunt I [<i>stʌnt</i>] <i>1. n</i> o'sishdan to'xtash; <i>2. v</i> o'sishdan to'xtamoq	subaltern [<i>səb(ə)lt(ə)n</i>] <i>n</i> 1) <i>harb.</i> kichik zabit; 2) bo'ysunadigan, tobe, qaram, qarashli
stunt II [<i>stʌnt</i>] <i>1. n</i> (<i>sport musobaqalarida</i>) muvaffaqiyatlari ishtirok etish (chiqish); <i>2. v</i> jasorat ko'rsatmoq	subcommittee [<i>səbkomit̩i</i>] <i>n</i> kichik (yordamchi) komissiya
stunted [<i>stʌntɪd</i>] <i>a</i> past bo'yli, pastak, bo'y past, pakana	subconscious [<i>səb'kɔnfəs</i>] <i>a</i> anglab yetmay turib sodir bo'ladigan, ongsiz, beixtiyor, g'ayriixtiyoriy
	subdivide [<i>səbdɪ'veɪd</i>] <i>v</i> bo'lmoq, ajratmoq; (<i>qismrlarga</i>) bo'linmoq, ajratilmuoq
	subdivision [<i>səbdɪ'veɪz(ə)n</i>] <i>n</i> bo'lish, qismrlarga ajratish; bo'linish
	subdue [<i>səb'dju:</i>] <i>v</i> zabt etmoq, ishg'ol qilmoq
	subheading [<i>səb'heðɪŋ</i>] <i>n</i> ikkinchi sarlavha, qo'shimcha (kichik) sarlavha
	subject I [<i>səbdʒɪkt</i>] <i>a</i> qaram, qo'l ostidagi, qarashli

subject II [səbdʒikt] n 1) predmet, fan; 2) masala, mavzu; 3) gram. ega

subject III [səb'dʒikt] v 1) duchor qilmoq; 2) bo'yusundirmoq

subjective [səb'dʒektiv] a subyektiv; kim-saning (shaxsning) o'zигагина xos (bog'liq) bo'lган, shaxsiy

subject-matter [səbdʒikt,mætə] n 1) mazmun, ma'no, mohiyat (*kiuob, maqola, suhbat va b.*); 2) (*muhokama qilinadigan*) mavzu, hodisa, voqeа, narsa; o'rganish obyekti

subjoin [səb'dʒɔ:n] v qo'shmoq, qo'shib qo'yimoq, qo'shimcha qilmoq, yana qo'shmoq

subjugate [səbdʒu'geit] v zabit qilmoq, bo'sib olmoq, o'ziga bo'yusundirmoq

subjugation [səbdʒu'geʃn(e)n] n zabit etish, bo'ysundirish; bo'ysunish

subjicator [səbdʒu'geṭor] n zabit etuvchi, bosib oluvchi; istilochi

subjunctive [səb'dʒʌŋktiv] n gram. istak mayli, istak fe'l

sublimate [səb'lɪmeɪt] n kim. haydash (*qatiq jismni bevosita bug'ga aylantirish*);

crossive ~ sulerna (*zaharti oq kukun, simob xlорид*)

sublime [sə'b'laim] a ulug'vor, hashamatli, dabdabali, muhtasham

submarine 1. n [səbmari:n] 1) suvosti kemasli; 2) suvosti o'simligi; 2. a [səbmə'nɪ:n]

suv ostida bo'ladigan, suv ostidagi

submerge [səb'mɜ:dʒ] v cho'ktirmoq, bo'tirmoq, g'arq qilmoq

submerged [səb'mɜ:dʒd] a cho'ktirilgan, botirilgan, g'arq qilingan

submission [səb'misʃn(e)n] n 1) taqdım etish, (*hujjatlar va b. k. ni*) berish; 2) bo'ysundirish; bo'ysunish

submissive [səb'misɪv] a gapga kiradigan, rozi bo'ladigan, yon beradigan, ko'nadigan, ko'ngilchan

submit [səb'mit] v 1) ko'rish uchun taqdım qilmoq (*ariza va b. haqida*); 2) bo'ysundirmoq; bo'ysunmoq; 3) duchor qilmoq

subnormal [səb'nɔ:ml(ə)b] 1. a me'yordan past; 2. n mat. podnormal

subordinate 1. v [sə'bɔ:d'meit] bo'ysundirmoq, qaram qilmoq; 2. n [sə'bɔ:d'mɪnt] tobe, qaram

subordination [sa:bɔ:d'reniʃn(e)n] n bo'yusundirish; bo'ysunish

suborn [sə'bɔ:n] v pora berib sotib olmoq, o'z tomoniga og'dirmoq

subpoena [səb(p)pi:nə] 1. n sudning chaqiriq qog'oz'i; 2. v sudga chaqirmoq

subscribe [səb'skraib] v 1) a'zo bo'lmoq, qo'shilmoq; 2) obuna bo'lmoq; to ~ ga obuna bo'lmoq

subscription [səb'skripjʃn(e)n] n 1) hujjat-larga qo'lqo'yish; 2) obuna bo'lish, obuna qilish (yozilish)

subsequent [səb'sɪkwənt] a kelgusi, keyingi, se'nggi

subsequently [səb'sɪkwəntli] adv keyinchalik, kelgusida, nihoyasida, oqibatida; tegishli ravishda

subserve [səb'sə:v] v ko'maklashmoq, yordamlashmoq, yordam bermoq, yordam ko'rsatmoq

subservience [səb'sə:vɪəns] n xushomadgo'ylik, lagabardorlik, yaltoqlik

subservient [səb'sə:vɪənt] a bo'ysunadigan, tobe, qaram; qarashli

subside [səb'sайд] v kamaymoq, ozaymoq, kamayib qolmoq

subsidence [səb'sайд(ə)ns] n pasayish, kamayish, tushish

subsidiary [səb'sidɪərɪ] a 1) qo'shimcha, yordamchi; 2) ikkinchi darajali

subsidize [səb'sidaɪz] v pul (mablag') bilan ta'minlamoq, yordam ko'rsatmoq

subsidy [səb'stdɪ] n yordamga beriladigan pul, mablag'

subsist [səb'sɪst] v bor (mavjud) bo'lmoq, yashamoq, umr ko'rmoq

subsistence [səb'sɪst(ə)ns] n mavjudlik, borliq, bor (mavjud) bo'lish, tiriklik, hayotlik

subsoil [səb'sɔ:l] n 1) tagzamin (*ishlanadigan tuproq ostidagi yer qatlami*); 2) zamin, asos

substance [səb'stəns] n 1) modda; 2) fals.

materiya (*kishi ongidan tashqarida va unga bog'liq bo'lмаган holda mavjud bo'lган obyekti reallik*); 3) mohiyat, tub (asosiy) ma'no, mazmun

substandard [səb'stændəd] a standarta mos kelmaydigan; standartdan tashqari

substantial [səb'stæns(ə)l] a 1) muhim, ahamiyati; 2) ma'noli; 3) mahkam, pishiq, mustahkam; 4) yoqimli (*ovqat haqida*)

substantially [səb'stæns(ə)li] adv aslini olganda, to'g'risini aytganda, gapning to'g'-risi

substantiate [səb'stænsjeit] v isbotlamoq, tasdiqlamoq, mustahkamlamoq

substantiation [səb'stænsʃn'eɪʃn(e)n] n dalil, isbot

substantive [səbstəntiv] 1. a mustaqil, qaram bo'lмаган; 2. n gram. ot

substation [səb'steɪʃn(e)n] n el. podstansiya (*asosiy stansiyalar oraliq idagi qo'shimcha telefon yoki elektr stansiyasi*)

substitute [səb'stitju:t] 1. n o'rinnbosar, muovin, o'mini bosuvchi; 2. v 1) o'mida

ishlamoq, o'rnini bosmoq, o'rnida bo'l-moq; 2) almashtirmoq, almashtirib qo'y-moq	successive [sək'sesiv] <i>a</i> keyingi, so'nggi; kelgusi
substitution [səbstɪ'tju:s(ə)n] <i>n</i> 1) o'rnini oluvchi (bosuvchi) kimsa, narsa, badal, evaz; 2) <i>mat.</i> almashtirish, binning o'miga ikkinchisini qo'yish	successor [sək'sesə] <i>n</i> voris, davomchi, davom ettiruvchi
substrata [səb'strɔ:tə] <i>pl</i> <i>of substratum</i>	succinet [sək'sɪŋkt] <i>a</i> qisqa, kalta, lo'nda, qisqacha
substratum [səb'strɔ:təm] <i>n</i> (<i>pl</i> -tə)	succo(u)r [səkər] <i>n</i> yordam, ko'mak, madad
1) pastki qatlam (qavat); 2) asos, poyde-vor, zamin	succulence ['səkju:ləns] <i>n</i> sersuvlik, shiradorlik
subterfuge ['səbtəfju:dʒ] <i>n</i> hiyla, nayrang; vaj, gapni aylantirish	succulent ['səkju:lənt] <i>a</i> sersuv, shirali, shirador
subterranean [səb'tə'reinən] <i>a</i> yet ostida-gi, yet ostida joylashgan; yet ostida olib boriladigan	succumb [sə'kʌm] <i>v</i> 1) yon (tan) bermoq, past kelmoq; 2) o'lmuoq, vafot etmoq
subtitle ['səb,taiṭl] <i>n</i> ikkinchi sarlavha, qo'shimcha (kichik) sarlavha	such [sətʃ] <i>pron. demonst.</i> 1) shunday; 2) bunday, shunaqa
subtle ['sətl] <i>a</i> yupqa, ingichka, nozik, muloyim, yumshoq	such-and-such ['sətʃən,sətʃ] <i>a</i> falonchi, falon kishi, falon narsa, falon ish
subtlety ['sət̩(ə)lti] <i>n</i> yupqalik, nafislik; ingichkalik, noziklik, xipchalik	suchlike ['sətʃlaik] <i>a</i> so'zl. o'xshash, o'x-shagan, singari, kabi, monand, xuddi shunday
subtract [səb'trækt] <i>v</i> <i>mat.</i> ayirmoq, olib tashlamoq; ayiruv amalini bajarmoq	suck [sək] <i>v</i> emmoq, so'rmoq
subtraction [səb'træk̩(ə)n] <i>n</i> <i>mat.</i> ayirish, olish, chiqarib tashlash	sucker ['səkər] <i>n</i> 1) emadigan, onasidan ayirlagan hayvon bolasi; 2) so'zl. go'dak, tirrancha
subtrahend ['səbtrə'hend] <i>n</i> <i>mat.</i> ayriluv-chi	suckle ['sək(ə)l] <i>v</i> 1) emizmoq; 2) bolaga emizish uchun ko'kragini tutmoq (bermoq); 3) boqmoq, boqib katta qilmoq
suburb ['səb3:b] <i>n</i> shahar atrofidagi joy	suckling ['səklɪŋ] <i>n</i> emadigan (ko'krak-dan ajralmagan) bola, chaqaloq; 2) emadigan, onasidan ayirlagan hayvon bolasi (<i>toyochoq, qo'zichoq, xo'tik, kuchuk va sh. k.</i>); 3) tajribasiz, go'r odam
suburban ['sə:bə:bən] <i>a</i> shahar atrofiga oid; shahar atrofidagi; shahardon tashqandagi	suction ['səkʃ(ə)n] <i>n</i> emish, so'rish, shi-mish, emib (so'rib) olish
suburbia ['sə:bə:bɪə] <i>n</i> 1) qololqlik, go'lilik; 2) tor sikrli kishi, tirkchilikdan boshqani bilmaydigan odam	sudden ['sədn] <i>a</i> kutilmagan; ~ly qo'qis-dan; bordan, bexosdan, kutilmaganda, to'-satdan
subvention [səb'venʃ(ə)n] <i>n</i> yordamga beriladigan pul, mablag'	suddenness ['səd(ə)nnəs] <i>n</i> to'satdan yuz (ro'y) berish (bergalilik), kutilmaganlik, nogahoniylilik, tasodifiylik
subversion [səb'verʃ(ə)n] <i>n</i> ag'darish, qulashish; vayron qilish, yo'q qilish	suds [sədz] <i>n</i> <i>pl</i> sovun ko'pig'i yoki sovunli (sovun ko'pirtirilgan) suv
subversive [səb've:sɪv] <i>a</i> vayron qiladigan, yemiradigan; vayron qiluvchi; halokalii	sue [s(j)u:t] <i>v</i> 1) <i>(kim)adir qarshi</i> ish ochmoq; 2) so'ramoq, iltimos qilmoq
subvert [səb'vert] <i>v</i> (<i>yugoridan</i>) tashlamoq, tashlab yubormoq; qo'porib tushirmoq	suede [sweld] <i>n</i> <i>fr.</i> zamsh (<i>bug'u, qo'y va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshog baxmalsimon charm</i>)
subway ['səbweɪ] <i>n</i> 1) tunnel, yerosti yo'li; 2) amer. metro	suet ['s(j)u:it] <i>n</i> charvi yog', charvi
succeed [sək'si:d] <i>v</i> 1) kimsa yoki narsaning izidan (ketidan, orqasidan) bormoq; 2) bironning vorisi bo'lmoq; 3) maqsadiga erishmoq, niyatiga yetmoq, muvaffaqiyat qozonmoq; to ~ in ... ga muvaffaq bo'lmoq	suffer ['səfər] <i>v</i> azob tortmoq; talafotga uchramoq; to ~ from ... dan azob chekmox; ~ing <i>n</i> azob; kulfat
success [sək'ses] <i>n</i> muvaffaqiyat, omad	sufferer ['səfərər] <i>n</i> jafokash, zahmatkash, alamdiyda; jabr tortgan kishi
successful [sək'sesf(ə)l] <i>a</i> muvaffaqiyatlari, omadli; yaxshi natijali	suffice [sə'fais] <i>v</i> yetarli bo'lmoq, yetmoq
successfully [sək'sesf(ə)li] <i>adv</i> muvaffaqiyatlari ravishda, muvaffaqiyat bilan	sufficiency [sə'fi:(ə)nsi] <i>n</i> mo'lilik, yetarlik, mo'l-ko'lilik, to'kinchilik, seroblik
succession [sək'seʃ(ə)n] <i>a</i> 1) izchillik, ketma-ketlik, birin-ketinlik; 2) uzluksiz, tu-tash; 3) meros	sufficient [sə'fi:(ə)nt] <i>a</i> yetarli, kifoya

- suffix** [sa'fiks] *n gram.* suffiks (*ket qo'-shimcha*)
- suffocate** [sa'fəkeɪt] *v 1)* bo'g'moq, bo'g'ib o'lirmoq; 2) siqilmoq, eziromoq, siqilib (ezilib) ketmoq
- suffocation** [sa'fə'keɪʃən] *n ho'g'ish, bo'-g'ib o'lirish; gaz bilan zaharlab o'lirish*
- suffrage** [sa'fridʒ] *n ovoz berish huquqi, saylash huquqi*
- sugar** [ʃugə] *n qand; shakar*
- sugar-basin** [ʃugə,beis(ə)n] *n qanddon, shakar idishi*
- sugar-beet** [ʃugəbi:t] *n bot.* qand lavlagi
- sugar-cane** [ʃugəkeɪn] *n bot.* shakarqamish
- sugar-refinery** [ʃugəri,fain(ə)n] *n oq qand zavodi*
- sugary** [ʃug(ə)rɪ] *a qandga, shakarga va uni ishlab chiqarishga oid; qanddan (shakardan) iborat bo'lgan*
- suggest** [sə'dʒest] *v taklif qilmoq, maslahat bermoq*
- suggestion** [sə'dʒestʃ(ə)n] *n taklif, maslahat; on the ~ of ...ning taklifi bilan*
- suggestive** [sə'džestɪv] *a 1) o'yashga undaydigan; 2) odobdan tashqari, uyat*
- suicidal** [s(j)u:ti' saidl] *a o'zi uchun halokatl, o'zini halokatga olib boradigan, juda og'ir*
- suicide** [s(j)u:isaidl] *n o'zini-o'zi o'lirish, o'z Joniga qasd qilish*
- suit I** [s(j)u:t] *n 1) kastum; 2) to'plam, sidra, komplekt (*bir butunni tashkil qilgan narsalarning to'liq to'plami*)*
- suit II** [s(j)u:t] *n mos kelmoq; to'g'ri (loyiq) kelmoq, yarashmoq*
- suitability** [s(j)u:tə bili] *n yuqorilik; layo-qatlilik; keraklik; foydalilik*
- suitable** [s(j)u:tb(ə)] *n munosib, mos, loyiq, to'g'ri keladigan*
- suitcase** [s(j)u:tkeɪs] *n kichik chamardon*
- suite** [swi:t] *n to'plam, sidra, komplekt (*bir butunni tashkil qilgan narsalarning to'liq to'plami*)*
- suit** [s(j)u:tə] *n muxlis, ixlosmand, ishqiboz; 2) iltimos qiluvchi, so'rovchi, o'tinuvchi; arzgo'y; 3) yur. da'vogar, haq talab qiluvchi*
- sulk** [salk] *v xafa bo'limoq, xafa bo'lib qovo'g'ini osittirmoq*
- sulky I** [salkı] *a qayg'uli, g'amgin, ma'yus, xafa, noxush*
- sulky II** [salkı] *n amer. bir o'rinni (bir kishilik) ikki g'ildirakli yengil arava*
- sullen** [sal(ə)n] *a 1) g'amgin, xafa, ma'yus; 2) yurakni siqadigan, zig qiladigan, ruhn ezadigan; 3) sekin oqadigan (*daryo haqidagi*)*
- sullenly** [sal(ə)nli] *adv xafa bo'lib, ma'yuslanib*
- sully** [səlt] *v bulg'amoq, kir (iflos) qilmoq; bulg'atmoq; dog' qilmoq*
- sulphate** [səlfet] *n kim. sulfat (sulfat kislota tuzi)*
- sulphite** [səlfat] *n kim. sulfit (sulfat kislota tuzi)*
- sulphur** [səlfə] *n kim. oltingugurt; flowers of ~ oltingugurt rangi (tusi), och sarqi rang*
- sultan** [salt(ə)n] *n sulton*
- sultana** [sal'ta:nə] *n 1) sultonning qizi, singlisi, xotini yoki onasi; 2) sevimli ayol, mahbuba, ma'shuqa; 3) [səl'ta:nə] kish mish*
- sultry** [səltəri] *a 1) jazirama, issiq; 2) jo'sh-qin, otashin, ehtirosi*
- sum** [sam] *1, n 1) yig'indi; 2) umumiy miqdor; 2, v 1) jamlamoq; yig'indisini chiqazmoq; 2) xulosa chiqarmoq*
- summarize** [səməratiz] *v qo'shmoq, jamlamoq, yig'indisini chiqarmoq*
- summary** [səm(ə)rɪ] *n 1) xulosa; 2) qisqa-chacha bayon*
- summer** [səma] *1. n yoz, yoz fasli; in the ~ yozda; 2. a yozgi*
- summer-house** [səməhauz] *n 1) shiyoncha; 2) dacha, dala hovli*
- summit** [səmit] *n 1) cho'qqi; 2) davlat rahbarlarining uchrashuvlari*
- summon** [səmən] *v 1) (sudga) chaqirmoq; 2) (nimandir) bajarishni talab qilmoq*
- summons** [səmənz] *n (sudga) chaqirish, chaqiruv*
- sump** [səmp] *n axlatxonha, axlat tashlanadi-gan (to'kiladigan) joy*
- sumptuous** [səm(p)təsə] *a dabdabali, ha-shamatli, ziynatli, bezatilgan, muhtasham*
- sun** [san] *n quyosh, oftob; in the ~ oftobda; ~rise quyosh chiqishi; ~set quyosh botishi; ~shine quyosh yorug'ligi; ~ny serquyosh; quyoshli*
- sun-bath** [sanba:θ] *n quyosh vannasi*
- sun-beam** [sanbi:m] *n quyosh nuri*
- sun-blind** [sanblaind] *n darparda, jaluba*
- sunburn** [sanb3:n] *n oftobda qorayish; badanning oftobda qoraygan rangi*
- sundae** [səndəi] *n (qaymoqli, mevali) yong'oqli muzqaymoq*
- Sunday** [sandı] *n yakshanba*
- sundew** [sandju:] *n bot. rosanka (hotqoglikda o'sadigan hasharotxo'r o'simlik)*
- sun-dial** [səndialei] *n quyosh soati*
- sundown** [sandaun] *n botish, quyoshning botishi*
- sundries** [sandriz] *n pl har xil narsalar, istalgan narsalar, olamdag'i bor narsalar*

sundry [səndri] a har xil, turli, bir-biridan faro qiladigan, boshqa-boshqa
sunflower [sʌn, flauə] n bot. kungaboqar
sung [saŋg] p. p. of sing
sunk [saŋk] p. p. of sink
sunken [səŋkən] a 1) cho'kib ketgan, g'arq bo'lgan; 2) cho'kik, ichiga kirib ketgan; botiq, cho'kkan; ~cheeks ichiga kirib ketgan yuz
sunlight [sənlaɪt] n quyosh yorug'ligi
sunlit [sən, lɪt] a quyosh bilan yoritilgan
sunny [səni] a 1) quyoshsha (quyosh nuriga) oid; quyosh nuridan (energiyasidan) foy-dalanishga asoslangan; 2) quyoshli; 3) quvnoq, xursand, baxti
sunrise [sənraɪz] n quyosh (kun, oftob) chiqishi
sunset [sənset] n quyosh (kun, oftob) botishi
sunshade [sənʃeɪd] n soyabon (quyoshdan saqlanish uchun), chodir
sunshine [sənsaɪn] n quyosh yorug'ligi
sunspot [sənsɒpt] n 1) astr. quyoshdagidagi dog'; 2) sepkil
sunstroke [sənstrɔʊk] n issiqlik ta'sirida odamning isib ketib, kasal holatda bo'lishi, oftob urishi
sup [sʌp] n yutum, qultum; ho'plash; yutinish
super [s(j)u:pə] a juda yaxshi, a'lo darajadagi
super- [s(j)u:pə-] pref. biror narsaning ustiga qo'yilib (qo'shilib) orttirilishini bildiradi
superannuate [s(j)u:pə'renju:t̬] a qariganligi yoki ishga yaroqsiz bo'lganligi tufayli nafaqaga chiqmoq; 2) eskirmoq, istemoldan chiqmoq
superannuated [s(j)u:pə'renju:t̬d̬] a juda qari, keksaygan, munkillab qolgan
superannuation [s(j)u:pə'renju:t̬'eɪf̬(ə)n] n 1) qarilik tufayli iste'foga chiqarish; 2) qarinalyargala beriladigan nafaqa
superb [s(j)u:p̬:b] a dabdabali, serhasham, ajoyib
supercilious [s(j)u:p̬:sɪliəs] a takabbur, manman, kalondimog', kekkaygan
superficial [s(j)u:p̬:fɪ:s̬(ə)] a 1) sirtqi, ustki; 2) uncha chugur bo'lmagan, sayoz, yuzaki; 3) yuzaki, jiddiy bo'lmagan, yengil-yelpi
superficiality [s(j)u:p̬:fɪ:f̬ɪ:t̬'ælt̬u] n yuzakilik, sayozlik; yengil-yelpilik
superfine [s(j)u:p̬:feɪn] a 1) juda yupqa (ingichka); 2) yuqori navli
superfluity [s(j)u:p̬:flu:rt̬] n mo'llik, ko'plik, seroblik
superfluous [s(j)u:p̬:flu:flø:s̬] a ortiqcha, ehtiyojdan ortiq, haddan tashqari

superhuman [s(j)u:p̬:hju:mən] a g'ayrinsoniy, odamning qo'lidan kelmaydigan, aql bovar qilmaydigan, ajoyib, mislsiz
superimpose [s(j)u:p̬:(ə)rɪm̬ 'poʊz] v (bir-birining) ustiga qo'yimoq
superintend [s(j)u:p̬:(ə)rɪn̬ 'tend̬] v bosh-qarmoq, yurgizmoq; idora qilmoq
superintendent [s(j)u:p̬:(ə)rɪn̬ 'tendənt̬] n (biror xo'jalik, muassasa va sh. k. ni) bosh-qaruvchi
superior I [s(j)u: 'pi:(ə)rɪə] a oliv, yuqori, eng yaxshi
superior II [s(j)u: 'pi:(ə)rɪə] n katta, boshliq
superiority [s(j)u: 'pi:(ə)rɪ 'rɪt̬u] a afzallik, ustunlik
superlative [s(j)u: 'pe:lət̬v] 1. a eng yuqori, eng yuksak; 2. n gram. ortirma daraja
superman ['s(j)u:p̬əmæn] n (pl -men [-mən]) o'ta quadralli odam
supermarket ['s(j)u:p̬ə,ma:kɪt̬] n supermarket, universam (turli xil oziq-ovqat va sanoot mollari bo'lgan, xaridolar o'ziga xizmat qiladigan yirik magazin)
supernatural [s(j)u:p̬:næt̬ʃ(ə)rəl] a g'ayritabiyy, mo'jizaviy; ilohiy, favqulodda; mislsiz
supernumerary [s(j)u:p̬:nju:m(ə)rəri] n 1) shiatda yo'q ishchi; 2) vaqtinchalik o'rinsbosar
supersede [s(j)u:p̬:sɪ:d̬] v almashtirmoq, o'zgartirmoq, yangilamoq, o'miga qo'yimoq
superersonic [s(j)u:p̬:sɒnɪk] a tovush tezligidan ham ortiq, tovushdan ham tez (uchadigan)
superstar [s(j)u:p̬:stɑ:] n eng taniqli yulduz
superstition [s(j)u:p̬:stɪʃ(ə)n] n xurofot, bid'at, irim-chirim
superstitious [s(j)u:p̬:stɪ's̬p̬s̬] a xurofotga berilgan, irim-chirimlarga ishonadigan
superstructure ['s(j)u:p̬,stræk̬tʃə] n tayyor bino ustiga solingan ustki qavat
supertax [s(j)u:p̬:tæks̬] n qo'shimcha foyda uchun to'lanadigan soliq
supervene [s(j)u:p̬:vɪ:n] v yaqinlashmoq, boshlanmoq, bo'lmoq, kelmoq, kirmoq
supervise [s(j)u:p̬:vaɪz̬] v 1) kuzatmoq, nazorat qilmoq; 2) rahbarlik qilmoq, bosh-qarmoq
supervision [s(j)u:p̬:vɪz̬(ə)n] n 1) kuzatish; nazorat, nazorat qilish, qarab turish; 2) rahbarlik, boshqarish
supervisor [s(j)u:p̬:vəvɪz̬] n 1) nazoratchi, nazorat qilib (qarab) turuvchi; 2) inspektor; 3) metodist
supine [s(j)u:p̬:paɪn] a 1) chalqanchasiga yotgan; 2) faoliyatsiz, harakatsiz, g'ayratsiz, sust

- supper** [sə:pə] *n* kechki ovqat; at ~ kechki ovqatda
- supplant** [sə'plɔ:nt] *n* siqib chiqarmoq, surib chiqarmoq; chiqarib yubormoq
- supple** [sə:p(ə)] *a* egiluvchan, bukiluvchan, qayishqoq; ~ leather yumshoq teri
- supplement** [sə:p'liment] 1. *n* qo'shimcha (ilova) qilib berilgan narsa; 2. *v* to'ldirmoq, qo'shmoq, ilova qilmoq
- supplementary** [sə:pli'ment(ə)rɪ] *a* qo'shimcha
- suppleness** [sə:p(ə)lnəs] *n* 1) egiluvchanlik, bukiluvchanlik, qayishqoqlik; 2) yurnshoqlik, mayinlik
- suppliant** [sə:p'lɪənt] *a* yalinadigan, o'tinuchi, yalinib-yolvorib so'raydigan, yalinuvchi
- supplicate** [sə:p'likɪt] *v* yolvormoq, o'tinmoq, yalinmoq; iltijo qilmoq
- supplication** [sə:płɪ'keʃ(ə)n] *n* iltijo, o'tinch, yolvorish; o'tinib (yolvorib) so'rash
- supply** [sə'plai] 1. *n* ta'minlash, yetkazib berish; ta'minot; 2. *v* ta'minlamoq, yetkazib bermoq; **to ~ with** ... bilan ta'minlamoq
- support** [sə'po:t] 1. *n* qo'llab-quvvatlash, madad, yordam; 2. *v* qo'llab-quvvatlamoq, yordam (madad) bermoq
- supporter** [sə'po:tə] *n* tarafdar, yoqlovchi, ergashuvchi; muxlis
- supportive** [sə'po:tɪv] *a* 1) madad (dalda) beruvchi, qo'llab-quvvatlovchi, ko'maklashevchi, yordam beruvchi; 2) qonun-qoida chegarasidagi
- suppose** [sə'paʊz] *v* 1) faraz qilmoq; 2) ...deb o'yamoq, hisoblamoq; 3) ko'zlamoq, chalamamoq
- supposedly** [sə'peuzidli] *adv* 1) ko'pchilikning fikriga ko'ra; 2) taxminan, mo'ljallab, chamlab
- supposing** [sə'peuzinj] *cj.* agar, agarda, bor-di-yu; modomkisi; basharti, mabodo
- supposition** [sə:pə'zis(ə)n] *n* faraz, taxmin, ehtirol
- suppress** [sə'pres] *v* to'xtatmoq, oldini olmoq, barham bermoq, yo'q qilmoq
- suppression** [sə'preʃ(ə)n] *n* kuch bilan bosish, bosib qo'yish, bostirish
- suppurate** [sə:pjū'reit] *v* tib, yiringlamoq, yiring (gazak) olmoq, fasod bog'lamoq
- supputation** [sə:pju'reɪʃ(ə)n] *n* tib, yiringlash, yiring (fasod) bog'lash, maddalash rahbarlik, boschilik, tepada turish
- supreme** [s(j)u:pri:m] 1. *n* harb, bosh qo'mondon; 2. *a* eng yuqori, oliy
- supremely** [s(j)u:pri:mlı] *adv* favqulodda, haddan tashqari, juda ham, o'ta
- surcharge** [sə:tə:dʒəs] *n* ortiqcha ortilgan yuk; ortiqcha yuklash
- sure** [sə:ər] *a* 1) ishongan, ishonchli, ishonchi komil; **to be ~ of** ...ga amin bo'lmoq; 2) shubhasiz, albatta
- surely** [sə:wəl] *adv* albatta, turgan gap, shakshubhasiz, tabiiy
- surf** [sə:f] *n* qirg'oqqa uriladigan to'lqin, qirg'oq to'lqin
- surface** [sə:fi:s] *n* yuza, ust
- surfeit** [sə:fi:t] *n* ortiqchalik, keragidan ortiq ishlatalish, iste'mol qilish
- surge** [sə:dʒ] *n* to'lqin, g'alayon
- surgeon** [sə:dʒ(a)n] *n* jarroh
- surgery** [sə:dʒ(də)n] *n* 1) jarrohlik; 2) jarrohlik operatsiyasi; 3) operatsiya xonasi
- surgical** [sə:dʒik(ə)n] *a* xirurgiyaga (jarrohlikka) oid; jarrohlik
- surly** [sə:lɪ] *a* badqovoq, badjahl, jahli yomon, serjal
- surmise** [sə'maɪz] *n* taxmin, faraz, gumon; shubha
- surmount** [sə'maʊnt] *v* bardosh bermoq; bardosh bilan yengmoq, yengib chiqmoq, ustun (g'olib) kelmoq
- surname** [sə:nem] 1. *n* 1) familiya; 2) laqab; 2. *v* 1) familiya olmoq (bermoq); 2) laqab qo'yimoq
- surpass** [sə'pa:s] *v* ortiq (afzal) bo'lmoq, oshib (ortib) ketmoq, ustun (bo'lib) chiqmoq
- surplus** [sə:pləs] *n* keragidan ortiq narsa, ortiqcha narsa
- surprise** [sə'prɪz] 1. *n* ajablanish; 2) hayratda qolish; 2. *v* 1) hayratda qoldirmoq; 2) ajablanitirmoq
- surprised** [sə'praɪzd] *a* ajablangan, hayron bo'lgan, hayratda qolgan; **to be ~ at** nima-dandir ajablanmoq, hayratlanmoq
- surprising** [sə'prɪzɪŋ] *a* hayratlanarli, ajablanarli; kutilmagan, nogahoni, tassodify
- surrealism** [sə'riəliz(ə)m] *n* tar surrealizm (XX asr burjua adabiyyoti va san'atidagi ijoddha aql-idrok va tajriba rolini inkor qiladigan o'ta formalistik oqimlardan biri)
- surrender** [sə'rendə] 1. *n* taslim bo'lish, tan berish; 2. *v* taslim bo'lmoq, tan bermoq
- surreptitious** [sə:rəp'tju:ʃəs] *a* yashirin, maxifiy; zimdan, bildirmasdan, sezdirmasdan
- surrogate** [sə:rəg(e)t] *n* o'mini oluvchi (bosuvchi), o'rincbosar
- surround** [sə'raʊnd] *v* atrofni o'rab olmoq, o'rab turmoq; ~ing yaqin, qo'shni, atrofdagi; ~inga atrof, tevarak
- surtax** [sə:tæks] *n* qo'shimcha daromad soligi
- surveillance** [sə:vɪlə'nəns] *n* nazarat, nazarat qilish, qarab turish

- survey** [sə'vei] *n* 1) so'rash, so'roq qilish; 2) tekshirish; ko'rib chiqish, ko'zdan kechirish
- survival** [sə'verv(ə)l] *n* 1) tirk qolish; 2) qoldiq, sarqit
- survive** [sə'veiv] *v* umr kechirmoq, boshdan kechirmoq, tirk qolmoq, qutulib qolmoq
- susceptibility** [sə'septə'biliti] *n* ta'sirlanuvchanlik, ta'sirchanlik
- susceptible** [sə'septəbl(ə)] *a* ta'sirlanuvchan, tez ta'sirlanuvchi
- suspect** 1. *n* [səspekt] shubhali odam; 2. *v* [sə'spekt] shubha qilmoq, shubhalanmoq
- suspend** [sə'spend] *v* 1) to'xtatmoq, (vagtincha) bas qilmoq; 2) ilmoq, osmoq; ilib (osib) qo'ymoq
- suspender** [sə'spendər] *v* ilmoq, ilib (osib) qo'yadigan narsa
- suspenders** [sə'spendəz] *n pl* amer. (biror narsani yoki kimsani tortib, tutib turish uchun xizmat qiladigan) qayish, tasma
- suspense** [sə'spens] *n* 1) xavotir, sarosima (kutganda); 2) hal qilinmaganlik, nomalumlik
- suspension** [sə'spens(ə)n] *n* birmuncha vaqt to'xtatish, to'xtatib qo'yish, to'xtatib turish; biroz to'xtash, to'xtalish, to'xtab turish
- suspicion** [sə'spiʃ(ə)n] *v* shubha, guman
- suspicious** [sə'spiʃəs] *a* 1) shubhali, shubha tug'diradician; 2) gumanisiraydigan, xavfsiraydigan
- sustain** [sə'steɪn] *v* 1) tutib turmoq, ko'tarib turmoq; 2) tiramoq, tirab qo'ymoq, tirgak qo'ymoq
- sustenance** [sə'stanəns] *n* 1) tirkchilik vostalarli; tirkchilik uchun zarur narsalar, mablag'lari; 2) ovqat, oziq, taom; 3) madad (dalda) berish, qo'llab-quvvatlash, ko'maklashish, yordam berish
- surture** [su:tʃə] *n* Anat., bot. chok, hoshiya
- swab** [swəb] *n* shvabra, pol yuvgich; 2. *tib.* tampon (yara ichiga tiqiladigan, qon va yirningi shimihib oladigan dorilangan paxta yoki doka)
- swaddle** [swədl] *v* yo'rgaklamoq, yo'rgaklab bog'lamoq
- swagger** ['swægə] *n* savlat to'kib yurish; 2) odobszislik, betakkalluflik, surbetlik
- swallow I** ['swələʊ] *v* yutmoq, chaynamay yutmoq
- swallow II** ['swələʊ] *n* zool. qaldirg'och
- swam** [swæm] *past. of swim* 2
- swamp** [swɒmp] *n* botqoq, botqoqlik, bal-chiqzor
- swan** [swɒn] *n* zool. oqqush
- swank** [swæŋk] *n* so'zl. maqtanchoqlik, manmanlik, maqtanish, kerilish
- swap** [swɒp] = **swop**
- sward** [swɔ:d] *n* maysazor (park, bog', hovli va sh. k. joylarda)
- swarm I** [swɔ:m] *n* gala, to'da, to'p
- swarm II** [swɔ:m] *v* tirmashib (o'rmashib) chiqmoq, arang ko'tarilmoq
- swarthy** ['swɔ:ði] *a* qoracha, qorachadan kelgan, bug'doyrang
- swat** [swɒt] *n* tarsaki, shapaloq; urish, turkish, zarb
- swath** [swɒθ] *n* chalg'i bilan o'rilganda ochilgan joy
- swathe** [sweɪð] *1. n* bint; o'raladigan narsa, o'rov; 2. *v* bint bilan bog'lamoq
- sway** [swεi] *n* tebranish; silkitsin, siltash, qoqish
- swear** [swε] *v* (swore; sworn) qasam ichmoq, qasamyod qilmoq, ont ichmoq
- swear-word** ['sweəwɜ:d] *n* so'kish; haqorat
- sweat** [swεt] *1. n* ter; 2. *v* terlamoq
- sweater** [swεtə] *n* to'rt ko'ylik, jemfer, sviter
- swede** [swi:d] *n* bot. brukva (sholg'omsimon sabzavot)
- Swedish** ['swi:diʃ] *1. a* shvedlarga va Shvetsiyaga oid; *2. n* shved tili
- sweep** [swi:p] *1. n* supurgi; *2. v* (swept) supurmoq; supurib tashlamoq
- sweeper** ['swi:pə] *n* 1) farrosh, supuruvchi, (ko'cha) supuradigan kishi; 2) ko'cha supuradigan mashina
- sweeping** ['swi:pɪŋ] *n* supurish, supurib tozalash
- sweet** [swi:t] *1. a* shirin, mazali; *2. n* shirinlik, konfet
- sweeten** ['swi:tn] *v* biroz shirin qilmoq, biroz shirinlik (shakar, murabbo) qo'shamoq; shirinroq qilmoq
- sweetener** ['swi:t(ə)nə] *n* 1) shakarning o'rinni bosuvchi narsa; 2) pora
- sweetheart** ['swi:θɔ:t] *n* ma'shuq, ma'shuqa, yor, sevgili
- sweetmeat** ['swi:tmi:t] *n* obaki, obakidardon (konfet)
- swell** [swel] *v* (swelled; swollen) 1) shishmoq, do'mbirba bo'lmoq, shishib ketmoq, g'urra bo'lmoq; 2) shishimoq, do'mbirba qilmoq
- swelling** [swelɪŋ] *n* 1) shish, g'urra; 2) do'nglik, do'mboqlik
- swelter** [swelta] *n* jazirama issiq, kun qizig'i
- swept** [swept] *past., p. p. of sweep* 2
- swerve** [swɜ:v] *n* og'ish, chetga chiqish, farq
- swift** [swif't] *a* tez, ildam, jadal
- swig** [swig] *1. n* ho'plam, qultum (spiritli ichimlik); *2. v* ho'plab ichmoq (musallasni)
- swill** [swil] *v* (suva) chaymoq, chayqamoq

- swim** [swim] 1. *n* (*suvda*) suzish; 2. *v* (*swam*; *swum*) (*suvda*) suzmoq; *suzib* yurmoq
swimmer ['swimər] *n* suzuvchi
swimming-bath ['swimɪŋbaθ] *n* ustı yopilgan cho'milish hovuzi (*basseyni*)
swimmingly ['swimɪŋli] *adv* tekislab, silliq qilib, tep-tekis, sip-silliq
swimming-pool ['swimɪŋpu:l] *n* ustı ochiq cho'milish hovuzi (*basseyni*)
swindle ['swindl] *n* aldamchilik, tovlamachilik, firibgarlik
swindler ['swindlə] *n* muttaham, qallob, firibgar; aldamchi, tovlamachi
swine [swain] *n* zool. xonaki cho'chqa
swineherd ['swainhɜ:d] *n* cho'chqabon, cho'chqabogaqr
swing [swɪŋ] 1. *n* tebranish, chayqalish, silkinish; *in full* ~ eng qizg'in paytda; 2. *v* (*swung*) tebranmoq, chayqalmoq, silkinmoq
swipe [swaɪp] *v* 1) zarba bermoq, urmoq; 2) o'g'irlab (o'marib) ketmoq
swirl [swɜ:l] *v* aylanmoq, gir-gir aylanmoq
swish [swɪʃ] *a so'zl.* kelishgan, ko'rkam, zebö, shinam; hashamatli, muhtasham
Swiss [swi:s] 1. a shveysariyaliklarga yoki Shveysariyaga oid; shveysariyaliklar...; 2. n shveysariyalik kishi yoki ayoł
switch [switʃ] 1. *n* el. vikluchatel; 2) kommutator (*elektr zanjirida tok yo'lini uzib-ulab yoki o'zgartirib turadigan asbob*; 2. *telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma*); 3) chiviq, xivich, xipchin; 2. *v* 1) xipchin bilan urmoq, savalamoq; 2) elektr toki yo'naliшини o'zgartirmoq (*yoqmoq yoki o'chirmoq*)
switchboard ['switʃbɔ:d] *n* el. kommutator (1. elektr zanjirida tok yo'lini uzib-ulab yoki o'zgartirib turadigan asbob; 2. telefon apparatlarini uzib-ulab turadigan qurilma)
switch off ['switʃ 'of] *v* o'chirmoq
switch on ['switʃ 'on] *v* yoqmoq
swivel ['swiv(ə)] *n* tex. vertlug (*turlı mekanızlarda birikan detallarning bir-biriga nisbatan aylanishini ta'minlovchi zveno*)
swollen ['swələn(ə)n] 1. *p. p. of swell*; 2. a shishgan, kattalashgan, bo'rtgan
swoon [swu:n] *n* hushdan (o'zidan) ketish, behush bo'lib qolish, behushlik, hushsizlik
swoop [swu:p] *n* to'satdan hujun qilish
swop [swɒp] *n* so'zl. alishish, almashish, almashtirish, ayrbosh qilish, ayrboshlash
sword [sɔ:d] *n* qılıch, shamshır
sword-belt ['sɔ:dbełt] *n* kamarband (*belga yoki yelkaga taqib yuriladigan, qurol osish uchun xizmat qiladigan tasma*)
swore I [swɔ:] *a* qasamyod qilgan, qasam (ont) ichgan; ~ friends ajralmas do'star
swore II [swɔ:] *past. of swear*
sworn [swɔ:n] *p. p. of swear*
swot [swɒt] *n* so'zl. 1) og'ir ish, qiyin ish; 2) tushunmasdan yodlash, yodlab olish; 3) tushunmasdan yodlovchi
swum [swʌm] *p. p. of swim* 2
swung [swʌŋ] *past., p. p. of swing* 2
sycamore ['sikəmɔ:] *n* bot. 1) oq zarang; 2) chinor
sycophant ['sikəf(ə)nt] *n* xushomadgo'y odam, lagambardor, tilyog'larmachi
syllabic [si'læbɪk] *a bo'g'lini, bo'g'inga oid*
syllable ['siləb(ə)l] 1. *n* bo'g'in; 2. *v* bo'g'in-larga bo'lib talaffuz qilmoq
syllabus ['sɪləbus] *n* 1) (*kurs, leksiyaning*) dasturi; 2) konsept, reja; 3) jadval
symbol ['simb(ə)l] *n* belgi, alomat; ramz, timsol
symbolic(al) [sim'bɒlik(ə)l] *a* simvollar (ramzlar) orqali ifodalangan, simvolik, ramziy
symbolically [sim'bɒlik(ə)li] *adv* simvolik, ramziy, ramzlar bilan (orqali), ramzlar vositasida
symbolize ['simbəlaɪz] *v* simvol (ramziy ishora) bo'lib xizmat qilmoq, ramzi bo'limoq
symmetric(al) [si'metrik(ə)l] *a* simmetrik
symmetry ['simtrɪ] *n* simmetriya; 2) ...ga moslik, to'g'rilik, mutanosiblik
sympathetic [,sɪmpə'thetɪk] *a* 1) rahmdilik bilan (rahmi kelib) qilingan; 2) mehribon, oqko'ngil, 3) yoqimli, yoqimtoy, istarasi issiq
sympathize ['simpəθaɪz] *v* achinmoq, rahmi kelmoq; rahm qilmoq, hamdard bo'limoq
sympathy ['simpəθi] *n* 1) bir-birini tushunish, hamdardlik; 2) muvofiqlik, uyg'unlik
symphony ['simfəni] *n* 1) simfoniya, simfonik musiqa; 2) simfonik; *a* ~ orchestra simfonik orkestr
symposium [sim'pevziəm] *n* simpozium, ilmiy kengash
symptom ['simptəm] *n* alomat, tashqi belgi, nishona
synagogue ['sinəgɒg] *n* sinagoga (*yahudiy-lar ihodatxonasi*)
synchronize ['sɪnkrənaɪz] *v* sinxronlamoq, sinxron qilmoq, bir-biriga moslamoq (to'g'rilamoq)
syncopate ['sɪŋkəpeɪt] *v* 1) mus. urg'uning kuchli qismidan kuchsiz qismiga o'tishi; 2) gram. so'zni qisqartirmoq, so'z o'rasisida bo'g'in yoki tovushni tushirib qoldirmoq
syndicate ['sɪndɪkət] *n* sindikat (*yirik monopoliistik birlashmalarning bir turi*)
synonym ['sɪnənɪm] *n* gram. sinonim

synonymous [sɪ 'nɒmɪəs] *a* sinonimlarga
(ma'nodosh so'zlarga) oid; ma'nodosh
synopses [sɪ 'nɒpsɪz] *pl* of **synopsis**
synopsis [sɪ 'nɒpsɪs] *n* (*pl -ses [-si:z]*) konsept
synoptic(al) [sɪ 'nɒptɪk(al)] *a* meteor. sinop-
tik

syntax [sɪntæks] *n* gram. sintaksis, gap tu-
zilishi

synthesis [sɪnθəsɪs] *n* (*pl -ses [-si:z]*) sintez
(sodda kimyoiy birikma yoki elementlar-
dan murakkah hirikmalar hosil qilish)

synthesizer [sɪnθəsaɪzər] *n* sintezator (*mu-
rakkab elektron musiqi cholg'u asbob'i*)

syphilis ['sif(ə)lis] *n* tib. sifilis, zaxm

siphon ['sif(ə)n] = **siphon**

Syrian ['sɪriən] *1. a* Suriyaga va suriyalik-
larga oid; *2. n* suriyalik kishi, suriyalik ayol

syringe [sɪ 'rɪndʒ] *1. n* shpris (*badagan
dori yuboradigan asbob*); *2. tex.* shpris
(*mashina qismalarini moylaydigan asbob*);

2. v bosim ostida suv yoki suyuq dori pur-
kab yuvmoq

syrup ['sɪrəp] *n* shinni, qiyom, sharbat

system ['sɪstɪm] *n* *1* yo'l, tartib, usul; *2* tu-
zum; *a social* ~ ijtimoiy tuzum; *3* sistema,
tizim

systematic(al) [*sistɪ'mætɪk(al)*] *a* *1* siste-
mali, muntazam, doimiy, har doimgi; *2* tar-
tibli, batartib

systematize ['sistimətaɪz] *a* sistemalamoq,
sistemaga (taribga, tizimga) solmoq

systemic [sɪs 'temɪk] *a* fiziol. *1* tartibli, ba-
tarib; *2* muntazam, doimiy; *3* barcha or-
ganizmiga tegishli (taalluqli) bo'lgan; *4* biol.
tib. somatik, jismoniy

T

T, t [ti:] *n* *1* ingliz alifbosining yigirmanchi
harfi; *2*, „T“ shaklidagi qandaydir nar-
sa; **T-beam** kesimi, „T“ harfi shaklidagi
(temir) to'sin; **T-square** reysshina (*bir
uchida ko'ndalang taxtachasi bo'lgan uzun
chizg'ich*)

ta [ta:] *int. so'zl.* rahmat, tashakkur

tab [tæb] *n* *1* ilgak (*ustki kiyimga tikilgan
yoki qadalgan halqasimon ilgak*); qulog-
cha, tutqich; *2* etiketta, yorliq, yozuv;
3 amer. chek, hisob-kitob; *4* qulog (*bosh
kiyimda*); *5* pastga tushirib-ko'tariladigan
kichkina parda (*teatrda*)

tabard [tæbərd] *n* *tar. 1* plash; *2* yelkaga
tashlanadigan yengsiz keng kiyim

tabby ['tæbi] *n* muar, muhayyar (*tovla-
nadigan qalın shoyi*); *2* ola-bula mushuk;
3 qari qiz

tabernacle [tæbənæk(ə)] *n* *1* chodir, *2* chi-
mildiq, go'shang; *3* ibodatxona, butxona
tabes [teibi:z] *n* *tib.* sifilis (zaxm) tufayli
onqa miyaning (asab sistemasingin) kasalla-
nishi

tabescence [tə 'bes(ə)ns] *n* *tib.* oriqlash, ozib
ketish

tabetic [tə 'betɪk] *a* *tib.* sifilis kasalligidan
azob chekayotgan, sifilis kasaliga chalingan
table ['teib(ə)] *1. n* stol; *2* ovqat, ovqat
tayyorlash joyi; *3* jadval; *4* ro'yxat; upon
the ~ jamaot oldida hal qilinadigan; *2. v*
1 stolning ustiga qo'ymoq; *2* jadval tuzmoq
tableau ['tæblø] *n* (*pl -aux [-əʊz]*) *fr.* chi-
royli manzara, chiroyli chizilgan rasm; ~
curtains teatr. ikki tomonga ochiladigan
parda

tableaux ['tæbløz] *pl* of **tableau**

table-beer ['teib(ə)bɪə] *n* oshxonada pivosi
(*spiritsiz pivo*)

table-book ['teib(ə)buk] *n* *1* muqovasi rasm-
lar bilan bezatilgan chiroyli kitob; *2* jadval
tar to'plami

table-cloth ['teib(ə)lkloθ] *n* dasturxon

table-cover ['teib(ə)ləkəvə] *n* chiroyli das-
turxon

table d'hôte [ta:b(ə)] *deut* *n* *fr.* tabl-dot

(*G'arbiye Yevropada: umumiy ovqat stoli*)

table-flap ['teib(ə)f�æp] *n* stolning qaytar-
ma taxtasi

tableful ['teib(ə)fūl] *n* narsalar bilan to'l-
dirilgan stol; *2* ziyofat ahli

table-knife ['teib(ə)lnaɪf] *n* ro'zg'or pi-
chog'i, osh picnoq

tableland ['teib(ə)lænd] *n* geogr. yassi
tog'lik, tepalik

table-leaf ['teib(ə)lli:f] = **table-flap**

table-lifting ['teib(ə),lftɪŋ] *n* spiritizm (*o'l-
ganlar ruhi narigi dunyoda yashaydi va
ular bilan so'zlashish mumkin, deb ishonuv-
chi mistik ogim*)

table-linen ['teib(ə),linen] *n* sochiq-dasturxon

tableman ['teib(ə)lmæn] *n* (*pl -men [-mæn]*)
tabelchi

table-money ['teib(ə),manni] *n* harb. tirik-
chilik (ro'zg'or) xarajatlari uchun sarflana-
digan pul

table-napkin ['teib(ə),næpkɪn] *n* qo'l so-
chiq, salfetka

table-spoon ['teib(ə)lspu:n] *n* osh qoshiq

table-stone ['teib(ə)lstəʊn] *n* arxeol. tosh
maqbalarlar

tablet ['teblɪt] *n* *1* (*yozuvli*) kichkina, may-
da taxta; *2* bloknot, daftarcha; *3* tabletka,
tabletka dorii

table-talk ['teib(ə)tɔ:k] *n* stol (*dasturxon*)
atrofidagi suhabat

table-tennis [tə'bi:(ə)l, tenis] <i>n</i> stol tennisi	tactile [tæktaɪl] <i>a</i> 1) sezadigan, sezuvchi, sezish uchun xizmat qiladigan; 2) sezilarli darajadagi
table-ware [tə'bi:(ə)l'weə] <i>n</i> turli idishlar, vilka, qoshiq va b.	tactless [tæktləs] <i>a</i> odobsiz, beandisha
table-water [tə'bi:(ə)l'wo:tə] <i>n</i> mineral ichimlik suvi	tactual [tæk'tju:ləl] <i>a</i> 1) sezadigan, sezish uchun xizmat qiladigan, sezuvchi; sezish...; 2) sezilarli, sezilish turadigan, bili-nib (ko'rinib) turgan, kattagina
tabloid [tə'blovɪd] <i>n</i> 1) tuturiqsiz gazeta; 2) qisqartirilgan matnli kichkina hajmdagi gazeta	tad [ta:d] <i>n</i> amer. go'dak, farzand, bola
taboo [tə'bu:] <i>1. a</i> 1) man etilgan; 2) uyatsiz (<i>so'z haqida</i>); 2. v. man etmoq, taqiqlamoq	Tadjik [tə:dʒɪk] <i>1. a</i> tojiklarga, Tojikistoniga oid; <i>2. n</i> 1) tojik, tojik ayoli, tojik qiz; 2) tojik tili
tabor [tə'bər] <i>n</i> tar. kichkina nog' ora	tadpole [tædpəʊl] <i>n</i> itbaliq, qurbaqa bolasi
tabouret [tə'bərɪt] <i>n</i> kichkina, pastak kur-si, kursicha	ta'en [teɪn] <i>shoir. taken ga qarang</i>
taboo [tə'bu:] = taboo	taffeta [tæftɪə] <i>n</i> tafta (<i>gazlama turi</i>)
tabular [tə'bju:lər] <i>a</i> 1) jadval shaklidagi, jad-valga oid; 2) yassi shaklli	taffy [tæfi] <i>n</i> 1) amer. bir dona iris; shakar va yog'dan qilingan konfet; 2) xushomad, tilyog'lama, maqtov
tabulate [tə'bju:leɪt] <i>1. a</i> yassi, yapaloq, te-kis; <i>2. v</i> 1) jadvalga kiritmoq; 2) yuzasini yassi qilmoq	tafsi [tæfiə] <i>n</i> arzon romning bir turi (<i>kuchli spiriti ichimliklarning bir turi</i>)
tabulation [tə'bju:leɪʃ(ə)n] <i>n</i> 1) jadval tu-zish; 2) jadvaldag'i ma'lumot	tag I [tæg] <i>1. n</i> 1) yozuv, yorlig; 2) qulog-cha, tutqich; <i>3) itmoq, sirtmoq, halqa; 2. v</i> 1) biriktiromoq, mahkamlamoq; 2) qo'shmoq, ilova qilmoq (<i>kitob, xai va b.</i>)
tabulator [tə'bju:leɪtə] <i>n</i> 1) jadval tuzuvchi; 2) tabulator (<i>hisoblash mashinasining bir turi</i>)	tag II [tæg] <i>1. n</i> quvlashmachoq (<i>bolalar o'yini</i>); <i>2. v</i> orqasidan quvib borib urmoq yoki koptik otib tekkizmoq (<i>bolalar o'yinlarida</i>)
tachometer [tæ:k'ometər] <i>n</i> tex. taxometr (<i>aylanish tezligini o'chaydigan asbob</i>)	tag day [tægdei] <i>n</i> amer. xayr-ehson (sadaqa, qurbanlik) qilish kuni
tacit [tæsɪt] <i>a</i> so'z bilan bayon etilmagan; 2) nazarda (ko'zda) tutilgan; 3) so'zsiz, e'tirozsiz; lom-mim demay qilingan	tagged [tægd] <i>a</i> belgilangan, belgi solingan (<i>qo'yilgan, tamg'a bosilgan</i>)
taciturn [tæsɪt:n] <i>a</i> kamgap, indamas	tagger [tægə] <i>n pl</i> bir taxta juda yupqa tu-nukalar
taciturnity [tæsɪ:t'ni:tɪ] <i>n</i> kamgaplilik, indamistik	taiga [tæɪga] <i>n</i> tayga (<i>Yevropa va Osiyo qur'alarining shimolidagi g'oyat zich to-qayzor</i>)
tack I [tæk] <i>n</i> 1) keng qalpoqli mix, knopka; 2) chokning (qaviqning) bir yo'li (bitta bax-yasi)	tall I [teɪl] <i>1. n</i> 1) dum, orqa qism, quyruq; at the ~ of kimningdir izidan; 2) navbat; 3) kuchsiz, zaif qism; 4) tanganing teskari tomoni; <i>2. v</i> 1) dum hosil qilmoq; 2) oxirini ulamoq; to ~ away cho'zilib ketmoq, uzoq-dan yo'q bo'lmoq
tack II [tæk] <i>n</i> deng. ovqat, oziq, taom; soft ~ non	tall II [teɪl] <i>n</i> yur. merosga qoldirilgan buyum-larning cheklangan shartlari
tackle I [tæk:(ə)l] <i>n</i> asbob, buyum, jihoz	tail-board [teɪlbo:d] <i>n</i> aravaning qaytarma (<i>ko'tarma</i>) orqasi
tackle II [tæk:(ə)l] <i>v</i> amer. 1) bog'lamoq, bog'lab qo'yamoq; 2) ushlab olmoq, tutib olmoq; 3) hal qilmoq; 4) (<i>futbolda koptoki-ni</i>) ushlahmoq, tutmoq	tail-coat [teɪlkə:t] <i>n</i> frak (<i>oldingi etagi qisqa, orga etagi uzun erkaklar kiyimi</i>)
tacky [tækɪ] <i>a</i> vapishqoq, yopishadigan	tail-end [teɪl end] <i>n</i> (<i>biror narsaning</i>) ya-kunlovchi qismi (oxiri)
tact [tækt] <i>n</i> odob, odoblilik, xushmuomala-lik, nazokat	tailings [teɪlinz] <i>n pl</i> qoldiq, tashlandiq, chiqit, supurindi
tactful [tæktf(ə)l] <i>a</i> odobli, xushmuomala-andishali, nazokatli	tail-lamp [teɪllæmp] = tail-light
tactical [tæktɪk(ə)l] <i>a</i> 1) harb. taktikaga oid; 2) harbiy, jangovar; ~efficiency jangga shaylik; 3) epchil, chaqqon, abjir	tailless [teɪlləs] <i>a</i> quyrusiz, dumi yuluq, dumsiz
tactician [tæk'tɪkɪən] <i>n</i> taktik (<i>taktikani yaxshi biladigan odam</i>)	tail-light [teɪllaɪt] <i>n</i> mashina orqasidagi fo-nus (sonar)
tactics [tæktɪks] <i>n</i> (<i>sing va pl</i> bir xilda ish-latiladi) taktika (<i>1. harb. tayyorgarlik ko'rish va jang olib borish san'ati; 2. ko'ch. ko'zlangan maqsadga erishish uchun ish-latiladigan kurash usullari</i>)	

tailor [teɪlə] 1. *n* mashinachi, tikuvchi; 2. *v* tikkomoq; well ~ed yaxshi kiyingan

tailored [teɪləd] *a* tikuvchi tomonidan tikilgan

tailoring [‘teɪlərɪŋ] *n* 1) tikuvchilik ishi; 2) kiyim (usti-bosh) tikish

tailor-made [teɪlər’meɪd] *a* maxsus buyurtma asosida qilingan

tailpiece [teɪpli:s] *n* oxirgi qism; quyruq qism

tailplane [‘teɪplpleɪn] *n* av. 1) orqadagi stabilizator; 2) samolyotning dum qanoti

tail-slide [‘teɪl,slайд] *n* av. samolyotning orqa tomoniga og’ishi

tail-spin [‘teɪl,spɪn] *n* 1) *av.* boshqarib bo’lmaydigan shitor (oliv pilotajda: samolyotning pastga qarab buri lib sho’ng’ishi); 2) iqtisodda inqirozga yuz tutish

tail-wind [‘teɪl,wɪnd] *n* hamroh shamol

tain [teɪn] *n* qalaydon qilingan amalgama (amalgama – simohnning biror metall bilan qotishmasi)

taint I [teɪnt] *n* 1) dog’, isnod; 2) axloqi buzuqlik, axloqizsizlik, badaxloqlik

taint II [teɪnt] *v* 1) yuqtirmoq; 2) buzilmoq; meat ~s readily In hot weather issiqda go’sht tez buziladi

taunted [teɪntɪd] *a* buzuq, buzilgan

taintless [teɪntləs] *a* beayh, henuqson, be-kam-ko’st

Tajik [ta:dʒɪk] = Tadjik

take [teɪk] *v* (took; taken) 1) olmoq; to ~ prisoner asir olmoq; 2) foydalanmoq;

3) ijaraq olmoq; 4) kino, kadrga olmoq; to ~ part in qatnashmoq; to ~ a holiday

ta’tilga chiqmoq; to ~ place sodir bo’lmoq; to ~ in mehmon kutmoq; to ~ on xizmatga

qabul qilmoq; to ~ out chiqarmoq; to ~ up muhokama qilmoq; to ~ a meal ovqatlanmoq; to ~ by ... dan ushlamoq, ... dan tutmoq; 5) ushlamoq, tutmoq; to ~ fish baliq tutmoq; to ~ in the act jinoyat ustiga kelib

qolmoq; to ~ wine vino ichmoq; to ~ a seat o’tirmoq; to ~ a bus avtobusga o’tirmoq; to ~ a taxi taksiغا o’tirmoq; to ~ account hisobga (e’tiborga) olmoq, nazarada (ko’zda) tutmoq; to ~ action 1) so’zga

chiqmoq; nutq so’zlamоq; 2) chora ko’rmoq; to ~ care ehtiyyot bo’lmoq, tasalli (taskin) topmoq; xursand bo’lmoq, quvонmoq; to ~ counsel maslahatlashmoq, maslahat olmoq; to ~ effect ta’sir qilmoq, ta’sir

ko’rsatmoq; kuchga kirmoq; to ~ notice payqamoq; bilib (sezib, payqab) qolmoq; to ~ offence xafa bo’lmoq, ranjimoq; to ~ the offensive hujumga o’tmoq; to ~ root ildiz olmoq, ildiz otmoq, tomir yoymoq;

to ~ shelter yashirinmoq, o’zini panaga

- writing-master [*'raitin,mɔ:stə*] *n* husnixat o'qituvchisi
- writing-materials [*'raitinqmæ,triərləz*] *n pl* yozuv-chizuv uchun kerakli narsalar
- writing-pad [*'raitinqpæd*] *n* bloknot; yon daf-tarcha
- writing paper [*'raitinq,peipa*] *n* pochta qo-g'ozi; yozuv qog'ozi
- written [*'ritn*] *p. p. of write*
- writing-table [*'raitin,teɪb(ə)l*] *n* yozuv stoli
- wrong [*roŋ*] *1. n* nohaq (noto'g'ri, yolg'on) gap, ish va h. k.; xatolik, noto'g'rilik, yanglishlik, xato, xato (yanglish) fikr, ishtibon; gumanlik; *to do ~* yanglishmoq, xato o'yalamoq, xato (noto'g'ri fikrda bo'imoq; guman qilmoq); *2. a* noto'g'ri, xato, nohaq; *this watch is ~* bu soat xato (noto'g'ri); *to*

be quite ~ qattiq xato qilmoq (yanglish-moq); 3) *adv* *noto'g'ri*, xato, yanglish; **to get smb.** ~ kimmidir *noto'g'ri* tushunmoq; 4. **v** *zarar* (ziyon) yetkazmoq, zarar keltirmoq, ziyon qilmoq; **birovga yomonlik qilmoq** (kulfat yetkazmoq, baxtsizlik keltirmoq); **xafa qirnoq, ko'nglini ranjitmoq, dili-ni og'ritmoq**

wrongdoer [rɒŋ.du:eə] *n* dilozor, jafokor, kimsani xafa qilgan, ranjitgan odam

wrongdoing [rɒŋ.du:iŋ] *n* 1) gunoh; 2) ayb, ayb ish, aybdor

wrongful [rɒŋf(ə)l] *a* 1) *noto'g'ri*, xato, yanglish, buzuq, g'alati; 2) adolatsiz, no-haq, nodurust; 3) *zarar* (ziyon) qiladigan, zararli, ziyonli; 4) *g'ayriqonuniy*, qonunga xi洛f, qonunga sig'maydigan

wrongheaded [rɒŋ.hedɪd] *a* adashgan, yanglishan, xato o'yagan, xato (*noto'g'ri*) fikrda bo'lgan

wrong'un [rɒŋən] *n* so'zl. shubhali shaxs

wrote [raʊt] *past. of write*

wroth [rɒθ] *a* *predic.* esk. jahli (achchig'i) chiqqan, g'azablangan, darg'azab bo'lgan, g'azabi qaynagan

wrought iron [rɒ:t 'aɪən] *n* payvandlash po'lati

wrought-up [rɒ:t'ʌp] *a* hayajonlangan, asabiy

wprung [rʌŋ] *past., p. p. of wring*

wry [raɪ] *a* egri, qiyshiq, qing'ir, qing'ir-aiy-shiq, egri-bugri; *a* ~ smile sun'iy kulgi, zo'rma-ro'zaki kulish; masxaratash

wryneck [rainek] *n* 1) *zool.* vertisheyka (qizilishtonlilar oilasiga kiradigan quş); 2) *tib.* qiyshiqbo'yin, bo'yni qiyshiq

wunderkind [vʌndəkɪnt] *n* so'zl. g'oyat qobiliyatli (iste'dodli) bola

wyck-elm [wɪtʃelm] *n* *bot.* elm (*qayrag'ochning bir turi*)

we [wai] *n* 1) *tex.* uchtalik (*trubadagi suv, gaz kabilarni uch tomonga ajratishga, bo'lib yuborishga moslashgan jo'mraksi-mon buyum*); 2) uchtalik; uchta bir xil narsadan iborat predmet

Wykehamist ['wɪkamɪst] *n* Winchester kollejining tarbiyalanuvchisi (o'quvchisi, tala-basi)

wynd [waɪnd] *n* *shatl.* tor ko'cha yoki xi-yobon

X

X, x [eks] *n* (*pl* Xs, X's [*eksız*]) 1) ingliz alifbosining yigirma to'rtinchı harfi; 2) X shaklidagi qandaydir narsa; 3) *mat.* iks,

noaniq miqdor, kenglik; *ko'ch.* qandaydir sir, qandaydir maxfiy narsa, qandaydir no-ma'lum narsa; 4) *amer.* o'n dollarli qog'oz pul; 5) xoch, salb, but, bir-birini kesib o'tgan ikki narsa, ikki chiziq; 6) yanglish, xato; 7) holalarning ko'tishi man etilgan filmlar turkumi (turi)

Xant(h)ippe [zæn'tipɪ] *n* 1) Ksantippa (*Suq-roting xotini*); 2) *ko'ch.* badjahl, serjabl, yomon, yovuz, ming'ir-ming'ir qiladigan, qulojni tinchitmaydigan, mijg'ov, janjal-kash xotin (ayol)

xanthous ['zænθʊs] *a* sariq, malla

X-axis ['eks,əksɪs] *n* mat. absissa o'qi (*fa-zodagi nuqtaning joyini aniqlaydigan uch koordinatdan biri*)

X-bit [eksbit] *n* tog'. parmaning salb (krest) shaklidagi boshchasi

X-bracing ['eks,breɪsɪŋ] *n* tex. krest shakli-dagi bog'lanish, kashak

xebec ['zi:bek] *n* tar, shebeka (*O'rtayer den-gizdagidagi yelkanli kemalarining bir turi*)

X-engine ['eks,endʒɪn] *n* tex. silindrga X shaklida o'matilgan dvigatel

xenial ['zi:nɪəl] *a* mehmendorlikka aloqador (taalluqli) bo'lgan; ~ customs mehmendor-chilik qonun-qoidalari

xenogamy [zi:'nogəmi] *n* bot. o'z-o'zidan changlanish

xenomania [ze'nenia'meɪniə] *n* barcha xorijiy kishilarga bo'lgan havas (ishtiyoq)

xenon ['zenon] *n* kim. kenon (*kimyoviy element, inert gaz*)

xenophobia [,zenə'fəʊbɪə] *n* xorijdan kelgan kishilarga nisbatan adovatli munosabatda bo'lish, xorijiy kishilarga nisbatan g'arazli munosabatda bo'lish

xerography [ze'rog्रəfi] *n* kseroksda ko'paytirish

Xerox [zeroks, 'zi:(ə)-] *n* 1) kseroks (*foto ko'chirmalarni rasmga tushiradigan asbob*); 2) fotocho'chirma

Xerxes ['zɜ:ksi:z] *n* tar. Kserks (*axomaniylar sulolasiga mansub qadimiy Eron shohi*)

xiphoid ['z(a):fɔɪd] *a* anat. qilichga (shamshirga) o'xshagan, shamshirmand

X-line ['ekslain] *n* mat. iks o'qi

Xmas ['krɪsməs] *n* 1) „Christmas“ so'zining qisqartirilgan shakli; rojdestvo, milod (*Iso payg'ambarning tug'ilganiga bag'ishlangan xristianlar bayrami*); 2) rojdestvo (milod) bayramida bo'ladijan, rojdestvo (milod) bayramiga oid

X-ray ['eksreɪ] 1. *n* (*odaida, pl*) rentgen nurlari; 2) *attr.* rentenga oid; ~ **therapy** rentgenoterapiya (*rentgen nurlari bilan davolash*); **an** ~ picture rentgenogramma

(*rentgen apparatida olingen surat*); **an ~ photograph** rentgen surati (*rentgen apparatida olingen surat*); **2. v** nur sochmoq, rentgen nurlari yordamida tekshirib ko'rmoq

xylanthrax [zaɪ'lænθræks] *n* yog'och ko'mir, pista ko'mir

xylograph [zaɪləgrɑ:f] *n* yog'ochga o'ymakorlik bilan tushirilgan (shakl, surat) naqsh

xylography [zaɪ'lɒgrəfi] *n* ksilografiya (*yog'ochga o'yilgan naqsh va undan bosilgan surat*)

Xylonite [zaɪlənait] *n* selluloid (*sellulozadan tayyorlangan qattiq plastik material*)

xylophone [zaɪləfɔ:n] *n* ksilosofon (*changga o'xshagan musiqiy asbob*), yog'och chang

xylose [zaɪləʊs] *n* kim. ksiloza, monosaxarid (*tarkibida gidroksil guruhlari, oldegid guruh yoki ketoguruh bo'lgan organik birikma*)

Y

Y, y [waɪ] *n* (*pl* **Ys, Y's** [waɪz]) **1)** ingliz alifbosining yigirma beshinchı harfi; **2)** „Y“ shaklidagi bitor narsani bildiradi; **3) mat.** igrek, noma'lum qiymat, kattalik, miqdor

yacht [jɔ:t] **1. n** sport. yaxta; **2. v** suzmoq, yaxtada yurmoq

yacht-club [jɔ:kklʌb] *n* yaxt-klub (*1. suv sporti bilan shug'ullanadigan sport tashkiloti; 2. shu tashkilot joylashgan bino yoki suv stansiyasi*)

yachting [jɔ:tɪŋ] **n** 1) yaxtada yurish, yaxtada suzish; 2) yelkanli qayiq sporti

yachtsman [jɔ:tsmən] *n* (*pl* **-men** [-mən])

1) yaxta egasi; **2) sport.** yaxtachi, sportchi **yastif, yaffle** [jæfl] *n* zool. yashil qızılısh-ton

yah [jɑ:] **int.** (*nafratlanish, jırkanishni bildiradi*) qo'ysangiz-chi, yog'-e, rostdanmi

yahoo ['ja:hū:] *n* amer. qishloqda o'sgan

sodda odam, qishloqi

yak [jæk] *n* zool. qo'tas

Yakut [jæ'kut] **1. n** 1) yakut; yakut ayoli;

2. v yakut tili; **2. a** yakutlarga (yakut xalqiga yoki Yakutiyaga) oid; **~ literature** yakut adabiyoti

Yale lock [jeɪllɒk] *n* avtomatik ravishda ishlaydigan oulf

yaml [jæm] *n* bot. 1) yams; 2) batat (*janub o'simligining bir turi va uning kartoshka ta'mli ildiz mevasi*)

yammer [jæmə] *v* amer. og'z. 1) shikoyat qilmoq, nolimoq, hasrat qilavermoq; 2) betinim (to'xtovsiz) javramoq

Yank [jæŋk] = **Yankee**

yank [jæŋk] **1. n** siltov, siltash, siltanish; **2. v** siltab tortmoq, siltamoq; **to ~ in** qarnab qo'yamoq; **to ~ off** tortib olib chiqmoq, sudrab chiqmoq

Yankee [jæŋki] **1. n** yanki, amerikalik; **2. a** Amerikaga oid

yankeesied [jæŋkɪfaɪd] *a* amerikalikka aylangan, amerikalashgan

yap [jæp] **1. n** 1) vovullah, akillash, uvulash, hurish, hurgandek chiyillash; **2) so'zl.** safsata, bekor gap; **3) so'zl.** pechkaning og'zi; **2. v** 1) qattiq vovullamoq, akillamoq, hurgandek chiyillamoq; (*itlar haqida*); **2) so'zl.** valjiramoq, aljiramoq; **to ~ away** to'xtamay bekorchi gaplarni gapiramoq

yapp [jæp] *n* yumshoq charm muqova

yard **I** [jɑ:d] *n* yard (*uzunlik o'chovi, 914,4 mm ga teng*)

yard **II** [jɑ:d] **n** 1) hovli; **2)** taxta-yog'och ombori; **3)** park (*avtomobil va sh. k. transportlarni tuzatish joyi*); **4)** tem. y. navlarga ajratish stansiyasi; **5)** otar, qo'ton, molxon; **2. v** 1) molni hovliga haydamoq; **2)** yog'chlarni (*kesilgan daraxtlarni*) sudrab tashrimoq

yard-hird [jɑ:dbɜ:d] *n* harb. **so'zl.** askarlenga endi chaqirligan askar, yangi olingen askar

yardman [jɑ:dmən] *n* (*pl* **-men** [-mən]) depo yoki park ischisi

yard-master [jɑ:d,ma:stə] *n* stansiya dispetcheri

yard-measure [jɑ:d,meʒə] *n* o'lchash chizg'ichi yoki 1 yardga teng bo'lgan metr (*rutektka*)

yardstick [jɑ:d,stɪk] **n** 1) o'lchov, andaza, mezon; **2)** o'lchov chizg'ichi

yard-wand [jɑ:dwɒnd] = **yard-measure**

yarmulke [jɑ:mʊlkə] *n* sip-silliq (*cho'q qisiz*) do'ppi, kallapo'sh, taqya

yarn [jɑ:n] **1. n** yigirligan ip, g'altak; **2) so'zl.** hikoya, latifa; **2. v** ertak aytmoq, valdiramoq, aljiramoq

yarn-beam [jɑ:nbi:m] *n* yigirligan ipli to'quv stanogi g'altagi

yarn-dyed [jɑ:ndaid] *a* bo'yab yigirligan ip

yarrow [jærəʊ] *n* bot. oddiy dastorbosh bo'yimodaron (*o'simlik*)

yashmak [jæʃmæk] *n* arab. chodir (*paranjisimor yopinchiq, chimmatsiz paranjı*)

yatagh(han) [jætəgən, -gæn] *n* turk. egri qılıch, shamshir

yaw [jɔ:] *deng. av.* **1. n** kursdan (*belgilangan yo'ldan*) og'ish, chetga chiqish (*samolyot, kema va h. k. haqida*); **2. v** kursdan (*belgilangan yo'ldan*) og'moq, chetga chiqmoq

yawl [jɔ:l] *n* *deng.* **yal** (*kemadagi maxsus qayiq*)

yawn [jɔ:n] *1. n* 1) *esnash*, *esnoq tortish*, *esnoq*; 2) *tex. zazor* (*mashina qismlari o'rta sidagi juda tor tirqish*); 2, *v 1*) *esnamoq*; *he ~ ed good night u esnab xayrli tun tiladi*; 2) *chuqur* (*tubsiz*) *bo'lib ko'rinmoq*; 3) *katta* (*keng*) *ochmoq*

Y-axis [wai,ækstɪs] *n mat.* *ordinatalar o'qi yclept* [i'klept] *a esk.* *ataladigan, aytildigan, nomlanadigan, deyiladigan*

ye [ji:] *esk. shoir. = you. how d'y'e do?* *assalomu alaykum; yaxshi yuribsizmi?*

yea [jei] *n* *rozilik; ijobiy* (*tasdiqlavechi*) *javob*

yeah [jeə] *part sl.* *ha, shunday*

yean [ji:n] *v* *qo'zilamoq* (*qo'y, echki haqida*) *yeanling* [ji:nlɪŋ] *n uloq* (*echki bolasi*), *qo'zichoq*

year [jɪə, jə:] *n* 1) *yil; for ~s ko'p yillardan beri; ~ in ~ out yildan yilga; from ~ to ~ ~ by ~ ~ after ~ yil sayin; ~s ago ancha ilgari*; 2) *pl yosh, yillar; he looks young for his ~s ko'rinishidan yoshga o'xshaydi; in ~s yoshi qaytgan, qariy boshlagan*

year-book [jɪəbk] *n* *yilnomma* (*yilda bir marta chiqadigan to'plam*)

yearling [jɪəlɪŋ] *1. n* 1) *bir yoshli hayvon; 2) ko'chat; 3) amer. harb. sl.* (*harbiy xizmatiga*) *chaqiriluvchi; 2. a* *bir yashar, bir yoshti*

yearlong [jɪə'lɒŋ] *a* *yil bo'yи davom etadigan, bir yilga cho'ziladigan*

yearly [jɪəli] *1. a* *har yilgi, yilda bir marta bo'ladigan, yilliik; 2. adv* *har yili, yilda bir marta*

yearn [jə:n] *v* 1) *azob chekmoq, toliqmoq, tinkasi qurimoq, azoblanmoq; 2) sog'inmoq, qo'msamoq; sog'inib siqilmoq, diqqat bo'lmoq, zerikmoq; 3) orzumand bo'lmoq, zo'r ishtiyoyq bilan orzu qilmoq*

yearning [jə:nɪŋ] *n* 1) *kuchli xohish, qattiq xohish; 2) kuchli sog'inish; popular ~ xalqning egzu orzu-umidları*

yeast [ji:st] *n* *xamirturush, achitqi*

yeasty [ji:sti] *a 1)* *ko'pikli, ko'pigi bor, serko'pik; 2) sayoq, daydi, beqaror, ko'chmanchi, qo'nimsizlik; 3) bo'm-bo'sh, quruq, bema'ni, behuda, ahamiyatsiz (*so'z va sh. k.*)*

egg [jeg] *n amer.* *qulfbuzar o'g'ri, bosqinchil, bosmachi, o'g'ri*

yelk [jelk] *n* *tuxumning sarig'i*

yell [jel] *1. n* 1) *qattiq qichqiriq, kuchli baqiriq; 2) amer. (talabalarning sport musobaqalarida aytildigan) har bir kollejda qabul qilingan ma'qullash ovozlari; 2. v 1) *chinqirmoq, qichqirmoq, dodlamoq,**

*dod-voy qilmoq; 2) baqirmoq (*baland ovoz bilan*); to ~ out curses la'nat so'zlarini yog'dirmoq, la'natlamoq*

yellow [jeləʊ] *1. a* 1) *sariq; 2) so'zl. qo'r-qoq, yuraksiz; he has a ~ streak in him u qo'rqqoq; 3) hasadli, ichi qora; qizg'anadigan, rashkli, rashk qiladigan, shubhali, shubha tug'diradigan (*nigoh va sh. k. haqida*); the ~ press sotqin matbuot, burjuaziya sotilgan matbuot; 2. *n* 1) *sariqlik, zahillik, sariq rang; 2) tuxum sarig'i; 3) so'zl. qo'rqqoqlik, yuraksizlik; 3. v 1) *sarg'aymoq; 2) rangi ketmoq, zahillashmoq; 3) sariq rangga bo'yamoq***

yellowback [jeləʊbæk] *n* 1) (*adabiy jihatdan ma'nosiz*) tuturiqsiz roman; 2) *sariq jildli fransuzcha roman*

yellow-bark oak [jeləʊba:k'əuk] *n bot.* *baxmal dubi* (*daraxti*)

yellow-bellied [jeləʊ,beli] *n* *so'zl. qo'rqqoq, yuraksiz*

yellow-belly [jeləʊ,beli] *n* *so'zl. qo'rqqoq, yuraksiz*

yellow card [jeləʊka:d] *n sport.* *sariq kartochka*

yellow dog [jeləʊdɒg] *n amer.* *razil, past-kash odam; yuraksiz; jirkanch shaxs*

yellow-dog contract [jeləʊdɒg 'kontrækt] *n amer.* *ishchingin kasaba uyushmasiga a'zo bo'lmaslik majburiyat*

yellow-dog fund [jeləʊdɒg 'fʌnd] *n amer.* *pora uchun heriladigan summa*

yellow fever [jeləʊ 'fi:ve] *n* *tib.* *sariq (isitma) bezgak*

yellow-hammer [jeləʊ,hæmə] *n zool.* *oddiy dehqon chumchug (qush)*

yellowish [jeləʊʃ] *a* *sarg'ish, sariqqa moyil, sariqroq*

yellow jack [jeləʊ 'dʒæk] = **yellow fever**

yellow-livered [jeləʊ,livəd] *a* *so'zl. qo'r-qoq, yuraksiz*

yellowness [jelaʊnəs] *n* *sariqlik, zahillik*

yellow pages [jeləʊ 'peɪdʒɪz] *n amer.* (*sariq ma'lumotnomma*) telefon ma'lumotnomasining sariq rangli qog'ozga yozilgan bo'limi

yellow spot [jeləʊspot] *n Anat.* *sariq dog' (to'r pardada)*

yellowy [jeləʊ] = **yellowish**

yelp [jelp] *1. n* 1) *chiyillash, chinqirish; 2) vovvlash, akillash, uvullash; 2. v 1) *chiyillamoq, chinqirmoq; 2) vovullarmoq, angillamoq**

Yemeni ['jemanı] = **Yemenite**

Yemenite ['jemanait] *1. a* *Yamanga va yamanliklarga oid; 2. n* *yamanlik, yaman; yamanlik ayol, yamanka*

yen I [jen] *n (pl o'zgarishsiz)* *iyena (Yaponiya pul birligi)*

yen **II** [jen] 1. *n so'zl.* qattiq xohish; 2. *v (biror narsani)* juda istamoq, (*nimadir qilishga*) intilmoq

yeoman [jœuman] *n (pl -men [-mən])* 1) kichik yet xo'jayimi; 3) amer. dengiz. harbiy knib; ~ of the Guard Angliyaning saroy soqchilar, qo'riqchilar; ~ s' service a) muhtojlarga (kambag'allarga, bechoralarga, qashshoqlarga) yordam; b) benuqson (bekam-ko'st, qusursiz) xizmat

yeomanry [jœumənri] 1) tar. hududiy otilq qo'shin, askar; 2) *harb.* ixtiyoriy ravishda tuzilgan hududiy bo'lim (qism)

yep [jep] *adv so'zl.* ha

yes [jes] 1. *adv ha;* 2. *n 1)* ma'qullash, rozi bo'lish; 2) *tasdiglash, rozi bo'lish va sh. k. ma'nolarni bildiradi:* ha, shunday, xuddi shunday

yes-man [*'jesmæn*] *n (pl -men [-mən])* so'zl. xushomadgo'y, lagabardor, birovning nog'orasiga o'ynovchi

yesterday [*jestədɪ*] 1. *adv 1)* kecha; ~ morning kecha ertalab; 2) yaqinda, yaqindagi, kuni kecha; 2. *n* kechagi kun; ~s' incident kechagi hodisa, voqeа; the day before ~ o'tgan kuni

yester-evening [*jestə(r)'i:vni]* 1. *n* kechagi oqshom; 2. *adv* kecha kechqurun

yesternight [*jestə'naɪt*] = **yester-evening**

yester-year [*jestər'jeə*] 1. *n o'tgan yil;* 2. *adv o'tgan yili*

yestreen [*je strɪ:n*] *shotl.* = **yester-evening**

yet [jet] 1. *adv 1)* hali, hanuzgacha, hamon; he has not come ~ u hanuzgacha kelmadи; not ~ hali ham yo'q; **never** ~ hech qachon, biror marta ham; ~ more undan ham ko'p; 2) undan tashqari; **he has ~ much to say** u hali ko'p narsani aytishi kerak; 3) endi, allaqachon (*so'roq gaplarda*); **need you go ~?** siz allaqachon ketishingiz kerak edimi? 4) yanada, yana; **this question is more important ~** bu savol yanada muhimroq; **he will not accept help nor ~ advice** u yordam ham, maslahat ham olmaydi; 5) shu chog'gacha, qachondir; **it is the largest specimen ~ found** bu shu paytgacha topilgan eng yirik nusxa; **as ~ hali** ham, shu paytgacha; **the scheme has worked well as ~** bu chizma o'zini umuman oqlay oladi (*yaxshi ishlaydi*); 6) har holda, shunga qaramay, bunga qaramay; **it is strange and ~ true** bu g'alati, lekin aniq, to'g'ri; 2. *cj.* biroq, har holda, bunga qaramay, lekin, ammo

yew [ju:] *n bot. tis (issiq joylarda o'sadigan yog ochi qattiq, doim yashil ignabargli daraxt)*

yew-tree [ju:tɾi:] = **yew**

Yiddish [jidiʃ] *n* **veyrev tili, idish (Yevropa, AQSH, Janubiy Afrika va Isroilda yashovchi bir qism yahudiylar tili)**

yield [ji:ld] 1. *n 1)* meva yig'im-terimi, hosil; **a good ~ of wheat bug'** doyning mo'l hosili; 2) ishlab chiqarish miqdori, ishlab chiqarilgan yoki olingen mahsulotning miqdori; **milk ~** bir sog' im sut, sog'ib olinadijan sut; 3) *iqt.* daromad, kirim, daromad keltirish, serdaromadlik; 4) oquvchanlik (suyulib) oqib ketish xususiyati; 2. *v 1)* ishlab chiqarmoq, keltirmoq, topshirmoq (meva, hosil, soyda haqida); **this land ~s poorly** bu yer yomon hosil beradi; **to ~ no result** hech qanday natija bermaslik; 2) biror narsadan kechmoq, bahrain o'tmoq, rozi bo'lmoq, ko'nmoq, unamoq; **to ~ a point (bahsda)** yon bermoq; **to ~ to the advice** maslahatga amal qilmoq; **to ~ to none** hech kimga yon bermaslik, hech kimdan qolishmaslik (*chiroda, yaxshilikda*); 3) asir tushmoq, taslim bo'lmoq; 4) biror narsa ta'sirida oson o'zgaradican bo'lmoq, chidash berolmay turmoq, jilmoq, qo'zg'amoq; **the door ~ ed to a strong push** qatqi zarbadan eshik ochildi; **the desease ~s to treatment** bu kasallikni davolasra bo'ladi; 5) *amer.* minbardan joy bermoq, minbarni bo'shatmoq; notiq (nutq so'zlovchi)ning gapini bo'lmoq (to'xtatmoq); **to ~ up a)** ...dan bosh tortmoq, ...ni rad qilmoq; b) taslim bo'lmoq; **to ~ up the ghost** Jonini xudoga topshirmoq, o'lmoq

yielding [*'ji:l'dɪŋ*] a) 1) ko'ngilchan, gapga

ko'nadigan, yon beradigan, qobil, yumshoq tabiatli; 2) muloyin, mayin, yumshoq, ko'ngli bo'sh; 3) elastik, egiluvchan, tarang, dirkillaama; prujinasimon, cho'ziluvchan, yig'iluvchan; 4) bardoshsiz, chidamsiz; 5) cho'kayotgan, botayotgan, o'tirayotgan, o'tirib (cho'kib) qolayotgan

yip [jip] n *amer.* vovullah, akillash, uvulash

yippee [*ji:pɪ:*] *int. ura!* (*qichqiriq*)
yob [job] = **yobbo**

yobbo [*jobbəʊ*] *n* *jarg.* 1) (*nafrat bilan, jirkaniib aytiladigan so'z*) ona suti og'zidan ketmagan odam, xom, g'o'r odam, go'dak; 2) yomon (shum, yaramas) odam

yodel [*jaʊdl*] 1. *n yodl (tirollarning kuylash usuli); 2. v yodl bilan kuylamoq*

yoga [*jaʊgə*] *n hind. yoga (Hindistonda: o'z-o'zini mushohada qilish, qiyash, o'z fikr-xayoliga cho'mish yo'li bilan „ilohiy kuch“ larni egallash mumkin deb hisonlaydigan diniy-falsafiy ta'limot va unga*

- amal qiluvchi odam); to practice ~ yoga bilan shug'ullanmoq*
- yogi** [jɔ:gɪ] *n hind.* yog; *yoga bilan shug'ullanuvchi odam*
- yog(b)urt** [jɔ:gət] *n turk.* qatiq, chuchuk qatiq *yo-heave-ho* [jɔ:hu:v 'hau] *int.* qani, baraviga! qani, birlagalishib ishga kirishdik! (*ish paytidagi dengizchilarning chaqirig'i*)
- yoke** [jɔ:k] *1. n* 1) *bo'yinturuq, sirtmoq;* 2) *ikkita ketma-ket qo'shilgan ho'kiz;* 3) *zulm, jabr, asorat, istibdod;* 4) *qullik; to endure (to shake off) the ~ jabrga chidamoq, zulmga chidamoq;* to pass (*yoki to come*) under the ~ a) *mag'lubiyatga ko'niki* ketmoq; b) *o'z mag'lubiyatini tan olmoq;* 4) *kishan, zanjir, band, tushov;* 5) *ob-kash;* 6) *ko'krak-burma (libosda);* 7) *o'sh ot;* 8) *tex. band, halqa, tutqich, dasta (chelak va b. da);* 9) *av. boshqarish dastasi;* 2. *v* 1) *qo'shmoq, birlashtirmoq, birga qo'shmoq;* 2) *sirtmoq osmoq*
- yokefellow** [jɔ:k, feləʊ] *n* 1) *o'rtoq (ishda);* 2) *umr yo'ldosh, rafiq, kuyov, er, xotin, rafiq, qalliq*
- yokel** [jɔ:k(e)] *n* 1) *qishloqda o'sgan odam;* 2) *sodda yigit, qishloqi*
- yokemate** [jɔ:kmeɪt] = *yokefellow*
- yolk** [jɔ:k] *n* *tuxum sarig'i*
- yon** [jɔ:n] *esk. dial. = yonder*
- yonder** [jɔ:nðə] *1. a* huv anavi; *2. adv* ana u yoqda, huv anavi yoqda
- yore** [jɔ:] *n esk. o'tmish, qadim zamon; of ~ ancha burun; in days of ~ qadimgi zamon-da, ilgarigi vaqtlardira*
- Yorkist** [jɔ:kɪst] *n tar.* York sulolasining tarafdori
- Yorkshire** [jɔ:kʃɪ(r)e] *n* yorkshir zotli oq cho'chqalar
- you** [ju:] *pron. siz, sizni, sizga; sen, seni, senga*
- you-all** [ju: 'ɔ:l; jɔ:l] *pron. pers. pl amer. so'zl. barchangiz (bir necha kishiga mu-rojaat qilinganda ishlataladi)*
- young** [jʌŋ] *a 1) vosh, yoshlik (o'spirinlik, yigitlik)ka oid; he is ~ for his age u ko'rinishidan o'z yoshiga nisbatan yoshta o'x-shaydi; ~ man yaxshi yigit! yigitcha! (mu-rojaat shakl); my ~ man (woman) so'zl. mening sevgilim; ~ ones bolakaylor, qush bolalari, jo'lar; yovvoyi hayvon bolasi; 2) yangi, yaqinda bo'lgan; the night is ~ hali kech emas; 3) malakasiz, tajribasiz; a ~ camel bo'taloq; ~ generation yosh avlod; a ~ tree ko'chat; ~est kenjatoy*
- youngish** [jʌŋgɪʃ] *a ancha yosh ko'rindigan, yosh*
- youngling** [jʌŋlɪŋ] *1. n shoir. 1) bola, bolak; qush bolasi, jo'ja; 2) malakasiz (tajribasiz) inson; 2. a yosh*
- youngster** [jʌŋsta] *n* 1) o'g'il bola; 2) o'spirin, yigitcha; 3) amer. harbiy dengiz flotining 2-bosqich talabasi
- you're** [jɔ:, ju:] *qisqar. so'zl. = you are*
- your** [jɔ:] *poss. pron. sening, sizning*
- yours** [jɔ:z] *pron. poss. sizniki, seniki; this book is ~ bu kitob sizniki; I saw a friend of ~ men sizning do'stingizni ko'rdim; you and ~ siz va sizning do'stingiznaringiz yourself [jæ' self] pron. refl. (pl yourselves) 1) o'zing, o'zingiz, o'zini o'ziga; have you hurt ~? siz shikastlanmaditingizmi? 2) emph. o'zi, o'zları; you told me so ~ buni menga o'zingiz aytdingiz; have you been all by ~ the whole day? siz kun bo'yi yolg'iz bo'dingizmi?; you are sure to do it all by ~ siz, albatta, buni birovning yordamisiz qila olasiz*
- yourselves** [jɑ:' selvz] *pron. o'zlariningiz, o'z-laringizni, o'zlariningizga*
- youth** [ju:θ] *n* 1) *yoshlik, o'spirinlik; the fountain of ~ yoshlik sarchashmasi;* 2) *yosh yigit; 3) attr. yoshlar..., o'spirinlar...; ~ organization yoshlar tashkiloti; a ~ festival yoshlar festivali*
- youthful** [ju:θf(ə)l] *a 1) yosh, o'spirin;* 2) *yoshlik (o'spirinlik, yigitlik)ka oid; yoshlik...; 3) yangi, yaqindagi; eng yangi; 4) g'ayratli, faol*
- yowl** [jaʊl] *1. n uvlash, uvullah;* 2. *v uvla-moq, uvullamoq*
- yoyo** [jɔ:jəʊ] *1. n* 1) *yo-yo, ipli shaytoncha (o'yinchoq);* 2) *amer. jarg. betayin odam;* 2. *a qimirlab turadigan, liqilqoq;* 3. *v* 1) *ol dinga va orqaga yurmoq;* 2) *ikkilanmoq, bir qarorga kelolmaslik;* 3) *doimo o'zgarib turmoq*
- ytterbium** [i'tə:bɪəm] *n kim. itterbiy (kimyoviy element)*
- yttrium** [itnɪəm] *n kim. ittriy (kimyoviy element)*
- Y-shaped** [wai] *eipt] a Y-simon, aysrisimon*
- yucca** [jækə] *n hot. yukka (agavasimonlar oilasiga mansub doim yashil o'simlik va uning tolasi)*
- yuck** [jʌk] *int. jirkanih belgisi*
- yuft** [jʌft] *n bulg'ori charm, yumshoq charm*
- yule** [ju:l] *n Rojdestvo bayrami kunlari*
- yule-log** [ju:lɒg] *n arafa kunlarida yoqiladigan katta g'o'la*
- yum** [jʌm] *int. shirin ta'm yoki muattar hiddan rohatlanishni ifoda etadi*
- yummy** [jʌmi] *a so'zl. mazali, totli, shirin*

yuppie [‘japı] n yappi (*o’z kasbi bo'yicha ishlab porloq hayot kechiradigan badavlat yosh yigit*)

yurt [ju:t] n o'tov

Z

Z, z [zed] (*pl Zs, Z’s* [zedz]) n 1) ingliz alifbosining yigirma oltinchi harfi; 2) mat.zet, nomalum miqdor, kattalik; 3) „Z“ harfining shaklini bildiruvchi qandaydir narsa **zany** [ze'ni] n 1) *esk.* askiyachi, askiyaboz, qiziqlichi, masxaraboz, hazilkash (*kuldirish uchun o'zini jinnilikka soluvchi*); 2) devo-nasifat, aqlsiz, esi past, jinni; 3) dzanni (*Italiya kulgili sahna asaridagi niqob kiygan malay, xizmatkor*)

zap [zæp] v 1) otib o'ldirmoq, o'ldirmoq, halok qilmoq; 2) mag'lubiyatga uchratmoq; 3) masofadan boshqarish puli yordamida televizion kanallarini o'zgartirish (*bir kanaldan boshqasiga olish*); 2. n energiya, quvvat, hayotiy kuch

zariba [zə'ri:bə] n arab. 1) tikanli panjara; 2) qadimgi qal'a devori (*zich qoqligan, yu-qori qismi uchli qoziqlardan iborat yo-g'och devor*)

Z-bar [‘zedba:] n Z shaklidagi po'lat
zeal [zi:l] n g'ayrat, intilish, tirishish, haf-salaq, qunt, shijoat

zealot [‘zelət] n mutaassiblik tarafdori, biror ish yoki g'oyaga jon-dili bilan berilgan odam
zealotry [‘zelətri] n o'taketgan mutaassiblik

zealous [‘zeləs] a 1) tirishqoq, g'ayratli, hafsalal; 2) havasmand, qiziq hissi bor, ishtiyogi zo'r; to be ~ for smth. nimagadir ishtiyogi baland bo'lgan, nimanidir juda xohlagan

zebra [‘zi:bə] n zool. zebra (*otsimonlar oilasiga mansuh, Afrikada yashaydigan targ'il yovvoyi ot*)

zebu [zi:b(j)u:] n zool. zebu (*Janubiy Osiyo va Sharqiy Afrikaning baland tog'larida yashaydigan o'rakchli bo'kiz*)

zed [zed] n Z harfining nomi

zee [zi:] n amer. Z harfining nomi

Zeitgeist [‘tsa:tgaist] n nem. zamon talabi, zamon ruhi

Zen [zen] n buddha dinining (*Yaponiyadagi „dzen“ mazhabiy yoki (Xitoydag'i) „chan“ mazhabiy, tug'ilishni dil guvohligi halan, oldindan aytiб berish hissi bilan ko'z oldiga keltirishni targ'ib etadigan mazhab*)

zenana [ze'nd:nə] hind. 1. a avollar uchun, ayollarniki, ayollarga oid, ayollarga qarashli

bo'lgan, ayollarqa taalluqli bo'lgan, ayollarqa doir; 2. n avollar xonasi, binoning ayollar uchun ajratilgan qismi, ayollar uchun mo'ljallangan joy, ichkari

Zend [zend] Avesto tili (*Avesta – zardushti dinining muqaddas kitobi*)

Zend-Avesta [‘zenda'vesta] n adab. Avesto, Zend-Avesto (*zardushtiylikning muqaddas kitoblar to'plami*)

zenith [‘zenit] n 1) cho'qqi, yuqori darajada, qiyom, avj; at the ~ of fame shuhurat cho'qqisida, kamolot cho'qqisida; 2) zenit (*osmonning kuzatuvchi tepasidagi eng baland nuqtasi*)

zenithal [‘zenit(ə)l] a astr. zenithga oid, zenit...

zenith-distance [‘zenitθ 'distans] n zenitgacha bo'lgan masofa, zenit masofasi

zephyr [‘ze:fə] n 1) zefir, shabada, sabo, mayin shabada, yoqimli shabada; 2) zefir (*nozik ip gazlama*); 3) zefir (*shakarga bosilgan quyuq shinni; shuningdek, qaymoq ko'pigidan hozirlangan pirojnining bir turisi*); 4) shoir. g'arb shamoli, kunbotar tomonidan esgan shamol; 5) nakidka (*yelkaga tashlab yuriladigan yengsiz kiyim*), yopiq (*yostiq ustiga yopib qo'viladigan ro'ypo'sh*); yengil shol ro'mol

Zeppelin [‘zep(ə)lin] n seppelin (*qattiq qobilgi dirijabl*)

zero [‘zi:(ə)rəu] n (*pl -os [-əuz]*) 1) nol, hech narsa; to reduce to ~ yo'qqa chiqarmoq; 2) nol bilan teng nuqta, nol nuqtasi; temperatura darajasining birinchi asosiy nuqtasi; below ~ noldan past; 3) attr. ~ setting o'chov asbobini nolga qo'yish; ~ hour a) *harb*. hujuning boshlanish vaqt, o'lg'a qadam qo'yish, oldinga chiqish (*otlanish va b.*); b) hal qiluvchi payt

zero-gravity [‘zi:(ə)rəu 'græviti] n og'irligi yo'qlik, og'irligi bo'lmaganlik, vaznsizlik

zeroize [‘zirəuaiz] v nolga keltirib qo'ymoq, nolga qo'ymoq

zest [zest] 1. n 1) mazasini oshiradigan narsa, xushta m qiladigan narsa; 2) ta'mi o'tkirlik, nordonlik; to give ~ to smth. nimagadir maza bag'ishlamoq; 3) shavq, havas; 4) g'ayrat, shijoat; he entered into the game with ~ u g'ayrat bilan o'yinga kirdi; 5) kuch-quvvat, g'ayrat-shijoat, faoliik, qat'iyat, chaqqonlik, epchillik, ziyraklik; 6) havas, ishtiyoyq, layoqat; 2. v shavq bag'ishlamoq, zavq bag'ishlamoq, zavqi kelmoq

Zeus [zju:s] n grek. afs. Zevs (*yunon misologiyasida oliy xudo*)

zigzag [‘zigzæg] 1. a egrи-bugri, ilonizi, qing'ir-qiyishi, siniq chiziq shaklidagi;

- 2.** *adv egri-bugri bo'lib, qing'ir-qiyishi bo'lib; 3. n egri-bugri (siniq) chiziq zinc [zink] **1.** *n 1) kim. rux (metall); 2) attr. ruxdan yasalgan, ruxli, ruxga oid, rux...;* **2.** *v rux yogurtimoq, ruxdan qo'shamoq, ruxlamoq, rux bilan qoplamoq zinciferous [zinq'kif(ə)rəs] *a rux aralashdirilgan, rux qo'shilgan***
- zincography** [zinq'kogrəfi] *n sinkografiya (tipografiyada bosish uchun ruxdan klishe tayyorlash usuli)*
- zing** [zin] **1. n** *baland va shiddatli tovush; 2. v* *baland wa shiddatli tovush chiqarmoq zinnia [zinq'niə] *n bot. siniya (bezatish uchun ishlatalidigan o'simlik)**
- Zionism** [zəriñizm] *n sionizm (yahudiy-larning XIX asr oxirida yuzaga kelgan reaksiyon shovinistik ideologiyasi va siyosati)*
- zip** [zip] **1. n 1)** *o'qlarning g'iz-g'iz ovozi, o'qlarning g'izillab o'tishi; 2) matoni qir-qayotganda shatir-shutur chiqadigan tovush; 3) so'zl. g'ayrat, quvvat, jo'shchinlik; 4) tugma o'mida ishlatalidigan zanjir; 2. v 1) g'ayratli bo'lmoq; 2) yelt etmoq, ko'zga chalimmoq, tez o'tib ketmoq*
- zip code** [zipkəud] *n amer. aloqa bo'limining raqami (pochta indeksi)*
- zip-fastener** [**zip** 'fa:sə(nə)] = **zipper** **1**
- zipper** [**zipəl**] **n 1)** *zanjirsimon tugma (yop-qich); 2) zanjirsimon bog'ichli botinka yoki etik*
- zippy** [**zipi**] *a so'zl. tirik, jonli, chaqqon, tetik, sernarakat, g'ayratli*
- zircon** [**zə:kon**] *n min. sirkon (sariq, qizil va kulrang tusli yaltiroq mineral)*
- zirconium** [**zə:kəunriəm**] *n kim. sirkoniy (kimyovery element)*
- zither** [**zitər**] *n mus. sitra (cholg'u asbobi)*
- zodiac** [**zəudiæk**] *n astr. zodiak, burj (qu-yoshning yillik harakati yo'lida bosib o'tadigan 12 yulduzlar turkumi majmuyi).*
- signs of the ~** *zodiak belgilari (o'n ikki burjidan har birining belgisi)*
- zodiacal** [**zəu:daiæk(ə)l**] *a astr. zodiakka, burjga oid, zodiak...; burj...*
- zoic** [**zəuirk**] *a geol. tarkibida toshga aylan-gan (toshqotgan) hayvon yoki o'simlik qoldig'i bor bo'lgan*
- zombi(e)** [**zombi**] **n 1)** *tirilgan o'lik, zombi; 2) bema'ni inson, tentak, aqsliz odam; g'alati inson, qiziq inson; 3) *hab. yangi olingan askar**
- zonal** [**zəunl**] *a mintaqaviy, ma'lum bir mintaqaga xos (bog'liq) bo'lgan*
- zone** [zəun] **1. n 1)** *zona, hudud, doira, min-taqa; **temperate** ~s mo'tadil mintaqasi (hororat); 2) *amer. aloqa bo'limining markazi; 3) attr. belbog', qiyiqcha, kamar; 4) mintaqaviy; ~ time mahalliy vaqt; 2. v 1) mintaqalarga bo'lmoq, mintaqalarga ajratmoq; 2) mahalliy narxni belgilamoq, mahalliy narxni qo'yamoq**
- zoo** [zu:] *n so'zl. hayvonot bog'i; the Z Londondagi hayvonot bog'i*
- zoogeography** [zəudʒi'ogrəfi] *n zoogeografiya (hayvonlarning yer yuzida tarqalishini o'rnatadigan fan)*
- zoological** [**zə:tə:u:lodžik(ə)l**] *a zoologiya-ga oid, zoologik, zoologiya..., hayvon...; a ~ magazine zoologik jurnal; ~ gardens hayvonot bog'i*
- zoologist** [**zə:tə:u:lədʒist**] *n zoolog (zoologiya mutaxassis)*
- zoology** [**zə:tə:u:lədʒi**] *n zoologiya (hayvonlar olamini o'rjanuvchi fan)*
- zoom** [zu:m] **1. n** *g'uvullash, g'o'ng'illash, vizillash; 2. v* *g'uvullamoq, g'o'ng'illamoq, vizillamoq*
- zoophyte** [**zəu:fait**] *n biol. zoofit (o'simlikni eslatuvchi hayvon)*
- zoster** [**zosta**] *n temiratki, lishay (sal qizargan teri ustida pufakchalar paydo bo'lishi)*
- Zouave** [zu: 'a:v, zwa:v] *n harb. tar. zuav (Shimoliy Afrikaga mansub bo'lgan fransuz mustamlakaviy qo'shinlarining askari)*
- zounds** [**zaundz**] *int. so'zl. jin ursin!*
- Zulu** [**zu:lu:**] **1. a** *zuluslarga qarashli, zuluslarga oid, zuluslar...; 2. n 1)* *zulus, zulus ayol; 2) zulus(lar) tili*
- zwieback** [**swi:bæk, 'zwi:-**] *n to'g'rab qotirilgan shirin non*
- zygoma** [**z(a)i'gəumə**] *n (pl -ata [-ətə]) yonoq (yuz) suyagi*
- zygomata** [**z(a)i'gəumətə**] *n pl yonoq (yuz) suyaklari*
- zygote** [**z(a)i'gəut**] *n biol. zigota (urug'langan tuxum-hujayra)*
- zyme** [**zaim**] *biol. kim. ferment (tirik hujayrada ishlab chiqariladigan va organizmda modda almashinuvini tartibga solih tura-digan organik modda)*
- zymosis** [**zai' məusis**] **n 1)** *achish, oshish, ko'pchish (xamir haqida); 2) yuqumli kasallik*
- zymotic** [**zai' motik**] **a 1)** *achitqiga oid, achit-tiladigan, achitadigan; 2) yuqumli; ~ diseases yuqumli kasalliklar*

THE LIST OF IRREGULAR VERBS

NOTO'G'RI FE'LLAR RO'YXATI

Base form	Past simple	Past participle	Tranlation
abide	abode/abided	abode/abided/ abidden	chidamoq, toqat qilmoq
arise	arose	arisen	paydo bo'lmoq; ko'tarilmoq
awake	awoke/awaked	awoken	uyg'otmoq, uyqudan turg'izmoq
backbite	backbit	backbitten	yomonlamoq, g'iybat qilmoq
backslide	backslid	backslidden	e'tiqodidan (imonidan) qaytmoq
be	was/were	been	bo'lmoq, joylashgan bo'lmoq
bear	bore	born/borne	tug'moq, ko'zi yorimoq
beat	beat	beaten	savalamoq, kaltaklamoq; urmoq
become	became	become	bo'lmoq; bo'lib yetishmoq
befall	befell	befallen	ro'y bermoq, yuz bermoq, bo'lmoq
beget	begot/begat	begotten	sabab bo'lmoq, keltirib chiqar-moq; tug'dirmoq
begin	began	begun	boshla(n)moq
behold	beheld	beheld	ko'rmoq, sezmoq; qaramoq
bend	bent	bent	buk(il)moq, eg(il)moq
bereave	bereft/bereaved	bereft/bereaved	mahrum qilmoq, tortib olmoq
beseech	besought	besought	yalinmoq, yolvormoq
beset	beset	beset	o'rab olmoq, qamal qilmoq
bet	bet/botted	bet/botted	garov o'ynamoq
betake	betook	betaken	tayanmoq, murojaat qilmoq
bethink	bethought	bethought	esga olmoq, o'yamoq
bid	bid/bade	bid/bidden	narx taklif qilmoq (<i>asosan, auk-sionda</i>)
bind	bound	bound	bog'lamoq; muqovalamoq
bite	bit	bit/bitten	tishlamoq; chaqmoq; cho'qimoq
bleed	bled	bled	qonamoq; qon chiqmoq
blow	blew	blown	esmoq; puflamoq; puflab chalmoq

break	broke	broken	sin(dir)moq; buzmoq
breed	bred	bred	nasl yetishtirmoq; ko'pay(tir)moq
bring	brought	brought	olib kelmoq, keltirmoq
broadcast	broadcast/ broadcasted	broadcast/ broadcasted	radio orqali eshittirmoq
build	built	built	qurmoq; barpo etmoq
burn	burnt/burned	burnt/burned	yonmoq, yondirmoq; kuydirmoq; yoqmoq
burst	burst	burst	portlamоq, yorilmoq
buy	bought	bought	sotib olmoq, xarid qilmoq
cast	cast	cast	uloqtirmoq, otnоq, irg'itmoq
catch	caught	caught	tutib (ushlab) olmoq
chide	chid/chided	chidden/chid	koyimoq
choose	chose	chosen	tanlamоq, afzal ko'rnmoq
clap	clapped/clapt	clapped/clapt	qarsak (chapak) chalmoq
cleave	cleaved/clove/ cleft	cleaved/cloven/ cleft	o'ziga yo'l ochmoq, yor(il)moq, bo'l(in)moq
cling	clung	clung	yopishmoq, ilimmoq, chirmashmoq
clothe	clad/clothed	clad/clothed	kiyin(tir)moq
come	came	come	kelmoq
cost	cost	cost	turmoq (<i>narx haqida</i>)
creep	crept	crept	emaklamоq; chirmashmoq
cut	cut	cut	kesmoq; qirqmoq; qisqartirmoq
dare	dared/durst	dared	haddi sig'mоq, jur'at qilmoq
deal	dealt	dealt	tarqatmoq; shug'ullanmoq
dig	dug	dug	qazimoq, kavlamoq
dight	dighted/dight	dighted/dight	bezamoq, oro bermоq
do	did	done	bajarmоq; qilmoq
draw	drew	drawn	rasm chizmoq; sudramоq, tortmoq
dream	dreamt/dreamed	dreamt/dreamed	tush ko'rmoq; orzu qilmoq
drink	drank	drunk	ichmoq
drive	drove	driven	haydamоq; boshqarmоq (<i>mashi-nani</i>)

dwell	dwelt	dwelt	yashamoq, istiqomat qilmoq
eat	ate	eaten	yemoq, ovqatlanmoq
enwind	enwound	enwound	o'ramoq, o'rab qo'yamoq
fall	fell	fallen	yiqilmoq; tushmoq, pasaymoq; halok bo'lmoq
feed	fed	fed	ovqatlan(tir)moq
feel	felt	felt	his qilmoq, sezmoq; paypaslamoq
fight	fought	fought	kurashmoq, jang qilmoq
find	found	found	topmoq
fit	fit/fitted	fit/fitted	mos tushmoq, to'g'ri kelmoq
flee	fled	fled	qochmoq, qochib qutulmoq
fling	flung	flung	otmoq, irg'itmoq; tashlanmoq
fly	flew	flown	uchmoq; hilpiramoq
forbear	forbore	forborne	o'zini tiymoq
forbid	forbade/forbad	forbidden	taqiqlamoq, man etmoq
fordo/foredo	fordid	fordone	yo'q qilmoq, o'ldirmoq
forecast	forecast/ forecasted	forecast/ forecasted	oldindan aytmoq, bashorat qilmoq
forego	forewent	foregone	oldinda bormoq
foreknow	foreknew	foreknown	oldindan bilmoq
forerun	foreran	forerun	biror narsadan oldin bo'lmoq
foresee	foresaw	foreseen	oldindan ko'rmoq
forespeak	forespoke	forespoken	oldindan gapirmoq (aytmoq)
foretell	foretold	foretold	karomat (bashorat) qilmoq; fol ochmoq
forget	forgot	forgotten	unutmoq, esdan chiqarmoq
forgive	forgave	forgiven	kechirmoq, gunohidan o'tmoq
forsake	forsook	forsaken	tark etmoq, tashlab ketmoq
forswear	forswore	forsworn	qasamni buzmoq
fraught	fraught/fraughted	fraught/fraughted	yuklamoq (<i>mashina va b. ga</i>)
freeze	froze	frozen	muzlamoq, yaxlamoq
gainsay	gainsaid	gainsaid	e'tiroz bildirmoq; rad qilmoq
get	got	got	olmoq, erishmoq; bo'lib qolmoq

gild	gilded/gilt	gilded/gilt	zarhallamoq, yaltiratmoq
gin	gan	gunnen	boshlamoq
give	gave	given	bermoq
go	went	gone/been	bormoq, yurmoq
grind	ground	ground	yanchmoq, maydalamoq; charx-lamoq
grow	grew	grown	o's(tir)moq, yetishtirmoq
hagride	hagrode	hagridden	azob bermoq (<i>yomon tush haqida</i>)
hamstring	hamstrung/ hamstringed	hamstrung/ hamstringed	oyoq payini kesmoq
hand-feed	hand-fed	hand-fed	qo'l bilan ovqatlantirmoq
handwrite	handwrote	handwritten	qo'lda yozmoq
hang	hung/hanged	hung/hanged	osmoq, osilmoq
have	had	had	egalik qilmoq, bor bo'lmoq
hear	heard	heard	eshitmoq, qulog solmoq
heave	heaved/hove	heaved/hove	ko'tarmoq, tortmoq
hew	hewed	hewn	chopmoq, yormoq, kesmoq
hide	hid	hidden	yashirmoq, bekitmoq
hit	hit	hit	(<i>nishonga</i>) urtmoq, tegmoq
hoise	hoised/hoist	hoised/hoist	ko'tarmoq
hold	held	held	ushlamoq, tutmoq; o'z ichiga olmoq
hurt	hurt	hurt	lat yemoq; og'ritmoq
inbreed	inbred	inbred	chatishirmoq (<i>hayvonlar haqida</i>)
inlay	inlaid	inlaid	naqsh bilan qoplamoq
interbreed	interbred	interbred	chatish(tir)moq (<i>hayvonlar haqida</i>)
interweave	interwove	interwoven	gulli qilib to'qimoq
jerry-build	jerry-built	jerry-built	bo'sh (chidamsiz) qilib qurmoq
keep	kept	kept	saqlamoq, asramoq, tayanmoq
kneel	kneeled/knelt	kneeled/knelt	tiz cho'kmoq, tizzada turmoq
knit	knitted/knit	knitted/knit	to'qimoq
know	knew	known	bilmoq; bilib olmoq

lade	laded	laden/laded	yuk ortmoq
lay	laid	laid	qo'yimoq
lead	led	led	yetaklamoq, yo'l ko'rsatmoq; rahbarlik qilmoq
lean	leaned/leant	leaned/leant	suyanmoq
leap	leaped/leapt	leaped/leapt	sakramoq, sakrab o'tmoq
learn	learnt/learned	learnt/learned	o'rganmoq, o'zlashtirmoq; bilib olmoq
leave	left	left	unutib qoldirmoq, tashlab ketmoq; jo'nab ketmoq
lend	lent	lent	qarz(ga) bermoq
let	let	let	ijozat (ruxsat) bermoq
lie	lay	lain	yotmoq
light	lit	lit	yoqmoq, yoritmoq
linebreed	linebred	linebred	zotdor mollar yetishtirmoq
lip-read	lip-read	lip-read	lab harakatlaridan o'qimoq
lose	lost	lost	yo'qotmoq, yutqizmoq
make	made	made	yasamoq; majbur qilmoq; ishlab topmoq
mean	meant	meant	nazarda tutmoq, ma'no bildimmoq, anglatmoq
meet	met	met	uchrashmoq, uchratmoq; tanishmoq
melt	melted	melted/molten	eri(t)moq
miscast	miscast	miscast	aktyorga noto'g'ri rolni bermoq
misdeal	misdealt	misdealt	noto'g'ri yo'l tutmoq
misdo	misdid	misdone	noto'g'ri bajarmoq, xato qilmoq
misgive	misgave	misgiven	xavotirga solmoq
mishear	misheard	misheard	noto'g'ri (xato) eshitmoq
mislay	mislaid	mislaid	yo'qotmoq; joyiga qo'ymaslik, noto'g'ri joyga qo'ymoq
mislead	misled	misled	adashtirmoq, chalg'itmoq
misread	misread	misread	noto'g'ri (xato) o'qimoq

missend	missent	missent	noto'g'ri (xato) yubormoq
misspell	misspelt	misspelt	xato bilan (qilib) yozmoq, imlo-da xato qilmoq
misspend	misspent	misspent	bekorga sarflamoq
mistake	mistook	mistaken	xato qilmoq, yanglishmoq
misunderstand	misunderstood	misunderstood	noto'g'ri tushunmoq
misthink	misthought	misthought	noto'g'ri (xato) o'yalamoq
miswrite	miswrote	miswritten	noto'g'ri (xato) yozmoq
mow	mowed	mown	o'tni o'rmoq
offset	offset	offset	o'mini to'lдirmoq
outbid	outbid	outbid	ancha baland narxni taklif qilmoq
outbreed	outbred	outbred	chatishirmoq
outdo	outdid	outdone	oshib (o'tib) ketmoq
outdraw	outdrew	outdrawn	o'ziga katta e'tibor qaratmoq
outfight	outfought	outfought	(urushda) g'alaba qozonmoq
outgrow	outgrew	outgrown	o'sib ketmoq
output	output/ outputted	output/ outputted	mahsulot ishlab chiqarmoq
outride	outrode	outridden	o'zib ketmoq
outrun	outran	outrun	quvib o'tmoq, o'tib ketmoq
outsell	outsold	outsold	boshqa mollarga qaraganda yax-shiroq sotilmoq
outshine	outshone	outshone	pana qilmoq, to'smoq; yorug'-roq nur sochmoq
overbear	overbore	overborne	ustun chiqmoq, yengmoq
overcome	overcame	overcome	yengmoq, g'alaba qozonmoq, ustun kelmoq
overdo	overdid	overdone	ortiqcha tirishmoq
overhear	overheard	overheard	(sezdirmay) qulq solmoq; be-xosdan eshitib qolmoq
overlay	overlaid	overlaid	(bo'yoq bilan) qoplamoq
overleap	overleapt/ overleaped	overleapt/ overleaped	hatlamoq, hatlab (sakrab, irg'ih) o'tmoq

override	overrode	overridden	rad qilmoq; e'tiborga olmaslik; bosib ketmoq
overrun	overran	overrun	tarqalmoq; toshmoq; yoyilmoq
oversee	oversaw	overseen	kuzatmoq; to'satdan ko'rib qolmoq
oversell	oversold	oversold	juda ko'p sotmoq
overset	overset	overset	tartibni buzmoq
overshoot	overshot	overshot	nishonga urolmaslik
oversleep	overslept	overslept	uxlab qolmoq
overspend	overspent	overspent	haddan ko'p pul sarflamoq
overspread	overspread	overspread	yoymoq, taratmoq; qoplamoq
overstrew	overstrewed	overstrewed/ overstrown	hamma yerga yoyib (sochib) tash- lamoq
overtake	overtook	overtaken	yetib olmoq, quvib yetmoq
overthrow	overthrew	overthrown	qulatmoq, yengmoq
partake	partook	partaken	qatnashmoq, ishtirok etmoq
pay	paid	paid	to'lamoq
prepay	prepaid	prepaid	oldindan to'lamoq
preset	preset	preset	oldindan o'matmoq
proofread	proofread	proofread	o'qib xatosini to'g'rilamoq
prove	proved	proved/proven	isbotlamoq
put	put	put	qo'yamoq
quit	quit	quit	tark etmoq, tashlab ketmoq
rap	rapped/rapt	rapped/rapt	yengil zarba bermoq
read	read	read	o'qimoq
rebind	rebound	rebound	muqova qilmoq
rebroadcast	rebroadcast	rebroadcast	(radiodan) qaytadan eshitirmoq
rebuild	rebuilt	rebuilt	qayta qurmoq, qaytadan tiklamoq
recast	recast	recast	qaytadan qo'yamoq
redd	redded/redd	redded/redd	tartibga keltirmoq, tozalamoq
redo	redid	redone	qaytadan quymoq
regrow	regrew	regrown	qaytadan yetishtirmoq
rehear	reheard	reheard	qaytadan eshitmoq
relay	relaid	relaid	qaytadan qo'yamoq

remake	remade	remade	qaytadan yasamoq (qilmoq)
rend	rent	rent	titib tashlamoq, uzib tashlamoq
repay	repaid	repaid	qarzni qaytarmoq
rerun	reran	rerun	qaytadan yugurtimoq
resell	resold	resold	qaytadan sotmoq
resend	resent	resent	qaytadan yubormoq
reset	reset	reset	qaytadan o'rnatmoq
retell	retold	retold	qaytadan gapirib hermoq
rethink	rethought	rethought	qayta o'yalamoq
rewind	rewound	rewound	qaytadan (yangidan) o'ramoq
rewrite	rewrote	rewritten	qaytadan yozmoq
rid	rid/ridded	rid/ridded	qutulmoq, xalos bo'lmoq
ride	rode	ridden	otda yurmoq
ring	rang	rung	jiringlamoq; qo'ng'irog qilmoq
rise	rose	risen	ko'tarilmoq; chiqmoq
rive	rived	riven/rived	yormoq, yorib o'tmoq
rough-hew	rough-hewed	rough-hewn	(nimanidir) xomaki bajarmoq
run	ran	run	yugurmoq
sand-cast	sand-cast	sand-cast	yerga quymoq (<i>metall haqida</i>)
saw	sawed	sawed/sawn	aftalamoq
say	said	said	aytmoq, demoq
see	saw	seen	ko'rmoq
seek	sought	sought	izlamoq, qidirmoq
sell	sold	sold	sotmoq, savdo qilmoq
send	sent	sent	jo'natmoq, yubormoq
set	set	set	joylashtirmoq, qo'ymoq
sew	sewed	sewed/sewn	tikmoq
shake	shook	shaken	silkitmoq; titratmoq
shave	shaved	shaved/shaven	soqol olmoq
shear	sheared/shore	sheared/shorn	qirqmoq, kesmoq
shed	shed	shed	(ko'z yosh, qon, barg) to'kmoq
shine	shone	shone	nur sochmoq, charaqlamoq, yar-qiramoq

shoe	shod	shod	poyabzal kiygizmoq
shoot	shot	shot	otmoq, o'q uzmoq
show	showed	shown	ko'rsatmoq
shrink	shrank	shrunk	burush(tir)moq
shrive	shrove	shiven	e'tiqod qilmoq, amal (rioya) qilmoq
shut	shut	shut	yop(il)moq
sing	sang	sung	kuylamoq, qo'shiq aytmoq
sink	sank	sunk	cho'kmoq
sit	sat	sat	o'tirmoq
slay	slew	slain	o'ldirmoq
sleep	slept	slept	uxlamoq, uyquga ketmoq
slide	slid	slid/slidden	sirpanmoq
sling	slung	slung	uloqtirmoq
slink	slunk	slunk	sezdirmay bormoq
slit	slit	slit	o'rtadan bo'lmoq
smell	smelt/smelled	smelt/smelled	hid chiqarmoq, hid tarqatmoq; hidlamoq
smite	smote	smitten	zarba bermoq
sneak	sneaked/snuck	sneaked/snuck	sekin-asta (bekinib) bormoq (kirmoq, yaqinlashmoq)
sow	sowed	sown	ekmoq; sepmoq, sochmoq
speak	spoke	spoken	gapirmoq, gaplashmoq
speed	sped	sped	tezlikni oshirmoq
spell	spelt	spelt	so'zni harflab aytmoq; harflab yozmoq
spend	spent	spent	(pułni) sarflamoq; (vaqtı) o't-kazmoq
spill	spilt/spilled	spilt/spilled	to'k(il)moq
spin	span/spun	spun	aylan(tir)moq; yigirmoq
spit	spat	spat	tuflamoq, tuplamoq, tupurmoq
split	split	split	bo'l(in)moq, yor(il)moq
spoil	spoiled/spoilt	spoiled/spoilt	ayni(t)moq, buz(il)moq

spoonfeed	spoonfed	spoonfed	qoshiq bilan ovqat bermoq
spread	spread	spread	tarqa(t)moq, tarqalmoq
spring	sprang	sprung	sakramoq, sapchimoq
stand	stood	stood	turmoq, joylashgan bo'lmoq
steal	stole	stolen	o'g'irlamoq
stick	stuck	stuck	yopishmoq, yopishtirmoq
sting	stung	stung	sanchmoq
stink	stank	stunk	sasimoq
strew	strewed	strewed/strewn	sepmoq, sochib yubormoq
stride	strode/strided	stridden	katta qadam tashlamoq
strike	struck	struck/stricken	urmoq, zarba bermoq; ish tashlamoq
string	strung	strung	bog'lamoq, tortmoq
strive	strove	striven	intilmoq, harakat qilmoq
sublet	sublet	sublet	ijaraga (kiraga) bermoq
sunburn	sunburned/ sunburnt	sunburned/ sunburnt	quyoshda toblanmoq
swear	swore	sworn	ont (qasam) ichmoq
sweat	sweated/sweat	sweated/sweat	terlamoq, ter chiqarmoq
sweep	swept/swepted	swept/swepted	supurmoq
swell	swelled	swollen	hurpaymoq, shishmoq
swim	swam	swum	suzmoq; cho'milmoq
swing	swung	swung	tebranmoq, tebratmoq
take	took	taken	olmoq
teach	taught	taught	o'qitmoq, o'rgatmoq
tear	tore	torn	yirtmoq, yirtib tashlamoq
tell	told	told	gapirib (aytib, so'zlab) bermoq
test-drive	test-drove	test-driven	sinov uchun haydamoq
test-fly	test-flew	test-flown	sinov uchun uchmoq
think	thought	thought	o'yhamoq, ... deb hisoblamoq
thrive	thrived/throve	thrived/thriven	gullab-yashnamoq
throw	threw	thrown	tashlamoq, otmoq
thrust	thrust	thrust	itarmoq; sanchmoq, tiqmoq

tine	tined/tint	tined/tint	qo'ldan bermoq, yo'qotmoq; mag'lubiyatga uchramoq
tread	trod	trodden	bosmoq, oyoq qo'yemoq, payhon qilmoq
troubleshoot	troubleshoot	troubleshoot	janjal (mojar)ni tinchlatirmoq
typecast	typecast	typecast	aktyordan bir xildagi rollarni ijro etish uchun foydalamoq
typeset	typeset	typeset	harflarni termoq (<i>poligrafiya</i>)
typewrite	typewrote	typewritten	yozuv mashinkasida yozmoq
unbend	unbent	unbent	rostlamoq, to'g'rilamoq
unbind	unbound	unbound	yechmoq, bo'shatmoq
unbuild	unbuilt	unbuilt	buzmoq, qulatmoq, vayron qilmoq
underbid	underbid	underbid/ underbidden	narxni tushirmoq
underdo	underdid	underdone	ishni chala bajarmoq
undergo	underwent	undergone	boshdan (o'tkazmoq) kechirmoq
underlet	underlet	underlet	arzon narxda ijara beromoq
underlie	underlay	underlain	(nimaningdir) ostida yotmoq
underpay	underpaid	underpaid	kam baq to'lamoq
underrun	underran	underrun	(nimaningdir) ostidan o'tib ketmoq
undershoot	undershot	undershot	mo'ljalga yetkazmay otmoq
understand	understood	understood	tushunmoq
undertake	undertook	undertaken	kirishmoq
underwrite	underwote	underwritten	qo'l qo'yemoq, imzo chekmoq
undo	undid	undone	yechmoq; yo'q qilmoq
undraw	undrew	undrawn	surmoq; siljitmoq; ochmoq (<i>asosan, pardani</i>)
unknit	unknitted/unknit	unknitted/unknit	(<i>to'qilgan narsani</i>) yechmoq
unlade	unladed	unladed/unladen	yukni tushirmoq, yukdan bo'shat- moq
unlay	unlaid	unlaid	eshilgan (chiyralgan) trosni yech- moq
unmake	unmade	unmade	(<i>yasalgan narsani</i>) buzmoq

